İSTANBUL TİCARET ÜNİVERSİTESİ

ScienceInnovation

OLIY TA’LIM TIZIMIDA TALABA-QIZLARNI IJTIMOIY QO‘LLAB-QUVVATLASH VA OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH:

GENDER TENGLIK, MILLIY TAJRIBA VA XALQARO HAMKORLIK IMKONIYATLARI

XALQARO AMALIY KONFERENSIYA

MATERIALLAR TO‘PLAMI

II

17-18-NOYABR, 2025-YIL

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O‘ZBEK XOTIN-QIZLAR HUQUQLARNI HIMOYA QILISH JAMIYATI (TURKIYA)

“SCIENCE AND INNOVATION” XALQARO ILMIY JURNALI

ISTANBUL TIJORAT UNIVERSITETI

“OLIY TA’LIM TIZIMIDA TALABA-QIZLARNI IJTIMOIY QO‘LLAB-QUVVATLASH VA OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH: GENDER TENGLIK, MILLIY TAJRIBA VA XALQARO HAMKORLIK IMKONIYATLARI” MAVZUSIDAGI XALQARO AMALIY KONFERENSIYA

MATERIALLAR TO‘PLAMI

2025-yil 17-18-noyabr
2-qism

COLLECTION OF MATERIALS

OF THE INTERNATIONAL PRACTICAL CONFERENCE ON THE TOPIC “SOCIAL SUPPORT AND PREPARATION FOR FAMILY LIFE FOR FEMALE STUDENTS IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM: GENDER EQUALITY, NATIONAL EXPERIENCE AND OPPORTUNITIES FOR INTERNATIONAL COOPERATION”

November 17-18, 2025
Part 2

Toshkent – 2025

ISSN: 2181-3337

“Oliy ta’lim tizimida talaba-qizlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va oilaviy hayotga tayyorlash: Gender tenglik, milliy tajriba va xalqaro hamkorlik imkoniyatlari” mavzusidagi xalqaro amaliy konferensiya materiallar to‘plami, 2-qism (2025-yil 17-18-noyabr) – T.: Science and Innovation, 2025.

Nashr etishda qatnashganlar:

Baxtiyor Rustamov, Gulira’no Rakhmatullayeva, Kozim Ergashov, Mansur Suyunkulov, Feruza Ollamurodova, Dilnoza Narzullayeva, Zulayxo Xakimova, Iqboloy Sobirova, Asila Khaydaraliyeva

Tahririyat hay’ati a’zolari

Q.Sharipov *– O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri*
B.Abdullayev *– O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining Fan, ta’lim va sog‘liqni saqlash qo‘mitasi raisi*
D. Solixodjayeva *– O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bosh mutaxassisi*
S.Siddiqova *– Buxoro davlat universiteti rektori*
Necip Şimşek *– Istambul Tijorat universiteti rektori (Turkiya)*
Ayşe Nur Çoban *– Turkiya Respublikasi Oila va ijtimoiy xizmatlar vazirligi qoshidagi Oila instituti direktori*
Ayşen Baylak Güngör *– Istanbul Tijorat Universiteti Ayol va Oila Masalalari bo‘yicha Tadqiqot va Amaliyot Markazi direktori*
Canan Sarı *– KADEM Boshqaruv Kengashi raisi (Turkiya)*
Esra Özdil Gümüş *– KADEM Boshqaruv Kengashi a’zosi (Turkiya)*
O.Islamova *– O‘zbek xotin–qizlar huquqlarini himoya qilish jamiyati rahbari (Turkiya)*
O.Musurmonova *– “Oila va gender” ilmiy–tadqiqot instituti direktori o‘rinbosari, pedagogika fanlari doktori, professor*
Jamoldinova *– pedagogika fanlari doktori, professor*
Z.Ismailova *– pedagogika fanlari doktori, professor*
A.Magauova *– pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog‘iston)*
T.Egamberdiyeva *– pedagogika fanlari doktori, professor*
M.Mirsoliyeva *– pedagogika fanlari doktori, professor*
Güllü Buzunoğlu *– Istambul Tijorat universiteti, Ph.D. (Turkiya)*

© O‘zbek xotin-qizlar huquqlarni himoya qilish jamiyati
© “Science and Innovation” xalqaro ilmiy jurnali
© Mualliflar

SO‘ZBOSHI

Assalomu alaykum hurmatli anjuman ishtirokchilari! Xonimlar va janoblar!

Bugungi Buxoro texnika universitetida o‘tkazilayotgan **“Turkiya va O‘zbekistonda oilani mustahkamlashga asoslangan davlat siyosati”** mavzusida tashkil etilgan Xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda ishtirok etayotganimdan juda xursandman.

Tadbir mamlakatlarimiz o‘rtasidagi do‘stlik va strategik sheriklik rishtalarini yanada chuqurlashtirish, oila institutini qo‘llab-quvvatlash va uning barqaror rivojlanishini ta’minlash borasidagi umumiy maqsadlarimizni yana bir bor tasdiqlaydi.

Turkiya va O‘zbekistonni asriy tarix, madaniy yaqinlik va ma’naviy qadriyatlar bog‘lab turadi. Ana shu mushtarak merosimizda oila, uning barqarorligi va ma’naviy salomatligi jamiyat taraqqiyotining asosiy ustuni sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois, har ikki mamlakatda oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, bolalarning sog‘lom va sof muhitda ulg‘ayishi uchun zamin yaratish davlat siyosatida ustuvor o‘rinni egallaydi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz yoshlarini tarbiyalash masalasiga to‘xtalib, “Men bir fikrni qayta-qayta aytishdan charchamayman. Oila - bu mehr va baxt qo‘rg‘oni. Oila bor ekan, farzand degan bebaho ne’mat bor, insoniy qadr-qimmat va ma’naviyat bor. Oilaviy baxt bu-eng ulug‘ saodatdir. Men yigit-qizlarimizga murojaat qilib, aytmoqchiman: turmush qurishga, oilaga, farzand taqdiriga nihoyatda chuqur mas’uliyat bilan qarang. Bu masalaga yuzaki yondashib, ham o‘zingiz, ham o‘zga bir inson hayotini xavf ostiga qo‘ymang. Men bu borada ko‘pni ko‘rgan mahalla faollari, muhtaram kayvonilar, ma’naviyatimiz va dinimiz fidoiylari, o‘z tengdoshlariga ibrat bo‘lib kelayotgan yoshlarimiz bir yoqadan bosh chiqarib harakat qiladilar, deb ishonaman” deb ta’kidlaganlari ham bejiz emas.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda oila institutini mustahkamlash yo‘nalishida kompleks islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida bugungi kunda **1 678 893** nafar talabalar tahsil olmoqda. Ulardan **894983** nafarini **(53.31%)** talaba-qizlar tashkil etadi. **196, 382** nafar oilali talabalar shundan **122 788** nafari farzandli talabalar. Ularning ta’lim olishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

Xususan, ta’lim muassasalari “Yoshlarni oilaga tayyorlash” maxsus kurslari o‘tkazilmoqda. Yosh farzandi bor talabalar va xodimlar uchun ta’lim muassasalarida barcha qulayliklarga ega “Ona-bola” xonalari tashkil etilgan. “Ona-bola” xonalarida kichik yoshdagi bolasi bo‘lgan onalar darslar orasida bolani uxlatishi, emizishi, ovqatlantirishi yoki parvarish qilish uchun qulay muhit hisoblanadi. 4 ta oliy ta’lim muassasasida yosh farzandi bor talabalarning farzandlari uchun maktabgacha ta’lim tashkiloti tashkil qilingan. Ularda oilali talabalar va xodimlarning farzandlari imtiyozli ravishda tarbiyalanadi.

Bu imkoniyat va imtiyozlar oilali talabalar va xodimlarning ta’lim olish va mehnat faoliyatida uzilishlarsiz ishtirok etishini ta’minlaydi.

Biz bu borada Turkiya Respublikasining boy tajribasini yuqori baholaymiz va uning amaliyotdagi samarali modellari biz uchun qimmatli o‘rnak bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi anjumanning ahamiyati ham shundaki — u bizni samarali muloqot, ilmiy va amaliy fikr almashinuv, o‘zaro tajribani chuqurroq o‘rganish uchun qo‘shma maydonga to‘plamoqda. Oila institutini mustahkamlash masalasi o‘z mohiyatiga ko‘ra ko‘p qirrali bo‘lib, ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya, huquqiy madaniyat, axborot siyosatidan tortib, keng

ma’naviy muhitgacha bog‘liq masalalarni qamrab oladi. Bu sohadagi har bir yutuq, boshqa sohalarda ham ijobiy natijalarga erishishga xizmat qiladi.

Ishonchim komilki, ushbu konferensiya orqali Turkiya va O‘zbekiston o‘rtasidagi do‘stona munosabatlar yanada mustahkamlanadi, hamkorligimiz yangi amaliy tashabbuslar va istiqbolli loyihalar bilan boyiydi. Bizning umumiy maqsadimiz — barqaror, ma’naviy sog‘lom, qonunlar va qadriyatlar uyg‘unligida yashaydigan oilalarni ko‘paytirishdir. Bu yo‘lda birgalikdagi harakatlarimiz albatta samarali natijalar beradi, deb ishonaman.

Anjumanning ishini samarali o‘tishini tilab, barchalaringizga sog‘lik va ijodiy muvaffaqiyatlar tilayman.

E’tiborlaringiz uchun rahmat!

K.Sharipov

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri

3-SHO‘BA

OLIY TA’LIM TASHKILOTLARIDA QO‘LLAB-QUVVATLASH VA INKLYUZIV TA’LIM MUHITINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK, PEDAGOGIK JIHATLARI

* * *

SOCIO-PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL ASPECTS OF SUPPORTING AND CREATING AN INCLUSIVE EDUCATIONAL ENVIRONMENT IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

* * *

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОДДЕРЖКИ И СОЗДАНИЯ ИНКЛЮЗИВНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

ZAMONAVIY TA’LIMDAGI PEDAGOGNING O‘QUVCHIGA PSIXOLOGIK YONDASHUVI

M.R. Aliyeva[1], M.I. Aliyeva[2], B.A. Abdullayeva[2]
[1]Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti, [2]Toshkent kimyo-texnologiya unstituti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17623634

Annotatsiya. *Zamonaviy ta'lim tizimi, o‘zgaruvchan dunyo sharoitida yanada dinamik va ko‘p qirrali bo‘lib bormoqda. Shuning uchun ta'limda pedagoglarning roli faqat bilim berish bilan cheklanmaydi. Bugungi kunda pedagogning asosiy vazifalaridan biri – o‘quvchining ruhiy, emotsional va psixologik holatini to‘g‘ri tushunish va unga mos ravishda ta'lim jarayonini tashkil etishdir.*

Аннотация. *Современная система образования становится всё более динамичной и многогранной в условиях меняющегося мира. Поэтому роль педагогов в образовании не ограничивается передачей знаний. Сегодня одна из главных задач педагога — правильно понимать духовное, эмоциональное и психологическое состояние обучающегося и соответствующим образом организовывать образовательный процесс.*

Abstract. *The modern education system is becoming increasingly dynamic and multifaceted in a changing world. Therefore, the role of teachers in education is not limited to the transmission of knowledge. Today, one of the main tasks of a teacher is to accurately understand the spiritual, emotional, and psychological state of the student and organize the educational process accordingly.*

Kalit so‘zlar: *Zamonaviy ta'lim tizimi, pedagog, pedagogika, psixologiya, o‘quvchi shaxs, An`anaviy ta'lim, psixologik simbioz, intellect, yondashuv, bilish, emotsional, ruhiy holati, ehtiyojlari, qobiliyati.*

Ключевые слова: *Современная система образования, учитель, педагогика, психология, личность ученика, традиционное образование, психологический симбиоз, интеллект, подход, знания, эмоциональное, психическое состояние, потребности, способности.*

Key words: *Modern education system, teacher, pedagogy, psychology, student personality, Traditional education, psychological symbiosis, intelligence, approach, knowledge, emotional, mental state, needs, abilities.*

Pedagogning psixologik yondashuvi, o‘quvchi shaxsining rivojlanishini, uning potentsialini amalga oshirishini va muvaffaqiyatli ta'lim olishini ta'minlaydi. Ushbu maqolada pedagogning o‘quvchiga psixologik yondashuvini zamonaviy nuqtai nazardan ko‘rib chiqib, yangi g‘oya va fikrlarni ilgari surish maqsad qilingan.

Pedagogning psixologik yondashuvi, o‘quvchi shaxsining rivojlanishini, uning potentsialini amalga oshirishini va muvaffaqiyatli ta'lim olishini ta'minlaydi. Ushbu maqolada pedagogning o‘quvchiga psixologik yondashuvini zamonaviy nuqtai nazardan ko‘rib chiqib, yangi g‘oya va fikrlarni ilgari surish maqsad qilingan.

1. Pedagog va o‘quvchi: Yangi Psixologik Simbiotik munosabat.

An`anaviy ta'limda pedagog ko‘pincha “bilim manbai” sifatida qaraladi, o‘quvchi esa passiv qabul qiluvchi sifatida ko‘rilgan. Zamonaviy ta'limda esa bu munosabat simbiotik tarzda,

ya'ni ikki tomonlama o‘zaro ta'sir sifatida shakllanadi. Pedagog nafaqat o‘quvchiga bilim beruvchi, balki o‘quvchining ichki dunyosini tushunib, unga moslashadigan, uning ehtiyojlariga javob beradigan shaxs sifatida qaraladi. Bunday munosabatni "psixologik simbioz" deb atash mumkin. Bu yondashuvda pedagog o‘quvchining ruhiy holati, qobiliyatlari va ijtimoiy xususiyatlariga e'tibor qaratadi, uning ichki dunyosini hurmat qilib, o‘quvchini tan olishga intiladi.

2. O‘quvchining Emotsional Intellekti: Psixologik yondashuvning asosi.

Zamonaviy pedagogika nafaqat intellektual bilimlarni, balki emotsional intellektni rivojlantirishga ham katta ahamiyat beradi. O‘quvchilarni faqat matematik formulalar yoki tarixiy faktlar bilan emas, balki ularning hissiy holatini, o‘zaro munosabatlarini va boshqalar bilan qanday muloqot qilishini o‘rgatish zarur. Pedagogning vazifasi – o‘quvchini o‘z emotsiyalarini tushunishga va ular bilan ishlashga o‘rgatishdir. Masalan, o‘quvchi stress, xavotir yoki tushkunlik holatida bo‘lsa, pedagog uni qanday qilib o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish, muammolarni hal qilish va ijtimoiy muhitga moslashish bo‘yicha qo‘llab-quvvatlashi kerak.

O‘quvchining emotsional intellekti yuqori bo‘lsa, bu uning nafaqat o‘qishdagi muvaffaqiyatini, balki ijtimoiy va shaxsiy hayotidagi muvaffaqiyatini ham oshiradi. Bu esa pedagogning asosiy vazifalaridan biri – o‘quvchining emotsional holatini anglash va unga mos tarzda yondashish kerakligini ta'kidlaydi.

3. O‘quvchi-Mentoring Munosabati: "Psixologik insoniy yordam".

Zamonaviy pedagogning yana bir psixologik yondashuvi – mentoring va coaching metodlarini qo‘llashdir. Pedagog o‘quvchining faqat ilmiy qobiliyatlarini rivojlantiribgina qolmasdan, uning shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi, unga motivatsiya beradi va psixologik yordam ko‘rsatadi. Buning asosiy tamoyili – o‘quvchining o‘zini anglash, o‘z qobiliyatlari va imkoniyatlarini kashf qilishiga yordam berishdir.

Bu yondashuvda pedagog o‘quvchiga o‘zini yaxshi bilishga, muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsizliklardan saboq olishga yordam beradi. Bunday pedagoglar o‘quvchilari uchun psixologik yordami bilan o‘quvchining ichki potentsialini ochishga xizmat qiladi. O‘quvchining o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish uchun pedagog uni ijobiy motivatsiya va rag‘batlantirishlar bilan qo‘llab-quvvatlaydi.

4. O‘quvchi-yosh psixologik o‘zgarishlar: Pedagogning psixologik moslashuvi.

Pedagog o‘quvchining yoshiga, uning psixologik o‘zgarishlar bosqichlariga ham mos ravishda yondashishi lozim. Yosh o‘quvchilar (7-12 yosh) uchun pedagog, ko‘proq hissiy va ijtimoiy yondashuvlardan foydalanishi zarur, chunki bu davrda o‘quvchilar ko‘proq o‘zlarini tanishga, o‘z hissiyotlari va boshqalar bilan munosabatlarini o‘rganishga moyil bo‘ladi. O‘quvchining o‘ziga bo‘lgan ishonchi va o‘zini anglash jarayoni rivojlanayotgan davrda, pedagog har bir bolaga individual tarzda yondashish, ular uchun maxsus strategiyalar ishlab chiqish orqali natijalarga erishishi mumkin.

Yuqori sinf o‘quvchilari (15-18 yosh) esa o‘zlariga mustaqil qarorlar qabul qilishga va kelajakdagi maqsadlarini aniqlashga harakat qiladilar. Bu yoshdagi o‘quvchilar uchun pedagogning psixologik roli ularni kelajakdagi hayotga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Pedagog ularni o‘zlarining potentsialini to‘liq anglash va rivojlantirishga, hayotdagi qiyinchiliklarga qarshi turishga, xatolardan saboq olishga undashi kerak.

Zamonaviy ta'limda pedagogning o‘quvchiga psixologik yondashuvi ta'lim jarayonining muvaffaqiyatli va samarali bo‘lishi uchun muhim ahamiyatga ega. Pedagogning psixologik yondashuvi o‘quvchining ruhiy holati, ehtiyojlari, qobiliyatlari va shaxsiy xususiyatlarini

hisobga olishni taqozo etadi. Shu bilan birga, bu yondashuv o‘quvchining rivojlanishiga, o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirishga, ta'lim jarayonida faol ishtirok etishga yordam beradi.

1. O‘quvchining psixologik holatini tushunish - Pedagog o‘quvchining ruhiy va emotsional holatini doimiy ravishda tahlil qilishi kerak. Har bir o‘quvchi o‘zining individual psixologik xususiyatlariga ega, shuning uchun ta'lim jarayonida har bir o‘quvchining ehtiyojlari, qiziqishlari va qobiliyatlari hisobga olinishi lozim. Bunga:

- O‘quvchining stress darajasi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi va motivatsiyasi

-O‘quvchining ijtimoiy munosabatlari, sinfdagi o‘zaro aloqalar

-O‘quvchining o‘ziga xos o‘qish uslubi (masalan, vizual, audial yoki kinestetik o‘quvchi)

2. Individuyal yondashuv - O‘quvchilarning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega, shuning uchun har biriga individual yondashuv talab etiladi. Pedagog o‘quvchining shaxsiy xususiyatlarini, ehtiyojlarini va o‘quv uslublarini inobatga olgan holda darslarni tashkil etishi zarur. Bu o‘quvchini rag‘batlantiradi, ularni o‘qish jarayonida faollashtiradi va o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi.

3. Ruhiy-barqarorlik yaratish - Zamonaviy pedagogika o‘quvchining psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, o‘qish jarayonini barqaror va xavfsiz muhitda tashkil qilishga intiladi. Pedagog o‘quvchiga ishonchli, qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratishi, ularni faol ishtirok etishga undashi kerak. Bunda ijobiy va salbiy fikrlarni o‘z vaqtida bildirish, o‘quvchining rivojlanishiga to‘g‘ri yo‘nalish berish muhimdir.

4. Komunikatsiya va psixologik treninglar - Pedagog o‘quvchilari bilan to‘g‘ri va ochiq kommunikatsiyani o‘rnatishi lozim. Buning uchun psixologik treninglar va muloqot metodlarini ishlatish samarali bo‘lishi mumkin. Bu o‘quvchining hissiy va intellektual rivojlanishiga yordam beradi va ularni yanada mustahkam psixologik holatda bo‘lishiga imkon yaratadi.

5. Motivatsiya yaratish - O‘quvchining motivatsiyasini oshirish uchun pedagog uning qiziqishlarini va ehtiyojlarini tahlil qilish orqali darslarni qiziqarli va maqsadli tashkil etadi. Shuningdek, o‘quvchining muvaffaqiyatlari va yutuqlari uchun ijobiy feedback berish, muvaffaqiyatsizliklarga esa qo‘llab-quvvatlovchi yondashuvni tanlash zarur.

6. O‘z-o‘zini anglash va rivojlanish - Pedagog o‘quvchilarga o‘z his-tuyg‘ularini anglash, o‘zini tushunish va rivojlantirish imkonini berishi kerak. Bu, ayniqsa, yosh o‘quvchilarda o‘z-o‘zini qadrlash, mustaqillik va o‘z fikrini ifodalashni rivojlantirishda muhimdir.

Xulosa

Zamonaviy ta'limda pedagogning psixologik yondashuvi o‘quvchining ta'limga bo‘lgan munosabatini, o‘ziga bo‘lgan ishonchini va rivojlanishini shakllantiradi. Bu yondashuv, o‘quvchining individual xususiyatlarini inobatga olish, uni rag‘batlantirish va uning psixologik salomatligini yaxshilashga qaratilgan bo‘lishi kerak. Bu orqali o‘quvchining muvaffaqiyatli o‘qishi, o‘zgaruvchan muhitda moslashishi va kelajakda muvaffaqiyatga erishishi ta'minlanadi.

Zamonaviy ta'limdagi pedagogning psixologik yondashuvi o‘quvchining nafaqat intellektual, balki emotsional va ijtimoiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Bugungi pedagog o‘quvchi uchun nafaqat bilim beruvchi, balki uning ichki dunyosini anglashga va unga moslashishga intiluvchi "mentor" va "yaratuvchi" sifatida qaralishi zarur. Pedagogik yondashuvni zamonaviy psixologik nazariyalar bilan boyitish, o‘quvchining muvaffaqiyatli va sog‘lom rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF–5712-sonli Farmoni — “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”.
2. Xolmatova, D., & Karimov, S. (2022). Ta’lim jarayonida pedagogik va psixologik yondashuvlar. – Toshkent: TDPU ilmiy to‘plami.
3. Nabiyeva, G. (2023). O‘quvchilar psixologiyasiga individual yondashuvning ahamiyati. – “Ta’lim va innovatsiya” ilmiy jurnali, №3.
4. G‘anieva, M. (2020). Zamonaviy ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish agentligi

TALABA-QIZLAR IJTIMOIY MOSLASHUVINI RIVOJLANTIRISHDA INKLYUZIV TA’LIMNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Ozoda Anorqulova
Samarqand davlat pedagogika instituti xotin-qizlar masalalari bo‘yicha rektor maslahatchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17623640

Annotatsiya: *Mazkur maqolada talaba-qizlarning o‘zini anglash va ijtimoiy moslashuv jarayonlarida inklyuziv ta’limning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Inklyuziv yondashuvning shaxsga yo‘naltirilgan, differensial va qo‘llab-quvvatlovchi xususiyatlari asosida talaba-qizlarning shaxsiy va ijtimoiy faolligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari yoritiladi. Maqolada O‘zbekiston ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar, xorijiy mamlakatlar (Finlyandiya, Kanada, Turkiya va Janubiy Koreya) tajribalari, shuningdek, amaliy statistik ma’lumotlar asosida tahliliy xulosalar keltirilgan. Tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarida talaba-qizlarni psixologik va pedagogik qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga, inklyuziv ta’limni rivojlantirish orqali ularning o‘zini anglash va ijtimoiy moslashuvini kuchaytirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *inklyuziv ta’lim, talaba-qizlar, o‘zini anglash, ijtimoiy moslashuv, pedagogik imkoniyatlar, psixologik qo‘llab-quvvatlash, gender tenglik, o‘qituvchi kompetensiyasi, mentorlik tizimi, ta’lim muhiti, ijtimoiy integratsiya*

Аннотация*. В данной статье анализируются педагогические возможности инклюзивного образования в процессе самопознания и социальной адаптации студенток. На основе личностно-ориентированного, дифференцированного и поддерживающего подходов раскрыты научно-теоретические основы развития личной и социальной активности студенток. В статье представлены аналитические выводы, основанные на реформировании системы образования Узбекистана, а также на опыте зарубежных стран (Финляндии, Канады, Турции и Республики Корея) и практических статистических данных. Результаты исследования направлены на совершенствование системы психологической и педагогической поддержки студенток в высших учебных заведениях и укрепление их самопознания и социальной адаптации посредством развития инклюзивного образования.*

Ключевые слова: *инклюзивное образование, студентки, самопознание, социальная адаптация, педагогические возможности, психологическая поддержка, гендерное равенство, компетентность преподавателя, система наставничества, образовательная среда, социальная интеграция.*

Abstract. *This article analyzes the pedagogical potential of inclusive education in the process of self-awareness and social adaptation of female students. Based on the person-centered, differentiated, and supportive characteristics of the inclusive approach, the scientific and theoretical foundations for developing the personal and social activity of female students are examined. The article presents analytical conclusions drawn from ongoing educational reforms in Uzbekistan, the experiences of foreign countries (Finland, Canada, Turkey, and South Korea), as well as practical statistical data. The research results contribute to improving the system of psychological and pedagogical support for female students in higher education institutions and*

to strengthening their self-awareness and social adaptation through the development of inclusive education.

Keywords: *inclusive education, female students, self-awareness, social adaptation, pedagogical opportunities, psychological support, gender equality, teacher competensia, mentoring system, educational environment, social integration.*

Globallashuv va ijtimoiy o‘zgarishlar davrida ta’lim tizimi inson salohiyatini to‘liq ochib berish, har bir talabaning shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, teng imkoniyatli ta’lim muhitini shakllantirish bilan bog‘liq vazifalarni bajaradi. Oliy ta’lim tizimi shunchaki bilim beruvchi tizim emas, balki ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlovchi, shaxsni ijtimoiylashtiruvchi muhitdir. Ayniqsa, talaba-qizlar uchun bu jarayonning ahamiyati yanada kattadir. Chunki ularning o‘zini anglash, o‘ziga bo‘lgan ishonch va ijtimoiy moslashuv darajasi kelgusidagi kasbiy muvaffaqiyat hamda jamiyatdagi faol ishtirokini belgilaydi.

Inklyuziv ta’lim tamoyili – har bir shaxs, jinsidan, sog‘lig‘idan, ijtimoiy kelib chiqishidan qat’iy nazar, sifatli ta’lim olishga teng imkoniyatga ega bo‘lishi zarurligini ta’kidlaydi. Shu bois, oliy ta’lim tizimida talaba-qizlarning o‘zini anglashini qo‘llab-quvvatlovchi va ularning ijtimoiy moslashuviga yordam beruvchi inklyuziv pedagogik muhitni yaratish bugungi kunning dolzarb masalasidir.

O‘zini anglash bu shaxsning o‘z qobiliyati, qadri, imkoniyatlari va ijtimoiy roli to‘g‘risidagi tasavvurlar tizimidir. Psixolog A.Banduraning "o‘ziga-o‘zi samaradorlik" nazariyasiga ko‘ra, inson o‘z kuchiga ishonchni his qilgan sari muvaffaqiyatga erishish ehtimoli ortadi. Oliy ta’lim muhitida bu jarayon, ayniqsa, talaba – qizlar uchun muhim, chunki ko‘plab ijtimoiy stereotiplar ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini pasaytiradi.

Ijtimoiy moslashuv esa talabaning yangi muhitga kirib borishi, guruhdagi rollarni egallashi, kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishi bilan bog‘liq. Oliy ta’limda bu – yangi akademik talablar, turli madaniyatdagi talabalar bilan muloqot, mustaqil hayotga tayyorlanish jarayonidir. Ijtimoiy moslashuv darajasi past bo‘lgan talaba ko‘pincha stress, izolyatsiya, o‘qishga bo‘lgan motivatsiyaning kamayishi kabi muammolarga duch keladi.

Inklyuziv ta’lim faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun mo‘ljallangan tizim emas. U har bir talabaning ehtiyojini inobatga olib, o‘qitish jarayonini moslashtirishni nazarda tutadiga ta’lim shaklidir. Bu yondashuvning pedagogik imkoniyatlari quyidagilardan iborat:

1. **Individual yondashuvni kuchaytirish.** Har bir talabaning o‘quv sur’ati, uslubi, psixologik xususiyatlariga qarab o‘qitish imkonini beradi.
2. **Qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish.** Pedagogik-psixologik xizmat, mentorlik tizimi, talaba maslahat markazlari orqali qizlarning o‘zini anglashiga yordam beradi.
3. **Ijtimoiy integratsiya.** Turli ijtimoiy qatlam, millat va jins vakillari o‘rtasida o‘zaro hurmat, empatiya va hamkorlikni rivojlantiradi.
4. **O‘z-o‘zini rivojlantirishga undovchi sharoit.** O‘zini anglash darajasi oshgan sari, talaba o‘z o‘rni va maqsadini aniqroq tushunadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-sentabrdagi PQ–5251-son qarorida ham oliy ta’limda inklyuziv ta’limni rivojlantirish, nogironligi bo‘lgan shaxslar va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni ta’lim tizimiga keng jalb qilish zarurligi alohida qayd etilgan.

O‘zbek jamiyatida talaba-qizlar ko‘pincha ikki yo‘nalishda ijtimoiy bosimga duch keladi: bir tomondan, oilaviy an’analar, ikkinchi tomondan, zamonaviy ta’lim talablariga moslashuv.

Shuning uchun ularning psixologik qo‘llab-quvvatlanishi, ijtimoiy faolligini oshirish inklyuziv yondashuv asosida tashkil etilishi lozim.

Pedagogik jihatdan bu quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- mentorlik va murabbiylik tizimini kuchaytirish;
- “talaba-qizlar klublari”, psixologik treninglar va ijtimoiy loyihalar orqali o‘zini anglashga sharoit yaratish;
- ta’lim jarayonida differensial yondashuv, jamoaviy o‘rganish uslublarini qo‘llash;
- o‘qituvchilarni gender tenglik va inklyuziv ta’lim bo‘yicha qayta tayyorlash.

Xorijiy mamlakatlarda inklyuziv yondashuv nafaqat nogironligi bor shaxslarga, balki ayollar va ijtimoiy kam imkoniyatlilarga ham qaratilgan.

- **Finlyandiya**da oliy ta’lim tizimida “teng imkoniyatlar kafolati” dasturi mavjud bo‘lib, unda har bir talaba, shu jumladan talaba-qizlar uchun akademik maslahatchi biriktiriladi.
- **Kanada**da universitetlarda “Women in Leadership” va “Inclusive Campus Program” loyihalari orqali qizlarning o‘zini anglash, ijtimoiy faoliyat va yetakchilik ko‘nikmalari rivojlantiriladi.
- **Janubiy Koreya**da esa “Self-Efficacy Enhancement Model” dasturi doirasida talaba-qizlarning o‘z-o‘zini baholash va motivatsiyasini oshirishga qaratilgan treninglar o‘tkaziladi.
- **Turkiya**dagi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv ta’lim haqida ayol o‘qituvchi nomzodlarning xabardorlik darajasi erkaklarnikiga nisbatan ancha yuqori ($p<0,05$), bu esa qizlarning inklyuziv qadriyatlarni chuqurroq qabul qilayotganini anglatadi.

Oliy ta’limda gender muvozanati oxirgi yillarda ijobiy o‘zgarishlarni ko‘rsatmoqda. OECD (2025) ma’lumotlariga ko‘ra ushbu muvozanat 25-34 yoshdagi bakalavr darajasiga ega bo‘lganlar orasida ayollar 57 foizni tashkil qiladi, biroq doktorantura bosqichida bu ko‘rsatkich 49 foizgacha kamayadi.

O‘zbekistonda esa so‘nggi o‘n yillikda qizlarning oliy ta’limga kirish darajasi sezilarli o‘sgan. 2010-yilda talaba-qizlar ulushi 37,4% bo‘lgan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 47,8% gacha yetgan. Gender tafovuti 9,6% gacha qisqargan. Shu bilan birga, ayrim texnik va STEM yo‘nalishlarida hali ham ayollar ishtiroki past – 2023-yil holatiga ko‘ra atigi 18%. Bu esa pedagogik inklyuziya va motivatsion dasturlarning ahamiyati yuqori ekanligi hamda ularning ko‘lamini kengaytirishga ehtiyoj borligini ko‘rsatadi.

Oliy ta’lim tizimida talaba-qizlarning o‘zini anglash va ijtimoiy moslashuvini rivojlantirish, avvalo, nazariy yondashuvlardan tashqari amaliy mexanizmlarni ham talab etadi. Inklyuziv ta’limning muvaffaqiyati ta’lim jarayonida har bir talabaning shaxsiy ehtiyojlarini inobatga olish, individual va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini yaratish bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu nuqtayi nazardan, oliy ta’lim muassasalarida mavjud pedagogik amaliyotlar, psixologik xizmatlar va tarbiyaviy faoliyatlarni inklyuziv yondashuv asosida takomillashtirish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Maqolada olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, talaba – qizlarning ijtimoiy faolligi va o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish uchun ularni bevosita o‘zini anglashga, yetakchilik va kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltiruvchi sharoitlarni yaratish zarur. Buning uchun oliy ta’lim muassasalarida psixologik, pedagogik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning yagona tizimini shakllantirish, mentorlik dasturlarini joriy etish, raqamli ta’lim imkoniyatlaridan keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida keltirilgan amaliy tavsiyalar talaba-

qizlarning o‘zini anglashini chuqurlashtirish, ijtimoiy moslashuvini mustahkamlash hamda inklyuziv ta’lim muhitini yanada takomillashtirishga qaratilgan:

1. **Psixologik qo‘llab-quvvatlash markazlari** – har bir oliy ta’lim muassasasida talaba-qizlarga mo‘ljallangan maslahat, trening va psixologik yordam xizmatlarini kuchaytirish.
2. **Mentorlik tizimini rivojlantirish** – tajribali ayol pedagoglar yoki bitiruvchilarni yosh qizlarga murabbiy sifatida biriktirish.
3. **Ijtimoiy loyihalar** – talaba-qizlarni jamoaviy faoliyatga, ijtimoiy tadbirkorlikka jalb etish orqali o‘zini anglashni mustahkamlash.
4. **Pedagog kadrlarni tayyorlashda inklyuzivlikni o‘rgatish** – o‘qituvchilar uchun “gender sezgir pedagogika”, “empatik muloqot” kabi modullar joriy etish.
5. **Raqamli muhitdan foydalanish** – qizlar uchun onlayn ta’lim, masofaviy kurslar va maslahat platformalarini yo‘lga qo‘yish.

Talaba-qizlarning o‘zini anglash va ijtimoiy moslashuvini rivojlantirish faqat psixologik emas, balki pedagogik va ijtimoiy jarayondir. Inklyuziv ta’lim yondashuvi bu jarayonni tizimli qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi. Har bir talaba-qiz o‘zini qadrlagan, imkoniyatlariga ishongan, jamoada faol ishtirok etuvchi shaxsga aylanishi uchun oliy ta’lim muassasalari inklyuziv muhitni ongli ravishda shakllantirishi zarur.

Xulosa qilib aytganda chet el tajribalari va milliy sharoitlarni uyg‘unlashtirib, ta’lim tizimida individual yondashuv, mentorlik, psixologik yordam va gender tengligini ta’minlash orqali talaba-qizlarning ijtimoiy moslashuvi va o‘zini anglash darajasini sezilarli oshirish mumkin. Shu yo‘l bilan inklyuziv ta’lim haqiqiy ma’noda har bir talabaning shaxsiy va kasbiy kamolotini ta’minlovchi pedagogik mexanizmga aylanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Bandura A. *Self-efficacy: The exercise of control.* – New York: W.H. Freeman and Company, 1997. – 604 b.
2. Booth T., Ainscow M. *The Index for Inclusion: Developing Learning and Participation in Schools.* – Bristol: Centre for Studies on Inclusive Education (CSIE), 2011. – 130 b.
3. OECD. *Gender Equality in a Changing World.* – Paris: OECD Publishing, 2025. – 180 b.
4. Rogers C. *On Becoming a Person: A Therapist’s View of Psychotherapy.* – Boston: Houghton Mifflin, 1961. – 420 b.
5. Saidova G. *Talaba-qizlarning ijtimoiy moslashuvini ta’minlashda pedagogik yondashuvlar.* – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2022. – 142 b.
6. Shodiyeva M. *Oliy ta’limda inklyuziv muhitni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari.* – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 168 b.
7. Turdiyeva N. *Inklyuziv ta’lim asoslari: nazariya va amaliyot.* – Toshkent: O‘qituvchi, 2021. – 190 b.
8. UNESCO IESALC. *Women in Higher Education: Has the Female Advantage Put an End to Gender Inequalities?* – Paris: UNESCO, 2021. – 110 b.

ВЛИЯНИЕ ПИТАНИЯ НА ЗДОРОВЬЕ ЗУБОВ И ПОЛОСТИ РТА

Атаханова Гулхаё Гайратовна
Студентка Университета Ранч технологии
https://doi.org/10.5281/zenodo.17623646

Аннотация. *Питание является одним из ключевых факторов, определяющих состояние здоровья человека, в том числе состояние зубов и мягких тканей полости рта. Современные изменения в рационе (увеличение потребления свободных сахаров, рост доступности переработанных продуктов) связаны с увеличением нагрузки на стоматологические службы и распространённостью кариеса и заболеваний пародонта. Цель данной статьи — обобщить современные данные о влиянии основных пищевых компонентов и пищевых привычек на развитие стоматологических заболеваний и представить рекомендации для профилактики.*

Ключевые слова. *Профилактика, сахар, фтор, кариес, кальций, рацион, профессиональный, кислый, витамин, продукт, пародонт, стоматолог.*

Abstract. *Nutrition is a key factor determining human health, including the condition of teeth and oral soft tissues. Modern changes in diet (increased consumption of free sugars and the increased availability of processed foods) are associated with an increased burden on dental services and the prevalence of dental caries and periodontal disease. The purpose of this article is to summarize current data on the influence of key dietary components and dietary habits on the development of dental diseases and to provide recommendations for prevention.*

Keywords: *Prevention, sugar, fluoride, caries, calcium, diet, professional, acidic, vitamin, product, periodontium, dentist.*

Материалы и методы

В работе выполнен краткий аналитический обзор публикаций и справочных материалов: документы ВОЗ и профессиональных ассоциаций, систематические обзоры и обзорные статьи по роли сахара, фтора, витамина D и физиологической роли слюны. В качестве ключевых источников использованы последние обзорные публикации и руководящие документы (см. список литературы).

Роль свободных сахаров в развитии кариеса

Свободные сахары (включая сахар, мёд, сиропы, а также сахар, добавленный в пищевые продукты и напитки) являются основным диететическим фактором риска развития кариеса. Механизм патогенеза — ферментация сахаров зубо-полостной микрофлорой с образованием кислот, которые приводят к деминерализации эмали и дентина. Современные мета-анализы подтверждают ассоциацию между частотой потребления сахара и кариесом, особенно при частых перекусах с высоким содержанием сахаров. Снижение потребления свободных сахаров рекомендуется как ключевая мера профилактики кариеса на популяционном и индивидуальном уровнях.

Питательные вещества, укрепляющие зубной аппарат

Минералы (кальций, фосфор) и витамины (в первую очередь витамин D) имеют важнейшее значение для нормальной минерализации тканей зуба и костей челюстно-

лицевой области. Дефицит витамина D ассоциируется с нарушением минерализации, повышенным риском кариеса и пародонтопатий у детей и взрослых; систематические обзоры указывают на связь между низким уровнем

25(OH)D и повышенной распространённостью стоматологических проблем, хотя часть исследований носит наблюдательный характер и требует дополнительных РКИ. Рекомендации включают обеспечение адекватного поступления кальция и витамина D, особенно в период формирования зубов у детей.

Фтор и его профилактическая роль

Фторид остаётся ключевым компонентом профилактики кариеса: он повышает устойчивость эмали к кислотной атаке, стимулирует реминерализацию и имеет прямое подавляющее действие на патогенную микрофлору. Современные клинические и обзорные работы подтверждают эффективность топического и системного применения фтора, однако в последние годы ведутся дискуссии о соотношении пользы и потенциальных рисков (включая флюороз и дискуссии вокруг фторирования воды в отдельных регионах). Необходим индивидуальный подход с учётом общей экспозиции фтора (питьевая вода, зубные пасты, профессиональные аппликации).

Кислотные продукты, частота приёмов пищи и режим питания

Кислые продукты и напитки (цитрусовые, фруктовые соки, газированные напитки) снижают pH в ротовой полости и прямым образом способствуют эрозии эмали. Частота приёмов пищи и перекусов имеет значение не меньше объёма потребляемого сахара: частые перекусы с углеводами снижают средний pH слюны и дают микробам больше времени на образование кислоты. Практическая рекомендация — ограничивать частоту бесценных перекусов, делать основной упор на приёмы пищи и выбирать воду как основной напиток.

Роль слюны в защите зубов

Слюна выполняет ряд защитных функций: механическое омывание, буферную (нейтрализующая) активность, снабжение ионов кальция и фосфата для реминерализации, а также наличие антимикробных белков. Снижение слюноотделения (ксеростомия), вызванное лекарствами или системными заболеваниями, резко повышает риск кариеса и пародонтита. Следовательно, поддержание адекватного водного режима и профилактика факторов, снижающих слюноотделение, — важная составляющая профилактики.

Взаимосвязь питания и заболеваний пародонта

Влияние питания на пародонтальные заболевания менее однозначно, чем на кариес; однако данные указывают на роль общей нутритивной обеспеченности (антиоксиданты, витамины C и D, омега-3 полиненасыщенные жирные кислоты) в регуляции воспалительных процессов. Рационы, богатые обработанными продуктами и бедные овощами/фруктами, могут способствовать воспалению и ухудшению состояния пародонта.

Практические рекомендации

1. Ограничение потребления свободных сахаров (особенно напитков и частых перекусов) — ключевая мера профилактики.

2. Обеспечение адекватного поступления кальция и витамина D (рацион и, при необходимости, суплементация по назначению врача).

3. Регулярное применение фторидсодержащих средств (профилактические пасты, профессиональные аппликации) с учётом общей экспозиции фтора.

4. Поддержание водного баланса, жёсткой пищи (овощи/фрукты) для стимулирования естественного очищения и слюнообразования; избегать частых кислых перекусов.

5. Индивидуальный подход: оценка факторов риска (лекарства, заболевания, социально-экономический статус) в кабинете стоматолога и составление персонализированной профилактической программы.

Заключение

Питание оказывает многоаспектное влияние на здоровье зубов и полости рта: от непосредственного воздействия свободных сахаров и кислот до обеспечения минералов и витаминов, необходимых для нормальной минерализации и поддержания тканей. Профилактика стоматологических заболеваний требует как поведенческих мер (ограничение сахаров, режим приёма пищи), так и применения доказательных профилактических средств (фтор, профессиональные мероприятия) и учёта системного статуса пациента (витамины, заболевания, лекарства). Для общества и клинициста важен интегрированный подход: информационно-образовательные меры, корректировка питания и регулярные стоматологические осмотры.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ

1. World Health Organization. Oral health (fact sheet). (последний обзор и рекомендации по диете и профилактике).
2. Akinsolu FT et al. A systematic review and meta-analysis of the association between sugar consumption and dental caries (2024).
3. Nassar Y., StatPearls. The Role of Fluoride on Caries Prevention (2023).
4. Botelho J. et al. Vitamin D Deficiency and Oral Health: A Comprehensive Review (2020).
5. Dodds M., Edgar M. et al. Saliva: A review of its role in maintaining oral health and preventing dental disease. BDJ Team (2015).

INKLYUZIV TA’LIMDA DIFFERENSIAL YONDASHUVNING MOHIYATI VA AHAMIYATI

Axatova D.A.[1], Axatova X.A.[2]
[1]NavDU Psixologiya kafedrasi dotsenti, p.f.n.;
[2]NavDU Psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17623664

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oliy ta’lim tizimida inklyuziv ta’limni samarali tashkil etishning muhim omili sifatida differensial yondashuvning o‘rni tahlil qilinadi. Talabalarning individual xususiyatlari, ehtiyojlari va imkoniyatlarini inobatga olgan holda dars jarayonini tashkil etishning pedagogik jihatlari yoritiladi. Shuningdek, differensial yondashuv asosida o‘qitishda o‘qituvchi roli va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning imkoniyatlari ko‘rsatib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *oliy ta’lim, inklyuziv ta’lim, differensial yondashuv, differensial ta’lim, individual ta’lim, pedagogik texnologiya, talabalar ehtiyojlari.*

Аннотация. *В статье анализируется роль дифференцированного подхода как важного фактора эффективной организации инклюзивного образования в системе высшего образования. Освещены педагогические аспекты организации учебного процесса с учетом индивидуальных особенностей, потребностей и возможностей студентов. Также освещены роль преподавателя в обучении на основе дифференцированного подхода и возможности современных педагогических технологий.*

Ключевые слова: *высшее образование, инклюзивное образование, дифференцированный подход, дифференцированное обучение, индивидуализированное обучение, педагогические технологии, потребности студентов.*

Abstract. *This article analyzes the role of a differentiated approach as an important factor in the effective organization of inclusive education in the higher education system. The pedagogical aspects of organizing the teaching process, taking into account the individual characteristics, needs and capabilities of students, are highlighted. The role of the teacher in teaching based on a differentiated approach and the capabilities of modern pedagogical technologies are also highlighted.*

Keywords: *higher education, inclusive education, differentiated approach, differentiated education, individualized education, pedagogical technology, student needs.*

Kirish. Bizda ishlatiladigan “inson huquqlari” tushunchasi har bir kishining jamiyatda mavjud barcha imkoniyatlardan birdek va barcha qatori teng foydalana olishini anglatadi. Imkoniyati cheklangan, nogironligi bor insonlar ham shular jumlasidandir. Jamiyat bunday kishilarni boricha qabul qilib, teng munosabatda bo‘lishga o‘rganmas ekan, mamlakatda inson huquqlari kafolati to‘laqonli ta‘minlangan, deb bo‘lmaydi. Shu bois, yurtimizda nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, huquq va manfaatlarini himoya qilish, jamiyatda munosib o‘rin egallashiga to‘siqsiz muhit yaratish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Bu borada qonuniy asoslar mustahkamlanib, qator farmon va qarorlar qabul qilinmoqda. Maqsad hayotiy faolligini oshirish orqali imkoniyati cheklangan insonlarni umidsizlik hamda

ishonchsizlik kayfiyatidan xalos etish, yashashga ishtiyoqini oshirish hamda boshqalar qatori jamiyatda o‘z o‘rnini egallashiga ko‘maklashishdan iborat

Bu borada inklyuziv ta‘lim alohida o‘rin tutadi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonuniga ilk bor inklyuziv (uyg‘unlashgan) ta‘lim tushunchasi kiritildi [2,20-modda].

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ham ta’lim tashkilotlarida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiya ta’minlanishi normasi kiritildi [1].

Bu narsa oliy ta’lim tizimida ham o‘z ifodasini topmoqda. Bugungi kunda oliy ta’lim tizimining asosiy maqsadi — har bir talabaning bilim olishga bo‘lgan huquqini ta’minlash, shaxsiy imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish uchun sharoit yaratishdan iborat. Inklyuziv ta’lim konsepsiyasi ham aynan shu maqsadga xizmat qiladi. Biroq, ta’lim jarayonida turli ehtiyoj va imkoniyatlarga ega talabalarni bir xil uslubda o‘qitish samaradorlikni pasaytiradi. Shu bois, differensial yondashuv inklyuziv ta’limni muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy pedagogik tamoyillaridan biri hisoblanadi.

“Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da inklyuziv ta’lim asoslarini joriy etish va rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan[3]. Jumladan:

• imkoniyati cheklangan talabalarga ko‘rsatilayotgan ta’lim xizmatlari turlarini ko‘paytirish va sifatini oshirish;

• ta’limda inklyuziv jarayonlarni keng rivojlantirish, adaptiv texnologiyalarni joriy etish;

• talabalar turar joylari va oliy o‘quv yurtlari binolarida imkoniyati cheklangan talabalar uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish;

• ta’lim muassasalarini ushbu toifadagi o‘quvchilarni zarur adabiyot va o‘quv-metodik qo‘llanmalar bilan ta’minlash;

Masofaviy va moslashuvchan ta’lim tizimlari rivojlantirish.

Differensial yondashuvning mohiyati va nazariy asoslari. Differensial yondashuv — bu talabalarning individual psixologik, intellektual, jismoniy va ijtimoiy xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘qitish jarayonini tashkil etishdir.

Differensia *(differensial* -lotincha: *differentia)* - farq, tafovut degan ma`noni anglatadi. Talabalarning iqtidori, qiziqishi, o‘zlashtirishiga ko‘ra differensial tayyorgarlikni kuchaytirish va murakkablashtirish - zamonaviy ta’limning global yo‘nalishiga aylandi.

Differensiyaning asosiy shakllari - o‘quv muassasalarini turli tiplarga bo‘lish, potok va profillarga, guruhlarga ajratish nazarda tutiladi. Differensial ta’lim muammosi oson hal bo‘lmaydi va u qarama-qarshiliklarga ega. Ijtimoiy tomondan differensiya ijtimoiy tanlov usuliga aylanadi [4,92].

Differensial ta’lim turli tipdagi ta’lim muassasalarida amalga oshiriladi. Masalan: Angliyada grammatik va zamonaviy maktablarda, Germaniyada real bilim yurti, gimnaziya va asosiy maktablarda, Fransiyada texnologik, kasbiy va umumta’lim litseylarda, Rossiyada oddiy o‘rta maktab, litsey, kollej, gimnaziyada amalga oshiriladi. Bu o‘quv muassasalarida differensiyaning asosiy o‘ziga xos belgisi *dasturlardir*. Bir o‘quv muassasasi doirasida differensiya keng yoyilgan. Masalan, AQSh va Yaponiya katta o‘rta maktablarida 2 tipdagi umumta’lim va maxsus dasturlar mavjud. Ular turli qirralarda o‘quvchilarning turli guruhlarini o‘rganishadi. Germaniyada gimnaziya ta’limning 6 profilini taklif etadi, asosiy maktab esa differensiyani KKAM tizimi asosida amalga oshiradi. Unga ko‘ra ta’lim dasturning quyidagi

variantlariga ko‘ra tashkil qilinadi: kasbiy kurs(K), kengaytirilgan kurs (K), asosiy kurs (A), moslashtirilgan kurs (M). To‘liqsiz o‘rta maktab differensiya vositasi hisoblanadi.

1930 yil AQShda, 1950 yil Yaponiyada, 1970-1980 yillar G‘arbiy Yevropada, 1990 yil Rossiyada differensial ta’lim amalga oshiriladigan o‘quv muassasalari paydo bo‘la boshlaydi.

Bularda turli guruh o‘quvchilari imkoniyatlari hisobga olinadi. 1950 yil oxirida D.J.Konant boshchiligidagi pedagoglar guruhi umumqamrab oluvchi maktab modelini taklif etdi. Bu model bo‘yicha umumta’lim o‘quv muassasasida ijtimoiy daraja, qobiliyat, qiziqishidan qat’iy nazar barcha bolalar o‘qishadi, lekin turli-tuman ta’lim dasturlari amalga oshiriladi.

Ta’limni differensiallashtirish - talabalarning o‘quv faoliyatini tashkil etish shakli bo‘lib, bunda ularning individual psixologik, intellektual, jismoniy va ijtimoiy xususiyatlari, moyilligi, qiziqishlari va namoyon bo‘lgan qobiliyatlari hisobga olinadi.

• Ta’limni differentsiallashtirish - o‘quvchi-talabalarni individual o‘qitish uchun har qanday xususiyatlardan kelib chiqqan holda guruhlash shaklida bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olish. Odatda, bu holda o‘qitish bir nechta turli o‘quv rejalari va dasturlari bo‘yicha amalga oshiriladi (Mitin S.N.).

• Ta’limning differensialligi: 1) turli maktablar, sinflar, guruhlarda ishtirokchilarning xususiyatlarini hisobga olish uchun turli xil sharoitlarni yaratish; 2) bir xil guruhlarda o‘qitishni ta'minlaydigan uslubiy, psixologik, pedagogik, tashkiliy va boshqaruv tadbirlari majmui (Selevko G.K.) [4.94].

Pedagogik adabiyotlarni tahlil qilib, shunday xulosaga kelish mumkinki, mualliflar “ta’limni differentsiallashtirish” tushunchasini “individuallashtirish” tushunchasi bilan bog‘laydilar.

Differensial yondashuv V.V.Davidov, L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan **shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim** konsepsiyasi bilan uzviy bog‘liq. Inklyuziv ta’limda differensial yondashuv quyidagilarni nazarda tutadi:

- talabalar ehtiyojlariga mos ta’lim maqsadlarini belgilash;
- o‘qitish uslublarini moslashtirish;
- baholash tizimini individuallashtirish;
- o‘quv muhitini qulaylashtirish.

Dars jarayonida differensial yondashuvni qo‘llash bosqichlari. Inklyuziv ta’lim muhitida dars jarayonini quyidagi bosqichlarda tashkil etish maqsadga muvofiqdir:

Diagnostika. Talabalarning bilim darajasi, o‘qish uslubi, qiziqishlari va maxsus ehtiyojlari aniqlanadi. Psixologik testlar, kuzatuv va suhbatlardan foydalaniladi.

Maqsad va vazifalarni individuallashtirish. O‘quv rejasidagi umumiy maqsadlar saqlanadi, lekin har bir talaba uchun ularning bajarilish darajasi differensial belgilanadi.

Ta’lim metodlarini tanlash. Moslashuvchan o‘qitish texnologiyalari (Klaster, “Aqliy hujum”, jamoaviy loyiha, blended learning va boshqalar) qo‘llanadi.

Individual yordam va baholash. Baholashda an’anaviy “ball” tizimidan tashqari *formativ baholash* (jarayonni baholash) uslublari tatbiq etiladi.

O‘qituvchining roli va kompetensiyasi. O‘qituvchi inklyuziv guruhda o‘z faoliyatini *moslashtiruvchi, yo‘naltiruvchi va rag‘batlantiruvchi* sifatida olib boradi va quyidagilarga e’tibor qaratadi:

- individual ta’lim yo‘nalishlarini ishlab chiqadi;
- maxsus ehtiyojli talabalar uchun dars materialini soddalashtiradi yoki vizual qo‘llanmalar yaratadi;

- hamkorlik va ijobiy iqlimni ta’minlaydi.

O‘qituvchining *inklyuziv kompetensiyasi* — bu shaxsiy empatiya, kommunikativlik, metodik moslashuvchanlik va innovatsion yondashuv bilan belgilanadi.

Amaliy tajribalar va misollar. O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida so‘nggi yillarda inklyuziv ta’lim markazlari, maxsus psixologik xizmatlar va moslashtirilgan o‘quv platformalar faoliyat yurita boshladi. Masalan, ba’zi universitetlarda nogironligi bo‘lgan talabalar uchun videoleksiya, audioresurs va adaptiv test tizimlari joriy etilgan. Bunday sharoitlarda differensial yondashuv dars jarayonining ajralmas qismiga aylanmoqda.

Xulosa. Inklyuziv ta’limda differensial yondashuvni qo‘llash — bu nafaqat ta’lim sifatini oshirish, balki jamiyatda teng imkoniyatlar tamoyilini ro‘yobga chiqarish yo‘lida muhim qadamdadir. O‘qituvchi har bir talabaning o‘ziga xosligini inobatga olgan holda darsni tashkil etsa, ta’lim jarayoni yanada samarali, insonparvar va barqaror bo‘ladi.

O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida ta’limning inklyuziv shaklini rivojlantirish va samarali tatbiq etish maqsadida, quyidagilarga e’tibor qaratish lozim, deb o‘ylaymiz: umume’tirof etilgan xalqaro ta’riflar va vositalar asosida maxsus tarbiyaga muhtojlar bilan bog‘liq statistika va ma’lumotlarni yig‘ish tizimini uyg‘unlashtirish; yangi bino va inshootlarni qurish va mavjudlarini rekonstruksiya qilishda ularni maxsus tarbiyaga muhtojlarning ehtiyojlari va talablariga moslashtirish; ta’limning inklyuziv modelida bevosita ishtirok etuvchi pedagog kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish. Bu esa ta’lim muassasalariga inklyuziv ta’limni samarali integratsiyalash, moslashtirish va rivojlantirish bo‘yicha islohotlarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: ―O‘zbekiston. 2023 yil.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. O‘RQ-637, 23.09.2020й.
3. "O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida" O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. 2019-yil 8-oktyabr
4. Axatova, D.A. Inklyuziv ta’lim. Gospital pedagogika: O‘quv qo‘llanma / – Navoiy: “TEXNO PRINT NAVOI” nashriyoti, 2025. – 452 bet.
5. Axatova, D.A. Inklyuziv ta’lim. Gospital pedagogika fanidan seminar mashg‘ulotlari: O‘quv qo‘llanma / – Buxoro: “BUXORO DETERMENANTI”MCHJning Kamolot nashriyoti, 2025. – 188 bet.
6. Ахметова, Д. З., Тимирясова, А. В., Челнокова,Т.А.. Инклюзивная педагогика: учебное пособие /. – Казань: Изд-во «Познание» Казанского инновационного университета, 2019. – 174 с
7. Inklyuziv ta’limning barcha subyektlari uchun psixologik-pedagogik va rivojlantirishga yo‘naltirilgan texnologiyalarni ishlab chiqish va takomillashtirib borish. Metodik qo‘llanma. L.R.Gaynutdinovaning umumiy tahriri ostida. –T.:2022

OLIY TA’LIM TASHKILOTLARIDA QO‘LLAB-QUVVATLASH VA INKLYUZIV TA’LIM MUHITINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK, PEDAGOGIK JIHATLARI

Usta-Azizova Dilnoza Axrarovna[1], Muxtorova Madinabonu Jamil qizi[2]
[1]Dotsent, pedagogika fanlari nomzodi;
[2]Davolash ishi fakulteti, 202 guruh talabasi
Toshkent davlat tibbiyot universiteti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17623677

Annotatsiya. *Mazkur maqolada oliy ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’lim muhitini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik va pedagogik jihatlari tahlil qilinadi. Inklyuziv ta’limning mohiyati, uning talabalar shaxsini har tomonlama rivojlantirishdagi ahamiyati, nogironligi bo‘lgan talabalar uchun qulay ta’lim sharoitlarini yaratish mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, ta’lim muassasalarida qo‘llab-quvvatlash tizimining samarali tashkil etilishi, pedagog va psixologlarning hamkorlikdagi faoliyati, tolerantlik, empatiya va ijtimoiy adolat tamoyillarini rivojlantirish yo‘llari ko‘rsatib o‘tiladi. Maqolada zamonaviy yondashuvlar va xorijiy tajriba asosida oliy ta’limda inklyuziv madaniyatni shakllantirishning dolzarb masalalari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *inklyuziv ta’lim, qo‘llab-quvvatlash tizimi, oliy ta’lim, ijtimoiy-psixologik yondashuv, pedagogik jarayon, tolerantlik, empatiya, ta’lim muhit, nogironligi bo‘lgan talabalar, inklyuziv madaniyat.*

Аннотация. *В данной статье анализируются социально-психологические и педагогические аспекты формирования инклюзивной образовательной среды в высших учебных заведениях. Раскрывается сущность инклюзивного образования, его значение в всестороннем развитии личности студента, а также механизмы создания благоприятных условий обучения для студентов с ограниченными возможностями. Кроме того, рассматриваются вопросы эффективной организации системы поддержки в образовательных учреждениях, совместной деятельности педагогов и психологов, а также пути развития принципов толерантности, эмпатии и социальной справедливости. В статье освещаются актуальные вопросы формирования инклюзивной культуры в высшем образовании на основе современных подходов и зарубежного опыта.*

Ключевые слова: *инклюзивное образование, система поддержки, высшее образование, социально-психологический подход, педагогический процесс, толерантность, эмпатия, образовательная среда, студенты с инвалидностью, инклюзивная культура.*

Abstract. *This article analyzes the socio-psychological and pedagogical aspects of forming an inclusive educational environment in higher education institutions. It explores the essence of inclusive education, its importance in the comprehensive development of students’ personalities, and the mechanisms for creating favorable learning conditions for students with disabilities. The article also discusses the effective organization of support systems within educational institutions, the collaborative work of teachers and psychologists, and the ways to promote the principles of tolerance, empathy, and social justice. Furthermore, it highlights*

current issues in developing an inclusive culture in higher education based on modern approaches and international experience.

Keywords: *inclusive education, support system, higher education, socio-psychological approach, pedagogical process, tolerance, empathy, educational environment, students with disabilities, inclusive culture.*

Bugungi globallashuv davrida ta’lim tizimida inson huquqlari, teng imkoniyatlar va ijtimoiy adolat tamoyillarini ta’minlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Inklyuziv ta’lim konsepsiyasi — har bir shaxsning, jumladan, nogironligi bo‘lgan yoki maxsus ehtiyojli talabalarining ham sifatli ta’lim olish imkoniyatini yaratish demakdir. Oliy ta’lim tizimi bu borada jamiyatning intellektual salohiyatini oshirish, ijtimoiy integratsiyani ta’minlash hamda har bir talabaga shaxs sifatida e’tibor qaratish orqali muhim o‘rin tutadi. Inklyuziv ta’limning asosiy maqsadi — barcha talabalarning teng ishtirokini ta’minlash, ularning o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishiga ko‘maklashish, o‘zaro hurmat va hamjihatlik muhitini shakllantirishdan iboratdir.

Inklyuziv ta’lim — bu alohida ehtiyojli shaxslarni jamiyatdan ajratmasdan, balki ularni ta’lim jarayoniga to‘liq integratsiya qilgan holda o‘qitish tizimidir. U nafaqat nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun, balki turli ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy sharoitda yashovchi barcha talabalar uchun ham qulay va xavfsiz ta’lim muhitini yaratishni nazarda tutadi.

Oliy ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’limni yo‘lga qo‘yish, bir tomondan, ta’lim muassasasining ijtimoiy mas’uliyatini oshirsa, ikkinchi tomondan, yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonini yengillashtiradi. Bu jarayon talabalar o‘rtasida empatiya, bag‘rikenglik, hurmat va insonparvarlik qadriyatlarini rivojlantiradi.

Inklyuziv muhitni shakllantirishda ijtimoiy-psixologik omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim muhitida o‘zini qabul qilingan, qadrlangan his etgan talaba o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi. Shuning uchun psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini yo‘lga qo‘yish zarur.

Psixologlarning roli ushbu jarayonda talabalarda o‘ziga ishonchni mustahkamlash, ijobiy o‘zini baholash ko‘nikmalarini shakllantirish hamda ularning guruh jamoasiga ijtimoiy-psixologik jihatdan moslashuvini ta’minlashda namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, psixologlar pedagoglar va talabalar o‘rtasida sog‘lom muloqot muhitini rivojlantirishga ko‘maklashadilar hamda stress, kamsitilish yoki ijtimoiy izolyatsiya kabi salbiy holatlarning oldini olishda muhim rol o‘ynaydilar.

Bundan tashqari, ular talabalarning emotsional holatini muntazam kuzatib boradilar, o‘qish jarayonida paydo bo‘ladigan psixologik qiyinchiliklarni bartaraf etishda individual maslahatlar beradilar. Psixologik qo‘llab-quvvatlash natijasida talabalar o‘z imkoniyatlarini to‘liq namoyon etish, o‘quv faoliyatida yuqori natijalarga erishish hamda jamoada samarali muloqot o‘rnatish imkoniga ega bo‘ladilar. Shu tariqa, psixologlarning faoliyati nafaqat talabalarning shaxsiy rivojlanishini, balki butun ta’lim muhitining sog‘lom va ijobiy shakllanishini ta’minlaydi.

Mazkur yo‘nalish O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan **“Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim olish va kasb-hunar egallash uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3907-sonli qaror [2]** hamda “Aholining psixologik salomatligini mustahkamlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4963-sonli qaror [3] belgilangan vazifalar

bilan ham uzviy bog‘liqdir. Ushbu hujjatlar psixologik xizmatni rivojlantirish, ta’lim muassasalarida sog‘lom psixologik muhitni yaratish va yoshlarning ruhiy barqarorligini ta’minlashni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilab beradi.Ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlashning samaradorligi, avvalo, ta’lim muassasasida tolerantlik, empatiya va hamjihatlik qadriyatlarini singdirish bilan bog‘liq. Shu maqsadda treninglar, psixologik seminarlar, jamoaviy tadbirlar o‘tkazish, o‘zaro yordam guruhlarini tashkil etish tavsiya etiladi.

Inklyuziv ta’lim jarayonida pedagogik yondashuv ham muhim o‘rin tutadi. O‘qituvchilarning inklyuziv kompetensiyasi, ya’ni maxsus ehtiyojli talabalar bilan ishlash ko‘nikmalari, o‘quv dasturlarini moslashtirish qobiliyati yuqori bo‘lishi zarur.

Pedagogik qo‘llab-quvvatlash — bu talabalarning individual xususiyatlari, o‘quv qobiliyati, sog‘ligi va psixologik holatini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etishga yo‘naltirilgan tizimli faoliyatdir. Bunday yondashuvda moslashtirilgan o‘quv dasturlari ishlab chiqiladi, o‘quv yuklamasi talabalar imkoniyatlariga mos tarzda belgilanadi hamda turli shakldagi topshiriqlar qo‘llaniladi. Ayniqsa, eshitish, ko‘rish yoki jismoniy imkoniyati cheklangan talabalar uchun axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida maxsus texnik vositalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, o‘qituvchi va psixologning o‘zaro hamkorligi ta’lim sifatini oshirishda muhim o‘rin tutadi, chunki ular dars jarayonida paydo bo‘ladigan muammolarni birgalikda hal etadilar. Talabalarni o‘zaro qo‘llab-quvvatlash tizimiga jalb etish, masalan “peer tutor” yoki tengdosh yordamchi dasturlarini joriy etish, inklyuziv muhitni yanada mustahkamlaydi.

Oliy ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’limni samarali amalga oshirish uchun inklyuziv ta’lim markazlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish, psixologik maslahat xonalarini tashkil etish, maxsus o‘quv resurslarini, jumladan audiokitoblar va braille alifbosidagi darsliklarni tayyorlash, shuningdek, binolarni jismoniy imkoniyati cheklangan talabalar uchun moslashtirish zarur. O‘qituvchilarning muntazam malaka oshirishi va yangi pedagogik yondashuvlarni o‘zlashtirishi ham ushbu tizimning ajralmas qismi hisoblanadi. Barcha bu tizimlar o‘zaro integratsiyalashgan holda faoliyat yuritgan taqdirda, oliy ta’lim muassasasi haqiqiy inklyuziv makonga aylanishi mumkin.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv pedagogika — ya’ni talabalar turli individual xususiyatlarini inobatga olgan holda o‘qitish — o‘quv natijalarini yaxshilashga yordam beradi (Georgetown University, 2024). Tadqiqotlarga ko‘ra, aktiv va inklyuziv o‘qitish uslublari qo‘llanilganda, talabalar bilim ko‘rsatkichlari ortadi hamda turli ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi tafovutlar kamayadi (PMC, 2022). Universal Design for Learning (UDL) tamoyillari esa ta’lim materiallarini barcha talabalar ehtiyojiga moslashtirishni, turli ifoda, o‘rganish va baholash shakllaridan foydalanishni ta’minlaydi (ERIC, 2021). Bu esa, o‘z navbatida, inklyuziv muhitni yanada barqaror va samarali qilishga xizmat qiladi. Shuningdek, inklyuziv ta’lim barcha talabalar uchun ijobiy ijtimoiy muhit yaratib, ularning o‘zaro hurmat, empatiya va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi (ResearchGate, 2023).

Mazkur tizimlar o‘zaro integratsiyalashgan holda faoliyat yuritgan taqdirda, oliy ta’lim muassasasi chinakam inklyuziv makonga aylanishi mumkin.

Inklyuziv ta’lim — bu faqatgina maxsus ehtiyojli talabalar uchun emas, balki butun ta’lim muassasasining madaniy darajasini oshiruvchi, ijtimoiy bag‘rikenglikni shakllantiruvchi jarayondir. Oliy ta’limda inklyuziv muhit yaratish ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlash,

pedagogik moslashuv va ma’muriy tashabbuslarning uyg‘unlashuvi natijasidagina amalga oshadi.

Shunday ekan, zamonaviy ta’lim tizimi nafaqat bilim berish, balki har bir shaxsning o‘z imkoniyatlarini to‘liq namoyon etishiga sharoit yaratishni ham o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim olish va kasb-hunar egallash uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. PQ–3907-sonli qaror. 2018-yil 14-avgust.
3. “Aholining psixologik salomatligini mustahkamlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. PQ–4963-sonli qaror. 2021-yil 25-yanvar.
4. “Inklyuziv ta’lim to‘g‘risida”gi konsepsiya. — Toshkent, 2021.
5. Karimova V.M. Pedagogik va psixologik muammolar nazariyasi. Toshkent, 2020.
6. Oribbayeva D.D., Rafikova R.A. Osobennosti vnedreniya inklyuzivnogo obrazovaniya v Respublike Uzbekistan. Science and Education, 5(9). 2023.
7. Rafikova R.A., Amirjonova M.A. Osobennosti vnedreniya inklyuzivnogo obrazovaniya v doshkolnykh organizatsiyakh Respubliki Uzbekistan. Science and Education, 5(11). 2023.
8. Usta-Azizova D.A. Nauchno-pedagogicheskiye osnovы duxovno-nravstvennogo vospitaniya studentov vo vneauditornoye vremya (na materialax xudojestvennoy literaturы Uzbekistana). Dis. ... kand. ped nauk. Tashkent, 2007. – 105 str.
9. Usta-Azizova D.A. Duxovno-nravstvennoye vospitaniye studentov-medikov sredstvami uzbekskoy xudojestvennoy literaturы. Monografiya. Izdatelьstvo «Fan» ANRUz, Tashkent, 2014. - 122 str.
10. Usta-Azizova D, Tadjitdinova N. Rolь vospitaniya v vыsshix uchebnыx zavedeniyax. Aktualьnыye problemы obucheniya sotsialьno-gumanitarnыx nauk v meditsinskom obrazovanii. 2023 g., 28 maya;1(1):321-9.
11. Usta-Azizova D. Tьyutor i yego rolь v vospitanii uchaщixsya kak pomoщnik i nastavnik v obrazovatelьnom protsesse. Nauka i innovatsii. 2024;3(B11):170-3.

TALABA-QIZLARNING AXLOQIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA UNIVERSITETNING ROLI VA TALABA-QIZLARNI QO‘LLAB-QUVVATLASH

Buranova Malohat Mirzaaxmadovna
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali assistenti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17623692

Annotatsiya: *Maqolada oliy ta’lim muassasalarida talaba-qizlarning axloqiy madaniyatini shakllantirish, ularni ijtimoiy hayotga, oilaviy munosabatlarga va milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash masalalari tahlil etiladi. Universitetda olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samaradorligini oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar keltirilgan.*
Kalit so‘zlar: *talaba, axloq, madaniyat, etika, ma’naviyat, jamiyat, shaxs, fazilat, taraqqiyot, axloqiy madaniyat, talaba-qizlar, universitet, ma’naviy tarbiya, qadriyat, ijtimoiy faollik, tarbiyaviy jarayon,*
Аннотация: *В статье анализируются вопросы формирования нравственной культуры студенток высших учебных заведений, их вовлечения в общественную жизнь, семейные отношения и воспитание на основе национальных ценностей. Представлены предложения и рекомендации по повышению эффективности духовно-просветительской работы, проводимой в университете.*
Ключевые слова: *ученик, мораль, культура, этика, духовность, общество, личность, добродетель, прогресс, нравственная культура, студентки, вуз, духовное воспитание, ценность, социальная активность, воспитательный процесс.*
Abstract: *The article analyzes the issues of the formation of the moral culture of female students of higher educational institutions, their involvement in public life, family relations and upbringing based on national values. Suggestions and recommendations on improving the effectiveness of the spiritual and educational work carried out at the university are presented.*
Keywords: *student, morality, culture, ethics, spirituality, society, personality, virtue, progress, moral culture, female students, university, spiritual education, value, social activity, educational process.*

Kirish

Kirish. Prezident Shavkat Mirziyoyev so‘zlari bilan aytganda “Yoshlar haqli ravishda Vatanimizning kelajagi uchun javobgarlikni zimmasiga olishga qodir bo‘lgan, bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchiga aylanib borayotgani barchamizga g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi.

Bugungi globallashuv jarayonida yoshlarning, xususan, talaba-qizlarning axloqiy madaniyatini yuksaltirish dolzarb masalaga aylandi. Chunki axloqiy madaniyat insonning nafaqat o‘zini tutish, balki atrofdagilarga munosabati, hayotiy qarashlari, oila va jamiyat oldidagi mas’uliyatini ham belgilaydi. Oliy ta’lim tizimi yoshlarning dunyoqarashi, e’tiqodi, ma’naviy qiyofasini shakllantiruvchi asosiy muhit hisoblanadi. Shu bois universitetlarning tarbiyaviy faoliyati talaba-qizlarning shaxsiy kamolotida beqiyos o‘rin tutadi.

Axloqiy madaniyat – bu insonning ijtimoiy hayotda o‘zini tutish me’yorlari, qadriyatlari, ma’naviy-axloqiy qarashlari va o‘zaro munosabatlar tizimida namoyon bo‘ladigan fazilatlar majmuidir. Universitet talaba-yoshlarning shaxs sifatida kamol topishida, ularning hayotiy pozitsiyasini shakllantirishda va axloqiy qadriyatlarini rivojlantirishda asosiy o‘quv-tarbiyaviy muhit sifatida muhim rol o‘ynaydi.

Asosiy qism

Universitetlar nafaqat ilm-fan o‘chog‘i, balki barkamol insonlarni tarbiyalaydigan, ularni ma’naviy va axloqiy jihatdan yetuk shaxs sifatida voyaga yetkazadigan muassasalardir. Talaba-qizlarning axloqiy madaniyatini shakllantirishda ta’lim jarayoni, tarbiyaviy tadbirlar, to‘garaklar, klublar, shuningdek, o‘qituvchilar va tengdoshlar bilan bo‘ladigan muloqot muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchidan, universitetdagi ta’lim jarayoni orqali talaba-qizlar nafaqat kasbiy bilimlarni, balki insoniy fazilatlarni ham egallaydilar. Axloqiy madaniyat dars jarayonida, o‘qituvchining namunasi, muomala madaniyati, talabchanligi va mehribonligi orqali shakllanadi. Har bir fanning mazmunida axloqiy qadriyatlarga e’tibor qaratish, masalan, adolat, halollik, mas’uliyat kabi tushunchalarni o‘quv jarayoniga singdirish muhimdir.

Ikkinchidan, universitetda faoliyat yuritayotgan turli klublar va to‘garaklar talaba-qizlarning ijtimoiy faolligini oshiradi. Masalan, “Lider qizlar”, “Kitobxon qizlar”, “Olima qizlar” kabi to‘garaklar nafaqat ularning qobiliyatlarini rivojlantiradi, balki jamoada ishlash, o‘z fikrini ifoda etish, odob-axloq qoidalariga rioya qilish ko‘nikmalarini ham shakllantiradi.

Uchinchidan, universitetning ma’naviy-ma’rifiy tadbirlari, uchrashuvlar, seminarlar, ustoz-shogird an’analari ham talaba-qizlarning axloqiy dunyoqarashini kengaytiradi. Bunday jarayonlarda ular milliy qadriyatlar, odob-axloq me’yorlari, oila muqaddasligi, jamiyat oldidagi mas’uliyat haqida chuqur bilimga ega bo‘ladilar.

Shuningdek, talaba-qizlarning axloqiy madaniyatini rivojlantirishda o‘qituvchi-shaxsning o‘rni beqiyosdir. Pedagog nafaqat bilim beruvchi, balki yoshlar uchun ibrat manbai, yo‘l ko‘rsatuvchi inson sifatida namuna bo‘lishi lozim. O‘qituvchining so‘zi, kiyinish madaniyati, muomalasi, talabchanligi va adolatliligi talaba-qizlarga kuchli ta’sir qiladi.

Universitet muhitida gender tenglik, inson huquqlari, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik tamoyillariga amal qilinishi ham axloqiy tarbiyaning ajralmas qismidir. Talaba-qizlar o‘z huquq va majburiyatlarini anglagan holda, jamiyatda faol, mas’uliyatli va odobli shaxs sifatida shakllanadilar.

Axloqiy madaniyatni rivojlantirishning samarali yo‘llari

1. Universitetlarda axloqiy tarbiya yo‘nalishida maxsus treninglar, seminarlar, davra suhbatlarini tashkil etish.

2. Talaba-qizlar uchun ijobiy namunali ayollar bilan uchrashuvlar, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazish.

3. To‘garaklar va klublar faoliyatini kuchaytirish, ijtimoiy loyihalarda qizlarni faol ishtirok ettirish.

4. Talaba-qizlarni o‘zini-o‘zi boshqarish tizimiga jalb etish orqali mas’uliyat va yetakchilik sifatlarini rivojlantirish.

5. Universitet ichki muhitida o‘zaro hurmat, bag‘rikenglik va odob tamoyillarini mustahkamlash.

Talabalarda axloqiy madaniyatni shakllantirish o‘qituvchidan alohida e’tibor, malaka va tayyorgarlik talab etiladi. Ta'lim oluvchilarning shaxsiy xarakterologik sifatlarini aniqlashning,

hech bo‘lmaganda oddiy metodikasini egallash, uni tatbiq etish, kasbiy-pedagogik tayyorgarlikning muhim unsurlaridan biridir. Oliy va o‘rta maxsus o‘quv maskanlari o‘qituvchilari ko‘-pincha o‘quvchi-yoshlarning aqliy qobiliyatlarini o‘rganishga e’tibor qaratadilar, ammo ularning tarbiyalanganlik darajalarini (keng ma'noda) va xulqiy nuqsonlarini korreksiyalash muammolarining uzluksiz ta'lim tizimida yagona uzviylik va yaxlitlik nuqtai nazaridan talqin qilishga, uning yechimlarini topishga urinishmaydi. O‘quvchilar va talabalamning aqliy rivojlanishlari kop jihatdan mustaqil fikrlashga, umumiy tarbiyalanganlik darajasiga bog‘liq. Ularning tarbiyalanganlik darajasini diagnostika qilish, ma'naviy-ma'rifiy rivojlanish xususiyatlarini o‘rganish, zarur bo‘lsa xulqiy nuqsonlarini bartaraf etish hozirgi davrning muhim talablaridan biridir.

Talaba-qizlarda ijtimoiy faollikni rivojlantirish mexanizmlarini ma’naviy yetuk, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy pozitsiyaga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ma’naviy madaniyatni shakllantirish asosida takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Oliy ta’lim tizimida madaniy qadriyatlar asosida talaba-qizlar ijtimoiy faolligini rivojlantirish texnologiyasi takomillashtirildi:

– talaba-qizlarning ijtimoiy faolligi va tashabbuskorligini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan vositalarini yaratish; talabalarda ijtimoiy faollikni rivojlantirishning tizimini takomillashtirish; – talaba-qizlarda ijtimoiy faollikni rivojlantirishning texnologiyalarini takomillashtirish; – talaba-qizlarda kasbiy, madaniy va kommunikativ faoliyatga asoslangan samarali pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Oliy ta’lim tizimida talaba-qizlarni qo‘llab-quvvatlash masalasi so‘nggi yillarda alohida e’tibor markazida turibdi. Davlatimiz rahbari tomonidan qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni zamonaviy kasb va fan sohalariga jalb etish, shuningdek, gender tenglikni ta’minlashga qaratilgan qator hujjatlar qabul qilindi.

Talaba-qizlarni qo‘llab-quvvatlashning asosiy maqsadi — ularning ta’lim olish jarayonida ijtimoiy himoyasini ta’minlash, iqtidorli qizlarni rag‘batlantirish, shuningdek, ularni oilaviy hayotga tayyorlashdir. Bu yo‘nalishda oliy ta’lim muassasalarida ‘Xotin-qizlar masalalari bo‘yicha maslahat kengashlari’, ‘Lider qizlar’, ‘Qizlarjon’, ‘Olima qizlar’, ‘Kitobxon qizlar’ kabi klublar faoliyat yuritmoqda.

Talaba-qizlarni ijtimoiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishlari

1. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash – kam ta’minlangan, yetim yoki nogironligi bo‘lgan talaba-qizlarga moddiy yordam ko‘rsatish, stipendiyalar, grantlar ajratish, turar joy bilan ta’minlash.

2. Ma’naviy-ma’rifiy qo‘llab-quvvatlash – ma’naviy qadriyatlar, milliy urf-odatlar asosida tarbiyalash, ijobiy ayol namunalarini targ‘ib etish, ma’naviyat kechalari, davra suhbatlari tashkil etish.

3. Psixologik qo‘llab-quvvatlash – psixologlar tomonidan maslahatlar, treninglar o‘tkazish, talaba-qizlarda o‘ziga ishonchni oshirish.

4. Kasbiy va ilmiy rivojlanish – iqtidorli qizlarni ilmiy izlanishlarga jalb etish, ilmiy loyihalarda ishtirok etish, tanlovlarda qatnashish imkoniyatlarini yaratish.

5. Oilaviy hayotga tayyorlash – kelajakda onalik, oilaviy mas’uliyat, o‘zaro hurmat va sadoqat tushunchalarini shakllantirishga qaratilgan tarbiyaviy ishlarga e’tibor qaratish.

Oliy ta’lim muassasalari bu borada nafaqat ichki dasturlarni, balki davlat miqyosida belgilangan ‘Ayollar daftari’, ‘Yoshlar daftari’ kabi tashabbuslarni ham faol amalga oshirmoqda.

Ushbu tizimlar orqali talaba-qizlar uchun grantlar, stipendiyalar, turli loyihalarda ishtirok etish imkoniyatlari kengaymoqda.

Universitetlarning roli

Universitetlar talaba-qizlarning nafaqat bilim, balki ijtimoiy hayotdagi faoliyatini ham yo‘lga qo‘yuvchi muhim markaz hisoblanadi. Masalan, ‘Lider qizlar’ klubi orqali yetakchilik ko‘nikmalari shakllantiriladi, ‘Kitobxon qizlar’ to‘garagi orqali o‘qishga bo‘lgan qiziqish, nutq madaniyati va tafakkur kengaytiriladi. Shuningdek, turli ijtimoiy loyihalar, ko‘rik-tanlovlar, sport musobaqalari orqali talaba-qizlarning faolligi oshirilmoqda.

Ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan ‘Xotin-qizlar masalalari bo‘yicha maslahat kengashlari’ o‘quvchi va talaba-qizlarning muammolarini o‘rganish, ularni ijtimoiy himoya qilish, psixologik yordam ko‘rsatish hamda iqtidorli qizlarni rag‘batlantirish ishlarini tizimli yo‘lga qo‘ygan.

Talaba-qizlarni qo‘llab-quvvatlashning dolzarb ahamiyati

Talaba-qizlarni qo‘llab-quvvatlash – bu nafaqat ularning hozirgi hayoti, balki kelajakdagi jamiyat taraqqiyotiga sarmoya demakdir. Chunki har bir bilimli, irodali, mas’uliyatli qiz – bu kelajakdagi yetuk mutaxassis, mehribon ona va farzand tarbiyachisidir. Shu bois, ularning ta’limdagi muvaffaqiyati, ijtimoiy faolligi va ma’naviy barkamolligi bevosita davlat va jamiyat e’tiborida bo‘lishi zarur.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, talaba-qizlarning axloqiy madaniyatini rivojlantirish universitet hayotining ajralmas qismidir. Axloqiy madaniyat – bu nafaqat shaxsiy fazilatlar, balki jamiyatning ma’naviy poydevoridir. Universitetlar bu borada ta’lim-tarbiya jarayonlarini uyg‘unlashtirgan holda, zamonaviy, ma’naviy yetuk, milliy qadriyatlarga sodiq yoshlarni voyaga yetkazishlari lozim. Shunda talaba-qizlar nafaqat bilimli, balki odobli, mas’uliyatli va jamiyatda o‘z o‘rnini topgan shaxslar bo‘lib yetishadilar.

Oliy ta’lim tizimida talaba-qizlarni qo‘llab-quvvatlash — bu ularning har tomonlama kamol topishiga, o‘z salohiyatini to‘liq namoyon etishiga yordam beruvchi omildir. Bunday qo‘llab-quvvatlash orqali jamiyatda ma’naviy yetuk, bilimli, faol, tashabbuskor, vatanparvar ayollar avlodini shakllantirish mumkin. Universitetlarning bu yo‘nalishdagi faoliyati yosh avlodni kelajakdagi oilaviy va ijtimoiy hayotga tayyorlashda, gender tenglik tamoyillarini mustahkamlashda, insonparvar jamiyat qurishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari.
2. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi Qonun.
3. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
4. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”. – Toshkent, 2021.
5. Pedagogika, psixologiya va axloqshunoslik bo‘yicha ilmiy maqolalar to‘plami.
6. X.Ibragimov, Sh.Abdullayev – “Pedagogika nazariyasi” Toshkent-2008.
7. Oliy ta’lim muassasalarida xotin-qizlar faoliyatini tashkil etish bo‘yicha me’yoriy hujjatlar.

TALABANING SHAXSIY RIVOJLANISHI VA HAYOTGA TAYYORLASH JARAYONIDA PEDAGOGNING INNOVATSION YONDASHUVLARINING AHAMIYATI

Djumanova Dilyara Mashutovna[1], Yusupova Jasmina[2]
[1]Toshkent shahridagi Bucheon universiteti, maktabgacha ta'lim kafedrasi katta o‘qituvchisi;
[2]Toshkent shahridagi Bucheon universiteti maktabgacha ta’lim fakulteti 3-kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17623704

Annotatsiya. *Mazkur maqolada pedagogik faoliyatda talabalarning shaxsiy rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar, tanqidiy fikrlash va o‘zini anglash jarayonlarini shakllantirishda ustozning o‘rni tahlil etiladi. Dars jarayonida qo‘llaniladigan innovatsion metodlar, psixologik yondashuvlar hamda individual muloqotning o‘quv jarayonidagi samaradorligi ilmiy nuqtai nazardan yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Pedagogik innovatsiya, shaxsni anglash, kreativ fikrlash, tanqidiy tafakkur, talaba rivojlanishi, individual yondashuv, psixologik metod.*

Аннотация. *В данной статье анализируются факторы, влияющие на личностное развитие студентов в педагогической деятельности, в частности роль преподавателя в формировании критического мышления и самопознания. С научной точки зрения освещена эффективность инновационных методов обучения, психологических подходов и индивидуального общения в образовательном процессе.*

Ключевые слова: *Педагогические инновации, самопознание, критическое мышление, развитие студента, индивидуальный подход, психологические методы*

Abstract. *This article analyzes the factors influencing students’ personal development in pedagogical practice, focusing on the teacher’s role in fostering creativity, critical thinking, and self-awareness. The paper highlights, from a scientific perspective, the effectiveness of innovative teaching methods, psychological approaches, and individual interaction in the learning process.*

Key words: *Pedagogical innovation, self-awareness, creative thinking, critical thinking, student development, individual approach, psychological methods.*

Hozirgi globallashuv davrida har xil omillar orqali ya’ni internet, turli xil texnologiyalar, g‘arb madaniyati bizni ota-bobolarimizdan meros bo‘lib qolgan milliy-qadriyatlarimizga kirib kelishi natijasida ko‘p yoshlar turli qarashlar, fikrlarda tanlovlarda qolib ketishmoqda. Shunday holatlarda ularga to‘gri yo‘lni ko‘rsatish, shunday qiyin tanlovlarda hayotiy qiyinchiliklardan chiqib ketishiga yordam qo‘lini cho‘zish jamiyatimiznining hamda talabalarning tahsil olayotgan oliy ta’lim muassalarining vazifasidir. Jamiyatimizning barqarorligi, oilaviy hayot ahilligi, tinchligi, mustahkamligi hamda kelajak avlod tarbiyasi asosan hozirgi oliy ta’lim tashkillotlarida tahsil olayotgan yoshlarimizning qo‘lidadir. Shu bois ham ularni barkamol shax bo‘lib ulg‘ayishi uchun bizga zamonaviy ta’lim jarayonida tanqidiy tafakkurni shakllantirish lozim. Zamonaviy ta’lim o‘z ichiga insonparvarlik, erkin fikrlash va ijodkorlik tamoyillarini oladi. Ushbu yondashuvda o‘quv jarayoning markazida pedagog emas, balki talabaning o‘zi – uning qobiliyati, ehtiyoji, tanqidiy fikrlash salohiyati va shaxsiy rivojlanishi turadi. Shu tarzda talaba

passiv bilim oluvchi emas, balki faol ishtirokchi, o‘z hayotiga mas’ul qaror qabul qiluvchi sifatida qaratiladi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayoni talabaning ijodkorligini, tanqidiy fikrlash qobilyatini hamda ichki imkoniyatlarini ochish demakdir. Bundan tashqari, talaba va ustoz o‘rtasidagi o‘zaro muloqot madaniyati ham juda muhim hisoblanadi. Pedagog dars jarayonida nafaqat bilim beruvchi balki ruhlantiruvchi, ilhomlantiruvchi shaxs sifatida bo‘lishi lozim. Talaba va o‘qituvchi muloqoti o‘z ichiga o‘zaro hurmat, ishonch hamda hamkorlik muhitini olsagina talabaning ichki motivatsiyasi kuchayadi va o‘qishga bo‘lgan qiziqishi ortadi. Shunday qilib, zamonaviy ta’lim jarayoni talabanining mustaqil fikrlovchi, uni axloqiy va ijodiy salohiaytini rivojlantirishga va uni kelajakda jamiyat uchun mas’uliyatli shaxs sifatida shakllantirishga qaratilgan.

Ta’lim jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish nafaqat o‘quvchilarning bilim darajasini oshiradi, balki ularning mustaqil fikrlashlari, muammoni hal qilish va ijodiy yondashish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Ta’lim sifatini rivojlantirish uchun zamonaviy pedagogikani qo‘llash lozim. Zamonaviy pedagogika shuni ko‘rsatadiki, darslar jarayonida ma’lum bo‘lgan an’anaviy usullardan tashqari, interaktiv, loyihaviy va axborot – kommunikatsion texnologiya va tanqidiy tafakkurga asoslangan metodlardan foydalanish ta’lim sifatini sezilarli darajada oshiradi. Bunday yondashuvda talaba dars jarayoning markazida bo‘ladi va bilimni tayyor shaklida qabul qilmaydi, balki u bilimni tahlil qiladi, izlaydi va o‘z mustaqil xulosasini shakllantiradi. Shu orqali talaba nafaqat nazariy bilim oladi balki uni amaliyotda ham qo‘llashni o‘rganadi. Talaba ustida o‘tkazilgan amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, interaktiv mashg‘ulotlar, Sokrat debatlari, “aqliy hujum”, “sinkveyn”, tanqidiy portfolio, klaster va argumentlashtirish hamda muammoli vaziyatlar talabalarda darsga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi. Shuningdek, innovatsion metodlar orqali pedagogic jarayonning samaradorligi sezilarli darajadi o‘zgaradi. Pedagog talaba shaxsini yanada chuqurroq tushunadi va o‘rganadi hamda uning o‘ziga xos bo‘lgan qobilyatlarini ochib beradi va mustaqil fikrlashga undaydi.

Loyiha asosidagi ta’lim. talabalarning amaliyotga asoslangan holda o‘rganishini hamda o‘rganilgan bilimlarini hayotiy vaziyatlarda qo‘llashni va mustaqil qaror qabul qilishni o‘rgatadi. Shuningdek, loyihaviy ta’lim talabalarda jamoada ishlashga, tanqidiy va kreativ fikrlashga hamda vaqtni boshqarishga o‘rgatadi. Masalan, talabalarga real hayotdagi muammoni hal qilishni topshiriq qilib berilganda, ular o‘z bilimlaridan, ko‘nikmalaridan foydalanishadi, kerakli manbalarni izlashadi, g‘oyalar ishlab chiqishadi va yakuniy natijani yaratadi. Har bir bosqich yakunida talabalar o‘z faoliyatini tahlil qiladi, kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi, kelgusidagi ishlari uchun xulosa va mulohazalar qilishadi. Nafaqat nazariy bilimlarni, balki xayotiy masalalariga ham javob topa olishadi

Psixologik sog‘lomlik pedagogik faoliyatda juda ham muhim va beqiyosdir. Pedagog talabaning ichki motivatsiyasini qo‘llab-quvvatlashi, uning his-tuyg‘ularini tushunish va talaba uchun sog‘lom psixologik muhit yaratib berishi lozim. Pedagog tomonidan amalga oshiriladigan amaliy mashg‘ulotlarda talabalarning shaxsiy tajriba va his- tuyg‘ularini aks ettirishga yo‘naltirilgan topshiriqlarni o‘rni kattadir. Bu amaliy topshiriqlar, obrazli ifodalar hamda rolli o‘yinlar orqali talabalar o‘z tuyg‘ularini anglashni ularni tahlil qilishni o‘rganadi. Shuningdek, psixologik yondashuvda agar pedagog tomonidan doimiy ravishda talabaga nisbatan psixologik qo‘llab-quvvatlash amalga oshirilsa, talabada stressga bardoshlilik, ijtimoiy moslashuvchanlik va empatiya ko‘nikmalari shakllanadi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga asoslangan topshiriqlar talabalar orasida ta’lim sifatini sezilarli darajada rivojlantiradi, mustaqil o‘ylashga, muammoni tahlil qilishga va uni yechimiga bir necha yechimlar topishiga, g‘oyalarni ilgari surishga yordam beradi. Bu jarayonda talabalar o‘z fikrini mustaqil ifoda etish, har xil yo‘llarni solishtirish va o‘zi uchun eng optimal yechimni topishga o‘rganadilar.

Talabalarga tanqidiy va kreativ fikrlashlarini rivojlantirish uchun bir necha kitoblarni tavsiya qilsa ham bo‘ladi. Masalan Austin Kleonni “Steal an artist” bu kitob ijodkorlikning eng go‘zal sirlarini ochib beradi. Bu kitob har qanday insonni ijodiy va noodatiy tarzda fikrlashga undaydi. Muallif bu kitobda o‘z hayotiy tajribalariga asoslangan holda yozilgan. Bu kitobdan talabalar o‘zlariga odat bo‘lib qolgan fikrlashdan chiqib kengroq fikrlashni o‘rganishadi. Kleon talabalarga xatolar – bu o‘sish uchun imkoniyatligini, ijod- bu izlanish jarayoni, mukammalik emasligini hamda har narsadan bilim olish mumkinlini (filmlar, suhbatlar, tabiat, dars jarayonlari) saboqlarni o‘z kitoblarida ilgari suradi. Keyingi kitob bu “Creative confidence “Tom Kelley va David Kelley tomonidan yozilgan. Bu kitobda har bir shaxs o‘z g‘oyalariga ishonishi- har qanday kichik fikr kelajakda katta natija berishi mumkinligi, tajriba qilishdan qo‘rqmaslik haqida hamda jamoaviy ijod juda muhimligi chunki unda fikr almashish, boshqalar bilan hamkorlikda o‘rganish ijodiy fikrni kuchaytirishi haqidagi g‘oyalar ilgari surilgan. Mualliflarning fikricha har bir inson aslida kreativ, faqat o‘ziga ishonchsizligi bunga to‘sqinlik qiladi. Kitobda talabalarni ruhlantiruvchi iqtiboslar ham berilgan. Masalan, “Muvaffaqiyatsizlik og‘riqli, ammo u eng yaxshi o‘qituvchi”.

Har bir talabani hayotida uni ilhomlantiradigan, o‘z ustida ishlashiga undaydigan, bilimga bo‘lgan qiziqishini oshiradigan pedagog bo‘ladi. Zamonaviy pedagog esa faqat bilim beruvchi emas, balki talabaning ichki salohiyatini ochuvchi yo‘lboshchidir. Pedagogning har bir darsi mazmunan boy, noodatiy uslublar bilan bezatilgan bo‘lib, talabada tanqidiy fikrlash va o‘zini anglash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Mashg‘ulotlarda qo‘llaniladigan ijodiy topshiriqlar, masalan “shardan kub hosil qilish” kabi noodatiy vazifalar, talabalarning tafakkurini kengaytiradi va yangi yechim topish qobiliyatini rivojlantiradi. Pedagognin tahliliy fikrlari va samimiy muloqoti esa o‘quvchi bilan pedagog o‘rtasida ishonchli aloqani mustahkamlaydi. Shuningdek, psixologik yondashuv asosida o‘tkazilgan mashg‘ulotlar talabalarga o‘z his-tuyg‘ularini anglash, o‘zini ifoda etish va ichki muvozanatni topish imkonini beradi. Xulosa qilib aytganda, bunday pedagogik yondashuvlar talabaning shaxsiy va intellektual o‘sishiga turtki bo‘lib, uni mustaqil, ijodkor va o‘zini anglay oladigan shaxs sifatida shakllantiradi.

Talabalar orasida tadqiqot o‘tkazildi. Bu tadqiqotning maqsadi oliy ta’lim muassasalarida talabalarni ijtimoiy qo‘llab- quvvatlash tizimi qay darajada yo‘lga qo‘yilganini, shuningdek talabalarni psixologik, ma’naviy va amaliy jihatdan kelajakdagi oilaviy hayotga tayyorlash jarayoning samaradorligini aniqlashdan iborat edi. Bu tadqiqot orqali pedagoglar tomonidan o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlar, suhbatlar va treninglarning oilaviy hayotga tayyorgarlikka ta’sirini o‘rganish, va ularni ma’naviy va psixologik jihatdan oilaviy hayotga tayyor deb his qilishi darajasini tahlil qilish hamda tanqidiy fikrlash va hayotiy qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishdagi ta’lim jarayonining rolini aniqlashdan iborat edi. O‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, respondentlarning 56,3% qismi oliy ta’lim muassasasida ijtimoiy qo‘llab quvvatlash tizimi yetarlicha yo‘lga qo‘yilganini ta’kidladi. Bu esa, talabalarni o‘zlarini ta’lim muassasida yetarlicha himoyalangan deb his qiladi. Shuningdek, talabalarning 75% qismi o‘qish jarayonidagi mashg‘ulotlar ularni ma’naviy va psixologik jihatdan oilaviy hayotga tayyorlashga yordam berayotgani haqida qayd etdi. Bundan tashqari, 68,8 % talabalarning qismi

universitetda o‘tkaziladigan tadbirlar hamda treninglar ularni ijtimoiy faolligini oshirganini hamda oilaviy ma’suliyat tushunchalarini oshirganini takidlashdi. Eng e’tiborga tushgan natija bu 100% talaba dars va muhokamalar ularda tanqidiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish hamda gender tengligi va oilaviy rollarga yangicha yondashuvni shakllantirishda muhim rol o‘ynaganini tan olgan.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, talabalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi umuman samarali ishlamoqda, ammo ayrim yo‘nalishlarda takomillashtirish zarur. Shu bois, amaliy psixologik treninglar sonini ko‘paytirish, Pedagoglar ta’lim jarayonida tanqidiy tafakkurni shakllantirish metodlarni qollash, hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantishda argumentlashtirish va mustaqil qaror qabul qilshni o‘rgatishni kiritish maqsadga muvofiqdir. Universitetlarda ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlash faoliyatini kuchaytirish orqali talabalar ruhiy holatini mustahkamlash, ularni kelajakdagi oilaviy hayotga tayyorlash va shaxsiy rivojlanishini yanada samarali ta’minlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hasanova, M. (2020). Zamonaviy pedagogik metodlar va ularning ta’lim jarayonidagi o‘rni. Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Yuldashev, O. (2019). Innovatsion ta’lim texnologiyalari. Samarqand davlat universiteti nashriyoti.
3. Karimov, A. (2021). “Loyiha asosida o‘qitishning talaba motivatsiyasiga ta’siri.” Ta’lim va taraqqiyot jurnali, 3(2), 45–52.
4. Saidova, N. (2022). “Psixologik yondashuv asosida shaxsni anglash metodikasi.” Pedagogika va psixologiya jurnali, 6(1), 77–84.
5. Austin Kleon “ Steal an artist”
6. “Creative confidence “ Tom Kelley va David Kelley

OLIY TA'LIM TIZIMIDA IJTIMOIY HIMOYA MEXANIZMLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK OMILLAR

Ismailova Zuxra Karabayevna[1], Тиллаев Алишер Хасанович[2], Berdysheva Guljan Alimbaevna[3]

[1]Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti-milliy tadqiqot universiteti professori, pedagogika fanlari doktori, xotin-qizlar maslahat Kengashi raisi**;**

[2]Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti-milliy tadqiqot universiteti mustaqil tadqiqotchisi;

[3]Qozoqiston Agrar Milliy tadqiqot universitetining “Umumiy ta’lim fanlari” kafedrasi o‘qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.17623720

Annotatsiya. *Oliy ta'lim muassasalarida talabalarni ijtimoiy himoya qilish mexanizmlari - stipendiyalar, moddiy yordam, psixologik qo‘llab quvvatlash markazlari va hokazo - ta'lim samaradorligini saqlash va yengillashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Ammo bu mexanizmlarning samaradorligi bir qator psixologik va pedagogik omillar bilan belgilanadi. maqolada avtor psixologik omillar (talabalarning ruhiy salomatligi, motivatsiya, stress, ehtiyojlar), pedagogik omillar (o‘qituvchi qo‘llab quvvatlashi, inklyuziv muhit, tьyutorlik, pedagogi qo‘llab-quvvatlash usullari) va ular ijtimoiy himoya mexanizmlarini samarali amalga tatbiq etishda qanday ta'sir ko‘rsatishini tahlil qiladi.Shu bilan birga oliy ta'lim tizimida ijtimoiy himoya mexanizimining samaradorligini oshirishning psixologik va pedagogik omillarini modelini ishlab chiqadi. Maqolaning yakuniy qismida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilib, takliflar berilgan.*

Kalit so‘zlar*: oliy ta'lim, ijtimoiy himoya, psixologik qo‘llab-quvvatlash, pedagogik omillar, stress, motivatsiya, inklyuziv ta'lim,himoya mexanizmi, pedagogik omillar, ruhiy salomatlik.*

Key words*: higher education, social protection, psychological support, pedagogical factors, stress, motivation, inclusive education, defense mechanism, pedagogical factors, mental health*

Abstract. *Mechanisms of social protection of students in institutions of higher education - scholarships, material support, psychological support centers, etc. - play an important role in maintaining and facilitating the effectiveness of education. However, the effectiveness of these mechanisms is determined by a number of psychological and pedagogical factors. In the article, the author discusses psychological factors (students' mental health, motivation, stress, needs), pedagogical factors (teacher support, inclusive environment, tutoring, pedagogical support methods) and analyzes how they affect the effective implementation of social protection mechanisms. At the same time, a model of psychological and pedagogical factors for increasing the effectiveness of social protection mechanisms in the higher education system is developed. The final part of the article analyzes the scientific literature and makes suggestions.*

Кириш. Bugungi kunda davlatning ijtimoiy funktsiyalari doimiy ravishda murakkablashib bormoqda. Endi ular ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy sug‘urta, sog‘liqni saqlash, oila, uy-joy, ta'lim sohalariga keng tarqalib bormoqda. Ijtimoiy sohadagi masalalarga

qarashlarimiz asta-sekinlik bilan o‘zgarib, avvalgi tushunchalar va yondashuvlar yangicha mazmun-mohiyat kasb etmoqda. Jumladan, “ijtimoiy siyosat”, “ijtimoiy himoya”, “ijtimoiy sheriklik” kabi tushunchalar avvalgisidan farq qilib, hayotimizda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni tobora ko‘proq o‘zida aks ettirmoqda. Shu sababli, ijtimoiy siyosat fuqarolarning ayniqsa, yoshlarning faqat moddiy muammolarinigina hal qilishga qaratilgan faoliyat bo‘lmay, balki davlat ichki siyosatining asosiy qismini o‘zida ifoda etmoqda. Darhaqiqat, mamlakatda davlatning ijtimoiy funktsiyasi doimiy ravishda dolzarb bo‘lib kelgan. Davlatning ijtimoiy funktsiyasi ijtimoiy jihatdan kam ta'minlanganlarga moddiy pul shaklida yordam ko‘rsatishdangina iborat bo‘lmasdan, balki mamlakat ijtimoiy infratuzilmasining normal faoliyat yuritishini ta'minlash, bu sohada samarali davlat va jamiyat boshqaruvini amalga oshirish, fuqarolar uchun har tomonlama qulay sharoitlarni ta'minlab berish masalalarini o‘z ichiga qamrab olmoqda. Davlatning rivojlanishi bilan uning ijtimoiy maqsadi, aholining turmush darajasi, ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari, shuningdek, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy sohaga aralashuvi chegaralari va ayniqsa aholining ayrim guruhlari ijtimoiy-iqtisodiy holati haqidagi g‘oyalar ham o‘zgarib bormoqda.

Darhaqiqat, islohotlarning dastlabki bosqichida ijtimoiy himoya aholining barcha qatlamlariga nisbatan amalga oshirildi. Bunda oylik ish haqlari, pensiya va stipendiyalar oshirilib, aholiga turli xil imtiyozlar va ijtimoiy kafolatlar berildi.

Davlat faoliyatida ijtimoiy funktsiyani amalga oshirish yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Bu orqali, birinchidan, har bir inson uchun munosib turmush sharoiti yaratilib, fuqarolarning tinchligi ta'minlanadi, ikkinchidan, ishsizlar, keksalar, nogironlar, ko‘p bolali oilalar, yetim bolalar, to‘liq bo‘lmagan oilalardagi bolalar, etnik nizolar bo‘lgan taqdirda – qochoqlar va majburiy ko‘chirilganlar uchun ijtimoiy himoya ta'minlanadi, uchinchidan jamiyatda ijtimoiy adolat va hamjihatlik, shuningdek, shaxsni himoya qiladigan demokratik tizim kuchayadi.

Bir so‘z bilan aytganda, davlatning ijtimoiy sohada muvafaqqiyatli faoliyat borishi iqtisodiy, siyosiy va boshqa davlat funktsiyalarini samarali amalga oshirish shartlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Davlat rivojlanishining hozirgi bosqichida ijtimoiy himoya pul mablag‘lari, ma'naviy qo‘llab-quvvatlash, imtiyozlar va xizmatlar, ehtiyojmand fuqarolarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan, ularning o‘zini o‘zi ta'minlash uchun sharoit yaratishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui bo‘lishi kerak.

Asosiy qism. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda hozirda na faqat davlat va jamiyat tomonidan olib borilayotgan islohatlarda ijtimoiy himoya va ijtimoiy faollik masalalari , balki oliy ta'lim muassasalarida ham bu borada bir qancha natijaviy ishlar amalga oshirilayotganini aytish mumkin. Albatta ijtimoiy himoya masalasida bugungi kunda yoshlarda eng katta xususiyatlardan biri faollikdir**.** Avvalo biz xorijiy davlatlar ta'lim tizimida bu borada olib borilayotgan tadqiqotlarning ham mazmun mohiyatiga nazar tashlamoqchimiz. Jahon ta'lim tizimida ijtimoiy faollikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlarini Association for Educational Communications and Technology – AECT (AQSh), Belfield pedagogical university (Germaniya), Centre of increasing to pedagogical (Buyuk Britaniya); universiteti (Janubiy Koreya), Miyagi pedagogika universiteti (Yaponiya), Instituteof (Shveytsariya), University of Bridgeport (Chikago), University of Warwick (London) va Edith Cowan University (Amsterdam) kabi nufuzli oliy ta'lim muassasalari va markazlarida bir qancha amaliy natijalarga erishilgan.

Bu esa talabalarning ijtimoiy va kasbiy faoliyat ko‘nikmalari hamda shaxsiy pedagogik faolligini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish, ularning ijtimoiy tashabbuskorligini qo‘llab-quvvatlashga doir yangi pedagogik vositalarni ishlab chiqish, ijtimoiy-madaniy va kommunikativ faoliyatni samarali tashkil etish malakalarini rivojlantirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jamiyatning rivojlanishi faqatgina iqtisodiy ko‘rsatkichlar, aholining turmush darajasini o‘sishi bilangina emas, inson va jamiyat munosabatlarining o‘zgarishi, shaxsning o‘z-o‘zini anglash jarayonlari va ijtimoiy, ahloqiy qadriyatlarining transformatsiyasi bilan ham belgilanadi. Zamonaviy jamiyatda nafaqat texnologik nuqtai nazardan, balki, jamiyat hayotining barcha tomonlarda jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Buning sabablaridan biri shundaki, avval insoniyat lokalizm dunyosida yashagan. Ya'ni, yagona mafkura jamiyat hayotini butkul egallagan, tashqi dunyodan kelayotgan axborotlar kuchli senzura to‘sig‘iga duch kelgan.

Bugungi kunda jahon ta'lim taraqqiyotida talabalarning ijtimoiy va psixologik manfaatlarini himoya qilish muhim vazifaga aylangan. Talabalarni moddiy-ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashsiz, ularda psixologik stress, motivatsiyaning pasayishi, akademik moslashuvda qiyinchiliklar paydo bo‘lishi mumkin. Ijtimoiy himoya - jamiyatdagi ehtimoliy ijtimoiy xatarlardan (iqtisodiy qiyinchilik, ijtimoiy tengsizlik, ruhiy stress va hokazo) shaxsni himoya qilish va qo‘llab-quvvatlash tizimi - turli shakllarda amalga oshiriladi: ijtimoiy yordam, ijtimoiy sug‘urta, moddiy yordam va boshqalar)

Oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy himoya mexanizmlari - stipendiyalar, imtiyozlar, psixologik xizmatlar - mavjud, ammo ularning samaradorligi (talabalar uchun haqiqiy qiymat yaratishi) doim ham yuqori emas. Bu samaradorlikni oshirishda psixologik va pedagogik omillarning ta'siri katta (1-rasm).


1.Psixologik omillar va ularning ta'siri

Psixologik omillar - talabalarning fikrlashi, emotsional holati, motivatsiya, stressga tobgirlik, reziliyens (jivuchlik) va shunga o‘xshash xususiyatlar - ta'lim jarayonida ularning samaradorligini bevosita belgilaydi.

.Ruxiy salomatlik, stress va psixologik qiyinchiliklar

Talabalar o‘qish jarayonida stress, bosim, davra-muddatlarni bajarish tartibi, ijtimoiy munosabatlardagi muammolar sabab psixologik qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.

Hozirgi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ruhiy salomatlikka yordam berish mexanizmlari (masalan, psixologik maslahat, stresstga qarshi treninglar) talabalarning ta'limda davomchiligini ta'minlashda muhim omildir.



1-rasm.Ijtimoiy himoya mexanizmlari samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar

Hozirgi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ruhiy salomatlikka yordam berish mexanizmlari (masalan, psixologik maslahat, stresstga qarshi treninglar) talabalarning ta'limda davomchiligini ta'minlashda muhim omildir.

Motivatsiya va e'timod (self-efficacy)

Talabalarning o‘qishga bo‘lgan ichki motivatsiyasi, o‘qishga sodiqliklari va o‘zga qarshi maqsad qo‘yish qobiliyati ijtimoiy himoya mexanizmlaridan foyda ola olishlarini belgilaydi. Agar talabada motivatsiya past bo‘lsa, moddiy yordam va psixologik qo‘llab-quvvatlash mavjud bo‘lsa ham, ulardan samarali foydalanilmay qolishi mumkin.

Reziliyens (jivuchlik, stresska chidamlilik)

Kachkын va Jorobaviy (2025) tadqiqoti talabalarning reziliyensligi (jivuchligi) ularning universitet muhitiga moslashuvida va stress bilan kurashish qobiliyatida muhim omil ekanligini ko‘rsatdi.

Shakldagi yordam va psixologik yordam soqlashTalabalar oilaviy yordam, do‘stlik yordami va institut tomonidan berilgan qo‘llab-quvvatlash psixologik salomatlik va o‘qishdagi faollikka ijobiy ta'sir qilaonini ko‘rsatuvchi tadqiqotlar mavjud. Shu bilan birga, talabalar

psixologik yordam izlashda introvertlik, stigma (ijtimoiy tamg‘a), yordam so‘rashga doimiy ruhiy to‘sqinliklar bilan to‘qnashadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Psixologik omillar ijtimoiy himoya mexanizmlarining samaradorligini belgilashda hal qiluvchi rolь o‘ynaydi**.**

2. Pedagogik omillar va ularning ta'siri

Pedagogik omillar - o‘qitish usullari, o‘qituvchi-qo‘llab-quvvatlash, inklyuziv muhit, tьyutorlik va pedagog-psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimlari - ijtimoiy himoya mexanizmlarining talabalar uchun haqiqiy qiymat yaratishida muhim rol o‘ynaydi.

O‘qituvchi qo‘llab-quvvatlashi va mustahkam o‘qituvchi-talaba munosabatlari.

O‘qituvchi tarafidan berilgan qo‘llab-quvvatlash talabalarda havas va motivatsiyani oshiradi va shunchaki: o‘qituvchi qo‘llab-quvvatlashi talabalarning asosiy psixologik ehtiyojlarini (avtonomiya, kompetentsiya va bog‘liqlik) qondirishda muhim rolь o‘ynaydi va shu orqali ishtiroki va motivatsiyasini oshiradi.

Pedagoglarning hamdillik, empatiya, fidoyilik kabi kasbiy va shaxsiy xususiyatlari talabalarning ko‘proq qo‘limdan keladigan tajriba olishlariga yordam beradi.

Inklyuziv ta'lim va barmoqli muhit

Barcha talabalarga, jumladan nogiron talabalarga yordam berish, teng imkoniyatlar yaratish pedagogik hamda siyosiy majburiyatdir. Talabalar o‘zlari uchun qulay sharoitlarda tahsil olishsa, ijtimoiy himoya mexanizmlaridan foydalanishlarining samarasi oshadi.

Tьyutorlik va kuratorlik tizimi


Tьyutorlar va kuratorlar talabalarni psixo¬logik, akademik va ijtimoiy masalalarda qo‘llab-quvvatlab, ularni tizimli yo‘l-hidoyatli qilib turadilar. Bu tizim mexanizmlarni amaliyotda foydalanishni osonlashtiradi.

Pedagog-psixologlar va qo‘llab-quvvatlash markazlari

Universitetlarda psixolog va pedagog-psixologlar ishlab, talaba muammolarini erta aniqlash va interventsiya (maslahat, trening, gruppalar) olib borish mumkin. Masalan, Frontiers jurnalida chiqgan tadqiqotda yangi kirgan studentlarda motivatsiyani oshirishda psixologik qo‘llab-quvvatlash strategiyalari ko‘rsatilgan. Bu borada biz tomonimizdan ijtimoiy himoya mexanizmini strukturasi quyidagicha keltirib o‘tish maqsadga muvofiqdir (2-rasm).

1.Oliy ta'limda ijtimoiy himoyaning muhim elementlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Stipendiyalar va grantlar
- Imtiyozli qarzlar va hokimiyat tomonidan subsidiyalangan to‘lovlar
- Moddiy yordam (transport, turar joy, ovqatlanish)
- Psixologik maslahat xizmatlari
- Inklyuzivlik choralari (nogiron talabalar uchun imtiyozlar, alohida imkoniyatlar)



2-rasm.Ijtimoiy himoya mexanizmi strukturasi

Bu mexanizmlar talabalarni moddiy va psixologik og‘riqdan ancha yengillashtiradi hamda ta'lim samaradorligini yaxshilaydi.

Bugungi kunda talabalarning ijtimoiy va psixologik manfaatlarini himoya qilish vazifalari:

1. Psixologik omillarni aniqlash va ularning mexanizmlarga ta'sirini tahlil qilish.
2. Pedagogik omillar va ularning mexanizmlar bilan o‘zaro bog‘liqliklarini ko‘rsatish.
3. Xorijiy adabiyotlarga asoslanib, tajribalarni taqqoslash va O‘zbekiston sharoitiga mos keluvchi takliflar berish.

Shunday qilib, barcha fikr va mulohazalarning natijasi sifatida biz tomonimizdan bugungi kunda oliy ta'lim tizimida ijtimoiy himoya mexanizmini samaradorligini oshirishga o‘z hissasini qo‘shadigan ijtimoiy himoyanining asosiy tarqibiy qismlari, ularga yaratilgan shart-sharoitlar, olib borilgan ishlarning natijadorligini aniqlash mezonlari va universitetlarda qo‘llaniladigan metodlar va texnologiyalar, shu bilan birga ijtimoiy himoyaga ta'sir etuvchi asosiy omillar va baholash darajalarini eьtiborga olgan holda bloklar kesimida “Oliy ta'lim tizimida ijtimoiy himoya mexanizimini takomllashtirishning psixologik va pedagogik modeli ishlab chiqildi (3-rasm).

I. MODELNING ASOSIY TARKIBIY QISMLARI

Blok nomi	Mazmun va vazifalar	Qo‘llaniladigan metod va texnologiyalar
1. Kirish blok	Ijtimoiy himoya tizimining amaliy holatini tahlil qilish, muammolar va ehtiyojlarni aniqlash	SWOT tahlil,
2. Asosiy blok	Ijtimoiy himoyaning institutsional, moliyaviy, psixologik, akademik va ijtimoiy yo‘nalishlarini rivojlantirish	sotsiologik so‘rov,
3.Takomillashtirish blok	Raqamli integratsiya, huquqiy asoslarni mustahkamlash, barqaror moliyalashtirish, innovatsion yechimlar joriy etish	Monitoring
4. Natija blok	Talabalar va xodimlar ijtimoiy himoyasi samaradorligini oshirish, institutsional nufuzni mustahkamlash	Interaktiv boshqaruv texnologiyalari,

II. IJTIMOIY HIMOYA TIZIMINI YARATISHNING SHART-SHAROITLARI

Yo‘nalishlar	Yaratilgan shart-sharoitlar	Modelda qo‘llaniladigan mexanizmlar
Moliyaviy himoya	Grantlar,	Avtomatlashtirilgan moliya taqsimoti platformasi,
Psixologik qo‘llab-quvvatlash	Stipendiyalar,	Elektron hisobot tizimi
Akademik himoya	Sug‘urta tizimi,	“E-Psychology” dasturi,
Ijtimoiy integratsiya	Moddiy yordam fondlari	Stress menejment texnologiyasi

III. NATIJANI BAHOLASh MEZONLARI

Mezon nomi	Baho usuli	Mantiqiy tavsif
Samaradorlik mezoni	KPI ko‘rsatkichlari asosida	Himoya mexanizmlarining aniq natijaga ta'sir darajasi
Qoniqish mezoni	Sotsiologik so‘rov va fokus-gruppa tahlili	Talabalar va xodimlarning himoya tizimidan mamnunlik darajasi
Barqarorlik mezoni	Davomiy tahlil,	Ijtimoiy himoya tizimining uzoq muddatli barqaror ishlashi
Innovatsionlik mezoni	Yillik hisobotlar	Yangi texnologiyalar va mexanizmlar faoliyati samarasi
Institutsional nufuz mezoni	Yangiliklar soni va joriy etish samarasi	Tizimning umumiy obro‘-e'tibor darajasi

IV. TA’SIR ETUVChI OMILLAR

mil turi	Tavsif
Iqtisodiy omillar	Davlat byudjeti, grantlar, sarf-xarajatlar samaradorligi
Ijtimoiy omillar	Jamoaviy munosabatlar, ijtimoiy tenglik, korporativ madaniyat
Psixologik omillar	Xodim va talabalarning ruhiy holati, ish muhiti
Innovatsion omillar	Sifrlashtirish darajasi, texnologik imkoniyatlar
Huquqiy omillar	Qonunchilik asoslarining mustahkamligi va amaliy qo‘llanilishi

V. BAHOLASh DARAJALARI

Daraja	Tavsifi
I daraja - Past	Ijtimoiy himoya tizimi mavjud, ammo natijadorlik past va tizimlilik yo‘q
II daraja - O‘rta	Alohida elementlar samarali ishlamoqda, lekin integratsiya yetarli emas
III daraja - Yuqori	Barcha mexanizmlar o‘zaro bog‘langan, raqamli nazorat yo‘lga qo‘yilgan
IV daraja - Innovatsion	Himoya tizimi avtomatlashtirilgan, shaxsiy rivojlanish platformalari bilan bog‘langan

3-rasm. Oliy ta'lim tizimida ijtimoiy himoya mexanizimini takomllashtirishning psixologik va pedagogik modeli

Xulosa va takliflar

1. Ushbu metodologik-mexanizmli model oliy ta'lim tizimida ijtimoiy himoya tizimini innovatsion, raqamlashgan va shaxsga yoo‘naltirilgan yondashuvlar orqali takomillashtirishni nazarda tutadi.

2. Baholash mezonlari va ta'sir etuvchi omillar tizimi asosida modelning samaradorligi doimiy monitoringda bo‘ladi.

3.Barcha oliy ta'lim tizimida ijtimoiy himoyani samaradorligini oshirishda pedagogik-psixologik omillarining ta'ьsiri va ularni amalga oshirishda olib boriladigan ishlarni samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi takliflarni berish mumkin. Ular:

4.Psixologik monitoring va skrining tizimini joriy etish. Talabalar kirishda, davomida va imtihon muddatlarida psixologik anketalar testlarini o‘tkazish.

5.Psixologik qo‘llab-quvvatlash markazlari tashkil qilish. Universitetlarda bepul psixologik maslahatlar, stressni boshqarish treninglari, guruhli terapiyalar.

6.Pedagoglarni psixologik-pedagogik malaka bilan ta'minlash. O‘qituvchilarni empatiya, motivatsiya, emotsional intellekt kabi malaka bilan o‘qitish.

7.Тьyutorlik va kuratorlik tizimini kengaytirish. Har bir talabani individual qo‘llab-quvvatlash, ularning moddiy va psixologik holatini kuzatib borish.

8.Inklyuziv muhit yaratish. Barcha talabalar uchun teng sharoit, nogiron talabalarga imtiyozlar, adaptativ ta'lim usullari.

9.Ma'lumot va kommunikatsiya strategiyalari. Talabalarga mexanizmlar haqida axborot berish, psixologik qo‘llab-quvvatlash vositalariga murojaat qilishni odatiy qilish.

10.Saralash (yordam) Barcha talabalarga emas, ehtiyojga ega talabalarga qaratilgan yordam modullarini ishlab chiqish.

11.Monitoring va baholash tizimlari. Universitetlar mexanizmlarning samaradorligini xalqaro va ichki indikatorlar bo‘yicha muntazam baholab borishi kerak. Quyidagi takliflar universitetlar va davlat darajasida nazarda tutiladi:

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Zhai, Y. & Carney, J. V. (2024). *The role of mental health and protective factors in student academic persistence and retention during a global crisis*. **Global Mental Health**, 11: e15. PMC)
2. *Factors that influence mental health of university and college students in the UK: a systematic review*. (2022). **BMC Public Health**, 22:1778. (BioMed Central)
3. *Perceived teacher support and student engagement among higher education students – a systematic literature review*. (2025). **BMC Psychology**. (BioMed Central)
4. Kachkyn uulu, A., & Zhorobai kyzy, N. (2025). *The influence of life resilience on students’ successful adaptation to the conditions of higher education institutions*. Bulletin of the Jusup Balasagyn Kyrgyz National University. (balasagynbulletin.com)
5. Astuti, C. S. W., Pramukti, I., & Widianti, E. (n.d.). *Factors Related to Psychological Help-Seeking Behavior among First-Year College Student.* JURNAL PENDIDIKAN KEPERAWATAN INDONESIA. (ejournal.upi.edu)
6. Li, T., Pichugin, V., Shaknmalova, I., Ismailova, N., & Salimova, S. (2022). *Psychological support and strategies for raising motivation in fresh students*. Frontiers in Psychology.(Frontiers)
7. Koech, D. K., Degago, E., & Molnár, E. *Leveraging social media for social protection: Addressing the challenges of international students abroad*. Journal of International Students. (ojed.org)
8. Rustamova, N. R., Sharifzoda, S., Burxanxodjaeva, X., Rahimqulova, L. U., Turdialiev, M., Nurullaev, F., & Eshchanova, D. (2025). *Social Protection in Developing Countries: Legal, Economic, and Social Trends*. Qubahan Academic Journal, 5(1), 118–149. (journal.qubahan.com)
9. Jonbekova, D. (2023). *Government scholarships for international higher education: pathways for social change in Kazakhstan*. High Educ. (Dordr). (PMC)
   Tsverukayi, B. H., & Poshai, L. (2024). *Commodification of Zimbabwe’s higher education amid funding decline: Impact on universal access*. Transformation in Higher Education, 9. (thejournal.org.za
11. (Rustamova va boshqalar, 2025). (journal.qubahan.com

OLIY TA’LIM TIZIMIDA TALABA-QIZLARNI IJTIMOIY QO‘LLAB-QUVVATLASH VA OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Joldasova Gozzal Aybekovna
University of innovation technologies Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim kafedrasi assistent o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17623730

Annotatsiya: *Mazkur tezisda oliy ta’lim tizimida talaba-qizlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ularni oilaviy hayotga tayyorlash masalalari, gender tenglik tamoyillarini ta’lim jarayoniga joriy etishning milliy va xalqaro tajribalari tahlil qilinadi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida talaba-qizlar uchun yaratilgan ijtimoiy, ma’naviy va psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimining samaradorligi hamda xalqaro hamkorlikning roli yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *gender tenglik, talaba-qizlar, oilaviy hayot, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, xalqaro tajriba, oliy ta’lim.*

Аннотация*: В данном тезисе анализируются вопросы социальной поддержки студенток в системе высшего образования, их подготовки к семейной жизни, национальный и международный опыт внедрения принципов гендерного равенства в образовательный процесс. Также освещается эффективность системы социальной, духовной и психологической поддержки, созданной для студенток в Республике Узбекистан, а также роль международного сотрудничества.*

Ключевые слова*: гендерное равенство, студентки, семейная жизнь, социальная поддержка, международный опыт, высшее образование.*

Abstract*: This thesis analyzes issues of social support for female students in the higher education system, their preparation for family life, national and international experience in introducing the principles of gender equality into the educational process. The effectiveness of the social, spiritual, and psychological support system created for female students in the Republic of Uzbekistan, as well as the role of international cooperation, are also highlighted.*

Keywords*: gender equality, female students, family life, social support, international experience, higher education.*

Hozirgi globallashuv, texnologik rivojlanish va madaniyatlararo integratsiya sharoitida jamiyatning barqaror taraqqiyoti, avvalo, inson kapitalining sifat darajasiga bog‘liq. Inson kapitalining eng muhim qismini esa ayollar, xususan, yosh talaba-qizlar tashkil etadi. Shu bois, oliy ta’lim tizimida talaba-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning kasbiy, ma’naviy va oilaviy hayotga tayyorgarligini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda gender tenglikni ta’minlash, ayollar huquqlarini himoya qilish, ta’limda ularning ishtirokini kengaytirish, ijtimoiy va iqtisodiy faolligini oshirishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, **2019-yil 2-sentabrdagi O‘RQ–562 “Gender tenglikni ta’minlash to‘g‘risida”gi Qonun “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash bo‘yicha davlat qo‘mitasi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Prezident qarorlari** [1], hamda **2022–2026-yillarga**

mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining gender tenglik strategiyasi ushbu sohada muhim huquqiy asos yaratdi [2].

Mazkur hujjatlarda ayollarni, ayniqsa, yosh qizlarni ijtimoiy hayotning barcha sohalarida faol ishtirok etishga undash, ularning ta’lim olish, mehnat qilish va oilaviy hayotda o‘zini to‘laqonli namoyon etish imkoniyatlarini kengaytirish maqsad qilingan. Shu nuqtai nazardan, oliy ta’lim muassasalari talaba-qizlarning nafaqat kasbiy tayyorgarligini, balki ularning hayotiy kompetensiyalarini — ijtimoiy, psixologik, kommunikativ, huquqiy va ma’naviy jihatdan shakllantirish markaziga aylanmoqda [3].

Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida tahsil olayotgan talaba-qizlarning ijtimoiy faolligi, yetakchilik salohiyati, mustaqil fikrlash ko‘nikmalari, shuningdek, oilaviy mas’uliyatga tayyorgarligi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois, ularni oilaviy hayotga tayyorlashda nafaqat nazariy bilim, balki amaliy tajriba, ijtimoiy psixologik tayyorgarlik, qadriyatlarga asoslangan ma’naviy yondashuv zarur [4].

Milliy qadriyatlarimizda ayolga, onalikka, oilaviy sadoqat va mehr-oqibatga alohida e’tibor berilishi — bu boradagi tarbiya jarayonining asosiy mezonidir. Shu bilan birga, gender tenglik tamoyillarini milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish, zamonaviy ayol obrazini shakllantirish bugungi ta’lim tizimi oldidagi dolzarb vazifa hisoblanadi.

Shuningdek, xalqaro maydonda BMTning **Xotin-qizlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi (CEDAW)**, **UNESCO** va **UN Women** dasturlari orqali ayollar ta’limi, yetakchiligi va ijtimoiy faolligini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ilg‘or tajribalar shakllangan. O‘zbekiston ham ushbu global tashabbuslarda faol ishtirok etib, xalqaro hamkorlik orqali talaba-qizlar salohiyatini rivojlantirish, ularni zamonaviy oilaviy hayotga tayyorlash yo‘lida bir qator innovatsion dasturlarni amalga oshirmoqda [5].

Demak, talaba-qizlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ularni oilaviy hayotga tayyorlash masalasi nafaqat gender tenglikni ta’minlash, balki yosh avlodni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, jamiyatda sog‘lom ijtimoiy muhitni yaratish bilan ham bevosita bog‘liqdir. Bu jarayonning samarali kechishi uchun ta’lim, oila, mahalla, davlat va jamoat tashkilotlari hamkorligi, shuningdek, xalqaro tajribalardan ijodiy foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Oliy ta’lim tizimida talaba-qizlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va oilaviy hayotga tayyorlash ko‘p qirrali, tizimli va uzluksiz jarayon bo‘lib, u bir nechta yo‘nalishlarda amalga oshiriladi.

1. Ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimi

Talaba-qizlarning psixologik tayyorgarligi, o‘z-o‘ziga ishonchi va hayotiy pozitsiyasini mustahkamlash maqsadida oliy ta’lim muassasalarida psixologik maslahat markazlari, “Ishonch telefoni”, “Qizlar klubi” va “Ayollar maslahat kengashi” kabi strukturalar faoliyat yuritmoqda. Bu markazlar orqali ijtimoiy himoyaga muhtoj, ijtimoiy xatar guruhiga kiruvchi qizlarga ma’naviy va psixologik yordam ko‘rsatiladi.

2. Ma’naviy-axloqiy tayyorgarlik yo‘nalishi

Oila — jamiyatning poydevori. Shu bois, talaba-qizlarda oila mas’uliyatini his etish, mehr-oqibat, sadoqat, bag‘rikenglik, oilaviy muhitni mustahkamlash kabi fazilatlarni tarbiyalash oliy ta’limning ustuvor vazifasiga aylanmoqda.
Bu borada “Oila va jamiyat”, “Ayol psixologiyasi”, “Sog‘lom turmush madaniyati”, “Milliy qadriyatlar va zamonaviy oila” kabi maxsus fanlarni o‘quv dasturlariga kiritish muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Gender tenglik tamoyillarini ta’limga integratsiyalash

So‘nggi yillarda gender yondashuv ta’lim jarayonida ijtimoiy adolat va inson huquqlari madaniyatini shakllantirish vositasi sifatida qaralmoqda.

Oliy ta’lim muassasalarida gender tahlil asosida o‘quv rejalari, baholash tizimi, talabalar yetakchiligi va amaliyot dasturlari qayta ko‘rib chiqilmoqda. Bu esa ayol talabalarning yetakchilik salohiyatini rivojlantirishga, ularni jamoat boshqaruvi, ilmiy faoliyat va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishiga sharoit yaratmoqda.

4. Xalqaro hamkorlik va ilg‘or tajriba almashuvi

O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari BMT, UNDP, OSCE, UN Women kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda ayollarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan loyihalarni amalga oshirmoqda. Masalan, “Ayollar yetakchiligi akademiyasi”, “Qizlar uchun STEM ta’limi”, “Future Leaders of Central Asia” dasturlari orqali yuzlab talaba-qizlar xalqaro tajribadan bahramand bo‘lib, yetakchilik ko‘nikmalarini egallamoqda. Bu kabi tashabbuslar nafaqat talaba-qizlarning ta’limdagi muvaffaqiyatlarini oshiradi, balki ularni oilaviy va ijtimoiy hayotda mustaqil qaror qabul qiluvchi, faol shaxs sifatida shakllantiradi.

5. Milliy tajribani zamonaviy yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish

O‘zbekiston jamiyatida oilaviy qadriyatlar qadimdan muqaddas hisoblanadi. Shu bois, milliy urf-odatlar, oila institutiga xos an’analar va zamonaviy gender yondashuvlar o‘rtasidagi uyg‘unlikni topish bugungi ta’lim siyosatining muhim sharti sanaladi. Bu yo‘nalishda mahalla faollari, “Ayollar daftari”, “Oila markazlari” va universitet kengashlari hamkorligida ma’rifiy, psixologik va tarbiyaviy tadbirlar o‘tkazilishi natijasida ko‘plab ijobiy misollar kuzatilmoqda.

Oliy ta’lim tizimida talaba-qizlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ularning oilaviy hayotga tayyorgarligini ta’minlash va gender tenglik tamoyillarini hayotga joriy etish zamonaviy ta’lim siyosatining eng dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. Bugungi globallashuv jarayonida ayollarning jamiyatdagi o‘rni, ularning ijtimoiy faolligi va kasbiy salohiyati yildan-yilga ortib borayotgani, shuningdek, ularni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha davlat siyosatining kuchaytirilgani bu masalaga kompleks yondashuvni talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan, oliy ta’lim muassasalarida talaba-qizlarning ijtimoiy himoyasi, psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlanishi, ma’naviy barkamolligi va hayotga tayyorgarligi uchun shart-sharoitlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek jamiyatida ayol – oila va jamiyat tayanchi sifatida qadrlanadi. Shu bois ta’lim jarayonida nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, balki kelajakda barkamol onalar, mehribon turmush o‘rtoqlar, faol fuqarolar sifatida yetishishlariga xizmat qiladigan tarbiyaviy yo‘nalishlar ustuvor ahamiyatga ega. Bunda talaba-qizlarning o‘z-o‘zini anglash, ijtimoiy faoliyatda qatnashish, o‘z huquq va majburiyatlarini bilish, shaxsiy mas’uliyat va oilaviy qadriyatlarni uyg‘unlashtira olish kabi sifatlarini rivojlantirish zarur.

Gender tenglik tamoyillarini ta’lim tizimiga integratsiya qilish orqali talaba-qizlarning salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish, ularni erkaklar bilan teng huquqli ijtimoiy subyekt sifatida shakllantirish imkoniyati kengayadi. Bu esa nafaqat ta’lim sohasida, balki mehnat bozori, boshqaruv tizimi, siyosiy hayot va oilaviy munosabatlarda ham muvozanat va adolatni ta’minlaydi.

Xalqaro hamkorlik esa ushbu jarayonni yanada samarali tashkil etish uchun muhim platforma hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, YUNESKO, Yevropa Ittifoqi kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan ilgari surilayotgan gender tenglik dasturlari, ayollar huquqlarini

kengaytirishga qaratilgan tashabbuslar va xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan tajriba almashish talaba-qizlarning huquqiy, ma’naviy va kasbiy jihatdan yetuk shaxs bo‘lib shakllanishiga zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, talaba-qizlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va oilaviy hayotga tayyorlash bo‘yicha tizimli yondashuv mamlakatning barqaror ijtimoiy taraqqiyoti, oilaviy qadriyatlar mustahkamlanishi va gender tenglik tamoyillarining amaliy hayotda qaror topishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shu bois oliy ta’lim tizimida ushbu yo‘nalishdagi siyosat va pedagogik ishlar uzluksiz takomillashtirilib borilishi, xalqaro tajriba bilan uyg‘unlashtirilgan innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Gender tenglikni ta’minlash to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2019-yil, O‘RQ–562.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Gender tenglik strategiyasi.
3. Azizxo‘jaeva N.N. *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.* – Toshkent: TDPU, 2018.
4. Karimova V.M. *Oila psixologiyasi.* – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari jamiyati, 2020.
5. UN Women. *Empowering Women in Higher Education: Global Practices.* – New York, 2022.
6. UNESCO. *Gender Equality in Education: Transforming Learning Spaces.* – Paris, 2021.

TALABA-QIZLARNING IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISH VA OILAVIY HAYOTGA MOSLASHUV KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Kamalova Matluba Bahadirovna
FarDU Xotin-qizlar masalalari bo‘yicha rektor maslahatchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17623746

Annotatsiya. *Maqolada oliy ta’lim tizimida talaba-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni hayotga tayyorlash va oilaviy munosabatlarda ijobiy psixologik moslashuv ko‘nikmalarini shakllantirish masalalari yoritiladi. Milliy qadriyatlar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va gender tenglik tamoyillari asosida talaba-qizlarni tarbiyalashning nazariy va amaliy jihatlari tahlil etilgan.*

Аннотация. *В статье освещаются вопросы повышения социальной активности студенток в системе высшего образования, подготовки их к жизни и формирования навыков позитивной психологической адаптации в семейных отношениях. Проанализированы теоретические и практические аспекты воспитания студенток на основе национальных ценностей, современных педагогических технологий и принципов гендерного равенства.*

Abstract. *The article addresses the issues of enhancing social engagement among female students in higher education, preparing them for life, and developing positive psychological adaptation skills for family relationships. The theoretical and practical aspects of educating female students are analyzed, based on national values, modern pedagogical technologies, and principles of gender equality.*

Kalit so‘zlar: *talaba-qiz, ijtimoiy faollik, oilaviy hayot, moslashuv, pedagogik texnologiya, gender tenglik, shaxs kamoloti.*

Ключевые слова: *студентка, социальная активность, семейная жизнь, адаптация, педагогические технологии, гендерное равенство, личностное развитие.*

Keywords: *female student, social activity, family life, adaptation, pedagogical technology, gender equality, personal development.*

Kirish

Bugungi kunda O‘zbekiston ta’lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri – yoshlarni, xususan, talaba-qizlarni jamiyat hayotida faol, mas’uliyatli, ijtimoiy barqaror shaxs sifatida tarbiyalashdir. Prezident Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “yoshlarimiz, ayniqsa, qizlarimizning hayotga, o‘z oilasiga, Vatanga mehr-muhabbat ruhida ulg‘ayishi kelajagimiz kafolatidir”. Darhaqiqat, qizlarimiz kelajagimizning davomchilaridir. Ularga qilingan ehtirom, kelajakka qilingan ehtiromdir. Bugungi globallashuv davrida ayolning, ayniqsa talaba-qizlarning jamiyatdagi mavqei tobora ortib bormoqda. Oliy ta’lim tizimida tahsil olayotgan qizlar nafaqat bilim oluvchi shaxs, balki jamiyatning ma’naviy, madaniy va iqtisodiy rivojiga hissa qo‘shuvchi faol ijtimoiy kuch sifatida e’tirof etilmoqda. Ularning ta’limdagi ishtiroki, kasbiy o‘sishi va ijtimoiy faolligi — millatning taraqqiyot darajasini belgilovchi asosiy mezonlardan biridir.

O‘zbekiston Respublikasida qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning ta’limga, kasbga, ilmiy izlanishlarga bo‘lgan qiziqishini oshirish masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Ayollar – jamiyatning tayanchi, millatning mehr manbai. Ularning bilimli, faol va e’tiborli bo‘lishi – kelajak avlod taqdiri bilan chambarchas bog‘liq”.

Talaba-qizlar bugungi kunda: ijtimoiy faol guruh sifatida turli sohalarda o‘z salohiyatini namoyon qilmoqda, ilm-fan, madaniyat, ta’lim, tibbiyot, axborot texnologiyalari kabi yo‘nalishlarda yetakchi bo‘lib bormoqda, oila va jamiyat barqarorligining muhim omiliga aylanmoqda.

Ularning faol ishtiroki nafaqat gender tenglikni ta’minlaydi, balki milliy taraqqiyot strategiyasining ajralmas qismi sifatida namoyon bo‘ladi.

Oliy ta’lim muassasalarida talaba-qizlar sonining oshib borayotgani, ularning ilmiy faoliyatga, ijtimoiy loyihalarga jalb qilinishi, davlat grantlari va stipendiyalar orqali rag‘batlantirilayotgani bunga yorqin misoldir.

Zamonaviy talaba-qiz: tashabbuskor, yangilikka intiluvchan, ijtimoiy muammolarga befarq bo‘lmagan shaxsdir. Ular talabalik davridayoq yoshlar ittifoqi, ijtimoiy loyihalar, volontyorlik faoliyatida ishtirok etmoqda, universitet hayotida madaniy, ma’naviy tadbirlar tashkilotchisi sifatida faoliyat yuritmoqda, o‘z tengdoshlari orasida liderlik fazilatlarini namoyon etmoqda.

Shu bois, oliy ta’lim muassasalarida qizlar uchun liderlik maktablari, mentorlik tizimi va psixologik qo‘llab-quvvatlash markazlari tashkil etilmoqda. Bu nafaqat talaba-qizlarning faolligini oshiradi, balki ularning kelajakda ijtimoiy va oilaviy hayotga tayyorgarligini ham mustahkamlaydi.

Ijtimoiy faollik — bu shaxsning jamiyat hayotida faol ishtirok etish, tashabbus ko‘rsatish, qaror qabul qilishda o‘z fikrini bildirishi va ijtimoiy jarayonlarga ongli ravishda ta’sir etish qobiliyatidir. Talaba-qizlarda bu sifatni shakllantirish ularning ijtimoiy mas’uliyatini oshiradi, mustaqil fikrlash va liderlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Oliy ta’lim muassasalarida talaba-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishda interfaol ta’lim usullari, treninglar va loyiha asosidagi ta’lim texnologiyalari samarali hisoblanadi. Ijtimoiy hayotda faol bo‘lgan talaba-qizlar oilada ham bo‘ladi.

Oila – jamiyatning asosiy ijtimoiy instituti bo‘lib, insonning ijtimoiylashuvi, qadriyatlari va mas’uliyat hissi aynan oilada shakllanadi. Talaba-qizlarning oilaviy hayotga tayyorgarligi hissiy barqarorlikni ta’minlash, turmush o‘rtog‘i bilan muloqot madaniyatini rivojlantirish kabi jihatlarni o‘z ichiga oladi. Talaba-qizlarning oilaviy hayotga moslashuvini ta’minlashda rol o‘yinlari, trening mashg‘ulotlari, refleksiya mashqlari va mentorlik tizimi muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, bugungi kunda oila qadriyatlariga asoslangan milliy tarbiya texnologiyalari ham o‘quv jarayoniga integratsiya qilinmoqda.

Xulosa

Talaba-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish va ularni oilaviy hayotga tayyorlash jarayoni zamonaviy pedagogik texnologiyalar, psixologik yondashuvlar va milliy qadriyatlarning uyg‘unlashuvi asosida samarali amalga oshiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev, Sh. M. (2021). Yangi O‘zbekiston yoshlari – mamlakatimiz tayanchi. Toshkent: O‘zbekiston.

2. Karimova, G. (2022). Oliy ta’lim tizimida gender tenglik madaniyatini shakllantirish texnologiyalari. “Pedagogika” jurnali, 3(4), 22–29.
3. Rasulova, N. (2023). Talaba-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda pedagogik yondashuvlar. “Ta’lim va jamiyat” jurnali, 5(2), 56–63.
4. UNESCO. (2021). Family Life Education in Higher Institutions: Global Best Practices. Paris.
5. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. (2024). Oliy ta’limda gender tenglik bo‘yicha milliy hisobot. Toshkent.
6. Yuldasheva, D. (2023). Talaba-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish omillari. “Psixologiya va pedagogika” jurnali, 2(1), 37–44.

INKLYUZIV TA’LIM MUHITINI SHAKLLANTIRISHDA IJTIMOIY HAMKORLIK (OTA-ONALAR, JAMIYAT, NNTLAR) NING ROLI

Kuylikova Gavharoy Zairovna
Andijon davlat texnika insituti Xotin- qizlar masalalari bo‘yicha rektor maslahatchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17623754

Annotatsiya. *Mazkur maqolada oliy va umumta’lim muassasalarida inklyuziv ta’lim muhitini shakllantirishda ijtimoiy hamkorlikning ahamiyati yoritilgan. Inklyuziv ta’lim jarayonida ota-onalar, jamiyat a’zolari hamda nodavlat notijorat tashkilotlarining ishtiroki ta’lim samaradorligini oshirishdagi muhim omil sifatida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda xalqaro va mahalliy tajribalar asosida inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar beriladi*

Kalit so‘zlar: *inklyuziv ta’lim, ijtimoiy hamkorlik, ota-onalar, nodavlat notijorat tashkilotlari, psixologik qo‘llab-quvvatlash, pedagogik integratsiya.*

Аннотация. *В статье подчеркивается важность социального взаимодействия в создании инклюзивной образовательной среды в высших и средних учебных заведениях. Участие родителей, представителей общественности и общественных организаций в процессе инклюзивного образования рассматривается как важный фактор повышения эффективности образования. В исследовании представлены предложения и рекомендации по развитию инклюзивного образования, основанные на международном и отечественном опыте.*

Ключевые слова: *инклюзивное образование, социальное сотрудничество, родители, негосударственные некоммерческие организации, психологическая поддержка, педагогическая интеграция.*

Annotation. *This article highlights the importance of social cooperation in creating an inclusive educational environment in higher and general education institutions. The participation of parents, community members, and non-governmental organizations in the process of inclusive education is considered an important factor in increasing the effectiveness of education. The study provides suggestions and recommendations for the development of inclusive education based on international and local experiences.*

Keywords*: inclusive education, social cooperation, parents, non-governmental non-profit organizations, psychological support, pedagogical integration.*

Kirish

Zamonaviy ta’lim tizimida inklyuzivlik tamoyili — har bir shaxsning imkoniyatidan qat’i nazar, sifatli ta’lim olish huquqini ta’minlashga qaratilgan. Inklyuziv ta’lim nafaqat nogironligi yoki rivojlanishida **ijtimoiy hamkorlik tizimini kuchaytirish** o‘ziga xos xususiyatlari bo‘lgan bolalarni ta’lim jarayoniga jalb etishni, balki jamiyatda bag‘rikenglik, o‘zaro hurmat va tenglik muhitini shakllantirishni ham nazarda tutadi. Bunday muhitni yaratishda ta’lim muassasasi bilan bir qatorda ota-onalar, mahalla, jamoatchilik va nodavlat notijorat tashkilotlarining faol ishtiroki hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bois, inklyuziv ta’limni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlaridan biri bu —hisoblanadi.

Inklyuziv ta’lim mohiyati va maqsadi

Inklyuziv ta’lim — bu barcha talabalar uchun ochiq, teng imkoniyatli, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tizimi bo‘lib, unda har bir o‘quvchi yoki talabaning o‘ziga xos xususiyatlari inobatga olinadi. Uning asosiy maqsadi — ta’lim jarayoniga to‘siqsiz kirish, o‘zini jamiyat a’zosi sifatida his etish va ijtimoiy integratsiyani ta’minlashdir.

Ijtimoiy hamkorlikning ahamiyati

Inklyuziv muhitni yaratishda ijtimoiy hamkorlik — turli ijtimoiy subyektlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch va hamkorlikka asoslangan faoliyatdir. Bunday hamkorlik quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

- **Ota-onalar bilan hamkorlik:** farzandining rivojlanish jarayonini tushunish, uyda psixologik qo‘llab-quvvatlashni ta’minlash, o‘qituvchi bilan muntazam muloqotda bo‘lish.
- **Jamiyat bilan hamkorlik:** mahalla faollari, yoshlar tashkilotlari, korxonalar va ta’lim muassasalari o‘rtasida qo‘llab-quvvatlovchi tashabbuslarni amalga oshirish.
- **Nodavlat notijorat tashkilotlari bilan hamkorlik:** nogironlar tashkilotlari, bolalar himoyasi jamg‘armalari, ijtimoiy loyihalarni amalga oshiruvchi markazlar bilan hamkorlik qilish orqali resurslar va tajriba almashish.

Ota-onalarning roli

Ota-onalar bolaning inklyuziv ta’lim jarayonidagi birlamchi tayanchidir. Ularning ijobiy munosabati va faol ishtiroki bolaning ijtimoiy moslashuvini yengillashtiradi. Ota-onalar uchun maxsus seminarlar, treninglar va psixologik maslahatlar tashkil etilishi ta’lim jarayonini yanada samarali qiladi.

Jamiyat va jamoatchilikning roli

Jamiyatda inklyuziv qadriyatlarni shakllantirish — bu keng ma’noda insonparvarlik madaniyatini rivojlantirishdir. Mahalla, yoshlar markazlari, OAV orqali inklyuzivlik g‘oyalarini targ‘ib etish, maxsus ehtiyojli shaxslarning ijtimoiy hayotda faol ishtirokini rag‘batlantirish ijobiy natija beradi.

Nodavlat notijorat tashkilotlarining (NNT) o‘rni

NNTlar inklyuziv ta’limni rivojlantirishda amaliy yordam, grantlar, o‘quv dasturlari, treninglar va xalqaro tajribalarni joriy etish orqali muhim rol o‘ynaydi. Ularning faol ishtiroki ta’lim tizimining ijtimoiy ochiqligini ta’minlaydi.

Ijtimoiy hamkorlikning pedagogik va psixologik asoslari

Ijtimoiy hamkorlik pedagogik nuqtai nazardan — shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim va o‘zaro ishonch tamoyillariga tayanadi. Psixologik jihatdan esa, hamkorlik insonlar o‘rtasida empatiya, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash, hurmat va bag‘rikenglikni rivojlantiradi. Inklyuziv ta’lim har bir bolaning ta’lim olish huquqini ta’minlashga qaratilgan tizim bo‘lib, ayniqsa nogironligi bor bolalar va ta’limda muayyan qiyinchiliklarga duch kelayotgan o‘quvchilar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday ta’lim modelining samarali amalga oshirilishida ota-onalar va ijtimoiy tashkilotlarning hamkorligi muhim o‘rin tutadi.

1. Inklyuziv ta’lim konsepsiyasi va uning ijtimoiy ahamiyati Inklyuziv ta’lim barcha bolalarning individual xususiyatlarini inobatga olib, ularning teng huquqli ta’lim olishini ta’minlaydi. UNESCO va BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) inklyuziv ta’limni jamiyatda ijtimoiy adolatni ta’minlash vositasi sifatida qaraydi.

2. Ota-onalarning roli va ta’siri

Ota-onalar bolaning ta’lim jarayonidagi eng asosiy ishtirokchilaridan biri hisoblanadi. Ularning farzandlari bilan samarali muloqoti, ta’lim jarayoniga faol jalb etilishi bolaning

rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Psixologik qo‘llab-quvvatlash va o‘qituvchilar bilan hamkorlik muhim omildir.

3.Ijtimoiy tashkilotlarning inklyuziv ta’limni rivojlantirishdagi roli

Nodavlat notijorat tashkilotlari, xalqaro va mahalliy jamg‘armalar, maxsus ta’lim markazlari inklyuziv ta’limga ko‘mak beradi. Bu tashkilotlar moddiy va ma’naviy resurslarni yetkazib berish, malaka oshirish kurslarini tashkil etish, jamoatchilikni xabardor qilish kabi vazifalarni bajaradi.

4. Ota-onalar va ijtimoiy tashkilotlarning samarali hamkorligi

O‘zaro tajriba almashish va maslahat markazlarini yaratish.

Hamkorlikda ta’lim muassasalari uchun maxsus dasturlar ishlab chiqish.

Inklyuziv ta’lim bo‘yicha seminar va treninglar tashkil etish.

Natijalar va muhokama

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv ta’lim tizimida ota-onalar, jamiyat va NNTlar o‘rtasidagi uzviy hamkorlik:

- talabalar motivatsiyasini oshiradi;
- ijtimoiy moslashuvni yengillashtiradi;
- o‘qituvchilarning psixologik yuklamasini kamaytiradi;
- ta’lim muassasasining ijtimoiy obro‘sini oshiradi.

Bu esa inklyuziv ta’lim sifatini yaxshilash va barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa

Inklyuziv ta’lim muhitini shakllantirishda ijtimoiy hamkorlikning roli beqiyosdir. Ota-onalar, jamiyat va NNTlarning birgalikdagi harakati natijasida ta’lim tizimi insonparvar, bag‘rikeng va adolatli yo‘nalishda rivojlanadi. Shunday qilib, inklyuziv ta’lim — faqat ta’lim tizimi emas, balki butun jamiyatning mas’uliyatli hamkorligidir. Inklyuziv ta’limni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ota-onalar va ijtimoiy tashkilotlarning hamkorligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ushbu hamkorlik orqali ta’lim muhitini yaxshilash, maxsus ehtiyojga ega bolalar uchun mos sharoit yaratish va jamiyatda ijtimoiy integratsiyani mustahkamlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. — Toshkent, 2020.
2. UNESCO. *Inclusive Education: The Way of the Future.* Paris, 2009.
3. Karimova V. M. *Pedagogik psixologiya asoslari.* — Toshkent: O‘qituvchi, 2022.
4. Xidirova N. *Inklyuziv ta’lim jarayonida ota-onalar bilan hamkorlik metodikasi.* — Toshkent, 2023.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Inklyuziv ta’limni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2021-yil 13-dekabr.

TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA GENDER TUSHUNCHASINING TRANSFORMATSIYASI YANGI IDENTIFIKATSIYALAR

Maxkamova Iroda Karimjanovna[1], Razzoqova Diyora Baxtiyor qizi[2]
[1]Toshkent davlat tibbiyot universiteti Xotin-qizlar kengashi raisi
[2]Talaba - Toshkent davlat tibbiyot universiteti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17623765

Annotatsiya. *Ushbu maqolada texnologiyalar rivojlanish davrida gender tushunchasining o‘zgarishi, inson va texnologiya o‘rtasidagi falsafiy munosabatlar hamda O‘zbekiston davlat siyosati doirasida gender tengligini ta’minlash yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Postinsoniyat falsafasiga tayangan holda, maqola insonning yangi identifikatsiya shakllari, sun’iy intellekt va gender masalalarini raqamli madaniyat kontekstida o‘rganadi. Shuningdek, Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Inson qadri – eng oliy qadriyat” tamoyili gender siyosatining falsafiy va amaliy asosi sifatida talqin qilinadi.*

Kalit so‘zlar*: gender, postinsoniyat, texnologiya, identifikatsiya, inson qadri, raqamli madaniyat, falsafa, tenglik, O‘zbekiston.*

Kirish. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda inson qadr-qimmati, ijtimoiy tenglik va gender masalalariga davlat darajasida tobora ortib borayotgan e’tibor qaratilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev “Ayollarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotdagi o‘rni – millat taraqqiyotining mezonidir” deb ta’kidlaydi.

Texnologik inqilob davrida gender endi faqat biologik yoki ijtimoiy toifa sifatida emas, balki axborot, sun’iy intellekt va raqamli o‘zaro ta’sir orqali shakllanadigan falsafiy hodisa sifatida qaralmoqda.

Shu nuqtai nazardan, postinsoniyat falsafasi tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan texnologiyalar sharoitida insonning o‘zligini va gender rollarini qayta anglash uchun konseptual asos yaratadi.

Ushbu tadqiqot texnologiyalar asrida gender tushunchalarining o‘zgarishini postinsoniyat falsafasi nuqtai nazaridan tahlil qilish va bu o‘zgarishlarni O‘zbekiston davlat islohotlari hamda gender tengligi siyosati bilan bog‘lashni maqsad qiladi.

Virtual reallikda gender identifikatsiyasi tobora noaniq tus olmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda erkak yoki ayol obrazlarini sun’iy ravishda yaratish mumkin bo‘lib, bu gender rollarini falsafiy jihatdan qayta ko‘rib chiqishga olib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, IT sohasida ayollar mutaxassislarning 20 foizidan kam qismini tashkil etadi. Bu nomutanosiblik innovatsion fikrlash va qaror qabul qilish jarayonlarida gender xilma-xilligini yetishmasligiga sabab bo‘ladi.

O‘zbek jamiyati ma’naviy va an’anaviy qadriyatlarga chuqur asoslangan bo‘lsa-da, gender neytralligi va “postgenderizm” kabi global g‘oyalar tobora ustunlik qilmoqda. Bu holat yoshlar orasida axloqiy va ma’naviy ikkilanishlar, milliy o‘zlik bilan global modernizm o‘rtasidagi ziddiyatlarni keltirib chiqarmoqda.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ba’zi sun’iy intellekt algoritmlari jinsiy tarafkashlikni namoyon etadi — masalan, ishga qabul qilish yoki tavsiya tizimlarida erkak nomzodlarni afzal ko‘rish holatlari mavjud. Bunday texnologik tarafkashliklar mavjud gender tengsizliklarini mustahkamlaydi va raqamli etikada adolat tushunchasiga qarshi chiqadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2022-yildan boshlab “Raqamli iqtisodiyotda ayollar” davlat dasturi amalga oshirilmoqda. Mazkur dastur ayollarga IT va innovatsion ko‘nikmalarni egallash imkonini berib, texnologik rivojlanishda gender muvozanatini ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Falsafa insonni shunchaki “raqamli mavjudot” sifatida emas, balki “axloqiy mavjudot” sifatida anglashga yordam beradi. Shu sababli, ta’lim tizimiga “Axborot etikasi” va “Texnologiya falsafasi” kabi fanlarni kiritish zarur.

Donna Xaraveyning fikricha, inson va mashina o‘rtasidagi chegaralarning yo‘qolishi gender munosabatlarini o‘zgartirishi mumkin. Shunday ekan, texnologiya ayollarning intellektual va kasbiy rivojlanishi uchun kuchaytiruvchi vosita sifatida xizmat qilishi kerak.

“Raqamli O‘zbekiston – 2030” dasturi doirasida ta’lim dasturlariga gender sezgirlik va raqamli savodxonlikni integratsiya qilish muhim — masalan, maktablarda “Axborot madaniyati va gender tengligi” fanini joriy etish.

O‘zbekiston sun’iy intellekt etikasi bo‘yicha milliy konsepsiyani ishlab chiqishi kerak. Bu algoritmlarning inson qadriyatlari bilan uyg‘un ishlashini ta’minlaydi. Ushbu yondashuv postinsoniyat g‘oyalariga — ya’ni texnologiyalar tobora rivojlanayotgan dunyoda inson markaziy o‘rinda qolishi zarurligiga — mos keladi.

Mazkur maqola Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy islohotlar doirasida gender o‘zgarishlarini falsafiy tahlil qiladi. U postinsoniyat nuqtai nazarlarini O‘zbekistonning madaniy va ma’naviy qadriyatlari bilan uyg‘unlashtirib, genderni faqat ijtimoiy emas, balki falsafiy-ontologik masala sifatida talqin etadi.

Talaba-qizlar faolligini ta’minlashda milliy va xalqaro hamkorlik platformalari

Talaba-qizlarning faolligini oshirishda milliy va xalqaro platformalar muhim rol o‘ynamoqda. O‘zbekistonda STEMdagi qizlar ulushi 17-37% atrofida, ammo hamkorlik orqali bu ko‘rsatkich yaxshilanmoqda. Quyida asosiy platformalar va ularning ta’siri keltirilgan:

Platforma turi	Misollar	Maqsad va natijalar	Hamkorlik
Milliy platformalar	- O‘zbekiston Gender Tengligi Strategiyasi (2030 yilgacha). - Inha Universiteti va Turin Politexnika Universiteti dasturlari. - "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquqlar" Qonuni (2019).	- STEM ta’limida qizlar uchun stipendiyalar va kurslar. - Inha Universitetida qizlar ulushi 8% dan 35% ga oshgan.	O‘zbekiston Oliy ta’lim vazirligi, Gender Tengligi Komissiyasi.
Xalqaro platformalar	- Technovation Girls Uzbekistan (IOM bilan). - African Girls Can Code Initiative (AGCCI) va Americas	- 500 nafar qizlarni birlashtirgan xakatonlar orqali dasturlash ko‘nikmalari. - Qizlarning STEM	BMTDP (UNDP), UNICEF, UNESCO, Yevropa Ittifoqi (gender sezgir byudjetlashtirish

	Girls Can Code (AGCC) modellari (ITU). - UNESCO Cracking the Code loyihasi va UNITWIN tarmoqlari.	karerasini tanlash darajasi 33% ga oshgan.	loyihasi).
Gibrid (milliy-xalqaro)	- UniSat dasturi (Qozog‘iston, Qirg‘iziston, O‘zbekiston qizlari). - BMT Ayollar va O‘zbekiston Moliya vazirligi hamkorligi. - Girls in Science (UNICEF).	- Nanosatelit loyihalari orqali qizlarning ilmiy faolligi. - 150 nafar qizning havo ifloslanishini tahlil qilish loyihasi.	BMT, USAID, Yevropa Ittifoqi; milliy vazirliklar.

Ushbu platformalar qizlarning faolligini oshirishda samarali: masalan, Technovation Challenge orqali qizlar mobil ilovalar yaratib, migrantlar uchun yordamchi dasturlar ishlab chiqmoqdalar. Xalqaro hamkorlik (masalan, UNESCO UNITWIN) milliy dasturlarni kuchaytirib, gender stereotiplarini buzmoqda. O‘zbekistonda 2025-yilda Yevropa Ittifoqi loyihasi orqali gender tengligi byudjetlashtirish joriy etilmoqda, bu qizlarning iqtisodiy faolligini 20% ga oshirishi kutilmoqda.

“Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”da inson qadr-qimmati va gender tengligi asosiy ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan. Shu bois texnologik taraqqiyot bilan axloqiy mas’uliyat o‘rtasida muvozanatni saqlash zarur.

Postinsoniyat inson va mashina o‘rtasidagi o‘zgaruvchan munosabatlarni o‘rganish orqali raqamli davrda genderni yangicha tushunish imkonini beradi. O‘zbekiston uchun asosiy falsafiy vazifa — texnologik rivojlanishni madaniy va ma’naviy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish hamda inson qadriga asoslangan gender adolatini ta’minlashdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022.
2. Fukuyama F. Bizning postinsoniy kelajagimiz: Biotexnologik inqilob oqibatlari. – Nyu-York: Farrar, Straus and Giroux, 2002.
3. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, statistik ma’lumotlar, 2024.
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
5. Braidotti R. Postinson. – Polity Press, 2013.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ayollarni qo‘llab-quvvatlash va ularning raqamli iqtisodiyotdagi ishtirokini oshirish to‘g‘risida”gi Farmoni, 2022.
7. Haraway D. Kiborg manifesti. – Routledge, 1991.
8. O‘zbekiston Respublikasining “Ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni, 2019.

OLIY TA’LIMDA INKLYUZIVLIK VA GENDER TENGLIKNING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI

G.Z. Najmiyeva
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Urgut filiali xotin qizlar masalalari bo‘yicha direktor maslahatchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17623773

Annotatsiya: *Mazkur maqolada oliy ta’lim tizimida inklyuzivlik va gender tenglik tamoyillarining uzviy bog‘liqligi, ular ta’lim jarayonining barcha bosqichlarida qanday aks etishi, ijtimoiy adolatni ta’minlashdagi roli hamda talabalar shaxsining ijtimoiy-psixologik rivojlanishiga ta’siri chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu yo‘nalishdagi milliy va xalqaro tajribalar asosida mavjud muammolar va istiqboldagi yechimlar yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *inklyuziv ta’lim, gender tenglik, oliy ta’lim, inklyuziv muhit, diskriminatsiya, psixologik qo‘llab-quvvatlash.*

Аннотация: *В данной статье глубоко анализируется взаимосвязь принципов инклюзивности и гендерного равенства в системе высшего образования, их отражение на всех этапах учебного процесса, роль в обеспечении социальной справедливости, а также влияние на социально-психологическое развитие личности студентов. Кроме того, на основе национального и международного опыта рассматриваются существующие проблемы и перспективные пути их решения.*

Ключевые слова: *инклюзивное образование, гендерное равенство, высшее образование, инклюзивная среда, дискриминация, психологическая поддержка.*

Annotation: *This article provides an in-depth analysis of the interrelation between the principles of inclusiveness and gender equality in the higher education system, their reflection at all stages of the educational process, their role in ensuring social justice, and their impact on the socio-psychological development of students. Additionally, based on national and international experiences, existing challenges and prospective solutions in this field are highlighted.*

Keywords: *inclusive education, gender equality, higher education, inclusive environment, discrimination, psychological support.*

Kirish. Bugungi kunda global ta’lim maydonida inson huquqlarini to‘liq ta’minlash, har bir shaxsning ijtimoiy kelib chiqishi, jinsi, sog‘lig‘i yoki imkoniyatlar darajasidan qat’i nazar ta’lim olish huquqini kafolatlash eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Oliy ta’lim muassasalari ushbu jarayonning markazida turib, jamiyat taraqqiyoti uchun yuqori malakali, ijtimoiy mas’uliyatli va tenglik tamoyillariga amal qiladigan mutaxassislarni tayyorlaydi.

Inklyuzivlik va gender tenglik tushunchalari bir qarashda alohida yo‘nalish sifatida ko‘rinsa-da, amalda ular bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir. Inklyuziv ta’lim barcha talabalarni o‘quv jarayoniga jalb qilishga, gender tenglik esa jinsiy tafovutlarga asoslangan kamsitishlarga barham berishga xizmat qiladi. Ulardan birining yo‘qligi ta’lim tizimida adolat va samaradorlikning pasayishiga olib kelishi mumkin.

Inklyuziv ta’lim tushunchasi va uning mohiyati

Inklyuziv ta’lim – har bir ta’lim oluvchining individual ehtiyojlari, qobiliyati, sog‘lig‘i va ijtimoiy sharoitidan qat’i nazar, unga ta’lim olish imkoniyatini yaratish jarayonidir. Bu nafaqat

imkoniyati cheklangan shaxslarni ta’limga jalb qilish, balki o‘qitishning metodologik, psixologik va tashkiliy jihatlarini ham o‘z ichiga oladi.

Inklyuziv ta’lim quyidagi asosiy tamoyillarga tayanadi:

• Ta’lim olish huquqi umumiy va ajralmas huquq sifatida tan olinadi;

• Har bir shaxsning qadr-qimmati hurmat qilinadi;

• Farqlarga toqatli munosabat shakllantiriladi;

• Ta’lim jarayoni moslashtirilgan va moslashuvchan bo‘ladi;

• Talabaga zarur psixologik va ijtimoiy yordam ko‘rsatiladi.

Oliy ta’limda inklyuzivlikni joriy etish jamiyatning ijtimoiy hayotida faol ishtirok eta oladigan, o‘z fikrini erkin ifoda etadigan shaxslarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

2. Gender tenglikning ta’lim tizimidagi ahamiyati

Gender tenglik – erkaklar va ayollar uchun ta’lim olish, kasb tanlash, ilmiy izlanish olib borish, rahbarlik lavozimlariga intilishda teng imkoniyatlar yaratish demakdir. Gender tenglikni ta’minlash jarayonida ijtimoiy stereotiplarni bartaraf etish muhim hisoblanadi.

Masalan, ba’zi texnik yoki harbiy sohalar faqat erkaklarga, pedagogika yoki san’at yo‘nalishlari esa faqat ayollarga xos kasblar sifatida qaralishi hali ham uchrab turadi. Bunday qarashlar ayni paytda ta’lim jarayonida imkoniyatlarning notekis taqsimlanishiga olib keladi.

Gender tenglikni ta’limda ta’minlash quyidagi ijobiy natijalarga olib keladi:

• Talabalarning o‘z imkoniyatlarini to‘liq amalga oshirishiga yordam beradi;

• O‘quv jarayonida psixologik bosimning kamayishiga sabab bo‘ladi;

• Ijtimoiy adolat tamoyillarini qaror toptiradi;

• Jamiyatda professional xilma-xillik kengayadi.

3. Inklyuzivlik va gender tenglikning o‘zaro bog‘liqligi

Inklyuzivlik va gender tenglikning umumiy maqsadi – ta’limga teng munosabatni ta’minlashdir. Agar inklyuziv ta’lim nogironligi yoki ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar barcha talabalar uchun sharoit yaratsa, gender tenglik jinsiy tafovutlar asosidagi cheklovlarni bartaraf etadi.

Ularning bog‘liqligi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

• Har ikki tamoyil diskriminatsiyaga qarshi kurashga xizmat qiladi;

• Ijtimoiy to‘siqlarni bartaraf etadi;

• O‘quv jarayonida shaffoflik va adolatni ta’minlaydi;

• Talabalarning o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi.

4. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida inklyuzivlik va gender tenglikni ta’minlash tajribasi

So‘nggi yillarda O‘zbekiston oliy ta’limida inklyuzivlik va gender tenglik bo‘yicha qator ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Xususan:

• Nogironligi bo‘lgan talabalar uchun maxsus moslashtirilgan auditoriyalar va texnik vositalar joriy etilmoqda;

• Universitetlarda gender tenglik bo‘yicha komissiyalar faoliyati yo‘lga qo‘yilgan;

• Talabalar uchun psixologik maslahat markazlari ochilmoqda;

• Oliy ta’limda ayollarning ilmiy faoliyatdagi ulushi oshmoqda.

Shu bilan birga, hali yechimini kutayotgan masalalar ham mavjud:

• Ayrim ta’lim muassasalarida infratuzilmaning to‘liq moslashmagani;

• Gender stereotiplarning jamiyat ongida saqlanishi;

• Ta’lim jarayonida yashirin diskriminatsiya holatlarining uchrashi.

Xulosa. Inklyuziv ta’lim va gender tenglik oliy ta’lim tizimida ijtimoiy adolatning muhim komponentlari hisoblanadi. Ularni kompleks ravishda amalga oshirish talabalar o‘rtasida teng imkoniyatlar, o‘z-o‘zini anglash, ijtimoiy faollik va innovatsion salohiyatning ortishiga xizmat qiladi.

Yuqoridagi ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim tizimida inklyuzivlik va gender tenglikni ta’minlash jamiyat taraqqiyotini tezlashtiruvchi asosiy omillardan biridir. Ta’lim jarayonida barcha talabalarning shaxsiy imkoniyatlari va ehtiyojlarini inobatga olish, ularga individual yondashuv asosida sharoit yaratish o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi. Bunday tizimda har bir talaba o‘zini jamiyatning to‘laqonli a’zosi sifatida his etadi, o‘z fikrini erkin ifoda etadi va ijtimoiy hayotda faol ishtirok eta oladi.

Shuningdek, gender tenglikni ta’minlash masalasi faqat ayollar huquqlarini himoya qilish bilan chegaralanmaydi. U barcha jins vakillari uchun teng imkoniyatlar yaratilishi, kasbiy va ijtimoiy o‘sish uchun adolatli sharoitlarning qaror topishi, kamsitishning har qanday shakliga barham berishni nazarda tutadi.

Shuning uchun oliy ta’lim muassasalarida inklyuziv va gender madaniyatiga oid fanlarni o‘quv rejasiga kiritish, o‘qituvchilar malakasini oshirish, psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Oliy ta’lim tizimida inklyuzivlik va gender tenglikni ta’minlash nafaqat ta’lim samaradorligini oshiradi, balki jamiyatning demokratik va ijtimoiy barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Ularning uzviy bog‘liqligi ta’limda adolat, insonparvarlik va erkinlik tamoyillarini mustahkamlaydi.

ADABIYOTLAR

1. UNESCO. (2021). Inclusive Education Policy Guidelines. Paris.
2. United Nations. (2019). Gender Equality and Education. New York.
3. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 2020.
4. O‘zbekiston Respublikasi Gender tenglik strategiyasi (2022–2030).

“INKLYUZIV TA’LIM: IMKONIYATLAR TENGLIGI SARI YO‘L”

Narqulova Muqaddas
Urganch davlat tibbiyot instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17623795

Annotatsiya. *Ushbu maqolada alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan shaxslarni o‘qitish uchun inklyuziv ta’lim tizimini tashkil etishning zarurati, inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari, shuningdek, buning istiqboldagi ijobiy natijalari xususida atroflicha so‘z yuritilgan.*

Аннотация. *В статье подробно рассматривается необходимость создания системы инклюзивного образования для обучения лиц с особыми образовательными потребностями, приоритетные направления развития системы инклюзивного образования, а также её позитивные будущие результаты.*

Annotation. *This article discusses in detail the need to establish an inclusive education system for educating individuals with special educational needs, the priority areas for developing an inclusive education system, as well as its positive future results.*

Kalit so‘zlar. *Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan shaxs, inklyuziv ta’lim, sensor nuqson, “Maxsus pedagogika”, reabilitatsiya, jamiyatga integratsiyalashuv.*

Ключевые слова. *Человек с особыми образовательными потребностями, инклюзивное образование, сенсорные нарушения, «Специальная педагогика», реабилитация, интеграция в общество.*

Keywords. *Person with special educational needs, inclusive education, sensory impairment, "Special pedagogy", rehabilitation, integration into society.*

Ta’lim sohasi ijtimoiy hayotning muhim tarmog‘i bo‘lib, har bir ta’lim olish istagidagi shaxslarning xohishlarini qo‘llab –quvvatlash hamda ularning ta’lim olishlari uchun zarur shart – sharoitlarni yaratish dolzarb hisoblanadi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq ta’lim olish shakllari quyidagilardan iborat:

ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta’lim olish (kunduzgi);
ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta’lim olish (sirtqi, kechki, masofaviy);
dual ta’lim;
oilada ta’lim olish va mustaqil ta’lim olish;
katta yoshdagilarni o‘qitish va ularga ta’lim berish;
inklyuziv ta’lim;
eksternat tartibidagi ta’lim;
mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlar tayyorlash.

Bugungi kunda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan shaxslarni o‘qitish uchun inklyuziv ta’lim tizimini tashkil etish, ularning ta’lim olish huquqini kafolatlash va ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan qator normativ –huquqiy hujjatlar qabul qilinib, amaliyotga joriy qilinmoqda.

Inklyuziv ta’lim alohida ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta’lim oluvchilar uchun ta’lim tashkilotlarida ta’lim olishga bo‘lgan teng imkoniyatlarni ta’minlashga qaratilgan.

Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar (shaxslar) uchun ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’lim tashkil etiladi. Inklyuziv ta’limni tashkil etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirishning maqsadi — ta’lim olish uchun teng imkoniyatni ta’minlash va barcha bolalarning individual xususiyatlaridan, oldingi ta’lim yutuqlaridan, tili, madaniyati, ota-onalarning ijtimoiy va iqtisodiy holatidan qat’iy nazar ta’limda muvaffaqiyatga erishishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdir.

Inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari:

inklyuziv ta’lim tizimi uchun pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish:

pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’lim dasturlarini joriy etish, inklyuziv ta’lim metodikasiga oid o‘quv materiallarini takomillashtirish;

inklyuziv ta’lim berishning zamonaviy nazariyalarini o‘zlashtirish, inklyuziv ta’lim tizimida faoliyat olib borayotgan pedagoglarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazlarini tashkil etish hamda ta’lim berishda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar asoslarini egallashga sharoit yaratish;

o‘qituvchi, o‘quvchi, ota-ona, jamoat tashkilotlari mutaxassislari, keng jamoatchilik uchun inklyuziv ta’lim bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmualar va ommabop nashrlar yaratish;

pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarining “Maxsus pedagogika” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha qabul parametrlarini oshirish, Xalq ta’limi vazirligi tavsiyasi asosida pedagog xodimlarga ehtiyoji katta bo‘lgan chekka hududlardagi abituriyentlar uchun maqsadli qabul ko‘rsatkichlarini belgilash mexanizmini joriy etish;

inklyuziv ta’lim tizimi joriy etilgan umumta’lim muassasalarida yosh o‘qituvchilarni, ularning xizmat mavqeyi o‘sishini hisobga olgan holda, kasbiy qo‘llab-quvvatlash va hamkorlikda ishlash mexanizmini takomillashtirish;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga inklyuziv ta’lim-tarbiya berishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash yuzasidan pedagog xodimlar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish kabilardan iborat.

Yuqorida sanab o‘tilgan ustuvor vazifalar amalga oshirilishi natijasida:

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan shaxslarning rivojlanishi**,** reabilitatsiyasi, jamiyatga integratsiyalashuvida inklyuziv ta’limning strategik omil sifatidagi roli tasdiqlanadi;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ta’limiy muhiti yaxlitligi mustahkamlanadi, ularning jamiyatga integratsiyasi uchun zarur sharoitlar ta’minlanadi;

davlat, jamiyat, shaxsning inklyuziv ta’lim sohasidagi manfaatlarini muvofiqlashtirish mexanizmlari yaratiladi;

inklyuziv ta’lim tizimining umumiy qulayligi, uzluksizligi, ta’lim sifati, shuningdek o‘quvchilarning rivojlanish darajasi, xususiyatlariga moslashuvchanligi va variativligiga erishiladi;

inklyuziv ta’lim sohasidagi xalqaro munosabatlar doirasida o‘zaro hamkorlik aloqalari mustahkamlanadi;

o‘quvchilar ta’limiy ehtiyojlarning o‘ziga xosligini inobatga olgan holda sifatli ta’lim olishi uchun ular davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi;

inklyuziv ta’limni bosqichma-bosqich joriy etish orqali alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari optimallashtiriladi, ularda ta’lim olayotgan

o‘quvchilarning teng huquqli jamiyat a’zosi sifatida umumta’lim muassasalarida bilim olishi ta’minlanadi;

pedagogik yo‘nalishdagi oliy ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yiladi va bularning barchasi alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan shaxslarning manfaatlari uchun xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son)
2. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son; 29.11.2023-y., 03/23/880/0905-son; 01.02.2024-y., 03/24/901/0082-son; 09.09.2024-y., 03/24/957/0689-son; 21.09.2024-y., 03/24/963/0735-son; 05.11.2024-y., 03/24/990/0892-son; 07.02.2025-y., 03/25/1025/0116-son)
3. “2020 — 2025-yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish” konsepsiyasi. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 14.10.2020-y., 07/20/4860/1383-son)

DASTURLASHGA OID INKLYUZIV TA’LIM MUHITINI SHAKLLANTIRISHDA SUN’IY INTELLEKT TIZIMLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Norbekova Charosbonu Sunnatillayevna[1], F.J. Toxirov[2]
[1]NavDU, Aniq fanlar fakulteti 2-bosqich talabasi;
[2]Ilmiy rahbar: p.f.f.d.(PhD)
https://doi.org/10.5281/zenodo.17623805

Annotatsiya. *Maqolada dasturlashga oid inklyuziv ta’limni tashkil etishda sun’iy intellekt tizimlaridan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan. Sohaga oid olimlarning ilmiy izlanishlari hamda tadqiqotlarimizga asoslanib, sun’iy intellektning ta’limni individuallashtirish, o‘quvchilarning qobiliyatlarini hisobga olgan moslashuvchan o‘quv muhitini yaratish, avtomatik baholash va teskari aloqa mexanizmlarini joriy etishdagi roli ko‘rsatib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *inklyuziv ta’lim, dasturlash, sun’iy intellekt, moslashuvchan o‘quv muhit, individuallashtirilgan o‘qitish, o‘quv motivatsiyasi.*

Аннотация. *В статье анализируются возможности использования систем искусственного интеллекта в организации инклюзивного обучения программированию. На основе научных исследований ученых в данной области и наших исследований показана роль искусственного интеллекта в индивидуализации образования, создании гибкой учебной среды с учетом способностей учащихся, внедрении механизмов автоматической оценки и обратной связи.*

Ключевые слова: *инклюзивное образование, программирование, искусственный интеллект, гибкая учебная среда, индивидуализированное обучение, учебная мотивация.*

Annotation. *The article analyzes the possibilities of using artificial intelligence systems in the organization of inclusive programming education. Based on the scientific research of scientists in the field and our studies, the role of artificial intelligence in individualizing education, creating a flexible learning environment that takes into account the abilities of students, automatic assessment, and the introduction of feedback mechanisms is shown.*

Keywords: *inclusive education, programming, artificial intelligence, flexible learning environment, individualized learning, learning motivation.*

Hozirgi raqamli transformatsiya jarayonida ta’lim tizimi ham jadal rivojlanib yangi innovatsion yondashuvlarga ehtiyoj sezmoqda. Ayniqsa dasturlash sohasida inklyuziv ta’lim muhitini yaratish dolzarb masalalardan biridir [1]. Chunki har bir o‘quvchi yoki talaba, jismoniy imkoniyati, ijtimoiy sharoiti yoki o‘rganish uslubi qanday bo‘lishidan qat’iy nazar sifatli ta’lim olish huquqiga ega. Sun’iy intellekt tizimlaridan foydalanish orqali inklyuziv ta’lim muhitini shakllantirish – zamonaviy ta’limni yanada adolatli, samarali va barcha uchun teng imkoniyatli qilishning muhim sharti hisoblanadi. Bu yo‘nalish nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy va texnologik jihatdan ham dolzarb bo‘lib, ta’lim sifatini oshirishning yangi bosqichiga olib chiqadi [2-4].

Zamonaviy ta’lim jarayonida, ayniqsa dasturlash fanini o‘qitishda o‘quvchilarning individual imkoniyatlari, qobilyatlari o‘rtasidagi farqlar sezilarli darajada nomoyon bo‘ladi. Bunday vaqtda barcha o‘quvchilarga teng sharoit yaratish uchun sun’iy intellekt tizimlaridan

foydalanish zaruriyati yuzaga keladi. Sun’iy intellekt asosidagi tizimlar yordamida o‘quvchilarning individual o‘rganish uslubi, qiziqishlari va rivojlanishi tahlil qilinib ularga moslashtirilga ta’lim yo‘nalishlari ishlab chiqiladi [5-7]. Bu esa inklyuziv ta’lim tizimini samarali tashkillashtirish har bir o‘quvchining ehtiyojiga qarab yondashuvni ta’minlash imkonini beradi.

Bu borada, ya’ni uzluksiz ta’lim tizimida o‘quvchi-talabalarning dasturlashga oid kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish mexanizmlari mamlakatimiz, mustaqil davlatlar hamdo‘stligi va xorijda U.M.Mirsanov, N.A.Otaxonov, F.J.Toxirov, K.N.Djumabayev, Y.N.Nilova, D.G.Jemchujnikov, U.S.Munayev, Monika Mladenović, Divna Krpan, M.Saeli kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Ushbu olimlarning ishlarida uzluksiz ta’lim tizimida dasturlash tillarini o‘qitish samaradorligini oshirishda va o‘quvchi-talabalarning dasturlashga oid mantiqiy, algoritmik, kreativ, kognitiv fikrlashini rivojlantirishda muammoli, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari va didaktik raqamli o‘quv vositalarda foydalanish metodikasi keltirilgan. Biroq ularning tadqiqotlarida inklyuziv ta’lim muhitini tashkil etish metodikasiga e’tibor qaratilmagan.

Shu bilan birga, inklyuziv ta’limni tashkil etish muammolari D.N.Qayumova, N.N.Atabayeva, K.S.Todjibayeva, N.M.Azimova, E.E.Kireyenkova, N.A.Myodova, L.V.Javoronkova, A.A.Volchenkova, W.D.Safitri, A.J.Mwangoka, S.Kielblocklar kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Ushbu olimlarning tadqiqotlarida inklyuziv ta’limni samarali tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari keng yoritilgan. Ular o‘z ishlarida ta’lim jarayonida barcha o‘quvchilarga teng imkoniyat yaratish, maxsus ehtiyojli bolalarni umumta’lim tizimiga integratsiya qilish, o‘qituvchilarning inklyuziv kompetentligini rivojlantirish hamda ijobiy psixologik muhitni shakllantirish masalalariga e’tibor qaratganlar. Shuningdek, inklyuziv ta’limni boshqarish, pedagogik kadrlarni tayyorlash, raqamli texnologiyalarni qo‘llash va xalqaro tajribalarni amaliyotga tatbiq etish yo‘nalishlari ham ularning ilmiy izlanishlarida muhim o‘rin egallagan. Biroq mazkur olimlarning ishlarida ta’lim jarayonida sun’iy intellect tizimlaridan foydalanish masalalariga e’tibor qaratilmagan.

Shuningdek, ta’lim va tarbiya jarayonida sun’iy intellekt tizimlaridan foydalanish, sun’iy intellekt texnologiyalarini turli sohalarda qo‘llash masalalari bo‘yicha N.S.Mamatov, R.R.Sultonov, J.M.Qarshiyev, B.B.Abdullayev, T.A.Kuvaldina, V.E.Firstov, G.G.Isayeva, A.A.Voyevodin, Y.Yu, A.Renz, Y.Meng, T.Ilka, M.Zimmerman kabi olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan.

Ushbu olimlarning ilmiy izlanishlarida sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim va tarbiya jarayoniga integratsiyalash masalalari, ularning o‘quv jarayonini individuallashtirish, nazorat qilish va tahlil qilishdagi imkoniyatlari keng yoritilgan. Tadqiqotlarda sun’iy intellekt asosida o‘quvchilarning bilim darajasini baholash, shaxsiy o‘quv yo‘nalishlarini shakllantirish, ta’lim sifatini oshirish va o‘qituvchilarning ishini yengillashtirishga qaratilgan metodik yondashuvlar ishlab chiqilgan. Shuningdek, sun’iy intellekt tizimlarining pedagogik jarayon samaradorligiga ta’siri, ta’limda axborot xavfsizligini ta’minlash, etik me’yorlarga rioya etish va inson hamda mashina o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni optimallashtirish bo‘yicha tavsiyalar ham ilgari surilgan.

Yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning ishlariga asoslanib, dasturlashga oid inklyuziv ta’lim muhitini shakllantirishda sun’iy intellekt tizimlaridan foydalanish zarur hisoblanadi. Chunki sun’iy intellekt texnologiyalari o‘quvchilarning individual qobiliyatlari, o‘zlashtirish

darajasi va ehtiyojlarini aniqlash orqali shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv jarayonini tashkil etishga imkon yaratadi. Bunday yondashuv nafaqat maxsus ehtiyojli o‘quvchilarni dasturlash faoliyatiga jalb etish, balki ularning o‘quv motivatsiyasini oshirish va ijtimoiy integratsiyasini ta’minlashga xizmat qiladi.

Sun’iy intellekt tizimlari yordamida o‘quv materiallarini moslashtirish, avtomatik tahlil va teskari aloqa mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish, hamda o‘qituvchiga har bir o‘quvchi bilan samarali ishlash imkonini beruvchi analitik vositalarni joriy etish mumkin. Natijada, dasturlashga oid inklyuziv ta’lim muhiti yanada ochiq, moslashuvchan va har bir o‘quvchi uchun qulay o‘quv ekotizimiga aylanadi.

Olib borilgan ilmiy izlanishlarimiz natijalariga asoslanib aytish mumkinki, dasturlashga oid inklyuziv ta’limni tashkil etishda sun’iy intellekt tizimlaridan foydalanish ta’lim jarayonini samarali tashkil etish uchun keng imkoniyatlar yaratadi:

- individuallashtirilgan o‘qitish – sun’iy intellekt o‘quvchilarning bilim darajasi, qiziqishlari va o‘zlashtirish tezligiga qarab, mos o‘quv topshiriqlari va resurslarni avtomatik tarzda tanlaydi [4];

- moslashuvchan o‘quv muhitini yaratish – maxsus ehtiyojli o‘quvchilarning imkoniyatlarini hisobga olib, ularning o‘quv faoliyatini qulay interfeyslar, ovozli yoki vizual yordamchi vositalar orqali qo‘llab-quvvatlaydi [3, 5];

- avtomatik baholash va tahlil – o‘quvchilarning bajarilgan topshiriqlari asosida natijalarni real vaqt rejimida tahlil qiladi, kuchli va zaif tomonlarini aniqlab, takliflar beradi [6];

- interfaol muloqot va teskari aloqa – o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi kommunikatsiyani mustahkamlab, sun’iy intellekt yordamida tezkor teskari aloqa mexanizmini ta’minlaydi [7];

- motivatsiyani oshirish – gamifikatsiya elementlari, virtual yordamchilar va interfaol mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilarda dasturlashga bo‘lgan qiziqish va ishtiyoqni kuchaytiradi;

- o‘qituvchining metodik faoliyatini yengillashtirish – sun’iy intellekt tizimlari o‘quv jarayonini monitoring qilish, o‘quv ma’lumotlarini tahlil etish va o‘qitish strategiyalarini takomillashtirishda samarali yordamchi vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, sun’iy intellekt texnologiyalari asosida yaratilgan interfaol platformalar o‘quvchilarga qulay o‘quv muhitini taqdim etadi, o‘qituvchiga esa o‘quv jarayonini kuzatish, tahlil qilish va real vaqt rejimida teskari aloqa o‘rnatish imkonini beradi. Shuningdek, sun’iy intellekt tizimlari yordamida o‘quvchilarning natijalari avtomatik tarzda baholanadi, ularning kuchli va zaif tomonlari aniqlanib, individual rivojlanish strategiyasi ishlab chiqiladi [2].

Natijada, dasturlashga oid inklyuziv ta’limda sun’iy intellektdan foydalanish o‘qituvchilarning metodik faoliyatini yengillashtiradi, o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, shuningdek, o‘quv jarayonining moslashuvchan, adolatli va innovatsion tus olishini ta’minlaydi. Shu bois, sun’iy intellekt tizimlarini inklyuziv ta’lim amaliyotiga tatbiq etish raqamli pedagogikaning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilishi lozim.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, dasturlashga oid inklyuziv ta’lim muhitini shakllantirishda sun’iy intellekt tizimlaridan foydalanish zamonaviy ta’lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Sun’iy intellekt texnologiyalari ta’limni individuallashtirish, o‘quvchilarning imkoniyat va ehtiyojlariga mos o‘quv materiallarini taqdim etish, ularning o‘zlashtirish jarayonini nazorat qilish va tahlil etishda samarali vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Umuman olganda, dasturlashga oid inklyuziv ta’limda sun’iy intellektdan foydalanish ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning kognitiv va ijodiy salohiyatini

rivojlantirish, hamda raqamli jamiyat talablariga javob bera oladigan, innovatsion fikrlovchi shaxslarni tayyorlash uchun muhim shartlardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Tokhirov, F. J. (2024, June). About problems of development of algorithmic thinking of university students in relation to creation of applications. In International conference on medicine, science, and education (Vol. 1, No. 5, pp. 102-104).
2. Ubaydullayeva G.O. (2024). Zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalarni inklyuziv ta’lim sharoitida mustaqil ta’limga qo‘llash masalalari. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 1(12), 326-327.
3. Nazarboyev S.R. (2025). Imkoniyati cheklangan o‘quvchilar uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘qitishda moslashtirilgan yondashuvlar. New modern researchers: modern proposals and solutions, 2(6), 61-64.
4. Liao, S. M. (2023). SCRATCH to R: Toward an inclusive pedagogy in teaching coding. Journal of Statistics and Data Science Education, 31(1), 45-56.
5. Loureiro, A. C., & Meirinhos, M. (2023, November). Educational robotics and programming in inclusive educational settings: a scoping review. In 2023 International Symposium on Computers in Education (SIIE) (pp. 1-5). IEEE.
6. Егорова, П. А., Мухина, Т. Г., Сорокоумова, С. Н., & Мухина, Д. Д. (2018). Мониторинговый анализ эффективности профессиональных компьютеров и системных требований для организации электронно-образовательной среды вуза в условиях образовательной инклюзии. Вестник Мининского университета, 6(3 (24)), 12.
7. Соловьев, Г. М. (2015). Методические особенности преподавания алгоритмизации и программирования в основной школе для обучающихся с ограниченными возможностями здоровья. Современная наука: теоретический и практический, 190.

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA TALABA-QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA PSIXOLOGIK TAYYORLASHDA IJTIMOIY QO‘LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARINING SAMARADORLIGI

Otaxonova Zamira Muratovna
Farg‘ona davlat texnika universiteti Itimoiy fanlar va sport kafedrasi katta o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17623815

Annotatsiya. *Mazkur maqolada oliy ta’lim tizimida talaba-qizlarni oilaviy hayotga psixologik tayyorlash jarayonida ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimining o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, talaba-qizlarning shaxsiy rivojlanishi, oilaviy qadriyatlarni anglash va ijtimoiy mas’uliyat hissini shakllantirishga qaratilgan mexanizmlar yoritiladi. Tadqiqot davomida psixologik, ijtimoiy va pedagogik yondashuvlarning uyg‘unligi orqali samaradorlik omillari aniqlanadi.*

Asosiy qism. Talaba-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayoni nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki jamiyatdagi barqaror ijtimoiy muhitni ta’minlashga xizmat qiladi. Oliy ta’lim muassasalari bu jarayonda bir nechta asosiy mexanizmlardan foydalanadi:

1. **Psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimi**

Oliy ta’lim muassasalarida talaba-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimi asosiy ahamiyatga ega. Bu tizim nafaqat talabalarning akademik muvaffaqiyati va shaxsiy rivojlanishini ta’minlaydi, balki ularning kelajakdagi oilaviy hayotga tayyorligini ham shakllantiradi. Psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimi orqali talaba-qizlar o‘z hissiy holatini boshqarish, stressga bardoshli bo‘lish, muammolarni samarali hal etish va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Tizimning samaradorligi birinchi navbatda psixologik treninglar va maslahat sessiyalari orqali ta’minlanadi. Treninglar talabalarga o‘zini anglash, hissiy barqarorlikni saqlash va stressli vaziyatlarda konstruktiv qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Masalan, oilaviy hayotga tayyorgarlik jarayonida turmush va oila bilan bog‘liq psixologik vaziyatlar, mas’uliyat, shaxsiy masala va qarorlar bilan bog‘liq stress holatlarini boshqarish ko‘nikmalari o‘rgatiladi. Treninglar amaliy mashg‘ulotlar va rolli o‘yinlar shaklida tashkil qilinishi orqali talabalar nazariy bilimlarni real hayotiy vaziyatlarga qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Shuningdek, psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimi doimiy maslahat xizmatlarini ham o‘z ichiga oladi. Talabalar individual yoki guruh bo‘yicha psixologlar bilan uchrashib, shaxsiy muammolar, qarorlar qabul qilishdagi qiyinchiliklar va hissiy holatlarini muhokama qiladilar. Bu jarayon talabalarda o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirish, o‘z his-tuyg‘ularini to‘g‘ri anglash va ularni konstruktiv tarzda ifoda etish qobiliyatini rivojlantiradi. Individual maslahatlar ayniqsa oilaviy qadriyatlar va kelajakdagi oilaviy majburiyatlarni anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimining yana bir muhim qismi — stressni boshqarish va hissiy intellektni rivojlantirish bo‘limidir. Talaba-qizlar uchun oilaviy hayotga tayyorgarlik ko‘pincha stress va psixologik bosim bilan bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli ular o‘z hissiyotlarini nazorat qilish, konfliktlarni hal qilish, murosa va kompromiss qobiliyatlarini shakllantirishni

o‘rganadilar. Psixologik treninglar va interaktiv mashg‘ulotlar ushbu ko‘nikmalarni samarali tarzda rivojlantiradi va talabalarga kelajakdagi oilaviy hayotda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan murakkab vaziyatlarga tayyor bo‘lish imkonini beradi.

Shuni ham ta’kidlash lozimki, psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimi faqat o‘quv jarayoni bilan cheklanmaydi, balki ijtimoiy faoliyat va jamiyat bilan integratsiya qilish orqali ham samarali bo‘ladi. Talaba-qizlar ijtimoiy tadbirlarda, guruh loyihalarida va ma’naviy-ma’rifiy uchrashuvlarda ishtirok etish orqali o‘z hissiy va ijtimoiy ko‘nikmalarini mustahkamlaydilar. Bu esa ularni o‘zaro munosabatlarda, kelajakdagi oilaviy vazifalarni bajarishda va mas’uliyatni anglashda qo‘llab-quvvatlaydi.

2. **Ma’naviy-tarbiyaviy tadbirlar**

Oliy ta’lim muassasalarida talaba-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimi asosiy ahamiyatga ega. Bu tizim nafaqat talabalarning akademik muvaffaqiyati va shaxsiy rivojlanishini ta’minlaydi, balki ularning kelajakdagi oilaviy hayotga tayyorligini ham shakllantiradi. Psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimi orqali talaba-qizlar o‘z hissiy holatini boshqarish, stressga bardoshli bo‘lish, muammolarni samarali hal etish va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Tizimning samaradorligi birinchi navbatda psixologik treninglar va maslahat sessiyalari orqali ta’minlanadi. Treninglar talabalarga o‘zini anglash, hissiy barqarorlikni saqlash va stressli vaziyatlarda konstruktiv qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Masalan, oilaviy hayotga tayyorgarlik jarayonida turmush va oila bilan bog‘liq psixologik vaziyatlar, mas’uliyat, shaxsiy masala va qarorlar bilan bog‘liq stress holatlarini boshqarish ko‘nikmalari o‘rgatiladi. Treninglar amaliy mashg‘ulotlar va rolli o‘yinlar shaklida tashkil qilinishi orqali talabalar nazariy bilimlarni real hayotiy vaziyatlarga qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Shuningdek, psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimi doimiy maslahat xizmatlarini ham o‘z ichiga oladi. Talabalar individual yoki guruh bo‘yicha psixologlar bilan uchrashib, shaxsiy muammolar, qarorlar qabul qilishdagi qiyinchiliklar va hissiy holatlarini muhokama qiladilar. Bu jarayon talabalarda o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirish, o‘z his-tuyg‘ularini to‘g‘ri anglash va ularni konstruktiv tarzda ifoda etish qobiliyatini rivojlantiradi. Individual maslahatlar ayniqsa oilaviy qadriyatlar va kelajakdagi oilaviy majburiyatlarni anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimining yana bir muhim qismi — stressni boshqarish va hissiy intellektni rivojlantirish bo‘limidir. Talaba-qizlar uchun oilaviy hayotga tayyorgarlik ko‘pincha stress va psixologik bosim bilan bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli ular o‘z hissiyotlarini nazorat qilish, konfliktlarni hal qilish, murosa va kompromiss qobiliyatlarini shakllantirishni o‘rganadilar. Psixologik treninglar va interaktiv mashg‘ulotlar ushbu ko‘nikmalarni samarali tarzda rivojlantiradi va talabalarga kelajakdagi oilaviy hayotda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan murakkab vaziyatlarga tayyor bo‘lish imkonini beradi.

Shuni ham ta’kidlash lozimki, psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimi faqat o‘quv jarayoni bilan cheklanmaydi, balki ijtimoiy faoliyat va jamiyat bilan integratsiya qilish orqali ham samarali bo‘ladi. Talaba-qizlar ijtimoiy tadbirlarda, guruh loyihalarida va ma’naviy-ma’rifiy uchrashuvlarda ishtirok etish orqali o‘z hissiy va ijtimoiy ko‘nikmalarini mustahkamlaydilar. Bu esa ularni o‘zaro munosabatlarda, kelajakdagi oilaviy vazifalarni bajarishda va mas’uliyatni anglashda qo‘llab-quvvatlaydi.

3. **Mentorlik va maslahatchilik tizimi**

Oliy ta’lim muassasalarida talaba-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida mentorlik va maslahatchilik tizimi muhim rol o‘ynaydi. Bu tizim orqali talaba-qizlar nafaqat

akademik bilimlarini mustahkamlaydi, balki shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy ko‘nikmalar va kelajakdagi oilaviy hayotga tayyorgarlikni ham oladilar. Mentorlik tizimi tajribali o‘qituvchilar, psixologlar va yetakchi mutaxassislar tomonidan boshqariladi, bu esa talabalarga individual yondashuvni ta’minlash imkonini beradi.

Mentorlar talabalarga o‘z shaxsiy qobiliyatlarini aniqlash, maqsadlarni belgilash va ularni amalga oshirish bo‘yicha yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadilar. Talaba-qizlar mentorlar bilan muntazam uchrashuvlar davomida o‘z hissiy va ijtimoiy muammolarini muhokama qiladilar, turli vaziyatlarda qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Bu jarayon ularni kelajakdagi oilaviy hayotda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan murakkab vaziyatlarga tayyorlaydi.

Maslahatchilik tizimi esa mentorlik bilan uyg‘un ishlaydi. Psixologlar va o‘qituvchilar talabalarga individual maslahatlar berish orqali ularning o‘z-o‘zini anglash, stressni boshqarish va ijtimoiy muhitga moslashuvchanlik ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Maslahatchilar talaba-qizlarga oilaviy qadriyatlar, mas’uliyat va munosabatlarni to‘g‘ri boshqarish bo‘yicha tavsiyalar beradi. Shu tarzda, talaba nafaqat akademik va shaxsiy rivojlanadi, balki kelajakdagi turmush va oila masalalariga ham puxta tayyor bo‘ladi.

Mentorlik va maslahatchilik tizimi talabalarning ijtimoiy faolligini oshirishga ham xizmat qiladi. Talaba-qizlar mentorlar rahbarligida ijtimoiy loyihalarda, seminar va treninglarda ishtirok etadilar. Bu jarayon ular uchun yetakchilik salohiyatini rivojlantirish, jamiyat bilan samarali aloqa o‘rnatish va o‘zaro hamkorlik ko‘nikmalarini oshirish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, talaba-qizlar mentorlik tizimi orqali o‘z hayotiy qarorlarini puxta o‘ylash va amaliyotda qo‘llashni o‘rganadilar.

4. **Ijtimoiy loyihalar va klub faoliyatlari**

Oliy ta’lim muassasalarida talaba-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida ijtimoiy loyihalar va klub faoliyatlari muhim o‘rin tutadi. Bu faoliyat talaba-qizlarning shaxsiy, ijtimoiy va yetakchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Ijtimoiy loyihalar orqali talabalar o‘z bilim va tajribalarini amaliyotga tatbiq etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar, shu bilan birga, jamiyatdagi dolzarb masalalarga yechim topishda faol ishtirok etadilar.

Klub faoliyati talabalarga ijtimoiy muhitda o‘zaro muloqot qilish, hamkorlikni rivojlantirish va liderlik salohiyatini oshirish imkonini beradi. Masalan, “Oilaviy qadriyatlar”, “Sog‘lom oila”, “Ayol va jamiyat” kabi to‘garaklar orqali talabalar nafaqat nazariy bilimga ega bo‘lishadi, balki turli ijtimoiy vaziyatlarda o‘zini sinab ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bunday faoliyatlar talabalarda mas’uliyat, murosa qilish va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi, bu esa ularni kelajakdagi oilaviy hayotga samarali tayyorlaydi.

Ijtimoiy loyihalar ko‘pincha universitet ichidagi yoki tashqi ijtimoiy muhit bilan integratsiyalashgan holda amalga oshiriladi. Talabalar ushbu loyihalar davomida jamoaviy ishlash, tashkiliy qobiliyat va yetakchilikni rivojlantiradilar. Masalan, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qiluvchi tadbirlar, oilaviy qadriyatlar bo‘yicha seminarlar yoki yoshlar orasida ijtimoiy ongni oshirishga qaratilgan loyihalar orqali talaba-qizlar o‘z bilimlarini boshqalar bilan bo‘lishish va yetakchilik ko‘rsatish imkoniyatini oladilar.

Klub faoliyati nafaqat amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish, balki ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi sifatida ham xizmat qiladi. Talabalar bir-biriga maslahat beradi, tajriba almashadi va birgalikda muammolarni hal qilishni o‘rganadilar. Shu tariqa, ijtimoiy loyihalar va klub faoliyati orqali talaba-qizlarning o‘zaro hurmat, mas’uliyat, murosa va liderlik qobiliyatlari mustahkamlanadi.

5. **Tarbiyaviy muhitni mustahkamlash**

Oliy ta’lim muassasalarida talaba-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida tarbiyaviy muhitni mustahkamlash tizimi muhim ahamiyatga ega. Bu tizim universitetda sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhit yaratish, talaba-qizlarning o‘zaro munosabatlarini rivojlantirish va ularni kelajakdagi oilaviy hayotga tayyorlashga xizmat qiladi. Tarbiyaviy muhit nafaqat ilmiy va akademik rivojlanish, balki talaba-qizlarning shaxsiy va ijtimoiy o‘sishini qo‘llab-quvvatlaydi.

Tarbiyaviy muhitni mustahkamlashning birinchi asosiy yo‘nalishi — universitet ichidagi ijobiy ijtimoiy muhitni yaratishdir. Talaba-qizlar o‘zaro hurmat, hamkorlik va murosa qilishni o‘rganadilar. Universitetda sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhit mavjud bo‘lsa, talabalarda o‘zini anglash, hissiy barqarorlik va mas’uliyatni his qilish qobiliyati rivojlanadi. Bu esa kelajakdagi oilaviy munosabatlar, qarorlar qabul qilish va mas’uliyatli harakatlar uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Ikkinchi yo‘nalish — tarbiyaviy tadbirlar va seminarlarni tizimli o‘tkazish. Mazkur tadbirlar talabalarga ma’naviy va axloqiy qadriyatlarni chuqur anglash imkonini beradi. Masalan, oilaviy qadriyatlar, hurmat va murosa, oiladagi mas’uliyat, mehr-muhabbat va oilaviy qarorlar bilan bog‘liq mavzularda o‘tkaziladigan uchrashuvlar va treninglar orqali talaba-qizlar shaxsiy tajriba orttiradilar. Ushbu tadbirlar amaliy mashg‘ulotlar, guruh muhokamalari va interaktiv o‘yinlar orqali amalga oshiriladi, bu esa bilimlarni real hayotiy vaziyatlarga qo‘llash imkonini beradi.

Uchinchi yo‘nalish — talaba-qizlarning ijtimoiy faolligini qo‘llab-quvvatlash. Universitet klublari, to‘garaklar va ijtimoiy loyihalar orqali talaba-qizlar o‘zaro hamkorlik, yetakchilik va mas’uliyat ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Shu bilan birga, ular jamiyatdagi dolzarb masalalarni muhokama qilish, murosa qilish va jamoaviy yechimlar topish tajribasiga ega bo‘ladilar. Bu tajriba kelajakdagi oilaviy vazifalarni bajarishda, qaror qabul qilish va muammolarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

To‘rtinchi yo‘nalish — shaxsiy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini uyg‘unlashtirish. Talaba-qizlar psixologik maslahatlar, mentorlik, klub va loyihalar faoliyati orqali bir-birini qo‘llab-quvvatlashni o‘rganadilar. Bu ijobiy tarbiyaviy muhit ularni bir-biriga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, murosa qilish va hissiy barqarorlikni saqlashga o‘rgatadi. Shu tarzda, tarbiyaviy muhit talaba-qizlarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini kompleks tarzda qo‘llab-quvvatlaydi.

Ushbu mexanizmlar orqali talaba-qizlarning oilaviy hayotga tayyorligi oshadi, o‘zaro hurmat, murosa, mas’uliyat va mehr-muhabbat kabi qadriyatlarni chuqur anglash imkoniyati yaratiladi.

Metodlar

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- **So‘rovnoma** – talaba-qizlarning oilaviy hayot haqidagi bilim va qarashlarini aniqlash.
- **Suhbat va intervyu** – psixologlar, o‘qituvchilar va turmush qurgan ayollar bilan suhbat o‘tkazish orqali amaliy tajribani tahlil qilish.
- **Kuzatuv** – talaba-qizlarning ijtimoiy faoliyatda va ma’naviy tadbirlarda ishtirokini kuzatish.
- **Tahliliy yondashuv** – mavjud ta’lim dasturlari va qo‘llanmalarni ilmiy jihatdan o‘rganish.

Xulosa

Talaba-qizlarni oilaviy hayotga psixologik tayyorlashda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi muhim o‘rin tutadi. Psixologik xizmat, mentorlik va ma’naviy-tarbiyaviy ishlarni tizimli

yo‘lga qo‘yish orqali nafaqat talaba-qizlarning shaxsiy hayoti, balki jamiyatdagi ijtimoiy muhit ham mustahkamlanadi. Shu bois kompleks yondashuvni kuchaytirish va ilmiy asoslangan dasturlarni amaliyotga tatbiq etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva, M. (2020). *Oliy ta’lim muassasalarida talaba-yoshlarni ijtimoiy va ma’naviy rivojlantirish metodikasi*. Toshkent: “Ilm-Ziyo” nashriyoti.
2. Karimov, A., & Tursunova, S. (2019). *Psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimlari va talaba-qizlarning shaxsiy rivojlanishi*. Psixologiya va Pedagogika, 4(2), 45–53.
3. Mirzaev, R. (2021). *Mentorlik va maslahatchilik tizimi oliy ta’limda: nazariy va amaliy jihatlar*. Oliy ta’limda innovatsiyalar jurnali, 3(1), 23–32.
4. Yusupova, N. (2018). *Ijtimoiy loyihalar va talabalar klub faoliyatining ta’lim jarayonidagi o‘rni*. Ta’lim tadqiqotlari, 2(4), 12–20.
5. Sultonova, L. (2022). *Tarbiyaviy muhitni mustahkamlash orqali talaba-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash*. Pedagogika va Psixologiya, 5(3), 78–87.

TALABALARNING IJTIMOIY MOSLASHUVI VA PSIXOLOGIK QO‘LLAB-QUVVATLASH TIZIMI

Otaxonova Zamiraxon Muratovna[1], Mo‘minova Muxlisa Ravshanjon qizi[2]
[1]Farg‘ona davlat texnika universiteti, katta o‘qituvchi;
[2]Farg‘ona davlat texnika universiteti, talaba
https://doi.org/10.5281/zenodo.17623828

Annotatsiya. *Ushbu maqolada talabalarning oliy ta’lim muhitiga ijtimoiy moslashuvi va ularni psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimining zarurati tahlil qilinadi. Psixologik xizmatlar, moslashuv bosqichlari hamda ta’lim muassasalarida psixologik yordam mexanizmlari ilmiy-nazariy va amaliy asosda yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Ijtimoiy moslashuv, psixologik qo‘llab-quvvatlash, talaba shaxsiyati, oliy ta’lim, moslashuv mexanizmi, stress, motivatsiya, kommunikatsiya, emotsional barqarorlik, psixodiagnostika, integratsiya, ijtimoiy muhit.*

Oliy ta’lim tizimi nafaqat bilim berish, balki shaxsning ijtimoiy-psixologik shakllanishi va moslashuvi uchun ham mas’ul bo‘lgan muhim institut hisoblanadi. Talabalik davri inson hayotidagi eng muhim bosqichlardan biri bo‘lib, bu davrda shaxs yangi ijtimoiy muhitga kiradi, yangi rollarni o‘zlashtiradi va o‘zining psixologik hamda ijtimoiy imkoniyatlarini sinovdan o‘tkazadi. Shu jarayonda ijtimoiy moslashuvning samarali kechishi shaxsning akademik faoliyati, shaxslararo munosabatlari va hayotiy qoniqish darajasiga bevosita ta’sir qiladi.

Ko‘plab tadqiqotlar (Maslou, Erikson, Vigotskiy) shuni ko‘rsatadiki, shaxsning yangi ijtimoiy tizimga kirish jarayoni muvofiqlik, stressga bardoshlilik va moslashuv strategiyalariga bog‘liq. Oliy ta’lim muassasalarida bu jarayon ko‘plab psixologik omillar – yangi jamoa, o‘qituvchilar bilan aloqa, mustaqil hayotga o‘tish, o‘qish bosimi, iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlar bilan murakkablashadi. Shu sababli, talabalarni psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlash tizimini shakllantirish muhim ijtimoiy-pedagogik vazifaga aylanmoqda.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – talabalarning ijtimoiy moslashuvi jarayonida psixologik yordamning ahamiyatini o‘rganish, samarali psixologik qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini aniqlash hamda oliy ta’lim tizimida moslashuvni yengillashtiruvchi model taklif etishdan iboratdir. Maqola ijtimoiy psixologiya, ta’lim psixologiyasi va sotsiologik yondashuvlar asosida olib borilgan tahlillarga tayangan holda tayyorlangan.

Ijtimoiy moslashuv (adaptatsiya) – shaxsning yangi ijtimoiy muhit sharoitlariga moslashish, ijtimoiy rollarni o‘zlashtirish va ijtimoiy munosabatlarda o‘z o‘rnini topish jarayonidir. Bu jarayon talabalik bosqichida nihoyatda muhim bo‘lib, u shaxsning ijtimoiy, hissiy va kognitiv faoliyatlarining uyg‘unligiga bog‘liq.Nazariy jihatdan, ijtimoiy moslashuv uch bosqichda kechadi:

1. **Orientatsion bosqich** – talaba yangi muhitni idrok etadi, qoidalar va me’yorlarni o‘rganadi.
2. **Integratsion bosqich** – jamoa bilan o‘zaro munosabat o‘rnatiladi, ijtimoiy rollar shakllanadi.
3. **Stabil bosqich** – talaba o‘z o‘rnini topadi, ijtimoiy jihatdan barqarorlashadi.

Psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimi esa talabalarning hissiy barqarorligini ta’minlash, stress holatlarini kamaytirish, motivatsiyani oshirish va ijobiy ijtimoiy o‘zaro ta’sirni

rivojlantirishga qaratilgan tizimdir. Bu tizimda psixologik maslahatlar, treninglar, psixodiagnostika va ijtimoiy faoliyat muhim o‘rin tutadi. Masalan, **Lazarusning stressni boshqarish nazariyasi** asosida talaba moslashuv mexanizmi quyidagicha ifodalanadi:

$$M=(K+S)-T$$

bu yerda:

M – moslashuv darajasi,

K – kognitiv resurslar,

S – ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash,

T – stress omillar yig‘indisi.

Demak, moslashuv darajasi kognitiv tayyorgarlik va ijtimoiy yordam ortishi bilan kuchayadi, stress omillari kamayganda esa barqarorlik ortadi.

Talabalarni psixologik qo‘llab-quvvatlashda quyidagi yondashuvlar samarali hisoblanadi:

Konsultativ yondashuv: individual psixologik maslahatlar orqali stressni yengish.

Trening usullari: kommunikatsiya, vaqtni boshqarish, o‘zini anglash bo‘yicha mashg‘ulotlar.

Pedagogik qo‘llab-quvvatlash: o‘qituvchilarning psixologik sezgirlik va empatiya ko‘nikmalarini oshirish.


Ijtimoiy ko‘mak: jamoaviy tadbirlar, klub va loyihalar orqali integratsiyani mustahkamlash.

Demak, ijtimoiy moslashuv — bu shaxsning psixologik barqarorligi, ijtimoiy faolligi va o‘qishga motivatsiyasini birlashtiruvchi murakkab tizimdir. Oliy ta’lim muassasalarida bu tizimni mustahkamlash talabalarning shaxsiy o‘sishi va kasbiy shakllanishi uchun zarur omildir.

Moslashuv bosqichlari jadvali

Bosqich	Tavsif
Orientatsion	Talaba yangi muhitni idrok etadi va qoidalarni o‘rganadi.
Integratsion	Jamoa bilan o‘zaro munosabat o‘rnatiladi, rollar shakllanadi.
Stabil	Talaba o‘z o‘rnini topadi va barqarorlashadi.

Moslashuv modeli: M = (K + S) - T, bu yerda M – moslashuv darajasi, K – kognitiv resurslar, S – ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, T – stress omillar yig‘indisi.



Tadqiqot metodologiyasi ijtimoiy-psixologik tahlil, empirik kuzatuv, so‘rovnoma va statistik tahlil usullariga asoslanadi. Maqsad – talabalar ijtimoiy moslashuvi va psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimining o‘zaro bog‘liqligini aniqlash.

Tadqiqot ob’ekti sifatida 120 nafar talaba (I–III bosqich) tanlab olindi. Ular orasida yangi kelgan talabalar, akademik muhitga moslashganlar va psixologik yordam olganlar mavjud.

Tadqiqot bosqichlari quyidagicha tashkil etildi:

1. **Diagnostika bosqichi** – talabalar ijtimoiy moslashuv darajasini aniqlash uchun “Sosiometrik tahlil” va “Moslashuv ko‘rsatkichi” testlari o‘tkazildi.
2. **Eksperimental bosqich** – 2 oy davomida psixologik treninglar, stressni kamaytirish mashg‘ulotlari va ijtimoiy faoliyatlar o‘tkazildi.
3. **Natijaviy bosqich** – dastlabki va yakuniy ko‘rsatkichlar taqqoslandi.

Matematik model asosida talabalarning moslashuv ko‘rsatkichi quyidagicha hisoblandi:

$$A=\frac{E_p+E_d}{E_p}\cdot 100$$

bu yerda:

A – adaptatsiya samaradorligi (%),

E_p – eksperimentdan keyingi natija,

E_d – dastlabki natija.

Tahlil natijasida psixologik qo‘llab-quvvatlash o‘tkazilgan guruhda ijtimoiy moslashuv 32% ga oshgani aniqlandi. Stress ko‘rsatkichlari 27% ga kamaygan, motivatsiya darajasi esa 18% ga oshgan.

Bu natijalar psixologik yordam tizimining samaradorligini ko‘rsatadi. Tadqiqot davomida psixologik moslashuv indikatorlari — **motivatsiya, emotsional barqarorlik, ijtimoiy integratsiya** va **o‘zini anglash** darajalari alohida baholandi.

Metodologik jihatdan bu yondashuv oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilan ishlashda amaliy qo‘llanilishi mumkin. Natijalar asosida psixologik xizmat faoliyatini rejalashtirish, ijtimoiy moslashuvni monitoring qilish tizimini yaratish tavsiya etiladi.

Eksperiment natijalari

Ko‘rsatkich	Dastlabki (%)	Yakuniy (%)
Stress darajasi	70	43
Motivatsiya	55	73
Moslashuv darajasi	58	90

Xulosa:

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, talabalarning ijtimoiy moslashuvi — bu nafaqat ijtimoiy integratsiya, balki psixologik barqarorlik, o‘zini anglash va akademik muvaffaqiyat bilan uzviy bog‘liq murakkab jarayondir. Moslashuv jarayonida shaxs yangi ijtimoiy rollarni o‘zlashtiradi, yangi qadriyatlar tizimiga kiradi va o‘zining o‘rni hamda maqsadini anglay boshlaydi.

Psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimi bu jarayonning eng muhim komponentidir. U talabani yangi muhitdagi stress, noaniqlik va ijtimoiy bosimdan himoya qiladi. Treninglar, individual maslahatlar va psixologik diagnostika orqali talabada o‘ziga ishonch, muloqot madaniyati va hissiy barqarorlik shakllanadi.

Tadqiqot jarayonida aniqlanganki, psixologik yordamdan foydalangan talabalar o‘zlarini jamoaga tezroq moslashtiradi, o‘qish natijalari yaxshilanadi va shaxslararo munosabatlarda faolroq bo‘ladi. Bu esa ijtimoiy integratsiya va ta’lim samaradorligining oshishiga olib keladi.

Shu bois, oliy ta’lim muassasalarida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Har bir universitetda **psixologik xizmat markazlari** faoliyatini kuchaytirish.
2. O‘qituvchilarning **psixologik sezgirlik** va **inklyuziv kompetensiyalarini** rivojlantirish.
3. Talabalar uchun **moslashuv treninglari** va **stress boshqaruvi** dasturlarini yo‘lga qo‘yish.
4. Yangi kirgan talabalarni **mentorlik tizimi** orqali qo‘llab-quvvatlash.
5. Har yili **ijtimoiy moslashuv monitoringi**ni olib borish.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy moslashuv va psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimi – talabalarning shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy rivojlanishini ta’minlovchi ijtimoiy-psixologik mexanizm sifatida oliy ta’lim muassasalarida strategik ahamiyat kasb etadi.

QIZLAR ORASIDA ERTA NIKOHLARNING PROFILAKTIKASI: TA’LIM, PSIXOLOGIYA VA HUQUQIY YONDASHUVLAR INTEGRATSIYASI (NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA)

Qozirahimova Nargiza Qodirjonovna
Namangan davlat universiteti, Umum-tibbiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi, fakultet xotin-qizlar masalalari bo‘yicha dekan maslahatchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17623835

Annotatsiya. *Mazkur maqolada qizlar orasida erta nikohlarning oldini olishga qaratilgan ta’lim, psixologik va huquqiy yondashuvlarning o‘zaro integratsiyasi Namangan viloyati misolida tahlil qilinadi. Muallif erta nikohlarning ijtimoiy-psixologik sabablari, ularning oilaviy va ma’naviy oqibatlarini yoritgan holda, bu sohada oliy ta’lim muassasalari, mahalla tizimi hamda davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini samarali tashkil etish yo‘llarini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *erta nikoh, qizlar tarbiyasi, ta’lim tizimi, huquqiy madaniyat, psixologik qo‘llab-quvvatlash, gender tengligi.*

Аннотация. *В данной статье анализируется интеграция образовательных, психологических и правовых подходов к профилактике ранних браков среди девушек на примере Наманганской области. Автор раскрывает социально-психологические причины ранних браков, их семейные и моральные последствия, а также показывает пути эффективной организации сотрудничества между вузами, махаллинской системой и государственными и общественными организациями.*

Ключевые слова: *ранние браки, воспитание девушек, система образования, правовая культура, психологическая поддержка, гендерное равенство.*

Abstract. *This article analyzes the integration of educational, psychological, and legal approaches in preventing early marriages among girls, based on the example of Namangan region. The author examines the socio-psychological causes and family consequences of early marriages, emphasizing the effective cooperation between higher education institutions, the mahalla system, and public organizations.*

Keywords: *early marriage, girls’ education, education system, legal culture, psychological support, gender equality.*

Kirish

So‘nggi yillarda mamlakatimizda yoshlarni, ayniqsa qizlarni ijtimoiy himoya qilish, ularni oilaviy hayotga ongli tayyorlash, erta nikohlarning oldini olish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasining “Oila kodeksi”, “Ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni, shuningdek “Yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi qonun bu sohada huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Namangan viloyatida ham so‘nggi yillarda bu yo‘nalishda tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Viloyatdagi oliy ta’lim muassasalari, xususan Namangan davlat universiteti

qoshidagi “Xotin-qizlar maslahat kengashi” va “Oila va jamiyat” to‘garaklari yosh qizlarning ma’naviy, huquqiy va psixologik tayyorgarligini kuchaytirishga qaratilgan faoliyatni amalga oshirmoqda

Asosiy qism

1. Ta’lim tizimi orqali profilaktika mexanizmlari

Namangan viloyatidagi ta’lim muassasalarida erta nikohlarning oldini olish maqsadida:

“Oila psixologiyasi”, “Etika” va “Huquq asoslari” fanlari yangilangan;

Talaba qizlar uchun ma’naviy-ma’rifiy treninglar tashkil etilgan;

“Oila – muqaddas qadriyat” mavzusidagi tadbirlar muntazam o‘tkaziladi.

Ta’lim tizimi yoshlar ongida nikoh va oilaviy mas’uliyat haqida to‘g‘ri tasavvur shakllantirib, erta nikohlarga qarshi ma’naviy immunitet hosil qiladi.

2. Psixologik yondashuvning amaliy jihatlari

Erta nikohlarning asosiy sabablari — oilaviy bosim, moddiy qiyinchilik, past huquqiy savodxonlik va ruhiy tayyorgarlikning yetishmasligi bilan bog‘liq.

Namangan davlat universitetida tashkil etilgan psixologik maslahat markazlari orqali talaba qizlarga individual maslahatlar beriladi.

Shuningdek:

-ota-onalar bilan hamkorlikda “Farzand tarbiyasi va nikoh madaniyati” mavzusida uchrashuvlar o‘tkazish,

-ijtimoiy tarmoqlarda erta nikohlarga qarshi ma’rifiy videoroliklar tarqatish tavsiya etilgan.

3. Huquqiy yondashuv va gender tengligi tamoyillari

Erta nikohlarning oldini olishda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirish muhim ahamiyatga ega.

Namangan viloyatida “Huquqiy madaniyat oyligi” doirasida qizlar va ularning ota-onalari uchun seminarlar o‘tkaziladi.

Bu tadbirlarda nikoh yoshi, huquqiy shartlar hamda erta nikohning oqibatlari tushuntiriladi.

Gender tengligi tamoyillarini ta’lim jarayoniga singdirish orqali qizlarning ijtimoiy faolligi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati oshmoqda.

4. Xalqaro hamkorlik va milliy tajriba uyg‘unligi

Namangan viloyatida UNFPA, UNICEF va UN Women tashkilotlari bilan hamkorlikda qator loyihalar amalga oshirilmoqda.

Jumladan:

“Girls Power” dasturi doirasida motivatsiya va muloqot treninglari o‘tkaziladi;

Psixologik yordam va mentorlik dasturlari yo‘lga qo‘yilgan;

OAV orqali erta nikohlarga qarshi ijtimoiy reklama materiallari tarqatilmoqda.

Xulosa

Qizlar orasida erta nikohlarning oldini olish masalasi kompleks yondashuvni talab etadi.

Ta’lim, psixologiya va huquq sohalarining integratsiyasi orqali yoshlarning huquqiy ongi, psixologik barqarorligi va oilaviy mas’uliyati mustahkamlanadi.

Namangan viloyatidagi tajriba ko‘rsatmoqdaki, mahalla, ta’lim tizimi va jamoat tashkilotlari hamkorligida amalga oshirilayotgan ishlar ijobiy natija bermoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi. (2021). Oila kodeksi. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022). Ayollar va yoshlarni qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida [Farmon]. Toshkent.
3. United Nations Population Fund (UNFPA). (2023). Preventing early marriage in Central Asia: National and regional experience.
4. Qodirova, N., & Qozirahimova, N. (2023). Oila psixologiyasi va yoshlar tarbiyasi. Namangan: NDPI nashriyoti.
5. United Nations Children’s Fund (UNICEF). (2024). Education and empowerment of girls in Uzbekistan [Report].

OLIY TA’LIMDA TALABA-QIZLARNI IJTIMOIY QO ‘LLAB QUVVATLASH VA OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA MENTORLIK FAOLIYATINING AHAMIYATI

Rasulova Shoira Azizovna
Farg‘ona davlat universiteti katta o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17623849

Annotatsiya. *Mazkur maqola O‘zbekistonning hozirgi rivojlanish bosqichida oliy ta’lim tizimidagi talaba-qizlarning jamiyat va iqtisodiyotdagi faolligini oshirishda mentorlik faoliyatining nazariy va amaliy ahamiyatini ilmiy asoslashga bag‘ishlangan. Unda mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy islohotlar sharoitida xotin-qizlarning yetakchi fuqarolar va faol mutaxassislar sifatida shakllanishi zaruriyati ko‘rsatib o‘tilgan. Maqolada gender yondashuvi nuqtai nazaridan talaba-qizlarda uchraydigan psixologik to‘siqlar, o‘ziga ishonchsizlik va ijtimoiy ko‘nikmalar yetishmovchiligini bartaraf etishda mentorlikning muhimligi tahlil qilingan. Mentorlikning kasbiy maslahat berish, hissiy qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy kapitalni oshirish (tarmoqlanish) va muvaffaqiyatli xulq-atvor modelini taqdim etish kabi asosiy funksiyalari ochib berilgan. Shuningdek, maqolada oliy ta’lim tizimida "Ustoz-shogird" an’anasi, "Qizlar maslahat kengashlari" faoliyati kabi mavjud milliy tajribalar bilan bir qatorda, zamonaviy mentorlik dasturlarini tizimli joriy etish orqali talaba-qizlarda kommunikatsiya, yetakchilik va tarmoqlanish kabi muhim ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar, jumladan, maxsus markaz tashkil etish va mentorlar uchun treninglar o‘tkazish taklif etilgan. Xulosa qilib aytganda, tizimli mentorlik O‘zbekistonning gender tenglikni ta’minlash va ayollar imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha milliy maqsadlariga erishishda strategik vosita ekanligi asoslangan.*

Kalit so‘zlar*: Mentorlik,talaba-qizlar faolligi,ijtimoiy ko‘nikmalar,gender yondashuvi,oliy ta’lim tizimi,tarmoqlanish,yetakchilik.*

Abstract. *This article is devoted to the scientific substantiation of the theoretical and practical significance of mentoring activities in increasing the activity of female students in the higher education system in society and the economy at the current stage of development of Uzbekistan. It shows the need for the formation of women as leading citizens and active specialists in the context of socio-political reforms being implemented in the country. The article analyzes the importance of mentoring in overcoming psychological barriers, self-confidence and lack of social skills among female students from the perspective of a gender approach. The main functions of mentoring are revealed, such as providing professional advice, emotional support, increasing social capital (networking), and providing a model of successful behavior. The article also proposes practical recommendations for developing important social skills such as communication, leadership, and networking in female students through the systematic introduction of modern mentoring programs, including the establishment of a special center and training for mentors, along with existing national experiences in the higher education system, such as the "Teacher-Shogird" tradition and the activities of "Girls' Advisory Councils". In conclusion, it is based on the fact that systematic mentoring is a strategic tool in achieving Uzbekistan's national goals of ensuring gender equality and empowering women.*

Keywords: *Mentoring, female student activism, social skills, gender approach, higher education system, networking, leadership*

Аннотация. *Статья посвящена научному обоснованию теоретической и практической значимости наставнической деятельности в повышении активности студенток системы высшего образования в обществе и экономике на современном этапе развития Узбекистана. Показана необходимость формирования женщин как ведущих граждан и активных специалистов в условиях реализуемых в стране социально-политических реформ. В статье анализируется значение наставничества в преодолении психологических барьеров, неуверенности в себе и дефицита социальных навыков у студенток с точки зрения гендерного подхода. Раскрываются основные функции наставничества, такие как предоставление профессиональных консультаций, эмоциональная поддержка, повышение социального капитала (нетворкинг) и подача модели успешного поведения. В статье также предлагаются практические рекомендации по развитию важных социальных навыков, таких как коммуникативные навыки, лидерство и нетворкинг у студенток, посредством системного внедрения современных программ наставничества, включая создание специального центра и подготовку наставниц, а также с учетом имеющегося национального опыта в системе высшего образования, такого как традиция «Учитель-Шогирд» и деятельность «Консультативных советов девушек». В заключение следует отметить, что систематическое наставничество является стратегическим инструментом в достижении национальных целей Узбекистана по обеспечению гендерного равенства и расширению прав и возможностей женщин.*

Ключевые слова: *наставничество, студенческий активизм, социальные навыки, гендерный подход, система высшего образования, сетевое взаимодействие, лидерство.*

O‘zbekistonning hozirgi rivojlanish bosqichida xotin-qizlarning jamiyat va iqtisodiyotdagi o‘rni kuchaymoqda. Oliy ta’limdan keyin ularning raqobatbardosh mutaxassis, faol fuqaro va ijtimoiy tashabbuskor shaxs sifatida shakllanishi muhim.Oliy ta’lim tizimi nazariy bilimlarni beradi su bilan birga amaliy ijtimoiy ko‘nikmalar kommunikatsiya, tarmoqlanish, yetakchilikni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, talaba-qizlarda o‘ziga ishonch va jamiyatda faollikni namoyon etishda qo‘shimcha yordamga ehtiyoj seziladilar.Ustoz-shogird dasturlarida talaba-qizlarga ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish va natijada ularning jamiyatdagi faolligini oshirish muhim ahamiyatga ega.Bugungi kunda bu sohaga faol kirib kelayotgan Mentorlik faoliyati muhim xisoblanadi .Mentorlikning an’anaviy "ustoz-shogird" dastiriga uzviyligi kasbiy, hayotiy va ijtimoiy maslahat beruvchi tizimdir. Mentor muvaffaqiyatli xulq-atvor modelini taqdim etadi.Gender yondashuvi nuqtai nazaridan zaruriyatni olib qaralsa nima uchun aynan talaba-qizlar uchun mentorlik muhim? . Kichik yoshdan shakllangan rollar, o‘ziga ishonchsizlik, yuqori lavozimdagi ayol namunalarning kamligi kabi omillar yotadi. Mentorlik faoliyati kasbiy maslahatlar berish, ish tarmoqlariga kirishga yordam beradi.Hissiy qo‘llab-quvvatlash, muammolarni yechishda yordam berish, o‘ziga ishonchni oshirishga yordam beradi. Oliy ta’lim tizimidagi "Qizlar maslahat kengashlari" yoki Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi bilan hamkorlikdagi loyihalar ishlab chqilgan va xayotga tadbiq etib kelinmoqda.Milliy tajribada mentorlik asosan ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishlar bilan birga kasbiy va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan amaliy, tizimli yondashuv bo‘lsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.Olib borilayotgan keng qamrovli ijtimoiy-siyosiy islohotlar xotin-qizlarning

jamiyat va davlat boshqaruvidagi ishtirokini kuchaytirishni, shuningdek, ularning iqtisodiy mustaqilligini ta’minlashni ustuvor vazifalaridan biri etib belgilagan. Oliy ta’lim tizimi ana shu maqsadlarga xizmat qiluvchi asosiy poydevor hisoblanadi. Talaba-qizlar professional ta’lim olish bilan birga, zamonaviy jamiyatning talablariga javob beradigan yetakchi fuqarolar, faol mutaxassislar va tashabbuskor shaxslar sifatida shakllanishlari lozim. Ayniqsa, milliy mentalitet va gender stereotiplari ta’siri ostida talaba-qizlarda o‘z imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish, jamiyatda faollikni namoyish etishda psixologik to‘siqlar va ko‘nikmalar yetishmovchiligi kuzatilishi mumkin.Oiy ta’lim tizimida talaba-qizlarning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish va shu orqali ularning jamiyatdagi faolligini oshirishga ta’sirini nazariy va amaliy jihatdan ilmiy asoslash hamda shu borada amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Mentorlik — bu tajribali shaxsning kam tajribali shaxsga kasbiy, shaxsiy va hayotiy rivojlanishda muntazam yordam ko‘rsatishi jarayonidir. Z. G. Tixomirova ta’rifiga ko‘ra, mentorlik shaxsni jamiyatga ijtimoiy moslashtirish, kasbiy kompetensiyalarni oshirish va qadriyatlar tizimini shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik-psixologik tizimdir.Ijtimoiy ko‘nikmalar deganda, shaxsning jamiyatda muvaffaqiyatli o‘zaro aloqada bo‘lishi, o‘z-o‘zini namoyish etishi, muammolarni hal qilishi va jamoada samarali ishlashi uchun zarur bo‘lgan xulq-atvor me’yorlari, qobiliyatlari va bilimlar yig‘indisi tushuniladi. Bu nazariyaga ko‘ra, odamlar kuzatish, taqlid qilish va modellashtirish orqali o‘rganadilar. Mentorning o‘zi muvaffaqiyatli shaxsiy va kasbiy xulq-atvorning namunasi bo‘lib xizmat qiladi. Talaba-qizlar mentorning qanday qilib ijtimoiy vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishini, o‘z fikrini dadil bayon etishini ko‘rib, bu ko‘nikmalarni o‘zlashtiradilar, bu esa ularning ijtimoiy faolligini sezilarli darajada oshiradi.Ko‘pincha qizlarga "ayollarga xos" bo‘lmagan sohalarda masalan, IT, injeneriya, siyosat kabilarda o‘zini namoyish etish qiyin bo‘ladi. Muvaffaqiyatli ayol mentor ularga ushbu "shisha shift"ni yorib o‘tish mumkinligini real hayotiy misolda ko‘rsatadi.Mentorlik munosabati davomida qizlar hissiy qo‘llab-quvvatlash oladi, bu esa ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini, o‘ziga baho berish darajasini oshiradi va ijtimoiy tashabbuskorlikka undaydi.Mentorlik orqali talaba-qizlar kelajakda oilaviy hayot va kasbiy faoliyatni muvofiqlashtirishning amaliy mexanizmlarini, muvaffaqiyatli ayolning hayotiy strategiyasini o‘rganadilar.Mentorlikning asosiy funktsiyasi — faqat maslahat berish emas, balki qizlarning ijtimoiy kapitalini oshirish orqali ularning jamiyatdagi mavqeini mustahkamlashdir. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida "Ustoz-shogird" an’anasi mavjud shuningdek, Oliy ta’lim muassasalarida tashkil etilgan "Qizlar maslahat kengashlari" ham talaba-qizlarni psixologik qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Shuningdek mentorlik munosabatlari ham samarali, professional muloqotning yaqqol namunasi bo‘ladi. Mentorlar shogirdlarga qiyin muloqot vaziyatlarini o‘rgatadi. Natijada, qizlar o‘z fikrini aniq, dadil va professional tarzda bayon etish, jamoatchilik oldida chiqish qilish ko‘nikmalarini tezroq o‘zlashtiradi, bu esa ularning jamiyatda o‘z faolligini namoyon etishi uchun asosiy shartdir.Tarmoqlanish Mentor o‘zining kasbiy aloqalari doirasini shogird uchun ochadi. Bu orqali talaba-qizlar faoliyatining boshidayoq muhim insonlar va tashkilotlar bilan aloqa o‘rnatish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ijtimoiy kapitalning kengayishi kelajakda ish topish, loyihalarni boshlash va ijtimoiy tashabbuslarni amalga oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.Mentorlik munosabatlari qizlarga kasbiy va shaxsiy ziddiyatlarni sog‘lom tarzda yechish usullarini, shuningdek, yuqori bosim sharoitlarida hissiy barqarorlikni saqlash strategiyalarini o‘rgatadi. Bu esa ularning ijtimoiy faoliyat davomida uchraydigan qiyinchiliklarga chidamliligini oshiradi. Mentorning o‘ziga xos muvaffaqiyati shogird uchun erishish mumkin bo‘lgan maqsad sifatida namoyon bo‘ladi. Bu, qizlarda ichki motivatsiyani uyg‘otadi, ularni o‘z qobiliyatlariga ishonishga va jamiyatdagi dolzarb masalalarda

faol ishtirok etishga undaydi. Natijada, ular passiv kuzatuvchi rolidan faol ishtirokchi roliga o‘tadi, bu esa ularning jamiyatdagi faolligini sifat jihatdan oshiradi. Oliy ta’lim muassasalari tuzilmasida "Talaba-qizlarning ijtimoiy-kasbiy rivojlanish markazi" yoki shunga o‘xshash tashkil etish mumkin. Bu markaz mentorlik jarayonini tashkillashtirish, mentorlarni saralash va shogirdlar bilan moslashtirish kabi vazifalarni bajarishi lozim. Mentor sifatida nafaqat professor-o‘qituvchilar, balki muvaffaqiyatli ayol bitiruvchilar, tadbirkorlar va davlat xizmatchilarini jalb qilish mumkin. Mentorlar uchun maxsus treninglar o‘tkazish masalan, muloqot etikasiga, tinglash ko‘nikmasiga va o‘z-o‘zini baholashni oshirish metodlariga oid.Bir mentor bir vaqtning o‘zida bir nechta talaba-qiz bilan ishlash orqali qamrovni kengaytirish. Bu, qizlar o‘rtasida ham o‘zaro tajriba almashishni kuchaytiradi.

Oliy ta’lim tizimida tatbiq etiladigan samarali mentorlik dasturlari talaba-qizlarning faqat professional emas, balki asosiy ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishning strategik ahamiyotga ega vositasi hisoblanadi.Nentorlik munosabatlari orqali talaba-qizlar yetakchilik, kommunikatsiya, tarmoqlanish qobiliyatlarini modellashtirish, kuzatish va amaliyotda sinab ko‘rish orqali tez va samarali o‘zlashtiradilar. Bu ko‘nikmalarning rivojlanishi, o‘z navbatida, ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi va jamiyatdagi har qanday ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy jarayonlarda faol ishtirok etishiga zamin yaratadi. Mentorlikning tizimli joriy etilishi O‘zbekistonning gender tenglikni ta’minlash va ayollar imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha milliy maqsadlariga erishishda mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: “Adolat”, 2023. – 92 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–87-son Farmoni.
3. Tixomirova Z. G. Pedagogicheskiye usloviya razvitiya sotsialno-professionalnoy kompetentnosti studentov v protsesse nastavnichestva. – Moskva: MGGU, 2018. – 184 s.
4. Gulyamova G. Oliy ta’lim muassasalarida talaba-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishda "Qizlar maslahat kengashlari"ning o‘rni. // Pedagogika va psixologiya ilmiy jurnali. – 2024. – № 3. – B. 115-121.
5. Smit D. Jender va yetakchilik: Ayollar rivojlanishida mentorlik dasturlarining samaradorligi. – Nyu-York: “Routledge”, 2021. – 280 b. (ingliz tilidan tarjima).
6. Xolmatova M. Xotin-qizlar iqtisodiy mustaqilligini ta’minlashda kasbiy mentorlikning ahamiyati. // Ijtimoiy-siyosiy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – № 4. – B. 78-85.
7. Qodirov A. Talaba yoshlarda kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishning pedagogik asoslari. – T.: “Fan”, 2020. – 210 b.

TALABA-QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH VA IJTIMOIY QO‘LLAB-QUVVATLASH YO‘LLARI

Solixo‘jayeva Dildora[1], Azizova Dilnoza Axrarovna[2]
[1]Yoshlar siyosati va ma’naviy tarbiyaviy ishlar boshqarmasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi;
[2]Dotsent, pedagogika fanlari nomzodi Toshkent davlat tibbiyot universiteti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17623855

Annotatsiya. *Ushbu maqolada talaba-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash va ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash masalalari yoritilgan. Tadqiqotda ta’lim jarayonida tarbiyaviy, psixologik hamda sotsiokultural yondashuvlarni uyg‘unlashtirish orqali yosh ayollarda mas’uliyatli oila qurish, onalik va professional faoliyatni muvaffaqiyatli uyg‘unlashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish zarurligi asoslab beriladi. Shuningdek, talaba-qizlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga qaratilgan davlat siyosati yo‘nalishlari, pedagogik shart-sharoitlar va amaliy mexanizmlar tahlil qilinadi.*
Kalit so‘zlar: *talaba-qizlar, oilaviy hayot, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, gender tenglik, tarbiya, pedagogik yondashuv.*
Аннотация. *В статье рассматриваются пути подготовки студенток к семейной жизни и меры их социальной поддержки. Обосновывается необходимость интеграции воспитательных, психологических и социокультурных подходов в образовательный процесс для формирования у молодых женщин готовности к созданию семьи, ответственному материнству и гармоничному сочетанию профессиональной и личной жизни. Анализируются направления государственной политики, педагогические условия и практические механизмы, способствующие социальной защите и развитию студенток.*
Ключевые слова: *студентки, семейная жизнь, социальная поддержка, гендерное равенство, воспитание, педагогический подход.*
Abstract. *This article explores the ways of preparing female students for family life and providing them with social support. It emphasizes the importance of integrating educational, psychological, and sociocultural approaches into the learning process to develop young women’s readiness for family formation, responsible motherhood, and the balanced combination of professional and personal life. The paper also analyzes directions of state policy, pedagogical conditions, and practical mechanisms that contribute to the social protection and empowerment of female students.*
Keywords: *female students, family life, social support, gender equality, education, pedagogical approach.*

2030 yilgacha mo‘ljallangan Gender tenglikka erishish strategiyasining qabul qilinishi ayollar huquqlari va ularning ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanishi masalalari rasmiy darajada ko‘rib chiqilayotganini ko‘rsatadi. Biroq talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasi tizimli yondashuvni va ta'lim hamda ijtimoiy institutlar ishtirokini talab etadigan murakkab jarayondir.

Oliy ta'lim muassasalarida talaba qizlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va oilaviy hayotga tayyorlash jarayoni gender tenglik muhiti yaratish, gender rollarini o‘quv dasturlariga integratsiya qilish, psixologik va ijtimoiy yordam ko‘rsatish hamda milliy va xalqaro tajriba

almashinuvi orqali amalga oshiriladi. Buning maqsadi – teng rivojlanishni ta'minlash, stereotiplarni yengish va jamiyat tomonidan belgilangan rollarga emas, balki tenglikka asoslangan barqaror oilaviy qadriyatlarni shakllantirishdir.

Har bir talaba jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi yoki boshqa omillardan qat'i nazar o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi mumkin bo‘lgan muhitni yaratish zarur. Shu bilan birga, o‘quv materiallari va ta'lim uslublarida mavjud gender stereotiplariga qarshi kurashish muhimdir. O‘quv dasturlari genderga oid turli nuqtayi nazarlarni o‘z ichiga olishi, stereotiplarga qarshi turishi va ijtimoiy rollarning yanada aniq aks ettirilishiga yordam berishi lozim.

Talabalarga psixologik yordam ko‘rsatish, ayniqsa oliy ta'lim tizimiga moslashuv davrida va oilaviy rejalashtirish bosqichida, katta ahamiyat kasb etadi. Universitetlar doirasida talabalarga gender tenglik tamoyillariga asoslangan holda ijtimoiy va oilaviy rollarni chuqurroq tushunishga yordam beruvchi tadbirlar o‘tkazish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikni ta'minlash masalalari davlat siyosatining diqqat markazida turadi. Milliy darajada mamlakatimizda ayollarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning huquqlari va imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha izchil siyosat olib borilmoqda. Shu bilan birga, jamiyatda erkaklar va ayollarning oiladagi va ijtimoiy hayotdagi o‘rniga oid eskirgan stereotiplarni bartaraf etish yo‘lida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Demokratik qadriyatlarga asoslangan islohotlar inson manfaatlarini ta'minlash bilan bir qatorda, ayollarning jamiyatdagi maqomini mustahkamlash, ularning huquq va imkoniyatlarini himoya qilishga qaratilgan. Shu o‘rinda ayollarning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy faolligini oshirish davlat siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Ayollarga mas'uliyatli rahbarlik lavozimlari ishonib topshirilayotgani davlat rahbarining ularga bo‘lgan yuksak ishonchi va hurmatidan dalolat beradi.

O‘zbekistonda gender tenglikni ta'minlashda ilg‘or xorijiy tajribalar ham hisobga olinmoqda. So‘nggi yillarda bu yo‘nalishda muhim hujjatlar qabul qilindi, xususan: “Erkaklar va ayollar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni kafolatlash to‘g‘risida”gi Qonun (2019 y.), “Ayollarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun (2019 y.) hamda 2020 yil 4 yanvardagi Vazirlar Mahkamasining “Ayollarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

Murakkab hayotiy vaziyatda qolgan qizlar va ayollarni har tomonlama ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida mamlakatda maqsadli davlat dasturlari amalga oshirilmoqda. Masalan, 2018–2020 yillarda Xotin-qizlar va oila qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi mablag‘lari hisobidan uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj bo‘lgan qariyb to‘rt ming nafar ayolga boshlang‘ich to‘lovlar berildi. Shuningdek, bandlikni rivojlantirish davlat jamg‘armasi tomonidan kam ta'minlangan oilalardan chiqqan ayollarning kasb o‘rganish xarajatlarini qoplash uchun grantlar ajratish amaliyoti joriy etildi. Bu chora-tadbirlar, ayniqsa qishloq hududlarida, ayollarning ijtimoiy va iqtisodiy faolligini sezilarli darajada kengaytirdi.

Ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalarda erkaklar va ayollar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash jamiyat barqarorligi va davlat iqtisodiy mustahkamligini mustahkamlovchi muhim omil sifatida qaralmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko‘ra, mamlakat aholining deyarli yarmi ayollar bo‘lib, ularning iqtisodiy faol aholi orasidagi ulushi 46 foizdan oshadi. Sog‘liqni saqlash, ta'lim va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish sohalarida ayollar 70 foizdan ortiq ishchi kuchini tashkil etadi, bu esa ularning mamlakat ijtimoiy infratuzilmasi rivojiga qo‘shayotgan katta hissasini ko‘rsatadi [1; 2].

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan gender siyosati nafaqat ayollar huquqlarini himoya qilish, balki ularning ilmiy, kasbiy va ijtimoiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratishga ham xizmat qilmoqda [3; 4]. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va gender tenglik mexanizmlarining rivojlanishi yetuk fuqarolik jamiyatini shakllantirish va oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning muhim omili hisoblanadi [5].

Zamonaviy o‘zbek pedagoglari va sotsiologlari olib borgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ayollarning jamiyat va kasbiy hayotdagi rolini oshirish nafaqat iqtisodiy o‘sishga, balki oila institutining mustahkamlanishiga ham xizmat qiladi. N.X. Ergasheva fikriga ko‘ra, ayollarga ijtimoiy-iqtisodiy ko‘mak ko‘rsatish hamda ularning oliy ta'lim muassasalarida yetakchilik salohiyatini rivojlantirish ta'lim muhitining barqarorligini ta'minlaydi va yoshlar orasida gender tenglik tamoyillariga asoslangan munosabatlarni shakllantirishga yordam beradi [2].

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ayollar va oilani qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan muhim strategik hujjatlar qabul qilindi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila institutini yanada mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni (№ UP–6195, 2021-yil 18-mart) hamda “E'tibor va qadrlash yili” davlat dasturi (2024-yil) [1] shular jumlasidandir. Ushbu hujjatlar davlat ijtimoiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini — yoshlarni tarbiyalash va jamiyatda ayollarning rolini oshirishni belgilab beradi.

Bundan tashqari, oliy ta'lim tizimida genderga yo‘naltirilgan dasturlarni joriy etish nafaqat qizlar, balki o‘g‘il bolalarda ham tenglik, o‘zaro hurmat va jamiyat hamda oila kelajagi uchun mas'uliyat tuyg‘ularini shakllantirishga imkon beradi. Oliy ta'lim muassasalari shu tariqa nafaqat kasbiy tayyorgarlik markazlari, balki tenglik va hamkorlik tamoyillariga asoslangan oilaviy qadriyatlar madaniyatini shakllantiruvchi muhit sifatida ham xizmat qilmoqda [3].

Bu jarayon “Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi — 2022–2026”da belgilangan vazifalar bilan hamohang bo‘lib, unda ayollarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish va ularning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishi uchun sharoit yaratish zarurligi ta'kidlanadi.

Zamonaviy yoshlar dunyoqarashi va hayotiy ustuvorliklarini belgilovchi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillar majmuasining ta'siri ostida yashamoqda. Globallashuv va jamiyatning raqamli transformatsiyasi sharoitida ma'naviy-axloqiy hamda oilaviy qadriyatlarni saqlab qolish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois, yoshlarni mustaqil mehnat va oilaviy hayotga tayyorlash ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

Zamonaviy tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, pedagogika fani hozircha oliy ta'lim bitiruvchilarining oilaviy munosabatlar va ota-onalik mas'uliyatiga tayyorgarligini shakllantirishda dolzarb sotsiokultural chaqiriqlarga yetarlicha e'tibor qaratmayapti [1; 2]. Maktab va kollej darajasida kasbiy yo‘naltirish tizimi rivojlangan bo‘lsa-da, oilaviy munosabatlar madaniyatini shakllantirish masalalari ko‘pincha ta'lim jarayonining chekkasida qolmoqda.

Shu bilan birga, individualizm va erkin hamkorlik shakllariga asoslangan g‘arb qadriyatlari ta'sirining kuchayishi oilaga oid an'anaviy qarashlarga qarama-qarshi ta'sir ko‘rsatmoqda. Natijada, oilaviy institutlar inqirozga yuz tutmoqda, ajralishlar soni ortmoqda, tug‘ilish darajasi esa pasaymoqda. Bu holat so‘nggi yillardagi sotsiologik tadqiqotlarda ham o‘z aksini topgan [3]. Bunday tendensiyalar yoshlarning psixologik holatiga salbiy ta'sir etib, mas'uliyat, muhabbat va ota-onalik haqidagi tasavvurlarni buzmoqda.

Shu sababli, talabalar ongida oilaviy qadriyatlarga hurmat, nikohning ahamiyati, kelajak avlod oldidagi mas'uliyat va madaniy an'analarni asrash tuyg‘usini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik tizimni yaratish zarurati ortib bormoqda. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash oliy

ta'limning insonparvarlik missiyasining ajralmas qismi bo‘lib, shaxsning ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy kamolotiga xizmat qilishi lozim [4].

Xulosa qilib aytganda, talabalarni ongli ravishda nikohga kirish va mas'uliyatli ota-onalikka tayyorlash faqat pedagogik emas, balki umumdavlat miqyosidagi vazifa bo‘lib, u ta'lim muassasalari, oila va jamoat tashkilotlari sa'y-harakatlarini birlashtirishni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni “Oila institutini yanada mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” № UP–6195, 2021 yil 18 mart.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida” № UP–60, 2022 yil 28 yanvarь.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori “Ayollarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020 yil 4 yanvarь.
4. Qonun “Erkaklar va ayollar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni kafolatlash to‘g‘risida” // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2019 yil.
5. Qonun “Ayollarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida” // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2019 yil.
6. Ergasheva N. X. Oliy ta'lim tizimida ayollarning ijtimoiy faolligini oshirish masalalari. — Toshkent: Fan, 2020.
7. Д.А.Уста-Азизова, Ё.Умаров. Формирования социальной активности личности посредством политических ценностей. Colloquium-journal Научный журнал №25 (49), Польша, 2019. С.77-78.
8. Д.А.Уста-Азизова, М.Хожиева. Подготовка педагогов профессионального обучения как одна из важнейших потребностей общества. Colloquium-journal Научный журнал №5 (92), Польша, 2021. С.34-37.
9. Д.А.Уста-Азизова. Научно-педагогические основы духовно-нравственного воспитания студентов во внеаудиторное время (на материалах художественной литературы Узбекистана). Автореф. дис. ... канд. пед наук. Ташкент, 2007. 25 стр.
10. D.A.Usta-Azizova, X.Lutfullayeva, R.Ibragimova. Self-Education of medical students as a factor of their professional development. Scopus. C. 565-573.
11. UNESCO. Gender Equality in Education: Global Framework and Strategies. — Paris: UNESCO Publishing, 2021.
12. United Nations Development Programme (UNDP). Gender Equality Strategy 2030. — New York, 2018.
13. World Bank. Women, Business and the Law 2024: Removing Barriers to Women’s Economic Inclusion. — Washington, DC: World Bank, 2024.

“ОҚИЛА АЁЛЛАР ҲАРАКАТИ” ТАЛАБА-ҚИЗЛАРНИ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШДА, ДОЛЗАРБ ВА МУҲИМ БИЛИМЛАР ВА КЎНИКМАЛАР ТАЪМИНЛАШДАГИ ЎРНИ

Султанова Эътибор
сиёсий фанлар доктори, профессор Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети
https://doi.org/10.5281/zenodo.17623889

Аннотация. *В настоящее время актуализируется значимость Движения “Оқила аёллар” “как драйверов в поддержке девушек студентов, в привитии у них практических навыков и умений приобретать знания, необходимые для становления их профессиональными специалистами. Как показывают реалии развития политики относительно женщин в Узбекистане, налицо особое отношение к ней со стороны государства. Важно отметить такой инструмент социльной политики, как предоставление женщинам, независимо от возраста, национальности и вероисповедания условий для получения знаний на грантовой основе в магистратуре и льготного обучения на бакалавриате. Женщины рассматриваются в нашем обществе как важная категория населения, от которой зависит будущее нации. Сегодня в нашем государстве существует система, обеспечивающая защиту прав женщин, созданию им условий для полноценного развития и профессионального роста. Система защиты интересов женщин осуществляется по линии государства, правовых институтов, государственных органов, Парламента, правительства и его государственного органа - Комитета по вопросам семьи и женщин со своими подразделениями в регионах страны.*

В статье особое внимание уделяется всесторонней деятельности Движения “Окила аёллар”, которая представляет собой с одной стороны, драйвер в создании перемен, а с другой - платформу интеллектуального продвижения идей Государственного Комитета семьи и женщин Республики Узбекистан. Правовая обеспеченность защиты женщин, учёт критериев международных организаций рассматривается как необходимый инструмент для дальнейшего роста общественно-политической активности женщин, особенно, девушек-студенток.

Ключевые слова*: женщины - критерии цивилизованного развития, Конституция, будущее нации, Движение “Окила аёллар“, Олий Мажлис, Всеобщая Декларация прав человека, Стратегия гендерного равенства Узбекистана-2030, ООН, ШОС, ОТГ, Цели и Задачи по устойчивому Развитию.*

Abstract. *At present, the significance of the “Okila Ayollar” (Wise Women) Movement is being increasingly recognized as a driving force in supporting female students by helping them acquire practical skills and knowledge essential for their professional development. The realities of women-related policy development in Uzbekistan demonstrate the state’s particular attention and commitment to this area. It is important to highlight such a social policy instrument as the provision of opportunities for women—regardless of their age, nationality, or religion—to obtain education on a grant basis at the master’s level and at reduced tuition rates at the bachelor’s level. Women are regarded in our society as a vital segment of the population upon which the nation’s future depends.*

Today, there exists a system in our country that ensures the protection of women’s rights and the creation of conditions for their full development and professional growth. The system for safeguarding women’s interests operates through the state, legal institutions, government bodies, the Parliament, the Government, and its specialized agency—the Committee on Family and Women’s Affairs—with its regional branches throughout the country.

This article pays special attention to the comprehensive activities of the “Okila Ayollar” Movement, which serves, on one hand, as a driver of change, and on the other, as an intellectual platform for advancing the ideas of the State Committee on Family and Women’s Affairs of the Republic of Uzbekistan. The legal framework for women’s protection and the consideration of international organization criteria are viewed as essential instruments for the further growth of women’s socio-political activity, particularly among female students.

Keywords: *women – criteria of civilized development, Constitution, future of the nation, “Okila Ayollar” Movement, Oliy Majlis, Universal Declaration of Human Rights, Gender Equality Strategy of Uzbekistan–2030, UN, SCO, CIS, Sustainable Development Goals (SDGs).*

Ўзбекистонда аёлга бўлган ҳурматни: “Дунёда тенги йўқ бўлган аёлга эъзоз!”, - деб аташ мумкин. Давлатимизда барча аёллар ёшидан, миллати, эътиқодидан, мавқеидан, касбидан қатъий назар Конституцияга асосланган турли имкониятлар, имтиёзларга эгадирлар. Айниқса, миллатимиз келажагини, билимли салоҳиятини таъминлашга йўналтирувчи - олий таълим олиш йўлида талаба қизларга имкониятлар йилдан-йилга кўпаймоқда: улар магистратурадаги сони ”34 фоиздан 66 фоизга ошди, бакалавриатда 38 фоиздан 53 фоизгача ошди,докторантурада 584 нафардан 4 129 нафарга етди”. [1]

Олий ўқув юртга кирган талаба қизлар, магистрант ва докторантлар турли стипендиялар (Президент стипендия, А.Навойи, Беруний, Зульфия Давлат мукофотлар)га тавсия қилинмоқда, турли хорижий грантларга, стажировкаларга сазовор бўлмоқдалар.

Мамнуният билан айтиш лозимки, давлатимиз сиёсатида барча аёлларга,айниқса,олий таълим тизимидаги талаба қизларга,уларнинг сиёсий, ижтимоий, иқтисодий, маънавий-маърифий масалалар бўйича чуқур билимлар олишига кўмаклашувчи яна янги тизим ташкил топилди. У Ўзбекистон Республикаси Оила ва хотин-қизлар қошида тузилган “Оқила аёллар” харакати бўлди. Янги Ўзбекистон босқичининг ёрқин намунаси сифатида “Оқила аёллар” харакати давлатимиз раҳбарининг ташаббуслари билан 2022 йил 8 августда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг Қарорига мувофиқ ташкил этилди. Харакат аъзолари сифатида қуйидагилар: Олий Мажлис депутатлари, партиялар вакиллари ва фаоллари, йирик, кўзга кўринган хуқуқшунос, сиёсатшунос, иқтисодчи, социолог, психолог олималари, санъат арбоблари, спортчилар, ёзувчилар, шоирлар, ёзувчилар, оммавий ахборот воситалар намоёндалари киради. “Оқила аёллар” харакатининг асосий мақсади: барча хотин-қизларни,жумладан,талаба қизларни, қўллаб-қувватлаб, давлатимиз томонидан олиб борилаётган ислохотларга хамоханг фикрлаб, бефарқ бўлмасдан, фаол бўлишига жалб этувчи платформани яратишга кўмаклашишдир... Бугунги кунда Харакатнинг олдида муҳим вазифалар турибди. Аввалом бор, талаба-ёшларни тарбияловчи, жамиятимизни мукаммал инсон бўлишига, давлатимизнинг ислохотларини амалга ошишга, хисса қўшишга қодир бўлаётган инсонларни, уларга хаёт берганлар - оналарини, фарзанд - ўғил-қизларини сиёсий, иқтисодий, маънавий жихатдан, миллий оилавий қадриятларга ҳурматда бўлиш борасидаги билимлар ва кўникмалар доирасида тарбиялашдир.

Президентимизнинг: “Маърифатли жамиятни маърифатли оналарсиз қуриб бўлмайди”, - деган сўзлар бежиз айтилмаган. “Оқила аёллар“ харакати фаоллари тарбиявий ишларида ҳуқуқий билимларга асосланадилар. Жумладан, 1948 йилдаги “Инсон ҳуқуқлари умумжахон Декларацияси”, 1965 йилги “Оналикни муҳофаза қилиш тўғрисидаги” Конвенция, 1979 йилдаги “Аёлларга нисбатан камситилишнинг барча шаклларини бартараф этиш тўғрисида”ги Конвенция, 1995 йилдаги “Пекин Декларацияси” ва “Харакат Платформаси”, 2000 йилдаги “Мингйиллик Декларацияси”, 2015 йилда қабул қилинган “Барқарор Ривожланиш Мақсадлари”, “Ўзбекистон гендер тенглик борасида 2030 Стратегияси” каби хуқуқий хужжатлар ўрганишига алоҳида урғу бермоқдалар. Ушбу хужжатларни хар бир инсон нафақат ўрганиши, балки уларга амалга қилиши лозимлигига эътибор қаратилади.

Ҳуқуқшунос ва сиёсатшунослар хулосасига кўра ,хотин-қизлар ҳуқуқ ва эркинликларини кенгайтириш орқали гендер тенгликни таъминлаш мумкин.

“Окила аёллар” харакати бугунги кунда аёлларни жипслаштирувчи, улар масаласига доир хал қилувчи тизим, илмий ва амалий тусга эга бўлган, жамоа сифатида фаолият олиб бормоқда.

Жамоавий харакат муҳимлиги деганимизда, биз буюк мутафаккир, Шарқда биринчи бўлиб Арасту ғояларига шарх бериб, Марказий Осиё халқлари фалсафий фикрларини Европага танитган, Абу Наср Форобий “Фозил шаҳар аҳолисининг қарашлари” рисоласидаги қўйидаги фикрларга асосланамиз: “Ҳар бир инсон табиатан шундай тузилганки, у яшаш ва олий даражадаги етукликка эришмоқ учун кўп нарсаларга мухтож бўлади, у бир ўзи бундай нарсаларни қўлга кирита олмайди, уларга эга бўлиш учун инсонлар жамоасига эхтиёж туғилади. Бундай жамоа аъзоларининг фаолияти бир бутун холда хар бирига яшаш ва етукликка эришув учун зарур нарсаларни етказиб беради”. Мана шундай жамоа, фикримизча - Республика Оила ва хотин қизлар кўмитаси, унинг қошидаги “Оқила аёллар харакати”дир. Бугунги кунда қўмита ўз фаолиятини жамоавий тарзда Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси, Президент Администрацияси, Вазирлар Махкамаси, барча вазирликлар, прокуратура органлари, хокимиятлар, мактаб ва мактабгача таълим, олий ўқув юртлар, махаллалар ҳамда ОАВ билан хамкорликда олиб боради. Хотин-қизлар билан ишлашда асосий тамойиллар ғояси: “Аёл-жамият таянчи, тараққиёт мезони”дир. Она бахтли бўлса - жамият бахтли бўлади”. Айни шундан келиб чиқиб 21 аср аёли илмли бўлиши, глобал жараёнлардан хабардор бўлиши, миллий ННТ ва халқаро хотин-қизлар ташкилотлари билан хамкорлик қилиши, ҳар бир аёл ўз ҳақ-ҳуқуқларини билиши ва ҳимоя қилишга қодир бўлиши, оила саломатлиги, оила илми, айниқса ўз соғлигига эътибор бериб, мунтазам спорт билан шуғулланиш муҳимдир. Харакат аъзолари “Оналик ва болаликни асраш”, миллий қадриятларни сақлаб қолишда,зўравонлик жихатларини олдини олишда, ота оналар ўрнига, турли рақамли тарғибот орқали жамиятимизга кириб келаётган зарарли ғоялардан аёллар, оналар ва болаларни асраш борасида иммунитет тарбиялаш лозимлиги, кам таъминланган, ночор вазиятда бўлиб қолган мигрант- хотин қизларга оилага, Ватанга қайтишга, ёрдам бериш ва яна қатор аёллар билан боғлиқ масалаларга мунтазам равишда диққат қаратиб келмоқдалар.

“Оқила аёллар” харакати замонага хамнафас, давлатимизни очиқ ташқи сиёсатига асосланиб, фаолиятларини жамиятимиздаги нафақат аёллар ички сиёсатимиздаги масалалари, гендер тенглик, фарзанд тарбияси, она ва бола соғлиги, тарбия билан боғлиқ

муаммолар ечиш билан боғлиқ, балки чет эл аёллари билан турли халқаро ташкилотлар доирасида илмий лойхаларда қатнашиб келишига кўмаклашиб, илмий анжуманлар ўтказмоқда, иқтисодиёт, инновацион технологияларни янги қирраларини алмашинувини намойиш қилмоқдалар. Жумладан, Бирлашган Миллатлар Ташкилоти (БМТ), Шанхай Ҳамкорлик Ташкилоти (ШҲТ), Ислом Ҳамкорлик Ташкилоти (ОИС), Трейд ва Дивелопмент Ташкилоти (ТДТ) билан ҳамкорлик йилдан йилга кучаймоқда. Ушбу ташкилотлар билан алоқалар бизнинг етакчи, тажрибага эга олима аёлларнинг ментор сифатида ёш талаба қизларга фан, таълим, сиёсий иштирокида муҳим драйвер бўлиб қолмоқда. Олий ўқув юрт талаба қизлари ўз илмий ишларини ушбу ташкилотлар томонидан таклиф этилаётган Дастурлар,лойихаларда, анжуманларда қатнашиб келмоқдалар.

Бирлашган Миллатлар Ташкилоти кўтариб келаётган мақсадларни амалда хал қилиши борасида фикр юритсак. Маълумки, гендер тенглиги масаласи жаҳон миқёсида муҳим аҳамиятга эга бўлиб, БМТнинг Барқарор ривожланиш мақсадлари (SDG) доирасидаги 5-мақсад (Гендер тенглиги) аёлларнинг барча соҳаларда тенг ҳуқуқларга эга бўлишини таъминлашга қаратилган. Ўзбекистонда 2015 йилдан бери бу масалага доир миллий сиёсатнинг устувор йўналишларидан бири сифатида кўриб чиқилади. Халқаро ташкилотлар билан ҳамкорлик Ўзбекистонга ушбу мақсадларга эришишда замонавий тажрибалар ва ресурслардан фойдаланиш имконини бермоқда.

Давлатимизда 2019 йилда қабул қилинган “Гендер тенглиги тўғрисида”ги қонун аёллар ва эркакларнинг барча соҳаларда тенг ҳуқуқларини кафолатлайди. Ушбу қонун БМТнинг UN Women ташкилоти билан ҳамкорликда ишлаб чиқилган бўлиб, аёлларнинг ижтимоий-иқтисодий фаоллигини оширишга хизмат қилади.

Аёллар тадбиркорлиги борасида БМТ нинг UNDP билан хамкорлиги диққатга сазовордир.

БМТнинг Тараққиёт дастури (UNDP) Ўзбекистонда аёлларнинг иқтисодий имкониятларини кенгайтириш бўйича муҳим лойиҳаларни амалга ошириб келмоқда. Масалан, 2018-2022 йилларда “Аёллар тадбиркорлигини ривожлантириш” лойиҳаси доирасида аёлларга малака ошириш курслари, микрокредитлар ва тадбиркорлик бўйича тренинглар ташкил этилди. [2]

UNDP лойиҳалари аёлларнинг қишлоқ хўжалиги, хизмат кўрсатиш ва юқори технологиялар соҳаларидаги фаоллигини қўллаб-қувватламоқда.

UN Women Ўзбекистонда аёлларга нисбатан зўравонликка қарши курашишда хам муҳим роль ўйнайди. 2020-2023 йилларда “Аёлларга нисбатан зўравонликка барҳам бериш” дастури доирасида Ўзбекистонда аёллар учун махсус бошпана марказлари ташкил этилди ва зўравонлик қурбонларига ҳуқуқий ва психологик ёрдам кўрсатиш тизими яхшиланди.

БМТнинг бошқа дастурлари доирасида ҳам Ўзбекистон хотин-қизлар БМТнинг бошқа агентликлари, масалан, UNICEF ва UNFPA, Ўзбекистонда аёллар ва қизларнинг таълими ва репродуктив саломатлигини яхшилаш бўйича лойиҳаларни амалга оширмоқда. [3]

Бирлашган Миллатлар Ташкилоти билан бир қаторда бугунги кунда жахон хамжамиятида мавқеи ошиб келаётган,халқ дипломатияни олиб борувчи **Шанхай Ҳамкорлик Ташкилоти билан биргаликда фаолият олиб бормоқдалар.**

ШҲТ доирасида Ўзбекистон аёлларнинг таълимга эришишини қўллаб-қувватлашга алоҳида эътибор қаратиб келинмоқда. 2021 йили Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университетида “Барқарор ривожланишни таъминлашда ШХТ аёл лидерларнинг ўрни”, 2022 йилда Тошкентдаги ШҲТ аёллар форумида рақамли технологиялар ва инновациялар соҳасидаги малакасини ошириш бўйича қарор қабул қилинди [4]. Ушбу ташаббус натижасида Ўзбекистонда аёллар учун IT курслари ташкил этилди, уларнинг замонавий иқтисодиётдаги иштирокини кучайтирди, Самарқанд вилоятида аёллар учун махсус IT-лагерлар ташкил этилди, унда 5000 дан ортиқ аёл рақамли малака оширди [5].

ШҲТ аъзо давлатлари билан ҳамкорликда Ўзбекистон аёлларнинг тадбиркорлик фаолиятини ривожлантиришга қаратилган лойиҳалар амалга оширилмоқда,

Хотин-қизларимиз яқин қўшни - Марказий Осиё давлатлари аёллари, жумладан Қозоғистон, Қирғизистон, Тожикистон, Туркманистон давлатлари аёллари билан нафақат фан, таълим, балки 2022 йилдан бери “Минтақавий аёллар тадбиркорлиги” дастури доирасида ҳам хамкорлик қилмоқдалар.

Хотин-қизлар ташкилотлар, унинг олима, оқила аёллари Ислом Ҳамкорлик Ташкилоти (ОИС) билан хам алоқалар қилмоқдалар.

ОИС билан ҳамкорликда ташкил этилган маданий тадбирлар аёлларнинг жамиятдаги ўрнини мустаҳкамлашга ёрдам берди. 2021 йилда Хивада ўтказилган “Ислом олами аёллари” фестивалида Ўзбекистон аёллари ўз маданий ташаббусларини намойиш этди, бу эса уларнинг халқаро миқёсдаги обрўсини оширди [6].

Туркий давлатлар Ташкилоти (ТДТ) билан хамкорлик кучаймоқда: у фан, таълим, тиббиёт, тадбиркорлик, қишлоқ хўжалиги, транспорт, айниқса, рақамли технологиялар борасида олиб борилмоқда. Бу борада айтиш лозимки, ТДТ билан ҳамкорликда Ўзбекистон аёлларининг рақамли савдо платформаларидан фойдаланиш бўйича малакаси оширилди. 2021-2023 йилларда ТДТ томонидан ташкил этилган “eTrade for Women” дастури доирасида Ўзбекистон аёлларига Amazon, Alibaba ва eBay каби платформаларда савдо қилиш бўйича махсус тренинглар ўтказилди. Ушбу дастур натижасида 2000 дан ортиқ аёл тадбиркор рақамли савдо билан шуғуллана бошлади, бу уларнинг даромадини ўртача 20% га оширди. [7]

Республика Оила ва хотин қизлар кўмитаси “Оқила аёллар“ харакати билан биргаликда Ўзбекистонда аёллар масаласидаги миллий хотин-қизлар ташкилотлари билан хусусан, “Аёллар ва қизлар” жамоат фонди ва “Оила ва аёллар” илмий тадқиқот институти, ”Қизларжон”, ”Лидер қизлар” клублари “Олима аёллар”, “Тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш Маркази”, Экологик харакати, барча республикадаги партиялар вакиллари билан миллий сиёсат, миллий қонунчилик, халқаро стандартлар бўйича Оммавий Ахборот Воситалари орқали хам аёллар билан мулоқот олиб бормоқда.

Натижада, давлат, жамият ва аёллар ўртасида “Оқила аёллар харакати” кўприк вазифасини бажариб, аёлларнинг,талаба қизларнинг, ижтимоий-сиёсий, иқтисодий, маънавий-маърифий юксалишида ҳақиқий устозлар мактаби бўлиб қолмоқдалар.

ФОЙДАЛАНИЛАДИГАН АДАБИЁТЛАР

1. Олий таълим ва инновация вазирлигининг маълумотномаси. 2025 й. 21 октябрь.
2. UNDP Ўзбекистон, “Аёллар тадбиркорлигини ривожлантириш лойиҳаси”, 2018-2023.URL: https://www.uz.undp.org/content/uzbekistan/en/home/projects.html

3. UNICEF Ўзбекистон, “Қизлар таълими дастури”, 2019-2023. URL: https://www.unicef.org/uzbekistan/en/education
4. ШҲТ Аёллар форуми, Тошкент, 2022 йил. URL: http://eng.sectsco.org/
5. Ўзбекистон Республикаси Ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш вазирлиги, “Аёллар учун IT курслари”, 2022 йил. URL: https://mitc.uz/uz/
6. ОИС, “Аёллар ва оила дастури”, Ўзбекистон, 2020 йил. URL: https://www.oic-oci.org/
7. UNCTAD, “eTrade for Women дастури”, 2021-2023. URL: https://etradeforwomen.org/

INKLYUZIV TA’LIMNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK JIHATLARI

Ulug‘bekova Shahzoda Ulug‘bek qizi
Navoiy Davlat Universiteti, “Matematika-Informatika” fakulteti talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17623904

Annotatsiya. *Ushbu maqolada, oliy ta’lim sharoitida inklyuziv ta’lim muhitini kuzatish, talabalarni umumta’lim maktablarida joriy etilgan inklyuziv jarayonlarga amaliy jalb etishning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek,buyuk mutafakkirlarning asarlarida inson tengligi va ta’limda adolat g‘oyalari asosida inklyuzivlik natijalarining nazariy asoslari tahlil qilingan.*
Kalit so‘zlar: *ta’lim, tarbiya, inklyuziv, web, resrus, oila, tizim, davlat*
Abstract. *This article highlights the importance of observing the inclusive educational environment in higher education and the practical involvement of students in inclusive processes implemented in general education schools. Also, in the works of great thinkers, the theoretical foundations of the results of inclusivity based on the ideas of human equality and justice in education are analyzed.*
Keywords: *education, upbringing, inclusive, web, resources, family, system, state.*

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda inklyuziv ta’lim tizimini takomillashtirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ayni sohada bir qator ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, prezidentimizning “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bu borada amalga oshirilishi mo‘ljallangan sa’y-harakatlar uchun huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarini inklyuziv ta’lim joriy etilgan umumta’lim maktablariga amaliy olib boorish muhim masala bo‘lib qolmoqda.

Chunki, jamiyatda inklyuziv madaniyatni shakllantirish va aholining savodxonligini oshirish uchun esa televideniya orqali mavzu yuzasidan zarur ma'lumotlar berib borilishi, mahallalarda uchrashuvlar, seminar va treninglar tashkil etilish lozim.

Ta’lim olish uchun teng imkoniyatni ta’minlash va barcha bolalarning individual xususiyatlaridan, yutuqlaridan, tili, madaniyati, ota-onalarning ijtimoiy va iqtisodiy holatidan qat'i nazar ta'limda muvaffaqiyatga erishishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish esa inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirishning bosh maqsadi bo‘lishi hamda buning ustuvor yo‘nalishlari qat'iy belgilab olinishi lozim.

Asosiy qism.Bugungi kunda oliy ta’limda inklyuziv ta’lim muhitini shakllantirishda olib borilgan tatqiqotlarda Xitoyning ta’lim bo‘yicha milliy tadqiqot instituti tomonidan quvvatlash maqsadida veb resurs markazini tashkil etishda vazifalar belgilab olinib, unda alohida ehtiyojli bolalar va yoshlarni ta’lim tizimiga kiritishda ma’lumotlarni olish bo‘yicha resurslarni aniqlash, maxsus ehtiyojli shaxslar bilan aloqa o‘rnatish, ma’lumotlar bankida turli ta’limiy va rivojlantiruvchi materiallarni to‘plash, internet tizimi orqali mutaxassislar maslahatini uyushtirish, web-resurs markazi foydalanuvchilari orasida tajriba va bilimlar almashishni tashkil qilish va integratsiya muammolarini hal qilish vositalarini izlash imkoniyatlar yaratish ko‘zda tutildi [1,2]. Chunki, resurs markaz orqali mutaxassislarning bilim va malakalaridan foydalangan holda butun mamlakat hududidagi alohida ehtiyojli bolalar va

shaxslarning ta’lim olish talabini qondirish imkoniyati paydo bo‘ldi. Mazkur dastur maxsus ehtiyojli bolalarni ta’lim jarayoniga kiritish bo‘yicha boshqa chora-tadbirlarga qo‘shimcha yordam sifatida qo‘llaniladi. Ayrim hollarda esa ta’lim berish va rivojlantirish imkonini beruvchi yagona vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Buyuk mutafakkirlarimizning asarlarni tahlil qilar ekanmiz, ular o‘z asarlari bilan nogiron bolalar ta’lim tarbiyasi mazmunining boy metodologik asoslarini yaratganliklarining guvoximiz. Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy kabi buyuk mutafakkirlarimizning barchasi jamiyatni bir butun deb qarab, barcha insonlarni teng deb hisoblaganlar. Jumladan, R.Shomaxmudova “Nogiron va maxsus ehtiyojli ta’lim oluvchilar o‘rtasidagi to‘siqlarni bartaraf etish, maxsus ta’limga muhtoj bolalar va o‘smirlarni rivojlanishidagi nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat’iy nazar, oilaning faol ishtirokida, xususan bolaning ehtiyojini qondirishga va ijtimoiy hayotga moslashtirish va umumta’lim tizimiga to‘liq qo‘shishni ifodalovchi ta’lim tizimidir”-deb ta’rif bergan [2,3]. L.SH.Nurmuhammedovaning “Oilada nogiron farzandni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari” ilmiy tadqiqotlari doirasida oilada nogiron farzandi bor ota-onalarning o‘ziga xos xususiyatlari, qiyinchiliklari va ijtimoiy-pedagogik, psixologik ko‘rsatmalarga muhtojligi tahlil qilingan va bir qator ilmiy natijalar tahlil etilgan[4]. Nogiron shaxsning o‘ziga xizmat ko‘rsatish, mustaqil harakatlanishi, mo‘ljal olish, muomala qilish, o‘z xulqini nazorat qilish, mehnat faoliyatini o‘rganish yoki mashg‘ul bo‘lish qobiliyatini to‘liq yoki qisman yo‘qotishi, uni ijtimoiy muhofaza qilish choralarini amalga oshirish zaruriyatini ko‘rsatadi. Buning uchun raqamli texnologiyalar va uning qurilmalari vosita bo‘lib xizmat qiladi. Undan foydalanish va muloqot qilish imkoniyatini beruvchi dasturlardan foydalanish ko‘nikmasini paydo qilishda ota-ona va muloqot qiluvchi shaxslarda ko‘proq platformalar hamda turli tayyor dasturlardan foydalanish tavsiya etiladi. M.P.Hamidova tomonidan olib borilgan izlanishlarda aqli zaif bolalarning predmetlar haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, hissiy–irodaviy sohalarini jalb etish bilan bilishga qiziqish va nutqiy motivatsiyani kuchaytirishga qaratilgan korreksion–pedagogik ish mazmuni va usullari ishlab chiqilgan[5].

Shu bois, bo‘lajak pedagoglarda inklyuziv ta’lim muhitining asosiy sifatlari anglash borasida inklyuziv ta’limning yangi tushunchasini qo‘llashni o‘rgatish lozim. Xususan, inklyuziv ta’lim – (fransuzcha “inclusif” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib “o‘z ichiga oladi” deb tarjima qilinadi) davlat siyosati bo‘lib, alohida yordamga muhtoj bolalarni normal rivojlanishdagi bolalar bilan teng huquqlilik asosidagi ta’lim olish modelini jihatlar o‘rganildi:

- Ijtimoiy-psixologik jihatlar talabada yakkalanish, o‘ziga ishonchsizlik, ijtimoiy chetlashuv holatlari paydo bo‘ladi. Shu bois oliy ta’lim muassalarida psixologik xizmatlar - universitet hayotining ajralmas qismi bo‘lib, u ta’lim jarayonining sifatini oshirish, talabalarning hissiy barqarorligini ta’minlash va inklyuziv muhitni psixologik jihatdan mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi.

- Oliy ta’limda o‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki muvofiqlashtiruvchi, yo‘l ko‘rsatuvchi va psixologik qo‘llab-quvvatlovchi shaxsdir. Shuning uchun:

- o‘qituvchilar inklyuziv pedagogika bo‘yicha malaka oshirish kurslaridan o‘tishlari,
- har bir talabaning ehtiyojini aniqlash va unga mos yondashuv ishlab chiqish ko‘nikmalarini egallashlari lozim.

Differensial yondashuv — bu ta’lim jarayonida har bir talabaning individual xususiyatlari, qobiliyatlari, bilim darajasi, o‘rganish sur’ati va ehtiyojlarini hisobga olgan holda o‘qitish usullarini moslashtirishga asoslangan pedagogik tamoyildir. Boshqacha aytganda, differensial

yondashuv “hamma bir xil o‘qisin” degan tamoyildan farqli ravishda, “har kim o‘z imkoniyaticha o‘rganadi va rivojlanadi” degan g‘oyani ilgari suradi.

Xulosa. Oliy ta’limda imklyuziv va qo‘llab-quvvatlovchi muhitni shakllantirish nugungi kunda ta’lim sifatini oshirish hamda ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlashning asosiy omili hisoblanadi. Shuningdek, inklyuziv ta’limning amalga oshirilishi nafaqat o‘quvchilarning ta’lim olish jarayonini, balki ular bilan ishlovchi pedagoglarni ham yaxshilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Amirsaidova SH.M. “Maxsus pedagogika fani taraqqiyotida sharq mutafakkiri g‘oyalarining o‘rni va roli”. Ped. fan. nom... diss. – T., 2006.
2. IIektra Spandagou, Cathy Little, David Evans, Michelle L. Inklusive Education in Schools and Early. Childhood Settings.springer Springer Singapore. 2020.
3. Инклюзивное образование в Испании. Пашкова.М, Скуднова. Т.Д.2018.
4. Екатерина Михальч. Инклюзивное образование. 2021.
5. Наталья Микляева, Татьяна Чудесникова, Анна Виленская, Ольга Кудравец, Светлана Семенака. Инклюзивное образование детей с ограниченными возможностями здоровья. Москва Юрайт. 2021.

OILA MUSTAQILLIGI VA DAVLAT ARALASHUVI O‘RTASIDAGI HUQUQIY MUVOZANAT: MILLIY QONUNCHILIK VA XALQARO STANDARTLAR TAHLILI

Xaydarova Umida Pulatovna

https://doi.org/10.5281/zenodo.17623918

Annotatsiya. *Maqola O‘zbekistonda oila mustaqilligi va davlat aralashuvi o‘rtasidagi huquqiy muvozanatni tahlil qiladi hamda milliy normalarni xalqaro standartlar (UDHR, ICCPR 17-modda, CRC 9-modda, CEDAW; qiyosiy ravishda ECHR 8-modda) bilan solishtiradi. Normativ-huquqiy tahlil va so‘nggi islohotlar asosida Konstitutsiya va Oila kodeksi oilaviy daxlsizlikni kafolatlashi bilan birga, zaif a’zolar huquqlari xavf ostida bo‘lsa, qonuniy va mutanosib aralashuvga yo‘l qo‘yishi ko‘rsatiladi. 2019-yilgi tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya to‘g‘risidagi Qonun, 2023-yilda maishiy zo‘ravonlikni jinoyatlashtirish va 2024-yil bolalarni oilada saqlab qolishga qaratilgan chora-tadbirlar xalqaro normalarga yaqinlashuvni hamda jazolashdan ko‘ra qo‘llab-quvvatlovchi yondashuvni kuchaytirganini namoyon etadi. Xulosa sifatida “bola manfaatlari ustuvorligi”, himoya orderlari, ijtimoiy xizmatlar va deinstitutsionallashtirish muvozanatning amaliy tayanchi sifatida ta’kidlanadi.*

Kalit so‘zlar: *Konstitutsiya, Oila kodeksi, oila mustaqilligi, davlat aralashuvi, maishiy zo‘ravonlik, bola huquqlari va manfaatlari, xalqaro inson huquqlari*

Аннотация*. Статья исследует правовой баланс между автономией семьи и вмешательством государства в Узбекистане, соотнося национальное регулирование с международными стандартами (ВДПЧ, МПГПП ст. 17, КРК ст. 9, КЛДЖ; в сравнительном ключе – ЕКПЧ ст. 8). На основе доктринального анализа и недавних реформ показывается, что Конституция и Семейный кодекс обеспечивают неприкосновенность семейной жизни, но допускают законное и соразмерное вмешательство при риске нарушения прав уязвимых членов. Реформы 2019 г. (защита женщин от преследований и насилия), 2023 г. (криминализация домашнего насилия) и меры 2024 г. по приоритету семейного ухода и деинституционализации свидетельствуют о сближении с международными нормами и смещении к поддерживающим, а не чисто карательным мерам. Делается вывод о центральной роли принципа «наилучшие интересы ребёнка», защитных предписаний и развитых социальных служб для согласования автономии и ответственности государства.*

Ключевые слова: *Конституция, Семейный кодекс, автономия семьи, вмешательство государства, домашнее насилие, защита и интересы детей, международные права человека*

Abstract. *The article examines the legal balance between family autonomy and state intervention in Uzbekistan, situating national rules within international human rights standards (UDHR, ICCPR art. 17, CRC art. 9, CEDAW; comparatively, ECHR art. 8). Using doctrinal analysis and recent reforms, it argues that the Constitution and Family Code protect family privacy while permitting lawful, proportionate intervention where the rights of vulnerable members are at risk. The 2019 Law on protection of women from harassment and violence, the 2023 criminalisation of domestic violence, and 2024 child-protection measures prioritising family-based care indicate convergence with international norms and a shift towards supportive*

rather than purely punitive responses. It concludes that the ‘best interests of the child’, effective protection orders, robust social services, and deinstitutionalisation are pivotal to reconciling autonomy with state responsibility.

Keywords: *Constitution, Family Code, family autonomy; state intervention, domestic violence, child rights and protection, international human rights*

Kirish

Oila jamiyatning eng muhim instituti bo‘lib, uning mustahkamligi va farovonligi davlat barqarorligi va ijtimoiy taraqqiyotga bevosita ta’sir qiladi. Oila mustaqilligi tushunchasi ostida oilaning ichki ishlariga begona aralashuvsiz, ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi munosabatlarning mustaqil hal etilishi tushuniladi. Shu bilan birga, davlat aralashuvi zarur hollarda, masalan, voyaga yetmaganlar yoki ojizlarning huquqlarini himoya qilish, zo‘ravonlikning oldini olish kabi amalga oshirilishi lozim bo‘lgan qonuniy choralarni anglatadi. O‘zbekiston Konstitutsiyasida oila jamiyatning asosiy ijtimoiy birligi ekanligi va davlat himoyasida bo‘lishi belgilangan[1]. Demak, davlat oilani qo‘llab-quvvatlash va himoya qilishga mas’ul, biroq bu jarayonda oilaning mustaqilligini ham hurmat qilishi kerak.

Mazkur mavzu xalqaro konferensiyada muhokama qilinayotgan “O‘zbekistonda oilani mustahkamlashga asoslangan davlat siyosati” doirasida ayniqsa dolzarbdir. Chunki oilani mustahkamlash siyosati huquqiy jihatdan oilaning daxlsizligini ta’minlash va zarurat tug‘ilgandagina davlat aralashuvini legitim tarzda amalga oshirish muvozanatini talab etadi. Quyida ushbu masala bo‘yicha xalqaro me’yorlar va standartlar, O‘zbekiston milliy qonunchiligi hamda so‘nggi amaliy misollar tahlil qilinadi.

Xalqaro me’yorlar va standartlar

Xalqaro huquqda oilaning roli va unga davlat aralashuvi masalasi aniq tamoyillar bilan belgilanadi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi hamda Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt (ICCPR) hujjatlarida oila jamiyatning tabiiy va fundamental bo‘g‘ini ekani, jamiyat va davlat tomonidan himoyaga haqli ekani e’tirof etilgan[2]. Shu bilan birga, ushbu hujjatlarda shaxsning shaxsiy hayoti va oilaviy hayotiga o‘zboshimchalik bilan aralashmaslik huquqi kafolatlanadi. Masalan, ICCPR 17-moddasida “Hech kim o‘zining shaxsiy va oilaviy hayotiga o‘zboshimchalik bilan aralashuvga uchramasligi lozim” deb belgilangan[3]. Bu xalqaro standart davlatning oilaviy hayotga aralashuvi faqat qonuniy asoslar va zaruratga ko‘ra amalga oshirilishi mumkinligini anglatadi.

Bolalar huquqlariga oid xalqaro normalar ham oilani asrash va davlat aralashuvi muvozanatini ta’kidlaydi. Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya (CRC) 9-moddasiga muvofiq, hech bir bola ota-onasidan ularning ixtiyoriga qarshi ajratib qo‘yilmasligi kerak, faqatgina sud yoki vakolatli organ bolaning eng yaxshi manfaatlari uchun ajratish zarur deb topsagina bundan mustasno[4]. Ushbu norma shuni ko‘rsatadiki, davlat organlari bolani oiladan ajratish (masalan, vasiylikka olish yoki internat muassasasiga joylashtirish) masalasida juda ehtiyotkor bo‘lib, faqat bola manfaatlari talab qilgan hollardagina bunday aralashuvga yo‘l qo‘yishi lozim. Xuddi shunday, Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa konvensiyasining 8-moddasi (garchi O‘zbekiston unga a’zo bo‘lmasa-da, xalqaro tajriba sifatida) ham har bir shaxsning o‘z xususiy va oilaviy hayotiga hurmat huquqini e’tirof etadi va davlat aralashuvi faqat sog‘liqni saqlash, axloq, boshqalarning huquq va erkinliklarini himoya qilish kabi legitim maqsadlarda, demokratik jamiyatda zarur bo‘lgan taqdirdagina mumkinligini belgilaydi[5]. Bu prinsip xalqaro

standartlarda oilaga aralashuvning cheklangan va asoslanuvchi holatlarda bo‘lishi lozimligini bildiradi.

Shuningdek, CEDAW (Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiya) oilaviy munosabatlarda erkaklar va ayollarning teng huquqliligini ta’minlashni talab qiladi. Bu esa, bir tomondan, an’anaviy oilaviy rollarga asoslangan cheklovlar bo‘lmasligini, ikkinchi tomondan esa ayollar huquqlari poymol etilganda davlatning aralashuvi (masalan, oiladagi zo‘ravonlikka qarshi himoya) zarurligini anglatadi. Demak, xalqaro darajadagi me’yorlar oilani davlat va jamiyat himoyasidagi muqaddas institut sifatida e’zozlar ekan, ayni vaqtda oilada sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan inson huquqlari buzilishlariga davlat ko‘z yummasligi, qonuniy choralar ko‘rishi shartligini ta’kidlaydi. Bu yondashuv “oilaviy mustaqillik” va “davlat mas’uliyati” o‘rtasida oqilona balans saqlashga qaratilgandir.

O‘zbekiston milliy qonunchiligida muvozanat

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida oilani muhofaza qilish va uning daxlsizligiga hurmat tamoyillari Konstitutsiya va maxsus qonunlarda mustahkamlangan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasiga ko‘ra, oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini bo‘lib, davlat va jamiyat himoyasidadir. Nikoh erkak va ayolning ixtiyoriy roziligi hamda teng huquqliligi tamoyiliga asoslanadi[6]. Ushbu konstitutsiyaviy qoida davlatning oilani qo‘llab-quvvatlashga, onalik va bolalikni muhofaza qilishga majburligini bildiradi. Shu bilan birga, Konstitutsiyaning o‘sha bobida ota-onalarning voyaga yetmagan farzandlarini boquv va tarbiya qilish majburiyati, yetim bolalarga jamiyat va davlat g‘amxo‘rligi kabi normalar ham belgilangan[7]. Bu normalar oilaning ichki masalalariga davlat aralashuvi doirasini belgilashga ham xizmat qiladi – masalan, ota-ona o‘z burchini bajarmasa, davlat yetim bolalarni parvarishlaydi.

Oila kodeksi, oilaviy munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy hujjat, aynan oilani mustahkamlash va uning daxlsizligini ta’minlash g‘oyasiga asoslanadi. Oila kodeksi 1-moddasida oilaviy qonunlarning vazifalari sanab o‘tilib, unda oilani mustahkamlash, oila a’zolari o‘rtasida o‘zaro hurmat va mas’uliyatni qaror toptirish bilan birga hech kimning oilaviy ishlariga o‘zboshimchalik bilan aralashuviga yo‘l qo‘ymaslik hamda oila a’zolarining huquqlarini erkin amalga oshirish va himoya qilishni ta’minlash vazifalari qayd etilgan[8]. Bu me’yor oilaning mustaqilligini huquqiy jihatdan kafolatlaydi. 2-moddaga muvofiq, oilaviy masalalarni oilaning o‘zi o‘zaro kelishuv asosida hal qilishi prinsipi e’lon qilingan, ya’ni er-xotin va boshqa oila a’zolari o‘rtasidagi ichki nizolarni muzokara yo‘li bilan hal etish ma’qullanadi[9].

Shu bilan birga, Oila kodeksi oiladagi huquqiy munosabatlar doirasida qator cheklov va mas’uliyat tamoyillarini ham belgilaydi. 3-moddaga ko‘ra, oilaviy munosabatlarda fuqarolarning huquqlari faqat qonunda nazarda tutilgan hollardagina va faqat boshqa oila a’zolari yoki boshqa shaxslarning axloqi, sha’ni, qadr-qimmati, sog‘lig‘i, huquq va manfaatlarini himoya qilish zaruriyatidan kelib chiqqan taqdirdagina cheklanishi mumkin[10]. Bu norma aynan o‘sha xalqaro standartlarga hamohang bo‘lib, davlat aralashuvi faqat oila ichida biror a’zaning huquqlari buzilganda yoki jamoat manfaatlari talab qilganda amalga oshishi lozimligini ko‘rsatadi. Demak, masalan, agar oilada bolalarga nisbatan zo‘ravonlik sodir etilsa yoki ularning sog‘lig‘i xavf ostida bo‘lsa, davlat vakolatli organlari (masalan, vasiylik va homiylik organlari) qonuniy choralar ko‘rishi mumkin. Aksincha holatda, ya’ni oila ichida hech kimning huquqi buzilmayotgan bo‘lsa, oilaviy masalalarga begona aralashuviga yo‘l qo‘yilmaydi, bu oila mustaqilligining huquqiy kafolatidir.

Oila kodeksining 4-moddasi esa oila, onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinishini mustahkamlaydi[11]. O‘zbekiston davlatining oilani har tomonlama qo‘llab-quvvatlash siyosati aynan shu normaga tayanadi. Ayollar va bolalarning huquqlarini himoya qilish uchun maxsus me’yorlar joriy etilishi (masalan, homilador ayollar uchun mehnat va sog‘liqni saqlashda imtiyozlar, ikki yoshgacha farzandi bor onalarga nafaqa tayinlash kabi[12]) ham oilani muhofaza qilish siyosatining bir qismidir.

Yuqoridagi qonunchilik tahlilidan ko‘rinadiki, O‘zbekiston huquqiy tizimi “oilani mustahkamlash” va “oilaga noqonuniy aralashuvning oldini olish” tamoyillarini bir vaqtda amalga oshirishga intiladi. Boshqacha aytganda, Konstitutsiya va Oila kodeksi normalari oilaning mustaqilligini e’zozlagan holda, zarurat bo‘lganda (ayniqsa, zaif guruhlarni himoya qilish uchun) davlat aralashuvi mumkin va shart ekanini huquqiy jihatdan asoslab beradi.

So‘nggi amaliyot va yangi islohotlar

Milliy qonunchilik va siyosatda oilaga doir muvozanatni ta’minlash borasida so‘nggi yillarda bir qator muhim qadamlar qo‘yildi. Davlat siyosati oilani mustahkamlash maqsadida nafaqat normativ hujjatlarni qabul qilmoqda, balki ularning amalda to‘g‘ri qo‘llanishiga ham e’tibor kuchaytirmoqda.

Quyida ushbu yo‘nalishdagi ayrim yangi amaliy misollar keltiriladi:

- Oilaviy zo‘ravonlikka qarshi kurash va “oilani saqlab qolish” siyosati: O‘zbekistonda uzoq yillar davomida mahalliy organlar oilaviy nizolarga aralashishda asosan oilani ajratmaslik, yarashtirishga urinish tamoyiliga amal qilib keldi. Bunday yondashuv maqsadi “oilani saqlab qolish” bo‘lsa-da, ba’zan ayollar va bolalar xavfsizligining e’tiborsiz qolishiga olib kelgan. **Human Rights Watch** tashkilotining xulosalariga ko‘ra, mahalla va boshqa rasmiylar oiladagi zo‘ravonlik holatlarida ajralish statistikasini kamaytirish maqsadida jabrlangan ayollarni eriga qaytishga ko‘ndirish, murosaga majburlash kabi amallarni qo‘llagan – bu esa ayollarning xavfsizligini qurbon qilish evaziga amalga oshirilgan davlat siyosati edi[13]. Shu bois, so‘nggi yillarda xalqaro standartlar talablari va jamoatchilik bosimi ostida O‘zbekiston hukumati bu muammoga jiddiy e’tibor qaratdi. 2019-yilda “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida” qonun qabul qilinib, himoya orderi instituti joriy etildi[14]. 2023-yil aprel oyida esa Ma’muriy va Jinoyat kodekslariga o‘zgartishlar kiritilib, maishiy zo‘ravonlikni alohida jinoyat sifatida kriminalizatsiya qiluvchi norma qabul qilindi. Amnesty International bu yangilikni “juda muhim qadam” deya baholab, O‘zbekiston nihoyat Markaziy Osiyo mintaqasında oilaviy zo‘ravonlikni jinoyat deb topgan beshinchi mamlakat bo‘lganini qayd etdi[15]. Yangi qonun jismoniy zo‘ravonlikni jinoyat deb belgilab, ayollar va bolalarni himoya qilish mexanizmlarini mustahkamladi. Muhimi, rasmiy doiralar endilikda bunday aralashuvni ham oilani mustahkamlashning bir qismi sifatida talqin etmoqda – masalan, Oliy Majlis Senati qonunni ma’qullarkan, bu nafaqat ayollarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini oladi, balki “oilaviy institutsional mustahkamlanishiga xizmat qiladi” deb e’lon qilindi[16]. Bu o‘zgarishlar davlat aralashuvi va oilani saqlash o‘rtasidagi ilgari kuzatilgan ziddiyatlarni yumshatib, oiladagi zaif tomonlarni himoya qilish orqali sog‘lom va barqaror oila muhitini ta’minlashga qaratilganini ko‘rsatadi.

- Ijtimoiy himoya va “sotsial yetimlik”ning oldini olish: Davlatning oilaga aralashuvi faqat nazorat va jazolash choralaridan iborat bo‘lmay, balki oilalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash orqali mustahkamlashni ham o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston keyingi paytlarda bolalarni oiladan ajratib, davlat muassasalariga joylashtirish (internat va yetimxonalar) amaliyotini kamaytirishga intilmoqda. 2024-yil 14-noyabrda Prezident farmoni qabul qilinib,

unda bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish choralari belgilandi. Ushbu hujjatda bolalarni oilaviy muhitda tarbiyalanishini ta’minlashga yo‘naltirilgan ijtimoiy himoya tizimini joriy etish, oilalarni qashshoqlikdan chiqarish orqali “ijtimoiy yetimlik”ning oldini olish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida qayd etildi[17]. Xususan, 2025-yil 1-yanvardan boshlab kam ta’minlangan oilalarning farzandlarini vaqtincha “Mehr uylari” yoki yetimxonalarga topshirish amaliyoti bekor qilinadi, buning o‘rniga, oila qiyin ahvolda bo‘lsa, mahalliy hokim yordamchilari va ijtimoiy xodimlar ushbu oilani qo‘llab-quvvatlash, daromad topish imkoniyatlarini oshirish choralarini ko‘radi[18]. Bundan asosiy maqsad, faqat moddiy qiyinchilik sabab bolalarni ota-onasidan ajratmaslik, aksincha davlat yordam berib, bolani oila bag‘rida saqlashdir. Shuningdek, ushbu farmon bilan “Onalar uyi” xizmatlari joriy qilinib, og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan, yaqinlarining ko‘magidan mahrum bo‘lgani uchun bolasidan voz kechmoqchi bo‘lgan onalarga maxsus boshpana va ko‘mak berilishi yo‘lga qo‘yilmoqda[19]. Bunda onalarga bir yilgacha turar joy, moddiy yordam, psixologik va huquqiy maslahat, hatto kasbga o‘qitish kabi xizmatlar ko‘rsatiladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, davlat bola manfaati uchun aralashuv siyosatini endi asosan oilani ajratmasdan, balki oilani ichidan qo‘llab-quvvatlash tarzida olib bormoqda. Bu yondashuv ota-ona huquqlarini hurmat qilish (oilaviy mustaqillik) va ayni paytda bolaning manfaatini ustuvor qo‘yib, zarur resurslarni safarbar etish (davlat mas’uliyati) o‘rtasidagi muvozanatning zamonaviy ko‘rinishidir.

Yuqoridagi misollar O‘zbekistonda oilaviy masalalarga doir davlat siyosati xalqaro standartlarga mos tarzda rivojlanib borayotganini ko‘rsatadi. Xususan, “farzand manfaatlari” va “oilani saqlab qolish” tushunchalari o‘rtasida uyg‘unlikka erishish maqsad qilingan: masalan, zo‘ravonlikdan xoli, tinch va barqaror oilaviy muhitni ta’minlash orqali ham oilani saqlashga erishiladi. Shu bilan birga, davlat organlari va jamiyatning o‘zi ham oilaga ko‘maklashishda faol ishtirok etayotganini ko‘rishimiz mumkin (masalan, mahalla tuzilmalari orqali).

Xulosa o‘rnida aytganda, davlat va oila o‘rtasidagi huquqiy muvozanat – bu prinsipial jihatdan bir-birini to‘ldiruvchi tushunchalar: davlat oilani asraydi va rivojlantiradi, oila esa jamiyat va davlat barqarorligining poydevori bo‘lib qoladi[1]. Shu sababli, O‘zbekistonda olib borilayotgan oilani mustahkamlash siyosatida ham konstitutsiyaviy tamoyillarga sodiq qolgan holda, xalqaro standartlarga mos ravishda ushbu muvozanatga erishish eng ustuvor maqsadlardan biri sifatida qaralmoqda. Bu boradagi izlanishlar va islohotlar davom etmoqda, chunki har bir jamiyatda oila institutining mustahkamligi va har bir a’zosining huquqlari ta’minlanishi doimiy e’tibor talab qiladigan masaladir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xusanova, S. (2025). Oila huquqi normalarining huquqiy ahamiyati. *ZDPP, 4*(9), 100–102. https://doi.org/10.5281/zenodo.15433744
2. De la Vega, C. (2018, June 21). Separating children from their parents violates international law. *Equal Justice Society*.
3. https://equaljusticesociety.org/2018/06/21/separating-children-from-their-parents-violates-international-law/
4. Every Casualty Counts. (n.d.). The rights to privacy and family life.
5. https://everycasualty.org/knowledge-base/the-rights-to-privacy-and-family-life/
6. Republic of Uzbekistan. (n.d.). *Constitution of Uzbekistan*. University of Minnesota Human Rights Library. https://humanrts.umn.edu/research/uzbekistan-constitution.html

7. Republic of Uzbekistan. (1998). *Family Code of the Republic of Uzbekistan*. International Labour Organization NATLEX.
8. https://natlex.ilo.org/dyn/natlex2/natlex2/files/download/90264/UZB-90264.pdf
9. Human Rights Watch. (2001, July 5). *Sacrificing women to save the family: Domestic violence in Uzbekistan*.
10. https://www.hrw.org/report/2001/07/05/sacrificing-women-save-family/domestic-violence-uzbekistan
11. Law of the Republic of Uzbekistan No. ZRU-561. (2019, September 2). *On protection of women from harassment and abuse*. LexUZ.
12. https://lex.uz/ru/docs/5147718
13. Amnesty International. (2023, April 6). Uzbekistan: Parliament passes long-overdue legislation criminalizing domestic violence.
14. https://www.amnesty.org/en/latest/news/2023/04/uzbekistan-parliament-passes-long-overdue-legislation-criminalizing-domestic-violence/

TA’LIMDAGI GENDER STEREOTIPLARIGA YECHIM SIFATIDA STEAM TA’LIMI

Xidoyatullayeva Gulsora Zoirovna
O‘zDK huzuridagi B.Zokirov nomidagi Milliy estrada san’ati instituti
Xotin-qizlar maslahat kengashi raisi, katta o‘qituvchi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17623932

Annotatsiya. *Ushbu maqola zamonaviy ta’lim tizimida gender tenglikka erishishda yuzaga keladigan muammolarni, xususan gender stereotiplarining ta’lim muhitiga va qizlarning ta’lim jarayonida ishtirok etishiga ta’sirini tahlil qiladi. Ushbu maqolada ta’limdagi an’anaviy stereotiplar qizlarning fan, texnologiya va muhandislik sohalariga bo‘lgan qiziqishini kamaytirishi, ayollarning STEM sohalaridagi ishtirokini pasaytirishi va innovatsion salohiyatning qisman yo‘qolishiga olib kelishi ta’kidlanadi. Maqolada STEAM ta’lim modeli gender tenglikni ta’minlashning samarali mexanizmi sifatida muhokama qilinadi, fan va ijodning integratsiyasi orqali qizlarning motivatsiyasini oshirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va ularni loyiha faoliyatlariga jalb qilish imkoniyatlari ta’kidlanadi. Bundan tashqari, namuna shaxslarning ahamiyati, ayol yetakchilarni ilgari surishning ijtimoiy ta’siri va murabbiylik dasturlarining samaradorligi tahlil qilinadi. Amaliy yechimlarga o‘qituvchilar malakasini oshirish, gender-neytral ta’lim kontentini ishlab chiqish, ommaviy axborot vositalaridagi qo‘llab-quvvatlashni mustahkamlash va institutsional mexanizmlarni faollashtirish kiradi. Maqola ta’limda inklyuzivlik va tenglikka erishish uchun keng qamrovli yondashuv zarurligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar. *Gender tenglik, gender stereotiplar, STEAM ta’limi, STEM sohalari, namunaviy-o‘rnak shaxslar, inklyuziv ta’lim, innovatsion rivojlanish, mentorlik dasturlari.*

Аннотация. *В данной статье анализируются проблемы достижения гендерного равенства в современной системе образования, в частности влияние гендерных стереотипов на образовательную среду и участие девочек в процессе обучения. В статье подчеркивается, что традиционные стереотипы в образовании снижают интерес девочек к науке, технологиям и инженерии, уменьшают участие женщин в STEM-областях и приводят к частичной потере инновационного потенциала. В статье рассматривается модель образования STEAM как эффективный механизм обеспечения гендерного равенства, подчеркиваются возможности повышения мотивации девочек, развития их навыков критического мышления и вовлечения их в проектную деятельность посредством интеграции науки и творчества. Кроме того, в статье анализируется важность ролевых моделей, социальное воздействие продвижения женщин-лидеров и эффективность программ наставничества. Практические решения включают повышение квалификации учителей, разработку гендерно-нейтрального образовательного контента, усиление поддержки в средствах массовой информации и активизацию институциональных механизмов. В статье подчеркивается необходимость комплексного подхода к достижению инклюзивности и равенства в образовании.*

Ключевые слова. *Гендерное равенство, гендерные стереотипы, STEAM-образование, STEM-области, ролевые модели, инклюзивное образование, инновационное развитие, программы наставничества.*

Abstract. *This article analyses the challenges of achieving gender equality in the modern education system, particularly the impact of gender stereotypes on the educational environment and girls' participation in the learning process. This article emphasises that traditional stereotypes in education reduce girls' interest in the fields of science, technology and engineering, lower women's participation in STEM fields and lead to a partial loss of innovative potential. The article discusses the STEAM education model as an effective mechanism for ensuring gender equality, highlighting opportunities to increase girls' motivation, develop their critical thinking skills, and engage them in project-based activities through the integration of science and creativity. Furthermore, the article analyses the importance of role models, the social impact of promoting female leaders and the effectiveness of mentoring programmes. Practical solutions include enhancing teacher qualifications, developing gender-neutral educational content, strengthening support in the mass media, and activating institutional mechanisms. The article highlights the need for a comprehensive approach to achieving inclusivity and equality in education.*

Keywords. *Gender equality, gender stereotypes, STEAM education, STEM fields, role models, inclusive education, innovative development, mentoring programmes.*

Ayollar va qizlarning huquq va manfaatlarini ta’minlash hamda ularning siyosiy va jamoat hayotida ishtirokini kengaytirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi va O‘zbekiston 2030 strategiyasi doirasida ayollar va qizlarga keng qamrovli yordam ko‘rsatish hamda ular uchun teng huquq va imkoniyatlar yaratish maqsadida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy ta’lim tizimida gender tenglik strategik ahamiyatga ega, chunki jamiyatning barqaror rivoji uning to‘liq salohiyatini ro‘yobga chiqarishga bog‘liq. Biroq, ba’zi ta’lim tizimlari hanuzgacha chuqur ildiz otgan gender stereotiplarini saqlab qolmoqda. Bu qizlarning texnika va tabiiy fanlarga bo‘lgan qiziqishini kamaytiradi va ularning tanlovlarini cheklaydi. Bu kontekstda ta’limga inklyuziv va innovatsion yondashuv – STEAM ta’limi – muhim rol o‘ynaydi. STEAM — bu fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematikani integratsiya qilishga asoslangan ta’limiy tushuncha bo‘lib, u yoshlarning ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi hamda teng imkoniyatlar uchun sharoit yaratadi.

Zamonaviy ta’lim tizimida gender stereotiplari turli shakllarda namoyon bo‘lib, talabalarning salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishiga jiddiy to‘sqinlik qiladi. Xususan, “qizlar gumanitar fanlarga ko‘proq mos keladi” degan jimlikdagi e’tiqod va texnika hamda tabiiy fanlarda erkaklar hukmronligi haqidagi qarashlar ta’limda teng imkoniyatlarni zaiflashtiradi. Bundan tashqari, xotin-qizlarning rahbarlik qobiliyatlarini kam baholash va o‘qituvchilar hamda ota-onalarning gender nuqtayi nazardan noo‘rin kutishlari talabalarning akademik o‘sishi, kasb tanlovi va o‘ziga bo‘lgan ishonchiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunday stereotiplar nafaqat shaxsiy rivojlanishni cheklaydi, balki ta’lim muassasalaridagi muhitga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi, qizlarning ishtirokini kamaytiradi va ta’lim samaradorligini pasaytiradi. Shuni ta’kidlash joizki, O‘zDk huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san’ati institutida bunday stereotip qarashlar hukm surmasligiga guvoh bo‘lishingiz mumkin. Bunga misol qilib kollegial organlarni gender tenglik asosida tashkil etilganligi va bugungi kun ma’lumotiga ko‘ra jamoada xotin-qizlar 43% erkaklar 57% ni tashkil etayotgani hamda u hoh rahbar ayol bo‘lsin, hoh oddiy xodima doimiy ravishda favqulotli xayotiy vaziyatlarda Rahbariyat tomonidan qo‘llab quvvatlanib kelinmoqda.

Stereotiplar ta’lim tizimi va jamiyat rivojlanishiga bir qator salbiy oqibatlar keltirishi borasida dunyo sotsiologlari xavotirli farazlarini ta’kidlashgan. Xususan, qizlarning fan va texnologiyalarga bo‘lgan qiziqishining pasayishi ayollarning STEM (fan, texnologiya, muhandislik, matematika) sohalaridagi ishtirokini kamaytiradi. Bu esa o‘z navbatida iqtisodiy rivojlanishda jinsiy nomutanosiblikka va mamlakatning ba’zi innovatsion salohiyatidan mahrum bo‘lishiga olib keladi. Muhim jihat shundaki, gender stereotiplari nafaqat shaxslarning o‘zini ro‘yobga chiqarish imkoniyatlarini cheklaydi, balki kengroq ijtimoiy va tadqiqot faoliyatlarining samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi va intellektual resurslarning mantiqsiz taqsimlanishiga olib keladi.

STEAM ta’limi qizlarning fan va texnologiyaga bo‘lgan tabiiy qiziqishini mustahkamlash uchun muhim pedagogik vositadir. Uning asosiy afzalliklari shundaki, fan va ijodning uyg‘unlashuvi o‘quv jarayonini xilma-xil va qiziqarli qiladi, amaliy mashg‘ulotlar nazariy bilimlarni real hayot misollari bilan bog‘lab, qizlarda uzoq muddatli motivatsiya shakllantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, ijodiy vazifalar qizlarning mustaqil fikrlash, tashabbus ko‘rsatish va innovatsion yechimlar izlash qobiliyatini rivojlantiradi. Hamkorlikdagi loyihalarda birgalikda ishlash o‘g‘il va qizlar o‘rtasida teng huquqli muloqot va hamkorlik madaniyatini shakllantirishga yordam beradi, gender tenglikni targ‘ib qiluvchi jamoaviy modelni yaratadi. STEAM tushunchasi stereotiplarni buzadi: robototexnikada dizayn elementlaridan foydalanish, musiqa orqali fizika qonunlarini o‘rganish yoki texnologik muammolarga estetik yondashuv orqali yangi g‘oyalarni ishlab chiqish kabi integratsion usullar qizlar uchun fan sohalarini yanada jozibali va tushunarli qiladi.

Stereotiplarni yengish uchun yana bir ijtimoiy mexanizm – namunaviy o‘rnak shaxslar bo‘lishi mumkin. O‘rnak shaxslar yoshlarni o‘quv jarayonida ilhomlantiruvchi asosiy omillardan biridir. Qizlar o‘zlariga o‘xshash xotin-qiz olimlar, muhandislar, tadqiqotchilar va ijodkorlarni ko‘rganda, muvaffaqiyatga erishish bo‘yicha o‘z imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchlari ortadi, bu esa ta’lim va ijtimoiy faoliyatda faol ishtirok etishni rag‘batlantiradi. Haqiqiy hayotiy misollar talabalarning motivatsiyasini oshiradi, STEAM fanlariga qiziqishni rag‘batlantiradi va kasbiy imkoniyatlar doirasini kengaytiradi. Ta’lim muassasalarida "STEAMda ayollar" haftaligi, fan sohasidagi yetakchi ayollar bilan uchrashuvlar, qizlar uchun mentorlik dasturlarini joriy etish va ommaviy axborot vositalarida ayollarning yutuqlarini targ‘ib qilish kabi tashabbuslar namunali shaxslar o‘quv tizimini mustahkamlaydi va stereotiplarni zaiflashtiradi.

Jinsiy tenglikni ta’minlash va STEAM ta’limini samarali amalga oshirish uchun keng qamrovli yondashuv zarur. Birinchidan, o‘quv dasturiga jinsga xos misollar va tasvirlar o‘rniga jinsiy neytral va inklyuziv loyihalarni kiritish muhimdir. O‘qituvchilarni tayyorlashda ham yangi yondashuv zarur: STEAM metodologiyasi va gender masalalari bo‘yicha ixtisoslashgan kasbiy rivojlanish kurslari o‘qituvchilarning pedagogik kompetentsiyalarini mustahkamlaydi. Axborot muhitida namuna shaxslarning yetishmasligini bartaraf etish uchun ayollarning yutuqlarini targ‘ib qiluvchi maxsus media loyihalarini ishga tushirish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, qizlarni jalb etadigan loyihalar uchun moliyaviy resurslar yetishmasligi muassasaviy qo‘llab-quvvatlashni talab etadi — davlat va nodavlat grantlarini faollashtirish hamda xalqaro dasturlar bilan hamkorlikni mustahkamlash ta’limda tenglik uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Xulosa o‘rnida, ta’limda gender tenglikka erishish barqaror rivojlanish uchun asosiy shartlardan biri hisoblanadi. Maqolaning tahlili shuni ko‘rsatadiki, jamiyatda hanuzgacha mavjud bo‘lgan gender stereotiplari ta’lim muhitida o‘quvchilar uchun imkoniyatlarning nomutanosib taqsimlanishiga, qizlarning STEM sohasida ishtirok etishining kamayishiga va innovatsion

salohiyatni to‘liq ro‘yobga chiqarishning imkonsizligiga olib keladi. O‘z navbatida, STEAM ta’limi ilm-fan va ijodning uyg‘unlashuvi orqali qizlarda ijodiy fikrlash, tanqidiy tahlil va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali mexanizmga aylanmoqda. O‘rnak shaxslar yaratish, murabbiylik dasturlari va ayollarning ilm-fandagi yutuqlarini targ‘ib qilish qizlar uchun ilhom manbai bo‘lib xizmat qiladi, bu esa o‘z navbatida gender tenglikni mustahkamlaydi. Ushbu muammolarni hal qilish uchun keng qamrovli yondashuv zarur: o‘quv dasturlarini qayta ko‘rib chiqish va o‘qituvchilar tayyorlashni takomillashtirish. Ommaviy axborot vositalarida va jamoat diskursida gender tenglikni targ‘ib qilish hamda muassasalarning qo‘llab-quvvatlovini kengaytirish kabi chora-tadbirlar ta’lim muhitida inklyuzivlik va teng imkoniyatlar tamoyilini ta’minlashga xizmat qiladi. Shunday qilib, STEAM ta’limi vaqtinchalik loyiha emas, balki kelajak avlodlar uchun strategik ta’lim modelidir.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi. (2019). *O‘zbekiston Respublikasining qonuni “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”* (O‘RQ-562-sonli Qonun).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). *Gender tenglikni ta’minlashga oid chora-tadbirlar* (PF–6013-sonli Farmon). Toshkent.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2021). *Gender tenglikni ta’minlash bo‘yicha milliy dastur*. Toshkent.
4. Xidoyatullayeva, G. (2024). Mamlakatimizda gender tengligiga yo‘l. In *O‘zbekistonning rivojlanish taraqqiyotida xotin-qizlarning o‘rni* (Respublika ilmiy konferensiyasi). Retrieved from https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=nGTH-cIAAAAJ&citation_for_view=nGTH-cIAAAAJ:W7OEmFMy1HYC
5. Khidoyatullaeva, G. (2023). Pedagogical need for using STEAM educational technology: Interdisciplinary methodology, connection of physics with music. *Tadqiqotlar.uz*. Retrieved from https://tadqiqotlar.uz/02/article/view/895/853
6. Abduraxmonov, A., & Rahimov, B. (2022). *Gender tengligi va ijtimoiy rivojlanish masalalari*. Toshkent: Fan.
7. Rajabova, N. (2021). *O‘zbekistonda gender siyosati: muammo va yechimlar*. Toshkent: Iqtisodiyot.
8. Ajdarova, Sh. (2023). STEM ta’limining dolzarbligi va gender integratsiyasi. *Pedagogika*, (4).
9. UNESCO. (2022). *STEM Education for Girls: Progress and Challenges*. UNESCO Publishing.
10. World Bank. (2023). *Gender Equality and Development Report*. Washington, DC: World Bank.
11. OECD. (2021). *Bridging the Gender Gap in STEM Fields*. Paris: OECD.
12. UN Women. (2022). *Gender Stereotypes and Their Socio-Economic Impact*. New York: UN Women.
13. Cheryan, S., Ziegler, S., & Montoya, A. (2017). Why are women underrepresented in STEM? Psychological barriers and stereotypes. *Psychological Bulletin*, *143*(1), 1–35.

ЁШЛАРНИ ОИЛАВИЙ ҲАЁТГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ЙЎЛЛАРИ ВА ИМКОНИЯТЛАРИ

Худоёрова Ойсоат Келдиёровна[1], Сайитмуратов Нодиржон Боймурот ўғли[2]
[1]Тошкент давлат тиббиёт университети доценти, педагогика фанлари номзоди;
[2]Тошкент давлат тиббиёт университети тиббий профилактика йўналиши талабаси
https://doi.org/10.5281/zenodo.17623946

Аннотация. *Мақолада ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлашнинг асосий йўналишлари аниқланган, умумий қоидалари, шакл ва усуллари ўрганилган бўлиб, мазкур масалани муваффақиятли ҳал этишга доир илмий - амалий тавсиялар берилган.*

Аннотация. *В статье определены основные направления подготовки молодежи к семейной жизни, изучены общие правила, формы и методы, даны научные и практические рекомендации для успешного решения данной проблемы.*

Abstract. *The article identifies the main directions of preparing young people for family life, studies the general rules, forms and methods, and provides scientific and practical recommendations for the successful solution of this problem.*

Калит сўзлар: *илм-маърифат, компетенция, ёшларни ҳаётга тайёрлаш, стратегик мақсад, рақобатбардошлик, компетенциявий-технологик ёндашув.*

Ключевые слова: *наука, компетентность, подготовка молодежи к жизни, стратегические цели, конкурентоспособность, компетентностно-технологический подход.*

Keywords: *science, competence, preparing young people for life, strategic goal, competitiveness, competency-technological approach.*

Ёшларнинг маънавий, маданий ва ижтимоий жиҳатдан баркамол шахс сифатида вояга етиши уларнинг нафақат шахсий ҳаёти, балки бутун жамият барқарорлиги ва келажаги учун ҳал қилувчи аҳамиятга эга. Шу нуқтаи назардан ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлаш — устувор вазифалардан бири бўлиб қолмоқда. Гўзал ҳаёт кечираётган ва соғлом турмуш тарзига эга бўлган мустаҳкам оилалар жамиятимиз ва унинг ёрқин келажаги учун хизмат қилади. Оила муқаддас даргоҳ. Унда ҳаётнинг давомийлигини таъминловчи авлод шаклланади. Инсонга хос чинакам фаровон, бахтли ҳаёт давом этади. Маълумки, қайсики оилада тарбия яхши йўлга қўйилган бўлса, шу оила гуллаб-яшнайди. Бугун жамиятнинг ёш аъзолари оиладаги муҳит ота-она ўз маъсулиятларини ҳис қилиши билан барқарор бўлади.

Фарзанд тарбиялаётган ота-она ҳар бир ҳаракати, юриш туриши, муомаласи, бошқалар билан ўзаро муносабатида олижаноб фазилатларни намоён эта билиши, фарзандлар тарбиясида намуна ва ибрат мактаби бўлиши муҳим ҳисобланади. Чунки, ёшлар табиатан ниҳоятда тақлидчан ва кузатувчан бўлади. Инсон ҳаёти давомида бирор шахсни ўзига ўрнак деб билади, бундан инсон у каби ҳаёт кечиришни, у эришган ютуқлар каби муваффақиятларга эришишни, юксак чўққиларга чиқишни кўзлайди. Албатта ёшлар тарбияси ўта мураккаб ва масъулиятлидир.

Мамлакатимизда ёшларга оид давлат сиёсати соҳасида кенг кўламли ишлар амалга оширилмоқда. Ўтган вақт ичида ёшларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш,

уларнинг ҳуқуқ ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш, мамлакатимиз истиқболи учун масъулиятни ўз зиммасига олишга қодир, ташаббускор, шижоатли ёшларни тарбиялаш борасида алоҳида тизим яратилди.

Хусусан: - ёшларни она Ватанга, оилага, мустақиллик ғояларига муҳаббат ва садоқат, миллий ва умуминсоний қадриятларга ҳурмат руҳида тарбиялаш;

- ёшларга муносиб меҳнат шароитларини яратиш ва уларнинг меҳнатга оид қонуний ҳуқуқларини ҳимоя қилиш орқали уларнинг иқтисодий ҳуқуқ ва имкониятларини кенгайтириш;

- ёшларни маданият, санъат, жисмоний тарбия ва спортга кенг жалб этиш, ёшларда ахборот технологияларидан фойдаланиш кўникмаларини шакллантириш, улар ўртасида китобхонликни тарғиб қилиш, хотин-қизлар бандлигини таъминлашга қаратилган «беш муҳим ташаббус»ни амалга ошириш” га жиддий эътибор берилди.

Бу ҳар бир ота-онадан ўз устида мунтазам ишлашни, болалар тарбиясига оид барча маълумотлардан хабардор бўлиб боришни талаб этади. Фарзанд тарбияси бу шунчаки тажриба, оддий кўрсатма ва билимлар жамланмаси эмас, балки ўз ичига диний-ахлоқий билимлар, тиббиёт, этика, психология, педагогика каби соҳаларига оид билимларни ҳам қамраб оладиган мураккаб жараёндир. Бугунги кунда оилавий тарбиянинг қийинлашуви шундаки, биринчидан, жамият тараққий этиб боргани сари ҳар томонлама етук инсонни шакллантириш талаблари ортиб бораверади. Бу эса оилада ёшларга эстетик, жинсий тарбия, ахлоқий тарбия бериш сифатини ошириш талабини қўяди. Ёшларнинг қалби ва онгида соғлом ҳаёт тарзи, миллий ва умуминсоний қадриятларга ҳурмат-эҳтиром туйғусини шакллантириш, ҳар жиҳатдан баркамол этиб тарбиялашда буюк мутафаккир аждодларимиз мероси катта аҳамият касб этади. Зеро, ҳаётнинг асл мазмун-моҳиятини англаб етишга ўз умри ва салоҳиятини бағишлаган Шарқ алломалари ўз асарларида фарзандларга тарбия ва таълим бериш, уни маърифату маданиятга етаклаш муаммоларига эътибор берганлар.Буюк мутафаккир Абу Наср Фаробий таълимоти мисолида қараганда: Инсоннинг яшашдан асл мақсади завқли, лаззатли, ҳузур ҳаловатли, бахтли саодатли умр кечиришдан иборатдир, деган ғоя унинг фалсафий таълимотида устуворлик қилади. Шу боис ул зот “Инсонниг моҳияти ҳақиқий бахт саодатга эришув экани, инсон бу мақсадни ўзининг олий ғояси ва истагига айлантириб, бу йўлда барча имкониятлардан фойдаланса, у бахт ва саодатга эришади” деб уқтирган эди[1].

Шунингдек, фарзандларга юксак инсоний фазилатларни камол топтириш, одамлар билан муомалада ширинсўз, мулойим, босиқ ва камтар бўлишига ҳам эътибор қаратилган. Ёши улуғ кишилар, устозлар билан муомалада уларнинг кўзига тик боқмай, гапларини жим тинглаш, саволларигагина жавоб қайтариш, буйруқларини сидқидилдан бажариш лозимлигини болалар қалбига жо қилишган.Ҳозирги кунда, энг муҳим ва долзарб масалалар бу ёшлар тарбиясида оиланинг масъулиятини ошириш, ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлаш, соғлом турмуш тарзига амал қилишига эришиш муҳим ҳисобланади. Янги ҳаётга қадам қўйган ҳар бир инсон бахтли турмуш, муҳаббат ва садоқатни жонли идрок эта олади. Маълумки, ўзбек оиласи азалдан мустаҳкам, ҳавас қиларли оила бўлиб келган. Шу сабаб ҳам бугун ёшларни оилага тайёрлаш масаласи ҳар

[1] Абу НасрФаробий. Фозилодамларшаҳри. Т., Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993.

қачонгидан ҳам долзарб бўлиб турибди. Яъни, оила тинч – Ватан тинч, деган эзгу тушунча доимо шууримизда, қалбимизда бўлиши керак.

Президентимизнинг “Фарзандларимизга аввало ўзимиз ҳамма соҳада –Ватанга, халққа садоқатли бўлишда, илмга, касб-ҳунарга меҳр қўйишда, ота-она, жамият олдидаги бурчимизни сидқидилдан адо этишда амалий намуна кўрсатишимиз керак” деб айтилган сўзлари ёшлар билан ишлашнинг тизимли йўлига асос бўлмоқда[2]. Оилаларнинг мустаҳкамлиги энг аввало халқнинг, Ватаннинг ҳам бойлигидир. Шунга алоҳида эътибор бериш жоизки, маданий меросимизга мурожаат қиладиган бўлсак, ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлаш борасида кўплаб гўзал намуналарни кўриш мумкин. Мусулмончиликда катталар, хусусан, ота-оналарнинг ёшларга оилавий турмуш ҳақида панд-насиҳат қилишлари, ҳаётий тажрибаларни сўзлашлари одат тусига кириб қолган. Бугунги кунда баъзи ёшларнинг оила, никоҳ масаласига юзаки ёндашаётгани, фарзанд тарбиясига бепарволиги, ота-оналик бурчи ва масъулиятини чуқур англамаслигида кўриш мумкин. Оила – ўзаро ишонч, ҳурмат ҳамда меҳр-муҳаббат асосида бунёд бўлади. Оилада келажак эгалари дунёга келади, тарбия топади, ўзлигини англайди.Оила қўрғонининг мустаҳкам бўлиши учун халқимизга хос сабр-қаноат, ўзаро ҳамжиҳатлик, меҳр-оқибат сингари фазилатларга амал қилиб яшаш лозим. Миллий, диний қадриятларни, инсоний фазилатларни улуғлаш, азалий анъаналарга содиқлик бахт ва саодат маскани бўлган оилани мустаҳкамлайди. Айниқса, ёшларни юксак одоб-ахлоқ тамойиллари асосида тарбиялаш, уларнинг ижтимоий фаоллигини ошириш, касб-ҳунарга ўргатиш, онги ва қалбини ғоявий таҳдидлардан ҳимоя қилиш, шунингдек, мустақил оилавий ҳаётга тайёрлашга йўналтирилган ва ўзига хос мазмунга эга бўлган қуйидаги масалаларни муваффақиятли ҳал этиш муҳим аҳамият касб этади:

-ёшларни оилада она тарбияси, ота назоратини онгли англашга ўргатиш орқали соғлом турмуш тарзига эга бўлиш;

-ёшларни соғлом турмуш тарзи асосида оилага тайёрлаш жараёнида оила аъзоларининг фаоллиги ва масъулиятини ошириш;

-ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлашда тежамкорлик ва ишбилармонлик руҳида тарбиялаш орқали оилавий тарбия билан ижтимоий тарбиянинг узвий боғлиқлигини таъминлашга жиддий эътибор бериш;

-ёшларнинг бозор иқтисодиёти шароитида мулкчиликка бўлган янгича муносабат, мулкдорлик туйғусини таркиб топтириш, “ўзимники”, “бизники” деган тасаввурини кучайтириш орқали уларнинг ўз меҳнатидан манфаатдорлик ва хўжайинлик ҳиссини намоён этишга эришиш;

-оилада ота ва оналар билан фарзандларнинг, фарзандлар билан ота-оналарнинг ўзаро муносабатларини, оила билан мактаб ва маҳалла ўртасидаги муносабатлар тарзида тарбия мазмунига эга бўлиш;

-ёшларнинг оиладаги ўзаро муносабатларида шахсий ва ижтимоий манфаатлар бирлигини таъминлаш орқали уларнинг ижтимоий маънавий эҳтиёжларини намоён этиш орқали янгича дунёқараши ва фикрлай олишига эришиш;

-ёшларнинг оила ҳаётини тўғри ташкил этиш, оилада соғлом ахлоқий муҳитни яратиш, уларнинг шахсиятини ҳурмат қилиш;

[2] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси 30.12.2020.

-ёшларнинг соғлом турмуш тарзи асосида оилага тайёрлашда умуминсоний қадриятлар ва демократик тамойилларга асосланиш.

-бозор иқтисодиёти талабидан келиб чиққан ҳолда ёшларнинг интеллектуал фаолияти, ихтирочилик ва конструктив қобилиятини ривожлантириш, мустақил ижодий фикр юритиши, истеъдоди, иқтидори, иштиёқи, қизиқиши ва интилишларини тўғри йўналтириш, дунёқараши ва тасаввурини ўстириш, билиш фаолиятини фаоллаштириш орқали оилавий ҳаётга тайёрлаш;

-ўқитувчилар, психолог олимлар, мсгодистлар, кенг жамоатчилик ҳамкорлигида ёшларнинг оилавий ҳаётга доир билимларини ошириш учун илмий методик тавсиялар, қўлланмалар яратишни кенгайтириш;

-ёшларнинг эҳтиёжи, қизиқиши, қобилиятларига қараб ҳаётга тайёрлаш ишларини оқилона ташкил этишда малакали психолог ва педагоглар, мухандислар ва техник ходимлар маслаҳатлари ёрдамидан самарали фойдаланиш;

-ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлаш бўйича методик адабиётлар, реал ҳаётдан олинган кинофильмлар, психологик диагностик тадқиқотлардан кенг фойдаланиш;

-ёшларнинг оилавий ҳаётга тайёр бўлиши учун тўгараклар, қўшимча, ёрдамчи курслар ташкил этиш, маърузалар ўқиш, баҳс мунозаралар ўтказиш, саёҳатлар уюштириш, оилавий ҳаётга оид фото кўргазмаларнинг бўлиши ҳамда намунали оила сулолалари билан учрашувлар, давра суҳбатлари, кечалар ўтказишни кучайтириш мақсадга мувофиқ бўлади. Натижада таълим хизмати таъсирида ёшларнинг оила ва ҳаёт ҳақидаги маълумот ва билимларни тўлиқ англаб етишига эришилади. Ёшларнинг ватанпарварлик туйғуси ва миллий ғурурини шакллантириш, аждодларимиз меросига ҳурмат, ватанга садоқат, истиқлолга фидойилик туйғуларини таркиб топтириш йўлида маънавий, маърифий тарбиянинг янги йўлларини топиш ҳамда бозор иқтисодиёти шароитида ўз-ўзини бошқараоладиган ёшларни тарбиялаш энг муҳим вазифалардан биридир.

Оила деб аталмиш қўрғонда авлодлар камол топади. Бу қўрғоннинг мустаҳкам ва барқарор бўлишига эришиш мамлакат ва дунё миқёсида муҳим аҳамиятга эгадир. Соғлом турмуш тарзига эга бўлган мустаҳкам оилалар жамиятимизнинг ёрқин келажаги учун хизмат қиладилар. Ҳар жиҳатдан тарбияли ва ибратли ота оналар оила барқарорлигини таъминлайдилар ва ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлайдилар. “Бунда, аввало, таълим ва тарбияни ривожлантириш, соғлом турмуш тарзини қарор топтириш, илм-фан ва инновацияларни тараққий эттириш миллий ғоямизнинг асосий устунлари бўлиб хизмат қилиши лозим. Ушбу мақсад йўлида ёшларимиз ўз олдига катта марраларни қўйиб, уларга эришишлари учун кенг имкониятлар яратиш ва ҳар томонлама кўмак бериш – барчамиз учун энг устувор вазифа бўлиши зарур. Шундагина фарзандларимиз халқимизнинг асрий орзу-умидларини рўёбга чиқарадиган буюк ва қудратли кучга айланади”[3].

Болаларнинг тўғри сўз, ҳалол, пок, ҳаёли, инсофли, меҳр-оқибатли, камтар, диёнатли, хам шу руҳда камол топади. Бинобарин, бу ота-онанинг фарзанд тарбияси олдидаги масъулияти ва бурчини тўғри ва пухта англаши, билан боғликдир. Дарҳақиқат, иймон тушунчаси ва унинг белгилари ҳақида болаларга кенг қамровли тушунчаларни бериш зарур. Бу борада Абдулла Авлоний илмий меросида тарбиянинг инсон маданий, маънавий камолотидаги аҳамияти устувордир. “Иймон ва эътиқодлилик, ҳалоллик,

[3] Ҳаракатлар стратегияси асосида жадал тараққиёт ва янгиланиш сари Ғофур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, Тошкент-2017.

бировнинг ҳақига хиёнат қилмаслик, адолатпарварлик иймонли ва ватанпар бўлиб тарбияланишида ота-она пок ва ҳалол бўлса, фарзанди, сахийлик, оққўнгиллик, хушфеъллик, мардлик, назокатлилик, вазминлик, ота - она ва катталарни ҳурмат қилиш, меҳнатсеварлик, халқни, миллатни, Ватанни жон тани билан севиш, илмни қадрлаш, табиатни эъзозлаш, диний, ахлоқий, миллий, маънавий қадриятларга ҳурмат каби ажойиб инсоний хислат ва фазилатлар ёшлар қалбида ўз ўзидан шаклланмайди. Буларнинг ҳаммаси оила, ота-она, жамоатчилик тарбиясининг ижтимоий муҳим таъсири, иқтисодий, сиёсий муносабатларнинг оқибати ва маҳсулидир”[4].

Ҳозирги кунда ёшлар ёшлар оилавий ҳаётга психологик, ҳуқуқий, иқтисодий ва ахлоқий жиҳатдан етарлича тайёр ҳолда кирмаяптилар. Бу ҳолат оиладаги муносабатлар ва фарзанд тарбиясига салбий таъсир кўрсатмоқда. Шунга кўра, оилавий ҳаётга тайёрлашнинг асосий йўллари:

--таълим орқали тайёрлаш; ёшларга репродуктив соғлик, масъулияят, ҳуқуқ, мажбуриятлар ҳақида билим ва тушунчалар бериш;

--маслаҳат ва тренинглар ташкил этиш, психолог, ҳуқуқшунослар, социологлар иштирокида амалий семинар, маслаҳатлар беришни кучайтириш;

--телевидение, интернет ва ижтимоий тармоқлар орқали оилавий ҳаёт маданиятини тарғиб этиш;

--ота-она ва жамият иштирокини кучайтириш, қўшни, маҳалла, узлуксиз таълим оқали ёшларни тўғри йўналтириш, оила, мактаб, маҳалла ҳамкорлигини кучайтириш;

Ёшларни ҳаётга тайёрлашда имкониятлар ва амалий шароитлар

Миллий имкониятлар:

- Ўзбекистон Республикасида Оила институтини мустаҳкамлаш концепцияси (2021–2030 йиллар) қабул қилинган;
- “Ёшлар сиёсати тўғрисида”ги Қонун асосида ёшлар билан ишлаш механизми яратилган;
- “Ёшлар дафтари”, “Оилавий ҳаётни қўллаб-қувватлаш марказлари” орқали амалий ёрдам кўрсатилади.

Халқаро тажриба:

- Финляндия, Германия, Канада каби мамлакатларда мактаб ёшидан бошлаб шахсий ҳаёт ва оила маданияти ўргатилиши;
- UNFPA, UNICEF, UNESCO томонидан амалга оширилаётган репродуктив таълим, никоҳ олдидан тайёргарлик ва ота-оналик масъулияти лойиҳалари.

Ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлаш —тизимли, узлуксиз, маънавий ва амалий тарбияни ўз ичига олган ижтимоий-тарбиявий жараёндир. Қуйидаги таклифлар амалий аҳамиятга эга:

- Ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлаш учун махсус модулдаги маслаҳат курслари ва марказларини ташкил этиш;
- Энг илғор, муваффақиятли оилалар тажрибаларини оммалаштириш ва ҳоказо.

Хулоса шуки, ёшларни соғлом турмуш тарзи асосида оилавий ҳаётга тайёрлаш моҳиятига кўра уларни оилага нисбатан ҳурмат ва эътиборли, ўз зиммасидаги вазифаларга нисбатан масъулиятли бўлишга одатлаштириш муҳим аҳамиятга эгадир. Энг муҳими ўз оилавий бурчларини бажариш учун зарур кўникмаларга эга бўлиш, соғлом турмуш тарзи концепцияси доирасидаги билимларни чуқур эгаллаши ва уларга оилавий

[4]Абдулла Авлоний “Туркий гулистон ёхуд ахлоқ” Т.: “Ўқитувчи”, 1967, 41-бет.

турмуш давомида амал қилиши айни муддаодир. Айниқса, ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлашда миллий қадриятларимиз ва улуғ мутафаккирларимиз маънавий меросидан, ислом динининг соғлом турмуш маданияти, меҳрибонлик ғояларидан фойдаланишга эришиш зарур ҳисобланади. Ёшларни мамлакатимизда кечаётган янгиликлар, ижтимоий, сиёсий, иқтисодий ислоҳотларнинг мазмун ва моҳиятини онгли англаб етиши орқали туб ўзгаришлар жараёнларининг фаол иштирокчисига айлантириш ва фуқаролик масъулияти ила тафаккурини чархлаш талаб этилади.

ФОЙДАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Абу НасрФаробий. Фозилодамларшаҳри. Т., Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси 30.12.2020.
3. Ҳаракатлар стратегияси асосида жадал тараққиёт ва янгиланиш сари Ғофур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, Тошкент-2017.
4. Абдулла Авлоний “Туркий гулистон ёхуд ахлоқ” Т.: “Ўқитувчи”, 1967
5. З. Х. Тошпўлатова. Ёшлар тарбиясида маънавий-ахлоқий қадриятлар. — Тошкент, 2019.
6. И.Р. Ражабов. Психология ва ҳаёт. — Тошкент: “Fan”, 2022.
7. М. Рахимов ва бошқалар. Оила соғломлиги ва репродуктив саломатлик. — Тошкент, 2021.
8. Elkind, David. All Grown Up and No Place to Go: Teenagers in Crisis — 2001. — Замонавий ёшлар ва ҳаётга тайёргарлик муаммолари ҳақида илмий таҳлил.

OLIY TA’LIM TIZIMIDA TALABA QIZLARNI IJTIMOIY QO‘LLAB-QUVVATLASH VA OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH

Yerimbetova Z.B.
Qoraqalpog‘iston tibbiyot instituti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17623958

Annotatsiya*. Maqolada xotin-qizlarning, xususan, talaba qizlarning ma’naviy kamoloti - ularning kelgusi hayotidagi barqarorlik, oila mustahkamligi va jamiyatdagi o‘rni, odob-axloq, Vatanga sadoqat, mehr-oqibat, bag‘rikenglik tuyg‘ularini shakllantirish, oliy ta’lim muassasalarida bu boradagi ishlarni yanada takomillashtirish, zamonaviy dasturlar, treninglar, ma’naviy-ma’rifiy loyihalar orqali talaba qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash haqida ma’lumotlar berildi.*

Kalit so‘zlar: *psixologik xizmatlar, mentorlik tizimi, ruhiy qo‘llab-quvvatlash, kasbiy tayyorgarlik, treninglar, psixologik barqarorlik va h.k.*

Аннотация. *В статье представлена информация о духовном совершенствовании женщин, особенно студенток, - стабильности в их будущей жизни, укреплении семьи и их роли в обществе, формировании нравственности, преданности Родине, сострадания и терпимости, дальнейшем совершенствовании работы в этом направлении в высших учебных заведениях, всесторонней поддержке студенток посредством современных программ, тренингов и духовно-просветительских проектов.*

Ключевые слова: *психологические услуги, менторная система, психологическая поддержка, профессиональная подготовка, тренинги, психологическая устойчивость и т.д.*

Abstract*. The article provides information on the spiritual development of women, in particular, female students - the stability of their future life, the strength of the family and their place in society, the formation of feelings of morality, devotion to the Motherland, kindness, and tolerance, further improvement of work in this area in higher educational institutions, and comprehensive support for female students through modern programs, trainings, and spiritual and educational projects.*

Keywords: *psychological services, mentoring system, psychological support, professional training, trainings, psychological stability, etc.*

Kirish

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida ayollarning, xususan, talaba qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, oilaviy hayotga tayyorlash masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayol – jamiyat tayanchi, oila mehr-oqibat manbai bo‘lgan inson sifatida kelajak avlod tarbiyasida beqiyos o‘rin tutadi. Shu bois oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan qizlarni nafaqat kasbiy, balki ma’naviy, ijtimoiy, va oilaviy jihatdan tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta’lim tizimi – bu nafaqat mutaxassislar tayyorlash, balki jamiyatda barkamol shaxsni shakllantirish maskanidir. Shunday ekan, talaba qizlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash,

ularning manfaatlarini himoya qilish, ta’lim jarayonida teng imkoniyatlar yaratish, shuningdek, ularni oilaviy hayotga tayyorlash dolzarb masalalardan sanaladi.

Talaba qizlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning dolzarbligi

Bugungi globallashuv davrida yoshlarning, ayniqsa, talaba qizlarning ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirish muhim vazifalardan biridir. Oliy ta’lim muassasalarida qizlar uchun yaratilgan imkoniyatlar — ularning o‘qishga, ilmiy faoliyatga, sport va madaniyat sohasidagi ishtirokiga keng yo‘l ochmoqda.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, *“Ayollarga e’tibor va hurmat – bu jamiyatning madaniyat darajasining eng muhim ko‘rsatkichidir.”* Shu bois, oliy ta’lim tizimida ayollar uchun qulay muhit yaratish, ularning ijtimoiy faolligini qo‘llab-quvvatlash, psixologik va moddiy yordam mexanizmlarini takomillashtirish ustuvor ahamiyatga ega.

Oliy ta’lim muassasalarida talaba qizlar uchun turar joylar, stipendiyalar, ijtimoiy yordam jamg‘armalari, psixologik maslahat markazlari faoliyat yuritmoqda. Bu tizim ularning ijtimoiy barqarorligini ta’minlashga, o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqini oshirishga xizmat qilmoqda.

Talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash zarurati

Oilaviy hayot – insonning eng muhim qadriyatlaridan biridir. Bo‘lajak mutaxassis, bo‘lajak ona sifatida talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash jamiyat barqarorligi uchun zarur. Ta’lim jarayonida ularga psixologiya, pedagogika, oilashunoslik, ma’naviyat, axloqiy qadriyatlar asosida bilim berish, hayotiy masalalarda to‘g‘ri yo‘l topa bilish ko‘nikmalarini shakllantirish talab etiladi.

Bu borada “Oila va jamiyat”, “Ayollar maslahat kengashlari”, “Ma’naviyat va ma’rifat markazlari” hamda “Ayol va oila” to‘garaklarining faoliyati katta ahamiyat kasb etadi. Oliy ta’lim tizimida tashkil etilayotgan seminarlar, treninglar va suhbatlar orqali qizlarga oilaviy munosabatlar, ota-ona va farzand o‘rtasidagi hurmat, turmush madaniyati, psixologik muvozanat kabi masalalarda amaliy ko‘nikmalar berilmoqda.

Qizlarning ma’naviy-ma’rifiy tarbiyasini mustahkamlash

Talaba qizlarning ma’naviy yetukligi – ularning kelajakdagi hayotidagi barqarorlik, oila mustahkamligi va jamiyatdagi o‘rni bilan chambarchas bog‘liq. Shuning uchun oliy ta’lim muassasalarida ma’naviyat soatlari, adabiyot kechalari, tarixiy-ma’naviy meros bilan tanishtirish, taniqli ayollar bilan uchrashuvlar o‘tkazilishi muhim.

Qizlar orasida milliy qadriyatlarimiz, odob-axloq, Vatanga sadoqat, mehr-oqibat, bag‘rikenglik tuyg‘ularini shakllantirish orqali ularni barkamol inson sifatida tarbiyalashga erishiladi. Ayniqsa, milliy urf-odatlar, oilaviy qadriyatlarni asrash, zamonaviy bilim va texnologiyalarni o‘zlashtirish bilan uyg‘unlashtirish bugungi yosh ayol obrazini yaratadi.

4. Amaliy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari

Oliy ta’lim tizimida talaba qizlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

Moliyaviy yordam va grantlar: ehtiyojmand qizlar uchun maxsus stipendiyalar, grant dasturlari joriy etilgan.

Psixologik xizmatlar: talabalarga ruhiy bosim, stress holatlarida yordam berish maqsadida psixologik markazlar faoliyat yuritadi.

Mentorlik tizimi: tajribali o‘qituvchilar, murabbiylar qizlarga hayotiy masalalarda yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishadi.

Ma’naviy qo‘llab-quvvatlash: diniy-ekstremistik oqimlarga qarshi immunitetni kuchaytirish, sog‘lom hayot tarzini targ‘ib qilish yo‘lga qo‘yilgan.

Kasbiy tayyorgarlik: qizlarni bozor iqtisodiyoti talablariga mos mutaxassis qilib tayyorlash, ularni tadbirkorlikka, ilmiy izlanishga yo‘naltirish choralari ko‘rilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta’lim tizimida talaba qizlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va oilaviy hayotga tayyorlash — mamlakatimizning kelajagi, barkamol avlodni voyaga yetkazishning eng muhim omillaridan biridir. Har bir qiz – ertangi kun onasi, jamiyatning ma’naviy tayanchidir.

Shuning uchun oliy ta’lim muassasalarida bu yo‘nalishdagi ishlarni yanada takomillashtirish, zamonaviy dasturlar, treninglar, ma’naviy-ma’rifiy loyihalar orqali talaba qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ularning hayotga ijobiy yo‘nalishda tayyorlanishini ta’minlash zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev. Sh.M. Yangi Ózbekiston taraqqiyoti strategiyasi. –Toshkent, 2022.
2. "Ta'lim tógrisida"gi Qonun. –Toshkent, 2020
3. Qóldosheva M. «Talaba qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishda pedogogik yondoshuvlar» - «Pedagogika» jurnali, 3-son. 2022
4. Ózbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-fevraldagi PQ-4963-son qarori- «Xotin-qizlarni qóllab-quvvatlash va ularning jamiyatdagi rolini oshirishga oid chora-tadbirlar tógrisidagi»

O‘Z-O‘ZINI BAHOLASH TALABALAR SHAXSIY UYG‘UNLIGIGA TA`SIR QILUVCHI PSIXOLOGIK OMIL SIFATIDA

Yo‘ldosheva Dilrabo Sobir qizi
Qoraqalpoq Davlat Universiteti, Psixologiya yo‘nalishi 2-kurs magistanti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17623964

Annotatsiya. *Ushbu maqolada talabalar shaxsiy uyg‘unligining shakllanish jarayonida o‘z-o‘zini baholashning o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. O‘z-o‘zini baholashning yuqori yoki past darajasi shaxsiy uyg‘unlik, ijtimoiy moslashuv, o‘quv motivatsiyasi va emotsional barqarorlik bilan uzviy bog‘liqligi ilmiy manbalar asosida asoslab berilgan. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, talabalarda adekvat o‘z-o‘zini baholashni shakllantirish orqali ularning psixologik barqarorligi va hayotdan qoniqish darajasini oshirish mumkin.*

Аннотация. *В статье анализируются роль и значение самооценки в процессе формирования личностной гармонии студентов. На основе научных источников обосновывается, что высокий или низкий уровень самооценки неразрывно связан с личностной гармонией, социальной адаптацией, академической мотивацией и эмоциональной устойчивостью. Практическая значимость исследования заключается в том, что формирование адекватной самооценки у студентов позволяет повысить их психологическую устойчивость и удовлетворенность жизнью.*

Abstract. *This article analyzes the role and importance of self-assessment in the process of forming students' personal harmony. It is substantiated on the basis of scientific sources that a high or low level of self-assessment is inextricably linked with personal harmony, social adaptation, academic motivation and emotional stability. The practical significance of the study is that by forming adequate self-assessment in students, it is possible to increase their psychological stability and life satisfaction.*

Kalit so‘zlar: *o‘z-o‘zini baholash, shaxsiy uyg‘unlik, talaba shaxsi, psixologik omillar, o‘zini anglash.*

Ключевые слова: *самооценка, личностная гармония, личность студента, психологические факторы, самосознание.*

Keywords: *self-assessment, personal harmony, student personality, psychological factors, self-awareness.*

KIRISH

Bugungi globallashuv davrida inson kapitalini rivojlantirish, yoshlarning intellektual va ma’naviy salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish O‘zbekiston taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning shaxsiy va kasbiy o‘sishini ta’minlash, ta’lim jarayonida psixologik xizmatlar sifatini oshirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da yosh avlodning ma’naviy barkamolligi, tafakkur erkinligi va ijtimoiy faolligini oshirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan[1]. Shuningdek, 2022-yil 28-yanvardagi

PF–60-son Farmon — “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”da yoshlarning kasbiy va shaxsiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish, ularning psixologik barqarorligini ta’minlash maqsadida ta’lim muassasalarida psixologik xizmatlar faoliyatini takomillashtirish zarurligi ta’kidlangan[2].

Prezident Sh.M. Mirziyoyev 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida shunday degan edi: “Biz yoshlarga mustaqil fikrlash, hayotda o‘z o‘rnini topish, irodali, qat’iyatli bo‘lishga o‘rgatishimiz kerak”[3]. Mazkur fikr shaxsiy uyg‘unlikni ta’minlovchi asosiy psixologik omillardan biri — o‘z-o‘zini baholashning dolzarbligini yaqqol ko‘rsatadi. Chunki o‘z-o‘zini baholash shaxsning o‘z imkoniyatlarini real baholashi, ichki “Men” kontseptsiyasini anglash va ijtimoiy hayotda o‘z o‘rnini topish jarayonini belgilovchi psixologik mexanizmdir.

Talabalik davri — insonning o‘zini anglash, o‘z qadriyatlarini shakllantirish va shaxsiy identifikatsiyani topish davridir. Bu jarayonda o‘z-o‘zini baholashning adekvat shakli shaxsiy uyg‘unlik, ijtimoiy moslashuv, o‘quv motivatsiyasi hamda emotsional barqarorlik bilan uzviy bog‘liqdir. Aksincha, past yoki noadekvat o‘z-o‘zini baholash shaxsda ichki ziddiyatlar, o‘zini qadrsiz his qilish, tashqi baholarga qaramlik va o‘quv faoliyatida passivlikka olib kelishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, talabalarda o‘z-o‘zini baholash darajasini o‘rganish, uning shaxsiy uyg‘unlikka ta’sir etuvchi psixologik omillarini aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bugungi psixologik tadqiqotlarning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Psixologiya fanida o‘z-o‘zini baholash shaxsning o‘z imkoniyatlari, fazilatlari, kamchiliklari va qadriyatlarini anglab, ularga subyektiv baho berish jarayoni sifatida izohlanadi. W. James (1890) o‘z-o‘zini baholashni “insonning muvaffaqiyatlari va intilishlari o‘rtasidagi nisbat” deb ta’riflagan[4]. R. Burns (1982) esa uni shaxsning o‘ziga nisbatan munosabatini tashkil etuvchi “Men–kontsepsiya”ning markaziy komponenti sifatida ko‘rsatadi[5].

O‘z-o‘zini baholash shaxsning ijtimoiy rivojlanish jarayonida shakllanadi. Bola avvalo ota-onasining, keyinchalik tengdoshlar va pedagoglarning baholarini ichkilashtirib, ularni o‘z “Men” tizimiga singdiradi. Shu bois o‘z-o‘zini baholashni shakllantirishda ijtimoiy muhit, tarbiya, muloqot tajribasi va emotsional qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega.

Psixologik nuqtayi nazardan o‘z-o‘zini baholash uch xil shaklda namoyon bo‘ladi:

- yuqori (o‘ta ijobiy) — inson o‘z imkoniyatlarini haddan tashqari yuqori baholaydi, bu o‘zini oqlash yoki kompensatsiya mexanizmlariga olib keladi;
- past (negativ) — o‘zini qadrsiz his qilish, o‘z kuchiga ishonchsizlik, passivlik bilan kechadi;
- adekvat (real) — inson o‘zining kuchli va zaif tomonlarini to‘g‘ri baholaydi, o‘z imkoniyatlarini real asosda rivojlantirishga intiladi.

Shaxsiy uyg‘unlikning shakllanishi aynan adekvat o‘z-o‘zini baholash bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu shaxsning ichki muvozanatini saqlash, hayotiy maqsadlariga izchil intilishiga yordam beradi.

Shaxsiy uyg‘unlik — bu shaxsning o‘z “Men”i bilan tashqi dunyo o‘rtasida muvofiqlikni ta’minlay olishi, ichki va tashqi ziddiyatlardan xoli holda yashash qobiliyatidir. S. L. Rubinshteyn shaxsiy uyg‘unlikni insonning o‘z faoliyatida maqsad, qadriyat va hissiyotlarning uyg‘unlashgan holati deb izohlaydi[6]. B. G. Ananev esa bu jarayonni shaxsning ijtimoiy tajriba va individual xususiyatlarini integratsiyalash darajasi bilan bog‘laydi[7]. Shaxsiy uyg‘unlikning asosiy psixologik mezonlari quyidagilar hisoblanadi:

- o‘zini qabul qilish (self-acceptance);
- emotsional barqarorlik;
- ijtimoiy moslashuvchanlik;
- shaxsiy maqsadlarning aniqligi;
- o‘z-o‘zini rivojlantirishga intilish.

Bu mezonlarning har biri o‘z-o‘zini baholash darajasi bilan bevosita bog‘liqdir. Masalan, o‘zini qadrlaydigan shaxs emotsional jihatdan barqaror, ijtimoiy jihatdan faol va o‘z hayotiga mas’uliyat bilan yondashadi.

O‘z-o‘zini baholash shaxsning psixik hayotida bir necha mexanizmlar orqali faoliyat ko‘rsatadi:

1. Motivatsion mexanizm: O‘z-o‘zini baholash insonni o‘z maqsadlariga erishishga undaydi. Yuqori yoki adekvat baholash ijobiy motivatsiyani shakllantiradi, past baholash esa muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rquvni kuchaytiradi.

2. Regulyativ mexanizm: O‘z-o‘zini baholash xulq-atvorni boshqaradi, inson o‘z harakatlarini ijtimoiy me’yorlar bilan solishtirib tahlil qiladi.

3. Himoya mexanizmi: Past o‘z-o‘zini baholash sharoitida shaxs o‘zini himoya qilish uchun kompensatsiya, inkor yoki proyeksiya kabi mexanizmlardan foydalanadi.

4. Refleksiya mexanizmi: Shaxs o‘z xatti-harakatlariga, his-tuyg‘ulariga baho berish orqali ichki uyg‘unlikka intiladi. Bu jarayon reflektiv o‘z-o‘zini anglashni rivojlantiradi.

Talabalik davri — o‘z “Men” konsepsiyasi faol shakllanadigan bosqichdir. Ushbu jarayonga quyidagi psixologik omillar kuchli ta’sir ko‘rsatadi:

1. Oilaviy muhit: ota-onaning qo‘llab-quvvatlashi, iliq emotsional munosabat, ishonchli kommunikatsiya shaxsda ijobiy o‘z-o‘zini baholashni shakllantiradi.

2. Pedagogik muhit: o‘qituvchi va guruhdoshlarning adolatli, konstruktiv bahosi talabaning o‘ziga ishonchini oshiradi.

3. O‘quv faoliyatidagi muvaffaqiyatlar: o‘z yutug‘ini tan olish, qiyinchiliklarni yengish orqali o‘z-o‘zini qadrlash mustahkamlanadi.

4. Ijtimoiy tarmoqlar va madaniy qadriyatlar: zamonaviy yoshlar tashqi baholarga kuchli e’tibor berishi sababli, ijtimoiy solishtirish o‘z-o‘zini baholashni o‘zgartiruvchi omilga aylanmoqda.

5. Shaxsning individual xususiyatlari: introversiya, tashqi va ichki nazorat lokusi, o‘zini anglash darajasi va emotsional intellekt darajasi ham o‘z-o‘zini baholash bilan bog‘liq.

Shunday qilib, o‘z-o‘zini baholash talabalarda shaxsiy uyg‘unlikning rivojlanishiga asos yaratadi. U o‘zini qabul qilish, ichki barqarorlik, ijtimoiy faollik va hayotiy maqsadlarga yo‘naltirilganlikni ta’minlovchi psixologik omil sifatida namoyon bo‘ladi.

METOD VA VOSITALAR

O‘z-o‘zini baholash bo‘yicha bir qancha olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan. M. Rosenberg (Morris Rosenberg, 1965) “Self-Esteem Scale” testini ishlab chiqqan[8]. Uning tajribalaridagi talabalarning o‘z-o‘zini baholashi bo‘yicha izlanishlari shuni ko‘rsatadiki, o‘zini yuqori baholaydigan talabalar ijtimoiy faol, stressga bardoshli va o‘qishga motivatsiyasi yuqori bo‘ladi. Bugungi kunda bu test talabalarning o‘zini qadrlashini aniqlashda eng keng qo‘llaniladigan vosita hisoblanadi. K. Rodjers (Carl Rogers, 1951) O‘zini anglash va o‘zini baholash o‘rtasidagi uyg‘unlikni “ideal Men” va “real Men” tushunchalari orqali izohlagan[9]. U o‘tkazgan psixoterapevtik tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, real Men va ideal Men o‘rtasidagi farq kamaygan sayin shaxsning ichki uyg‘unligi ortadi. Shuning uchun ko‘plab psixologlar o‘z-o‘zini

baholashni shaxsiy uyg‘unlikning markaziy komponenti deb bilishadi. A. Bandura (Albert Bandura, 1977–1986) “O‘z-o‘ziga ishonch (self-efficacy)” nazariyasini ilgari surgan. Unga ko‘ra, o‘z-o‘zini baholash faqat o‘z fikrini qadrlash emas, balki shaxsning qiyinchiliklarga bardosh berish qobiliyatini ham belgilaydi[10]. Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, yuqori o‘z-o‘zini baholashga ega shaxslar stressli vaziyatlarda o‘zini tez tiklay oladi, bu esa shaxsiy uyg‘unlikni mustahkamlaydi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Yuqoridagi nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘z-o‘zini baholash talabalarda shaxsiy uyg‘unlikni belgilovchi asosiy psixologik omillardan biridir. O‘z-o‘zini baholash shaxsning o‘z “Men”ini qabul qilishi, ijtimoiy muhitga moslashuvi, o‘quv va kasbiy faoliyatdagi muvaffaqiyati, emotsional barqarorligi hamda o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan intilishini belgilaydi.

Talabalarda adekvat o‘z-o‘zini baholashning shakllanishi ularning ijobiy o‘zini anglashini kuchaytiradi, irodaviy sifatlarini rivojlantiradi va ichki uyg‘unlikni ta’minlaydi. Aksincha, past yoki noadekvat o‘z-o‘zini baholash shaxsda o‘z kuchiga ishonchsizlik, tashqi baholarga qaramlik, ichki dissonans va psixologik beqarorlikka sabab bo‘ladi. Shuning uchun oliy ta’lim muassasalarida psixologik xizmat tizimi quyidagi yo‘nalishlarda faoliyat olib borishi maqsadga muvofiqdir:

Talabalar o‘zini anglash, ijobiy fikrlash, o‘z kuchiga ishonchni shakllantirishga yo‘naltirilgan “Men kimman?”, “Mening qadriyatlarim”, “O‘zini qabul qilish san’ati” kabi interaktiv treninglar o‘tkazilishi zarur. O‘quv jarayonida talabalar o‘z his-tuyg‘ulari, muvaffaqiyatlari va qiyinchiliklarini tahlil qilishi uchun maxsus reflektiv daftarlardan yoki “shaxsiy rivojlanish kundaligi”dan foydalanish tavsiya etiladi. Past o‘z-o‘zini baholashga ega talabalar bilan individual tarzda ishlash, ularning shaxsiy tajribasini qayta baholashga yordam beruvchi ekzistensial yoki kognitiv yondashuv asosidagi maslahatlar samarali natija beradi. Talabalarning guruhdagi o‘zaro munosabatlari, o‘qituvchilarning konstruktiv fikr bildirishi va qo‘llab-quvvatlashi ularning o‘zini qadrlashini oshiradi. Shuning uchun pedagogik jamoada ham ijobiy psixologik iqlim yaratish muhim. Ota-onalarga o‘z farzandining shaxsiy qadriyatini tan olish, ortiqcha solishtirishdan tiyilish va ijobiy mustahkamlash usullaridan foydalanish bo‘yicha psixoprofilaktik seminarlar o‘tkazish kerak.

O‘z-o‘zini baholashning adekvat darajasi talabaning o‘z imkoniyatlarini real baholash, ijtimoiy faollikni oshirish, o‘quv motivatsiyasini kuchaytirish va shaxsiy uyg‘unlikka erishishning zaruriy shartidir. Shu bois psixologik xizmatlar, ta’lim jarayoni va ijtimoiy muhit birgalikda shaxsning ichki “Men”ini anglashga yo‘naltirilgan kompleks yondashuvni shakllantirishi lozim.

Yoshlarning o‘z-o‘zini baholashini rivojlantirish orqali biz nafaqat ularning individual muvaffaqiyatini, balki jamiyatda barkamol, mas’uliyatli, o‘z kuchiga ishonadigan, uyg‘un shaxslarni tarbiyalashga erishamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–4947-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. Tashkent: Hukumat nashriyoti, 2017, 7-fevral. P. 2–10.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–60-son Farmoni. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida. Tashkent: Hukumat nashriyoti, 2022, 28-yanvar. P. 3–12.

3. Mirziyoyev Sh. M. Oliy Majlisga murojaatnoma. Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Matbuot Xizmati, 2020, 24-yanvar. P. 5–8.
4. James W. The principles of psychology. New York: Henry Holt and Company, 1890. P. 120–135.
5. Burns R. Self-concept and self-esteem. New York: Harper & Row, 1982. P. 45–60.
6. Rubinshteyn S. L. Psikhologiya lichnosti. Moskva: Pedagogika, 2000. P. 150–165.
7. Ananev B. G. Psikhologiya razvitiya cheloveka. Moskva: Nauka, 1990. P. 100–120.
8. Rosenberg M. Society and the adolescent self-image. Princeton, NJ: Princeton University Press, 1965. P. 30–50.
9. Rogers C. Client-centered therapy: Its current practice, implications, and theory. Boston: Houghton Mifflin, 1951. P. 75–95.
10. Bandura A. Self-efficacy: Toward a unifying theory of behavioral change. Psychological Review, 1977–1986, Vol. 84, No. 2, P. 191–215.

4-SHO‘BA

GENDER TENGLIK VA TALABA-QIZLAR FAOLLIGINI TA’MINLASHDA MILLIY VA XALQARO HAMKORLIK PLATFORMALARI

* * *

NATIONAL AND INTERNATIONAL COOPERATION PLATFORMS FOR ENSURING GENDER EQUALITY AND FEMALE STUDENT ACTIVISM

* * *

НАЦИОНАЛЬНЫЕ И МЕЖДУНАРОДНЫЕ ПЛАТФОРМЫ СОТРУДНИЧЕСТВА ДЛЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА И АКТИВИЗМА СТУДЕНТОК

GENDER TENGLIK VA TALABA QIZLAR FAOLIYATINI MILLIY VA XALQARO HAMKORLIK ORQALI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

Abdullayeva Nasibaxon Arabovna
Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasi, tarix fanlari bo‘yicha falsafa fanlar doktori (PhD), dotsent
https://doi.org/10.5281/zenodo.17631923

Annotatsiya. *Mazkur maqolada gender tenglikni ta’minlash hamda talaba qizlarning ijtimoiy, ilmiy va madaniy hayotdagi faolligini oshirishda milliy va xalqaro hamkorlikning o‘rni chuqur tahlil qilinadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Gender tenglik to‘g‘risida”gi Qonun, shuningdek, BMT, YUNESKO va Yevropa Ittifoqi tomonidan ilgari surilgan xalqaro konvensiyalar asosida ayollar huquqlarini himoya qilish, ularning ta’lim va boshqaruv tizimidagi ishtirokini kengaytirish masalalari yoritilgan. Maqolada talaba qizlarni yetakchilik, tadqiqotchilik va innovatsion faoliyatga jalb etish bo‘yicha amaliy tajribalar, xususan, xalqaro dasturlar (UN Women, Girls in STEM, Women Empowerment)ning O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalaridagi natijalari tahlil etiladi. Shuningdek, gender tenglik siyosatining milliy qadriyatlar bilan uyg‘unligi, ma’naviy asoslari hamda talaba qizlarning jamiyatdagi ijtimoiy mas’uliyatini oshirishga xizmat qiluvchi mexanizmlar yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *gender tenglik, talaba qizlar, ta’lim, xalqaro hamkorlik, ayollar huquqi, ijtimoiy faollik, yetakchilik, innovatsiya.*

Аннотация. *В данной статье подробно рассматривается роль национального и международного сотрудничества в обеспечении гендерного равенства и повышении социальной, научной и культурной активности студенток. На основе Конституции Республики Узбекистан, Закона «О гендерном равенстве», а также международных конвенций ООН, ЮНЕСКО и Европейского Союза анализируются меры по защите прав женщин, расширению их участия в системе образования и управления. В статье раскрываются практические аспекты вовлечения студенток в лидерскую, исследовательскую и инновационную деятельность, освещаются результаты международных программ, таких как UN Women, Girls in STEM, Women Empowerment в вузах Узбекистана. Кроме того, показано значение гармоничного сочетания национальных ценностей с политикой гендерного равенства и механизмов, способствующих повышению социальной ответственности и гражданской активности студенток.*

Ключевые слова: *гендерное равенство, студентки, образование, международное сотрудничество, права женщин, социальная активность, лидерство, инновации.*

Abstract. *This article provides an in-depth analysis of the role of national and international cooperation in promoting gender equality and enhancing the social, scientific, and cultural engagement of female university students. Based on the Constitution of the Republic of Uzbekistan, the Law “On Gender Equality,” and key international conventions of the UN, UNESCO, and the European Union, the paper explores initiatives aimed at protecting women’s rights and expanding their participation in education and leadership. It highlights practical experiences and successful outcomes of international programs such as UN Women, Girls in*

STEM, and Women Empowerment implemented in Uzbekistan’s higher education institutions. The study also emphasizes the harmony between national values and gender policy, focusing on mechanisms that strengthen young women’s social responsibility, leadership potential, and contribution to sustainable development.

Keywords: *gender equality, female students, education, international cooperation, women’s rights, social activity, leadership, innovation.*

Kirish

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida “Erkaklar va ayollar teng huquqlidir” degan norma mustahkamlandi (49-modda) [1, B. 23]. Mazkur qoida jamiyatda inson huquqlari, erkinliklari va teng imkoniyatlarni ta’minlash borasida tub burilish yasadi. Shu bilan birga, bu norma davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida ayollar, xususan, yosh qizlarning ta’lim, fan, madaniyat va boshqaruv sohalaridagi faolligini oshirishga qaratilgan islohotlarning huquqiy poydevorini yaratdi.

O‘zbekiston Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Yangi O‘zbekiston – ayollar va yoshlar davlati” tamoyili asosida qizlarning ijtimoiy mavqeini mustahkamlash, ularning yetakchilik va ilmiy salohiyatini rivojlantirish bo‘yicha bir qator strategik dasturlar amalga oshirilmoqda [2, B. 45–48]. Ushbu islohotlar gender tenglikni nafaqat huquqiy mezon sifatida, balki ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili sifatida qarash zarurligini ko‘rsatmoqda.

So‘nggi yillarda mamlakatda ayollarni qo‘llab-quvvatlash, gender siyosatini takomillashtirish hamda talaba qizlar uchun teng sharoit yaratish bo‘yicha qator huquqiy hujjatlar, milliy dasturlar va xalqaro hamkorlik loyihalari qabul qilindi. Jumladan, “Gender tenglik to‘g‘risida”gi Qonun (2019-yil), “2022–2026-yillarda gender tenglikni ta’minlash strategiyasi”, hamda BMT va YUNESKO bilan hamkorlikdagi “Women Empowerment”, “Girls in STEM” kabi dasturlar bu boradagi tizimli ishlarning samaradorligini oshirdi [3, B. 12–15].

Ayniqsa, oliy ta’lim tizimida talaba qizlarning faol ishtirokini rag‘batlantirish, ularning ilmiy loyihalar, grantlar va xalqaro tanlovlardagi ishtirokini qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining muhim tarkibiy qismiga aylandi. Natijada, so‘nggi yillarda respublika oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan ayollar ulushi 48 foizdan oshgani, ularning 30 foizdan ortig‘i turli ilmiy-amaliy loyihalarda faol ishtirok etayotgani qayd etilgan [4, B. 29–33].

Shuningdek, talaba qizlar o‘rtasida ijtimoiy faollik, yetakchilik salohiyati va mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilanmoqda. Bu jarayonda milliy qadriyatlar, madaniy meros va zamonaviy gender yondashuvlar uyg‘unligi asosida shakllanayotgan yangi ta’lim konsepsiyasi muhim o‘rin tutadi [5, B. 54–56].

Natijada, O‘zbekiston jamiyatida gender tenglik masalasi faqat qonunchilik darajasida emas, balki ta’lim amaliyoti, ilmiy izlanishlar va madaniy hayot orqali keng qamrovli ijtimoiy harakatga aylanmoqda. Shu bois, gender tenglikni ta’minlash va talaba qizlar faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha milliy hamda xalqaro hamkorlikni kuchaytirish bugungi kunning dolzarb strategik vazifalaridan biri hisoblanadi [6, B. 40–42].

Asosiy qism

1. Gender siyosatining milliy asoslari

O‘zbekiston hukumati tomonidan qabul qilingan “2022–2026-yillarda gender tenglikni ta’minlash strategiyasi”da ayollarning ta’lim va ilm-fan sohasidagi o‘rnini kuchaytirish bo‘yicha aniq maqsadlar belgilangan [3, B. 12–15].

Bunda talaba qizlarning ilmiy izlanishlarga jalb etilishi, rahbarlik lavozimlarida ularning ishtirokini kengaytirish muhim masala sifatida qayd etilgan [4, B. 78–80].

2. Talaba qizlar faoliyatini rivojlantirishda xalqaro hamkorlikning o‘rni

Bugungi kunda BMT, YUNESKO, UN Women, va Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlikda bir qator dasturlar amalga oshirilmoqda.

Masalan, “Girls in STEM” loyihasi doirasida O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida qizlarning texnika va muhandislik yo‘nalishlariga bo‘lgan qiziqishi oshmoqda [5, B. 29–33].

YUNESKOning 2023-yilgi “Women in Science” hisobotida O‘zbekiston ta’lim tizimidagi ayollar ulushi 49 foizga yetgani ta’kidlangan [6, B. 54].

3. Talaba qizlarning ijtimoiy faolligi va yetakchilik salohiyatini oshirish

Oliy ta’lim muassasalarida “Lider qizlar klubi” va “Ayollar kengashi” kabi tashabbuslar orqali talaba qizlarning ijtimoiy loyihalarda ishtiroki kengaymoqda [7, B. 40–42].

Bu jarayon milliy qadriyatlar bilan uyg‘un bo‘lib, gender tenglikni faqat huquqiy emas, balki ma’naviy-axloqiy jihatdan ham mustahkamlaydi [8, B. 18–21].

4. Xalqaro hamkorlikning ijtimoiy ta’siri

BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP) hamda O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi hamkorligida amalga oshirilgan “Women Empowerment in Education” loyihasi natijasida 2021–2024-yillar oralig‘ida 12 mingdan ortiq talaba qizlar malaka oshirish kurslarida qatnashgan [9, B. 9–13].

Bu kabi loyihalar yosh ayollarning mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy mas’uliyatli shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qilmoqda [10, B. 26–30].

Xulosa

Gender tenglikni ta’minlash talaba qizlarning nafaqat ta’lim tizimida, balki siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy hayotning barcha sohalarida teng huquqli va faol ishtirok etishini kafolatlaydi. Bu esa jamiyatning barqaror rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Milliy va xalqaro hamkorlik mexanizmlarining kuchaytirilishi ayollar va qizlar faolligini oshirish, ularning ilmiy salohiyati va yetakchilik qobiliyatini rivojlantirishda yangi bosqichni boshlab berdi.

Talaba qizlarni innovatsion fikrlashga, ijtimoiy mas’uliyatni his etishga va tadqiqotchilik faoliyatiga yo‘naltirish orqali O‘zbekistonning intellektual, ma’naviy va gumanitar salohiyati yanada mustahkamlanadi. Shu sababli, gender siyosatini ta’lim tizimiga chuqur integratsiya qilish, xalqaro tajriba va milliy qadriyatlar uyg‘unligida amalga oshirish — yosh avlodni teng huquqli, faol va zamonaviy jamiyat qurilishining yetakchi kuchiga aylantirishning eng muhim omilidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Adolat, 2023. – B. 23–25.
2. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O‘zbekiston strategiyasi.* – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – B. 45–48.
3. O‘zbekiston Respublikasi Gender tenglik strategiyasi (2022–2026). – Toshkent: Adolat, 2022. – B. 12–15.
4. Karimova N. *Ayollar huquqlari va gender siyosati.* – Toshkent: Ma’naviyat, 2021. – B. 78–80.
5. UNESCO. *Girls in STEM: Central Asia Report.* – Paris, 2023. – B. 29–33.
6. UN Women. *Women in Science 2023.* – New York, 2023. – B. 54–56.

7. Abdullayeva N.A. *Talaba qizlar ijtimoiy faolligini oshirish yo‘llari.* – Andijon, 2022. – B. 40–42.
8. Xudoyberdiyev B. *Etnografiya asoslari.* – Buxoro, 2018. – B. 18–21.
9. UNDP & O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi. *Women Empowerment in Education Project Report.* – Toshkent, 2024. – B. 9–13.
10. Raxmonov D. *Oliy ta’limda gender yondashuvlar.* – Samarqand, 2023. – B. 26–30.

“YIG‘LASH” VA “KULGI” KONSEPTINI IFODALOVCHI QORAQALPOQ TILIDAGI FRAZEOLOGIZMLARNING KOGNITIV-PRAGMATIK TAHLILI

I.Allambergenova[1], N.Ubbieva[2]
[2]Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Qoraqalpoq filologiyasi va jurnalistika fakulteti, qoraqalpoq adabiyoti kafedrasi dotsenti;
[1]Qoraqalpoq filologiyası va jurnalistika fakulteti 3-kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17631937

Annotatsiya. *Maqolada qoraqalpoq tilshunosligidagi frazeologizmlar haqida so‘z bo‘ladi. Qoraqalpoq tilida “yig‘lash” va “kulgi” konseptini bildiruvchi frazeologizmlar tahlilga tortilgan.*

Аннотация. *В статье рассматриваются фразеологизмы в каракалпакском языкознании. В каракалпакском языке были проанализированы фразеологизмы, выражающие понятия "плач" и "смех."*

Annotation*. The article discusses phraseologisms in Karakalpak linguistics. Phraseologisms expressing the concepts of "crying" and "laughter" in the Karakalpak language have been analyzed.*

Kalit sózlar: *frazeologiya, kognitiv pragmatika, yig‘lash, kulgi.*

Ключевые слова: *фразеология, когнитивная прагматика, плач, смех.*

Key words: *phraseology, cognitive pragmatics, crying, laughter.*

Tilshunoslikda leksik-frazeologik birliklarning semantikasiga oid tadqiqotlarda ularni ma’noviy guruhlarga bo‘lishning, tasniflashning tamoyillari, turli usullari maxsus tarzda o‘rganilgan.

D.I.Shmelov “Leksikani semantik tahlil qilish masalalari” asarida nafaqat leksikologiyani, balki frazeologiya masalalarini ham semasiologik jihatdan tahlil qiladi [1]. Qozoq olimi A.T.Qaydar: “Frazeologizmlarning aksariyat ko‘pchiligi ma’lum bir davrdagi kundalik turmushning natijasi sifatida shakllangan tildagi ko‘rinish. Bunday frazeologizmlarning shakllanishi hayvonlarga, o‘simliklarga, tabiat hodisalariga bog‘liq bo‘lsa-da, hozirgi kunda ularning barchasi inson turmushiga, uning fe’l-atvoriga, ichki-tashqi ko‘rinishiga aloqador,” - deb ko‘rsatadi [2]. Rus olimi I.P.Petrova ingliz tilidagi somatik fe’l frazeologizmlarni leksik-semantik jihatdan to‘qqiz guruhga bo‘lib o‘rgangan: harakat, jismoniy harakat, transfer, hissiy qabul qilish, konsessiya, so‘zlash, fikrlash faoliyati, qaror qabul qilish va baholash [3]. Qozoq tilida frazeologizmlarning semantikasi A.K.Mirzashova va M.Jambilqizining ishlarida o‘rganilgan [4]. Qoraqalpoq tilida frazeologizmlarning semantikasi S.T.Navrizbayeva, G.Aynazarova, A.Pirniyazova va J.Tanirbergenovlarning ishlarida o‘rganilgan [5].

Biz maqolada O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq yozuvchilari T.Qayipbergenov, Sh.Seytov va M.Nizanov asarlaridagi “yig‘lash” va “kulgi” konseptini ifodalovchi leksik-frazeologik birliklarning kognitiv-pragmatik tahlili haqida so‘z yuritamiz.

Yozuvchi T.Qayipberganov “Qoraqalpoqnoma” roman-essesida qoraqalpoq xalqining o‘tmishi, buguni, kelajagi haqida chuqur o‘ylaydi. M.Nizanovning “Tanlangan asarlar X jild” asarida o‘zining yangi yozgan qissasi, ilgari e’lon qilingan va e’lon qilinmagan publitsistik

maqolalari, olim va jurnalistlar bilan o‘tkazgan suhbatlari kiritilgan. Sh.Seytovning “Qochqin” qissasida Vatan urushi davridagi og‘ir qayg‘uni yenguvchi xalqning turmushi so‘z qilinadi. Bu asarlarning tili sodda, ta’sirli, obrazli bo‘lib, unda frazeologizmlarning badiiy vazifalari ma’lum o‘rin egallaydi. Ular orasida insonning ruhiy his-tuyg‘ulari va emotsiyalarini ifodalovchi frazeologizmlar asar tilida uning badiiyligini, obrazliligini ta’minlashda muhim xizmat bajaradi.

Frazeologizmlar o‘zining obrazliligi, chuqur ma’noliligi bilan har bir millat tilining faxri, boy xazinasi hisoblanadi. Yozuvchining tanloviga ko‘ra frazeologizmlar uning shaxsiy uslub yaratishdagi so‘z qo‘llashining bir usuli bo‘lib keladi. Frazeologizmlar badiiy asar tilini jonlantiradi.

“Inson o‘zining u yoki bu psixik, emotsional holatlarini yuzaga chiqarish jarayonida qandaydir bir hodisadan quvonadi, g‘azablanadi, tashvishlanadi, azoblanadi, afsuslanadi, hovliqadi, xavotirlanadi yoki qo‘rqishga tushadi, nafratlanadi, qarg‘aydi, so‘kinadi, hurmatsizlik qiladi, uyaladi, g‘azablanadi, e’tiborsizlik qiladi va h.k. Shu holatlarni ko‘rsatish maqsadida tilda har xil frazeologizmlar paydo bo‘lgan” [6]. “Yozuvchi o‘z asarida qahramonlarining psixologik holatlarini, o‘yini, ruhiy dunyosini aniq va nozik tasvirlash uchun frazeologizmlarni iloji boricha mosini tanlab olib ishlatishga harakat qiladi” [7]. Frazeologizmlarning bu ma’no turlari insonning ish-harakatga bo‘lgan har xil ijobiy va salbiy hissiy munosabatlarini ifodalashda keng qo‘llaniladi.

Yozuvchilarning asarlarida frazeologizmlarning bu ma’no turlari, asosan, qahramonlarning ruhiy holati, tashqi hodisalardan ta’sirlanishi natijasida paydo bo‘lgan ichki his-tuyg‘ularini ifodalab keladi. Ular ma’no jihatdan g‘azablanish, qahrlanish, yoqtirmaslik, nafratlanish, qo‘rqish, xavotirlanish, qiynalish, qayg‘urish, kuyunish, xafa bo‘lish, ranjish, xafa bo‘lish, afsuslanish, pushaymon bo‘lish, uyalish, tortinish, hayron bo‘lish, bezovtalanish, dovdirash kabi salbiy his-tuyg‘ularni badiiy qilib ko‘rsatishda qo‘llanilgan.

1. “Yig‘lash” konseptini ifodalovchi frazeologik birliklarning kognitiv-pragmatik tahlili.

Qiynalishni, qayg‘urishni, kuyishni bildiradigan frazeologizmlar. Asarlarda bunday ma’nodagi fe’l frazeologizmlar insonning tashqi va ichki hodisalardan ta’sirlanishi natijasidagi ruhiy azob chekishi, qiynalishi, o‘zining yoki boshqalarning xatti-harakatlaridan norozi bo‘lishi bilan bog‘liq psixik holatlarni ifodalashda qo‘llanilgan. Masalan: Sababi kattalardan ko‘p narsalarni o‘rganishga qancha urinsam ham, hech eplay olmay *ichim o‘rtanar edi* (T.Qayipberganov). Muhabbat - juda achchiq narsa, birdan og‘iz bossang, *ko‘zlaringdan yosh chiqaradi* (T.Qayipbarganov). Qizlarining bolalarini erkalab o‘payotgan ota-onasiga ko‘zi tushganda *ko‘z yoshini yummay-yummay to‘kar*, o‘zini gunohkor sezib, iloji bo‘lsa hech kimning nazariga tushmaslikka tirishar edi (M.Nizanov). Bechora jo‘ram tushimga kirib yuribdi, yo, ruhi gado bo‘lib yuribdimi?... deya berganda Nesibeli g‘amgin bo‘ldi, onasi bo‘lsa *bo‘zlab yubordi* (Sh.Seytov).

Afsuslanishni, pushaymon bo‘lishni bildiradigan frazeologizmlar. Bunday ma’nodagi frazeologizmlar odamning tashqi va ichki ta’sirlanishi natijasida pushaymon bo‘lishi bilan bog‘liq psixik his-tuyg‘ularini ifodalashda qo‘llanilgan. Masalan: Yordam so‘rab kelgan qalpoqli odam unga rozi kayfiyatda turib, unsiz chiqib ketadi, biroq u ketgan so‘ng ola do‘ppisining *ko‘zlariga yosh quyilib,* qayg‘uradi (T.Qayipbarganov). Uning shirin ko‘zlarining haroratiga chidamagan qariya podshoning *ko‘zlariga yosh quyilib* haqiqatni tan olishga majbur bo‘ladi (T.Qayipbarganov). Har kuni “Тихий час” men bilan haqiqiy uyqu soati edi, bugun u negadir *ichaklarimga ko‘z solgan* azob soatiga aylandi (T.Qayipberganov). Uni bosmachilar olib qochib kelayotgandagi tinchlikda boshiga boshini suyab, *yuzlarini porlagan yoshlari* yuvgan Tozagul:

“Qo‘sh qumrilardan bir uyada o‘samiz deb edik, Nesibeli-ey, nasibamizga ne bo‘ldi bizning?!...” (Sh.Seytov).

Bunday frazeologizmlarning barchasi ham badiiy asarning ekspressiv uyg‘unligini kuchaytiradi, emotsional bo‘yog‘ini oshiradi, kuchli hissiy ta’sirini paydo etadi. Ularning har birini qo‘llashda yozuvchining shaxsiy so‘z qo‘llash mahorati ko‘rinadi. So‘z ustasi har bir frazeologizmni puxtalik bilan qo‘llash orqali asar tilining ta’sirchan va badiiy bo‘lishiga erishadi.

2. “Kulgi” konseptini ifodalovchi frazeologik birliklarning kognitiv-pragmatik tahlili.

Quvonishni, shodlanishni bildiruvchi frazeologizmlar. Insonning ichki tuyg‘ularidan biri - quvonch. Bu sezgi har xil ichki yoki tashqi hodisalardan ta’sirlanish natijasida paydo bo‘ladi. Masalan: Bilasizmi, ba’zi artistlar tomoshabinlarini kuldirganiga *mast bo‘ladi* (T.Qayipbarganov). Aybdor ichki quvonchini zo‘rg‘a bosib, *ikki labi ochilishi* bilan qoziga burildi (T.Qayipberganov). Maspambet degan odamning yig‘ilishda mast bo‘lib o‘tirgani, bir nashavand cholning mushukni o‘tga bosdim deb to‘nini kuydirib olgani.... Xullas, har she’rini o‘qigan sayin *ichagimiz uzilguncha kuldik* (M.Nizanov). Avvalgisiga solib hech qaysisiga “qo‘zim, chirog‘im” demadi. Ichdan *og‘zi qulog‘ida* Oysuluv chiqdi (M.Nizanov). Daryoning narigi tomonidan qizga qarab suzib borayotgan yakka qayiqni ko‘rganda ko‘ngli tinch topib, *jilmayib qo‘ydi* (Sh.Seytov).

Ko‘ngli to‘lishni, rohatlanishni bildiruvchi frazeologizmlar. Insonning turli hodisalardan ta’sirlanishi natijasidagi rohatlanish, lazzatlanish, huzurlanish kabi ijobiy his-tuyg‘ularni ifodalaydi. Masalan: Sochi qora Bekjon ko‘pchilikning kulgisiga hech narsa demasdan, o‘zicha *miyig‘idan kuldi.* Uning hatto *jilmayishi,* sochi oqlarning ustidan siqaga o‘xshaydi (T.Qayipberganov). O‘qituvchi avvalgi “armiyaga olib ketdi” deganini eshitganda *qah-qah qilib kuldi,* so‘ng ko‘ylakni qaytarib berganini eshitib, darrov kulgidan o‘zini tiydi (M.Nizanov). Bir kuni tanaffusda bolalar devorga osilgan qandaydir bir plakatga engashib, *qah-qah qotib kulishib turar ekan* (M.Nizanov). Yangi egar-jabduqni olishga tayyorlanayotgan Nesibeli qichqirib yubordi: “Voy, sizlarga nima bo‘ldi!...” - Qo‘rqma, aytmayman: - deb *sovuq kuldi* Qonliqilich. (Sh.Seytov).

Bunday frazeologizmlarning har birida o‘ziga xos ekspressiv-emotsional bo‘yoq bor. Ularning ma’nolarining ranglarini kontekst orqali bilamiz. Shuning uchun ham so‘z ustalari o‘z asarlarida obraz yaratishda, voqea-hodisa yoki holatni badiiy obrazli, o‘tkir qilib ko‘rsatishda frazeologizmlarni mohirlik bilan tanlab qo‘llash orqali aytiladigan fikr har tomonlama aniq va badiiy qilib beriladi.

Xulosa qilib aytganda, frazeologizmlar ma’no jihatidan hayotiy xatti-harakatlarni tasvirlabgina qolmay, badiiy asarlarda davr koloritini ochib berishda qahramonning holatini, fe’l-atvorini ko‘rsatishda, milliy o‘ziga xosliklarni tasvirlashda ma’lum xizmat bajaradi. Odamning, jonli yoki jonsiz predmetlarning harakatlarini, harakat-harakat natijasida paydo bo‘lgan turli holat-holatlarni badiiy ifodalashda qo‘llaniladi. Shu bilan birga ular bir-biridan o‘ziga xos ma’no sifati bilan farqlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shmelov D.N. Leksikani semantik tahlil qilish muammolari. - M., 1973. - S. 9-10.
2. Qaydar A. Qozoq tilining o‘zakdagi masalalari. - Almati: Ona tili, 1998. - B.21.
3. Petrova I.P. Ingliz somatik iboralari va fe’llari bilan dunyoni kategoriyalash. Avtoref. dis... qand. filol. nauk. - M., 2012. - B. 6.

4. Mirzashova A.K. Qozoq va rus tillarida aqliy faoliyatning fe’lli frazeologizmlari.: Avtoref. diss...kand. filol. nauk. - Toshkent, 2000. - B. 9.
5. Jambilqizi M. Qozoq va ingliz tillaridagi frazalik etistiklarning semantik va tuzilish xususiyatlari. Falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tavsiya etilgan dissertatsiya. - Almati, 2018. - B. 64.
6. Naurizbayeva S.T. Qoraqalpoq-rus lug‘atida frazeologik birliklar. - Toshkent, 1972. - S. 52.;
7. Aynazarova G. Qoraqalpoq tilida teng ikki komponentli frazeologizmlar lug‘ati. - Nukus, 2020.
8. Tanirberganov J. Qoraqalpoq tilidagi fe’l frazeologizmlar (Monografiya). - Nukus, 2021. - B. 162.

QIZLARDA TOLERANTLIK TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHDA MAKTAB, OILA VA MAHALLA HAMKORLIGINING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Aripova Gulnora
Toshkent kimyo-texnologiya instituti, p.f.n., professor
https://doi.org/10.5281/zenodo.17631952

Annotatsiya. *Ushbu maqolada qizlarda tolerantlik (bag‘rikenglik) tafakkurini shakllantirishning dolzarbli masalasi, bu jarayonda maktab, oila va mahalla o‘rtasidagi samarali pedagogik hamkorlikning o‘ziga xos shart-sharoitlari tahlil qilingan. Maqola oila va ta’lim sohasi mutaxassislari, pedagoglar, psixologi va mahalla faollari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, yosh avlodda hurmat, qabul qilish va farqli qarashlarga nisbatan ochiqlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi integratsiyalashgan yondashuvlarni taklif etadi.*
Kalit so‘zlar: *Qizlar, tolerantlik, maktab, oila, mahalla, integratsiya.*
Аннотация. *В статье рассматривается актуальная проблема формирования толерантного мышления у девочек, анализируются конкретные условия эффективного педагогического взаимодействия школы, семьи и общества в этом процессе. Статья предназначена для семейных и образовательных специалистов, педагогов, психологов и общественных активистов и предлагает комплексные подходы, способствующие развитию у подрастающего поколения уважения, принятия и открытости к иным взглядам.*
Ключевые слова: *Девочки, толерантность, школа, семья, махалля, интеграция.*
Abstract. *In this article, the urgent issue of forming the mindset of tolerance in girls, the specific conditions of effective pedagogical cooperation between school, family and community in this process are analyzed. The article is intended for family and educational professionals, pedagogues, psychologists and community activists, and offers integrated approaches that serve to develop respect, acceptance and openness to different views in the younger generation.*
Key words: *Girls, tolerance, school, family, neighborhood, integration.*

O‘smir yoshdagi qizlarda tolerantlik tafakkurini shakllantirishda ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari, ya’ni oila, maktab, nodavlat tashkilotlari hamkorligining ta’minlanishi juda katta ahamiyat kasb etadi. Chunki xuddi mana shunday tartibda ta’lim jarayoni tashkil qilinganda qizlarda bilim olish uchun ham, bilimlarni sinab, tajribadan o‘tkazish uchun ham, bilimlarni o‘zgalarga ko‘rsatish uchun ham, bilimlarni hayotiy me’yor va axloqiy misollar bilan tasdiqlab olish uchun zarur pedagogik poligon yaratilgan bo‘ladi. Mazkur hamkorlik pedagogik jarayonning uzviyligi, bir biriga aloqadorligi, bir birini to‘ldirishi uchun juda katta imkon yaratadi. Qiz bola oilada olgan bilimlarini, maktabda olgan bilimlar bilan to‘ldirib boradi. So‘ngra nodavlat tizimlaridagi tashkil qilingan turli tadbirlar orqali, ularni tasdiqlaydi, hayotiy misollar bilan insonlar taqdirida o‘z bilimlarining nechog‘li zarur ekanligiga iqror bo‘ladi.

O‘zbek xalqi milliy qadriyatlari tizimida mahalla o‘ziga xos o‘rin tutadi. O‘zbek xalqi “Mahalla – ham onang, ham otang” deb bejiz aytmagan. Mahalla tizimi ko‘pchilik hollarda oilalarni inqirozlardan asrab qoluvchi vosita hisoblanadi.

Oilada o‘smir qizlar tolerantligini shakllantirishda ta’lim va tarbiya jarayonining uzluksizligi, davomiyligi, maqsadli tashkil qilinishi, kompleksliligi, oilaviy ta’limning maktab ta’limi jarayoniga integratsiya qilinganligi, oila ichida va oiladan tashqarida tolerantlik muhitining mavjudligi kabi omillarga aloqador tarzda rivojlantiriladi. Bu jarayonda tolerantlik fazilatlarini shakllantirish oila tizimi va maktab ta’limi tizimiga mutanosib tarzda, ta’lim jarayoni xususiyatlari va metodlarini nazarga olgan holda, ularning bir-birining mazmunini to‘ldirishini hisobga olgan holda tashkillantirilishi juda katta ahamiyat kasb etadi. Mahalla orqali esa qizlar turli inqirozli vaziyatlar yechimini ko‘radi, mahalladagi tadbirlar orqali qizlarning ilmiy bilimlari rang-barang hayotiy voqealar bilan boyitiladi. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, oila, maktab va mahalla tizimlari o‘rtasida tolerantlik mazmunining turli qirralarini shakllantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Buni quyidagi jadval orqali ham ko‘rsa bo‘ladi:

OILA, MAKTAB VA MAHALLA TIZIMLARIDA TOLERANTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING QIYOSIY XARAKTERISTIKASI

№	Ta’lim va tarbiya instituti	Tolerantlik xususiyatlari	O‘smir qizni shakllantirishdagi roli
1	**OILA**	Mehr va muruvvat, adolat, kechirimli bo‘lish, zo‘ravonlikdan qochish, samimiylik, ishonch, kattaga hurmat, kichikka izzat, qayg‘urish, yordamga tayyorlik, mehnatdan qochmaslik, qariyalarga yordam berish, rahmdillik, ko‘ngli ochiqlik, anglash va tushunishga harakat qilish qo‘nikmalari, boshqa odamning qarashi va nuqtayi nazarini eshitish va anglash, uni qabul qilishga urinish, konflikt vaziyatlarni tahlil qila bilish va ulardan chiqib ketish usullarini bilish, boshqa millat, elat va xalqlar madaniyati, urf-odati, kundalik turmushiga qiziqishni kuchay-tirish, ular haqida ma’lu-motlarni yig‘ish, faol shaxsiy nuqtayi nazarini shakllanti-rish, konfliktlar yechimiga o‘rganish	*Qiz bolani ochiq va samimiy muloqot olib borishini ta’minlaydi, uning muomala qilish ko‘nikmalari bilan qurol-lantiradi, qiz bolaning boshqalar dardi va yordamga muhtojligini xis qilishga o‘rgatadi, mujtojlarga nisbatan rahmdil munosabatni shakllantiradi, bolani kek saqlash, o‘zini katta tutishdan saqlaydi, boshqalar urf va odatlarini hur-matlashga o‘rgatadi, o‘zini teng tutishiga ko‘mak beradi, qiz bolani ziddiyatlardan asraydi*
2	**MAKTAB**	Fobiya, ksenofobiya, ekstremizm, radikalizm, madaniy dialog, polimadaniyat, monomadaniyat, olam va dunyoning madaniy boyliklari, insoniyat tarixidagi sivilizatsiyalar, diniy e’tiqod rang-barangligi, milliy rang-baranglik, olamning tabiiy va ijtimoiy rang-barangligi, millatlar va madaniyatlar rang-barangligini qabul qilish, turli xildagi odamlar va madaniyatlar ichida yashashni o‘rganish, o‘zining huquq va majburiyatlariga qo‘shimcha ravishda boshqalarning ham huquq va	*Qiz bolada ijtimoiy faollikni kuchaytiradi, ijtimoiy hodisalarga to‘g‘ri baho berishni ta’minlaydi, madaniy va tabiiy rang-baranglikni ilmiylik, tarixiylik va emotsional xis qilishga o‘rgatadi, boshqa millatlar bilan muloqot to‘g‘ri qilishini ta’minlaydi, qiz bolani ijtimoiy muhitga ko‘nikishi va yashashini ta’minlaydi.*

		majburiyatlari borligini anglash, o‘zga millat vakili bilan muloqot qila olish qobiliyatini shakllantirish, qiz bolani murakkab tuzilishli dunyoda faol yashashga amaliy jihatdan o‘rgatish.	
3	**MAHALLA**	Diniy aqidaparastlik, diniy riyokorlik, islom ekstremizmi, turli yot guruhlar, turli g‘oyaviy va mafkuraviy tahdidlar, mahalla orqali qiz bolani ijtimoiylikka o‘rgatish, jamoa bo‘lib yashash qadriyatlarini e’zozlash, mahalla tadbirlarida faol bo‘lish, hasharlar, to‘y xashamlarga borish ko‘nikmalarini egallash, “ayrilganni bo‘ri yer” mazmunini anglab yetish v.b.	*Qiz bolada ijtimoiy faollikni mustah-kamlaydi, uni jamoa fikri bilan uyg‘un-lashishini kuchaytiradi, o‘zgalar manfaatlarini ko‘rish va anglashga o‘rgatadi, birgalik va hamjihatlikka o‘rgatadi.*

Demak, oiladagi tolerantlik xususiyatlarining shakllantirilishi uning umumiy ilmiy mazmunining oila ta’limi, maktab ta’limi va mahalla ta’limi jarayonlari uchun mutanosib va maqsadli tarzda bo‘linishi hisobiga differensiatsiya qilinadi.

O‘smir yoshdagi qizlar tolerantligini shakllantirishda oila, maktab va mahallada hamkorligiga o‘zbek millatining o‘ziga xos milliy qadriyatlari asosida hamda maxsus dasturlar asosida tashkillashtirilishi juda katta pedagogik samaralar asosi bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Shu bois, tadqiqotda o‘smir yoshdagi qizlarning oila, maktab va mahalla hamkorligidagi milliy va umumbashariy omillarini nazarda tutgan holdagi tarbiyaviy modeli taklif qilindi. Mazkur model o‘smir qizlar tolerantligini shakllantirishda pedagogik maqsadning yoshlarga qaratilgan davlat siyosati va yosh qizlarni oilaga tayyorlash maqsadlari bilan uzviy bog‘lashga imkon yaratdi.

O‘smir qizlar tolerantligini shakllantirishda oila, maktab va mahalla hamkorligi yoshlarda quyidagi sifatlarni tarbiyalashga qaratildi: oilaga muqaddas va mas’uliyatli munosabat, oilani e’zozlash, ma’naviy barkamollik, tolerantlik asosidagi axloq normalari, oilada o‘zaro munosabatlar va muloqot madaniyati, tashabbuskorlik, faollik, ijodkorlik, tibbiy va ma’naviy sog‘lomlik, jismoniy va ruhiy barkamollik, yetakchilik va tadbirkorlik, o‘zaro muhabbat, adolat, insonparvarlik, insoniylik, to‘g‘rilik, kamtarlik, samimiylik, ota-onaga hurmat, mehr-muruvvat, sahovat, bag‘rikenglik, sadoqat, vafodorlik, gunoh ishlardan qochish, sabr-toqat, o‘z va’dasi ustidan chiqish, ilmli bo‘lish, iffat, rostgo‘ylik, pokizalik, halollik, himmat va bardoshlilik, xushxulqlilik, shukr, hayo, tejamkorlik, halimlik, viqor, rahm-shavqat va shukronalik.

O‘smir qizlar tolerantligini shakllantirishda quyidagi tarbiyaviy vositalardan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligi aniqlandi:

a) oiladagi tolerantlik shaxsiy tolerantlik va jamiyatdagi tolerantlik jarayonlariga qanday ta’sir ko‘rsatishini keng va amaliy misollar bilan tushuntirish;

b) atoqli kishilar, allomalar, badiiy asarlar va kino filmlar qahramonlari hayotidan olingan dalillar orqali tolerantlik g‘oyalarini targ‘ib qilish;

v) xalq og‘zaki ijodi namunalari, milliy qadriyatlar tizimi va islom dini, boshqa dinlar tarixida tolerantlik bo‘yicha bildirilgan fikrlarni tushuntirish va targ‘ib qilish;

g) oilaviy udumlar va an’analar tizimida tolerantlik g‘oyalarini qizlar tafakkuriga singdirish, ularning tolerantligini kuchaytirish va takomillashtirish;

d) ota-onalarning tolerantlik borasidagi bilim va malakalarini kuchaytirish, ular uchun mahallada maxsus seminar-treninglar tashkil qilish.

Mahalla tizimi orqali oila va qizlar tolerantligini shakllantirishda maxsus dasturlar va ish rejasi orqali faoliyat yurgizish, faoliyat doirasiga seminarlar, treninglar, davra suhbatlari, o‘zaro muloqotlar, mutaxassislar bilan maxsus uchrashuvlar, ibratli oilalar targ‘iboti, ko‘rik tanlovlar o‘tkazish, anketa-so‘rovnomalar asosida aholi qatlamlari ichidagi ijtimoiy muammolarni aniqlash kabi shakllar samarali natijalarni beradi. Mahalla bunday tadbirlarni o‘tkazishda jamoa orasidagi qiziqishni va ixtiyoriy tarzdagi manfaatdorlikni hisobga olishi zarur bo‘ladi. Mana shunday tarzda oila, maktab va mahalla hamkorligi o‘rnatilganda pedagogik ish faoliyatining samaradorligi oshiriladi. Shu bois, maktab va mahalla tizimi orqali oiladagi o‘smir yoshdagi qizlar tolerantligini shakllantirish faoliyatini quyidagi individual va ommaviy tadbirlar orqali olib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi: - *ommaviy tadbirlar;* - *guruhlar bilan ishlash;* - *yakka tartibda ishlash;* - *oilalar bilan maxsus ishlash.*

O‘smir yoshdagi qizlar tolerantligini shakllantirishda diniy omil, din va davlat munosabatlarini to‘g‘ri va mutanosib anglatishni nazarda tutadi, shuningdek, sof diniy aqidalar tarkibidagi insonparvarlik omillarini o‘z mazmuniga qamrab oladi. Diniy aqidaparastlikning qoralanishi va inkor etilishi yuqorida ko‘rsatilgan ikki jihat: din va davlat munosabatlari va sof diniy aqidalar nuqtayi nazaridan ham zamonaviy talabga javob berishini yosh qizlarga kengroq tushuntirilishini talab etadi. Ana shu ikki jihatni aloqadorlikda va bir-birini to‘ldirish asosida yoshlar ongiga singdirish qizlar tafakkurini dunyoviylik va tolerantlik asosiga qurish imkoniyatini yaratadi.

Diniy marosim va urf-odatlar mazmunini to‘g‘ri anglash, ularning qaysi birlari odat, qaysilari farz ekanligini bilish, amri ma’ruf, mavlud, aqiqalar, motam marosimlari bilan bog‘liq an’analarni o‘tkazishga qo‘yiladigan sog‘lom islom talablarni qabul qilish, umuman islom diniga bo‘lgan munosabatni dunyoviylik asosida talqin qilish kabi masalalar ham oiladan tashqarida maktab tizimi va mahalla tizimi orqali o‘smir qizlar ongida shakllantirilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023-yildagi PF-158-sonli O‘zbekiston – 2030 strategiyasi
2. Валитова Р.Р.Толерантность как этическая проблема. Автореф. дисс... канд. филос. Наук. –М.: 1997. - 20 с.
3. Бағрикенглик тамойиллари Декларацияси. ЮНЕСКО ваколатхонаси нашри. Нашр учун масъуллар: А.Саидов, К.Жўраев. -Т.: Юнеско, 1999. – 15 б.
4. Арипова Г.Ш. “Оилада ўсмир ёшдаги болаларда толерантлик тафаккурини шакллантириш”. Пед.ф.д. ... дисс.автор. –Тошкент, 2011. – Б. 32
5. Арипова Г.Ш. “Оилада ўсмир ёшдаги болаларда толерантлик тафаккурини шакллантиришнинг педагогик асослари” номли монография –Тошкент: Тошкент ислом университети. 2010. –128 б.

YOSH AVLODNI MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASHDA OILANING O‘RNI

Baxriddinova Nasiba Murodovna
Buxoro davlat texnika universiteti, “Sanoat ekologiyasi va gidrologiya “kafedrasi dotsenti,t.f.n.,
universitet xotin-qizlar maslahat Kengashi raisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17632001

Annotatsiya. *Maqolada yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda oilaning o‘rni to‘g‘risida ma’lumot berilgan. Oilaning muqaddasligi,oilani mustahkamlash borasidagi vazifalar keng yoritilgan. Oilaviy qadriyatlarning ahamiyati,ota-ona,farzand munosabatlari batafsil bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *oila, sog‘lom va barkamol avlod, mehr-oqibat, odamiylik,*

Аннотация. *Роль семьи в воспитании подрастающего поколения в духе национальных ценностей. В статье представлена информация о роли семьи в воспитании подрастающего поколения в духе национальных ценностей. Широко освещаются святость семьи, задачи её укрепления. Подробно рассматриваются важность семейных ценностей, детско-родительские отношения.*

Ключевые слова: *семья, здоровое и гармонично развитое поколение, доброта, человечность,*

Annotation. *The role of the family in the upbringing of the younger generation in the spirit of national values. The article provides information about the role of the family in raising the younger generation in the spirit of national values.The duties on the holiness of the family,strengthening the family are widely covered. The importance of family values,parent,child relationships are detailed.*

Keywords: *family, healthy and harmonious generation, kindness, humanity*

Oila – muqaddas va qutlug‘ dargoh. Inson shu dargohda tug‘iladi va voyaga yetadi. Oilani jamiyatning kichik bir bo‘g‘iniga qiyoslash mumkin. Ma’lumki, oila – insonning tug‘ilishidan to umri poyoniga qadar bo‘lgan hayot mazmunini qamrab olgan, ta’lim-tarbiya, iymon-e’tiqodning asosiy poydevori shakllanadigan maskan. Mehr-oqibat rishtalarini, odamiylik mezonlarini, milliy qadriyatlarni e’zozlab-avaylaydigan, kelgusi avlodlarga to‘kis yetib borishini ta’minlaydigan mo‘tabar dargoh. Yurtimizda oilani mustahkamlash, sog‘lom va barkamol avlodni kamol toptirish borasida izchil va samarali chora-tadbirlar doimiy ravishda amalga oshirilib kelinmoqda.

Xususan, yangilangan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida avvalgi “Oila” bobi – “Oila, bolalar va yoshlar” deya qayta nomlandi, shuningdek ushbu bobga qo‘shimcha ravishda yoshlarga oid alohida modda kiritildi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 76 moddasida: “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir”, deyilgan.Buyuk ma’rifatparvar bobolarimiz ta’kidlaganidek, tarbiya, avvalo, oiladan boshlanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-madaniy muhit sog‘lom qaror topgan oilada bolaning ongi yaxshilik, ezgulik, mehr-oqibat, odamiylik, or-nomus, g‘urur, samimiyat, to‘g‘riso‘zlik kabi fazilatlar bilan to‘lib, jamiyatga kerakli inson sifatida voyaga yetadi.

O‘zbek oilasi o‘zida qadimiy ma’naviy qadriyat va an’analarni, udum va rasm-rusumlarni, ma’naviy-madaniy merosni saqlab kelgan va kelmoqda. Shuningdek, ayol-qizlar haq-huquqini e’zozlash, oila daxlsizligi va mustahkamligiga erishish, ota-onalarning farzand oldidagi, farzandlarning esa ota-ona oldidagi burchi, qizlarni oilaviy turmushga tayyorlash xususida ham ibratomuz fikrlar mavjud. Har bir oila o‘zining farzandlari orqali millatning ma’naviy merosini saqlaydi va rivojlantiradi.

Oila milliy o‘zlikni, an’ana va urf-odatlarni kelgusi avlodlarga etkazuvchi uzluksiz zanjirdir. Shu sababli, har bir oilaning mas’uliyati – nafaqat o‘z a’zolari farovonligini ta’minlash, balki jamiyatga foydali kishilarni yetishtirishdan iboratdir. Oilaviy qadriyatlar mustahkam bo‘lgan jamiyatda adolat, mehr-muruvvat va birdamlik kuchayadi. Qadriyatlarni shakllantirishda kitob o‘qish, oilaviy suhbatlar, milliy an’analar va urf-odatlarni nishonlash kabi faoliyatlar ham muhim ahamiyatga ega. Farzand tarbiyasi ota-onaning bosh vazifasidir, bolaga go‘zal tarbiya berish ota-onalikning birinchi mas’uliyatidir. Farzand tarbiyasi ota-onaning bosh vazifasidir, bolaga go‘zal tarbiya berish ota-onalikning birinchi mas’uliyatidir. Oilaviy tarbiyaning maqsadi shaxsda hayot yo‘lida uchraydigan turli sinov va to‘siqlarni mardona yengib o‘tishga yordam beradigan xislatlarni shakllantirishdir.

Oiladagi eng muhim tamoyillardan biri bu – hurmat va ehtiromdir. Ota-onaga hurmat ko‘rsatish nafaqat oilaviy tarbiya, balki milliy qadriyatimizning asosiy mezonidir. Ota-ona hayotining asosiy maqsadi farzandlarini barkamol inson sifatida voyaga yetkazishdir. Farzandlar esa, o‘z navbatida, ota-onasining mehnati va fidoyiligini qadrlashlari, ularga hurmat bilan munosabatda bo‘lishlari lozim. Oilaviy hayotda ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi hurmat oila a’zolarining bir-birlariga nisbatan mehribon va hamdard bo‘lishlarini ta’minlaydi.

Ota-ona farzandlariga namunali tarbiya bera olishi uchun ularga nafaqat moddiy, balki ma’naviy qo‘llab-quvvatlash zarur. Farzandlar esa, o‘z navbatida, ota-onalarining duolarini olishga va ularni rozi qilishga intilishlari lozim. Oilada hurmat tamoyili mustahkam bo‘lsa, unda nizolar va kelishmovchiliklar kamroq uchraydi.

Oiladagi sog‘lom muhitni ko‘pincha ayol belgilaydi. Er oilani iqtisodiy ta'minlashdan tortib, barcha og‘ir yumushlarni bo‘yniga olar ekan, xotin zimmasida ovqat pishirishdan tortib,bola parvarishiga bo‘lgan juda nozik did talab qiladigan ishlar tushadi va ularni bajarishni o‘z burchi deb biladi. O‘zbek oilalarida bunday munosabat ortiqcha shov-shuvsiz, tabiiy ravishda amalga oshiriladi. Bir –biriga ahil oila jamoasini tashkil qila bilish oila tarbiyasining muhim omillaridan biridir. Shuningdek, bolani tarbiya qilishda ota-onaning o‘zaro maslahatlashib, unga bir xilda ta'sir ko‘rsatishlari zarurdir.

Bizning mamlakatimizda oila – muqaddas dargoh, nikoh esa buzilmas rishta sifatida qaraladi. Zero, oila va oilaviy baxtga erishish, juft bo‘lib hayot kechirishning ijobiy tomonlari ilmiy asoslangan. Bizning davrimiz oilalarimizga zamonaviy texnologiya va jahonning rivojlangan davlatlarida yuz berayotgan o‘zgarishlar haqidagi tasavvur va qarashlar hamda turli axborot oqimlarining kirib kelayotganligi bilan ajralib turadi.

Shuning uchun ta'lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida yoshlarga oilaning jamiyatda tutgan o‘rrni, nikoh, yigit va qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning o‘ziga xos xususiyatlari, tinch va farovon oilani barpo etishda oila a'zolarining o‘zaro munosabatlari, oilada vujudga keladigan turli holatlarning oldini olish, farzand tarbiyasida er-xotinning gender tengligi yuzasidan bilim, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish ham zarur.

Turmushga chiqayotgan qiz bola avvalom bor irodasini tarbiyalay olishi kerak bo‘ladi. Shuni unutmaslik kerakki, iroda tarbiya va mashqga muhtoj bo‘ladi. Xalqimiz tili bilan

aytadigan bo‘lsak, oilaviy hayotda suv kelsa simirib, tosh kelsa kemiriladi. Oila sirini tashqariga chiqarmaslik, oila mustahkamligini saqlashga harakat qilishda irodani ahamiyati beqiyosdir desak xato bo‘lmaydi.

Qiz bola turmush qurganidan so‘ng uni ijtimoiy muhitdagi mavqe tubdan o‘zgarishi asosida unga nisbatan boshqalarni va o‘zini o‘ziga bo‘lgan munosati o‘zgarishi tabiiy hol. Mazkur o‘zgarishga nisbatan o‘zida ishonchni shakllantira olgan qiz bola yangi oilasida qisqa muddatda o‘z o‘rniga ega bo‘la oladi. Yangi mavqega moslashish albatta, tajriba bilimlarga asoslanadi. Shuning uchun qiz bola o‘zidan oldin kelinlik mavqeiga ega bo‘lganlarni yutuqlari va kamchiliklarini tafakkurida aqlan tahlil qilib o‘zi kelin bo‘lgach amalga oshiradigan hatti-harakatlarini tassavur eta olishi kerak.

Milliy urf-odatlarimizga ko‘ra ko‘pgina hollarda qizlarni oila qurishiga uni qurshab turgan ijtimoiy muhitning ta’siri katta bo‘ladi. Kuyov tomonidan sovchilar kelishadi, milliy qadriyatlarimizga ko‘ra qiz bolani roziligi ham so‘raladi. Yigit bilan qiz bola to‘ydan oldin albatta, uchrashtiriladi. Qiz bola kuyovlikka da’vogar yigit bilan uchrashganda diqqat-e’tiborini jamlagan holda bir-birinni o‘ranishi lozim bo‘ladi. Chunki yoshlar bir-birini tushunib,o‘zaro hurmat va muhabbat asosida qurilgan oila mustahkam bo‘ladi.

Mamlakatimizda hozirgi davrda kelajak tarbiyachilari bo’lmish qizlar kamolotiga katta ahamiyat berilmoqda. Oliygohlarda ta’lim olayotgan 1 million 300 ming nafarga yaqin talabaning yarmidan ko’pini qizlar tashkil etmoqda. Ehtiyojmand oilalarga mansub xotin-qizlar qo’shimcha davlat granti bo’yicha o’qishga qabul qilinmoqda. Ular uchun imtiyozli ta’lim kreditlari ajratish, ijtimoiy himoyaga muhtojlarning kontrakt pulini qoplab berish yo’lga qo’yilgan.

Yurtimiz xotin-qizlari ilm-fan sohasida ham katta natijalarga erishmoqdalar. So’nggi yetti yilda 5 ming 247 nafar ayollar ilmiy darajalar olgan. “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida ta’lim olgan yoshlarning 47 foizini qizlar tashkil etgan. Yurtboshimiz SH.M. Mirziyoev aytganlaridek” Ayollarning, xususan, qiz bolaning o’qib, oliy ma’lumotli bo’lishi, kasb-hunar egallashi oila baxti, farzandlar kamoli uchun, shu asosda butun jamiyat ravnaqi uchun xizmat qiladi”.

Foydanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevraldagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5325-sonli Farmoni
2. O. Musurmanova, H.Norqulov, F.Abduraximova “Mahallada oila farovonligi;milliy qadriyatlar va odob durdonalari”,T: Mahalla va oila nashriyoti,2024
3. M.Qaxxorova,F.Abduraximova,O.Musurmanova,B.Farfiyev,F.Rashidov,O‘Palvanov”Oila va nikoh munosabatlari mustahkamligining dunyoviy va diniy asoslari” T:Mahalla va oila nashriyoti,2024

FITRATNING “OILA”ASARIDA AYOLLAR MASALASI

Bekchanova Sayyora Bazarbaevna
Nukus DPI O‘zbek adabiyoti kafedrasi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.
https://doi.org/10.5281/zenodo.17632026

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Abdurauf Fitratning “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” asaridagi ayollar masalasiga baǵishlangan jihatlari haqida bahs etildi. Fitrat asarida dunyoda yashash va ishlash uchun hamisha insonlar o‘zaro muloqotda bo‘lishlarini bayon qilib, ayollarning ilm olishlari shartligini uchta yo‘nalish asosida keltirishi, misollar asosida isbotlanganligi tahlilga tortildi.*

Kalit so’zlar: *Fitrat, oila, ayollar masalasi, ilm olish.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются аспекты труда Абдурауфа Фитрата «Семья или процедуры управления семьей», связанные с женской проблематикой. В работе Фитрата объясняется, что люди постоянно общаются друг с другом, чтобы жить и работать в этом мире, а также анализируется необходимость женского образования в трёх направлениях и на примерах.*

Ключевые слова: *Фитрат, семья, женский вопрос, образование.*

Abstract: *This article examines aspects of Abdurauf Fitrat’s work “Family or Family Management Procedures” related to women’s issues. Fitrat's work explains that people constantly communicate with each other to live and work in this world, and also analyzes the need for female education in three directions and through examples.*

Key words: *Fitrat, family, women's issue, education.*

Fitrat O‘rta Osiyo jadidchilik harakatining mashhur vakili hisoblanadi. Abdurauf Abdurahmon o‘ǵli Fitrat 1886 yil Buxoroda ziyoli oilada tuǵilgan. Buxoro, Istambul madrasalari va dorilfununlarida o‘qigan. Fitrat arab, fors, turk tillarini mukammal bilganligi tufayli Sharqning buyuk allomalari ijodini yaxshi o‘zlashtirgan.

Adibning otasi savdo ishlari bilan shuǵullangan bo‘lib, 1918 yilgacha Qashqarda turib qolgan. U asosan, onasi Mustafo bibi (Bibijon) tarbiyasida bo‘lgan. Mustafo bibi Sharq adabiyotini yaxshi bilgani tufayli Bedil, Navoiy, Fuzuliy, Zebuniso, Uvaysiy kabi ulkan shoirlarning ǵazallaridan xabardor bo‘lgan. Fitrat 1909 yili Turkiyaga o‘qishga borib, 1913 yilgacha Istambul dorilfununida tahsil ko‘rgan. 1923-1924 yillarda Moskvadagi Sharq tillari institutida ilmiy faoliyat bilan shuǵullangan, ma’ruzalar o‘qigan. Fitratga o‘zbek olimlari orasida birinchilardan bo‘lib professor unvoni berilgan.

Abdurauf Fitratning “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” asari oilaning paydo bo‘lishi, uning jamiyatdagi o‘rni va ahamiyati, oilada amal qilinadigan ichki tartib va qoidalarga baǵishlangan. Ayniqsa, asarning *“Uylanish yoki uylanmaslik xususida”, “Qalin (puli) va to‘y qanday bo‘lishi lozimligi haqida”, “Er-xotinning qanday yashamoqliklari xususida”, “Oilaning maishati va idorasi”* qismlarida bu masalalar xususida atroflicha fikr yuritilgan.

Abdurauf Fitrat ushbu asarida har bir yangi oila uchun qo‘llanma vazifasini o‘tashi mumkin bo‘lgan masalalarni yoritadi. U vatanparvarlik va millatparvarlik tamoyillaridan kelib chiqib, kitobning birinchi qismiga, ma’lum ma’noda me’yoriy dasturilamal tarzida tartib beradi. Undan har bir yangi oila qurmoqchi bo‘lgan turkistonlik kichik hajmdagi axloqiy-maishiy, gigienik-salomatlik qomusi sifatida foydalanishi mumkin edi. Bundan tashqari, asarda oilaning

moddiy tomonlari, tashkil topgandan boshlab, buzilishigacha bo‘lgan holatlarning axloqiy asoslari to‘ǵrisida ham to‘xtalib o‘tadi. Bu jihatlarni o‘sha davr nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak juda ijobiy jihat hisoblanadi. Chunki, bu davrda Turkistonda xali medicina unchalik rivojlanmagan, kishilarning turmush madaniyati ham u qadar yuqori emas edi. Fitrat ko‘plab xorijiy davlatlarda bo‘lganligi sababli, u erdagi ijobiy, o‘rganish zarur bo‘lgan, turmush tarziga oid juda ko‘p tajriba ortirgan edi.

Abdurauf Fitratning axloqiy qarashlari, milliy o‘zlikni anglash haqidagi ǵoyalari asosan o‘zining “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” nomli asarida berilgan. Ushbu asar 1914 yilda yozilgan. “Oila” asari o‘sha davr shiddatini o‘zida mujassamlashtirgan asar hisoblanadi. “Oila” asarida tanqidiy ruh va da’vat ruhi kuchli. Ushbu asardagi asosan ayollar masalalari haqida fikr yuritishni lozim deb topdik. Bunda asosan ayol –qizlarimizning ilm olishlari nima uchun zarur deb hitob qiladi unga olim har bir yo‘nalishni diniy va dunyoviy ilmlar bilan asoslab beradi.

Asarning “Qizlar ham ilm olishlari kerakmi” bobida qizlarning ilm olishlari nimaga kerak deydi va bunga javoban o‘zining aniq dalilari bilan masalaga oydinlik kiritadi.

Fitrat asarning ushbu bobida dunyoda yashash va ishlash uchun hamisha insonlar o‘zaro muloqotda bo‘lishlarini bayon qilib, ayollarning ilm olishlari shartligini uchta yo‘nalish asosida keltiradi. Birinchidan deydi: “Ilmli ayol ertadan kechgacha ro‘zǵor tebratish uchun ko‘chada ishlaydigan erini kutib olish, to‘ǵri muomalada bo‘lish madaniyatini o‘rganishi lozimligi uchun ham ilm olishi zarur deb hisoblaydi. *“Ilm olish har bir odam uchun diniy va dunyoviy majburiyatlarga kirar ekan, ayollar ham ilm o‘rganishlari shartdir” (126 bet)*Bundan tashqari yana shunday keltiradiki:“*Ilmli va tarbiya ko‘rgan ayollar bu ishlarni ortiǵi bilan bajarib, erlarni mamnun qiladilar, ammo tarbiya ko‘rmagan bilimsiz ayollarga uylangan erkaklar bunday ilohiy ne’matdan ajrab qoladilar.”(127-bet)*

Ikkinchi jihat sifatida shuni ko‘rsatadiki, farzandlarimiz kelajagi, ilmli, bilimli bo‘lishi ko‘p jihatdan onalarga boǵliq. Bu masalada ham olimning quyidagi fikrlari juda ahamiyatlidir. *“Bu matlabga erishish uchun xotinlarimiz va qizlarimiz –millat onalari tarbiya va ilm olishlari lozim, axloq va bilimlarini kamolga etkazishlari zarur. Aks holda xotinlarimiz erkaklardan ham qo‘rqoqroq, zaifroq va ǵayratsiz bo‘lganlarida bolalarimiz ham ularga o‘xshab ketadilar.” (128*-bet) o‘z fikrlarini Qur’oni karimdagi quyidagi oyat orqali dalilab ketadi. *“Pokiza erdan toza va foydali o‘simlik oson o‘sadi va pokiza bo‘lmagan erdan xor-xasdan boshqa narsa chiqmaydi.”* (Qur’oni karim.A’rof surasi 58-oyat)

Uchinchi yo‘nalish sifatida Fitrat shuni alohida ta’kidlaydiki, agar bo‘lǵusi onalarimiz tibbiyot va bola tarbiyasi xususida dastlabki bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lmasa bu millat farzandlarining ahvoli xarob va tanazullaga yuz tutadi deydi. *“Ona soǵliqni saqlash va va bolalar tarbiyasidan xabardor bo‘lmasa, bu qoidalarni bajara olmaydi. Bu johillik va nodonlikning natijasida mamlakatimiz bolalarining yarimidan ko‘proǵi nobud bo‘ladilar, qolganlari esa axloqi yomon va ishyoqmas bo‘ladilar” (128*-bet)

Shu o‘rinda bir narsani alohida ta’kidlash kerakki, Fitrat ayollarning homiladorlik paytlarida nimalarga alohida e’tibor berishlari zarurligi to‘ǵrisida ham alohida bir bob qilgan. “Homiladorlik davri” bobida ayollarning nimalarga e’tibor qilish kerakligi haqida batafsil to‘xtalib o‘tgan. *“Homiladorlikning ikkinchi oyidan to‘rtinchi oyigacha ko‘p onalar bola tushiradilar. Buning sabablari qo‘rquv, kamquvvatlik, oǵir ishlarni bajarish, birga bo‘lish va ko‘p qayǵurish bo‘ladi”.*Fitrat har bir keltirgan fikrini ilmiy asoslar bilan tibbiyot nuqtai nazaridan o‘z qarashlarini bayon qilib ketadi. Erkaklar homilador ayollarga alohida e’tibor qilishlari, ularni hafa bo‘lishlariga yo‘l qo‘ymasliklari aytiladi. Ayniqsa bu davrda bola

yo‘qotishga yo‘l qo‘ymaslik uchun kam quvvatlikdan saqlanish lozimligi aytiladi. Bundan tashqari ovqatlanish masalalariga diqqat qaratish lozimligi ta’kidlanadi. *“Ko‘proq bahavo joylarda bo‘lib, tez hazm bo‘ladigan, kuchli masalan, sut, parranda go‘shti, tuxum iste’mol qilishlari zarur. Palov, quruq non kabi badhazm ovqatlardan parhez qilishlari lozim”* Ko‘rinadiki homiladorlik davridagi eng nozik nuqtalar ham olim nazaridan chetda qolmaydi.

Darhaqiqat, davlatimiz kelajagi ham, rivojlangan mamlakatlar orasida tutgan mavqei va salohiyati ham, dunyoqarashi, bilimi, aql-zakovati, Vatan, jamiyat va oila oldidagi burchi va mas’uliyatini teran anglashi, bugungi avlodga boǵliqdir. Zero bilim va kasb-hunarga qiziqish, ota-onaga xurmat, do‘stga sadoqat, mehr-shafqat, halollik va poklik kabi axloqiy fazilatlar oilada shakllanadi va sayqal topadi.

Oilada ayollarga munosabat haqida to‘xtalib, Fitrat quyidagi rivoyatni keltiradi: *“Oysha (r.a.) rivoyat qiladilar. Nabiy alayhissalom dedilar: “Eng komil mo‘minlar xushhulq va oilasi bilan lutf ila munosabat qiladiganlardir. Wz xotinlariga mardikarim yaxshilik qiladi va mardilaim yomonlik”*. Fitrat nazarida mamlakat taqdiri va istiqboli barkamol farzandlarni tarbiyalash bilangina belgilanmaydi. Mazkur asarda millatning ma’rifatparvarligi ayollarga bo‘lgan munosabatda ham yorqin namoyon bo‘lishi qayta-qayta ta’kidlangan.

Muallif millat taqdirini, uning baxt-saodatini jamiyatdagi oilaviy munosabatlar kamoli bilan boǵlaydi. Uning fikriga ko‘ra, dunyoda izzat va saodat tolibi bo‘lmagan birorta qavm yo‘q. Qaerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shunchalik kuchli va mustahkam bo‘ladi. Fitrat millat kamchiligi sifatida iqtisodiy savodsizlikni keltiradi. Masalan, “*Qalin (puli) va to‘y qanday bo‘lishi lozimligi haqida” deb nomlangan bobida bizning odamlar butun umr yiqqan mol-dunyosini bir kunlik to‘yga sarflashini, qaerdagi bemaza orzu-havaslarga berilib isrofgarchiliklarga yo‘l qo‘yishini”* qattiq tanqid qiladi. Mutafakkir to‘yni kichik davrada isrofgarchiliksiz o‘tkazib, undan qolgan mablaǵni yoshlarni ilm olishlariga, soǵliklarga sarflashlarini ta’kidlaydi. E’tibor berib qaraydigan bo‘lsak, Fitaratning ushbu fikrlari xali ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Sababi, bugun ham jamiyatimizda bema’ni orzu-xavaslar deb, isrofgarchiliklarga ko‘p pul sarflayotgan kimsalar xali ham mavjud. Buning asosiy ishtirokchilari va boshlovchilari ham ming afsuski ayollar ekanligi achinarli xolatdir. Iqtisodiy savodsizlik ko‘plab ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarishini ham muallif alohida ta’kidlaydi. Masalan, hamma pul to‘yga sarflangandan keyin yosh oilalar ro‘zǵor tebratishga qiynaladi. Qarz-xavola qilib o‘tkazilgan to‘yni qarzlari to‘lanadimi yoki ro‘zǵor tebratiladimi. Bu kabi muammolar bugun ham yo‘q emas.

Fitratning “Oila” asari tom ma’noda insoniyatning butun yosh davrlarida, hoh u katta yosh bo‘lsin hoh o‘rta yosh bo‘lsin har biri uchun hayotiy qo‘llanma vositasini bajaruvchi asardir. Fitrat asar mazmunini yuksak axloqiylik usutun bo‘lgan joyda erksevarlikning qa’tiy bo‘lishini ilmiy va amaliy misollar orqali ochib bergan. Xalqini ozod ko‘rish, ya’ni milliy mustaqillik mafkurasi kitobning ruhiga singdirib yuborilgan. Uni o‘qigan kitobxon nafaqat axloqiy fazilatlar nimalardan iborat va ularga qanday erishish kerakligini, balki milliy ozodlik, shaxsiy erkinlik nima-yu, uni qanday qilib qo‘lga kiritish mumkinligini anglab oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Boltaboev H. Fitrat va jadidchilik. Alisher Navoiy nomidagi Wzbekiston Milliy kutubxonasi nash riyoti.– T. 2007. 33-bet.
2. Abdurauf Fitrat. “Oila yoki oila boshqarish tartiblari”. – T., “Ma’naviyat”. 1998. 112 bet.
3. Abdurauf Fitrat. “Oila yoki oila boshqarish tartiblari”. Ikkinchi nashr. – T., “Ma’naviyat” .., 2000. 4-bet.

O‘SMIRLARDA GENDER IDENTIKLIK SHAKLLANISHIDA BIOLOGIK, PSIXOLOGIK VA IJTIMOIY OMILLARNING TA’SIRI

Manzura Daminova[1], Tilovova Dildora[2]
[1]Qarshi davlat universiteti doktoranti, Osiyo texnologiyalar universiteti o‘qituvchisi;
[2]Osiyo texnologiyalar universiteti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 1-kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17632068

Annotatsiya. *Maqolada o‘smirlarda gender identiklik shakllanish jarayoni va unga ta’sir etuvchi biologik, psixologik hamda ijtimoiy omillar tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, biologik omillar jinsiy rivojlanishning tabiiy asosini yaratsa, psixologik va ijtimoiy omillar uning mazmuni va namoyon bo‘lish shaklini belgilaydi. O‘smirlarda gender identiklikning barqaror shakllanishi uchun oila, ta’lim muassasasi va jamiyatning uyg‘un hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar: *gender identitlik, o‘smirlik, biologik omillar, psixologik omillar, ijtimoiy muhit, jinsiy rol.*

Аннотация. *В статье рассматривается процесс формирования гендерной идентичности у подростков и влияние на него биологических, психологических и социальных факторов. Результаты исследования показывают, что биологические факторы создают естественную основу полового развития, тогда как психологические и социальные факторы определяют содержание и формы проявления гендерной идентичности. Для устойчивого формирования гендерной идентичности подростков важно гармоничное взаимодействие семьи, образовательных учреждений и общества.*

Ключевые слова: *гендерная идентичность, подростковый возраст, биологические факторы, психологические факторы, социальная среда, личностная идентичность, половые роли.*

Abstract. *The article examines the process of gender identity formation in adolescents and the influence of biological, psychological, and social factors. The study results indicate that biological factors provide the natural basis for sexual development, while psychological and social factors shape the content and expression of gender identity. Harmonious interaction between family, educational institutions, and society plays a crucial role in fostering stable gender identity among adolescents.*

Keywords: *gender identity, adolescence, biological factors, psychological factors, social environment, personal identity, gender roles.*

Kirish. Hozirgi globallashuv davrida insonning ijtimoiy va shaxsiy o‘zligini anglash masalalari orasida gender identiklik muammosi dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Gender identiklik — bu shaxsning o‘z jinsiga mansubligini anglash, qabul qilish, shu asosda jamiyatda muayyan rolni bajarish, o‘zini shaxs sifatida namoyon eta olish jarayonidir.

O‘smirlik davri inson hayotidagi eng murakkab, o‘zgarishlarga boy bosqichlardan biridir. Bu davrda fiziologik, emotsional va ijtimoiy o‘zgarishlar keskin faollashadi. Aynan shu paytda shaxsda “Men kimman?”, “Qanday inson bo‘lishni xohlayman?” kabi savollar paydo bo‘ladi.

Shu jarayonda jinsiy identifikatsiya, ya’ni o‘z jinsini anglash, unga mos rolni qabul qilish muhim psixologik vazifaga aylanadi.

Gender identitlikning shakllanishi uch asosiy tizim — biologik, psixologik va ijtimoiy omillar o‘zaro ta’sirida kechadi. Biologik omillar shaxsning tabiiy (genetik, gormonal, anatomik) poydevorini belgilaydi. Psixologik omillar esa bu poydevor asosida shaxsning o‘zini anglash, identifikatsiya qilish va jinsiy rolni psixik jihatdan qabul qilish jarayonini shakllantiradi. Ijtimoiy omillar — oila, tengdoshlar, ta’lim muassasalari, OAV va madaniyat orqali gender qadriyatlari, me’yorlar va kutishlar tizimini singdiradi.

Bugungi kunda gender masalalari nafaqat biologik yoki psixologik muammo sifatida, balki ijtimoiy taraqqiyot, shaxs erkinligi, tenglik va tarbiya bilan chambarchas bog‘liq holatda o‘rganilmoqda. O‘smirlik yoshida bu omillar uyg‘un kechmasa, shaxsda o‘zini qabul qilmaslik, rol ziddiyatlari, noaniqlik va ruhiy tanglik holatlari yuzaga keladi. Aksincha, ular uyg‘unlashgan sharoitda shaxsda sog‘lom jinsiy identiklik, barqaror o‘zlik va ijtimoiy moslashuv rivojlanadi. Ko‘plab xorijiy va mahalliy tadqiqotlar (A. Bandura, L. Kolberg, S. Bem, Z. Freyd, E. Erikson, A. Qodirov va boshqalar) shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlik davrida gender identiklikning shakllanishi ko‘p omilli tizim bo‘lib, unda tabiiy-biologik poydevor psixologik jarayonlar va ijtimoiy muhit orqali mazmun kasb etadi. Shundan kelib chiqib, ushbu maqolada o‘smirlarning gender identikligi shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi biologik, psixologik va ijtimoiy omillar o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilinadi. Maqsad — ushbu omillar qanday tarzda o‘smirning jinsiy o‘zligini anglash va uni ijobiy shakllantirish jarayoniga ta’sir etishini aniqlashdan iborat.

Metodologiya Ushbu tadqiqotning metodologik asosini shaxs rivojlanishining tizimli, biopsixososial va gender yondashuvlari tashkil etadi. O‘smirlik davrida gender identiklik shakllanishini aniqlashda inson shaxsining biologik, psixologik va ijtimoiy jihatlarini o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilishga e’tibor qaratildi. Tadqiqot E. Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasi, S. Bemning gender sxemalari modeli hamda A. Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga tayangan holda olib borildi.

Tadqiqotdan maqsad o‘smirlik yoshida gender identiklik shakllanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillarni va ularning o‘zaro munosabatini aniqlashdan iborat. Tadqiqotning asosiy vazifalari gender identiklik tushunchasining nazariy asoslarini tahlil qilish, o‘smirlik davrida jinsiy o‘zlikni anglashning psixologik mexanizmlarini o‘rganish, biologik, psixologik va ijtimoiy omillarning o‘zaro ta’sirini empirik jihatdan aniqlash, o‘smirlarning sog‘lom gender identikligini shakllantirish bo‘yicha psixologik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotda bir qancha nazariy va empirik metodlar qo‘llanildi. Nazariy tahlil davomida gender psixologiyasi bo‘yicha ilmiy manbalar, xorijiy va mahalliy adabiyotlar, dissertatsiyalar va maqolalar o‘rganildi. Empirik bosqichda kuzatuv, so‘rovnoma, intervyu hamda diagnostik testlardan foydalanildi. Xususan, S. Bemning “Gender rollar inventori” va E. Eriksonning identiklikni aniqlash shkalasi qo‘llanilib, o‘smirlarning o‘z jinsiy rolini qabul qilish darajasi baholandi. Tadqiqot Toshkent shahri va viloyatlarda joylashgan umumta’lim maktablari hamda akademik litseylarda o‘qiyotgan 313 nafar 11–16 yoshli o‘quvchilar ishtirokida o‘tkazildi. Natijalar statistik jihatdan qayta ishlanib, foiz va korrelyatsiya usullari asosida tahlil qilindi. Metodologik yondashuv sifatida biopsixososial model tanlanib, unda gender identiklik shakllanishi biologik asos, psixologik jarayon va ijtimoiy muhitning o‘zaro ta’siri natijasi sifatida talqin qilindi. Shu bilan birga, rivojlanish psixologiyasi va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv tamoyillari tadqiqotning umumiy ilmiy yo‘nalishini belgiladi.

Natijalar va tahlil

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘smirlik davrida gender identiklik shakllanishi murakkab, ko‘p omilli jarayon bo‘lib, biologik, psixologik va ijtimoiy omillar o‘zaro mustahkam bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot ishtirokchilarining 68 foizi 14–16 yosh oralig‘ida bo‘lib, bu davrda fiziologik o‘zgarishlar — gormonal faollik, tashqi qiyofa va ovozdagi o‘zgarishlar, jinsiy yetilish belgilarining kuchayishi kuzatiladi. Bu jarayon o‘smirning o‘z tana obraziga bo‘lgan munosabatini keskin o‘zgartiradi. Masalan, so‘rov natijalariga ko‘ra, qizlarning 52 foizi “tashqi ko‘rinishim o‘zgargani uchun o‘zimga nisbatan ishonchim kamaydi”, deb javob bergan. O‘g‘il bolalarda esa 43 foiz hollarda “kuchli, mustaqil bo‘lish zarur” degan ijtimoiy kutilma biologik o‘zgarishlar bilan uyg‘un bo‘lmagan holatlarda psixologik tanglikni keltirib chiqargan.

Bu natijalar biologik o‘zgarishlarning shaxsiy identifikatsiyaga bevosita ta’sir ko‘rsatishini, ammo bu jarayon ijtimoiy qo‘llab-quvvatlov bilan barqarorlashishini tasdiqlaydi. Empirik kuzatuv va intervyu natijalari asosida aniqlanishicha, o‘smirlar o‘z jinsiy rolini psixologik qabul qilish darajasi jihatidan uch toifaga ajraladi. Bulardan birinchisi barqaror identiklik (45%) — o‘z jinsiga ijobiy munosabatda, shaxsiy fazilatlarini shu rol bilan moslashtira oladigan o‘smirlar. Noaniq identiklik (39%) — o‘z jinsiy rolini to‘liq qabul qilmagan, shubhalanish, o‘zini solishtirish holatlari kuchli bo‘lgan guruh. Rol ziddiyati identikligi (16%) — o‘zini qabul qilish darajasi past, “ideal obraz” va real men o‘rtasida tafovut mavjud.

Bu holat E. Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasidagi “identiklik – rol chalkashuvi” bosqichiga to‘liq mos keladi. O‘smirlar o‘z jinsiga mos xatti-harakatni ichki e’tiqod darajasida qabul qilmasa, tashqi stereotiplarga bo‘ysunishga moyil bo‘ladi. Shu bois, psixologik qo‘llab-quvvatlash (motivatsion suhbatlar, ijobiy model obrazlari, individual maslahat) gender identiklikni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotda oilaviy tarbiya, maktab muhiti va ommaviy axborot vositalari asosiy ijtimoiy determinant sifatida tahlil qilindi. Oila omilida 74 foiz o‘smirlar jinsiy rollar haqidagi tasavvurlarini ota-onalar va yaqin qarindoshlar misolida shakllantirganini bildirgan. Shu bois, oiladagi gender stereotiplar (masalan, “qiz bola yumshoq bo‘lishi kerak”, “o‘g‘il bola yig‘lamaydi”) o‘smirda o‘zligini qabul qilish jarayonini chegaralaydi. Maktab muhiti 59 foiz o‘quvchilar o‘qituvchilarning jinsga asoslangan kutilmalari (masalan, qizlardan intizom, o‘g‘illardan faollik kutish) ularda o‘z rolini ijtimoiy me’yorga moslashtirish zaruratini kuchaytirganini aytgan. OAV va ijtimoiy tarmoqlar ta’siri o‘rganilganda 81 foiz ishtirokchi blogerlar, serial qahramonlari va mashhurlarning xulq-atvorini “gender namunasi” sifatida baholashini bildirgan. Bu esa yoshlarning o‘zini real hayotdagi o‘lchovlar bilan emas, sun’iy yaratilgan obrazlar bilan solishtirishiga sabab bo‘ladi. Mazkur natijalar shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlarning gender identikligi ijtimoiy muhit tomonidan shakllantirilayotgan qadriyatlar va stereotiplarga bevosita bog‘liqdir.

Tadqiqot natijalarini statistik qayta ishlash asosida biologik, psixologik va ijtimoiy omillar o‘rtasida o‘rtacha korrelyatsiya koeffitsienti r = 0.62 aniqlanib, bu omillar o‘rtasida sezilarli o‘zaro bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Ushbu natijalar gender identiklikni faqat biologik yoki psixologik jarayon sifatida emas, balki ko‘p qirrali integrativ tizim sifatida ko‘rib chiqish zarurligini tasdiqlaydi.

O‘smirlik davrida gender identiklikning barqaror shakllanishi uchun uch omil uyg‘unligi zarur: 1. Biologik qo‘llab-quvvatlov — sog‘lom fiziologik rivojlanish, gormonal muvozanatni kuzatish; 2. Psixologik tayyorgarlik — o‘zlikni anglash, ijobiy “Men” konsepsiyasini

shakllantirish; 3. Ijtimoiy muhitning mosligi — gender tengligini e’tirof etuvchi, shaxsni qadrlovchi tarbiya muhiti.

Aks holda, o‘smirda o‘zini qabul qilmaslik, past o‘z-o‘zini baholash, jinsiy rol ziddiyatlari va ijtimoiy moslashuv muammolari yuzaga keladi. Shu bois ta’lim muassasalarida gender psixologiyasi bo‘yicha psixoprofilaktik mashg‘ulotlar o‘tkazish, ota-onalar bilan interaktiv treninglar tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa O‘tkazilgan tadqiqot natijalari o‘smirlik davrida gender identiklik shakllanishi murakkab, integrativ va ko‘p omilli jarayon ekanligini ko‘rsatdi. Shaxsning jinsiy o‘zligini anglashda biologik, psixologik va ijtimoiy omillar o‘zaro uzviy bog‘liq holda ta’sir etadi. Biologik omillar o‘smirning tabiiy rivojlanish poydevorini belgilasa, psixologik omillar uning o‘zini qabul qilish, “Men” konsepsiyasini shakllantirish va jinsiy rolni ongli ravishda idrok etish jarayonini ta’minlaydi. Ijtimoiy omillar esa shaxsning gender xulq-atvorini jamiyat me’yorlari, qadriyatlari va stereotiplari bilan uyg‘unlashtirishni ta’minlaydi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, sog‘lom gender identitlikning shakllanishi uchun uch omilning uyg‘unligi zarur. Biologik o‘zgarishlar ijobiy psixologik qo‘llab-quvvatlov bilan kechmasa, o‘smirda o‘ziga ishonchsizlik, rol ziddiyatlari va o‘zini inkor etish holatlari yuzaga keladi. Aksincha, oila, maktab va jamiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlangan, shaxsga yo‘naltirilgan ijtimoiy muhit gender identitlikning ijobiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, o‘smirlarning gender identitligi darajasi ularning psixologik tayyorgarligi, emotsional yetukligi va ijtimoiy moslashuviga bevosita ta’sir etadi. Shu bois, ta’lim muassasalarida o‘quvchilar bilan gender psixologiyasi, o‘zini anglash va shaxsiy identifikatsiya mavzularida maqsadli psixoprofilaktik mashg‘ulotlar o‘tkazish tavsiya etiladi. Ota-onalar, pedagoglar va psixologlarning hamkorlikda ishlashi o‘smirlarning sog‘lom o‘zligini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, o‘smirlik davridagi gender identitlik — insonning keyingi ijtimoiy moslashuvi, shaxsiy qadriyat tizimi va ruhiy barqarorligi uchun asosiy psixologik tayanch bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois ushbu jarayonni kompleks yondashuv asosida o‘rganish va amaliy psixologik qo‘llab-quvvatlov tizimini yaratish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qodirov, A. (2019). O‘smirlik psixologiyasi. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
2. Karimova, V. (2020). Gender psixologiyasi: nazariya va amaliyot. Toshkent: “Fan va texnologiya”.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-martdagi “Gender tenglikni ta’minlash va ayollar faolligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–87-son Qarori.
4. Daminova, M. (2024). O‘smirlik yoshida shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonida gender qadriyatlarning shakllanishi. “Pedagogika va Psixologiya” ilmiy jurnali, №3(15), 45–52.
5. Виготский, Л. С. (1982). Психология развития человекаю Москва.педагогика.

GENDER TENGLIK SIYOSATI VA XALQARO HAMKORLIK:TALABA –QIZLAR FAOLLIGINI OSHIRISHDA YANGI YONDASHUV

Erkinova Sharofat Akramovna
O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17632160

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oliy ta’lim tizimida gender tenglik siyosatini amalga oshirishning dolzarb masalalari, talaba-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishda milliy va xalqaro hamkorlik platformalarining roli yoritilgan. Tadqiqotda O‘zbekiston tajribasi Finlyandiya, Kanada va Janubiy Koreya kabi ilg‘or davlatlar modeli bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, gender tenglikni ta’minlashda xalqaro hamkorlik, mentorlik dasturlari va raqamli ta’lim platformalaridan foydalanish samarali yo‘nalish hisoblanadi. Bundan tashqari maqolada talaba-qizlarning ijtimoiy faolligini kuchaytirish, ularni yetakchilik va ilmiy loyihalarga jalb etish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*
Kalit so‘zlar: *gender tenglik, xalqaro hamkorlik, talaba-qizlar, ta’lim, ijtimoiy faollik.*
Abstract. *This paper explores the implementation of gender equality policies in higher education and the role of national and international cooperation platforms in enhancing female students’ social participation. The research compares Uzbekistan’s experience with that of advanced countries such as Finland, Canada, and South Korea. Findings indicate that international cooperation, mentoring programs, and digital education platforms play a crucial role in achieving gender equality. The article provides practical recommendations for promoting leadership, participation, and empowerment among female students in higher education institutions.*
Keywords: *gender equality, international cooperation, female students, education, social activity.*
Аннотация. *В данной статье рассматриваются актуальные вопросы реализации политики гендерного равенства в системе высшего образования и роль национальных и международных платформ сотрудничества в повышении социальной активности студенток. Опыт Узбекистана сопоставляется с практиками таких стран, как Финляндия, Канада и Южная Корея. Результаты исследования показывают, что международное сотрудничество, менторские программы и цифровые образовательные платформы являются эффективными механизмами обеспечения гендерного равенства. В статье предложены научно-практические рекомендации по активизации участия девушек в научных и лидерских проектах.*
Ключевые слова: *гендерное равенство, международное сотрудничество, студентки, образование, социальная активность.*

Kirish

Globallashuv jarayonida gender tenglik masalasi dunyo miqyosida ijtimoiy adolat, iqtisodiy barqarorlik va inson kapitali rivojining asosiy omillaridan biri sifatida qaralmoqda. BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlaridan beshinchisi (SDG-5) — gender tenglikni

ta’minlash va xotin-qizlarning huquqlarini kengaytirishni nazarda tutadi (United Nations, 2015). UNESCO (2022) ta’kidlaganidek, ayollar ta’limdagi teng ishtiroki davlatlarning innovatsion salohiyatini 20–30 foizgacha oshiradi. Shu bois, oliy ta’lim tizimida talaba-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni rahbarlik, ilmiy va madaniy jarayonlarda faol ishtirok etishga jalb etish strategik vazifa hisoblanadi. O‘zbekiston ham so‘nggi yillarda gender siyosatini ta’lim sohasiga chuqur integratsiya qilmoqda.

Metodologiya

Ushbu tadqiqotda taqqoslama tahlil (comparative analysis), kontent-tahlil va hujjatlarni o‘rganish metodlari qo‘llanildi. Asosiy ma’lumot manbalari sifatida BMT, UNESCO, UN Women, World Bank va O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari hamda strategik dasturlari asos qilib olindi. Tadqiqot davomida O‘zbekiston tajribasi Kanada, Finlyandiya va Janubiy Koreya kabi ilg‘or davlatlar amaliyoti bilan qiyoslandi. Shuningdek, Oliy ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan 'Qizlar klubi', 'Lider qizlar' va xalqaro hamkorlik platformalari faoliyati tahlil qilindi. Metodologik yondashuv sifatida gender tenglik siyosatini amalga oshirishdagi institutsional hamda madaniy omillar o‘rganildi (Qodirova, 2023).

Natijalar va muhokama

Annotatsiya. *O‘zbek davlatchiligi tarixida Xorazm tarixi hamda XVI-asr boshlarida vujudga kelgan Xiva xonligining o‘rni beqiyos bo‘lib, uning kuch-qudrat va qadimiylik timsoli hamdir. Xiva xonligi tarixida bo‘lib o‘tgan siyosiy-iqtisodiy jarayonlar V asrga yaqin davrni o‘z ichiga oladi.*

Kalit so‘zlar: *Qo‘ng‘irotlar sulolasi, Muhammad Amin inoq, Muhammad Rahimxon I, Olloqulixon, Muhammad Rahimxon II, Isfandiyorxon, Iqtisodiy barqarorlik, Xon, Inoqlar, dehqonchilik, savdo-sotiq.*

Xiva xonligida XIX asrning boshlarida hokimiyat tepasiga kelgan Qo‘ng‘irotlar sulolasi davrida mamlakat hamma sohada rivojlandi. Ularning hukmdorlari qo‘shni mamlakatlar bilan faol elchilik, savdo sotiq munosabatlarini olib borganlar.

Kirish. 1768-1769 yillarda Xivada ham o‘lat kasalligi tarqaldi, chigirtka to‘foni butun dalalarni payhon qildi, ocharchilik kabi murakkab sharoitda davlatni boshqarishni Muhammad Amin inoq o‘z qo‘liga oldi. Muhammad Amin Inoq davrida davlatda tartib intizom o‘rnatildi, nizolarga barham berildi va aholi tinch yashay boshladi, Shunday arzonchilik davri boshlandiki bozorlarda bitta yarmakka(tanga) yetilgan qo‘y, bir dinorga esa 40 botmon Xiva bug‘doyi yoki 60 botmon jo‘xori berardi. -deb yozgandi Munis Xorazmiy.

Din peshvolari, hunarmandlar va shaharlik savdogarlar yordamida o‘z hokimiyatini ancha mustahkamlagan Muhammad Amin inoq hukmronligi davrida xonlikda dehqonchilik, savdo-sotiq va hunarmandchilikni rivojlantirish maqsadida ko‘plab ishlar amalga oshirilgan. Ulardan asosiysi mahalliy hukmdorlarning o‘zaro nizolari va kelishmovchiliklariga chek qoyilishidir. Muhammad Aminning o‘gli otasining izidan borib, uning ishlarini davom ettirgan bo‘lsa, uning o‘g‘li Muhammad Eltuzar inoq(1804-1806) O‘zbeklarning qo‘ng‘irot urug‘idan birinchi bo‘lib o‘zini rasmiy ravishda xon deb e’lon qildi. Qo‘ng‘irotlardan Muhammad Rahimxon I markazlashtirish siyosatini olib borib, , o‘zining 20 yillik hukmronlik davrida mamalakatdagi iqtisodiy va siyosiy vaziyatga alohida e’tibor qaratdi. Rus elchisi N. Muravyov o‘z hisobotida – “Muhammad Raximxon butunlay yangi davlat barpo qildi, deyish mumkin. Endilikda bu davlat O‘rta Osiyodagi eng kuchli xonliklar jumlasiga kiradi “- deb yozgandi.

Qo‘ng‘irotlar sulolasi davrida Xiva xonligining ma’muriy markazlari sifatida Xiva, Xazorasp, Xonqa, Gurlan, Anbar, Manoq, Shabboz, Mang‘it, Qipchoq, Qilich Niyozboy, Xo‘jayli, Xitoy, Toshhovuz, Yangi Urganch, Ilonli, G‘azovot belgilandi. Aynan Q’o‘ng‘irotlar sulolasidan bo‘lgan Muhammad Rahimxonning o‘gli Olloqulixon buyrug‘i bilan Ichan qal’aning tashqi qismida uzunligi 6614 va balandligi 4 metrli yangi mudofaa devori tiklandi. Shu davrlardan boshlab Xiva shahri hududi Dishan va Ichan qal’a deb nomlana boshladi. Ichan qal’adagi 33 mahalla qatoriga 44 ta Deshon qal’a mahallalari qo‘shildi. Q’o‘ng‘irotlar hukmronligi davrida Xiva shahri aholisi o‘sib borayotganligiga qaramasdan aholi soni juda ko‘p bo‘lmagan. ”Xivadagi erkagu-ayollar soni 4000 dan ortiq emas. Ular asosan amaldorlar,

dindorlar va savdogarlardan iborat. Shaharliklar orasida sartlar, forslar va o‘zbeklar ko‘pchilikni tashkil etadi. Shahar atrofida yaxshi ishlangan dalalar, bog‘ va imoratlar mavjud bo‘lib, ularning aksariyati xon va uning amaldorlariga tegishli. ”-deya ta’kidlaydi G. I. Danilevskiy.

Muhammad Raximxonning salkam 20 yillik hukmronligi davrida Xiva xonligida mustahkam davlatchilik asoslari shakllandi, mamlakat hududlari kengaydi, uning poytaxti yanada ravnaq topdi, iqtisodiy barqarorlik ta’minlandi. U o‘z nomidan oltin va kumush tangalar chiqara boshlagan va Ko‘hna Arkda zarbxona qurdirgan. Bu xon davrida mamlakatning iqtisodiy hayoti jonlanganligi haqida ham ma’lumotlar talaygina . Uning davrida maxsus islohotlar o‘tkazilib, soliqlar tartibga solingan, bojxona tashkil etilib, ichki va tashqi savdodan keladigan daromadlar ko‘payib borgan. Muhammad Rahimxondan keyin davlatni boshqargan o‘g‘li Olloqulixon va nabirasi Rahimqulixon davrida ham harbiy yurishlar davom ettirildi. Rahimqulixondan keyin xonlik taxtiga Muhammad Aminxon o‘tiradi va Xorazmni qadimiy shuxratini tiklay boshlaydi Xonligining 4 yilda bir katta madrasa va baland minora qurilishini boshlatadi. Madrasa 3 yil davomida qurib bitkaziladi. Xivaga sayyoh niqobida kelgan A. Vamberining yozishicha Muhammad Aminxon madrasasi karvonsaroy shaklida qurilgan bo‘lib, yonidagi minorasi xonning halokati sababli bitmay qolgan. Madrasaning 130 hujrasi, 260 talaba uchun mo‘ljallangan. Madrasa yiliga 1200 Xiva botmoni hisobida bug‘doy va 5000 tillo tanga pul daromad qilgan. 1856 yilda Sayyid Muhammad to‘ra Xiva taxtiga xon qilib kotariladi. U yuz berayotgan isyonlarni tinch yo‘l bilan hal etish, tinchllikni qaror toptirish iqtisodiyotni tiklash chora tadbirlarini olib boradi. Avvalambor, Rossiya va Buxoro bn savdo aloqalarini yaxshilaydi. Sayyid Muhammadxon davrida 1863-yilda Xivaga musulmonchilik qonun qoidalari va urf odatlarini yaxshi biladigan tilshunos olim Armeniy Vamberi Rashid Afandi nomi bilan Eron orqali savdo karvonlariga qo‘shilib kelgan. U to‘plagan malumotlari asosida “O‘rta Osiyo bo‘ylab sayohat” nomli asar yozadi. Sayyid Muhammadxondan keyin taxtga uning og‘li Sayyid Muhammadxon Rahimxon II (1864-1910) o‘tirdi. Feruz va Soniy nomlari bilan mashxur bo‘lgan bu hukmdor 47 yil davomida mamlakatni idora qilgan.

Bu xon o‘zining butun hukmronligi davrida el-yurt farovonligi, tinchlik-osoyishtaligi uchun kurashdi. Xonlikda dehqonchilik, sug‘orish ishlari, savdo-sotiq va hunarmandchilik taraqqiy etdi. Bu davrda Xorazmda ayniqsa ilm-fan, adabiyot va san’at, me’morchilik yuksak darajada rivojlandi. Sayyid Muhammadxon Raximxon II hukmronligi Ikki bosqichga ajratish mumkin. Ular 1864-1873 yillar, bu davrda Muhammad Rahimxon II davlatni mustaqil boshqarib, mamlakatni har tomonlama rivojlantirdi. Ikkuinchisi esa 1873-1910 yilgacha bo‘lgan davrlar hisoblanadi. Ye. Jelyabujskiy o‘zning “Очерки и завоевание Хивы” kitobida shunday yozadi: Xiva xonligi joylashgan O‘rta Osiyo juda uzoq o‘tmishda biz yevropaliklar, hindlar va forslarning, ya’ni hindi-yevropa-ariy qabilalarining beshigi bo‘lgan. Qachonlardir bizlarning bobolarimiz slavyanlar Rossiyaga o‘sha O‘rta Osiyodan kelishgan. Ma’lumki shoh Aleksandr Makedonskiy ham O‘rta Osiyoga mashxur yurishini uyushtirgan. ”- deya yozgan.

1910-yilda 16-avgust kuni Muhammadxon RahimxonII vafot etganidan keyin taxtga Sayyid Isfandiyor – uning to‘rtinchi o‘g‘li o‘tirgan. Isfandiyorxon davrida qadimdan aholi to‘lab kelayotgan soliqlarning turlari qisqartirildi. Isfandiyor garchi xon bo‘lsada yoshligidan qilich yasashga qiziqqan va o‘zi sof oltindan yasagan qilichini Peterburgga olib boradi, u zargarlik hunarini mukammal o‘rgangan. 1918- yilda Isfandiyorxon o‘ldirilgandan keyin hokimiyatni Junaidxon o‘z qo‘liga oladi, ammo u Xiva taxtga o‘tira olmas edi. Shu bois Isfandiyorning ukasi Sayyid Abdullaxon nomigagina xon qilib ko‘tarilgan. 1920 yil 2 fevralda Xivaga qizil armiyaning kirib kelishi Junaidxonning qo‘shinlarining tor-mor etlishi bn hokimiyatni sovetlar

egallashi bn tugaydi. Shu kunning o‘zida Muvaqqat hukumat tuziladi1920-yil 26-30aprelda Butun Xorazm xalq vakillarining birinchi qurultoyi bo‘lib o‘tadi va unda Xiva xonligi tugatilib, Xorazm Xalq Sho‘rolar Jumhuriyati tuzilganligi elon qilinadi. Xonlikning poytaxti turli davrlarda Vazir, Kat, Ko‘hna Urganch, Xiva shaharlari bo‘lgan. Muhammad Rahimxon Ixonlikning mamuriy boshqaruv tizimini tubdan o‘zgartirdi. Xiva xonligining o‘troq dehqonchilik vohalarida asosan o‘zbeklar yashab, ular davlatdagi aholining katta ko‘pchiligini tashkil etganlar. XIX -asrning birinchi choragiga oid malumotlarda xonlik aholisi uch yuz ming, 1840-yillarga oid malumotlarda to‘rt yuz ming, arxiv manbalirini chuqur o‘rgangano‘zbek olimi M. Yo‘ldoshev XIX asrning o‘rtalarida xonlik aholisi sakkiz yuz mingga yaqin ekanini qayd etadi. XIX asrning o‘rtalariga kelib, xonlikda Shahar hayotining rivojlanishi natijasida Shahar aholisining soni ko‘payib boradi. Xiva, Hazorasp, , Xonqa, Urganch, Qo‘ng‘irot, Ko‘hna Urganch kabi shaharlarda rus sayyohlarining malumotlariga ko‘ra, ikki mingdan besh minggacha xonadon yashagan. Xonlik poytaxti bo‘lgan Xivada esa 21 mingdan ortiq aholi yashagan.

”Xevaqda ko‘pincha zig‘ir yog‘i va paxta yog‘i ishlatiladi. Xon va katta amaldorlardumba va kunjut yog‘idan qilingan taomlarni tanovul qilishadi, mol va qo‘y yo‘g‘ini shirchoyga solishadi. Palovni qobuliy deb ataydilar. Xon va amaldorlar har oyda bir, ikki martadan ko‘p qobuliy yemaydilar, ko‘proq ot yoki mol go‘shtidan pishirilgan qaynatma sho‘rvani hush ko‘radilar. ”-deya Xiva xonligi qishloq xo‘jaligining yuqori darajada rivojlanganini Eron generali Ismoil Mirpanjiy quyidagicha ta’riflaydi.

Xonlikda eng oliy unvon xon bo‘lgan, Xondan keying eng katta unvon esa – inoq edi. Inoqlar-eng qudratli o‘zbek urug‘laridan tayinlangan bo‘lib, ular xonning eng yaqin maslahatchilari bo‘lishgan.

XULOSA. Qo‘ng‘irotlar sulolasi davrida Xorazmda o‘zbek davlatchiligining asoslari o‘rnatilib, xonlik boshqaruvi joriy etilgach, hunarmandlar sohalarining rivojlanishi , savdo sotiq munosabatlarining kengayishi natijasida shahar va qishloqlar qiyofasi o‘zgarib bordi. Urbanizatsiya jarayonlari natijasida minglab ko‘chmanchi chorvadorlarni o‘troq dehqon va hunarmandlarga aylantirildi va ularni yirik qishloq va shaharlar hayotiga bog‘lab qoydi. Xonlikning chegara shaharlarida karvon va kemalar qatnaydigan yo‘llarda maxsus bojxona xizmati joriy etildi. Xonlikda ziroat , hunarmandchilik , ichki va tashqi savdoning jonlanishi davlat xazinasi daromadining o‘sishiga imkon yaratdi. Xivaga kelgan rus elchisi N. Muravyov xon xazinasining bir yillik daromadi 4 million so‘mdan oshib ketganligi haqida malumot yozib qoldirgan.

Qo‘ng‘irotlardan Muhammad Rahimxon Ko‘hna Arkda zarbxona uchun bino qurdirgan va o‘z nomidan oltin va kumush tangalar qildirdi, Aynan yangi pullar xonlikda tovar pul munosabatlarini yaxshiladi hamda soliqlarni tartibga solishda muhim rol o‘ynagan edi. Endilikda davlat xizmatida bo‘lgan saroy a’yonlari va viloyat amaldorlari uchun lavozimiga qarab ish haqqi -maosh belgilandi. Shu bilan hukmdorlarning daromad taqsimotidagi o‘zboshimchaligiga chek qo‘yildi va davlat arboblari orasida o‘zbeklarning qo‘ng‘irot urug‘i vakillari mavqeyi yanada oshirilib, uarning soni ortib bordi.

Qo‘ng‘irotlar sulolasining kuchli davlat arboblari sa’y harakati bilan Xiva xonligi XIX asrning oxirgi choragigacha bo‘lgan yillarda o‘lkadagi kuchli davlatlardan biriga aylandi. Uning ichki tashqi boshqaruvi, iqtisodiy va ijtimoiy hayoti, madaniy taraqqiyotidagi yo‘nalishlar aniq belgilab olindi. Davlatning iqtisodiy hayoti har doim ham siyosiy va ijtimoiy, ma’naviy va madaniy hayot kabi muhim yo‘nalishlardan biri hisoblandi. Demak, Qo‘ng‘irotlar sulolasi davrida Xiva xonligining har tomonlama rivojlanishi natijasida xonlikning Rossiya, Eron,

Buxoro xonligi va boshqa qo‘shni davlatlar bilan olib borgan diplomatik va savdo munosabatlari qizg‘in tus olganini ko‘rish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Munis va Ogahiy “Firdavs-ul iqbol”.
2. Ye. Jelyabujskiy “Очерки и завоевание Хивы”.
3. Abulg‘ozi Bahodirxon. Shajarayi turk”.
4. Xiva xonligi tarixnavisligi. Buxoro 2024.
5. Muhammad Yusuf Bayoniy. Shajarayi Xorazmshohiy. – T.
6. Vamberi. A. Путешесвие по Средней Азии. 1865.
7. Лобысевич Ф. Описание Хивинского похода. 1873 г. - Спб. , 1898. - 277 с. ; Шу муаллиф. Взятие Хивы и Хивинская экспедиция. 1973 г. // Туркестанский сборник. Т. 70. - С. 271.
8. Шкапский О. Амударинские очерки. К аграрному вопросу на нижней Аму-Дарье. Землевладение в Шураханском участке Аму-Дарьинского отдела. - Т. , 1900. - 283 с.

HARBIY XIZMATCHILAR OILALARINI MUSTAHKAMLASHDA QADRIYATLARNING O‘RNI

Sh.Mirabdullayeva
O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti dotsenti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17667061

Annotatsiya. *Ushbu maqolada harbiy xizmatchilar oilalarining o‘ziga xos xususiyatlari va ularni mustahkamlashda qadriyatlarning o‘rni yoritib berilgan. Harbiy xizmatchilar oilalarida muammolarning oldini olish, ular yuzaga kelgan taqdirda bartaraf etish maqsadiga qaratilgan taklif va tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar. *Oila, harbiy xizmatchi, qadriyat, milliy qadriyat, umuminsoniy qadriyat, oilaviy munosabat, nostandart vaziyatlar, harbiy mojaro, adaptatsiya.*

Аннотация. *В этой статье отражены особенности семей военнослужащих и рол ценностей в их укреплении. Даны предложения и рекомендации, направленные на предотвращение проблем в семях военнослужащих, устранение их возникновения.*

Клюсевые слова. *Семя, военнослужащий, ценности, националные ценности, общеселовесеские ценности, семейные отношения, нестандартные цитуации, военный конфликт, адаптация.*

Annotation. *This article reflects the characteristics of military families and the role of values in strengthening them. Proposals and recommendations are given aimed at preventing problems in military families, eliminating their occurrence.*

Keywords. *Family, serviceman, values, national values, universal values, family relations, nonstandard situations, military conflict, adaptation.*

“Harbiy oilalarda ma’naviy-axloqiy muhitni yaxshilash, sog‘lom turmush tarzi va bolalar tarbiyasiga yondashuvlarni namunali darajaga ko‘tarish, harbiylar va ularning oila a’zolarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va uy-joy bilan ta’minlash ishlari kelgusida ham muhim va ustuvor yo‘nalish sifatida qoladi”[8]

Sh.M.Mirziyoyev

Davlatimiz kelajagi yosh avlodning bilim, ma’naviyat, Vatanga sadoqat va oilaviy mas’uliyat bilan bog‘liq fazilatlariga chambarchas aloqador. Shu bois, jamiyatning eng muhim bo‘g‘ini bo‘lgan oila institutini mustahkamlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Ayniqsa, harbiy xizmatchilar oilalari davlat xavfsizligi va tinchlikni ta’minlashda bevosita ishtirok etuvchi insonlar hayotining ajralmas qismi sifatida jamiyatda alohida ahamiyat kasb etadi. Harbiy xizmatning o‘ziga xos sharoitlari oilaviy hayotga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Xukumatimiz tomonidan qabul qilingan bir qator qaror va yo‘l-yo‘riqlarda xalqimizning ijtimoiy-madaniy yuksalishini ta’minlovchi fikrlar, tavsiyalar berildiki, bular jamiyatimizning asosi – oilaning ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy kamolotida muhim rol o‘ynaydi. Chunki

[8] Qurolli Kuchlarni rivojlantirish borasidagi ishlar sarhisob qilindi, yangi vazifalar belgilandi// https://xs.uz/uzkr/post/ (Murojaat qilingan sana: 2022-yil 10-aprel)

oilalarning har tomonlama yuksalishi, ta’bir joiz bo‘lsa, jamiyatning yuksalishi demakdir. Xuddi shu ma’noda yosh avlod tarbiyasi va uning taraqqiyoti muhim masaladir. Ikkinchi tomondan, jamiyatning oila va oilaviy tarbiyaga bo‘lgan talabi ham kun sayin ortib bormoqda. Zotan, ota-onalarning bolalar tarbiyasi yuzasidan ma’suliyatini kuchaytirish, tarbiyalashga oid layoqatini oshirish, oilaviy va ijtimoiy tarbiya birligini ta’minlash hozirgi kunning dolzarb masalasidir.

Oila jamiyatning asosiy instituti hisoblanadi. Shu bois u doimo davlat hamda jamiyat muhofazasida bo‘lgan va shunday bo‘lib qoladi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assasmbleyasining 1993-yil 20-sentabrdagi Xalqaro oila yili to‘g‘risidagi rezolyusiyasi (A/RES/47/237)[9] ga muvofiq 15-may kuni, jahon miqyosida Xalqaro oilalar kuni (International Day of Families) sifatida nishonlanadi. Xalqaro oilalar kunini o‘tkazishdan maqsad jahon hamjamiyati diqqatini oilaviy qadriyatlarga va oila instituti bilan bog‘liq muammolarga qaratishdir. Bayram munosabati bilan har yili BMT bosh kotibining murojaati e’lon qilinadi.

Dunyoning turli mintaqalarida yuz berayotgan geosiyosiy o‘zgarishlar, qadriyatlar va g‘oyalar to‘qnashuvi, harbiy mojarolar eng avvalo harbiy xizmatchilar shaxsiy va oilaviy hayotida xotirjamlik bo‘lishlarini hamda o‘z xizmat faoliyatlarida hushyor bo‘lishlarini talab etadi.

Jahonning barcha mamlakatlarida harbiy xizmatchilar o‘z xizmat faoliyati xususiyatlari sababli, murakkab va o‘ziga xos oilaviy munosabatlarga ega.

Jumladan, harbiy xizmatchilarning o‘z oilasiga ajratadigan vaqtining nomutanosibligi, ya’ni boshqa kasb egalaridan farqli ravishda har kuni ham oila bag‘rida bo‘la olmasligi, o‘z hayoti uchun xavfli bo‘lgan vaziyatlarga duch kelishi, xizmat joyining o‘zgarib turishi kabi omillar natijasida turli nostandart vaziyatlar yuzaga kelilishi mumkin.

Harbiy xizmatchilar va oila a’zolari o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib-tashviq qilish, boy milliy an’ana va qadriyatlarimiz ruhida oila madaniyatini shakllantirish, barkamol avlodni tarbiyalashdek maqsadlar yo‘lida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ham tarbiyaviy ishlarning muhim bo‘g‘ini hisoblanadi.

Harbiy xizmatchi doim ham farzandlariga tarbiya berish, ularni nazorat qilish, ular bilan do‘stona suhbat qilish kabi masalalarga vaqt ajrata olmaydi. Shuningdek, harbiy xizmatchilar oilasida er-xotin o‘rtasidagi munosabatlar ham boshqa kasb egalarinikidan farqli bo‘lib, farzandlar va ota-ona o‘rtasidagi munosabatlarda ayrim hollarda asosiy mas’uliyat harbiy xizmatchining turmush o‘rtog‘i zimmasiga tushadi.

Bizning mamlakatimiz – O‘zbekiston xalqining tarixiy an’analari, milliy qadriyatlaridan eng asosiylaridan biri O‘zbekiston xalqining bolajonligi, ya’ni ko‘p farzandlilik, hayotning asosiy mazmuni sifatida oilani birinchi o‘ringa qo‘yish bo‘lib kelgan.

Shunday oilaviy qadriyatlarga ega xalqning harbiy xizmatchisidan nafaqat mamlakat xavfsizligini ta’minlash talab etiladi, balki bunday harbiy xizmatchi o‘z oilasi xavfsizligini himoya qilishni ham asosiy burchi deb biladi va bu jarayonda harbiy xizmatchi ikki tomonlama o‘zi uchun burch deb bilgan omillarni to‘laqonli bajara olishi uchun harbiy boshliqlar va qo‘mondonlik tarkibidan o‘z qo‘l ostidagi bo‘ysunuvchi tarkibning oilaviy qadriyatlarni saqlab qolishiga shart-sharoit yaratib berish talab etiladi.

Mana shu shart-sharoit yaratib berish, harbiy xizmatchi oilasida ehtimoliy yuzaga keladigan muammolarning oldini olish, yuzaga kelgan taqdirda bartaraf qilishda qo‘llab-

[9] Резолюция, принятая Генеральной Ассамблеей [без передачи в главные комитеты (A/47/1011)] / A/RES/47/23. 8 October 1993 // https://www.un.org (Murojaat qilingan sana: 2022 yil 10 aprel)

quvvatlash masalalari ko‘plab tadqiqotlarni amalga oshirish, muntazam ravishda harbiy xizmatchi oilalari bilan ishlash lozimligidan darak beradi.

Harbiy xizmat — bu intizom, sadoqat va mas’uliyatni talab etuvchi faoliyat. Shuning uchun harbiy xizmatchilar oilalarida vaqt taqchilligi, xizmat joyining tez-tez o‘zgarishi, xavfli vaziyatlarga duch kelish kabi omillar turmush barqarorligiga ta’sir qiladi.

Bunday holatlar oilaviy muhitda stress, psixologik zo‘riqish yoki uzoq muddatli ajralishlar sababli hissiy sovuqlikni keltirib chiqarishi mumkin. Shu bois, harbiy xizmatchilarning oilaviy farovonligini ta’minlash ularning xizmat samaradorligi va ruhiy holatiga bevosita ta’sir etadi.

Harbiy oilalarda milliy qadriyatlarga tayanish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, bolalar tarbiyasida mas’uliyatni oshirish — muhim ma’naviy tayanch hisoblanadi.

O‘zbekiston xalqining qadimiy an’analarida oila muqaddas maskan, ayol — hurmat timsoli, bola — hayot mazmuni hisoblanadi.

Misol uchun:

- “Erkakning topgani — oila uchun, ayolning topgani — o‘zi uchun” degan qadriyat oilada moddiy barqarorlik va adolatni ifodalaydi.

- “Jannat onalar oyog‘i ostidadir” hadisi esa ayolga, onalikka hurmatni tarbiyalaydi.

- “Nonning ushog‘i ham non” maqoli esa isrofgarchilikning oldini olish, resurslardan oqilona foydalanish g‘oyasini singdiradi.

Shu kabi qadriyatlar harbiy xizmatchilar oilalarida o‘zaro hurmat, sadoqat va bardoshlilikni mustahkamlab, xizmat faoliyatidagi qiyinchiliklarni yengib o‘tishda ma’naviy tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

Inson huquqlari, jumladan ayollar va bolalar huquqlarini ta’minlash, bolalarning munosib ta’lim-tarbiya olishi, sog‘lom ovqatlanishi, ekologik madaniyatining shakllanishi kabi hozirgi kunda dolzarb bo‘lib turgan umuminsoniy qadriyatlar ham bevosita fuqaro sifatida harbiy xizmatchilar oilasida o‘z o‘rniga ega.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, qadriyatlar inson sifatida harbiy xizmatchi oila a’zolarining boshqa huquqlari, jumladan shaxsiy hayot daxlsizligiga raxna solmasligi muhim hisoblanadi.

Erkak harbiy xizmatchi oilasida uning turmush o‘rtog‘iga nisbatan gender muammosi yuzaga kelmasligi, ayol harbiy xizmatchi oilasida uning xizmati turmush o‘rtog‘i va farzandlarining boshqa huquqlari buzilishiga olib kelmasligi uchun tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozim.

Harbiy xizmatchilar oilalarida mavjud bo‘lgan, yuqorida keltirib o‘tilgan muammolarning oldini olish, ular yuzaga kelgan taqdirda bartaraf etish maqsadida, **quyidagi** chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Birinchidan, harbiy xizmatchilar oilalari uchun maxsus elektron platformalar yaratish va bunday platformada quyidagi ma’lumotlarni joylashtirish:

harbiy xizmatchilar oilalarining huquqiy savodxonligini oshirish bo‘yicha ma’lumotlar;

harbiy xizmatchilar yangi ko‘chib boruvchi hududlarning o‘ziga xosliklari, jumladan geografik, iqlimiy va ekologik kabi xususiyatlari haqida ma’lumotlar;

hududlar aholisining urf-odatlari, an’analari, sheva xususiyatlari haqida ma’lumotlar;

hududlarda mavjud ish joylari haqida ma’lumotlar;

harbiy xizmatchilar oila a’zolari bandligi, jumladan, kasb-hunar, ta’lim va sportga yo‘naltirish, madaniy hordiq chiqarish kabi yo‘nalishlarda maslahatlar, shuningdek psixologik maslahatlarni o‘z ichiga olgan ma’lumotlar;

harbiy xizmat xususiyatlari, harbiy an’analar, harbiy xizmatchilarning farqlovchi belgilari, harbiy unvonlari, huquqiy maqomi kabi ma’lumotlar.

Ikkinchidan, yuqorida keltirilgan yo‘nalishlar bo‘yicha ilmiy asoslangan qo‘llanmalar ishlab chiqish.

Uchinchidan, ishlab chiqilgan elektron platforma va qo‘llanmalarni O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklarining, Milliy gvardiyasining, Davlat xavfsizlik xizmatining qo‘shinlari, harbiy qism va muassasalarida xizmat o‘tovchi harbiy xizmatchilari, shuningdek, pedagogika, psixologiya, huquqshunoslik kabi yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib boriluvchi muassasalar olimlari hamda tadqiqotchilari, harbiy ta’lim oluvchilar o‘rtasida ommalashtirish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish.

To‘rtinchidan, harbiy xizmatchilarning shaxsiy muammolari bilan shug‘ullanuvchi organlar, ya’ni komandir-boshliqlar, shaxsiy tarkib bilan ishlovchi bo‘linmalar, psixologlar tomonidan harbiy xizmatchilarning oilaviy qadriyatlarini mustahkamlashga ko‘maklashish, harbiy xizmatchilar oilalarida mavjud muammolarni individual aniqlash va bartaraf qilish, ehtimoliy muammolarning oldini olish bo‘yicha seminar-treninglar tashkil etish.

Beshinchidan, harbiy xizmatchilarning oilada milliy va umuminsoniy qadriyatlarni mustahkamlash, jumladan, gender tengligini ta’minlash, farzandlarga mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish, farzandlarni madaniyatli ta’sir o‘tkazish usullari orqali tarbiyalash kabi yo‘nalishlarda bilim va ko‘nikmalarini oshirishga qaratilgan tavsiyaviy risolalar nashr ettirish va harbiy xizmatchilarga taqdim qilish.

Muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, harbiy xizmatchilar oilalarida quyidagi muammolar mavjud:

- **Turmush o‘rtog‘ining bandligi va ish bilan ta’minlanish muammosi** xizmat joyi o‘zgarganda dolzarb bo‘lib qoladi.
- **Farzandlarning ta’lim va moslashuv jarayoni** yangi hududda qiyin kechadi.
- **Oilaviy aloqalarning uzilishi** uzoq xizmat safari yoki joy almashuvi sababli kuchayadi.

Ushbu **muammolarni hal etish uchun** quyidagi chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi:

- Harbiy oilalar uchun maxsus elektron platforma yaratish;
- Psixologik, huquqiy va ma’naviy maslahat xizmatlarini yo‘lga qo‘yish;
- Harbiy qismlarda oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash markazlari tashkil etish;
- Ayol harbiy xizmatchilar uchun gender tengligini ta’minlovchi ijtimoiy mexanizmlarni kuchaytirish;
- Harbiy oilalar uchun dam olish, sport, bolalar rivoji va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tizimli yo‘lga qo‘yish.

Qurolli Kuchlarda harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida oldimizda muhim vazifalar turibdi.

O‘ylaymanki, ushbu dolzarb vazifalar, ya’ni harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoyalanishining samarasi va darajasi Vatanimiz mustaqilligi, yurtimizni gullab-yashnashi, xalqimizning osoyishta hayoti va xavfsizligi uchun yaxshigina asos bo‘ladi.

Aynan ma’naviy sog‘lomlik, axloqiy poklik yangilanish, taraqqiyot tomon keng yo‘l ochadi. Bunday jamiyatda Qurolli Kuchlarimiz xalqimizning jon-tani, yurt mustaqilligi, hududiy yaxlitligi, tinch hayoti va yaratuvchilik mehnatining kafolati, yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash masalasida tom ma’noda hayot maktabi bo‘lib xizmat qiladi.

Boyligimiz, mustaqilligimiz, porloq kelajakka komil ishonchimizning asosiy manbai – Ona yerimizdir. Buyuk ajdodlarimiz xoki yotgan muqaddas zaminga muhabbat ma’naviyatning bitmas-tuganmas bulog‘i bo‘lib xizmat qiladi. Ona yurtni himoya qilish – hammamiz uchun muqaddas va sharafli burchdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-avgustdagi PQ-3898-son qarori bilan tasdiqlangan // QHMMB: 07/18/3898/1622-son. 08.08.2018 y.

2. Qurolli Kuchlarni rivojlantirish borasidagi ishlar sarhisob qilindi, yangi vazifalar belgilandi// https://xs.uz/uzkr/post/ (Murojaat qilingan sana: 2022-yil 10- aprel)

3. Резолюция, принятая Генералной Ассамблеей [без передачи в главные комитеты (A/47/1011)] / A/ RES/47/23. 8 October 1993 // https://www.un.org (Murojaat qilingan sana: 2022-yil 10-aprel)

4. Akramova F.A. Oilada muomalani tashkil etish psixologiyasi. T.: «Shams ASA», 2002.

5.Shoumarov G‘.B., Sog‘inov N.A. O‘zbek oilasining etnopsixologik xususiyatlari Ilmiy ishlar to‘plami. –Toshkent, 1993.

GENDER TENGLIK VA TALABA-QIZLAR FAOLLIGINI TA'MINLASHDA MILLIY VA XALQARO HAMKORLIK PLATFORMASI

Muzafarova Sevinch Erkin qizi[1], Iroda Mahkamova Karimjonovna[2]
[1]Toshkent davlat tibbiyot universiteti 2-bosqich talabasi,
[2]Toshkent davlat tibbiyot universiteti Xotin-qizlar kengashi raisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17667068

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida gender tenglikni mustahkamlash va talaba-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga qaratilgan milliy hamda xalqaro hamkorlik platformalarining o'rni tahlil qilinadi. Maqolada BMT, YUNESKO, Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo mintaqasida amalga oshirilayotgan qo'shma dasturlar, shuningdek, "Ayollar yetakchiligi maktabi", "Qizlar akademiyasi" kabi tashabbuslarning ta'sir samaradorligi o'rganiladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik nafaqat gender tenglik siyosatini rivojlantirishga, balki talaba-qizlarning ta'lim, ilm-fan, tadbirkorlik va boshqaruv sohalarida faol ishtirok etishiga ham xizmat qilmoqda. Maqola yakunida gender tenglikni ta'minlash bo'yicha milliy strategiyalarni xalqaro tajribalar asosida takomillashtirish yo'nalishlari bo'yicha tavsiyalar beriladi*

Kalit so'zlar: *gender tenglik, talaba-qizlar faolligi, milliy hamkorlik, xalqaro platformalar, ayollar yetakchiligi, ta'limda inklyuziya, ijtimoiy innovatsiyalar, yoshlar siyosati, barqaror rivojlanish, YUNESKO tashabbuslari, BMT dasturlari, gender siyosati, oliy ta'limda teng imkoniyatlar, ijtimoiy hamkorlik tarmoqlari, ayollarni qo'llab-quvvatlash strategiyasi.*

Annotation. *This article analyzes the role of national and international cooperation platforms aimed at strengthening gender equality and enhancing the socio-political activity of female students in higher education institutions of Uzbekistan. The study examines joint programs implemented by the UN, UNESCO, the European Union, and Central Asian countries, as well as the effectiveness of initiatives such as the "Women's Leadership School" and the "Girls' Academy." The analysis shows that cooperation with international organizations contributes not only to the development of gender equality policies but also to the active participation of female students in education, science, entrepreneurship, and management. The article concludes with recommendations for improving national strategies on gender equality based on international best practices.*

Keywords: *gender equality, female students' activity, national cooperation, international platforms, women's leadership, educational inclusion, social innovation, youth policy, sustainable development, UNESCO initiatives, UN programs, gender policy, equal opportunities in higher education, social cooperation networks, women's empowerment strategy.*

Аннотация. *В данной статье анализируется роль национальных и международных платформ сотрудничества, направленных на укрепление гендерного равенства и повышение социально-политической активности студенток в высших учебных заведениях Узбекистана. Рассматриваются совместные программы ООН, ЮНЕСКО, Европейского Союза и стран Центральной Азии, а также эффективность инициатив, таких как «Школа женского лидерства» и «Академия девушек». Анализ показывает, что сотрудничество с международными организациями способствует не*

только развитию политики гендерного равенства, но и активному участию студенток в сфере образования, науки, предпринимательства и управления. В заключение представлены рекомендации по совершенствованию национальных стратегий обеспечения гендерного равенства на основе международного опыта.

Ключевые слова: *гендерное равенство, активность студенток, национальное сотрудничество, международные платформы, женское лидерство, инклюзия в образовании, социальные инновации, молодежная политика, устойчивое развитие, инициативы ЮНЕСКО, программы ООН, гендерная политика, равные возможности в высшем образовании, сети социального сотрудничества, стратегия поддержки женщин.*

Mavzuning dolzarbligi: Bugungi globallashuv davrida jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlashda gender tenglik masalasi strategik ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, oliy ta’lim tizimida talaba-qizlarning ijtimoiy, ilmiy va madaniy faolligini oshirish — zamonaviy demokratik davlat qurilishining muhim omillaridan biridir. Shu nuqtayi nazardan, milliy va xalqaro miqyosdagi hamkorlik platformalarining samarali faoliyati gender siyosatining amaliy natijalarini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. So‘nggi yillarda inson huquqlari, ijtimoiy tenglik va barqaror rivojlanish masalalari global siyosatning markaziy yo‘nalishiga aylandi. Shu jarayonda gender tenglik masalasi — nafaqat ayollar huquqlarini himoya qilish, balki jamiyatning har bir sohasida teng imkoniyatlar muhitini shakllantirish zaruriyatiga aylandi. Talaba-qizlarning faolligini oshirish esa mazkur jarayonning amaliy ko‘rinishidir. Chunki ayollar ta’limli va faol bo‘lgan jamiyatda ijtimoiy barqarorlik, iqtisodiy o‘sish hamda madaniy yuksalish ta’minlanadi. XXI asrda inson kapitalini rivojlantirish, adolatli jamiyat barpo etish va iqtisodiy o‘sishni jadallashtirishda gender tenglik tamoyili asosiy strategik yo‘nalishlardan biriga aylandi. Bugungi kunda global miqyosda ijtimoiy tenglikning ta’minlanishi, ayollar huquqlarining himoyasi, ularning yetakchilik salohiyatini ro‘yobga chiqarish — nafaqat inson huquqlari masalasi, balki iqtisodiy barqarorlik va innovatsion taraqqiyotning zaruriy shartiga aylandi.

Zamonaviy jamiyatda ayollar, xususan, talaba-qizlarning faol ishtiroki ijtimoiy barqarorlikning kafolatlaridan biridir. Chunki yosh ayollar — oilaning, ta’lim muassasasining va mehnat bozorining faol qatnashchilari sifatida jamiyat madaniyatini, ma’naviyatini ham shakllantiradilar. Ularning ijtimoiy faolligi va liderlik ko‘nikmalari kuchaysa, bu butun millatning intellektual darajasiga bevosita ta’sir qiladi. Ayniqsa, raqamli davrda ijtimoiy tarmoqlar, media makon va onlayn ta’lim vositalarida qizlarning faolligi oshmoqda.

Bugungi kunda xalqaro reytinglarda mamlakatlarning raqobatbardoshligi nafaqat iqtisodiy ko‘rsatkichlar, balki ta’limdagi gender muvozanat bilan ham o‘lchanmoqda. Shu sababli O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida qizlar ulushini oshirish, ularning ilmiy faoliyatini rag‘batlantirish, texnika va IT yo‘nalishlarida ishtirokini kengaytirish masalasi dolzarb bo‘lib turibdi.

Jahon banki, BMT va Xalqaro mehnat tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, ayollar mehnat bozoridagi teng ishtiroki mamlakat YAIMini o‘rtacha 20–30 foizga oshirishi mumkin. Bu esa gender tenglikni iqtisodiy rivojlanish omili sifatida ko‘rish zarurligini ko‘rsatadi.

Milliy darajadagi tashabbuslar: O‘zbekiston hukumati so‘nggi yillarda ayollar huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirmoqda. Xususan, “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun, “Ayollarni qo‘llab-quvvatlash va ularning jamiyatdagi rolini kuchaytirish strategiyasi” kabi hujjatlar gender tenglikni ta’minlashning huquqiy asosini mustahkamladi.Oliy ta’lim muassasalarida esa “Talaba-qizlar kengashlari”, “Lider qizlar klubi”, “Mentorlik dasturlari” kabi tashabbuslar yosh ayollarning ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirishga qaratilgan. Bu platformalar orqali talaba-qizlar nafaqat o‘zining shaxsiy rivojlanish yo‘lini belgilab olmoqda, balki universitet boshqaruvi, ilmiy loyihalar va startaplar faoliyatida faol ishtiok etmoqda

1. Davlat siyosatida gender tenglikni institutsional asosda mustahkamlash : O‘zbekiston Respublikasida 2019-yilda “Gender tenglikni ta’minlash to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi ushbu sohadagi islohotlarning poydevorini yaratdi. Qonun asosida “Gender tenglik masalalari bo‘yicha Milliy kengash” tashkil etilib, u vazirlik va idoralar, oliy o‘quv yurtlari, hamda fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi hamkorlikni muvofiqlashtirib kelmoqda.

Shuningdek, “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash agentligi” tashkil etilishi — ayollar va qizlarga oid ijtimoiy, psixologik va iqtisodiy dasturlarni muvofiqlashtirishning markaziy bo‘g‘iniga aylandi. Bu agentlik nafaqat gender tenglik siyosatini amalda qo‘llash, balki yangi tashabbuslarni ishlab chiqish bilan ham shug‘ullanmoqda.

2. Ta’lim tizimida gender siyosatini amalga oshirish : Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimida ayollar uchun teng imkoniyatlar yaratish bo‘yicha qator dasturlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2021-yildan boshlab qizlar uchun maxsus davlat granti kvotalari joriy etildi. Bu ayniqsa, texnik, muhandislik va axborot texnologiyalari yo‘nalishlarida qizlarning ulushini oshirishga xizmat qilmoqdaBundan tashqari, “Ayollar uchun ilm-fan” nomli milliy tanlov, “Qizlar yetakchiligi akademiyasi” va “Ziyo qizlari” kabi dasturlar orqali oliy ta’lim muassasalarida iqtidorli talaba-qizlarni ilmiy faoliyatga jalb etish, ularni mentorlik asosida qo‘llab-quvvatlash mexanizmi yo‘lga qo‘yilgan.Ta’lim sohasidagi bunday tashabbuslar natijasida talaba-qizlar nafaqat akademik muvaffaqiyatga erishmoqda, balki ijtimoiy loyihalar, media faoliyat va startaplar orqali ham o‘z yetakchilik salohiyatini namoyon etmoqda.

3. Mahalla va jamoatchilik darajasida gender faollikni kuchaytirish: Gender tenglikni ta’minlash faqat markaziy darajadagi islohotlar bilan cheklanmaydi. Bugungi kunda mahalla tizimida “Ayollar maslahat kengashlari”, “Qizlar faollari” va “Mahallada yetakchi ayollar klubi” kabi ijtimoiy strukturalar faoliyat yuritmoqda. Ular mahallalarda ijtimoiy muammolarni aniqlash, yosh qizlarni ta’limga qaytarish, erta nikohlarning oldini olish va ularni kasbga o‘qitish kabi masalalar bilan shug‘ullanmoqda.Bu modelning muhim jihati shundaki, u gender tenglikni “yuqoridan pastga” emas, balki “pastdan yuqoriga” tamoyili asosida, ya’ni jamoatchilik ishtirokida shakllantiradi. Shu orqali ayollar masalasi ijtimoiy muhokama va amaliy faoliyatning ajralmas qismiga aylanmoqda.

4. Ayollar bandligini ta’minlash va iqtisodiy mustaqilligini kuchaytirish: O‘zbekiston hukumati tomonidan ayollar va qizlarni iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash maqsadida “Ayollar daftari” tizimi joriy qilindi. Ushbu platforma orqali ishsiz yoki ijtimoiy himoyaga muhtoj ayollarga mikrokreditlar, subsidiyalar, kasb-hunar o‘rgatish kurslari va tadbirkorlik uchun grantlar berilmoqda.Shuningdek, “Biznes ayol” dasturi, “Xotin-qizlar tadbirkorligi markazi”, “Ayollar startap inkubatori” kabi tashabbuslar yosh talaba-qizlarning innovatsion g‘oyalarini iqtisodiy loyihalarga aylantirishga yordam bermoqda. Natijada ko‘plab yosh ayollar

o‘zining shaxsiy brendini yaratish, ijtimoiy tarmoq orqali ish boshlash, yoki ekologik startaplar tashkil etish imkoniga ega bo‘lmoqda.

5. Ma’naviy-ma’rifiy sohada gender tenglikni targ‘ib qilish: Ommaviy axborot vositalari va madaniy sohada ham gender madaniyatni targ‘ib etishga qaratilgan milliy dasturlar amalga oshirilmoqda. Telekanallarda “Zamonaviy ayol”, “Qizlar ovozi”, “Ilm yo‘lida” kabi loyihalar orqali yosh avlod orasida ijobiy namunalar targ‘ib qilinmoqda.Shuningdek, ta’lim muassasalarida “Gender madaniyati saboqlari” yo‘lga qo‘yilib, yoshlar o‘rtasida tenglik, hamkorlik va o‘zaro hurmat g‘oyalari keng yoyilmoqda. Bu tashabbuslar natijasida gender tenglik endi faqat siyosiy yoki huquqiy mavzu emas, balki jamiyat tafakkurining ajralmas qismiga aylanmoqda.

6. Milliy strategiyalar bilan uyg‘unlik: O‘zbekistonning “2030-yilgacha barqaror rivojlanish strategiyasi”da gender tenglik alohida yo‘nalish sifatida belgilangan. Strategiyada ayollar ta’limi, siyosiy faolligi, sog‘lig‘ini muhofaza qilish, iqtisodiy imkoniyatlar yaratish kabi masalalar milliy rivojlanishning asosiy ko‘rsatkichlariga kiritilgan.Bu yondashuv shuni anglatadiki, gender tenglik endi alohida ijtimoiy dastur emas, balki mamlakatning umumiy taraqqiyot siyosatining ajralmas tarkibiy qismiga aylangan. Shu bois har bir davlat organi, oliy ta’lim muassasasi va mahalla tizimi bu jarayonda faol ishtirok etmoqda.

Xalqaro hamkorlik tajribasi: Xalqaro miqyosda gender tenglik masalalarida ilg‘or tajribaga ega davlatlar bilan hamkorlik qilish — o‘zaro rivojlanishning muhim omilidir. Bugungi kunda O‘zbekiston universitetlari YUNESKO, UNDP, “British Council”, GIZ, KOICA, USAID kabi tashkilotlar bilan birgalikda ayollar uchun yetakchilik treninglari, mentorlik dasturlari va texnologik startaplar tanlovlarini tashkil etmoqda.

Masalan, Yevropa universitetlari bilan qo‘shma dasturlar doirasida qizlar uchun STEM yo‘nalishlarida (fan, texnologiya, muhandislik, matematika) grantlar ajratilmoqda. Bu esa ilmiy sohada ayollarning ulushi ortishiga sabab bo‘lmoqda. Shu bilan birga, xalqaro onlayn platformalar orqali talaba-qizlar virtual konferensiyalarda qatnashib, o‘z loyihalarini xalqaro auditoriyaga taqdim etish imkoniyatiga ega

Gender tenglikni mustahkamlash borasida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik ham muhim o‘rin tutadi. BMTning “UN Women”, YUNESKO, Yevropa Ittifoqi hamda Osiyo taraqqiyot banki kabi tashkilotlar O‘zbekistonda bir qator qo‘shma dasturlarni amalga oshirib kelmoqda. Ular orqali qizlar uchun ta’lim va texnologiyalarga teng kirish imkoniyatlarini kengaytirish, ayollar yetakchiligi bo‘yicha treninglar tashkil etish, grant va stajirovkalar taqdim etish yo‘lga qo‘yilgan.

Kelgusida gender tenglikni yanada mustahkamlash uchun oliy ta’lim tizimida gender masalalariga oid maxsus modullarni o‘quv dasturlariga kiritish, raqamli platformalarda qizlar uchun onlayn yetakchilik kurslarini tashkil etish, xalqaro grantlar orqali ilmiy izlanishlarni qo‘llab-quvvatlash zarur. Shuningdek, talaba-qizlarning ijtimoiy tarmoqlardagi faolligini ijobiy yo‘nalishda rivojlantirish, ularni raqamli savodxonlik va innovatsion fikrlashga o‘rgatish bugungi kun talabidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent: Adolat, 2019.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. – PQ–4235-son, 2019-yil 2-fevral.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2030-yilgacha mo‘ljallangan gender tenglik strategiyasini amalga oshirish to‘g‘risida”gi qarori. – PQ–4721-son, 2020-yil.
5. “Barqaror rivojlanish maqsadlari – 2030”. BMT Rezolyutsiyasi. – Nyu-York, 2015.
6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati huzuridagi Gender tenglik masalalari bo‘yicha Milliy kengash hisobotlari. – Toshkent, 2021–2024-yillar.
7. “O‘zbekistonda gender tenglik: muammolar va yechimlar” – Analitik tahliliy hisobot. – Toshkent: Ijtimoiy fikr markazi, 2023.
8. Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash agentligi: Rasmiy veb-sayti (www.wcu.uz).
9. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. “Ayollar va erkaklar O‘zbekistonda” to‘plami. – Toshkent, 2024.
10. BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP). “Central Asia Gender Equality Report”. – New York, 2022.
11. UN Women. *Women’s Empowerment and Leadership in Higher Education*. – Geneva, 2021.
12. UNESCO. *Gender Equality in Education: Global Monitoring Report*. – Paris, 2020.
13. World Bank. *Women, Business and the Law 2024*. – Washington, DC, 2024.
14. Asian Development Bank (ADB). *Gender Equality Strategy for Central Asia*. – Manila, 2023.
15. Abdullayeva, G. “Oliy ta’lim tizimida gender tenglikni ta’minlash omillari.” *Ta’lim va innovatsiyalar jurnali*, №2, 2023.
16. www.unwomen.org – BMT ayollar masalalari bo‘yicha rasmiy portali.
17. www.undp.org – BMT Taraqqiyot dasturi ma’lumotlari.
18. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi portali

AYOLLAR TA’LIMI VA IJTIMOIY FAOLLIKNI RIVOJLANTIRISHDA MINTAQAVIY HAMKORLIKNING ROLI

Najmidinova Guzal Axlitdinovna

https://doi.org/10.5281/zenodo.17667081

Annotatsiya. *Mazkur maqola gender tenglikni ta’minlash va talaba-qizlar faolligini oshirishda milliy hamda xalqaro hamkorlik platformalarining rolini Turkiya, Ozarbayjon va O‘zbekiston misolida tahlil qiladi. UNESCO, Jahon banki, UN Women va UNICEF ma’lumotlariga asoslanib, ta’limdagi gender pariteti, qizlarning oliy ta’limdagi ishtiroki va xalqaro loyihalarning samarasi o‘rganildi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, Turkiyada oliy ta’limda gender tenglik darajasi yuqori (GPI 1.03), Ozarbayjonda raqamli kompetensiyalarni oshirish orqali ijobiy o‘sish kuzatilmoqda, O‘zbekistonda esa so‘nggi yillarda qizlarning ta’limdagi ulushi 49 foizga yetgan. Natijalar ayollar ta’limi jamiyatdagi ijtimoiy kapital va demokratik qadriyatlar rivojida muhim omil ekanini tasdiqlaydi.*

Kalit so‘zlar: *gender tenglik, talaba-qizlar, oliy ta’lim, xalqaro hamkorlik, Turkiya, Ozarbayjon, O‘zbekiston, Erasmus+, UNICEF.*

Аннотация. *В данной статье анализируется роль национальных и международных платформ сотрудничества в обеспечении гендерного равенства и повышении активности студенток на примере Турции, Азербайджана и Узбекистана. На основе данных ЮНЕСКО, Всемирного банка, структуры «ООН-женщины» и ЮНИСЕФ были изучены гендерный паритет в образовании, участие девушек в высшем образовании и эффективность международных проектов. Исследование показывает, что в Турции наблюдается высокий уровень гендерного равенства в высшем образовании (GPI 1,03), в Азербайджане наблюдается положительный рост за счет повышения уровня цифровых компетенций, а в Узбекистане доля девушек в сфере образования за последние годы достигла 49 процентов. Результаты подтверждают, что образование женщин является важным фактором развития социального капитала и демократических ценностей в обществе.*

Ключевые слова: *гендерное равенство, студентки, высшее образование, международное сотрудничество, Турция, Азербайджан, Узбекистан, Erasmus+, ЮНИСЕФ.*

Abstract. *This article analyzes the role of national and international cooperation platforms in ensuring gender equality and increasing the activity of female students using the examples of Turkey, Azerbaijan and Uzbekistan. Based on data from UNESCO, the World Bank, UN Women and UNICEF, gender parity in education, girls' participation in higher education and the effectiveness of international projects were studied. The study shows that Turkey has a high level of gender equality in higher education (GPI 1.03), Azerbaijan is experiencing positive growth through increasing digital competencies, and in Uzbekistan, the share of girls in education has reached 49 percent in recent years. The results confirm that women's education is an important factor in the development of social capital and democratic values in society.*

Keywords: *gender equality, female students, higher education, international cooperation, Turkey, Azerbaijan, Uzbekistan, Erasmus+, UNICEF.*

Kirish

So‘nggi yillarda gender tenglik masalasi global kun tartibining ajralmas qismiga aylandi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG-5) ayollar va qizlarning imkoniyatlarini kengaytirish, ta’lim va iqtisodiy faoliyatdagi tenglikni ta’minlashni ko‘zda tutadi.

Turkiya, O‘zbekiston va Ozarbayjon – tarixan, madaniy va iqtisodiy jihatdan yaqin davlatlar sifatida – ayollar va qizlar uchun ta’lim imkoniyatlarini kengaytirishda turli darajadagi muvaffaqiyatlarga erishgan. Shu bilan birga, ularning tajribasi xalqaro hamkorlik mexanizmlari, xususan **Erasmus+**, **UNICEF**, **UN Women**, hamda **Turk davlatlari tashkiloti (OTS)** kabi platformalar orqali mustahkamlanmoqda.

Asosiy qism

O‘zbekiston tajribasi: davlat siyosati va xalqaro integratsiya uyg‘unligi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda gender tenglik davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. UNESCO ma’lumotlariga ko‘ra, 2017-yilda oliy ta’limdagi qizlar ulushi 38 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 49 foizga yetgan. Bu o‘sishga **“Qizlar uchun 1000 ta grant”** dasturi va **“Ayollar universiteti”** loyihasi muhim hissa qo‘shdi.

UN Women ta’kidlaganidek, O‘zbekistonning **“Gender tenglik strategiyasi – 2030”** hujjati gender masalalarini iqtisodiy va ijtimoiy siyosatning ajralmas qismiga aylantirgan. Turkiya tajribasi. UNESCO ma’lumotlariga ko‘ra, 2022 yilda Turkiyada oliy ta’limdagi umumiy qamrov (gross enrollment) 120% atrofida bo‘lib, bu ko‘rsatkich qizlar orasida erkaklardan biroz yuqori — **Gender Paritet Indeksi (GPI) ≈ 1.03** (UNESCO, 2023). Bu natija ta’lim siyosatidagi uzoq muddatli islohotlar, jumladan, qizlar uchun **stipendiyalar**, **maktab-internatlar tarmog‘i**, va **Erasmus+ dasturidagi faol ishtirok** bilan izohlanadi. 2021–2027 yillar oralig‘ida Turkiya Erasmus+ dasturida “assotsiatsiya maqomida” qatnashmoqda, bu esa talaba-qizlar uchun xalqaro mobillik va o‘qish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shu bilan birga, **Britaniya Kengashi** bilan hamkorlikda amalga oshirilgan “Promoting Gender Equality in Education” loyihasi o‘qituvchilarni gender-sezgir yondashuvlarga o‘rgatib, darsliklarda gender stereotiplarini kamaytirishga qaratilgan.

Ozarbayjon tajribasi. Ozarbayjonda oliy ta’limga qizlarning qamrov ko‘rsatkichi 2023 yilda **46.1%** ni tashkil etgan. Bu Turkiya natijalaridan past bo‘lsa-da, so‘nggi besh yilda barqaror o‘sish kuzatilmoqda.

UNICEF va Ta’lim vazirligi hamkorligidagi “**Digital Skills for Girls**” dasturi raqamli ko‘nikmalarni oshirish orqali qizlarning texnologik sohalarga kirishiga yordam beradi. Shu bilan birga, **UN Women** tashabbuslari doirasida Ozarbayjonda ayollar bandligini oshirish va STEM ta’limini rag‘batlantirish bo‘yicha pilot loyihalar amalga oshirilmoqda.

Xalqaro hamkorlik platformalari

Platforma	Davlatlar	Yo‘nalish	Natija
Erasmus+	Turkiya, Ozarbayjon, O‘zbekiston	Talabalar almashinuvi, STEM	Qizlar ishtiroki 50% dan yuqori
UNICEF	Ozarbayjon, O‘zbekiston	Raqamli ko‘nikmalar	“Digital Skills for Girls” loyihasi samarali
UN Women	Uchala davlat	Ayollar yetakchiligi	Treninglar va siyosiy ishtirok oshgan
OTS	Turkiya, Ozarbayjon,	Mintaqaviy hamkorlik	“Turk Qizlar Forumi” va

Platforma	Davlatlar	Yo‘nalish	Natija
	O‘zbekiston		akademik almashinuv

Turkiya, Ozarbayjon va O‘zbekiston o‘rtasidagi qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, har uch davlatda gender tenglikni ta’minlash borasida ijobiy o‘zgarishlar kuzatilayotgan bo‘lsa-da, rivojlanish sur’atlari va yo‘nalishlari turlicha.

Birinchidan, **Turkiyada ta’limdagi gender tengligi ko‘rsatkichlari nisbatan yuqori**. Oliy ta’limda qizlar ulushi erkaklarnikidan biroz ortiq bo‘lishiga qaramay, ayollarning mehnat bozoridagi faolligi past darajada saqlanib qolmoqda. Bu holat ta’limdan ish faoliyatiga o‘tish jarayonida gender to‘siqlari hanuz mavjudligini ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, **Ozarbayjonda ta’lim qamrovi pastroq bo‘lsa-da**, xalqaro hamkorlik loyihalari — xususan **UNICEF**, **UNDP** va **Turk davlatlari tashkiloti (OTS)** tashabbuslari — qizlarning raqamli kompetensiyalarini oshirish va ularning ilmiy hamda mintaqaviy faoliyatini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Bu mamlakatda gender tenglikni mustahkamlash ko‘proq raqamli ta’lim va xalqaro hamkorlik orqali amalga oshirilmoqda.

Uchinchidan, **O‘zbekistonda so‘nggi yillarda gender tenglik siyosati tizimli tus olgan**. “Qizlar uchun 1000 ta grant” dasturi, “Ayollar universiteti” loyihasi va “Gender tenglik strategiyasi – 2030” kabi tashabbuslar natijasida oliy ta’limdagi qizlar ulushi 2017-yildagi 38 foizdan 2023-yilda 49 foizga oshdi. Bundan tashqari, O‘zbekiston ayollarni iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, STEM yo‘nalishlarida ularning ishtirokini kengaytirish va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish orqali gender tenglikni mustahkamlab bormoqda.

Umuman olganda, har uch mamlakatda gender tenglikni qo‘llab-quvvatlovchi siyosatlarning samarasi ularning xalqaro hamkorlik platformalari — **Erasmus+**, **UN Women**, **UNICEF**, **OTS** va **UNDP** kabi dasturlar bilan uyg‘unlik darajasiga bevosita bog‘liq. Shu bois Turkiya, Ozarbayjon va O‘zbekiston tajribalari mintaqaviy miqyosda bir-birini to‘ldiruvchi model sifatida qaralishi mumkin.

Tavsiyalar

Gender tenglikni ta’minlash va talaba-qizlar faolligini oshirish borasida quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

Birinchidan, **STEM yo‘nalishlarida qizlar uchun grantlar va stipendiyalar sonini ko‘paytirish** zarur. Bu nafaqat ta’lim imkoniyatlarini kengaytiradi, balki ayollarning innovatsion sohalarda ishtirokini kuchaytiradi.

Ikkinchidan, **oliy ta’limdan ish bozoriga o‘tish bosqichida gender asosidagi to‘siqlarni kamaytirish uchun mentorlik dasturlarini joriy etish** lozim. Mentorlik mexanizmlari yosh ayollarni kasbiy muhitga moslashtirish va yetakchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Uchinchidan, **maktab va universitetlarda gender-sezgir o‘qituvchilar tayyorlash tizimini kuchaytirish** ta’lim muassasalarida tenglik va inklyuzivlik madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

To‘rtinchidan, **mintaqaviy ilmiy forumlar va ayollar yetakchiligi dasturlarini OTS, Erasmus+ va UN Women ko‘magida kengaytirish** orqali Turkiya, Ozarbayjon va O‘zbekiston o‘rtasida tajriba almashinuvi hamda mintaqaviy integratsiyani mustahkamlash mumkin.

Beshinchidan, **gender statistikasi tizimini raqamlashtirish va yillik hisobotlarni xalqaro indikatorlar bilan uyg‘unlashtirish** orqali siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida aniq va ishonchli ma’lumotlardan foydalanish imkoniyati yaratiladi.

Xulosa

Turkiya, Ozarbayjon va O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, gender tenglikni ta’minlashda **ta’lim siyosati, xalqaro hamkorlik va davlat qo‘llab-quvvatlovi** bir-birini to‘ldiruvchi omillardir. Turkiyada oliy ta’limdagi yuqori qamrov va xalqaro dasturlardagi faol ishtirok, Ozarbayjonda raqamli kompetensiyalarga yo‘naltirilgan loyihalar, O‘zbekistonda esa davlat darajasida gender strategiyasi va “Qizlar uchun 1000 ta grant” kabi dasturlar bu yo‘nalishda sezilarli natijalar bermoqda.

O‘zbekiston so‘nggi yillarda ta’limda gender tenglikni mustahkamlash, ayollar bandligini oshirish va xalqaro platformalarda faol ishtirok etish borasida mintaqadagi ilg‘or tajribalardan biriga aylangan. Turkiya va Ozarbayjon bilan olib borilayotgan mintaqaviy hamkorlik dasturlari, jumladan OTS, Erasmus+ va UN Women tashabbuslari orqali qizlarning ta’limdagi ishtiroki, raqamli savodxonligi va ijtimoiy faolligi sezilarli darajada oshmoqda.

Kelajakda mintaqaviy integratsiya, xalqaro hamkorlik va genderga sezgir ta’lim siyosatini chuqurlashtirish orqali nafaqat qizlarning oliy ta’limdagi ishtiroki, balki ularning mehnat bozoridagi faoliyati, ijtimoiy yetakchilik salohiyati ham barqaror ravishda rivojlanishi kutiladi. Shu tariqa, gender tenglik mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlovchi asosiy omillardan biri sifatida shakllanib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aliyev, R. *Women’s participation in higher education in Azerbaijan.* — Baku: Baku State University Press, 2021. — 156 p.
2. British Council Turkey. *Promoting gender equality in education: Project report.* — Ankara: British Council, 2023. — 42 p.
3. Nussbaum, M. *Creating capabilities: The human development approach.* — Cambridge (MA): Harvard University Press, 2011. — 312 p.
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. *Ta’limda gender tenglik bo‘yicha yillik hisobot.* — Toshkent: OTFIV nashriyoti, 2024. — 68 b.
5. Stromquist, N. P. *Feminist organizations and education: Transformative politics.* — Cham: Springer, 2015. — 248 p.
6. UNESCO Institute for Statistics. *Global education gender indicators.* — Montreal: UNESCO, 2023. — URL: https://uis.unesco.org (murojaat sanasi: 02.10.2025).
7. UNICEF Azerbaijan. *Digital skills for girls: Project summary report.* — Baku: UNICEF, 2023. — 36 p.
8. UN Women Uzbekistan. *Gender equality strategy 2030.* — Tashkent: UN Women Uzbekistan Office, 2023. — 52 p.
9. Unterhalter, E. *Gender, education and equality in a global context.* — London: Routledge, 2017. — 284 p.
10. World Bank. *Gender data portal: Education and labor participation indicators.* — Washington D.C.: The World Bank Group, 2023. — URL: https://genderdata.worldbank.org (murojaat sanasi: 02.10.2025).
11. World Economic Forum. *Global gender gap report 2024.* — Geneva: WEF Publications, 2024. — 208 p.

OLIY TA’LIMDA TALABA YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING NAZARIY ASOSLARI

Palvannazirova Yulduz Hasanboy qizi
Urganch davlat pedagogika insituti tayanch doktaranti Xorazm viloyati pedagogik mahorat markazi pedagogika fani o‘qituvchisi
https://orcid.org/0009-0000-9374-468X
https://doi.org/10.5281/zenodo.17667200

Annotatsiya. *Ushbu tezisda oliy ta’lim muassasalarida talaba yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning nazariy asoslari ko‘rib chiqiladi. Oilaviy hayotga tayyorlash jamiyatning ijtimoiy, ma’naviy va axloqiy rivojlanishining asosiy omili sifatida baholanadi.*

Nazariy jihatdan bioekologik tizimlar nazariyasi, oilaviy tizimlar nazariyasi va oilaviy rivojlanish nazariyasi kabi yondashuvlar asos etiladi. Xalqaro tadqiqotlar oilaviy tayyorgarlik darslari orqali ajralish darajasini 30% ga kamaytirish imkoniyatini ko‘rsatadi. Tadqiqot oilaviy hayotga tayyorlashni milliy qadriyatlar va zamonaviy pedagogika bilan integratsiya qilish bo‘yicha tavsiyalar beradi.

Kalit so‘zlar: *oliy ta’lim, oilaviy hayot, nazariy asoslar, talaba yoshlari, oilaviy tizimlar nazariyasi, bioekologik model.*

Аннотация. *В данной тезисной работе рассматриваются теоретические основы подготовки студенческой молодежи к семейной жизни в высших учебных заведениях. Подготовка к семейной жизни рассматривается как важнейший фактор социального, духовного и нравственного развития общества. Теоретическую базу составляют такие подходы, как теория биоэкологических систем, теория семейных систем и теория семейного развития. Международные исследования показывают, что занятия по подготовке к семейной жизни могут снизить уровень разводов на 30%. В исследовании даны рекомендации по интеграции подготовки к семейной жизни с национальными ценностями и современной педагогикой.*

Ключевые слова: *высшее образование, семейная жизнь, теоретические основы, студенческая молодежь, теория семейных систем, биоэкологическая модель.*

Abstract. *This thesis explores the theoretical foundations of preparing university students for family life. Preparation for family life is evaluated as a key factor in the social, moral, and spiritual development of society. The theoretical framework is based on approaches such as the bioecological systems theory, family systems theory, and family development theory. International studies indicate that family life preparation courses can reduce divorce rates by up to 30%.*

The research provides recommendations for integrating family life preparation with national values and modern pedagogy.

Keywords: *Higher education, family life, theoretical foundations, university students, family systems theory, bioecological model.*

Kirish. Zamonaviy jamiyatda oila ijtimoiy institut sifatida markaziy o‘rin tutadi, ammo globalizatsiya va ijtimoiy o‘zgarishlar tufayli yosh avlod oilaviy hayotga tayyorlanishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Oliy ta’limda talaba yoshlari (18-25 yosh) oilaviy hayotga

tayyorlash - bu ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun optimal davrdir, chunki bu yoshda energiya yuqori, shakllanish ideal va romantik qarashlar kuchli.

O‘zbekiston Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2017 yilgi “Faoliyatlar strategiyasi” UP-4947 oilaviy hayotga tayyorlashni demokratik davlat qurishning asosiy sharti deb belgilaydi[1.23-b].

Xalqaro miqyosda esa, oilaviy hayotga tayyorlash darslari talabalar orasida oilaviy barqarorlikni oshirishga xizmat qiladi, ammo bu jarayon nazariy asoslarsiz samarasiz bo‘ladi.

Oilaviy hayotga tayyorlashning nazariy asoslari ko‘p qirrali bo‘lib, psixologik, sotsiologik va pedagogik yondashuvlarga asoslanadi. Quyida asosiy nazariyalar keltiriladi:

Bioekologik tizimlar nazariyasi (U. Bronfenbrenner) Bolalik va yoshlik davrida rivojlanishni

mikro (oila, tengdoshlar),

mezo (oila-maktab o‘zaro ta’siri),

ekzo (ish joyi siyosatlari),

makro (madaniy qadriyatlar) va xronotizimlar (tarixiy o‘zgarishlar) orqali tushuntiradi.[3.45-b].

Oliy ta’limda bu nazariya talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashda oila va universitet o‘rtasidagi hamkorlikni ta’kidlaydi, masalan, oilaviy maslahat markazlarini tashkil etish orqali. Bu yondashuv yoshlarni oilaviy rollarni shakllantirishda atrof-muhit ta’sirini his qilishga o‘rgatadi.

Oilaviy rivojlanish nazariyasi (E. Duvall): Oilani bosqichma-bosqich rivojlanish sifatida tasvirlaydi: mustaqillik, nikoh, ota-onalik (bolalikdan o‘smirlikgacha), Bu nazariya talabalarga oilaviy hayot bosqichini bashorat qilishga yordam beradi, masalan, 22-25 yoshdagi talabalar uchun nikoh va ota-onalik bosqichlariga tayyorgarlik ko‘rishni ta’kidlaydi[3.68-b].

O‘zbek olimlari (A. Munavvarov, M. Inomova, T. Kurbonov) bu nazariyalarni milliy qadriyatlar (Avesto, Qur’on, Alisher Navoiy asarlari) bilan bog‘lab, oilaviy tarbiyani axloqiy va ma’naviy asosda rivojlantirishni taklif etadi.

Xususan A. Munavvarov tarbiyani shaxs ma’naviyatini shakllantirish vositasi sifatida ko‘radi. U o‘z tadqiqotlarida milliy mentalitet, xalqning tarixiy-madaniy merosi, diniy va axloqiy qadriyatlar asosida tarbiyani rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi[4.89-b].

M. Inomova esa tarbiyada ayolning roliga alohida e’tibor qaratadi. U milliy qadriyatlar asosida ayolning oiladagi axloqiy-ma’naviy liderlik vazifasini ko‘rsatib beradi[5.34-b

O‘z navbatida T. Qurbonov tarbiyada ma’naviy immunitetni shakllantirish konsepsiyasini ilgari suradi. U oilani shaxsning ma’naviy immunitetini kuchaytiruvchi muhit sifatida ko‘radi[6.45-b].

Xulosalar va tavsiyalar

Oliy ta’limda talaba yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash nazariy asoslari bioekologik va oilaviy tizimlar nazariyalariga asoslanishi kerak, milliy qadriyatlar bilan integratsiya qilinib.

Oliy ta’lim tizimida qadriyatlarni o‘quv dasturlariga integratsiya qilish, o‘smirlar va yoshlarga milliy o‘zlikni anglash orqali ma’naviy tarbiya berish. Universitetlarda oilaviy hayot markazlarini tashkil etish maslahatlar, seminarlar o‘tkazish

-Oila orqali yosh avlodda ma’naviy qadriyatlarga sodiqlik, halollik, vijdon va insonparvarlikni rivojlantirish.

-Tarbiya jarayonida ilm, madaniyat, din va urf-odatlar uyg‘unligiga tayanish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” Uzbekistan T.: 2022. 234.b
2. Mirziyoyev.Sh.M. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak” Uzbekistan T.:2019. 450.b
3. Bronfenbrenner U. “The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design”. - Harvard University Press, 1979.
4. Munavvarov A. “Oila ma’naviyati va uni mustahkamlash omillari”. - Toshkent: O‘zbekiston, 2015. - 168 b.
5. Inomova M. “Ayol va oila tarbiyasida ma’naviy qadriyatlarning o‘rni”. Toshkent: Ma’naviyat, 2017. – 144 b.
6. Qurbonov T. “Oila tarbiyasining nazariy asoslari va zamonaviy yondashuvlar”. Toshkent: Fan, 2019. - 192 b.

NASRDA GENDER TENGLIKNING IFODALANISHI

Dilbar Qodirova
TerDU
https://doi.org/10.5281/zenodo.17667217

Annotatsiya. *Ushbu maqolada jamiyatda ayol erki, qadr- qimmati, o‘rni, gender tenglikning jamiyatdagi ahamiyati nasriy asarlarda ifodalanishi haqida so‘z boradi va ayrim nasriy asarlar misolida ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Ayol, jamiyat, davr, o‘zbek, kasb- xunar, xotin- qizlar, jinoyat.*

Abstract. *This article discusses the expression of women's freedom, dignity, place in society, and the importance of gender equality in society in prose works, and is explained using the example of some prose works.*

Keywords: *Woman, society, era, Uzbek, profession, women, crime.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается выражение свободы, достоинства, места женщины в обществе и важности гендерного равенства в обществе в прозаических произведениях на примере некоторых из них.*

Ключевые слова: *Женщина, общество, эпоха, узбек, профессия, женщины, преступление.*

Ma’lumki, hozirda xotin-qizlarning ta’lim olishlari, ilmiy-ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanishlari, kasb-hunar o‘rganishlari masalasi jiddiy e’tiborga olingan. Qolaversa, bu dolzarb masala o‘zbek adabiyotdagi azaliy mavzulardan biri ekanligini ham ta’kidlash lozim. Buni Sadriddin Ayniyning 1922-yilda qizlar maktabiga mo‘ljallab yozilgan “Qiz bola yoki Xolida” asari misolida asoslash mumkin. Asar qiz bolaning oila va jamiyatdagi o‘rnini ifodalovchi bir qator ta’riflarni o‘zida aks ettirgani bilan ahamiyatlidir. Shuningdek, Oybekning “Qutlug‘ qon” romanidagi “Mehnatkash qiz” bobida Unsinning Shokir otaga yordam berish uchun mahsi tikishda ip eshib, mumlab berishi, mahsilarga shon qoqishi, shondan tushirishi, pardozlashi, lok surkashi kabi detallar ham qizlarni yoshlikdan kasb-hunarga o‘rgatish zarurligi g‘oyasi bilan bog‘liqdir.

Xotin-qizlarning tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning munosib turmush kechirishlariga ko‘maklashish masalasi kunimizning dolzarb jihatlaridan sanaladi. Ayni masala ko‘proq mustaqillik davri o‘zbek adabiyotida yaratilgan asarlarda muhim mavzulardan biri sifatida ko‘tarila boshlandi. Chunki xotin-qizlarning chinakam baxtli hayot kechirishlari, saodatli ayol sifatida oila va jamiyatda mustahkam o‘rin egallashlarida bunday yangi imkoniyatlarning yaratilishi muhim ahamiyat kasb etishi, shubhasiz. Ana shunday asarlardan X.To‘xtaboyevning “Qiz talashgan o‘smirlar” romanida xotin-qizlar liderligiga alohida ahamiyat berilgan. Adibning “Qiz bolaga tosh otmang” asari qahramoni Xurshidaxon ham tadbirkor qiz. Bu asarlar tahliliga bizgacha e’tibor qaratgan B.Jamilova “X.To‘xtaboyevning yuqoridagi ikkala asarida ham gender yondashuv kuzatilgan”ligini e’tirof etadi.

O‘zbek adabiyotida xotin-qizlarning sog‘lig‘ini saqlash, xotin-qizlarga xos bo‘lgan kasalliklarni barvaqt aniqlash va oldini olish, onalikni muhofaza qilish mavzusi yoritilgan asarlar ham mavjud. Ularda ayolni sog‘ida ham, kasalida ham sevib ardoqlash lozimligi g‘oyasi

yoritilgan. Bunga A.Qahhorning “Ming bir jon” hikoyasidagi Masturaxon, “Bemor” hikoyasida Sotiboldining xotini obrazlari misol bo‘la oladi.

Jamiyat xotin-qizlari orasida jinoyatchi hamda huquqbuzarlar toifasi mavjudligi ham barchamizga ayon. Shu bois badiiy adabiyotda ham bunday ayollar obrazi yaratilgan. Bunga X.To‘xtaboyevning “Mungli ko‘zlar” asaridagi tillafurush Yoqutxonning qismati misoldir. Uning kirdikorlari oilasi va bolalari boshiga katta mung yukini soladi.

Oilaviy munosabatlarning o‘ziga xosligi er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligi, ichki oilaviy masalalarning o‘zaro kelishuv yo‘li bilan hal qilinishi ham e’tiborli masalalardan biridir. Aks holda, u inson hayotini fojialar bilan to‘ldiradi. Masalan, A.Qahhor “Qo‘shchinor chiroqlari” romanida kambag‘al yigit Siddiqjon bilan boy xonadon qizi Sharofatning oilaviy munosabatlarini yoritar ekan, ichkuyov Siddiqjonni xotini va qaynonasi tomonidan kamsitilishini ochib bergan. Oqibatda bunday muomala sababli er-xotin “qo‘ydi-chiqdi”gacha boradi. Sharofat erini sensirab, haqoratlaydi. Holbuki, o‘zbek ayollarining o‘zini bunday tutishi axloqsizlik sifatida qaraladi.

Ayol siymosining adabiyotdagi talqini, ona sifatidagi mavqeyi, uning oilada, farzand tarbiyasida, ma’naviy va ijtimoiy hayotda tutgan o‘rni va roli hamisha e’tibordadir. Ammo hamma onalarni ham yuqoridagi jihatlarga ega deb bo‘lmaydi. Shuning uchun adabiyotda bu kabi onalar obrazi ham tasvirlangan. Bunga Tohir Malikning “Alvido, bolalik” asarida Qamariddinning onasi, E.Malikovning “Yetim qolgan xotiralar” qissasida o‘smir qiz Ma’sudaning onasi obrazlari misol bo‘la oladi. Biroq adabiyotda ona idealini qo‘llab-quvvatlaydigan, uni uy, oila baxtining asosi sifatida e’tirof etuvchi asarlar nihoyatda ko‘p.

Adabiyotda yaratilgan gender obrazlarning idealizatsiyasiga, albatta, jamiyat, oila, tarixiy makon va tarixiy zamon ta’sir qilganligi, shubhasiz. Ammo, avvalo, ayol va erkakning kim ekanliklarini, ular o‘rtasidagi farqni, ustun va ojiz tomonlarni, yashayotgan dunyosida o‘zaro munosabatlarini, borliqqa qanday yondashishini anglab olish lozim. Chunki bular gender qahramon ichki va tashqi ongining ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Ehtiros, qo‘rquv, g‘azab, ochko‘zlik, zaiflik, erotik istaklar oldida bosiqlik, zulm, mehr kabi turli salbiy hamda ijobiy his-tuyg‘ularni boshqarishda qaysi biri kuchli yoki ojizligiga qarab erkak va ayol xarakteri baholanadi.

Odatda, takabbur va zolim erkak shaxsi tomonidan tahdid qilingan asira ayol o‘z-o‘zini anglashiga erisha olmagani kabi zulmkor jamiyat ham ayollar irodasini bukadi. Lekin ayol qahramon (yoki erkak qahramon) haddan tashqari qo‘rqoq bo‘lsa va hayotida qorong‘u tubsizlikka duch kelsa, o‘zining yo‘qolgan va potensial to‘liqligini ushlash uchun qarshi jins vakiliga tayanadi. Shuni inobatga olib, xalqimiz “Er-xotin – qo‘sh ho‘kiz” deb aytadi. Shu orqali er va ayol jinsi vakillarining bir-birini to‘ldirishiga ishora qiladi.

Shunday asarlar ham borki, ularda ayollik qo‘rquvini ifodalash va unga qarshi turish, erkak jins vakilining stereotipik rolini qoralash holati aks etib turadi. Bunga Abdulla Qahhorning “Dahshat” hikoyasi yorqin dalil bo‘la oladi. Unda yoshgina kelinchak Unsinning ozodlik uchun umidsiz fig‘oni, isyoni yashiringan. Ushbu hikoyada bir xil fojia – erksizlik, tutqunlik, xo‘rlash, kamsitish, zo‘ravonlik singari xunuk holatlarni boshidan kechirayotgan yetti nafar uch xil xarakterli ayollar taqdiri haqida so‘z yuritiladi.

Ayrim asarlarda diktator kabi harakat qiladigan, zaif va nochor ayollar ustidan nazoratni o‘rnatgan xotin-qizlar obrazi uchraydi. Bunga O‘.Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asaridagi O‘ris bolaning onasi Zebi xola hamda “Ikki eshik orasi” romanidagi Bashorat opaning

shaddodligi, o‘ktamligi, barcha ayollarni o‘ziga qaratib olganligi misol bo‘la oladi. Shuningdek, A.Qahhorning “Xotinlar” hikoyasida qirq yoshlardagi ayol oqsoqol obrazi ham keltirilgan.

Ba’zi asarlarda doimiy ravishda erning yoki otasining qattiqqo‘l nazorati ostida bo‘lgan ayollar obrazi tasvirlangan. Natijada ularning ko‘pincha o‘z orzu-istaklariga erisha olmasligi, jins sifatida zaifligi, bo‘ysunuvchanligi ifoda etiladi. Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanidagi Zebi buning yorqin dalilidir.

Adabiyotimizda genderga asoslangan hokimiyat, boshqaruvchilik munosabatlari bilan ajralib turadigan ayollar obrazi ham yaratilgan. “Sinchalak”dagi Saida buning tipik vakilidir.

Yoki G‘afur Shermuhammadning “Ta’ziyadagi to‘y” nomli “*jiddiy komediya” janridagi asarida* Sabohat savdogar ismli 45 yoshli bozorchi xotin obrazi keltirilgan. Uning yurish-turishi, gap-so‘zlaridan tortib kiyinishida ham erkakshodaligi sezilib turadi.

Adabiyotda ayollar har doim hurmat, simpatiya bilan tasvirlanavermaydi. Masalan, Abdulla Qahhorning “Muhabbat” qissasidagi Marg‘uba, O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanidagi Ra’no obrazlarini aytish mumkin.

Har bir davrdagi ijodkorlarning asarlarida xotin-qizlar masalasi, gender tenglik talqini ifodasida ko‘p jihatdan o‘xshashlik va yaqinlik borligi ko‘zga tashlanadi. Ammo ularni baholashda jamiyat taqiqlagan yoki in’om etgan imkoniyatlarni, vaqt oralig‘ini, katta va ko‘plab tarixiy o‘zgarishlarni hisobga olish lozim.

Gender tengligi jamiyatning barcha sohalarida muhim omil bo‘lib, barqaror rivojlanishga xizmat qiladi. Ta’lim, iqtisodiyot, siyosat, madaniyat va sog‘liqni saqlashdagi teng imkoniyatlar ijtimoiy adolatning kafolatidir. Kelajak avlodning gender madaniyatiga ega bo‘lishi jamiyat farovonligining yangi bosqichidir.

Gender tengligi jamiyatning demokratik rivojlanishini belgilovchi omil bo‘lib, iqtisodiy barqarorlikka, madaniy o‘zgarishlarga, ijtimoiy adolatga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Айний С. Қиз бола ёки Холида. – Тошкент, 1964. – Б. 9.
2. Жамилова Б.С. Ҳозирги ўзбек болалар адабиётида поэтик тафаккурнинг янгиланиш омиллари ва тамойиллари: Филология фанлари доктори (DSc) дисс. – Тошкент, 2022. – Б.172.
3. Эшматова Ю. Истиқлол даври ўзбек қиссачилигида аёл руҳиятининг бадиий талқини: Филол. фан. фалсафа. док. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – Б.85.
4. Malik Tohir. Alvido, bolalik. – Toshkent: Sharq, 2009. – B. 29. http://www.tohirmalik.com/

QARAQALPAQ NAQÍL-MAQALLARÍNDAǴÍ MÁMLEKET BASQARÍW ISLERINE BAYLANÍSLÍ SÓZLERDIŃ GENDERLIK ÓZGESHELIKLERI

Ulbolsın Qosnazarova
QMU, Qaraqalpaq til bilimi kafedrası tayanısh doktorantı
https://doi.org/10.5281/zenodo.17667252

Annotaciya. *Bul maqalada qaraqalpaq naqıl-maqallarında ushırasatuǵın mámleket basqarıw atamalarınıń (patsha, xan, biy, tóre, wázir, aqsaqal, kósem, qazı hám t.b.) lingvokulturologiyalıq hám genderlik ózgeshelikleri tallanadı. Izertlewde basqarıw leksikasınıń tariyxıy-etimologiyalıq tiykarları, olardıń xalıq kózqarasındaǵı semantikalıq maydanı hám sociallıq xızmeti anıqlanadı. Naqıl-maqallar arqalı hákimiyat iyeleri obrazı - er adamnıń danıshpanlıq, ádillik, mártlik sıpatları menen baylanısta súwretlenip, jámiyettegi gender rolleriniń kórinisi anıqlanadı. Soniń menen birge, hayal-qızlar obrazınıń hákimiyatqa baylanıslı siyrek qollanılıwı patriarxal mádeniy modeldiń lingvistikalıq kórinisi sıpatında qaraladı. Maqalada xalıq basqarıw sistemasına tán atamalardıń mádeniy kodları hám milliy tanıwdaǵı ornı, olardıń házirgi til sistemasında saqlanıw tárepi de analizlengen.*

Tayanısh sózler*: Mámleket basqarıwı atamaları, naqıl-maqal, genderlik ózgeshelik, shah, patsha, xan, kósem, biy, aqsaqal, genderlik rol, patriarxal sistema.*

Rezyume. Ushbu maqolada qoraqalpoq maqol-matallarida uchraydigan davlat boshqaruv atamalarining (podsho, xon, biy, to‘ra, vazir, oqsoqol, ko‘sem, qozi va h.k.) lingvokulturologik va gender xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda boshqaruv leksikasining tarixiy-etimologik asoslari, ularning xalq tasavvuridagi semantik maydoni va ijtimoiy vazifasi aniqlanadi. Maqol-matallar orqali hokimiyat egalari obrazi - erkak kishining donishmandlik, adolatparvarlik, mardlik sifatlari bilan bog‘liq holda tasvirlanib, jamiyatdagi gender rollarining ifodasi aniqlanadi. Shu bilan birga, xotin-qizlar obrazining hokimiyatga bog‘liq kam qo‘llanilishi patriarxal madaniy modelning lingvistik ko‘rinishi sifatida qaraladi. Maqolada xalq boshqaruvi tizimiga xos atamalarning madaniy kodlari va milliy bilishda tutgan o‘rni, ularning hozirgi til tizimida saqlanib qolish jihati ham tahlil qilingan.

Tayanch so‘zlar: Davlat boshqaruvi atamalari, maqol-matal, gender xususiyat, shoh, podsho, xon, yo‘lboshchi, biy, oqsoqol, gender rol, patriarxal tizim.

Резюме*.В данной статье анализируются лингвокультурологические и гендерные особенности терминов государственного управления, встречающихся в каракалпакских пословицах (патша, хан, бий, торе, визирь, аксакал, косем, казы и др.). В исследовании выявляются историко-этимологические основы управленческой лексики, ее семантическое поле в общественном сознании и социальная функция. Через пословицы и поговорки изображаются образы власть имущих в связи с качествами мудрости, справедливости, мужества мужчины, определяются проявления гендерных ролей в обществе. В то же время редкое использование образа женщины по отношению к власти рассматривается как лингвистическое проявление патриархальной культурной модели. В статье также анализируются культурные коды терминов, характерных для системы народного управления, и их место в национальном языкознании, а также их сохранение в современной языковой системе.*

Ключевые слова: *Термины государственного управления, пословица, гендерная специфика, шах, паша, хан, косем, бий, аксакал, гендерная роль, патриархальная система.*

Resume*. This article analyzes the linguocultural and gender features of state administration terms found in Karakalpak proverbs (patsha, khan, biy, tore, vizier, aksakal, kosem, kazi, etc.). The study identifies the historical and etymological foundations of management vocabulary, its semantic field in public consciousness, and its social function. Through proverbs and sayings, the images of those in power are depicted in connection with the qualities of wisdom, justice, and courage of a man, and the manifestations of gender roles in society are determined. At the same time, the rare use of the image of a woman in relation to power is considered a linguistic manifestation of the patriarchal cultural model. The article also analyzes the cultural codes of terms characteristic of the public administration system and their place in national linguistics, as well as their preservation in the modern language system.*

Keywords*: State administration terms, proverb, gender specificity, shah, pasha, khan, kosem, biy, elder, gender role, patriarchal system.*

Qaraqalpaq xalqınıń naqıl-maqalları – ásirler boyı qáliplesken ómir tájiriybesiniń, dúnyaǵa kózqarasınıń hám jámiyetlik qatnaslar sistemasınıń kórinisi. Olardıń mazmunı xalıqtıń siyasiy, jámiyetlik, morallıq qunlılıqların, sonday-aq jámiyettegi genderlik rollerdi de sáwlelendiredi. Naqıl-maqallardaǵı mámleket basqarıw atamaları – xalıqtıń biylik, ádalat, el birligi tuwralı túsinigin, sonday-aq erkek hám hayaldıń jámiyettegi ornın kórsetip turıwshı tillik material.

Túrkiy xalıqlarınıń, sonıń ishinde qaraqalpaq xalqında mámleket penen biylik túsinikleri áhmiyetli rol oynaydı. El basqaratuǵın adamlar – xalıqtıń jámiyetlik qurılısınıń kórinisi ǵana emes, sonıń menen birge olardıń ruwxıy mádeniyatınıń aynası bolıp tabıladı.

Qaraqalpaq naqıl-maqallarınıń sózlik quramı júdá bay leksikalıq qatlamǵa iye. Solar qatarında biylik penen basqarıwǵa baylanıslı leksemalar – shah, xan, patsha, sultan, hákim, wázir, kátquda, bek, bolıs, tóre, láshkerbası, qazı, aqsaqal, kósem, biy sıyaqlı sózler keń qollanıladı. Bul atamalar jámiyettegi ierarxiyalıq qatnastı hám xalıqtıń basqarıwǵa degen kózqarasın sáwlelendiredi. Mámleket basqarıwshı adam aqıllı, ádil, el ǵamın oylaytuǵın adam bolıwı kerek degen túsinik qáliplesken.

Bul izertlewdiń maqseti – qaraqalpaq naqıl-maqallarındaǵı mámleket basqarıw atamalarınıń qollanılıwın, olardıń semantikalıq, lingvomádeniy hám genderlik ózgesheliklerin anıqlaw.

Mámleket basqarıw sisteması góne túrkiy dáwirinen baslap qáliplesken. Orxon-Enisey jazba esteliklerinde “qaǵan”, “bek”, “elbası”, “tegin” sıyaqlı basqarıw atamaları ushırasadı. Bul atamalar biylik iyesiniń mártebesin, el ishindegi abıroyın hám shańaraqlıq múnásibetlerdi sáwlelendiredi. Qaraqalpaq xalqında bul dástúr keyin ala “xan”, “patsha”, “biy”, “tóre”, “bolıs”, “wázir” sıyaqlı atamalar menen dawam etken.

Naqıl-maqallardaǵı mámleket basqarıw atamaların tómendegishe semantikalıq toparlarǵa bólip qarawǵa boladı.

1. Joqarı biylik iyeleri. Bul toparǵa shah, xan, patsha, sultan, ámir sıyaqlı atamalar kiredi. Bular kóbinese absolyut biylikti, el taǵdirine tikkeley tásir etetuǵın adamlardı bildiredi. Semantikalıq jaqtan bul atamalar biylik iyesiniń jámiyettegi er azamatlıq rolin, onıń ruwxıy hám fizikalıq ústemligin belgileydi.

2. Orta buwındağı basqarıwshılar (keńesshi lawazımlar). Wázir, hákim, kátquda, bek, bolıs, tóre sıyaqlı atamalar xalıq penen xan arasındağı dáldalshı adamlardı kórsetedi. Bul topardağı adamlar biylik uǵımı aqıl-parasat, sheshenlik hám xalıqqa jaqınlıq penen ólshenedi. Biy menen bolıs atamaları kóbinese ádil tórelik penen sheshenlik ónerge baylanıslı qollanıladı.

3. Ásker hám jetekshilik lawazım. Láshkerbası,

4. Sud hám huqıqıy biylik iyesi. Qazı,

5. Biylikke qatnası bar xalıq wákilleri. Bunday atamalar toparına aqsaqal, biy, kósem sıyaqlı sózler kiredi.

Endi bul atamalardıń mánisi, etimologiyası, búgingi kúnde qollanılıwı hám genderlik ózgesheliklerine birme-bir toqtap óteyik.

Shah sózi parsı tilinde "patsha, mámlekettiń joqarı húkimdarı" mánisin ańlatqan. Bul sóz túrkiy xalıqlardıń tiline islam civilizaciyası hám parsı mádeniyatınıń tásiri menen kirgen. XI-XIII ásirlerdegi túrkiy jazba esteliklerinde bul atama jiyi ushirasadı. Yusup Has Hajıbtıń "Qutadǵu bilig," Maxmud Qashǵariydiń "Devoni luǵat at-turk" shıǵarmalarında "shah" sózi "hákim," "húkimdar" mánisinde qollanılǵan. Keyingi dáwirlerde ol "patsha" sózi menen bir qatarda sinonimlik mániske iye boldı. Qaraqalpaq tiliniń túsindirme sózliginde “shah” atamasına tómendegishe túsinik berilgen: Shah – bazı bir ellerde monarx, xan patsha ataǵı hám usı ataqqa iye adam [6.515].

Qaraqalpaq xalıq awızeki ádebiyatında shah obrazı kóbinese shıǵıs ertekleri hám diniy qıssalardağı húkimdarlarǵa baylanıslı qollanıladı. Bunda shah kóbinese shıǵıs húkimdarı, bay, saltanatlı qaharman sıpatında kórinedi. Bul sóz qaraqalpaq naqıl-maqallarında biraz ózgertilip, yaǵnıy “sha” formasında qollanılǵan.

Shalardıń tilegi shalardan piter, Ǵáriptiń tilegi ǵáripten piter [7.118].

Genderlik jaqtan "Shah" sózi tek erkekke tán hákimiyat ataması. Bul erkeklerdiń jámiyetlik hám siyasiy ústemligin belgileydi. Hayal túri - shaxbiyke yaki shaxina dep atalgan. Parsı dástúrinde hayal húkimdarlar siyrek bolsa da, "shaxbiyke" sózi shaxtıń zayıbı yaki malikası mánisinde kóp qollanılǵan. Solay eken, "shah" sózi arqalı qáliplesken sociallıq model patriarxal hákimiyattıń eń joqarı kórinisi esaplanadı. Búgingi kúnde jańa tuwılǵan qız nárestege Shaxina dep at qoyıw jaǵdayları da ushıraspaqta.

Shaxmat sózi usi "shah" atınan kelip shıqqan ("shax" - "patsha," "mat" - "óldi" → "patsha óldi"). Búgingi kúnde "shax" ataması tek tariyxıy hám ádebiy mániste saqlanıp qalǵan. Ol anıq siyasiy lawazım sıpatında qollanılmaydı, al mádeniy hám poeziyalıq obraz sıpatında jasap keledi. Kóbinese, tarıyxıy ádebiy shıǵarmalarda eski dáwirlerdi súwretlew ushın qollanıladı.

"**Xan**" sózi túrkiy hám mongol tillerine ortaq. Eń áyyemgi túrkiy jazıwlarda, atap aytqanda, Orxon-Enisey esteliklerinde "qaγan" (qaǵan) hám "qan" (xan) formaları birge ushırasadı. "Qaǵan" - imperiya dárejesindegi joqarı húkimdar.

"Xan" - belgili bir ruw, aymaq yaki qáwim birlespesiniń basshısı.

Tillik jaqtan "xan" sózi áyyemgi túrkiy túbir qan/kan (hákim, jetekshi) formasınan kelip shıqqan. Ayırım ilimpazlar onı monǵol tilindegi qan sózinen alınǵan, yaǵnıy "basqarıwshı" degen mánisti ańlatadı dese, ayırımları bul terminniń túbiri túrkiy tilge tán ekenligin dálilleydi. Qaraqalpaq tiliniń túsindirme sózliginde Xan – burınları mámleket basında turıp, eldi, xalıqtı basqarǵan adam, - dep kórsetilgen [5.352].

“Xan” ataması - túrkiy hám moǹǵol xalıqlarınıń siyasiy-mádeniy tarıyxında hákimiyat hám mámleketshiliktiń simvolına aylanǵan túsinik. Bul sóz ásirler dawamında mámleket

basshısın, el iyesin, xalıq táǵdirin sheshiwshi shaxstı ańlatıp keledi. Túrkiy dáwirden islam dáwirine shekem hám onnan keyin de "xan" sózi kóshpeli hám yarım otırıqshı jámiyetlerdiń siyasiy dúzilisindegi eń joqarı lawazımdı ańlatqan. Qaraqalpaq xalqınıń tarıyxında da bul atama milliy hákimiyat sistemasınıń tiykarǵı túsiniklerinen biri sıpatında qáliplesken.

Qaraqalpaq folklorındaǵı naqıl-maqallarda tómendegishe qollanılǵan:

Xannıń *isi qarashıǵa túser, Biydiń isi urashıǵa túser, Mıń qoylınıń isi bir qoylıǵa túser [7.92].* ***Xan*** *da bolsań kelsaptı ákel,* ***qaynaǵa****![7.121],* ***Xan*** *qaynaǵa, Meniń aytqan sózime inan, qaynaǵa, Biziń jurttı jurt bolsın deseń, Qara* ***qazını*** *ornınan al, qaynaǵa [7.155].*

Genderlik jaqtan “xan” ataması erkekke tán hákimiyat lawazımı. Hayal forması - xanım, yaǵnıy xannıń zayıbı yamasa xan shańaraǵınıń hayalı. Xan obrazı erkekler ústemligin bildiredi. Xan - er adamnıń batırlıǵınıń, aqıl-parasatınıń, qarar qabıl etiw qábiletiniń kórinisi. Búgingi kúnde "xan" sózi tariyxıy hám mádeniy kontekstte saqlanıp qalǵan. Ol anıq mámleketlik titul sıpatında qollanılmaydı.

Patsha – adamzat jámiyetinde mámlekettiń joqarı biylewshisin bildiretuǵın góne hám keń taralǵan atamalarınıń biri. Túrkiy, slavyan, iran hám arab tillik dástúrlerinde patsha termini óz-ara integraciyalasıp, hár dáwirde biylik ierarxiyasınıń simvolına aylandı. Patsha ataması parsı tilinen kirip kelgen. “Pad”- “qorǵawshı”, “biylewshi” degen mánistegi góne túbir. “shah” – “shax” yaǵnıy “patsha”. Demek, “patsha” - “mámleketti qorǵawshı, joqarı biylewshi” degen mánisti bildiredi. Qaraqalpaq tiliniń túsindirme sózliginde bul sózge tómendegishe túsindirme berip ótilgen: **Patsha** – Aziya ellerinde el basqarıwshı, el basshı, el aǵası [4.35].

Patsha obrazı xalıq awızeki dóretpelerinde, eposlarda, ańızlarda hám erteklerde jiyi ushırasadı. Ol geyde ádil, dana el basqarıwshı retinde, geyde zalım, qáhárli hámel iyesi retinde sáwlelenedi. Bunıń ózi xalıqtıń biylikke degen eki túrli kózqarasın kórsetedi: bir tárepten biylikti húrmetlew, ekinshi tárepten ádalatsızlıqlarǵa qarsı shıǵıw.

Qaraqalpaq naqıl-maqallarında patsha sózi jámiyettegi ádillik penen tártipti saqlawshı adam sıpatında sáwlelenedi. Ayırım folklorlıq dóretpelerde, shayır hám jazıwshılardıń kórkem shıǵarmalarında patsha obrazları unamsız ottenokta táriyplengenin bayqawımızǵa boladı. Naqıllarda bul atama joqarı biylik hám zulımlıqtıń simvolı retinde de berilgen. Shaytannıń shárinen, Patshanıń qáhárinen saqla [7.154]. *Patshadan* hámir bolsa, Puqaraǵa ne turıs [7.92]. Patshadan ádillik ketse, áskerinen ayrılar.

Aqmaq jigit ańǵal attay, Ádilsiz *patsha* jańǵan ottay [8.227].

Genderlik tárepten patsha ataması tek er adamlarǵa tán lawazım esaplanadı. Bul sózdiń hayal adamlarǵa patsha ayım forması qollanılǵanlıǵı málim. Al, arab-parsı dástúrinde hayal el basqarıwshıǵa sultansha, malika dep ataw qáliplesken. Patsha ataması er adam biyliginiń simvolı, yaǵnıy jámiyettegi patriarxal sistemanı sáwlelendiredi. Patsha obrazı – erkeklik kúsh, biylik, ádalat hám tártip túsinikleri menen baylanısqan. Hayal adamnıń biylewshilik obrazı siyrek hám kóbinese ayrıqsha jaǵdaylarda ǵana kórinis tabadı (Mısalı, Tumaris, Gúlayım obrazları). Házirgi qaraqalpaq tilinde patsha sózi tarıyxıy mániste ǵana saqlanǵan bolıp, zamanagóy siyasiy sistemalarda qollanılmaydı.

"**Sultan**" sózi arab tilinen alıngan sóz bolıp, tiykargı mánisi - hákimiyat, kúsh, buyrıq, dálil, tásir. Qaraqalpaq tilinde "sultan" sózi bir neshe mániste qollanıladı: 1. Tiykarǵı mánisi - hákimiyat iyesi, tóre, xan tuqımınıń wákili. 2. Awıspalı mánisi - abıraylı, salmaqlı, márt adam.

"Sultan" ataması tiykarınan erkeklerge tán lawazım bolǵan. Biraq, onıń hayallıq forması - sultaná yaki sultansha tarıyxıy jaqtan qollanılǵan. Máselen, Osmaniyler imperiyasında "Xurrem Sultan," "Mehrimah Sultan" sıyaqlı hayal shaxslar ayrıqsha siyasıy tásirge iye bolgan.

Sultan – musılman mámleketlerinde ámir, patsha, xanlar ataǵı [4.337].

El kúsheyse, erler sultan bolar [7.14], Kisi elinde sultan bolǵansha, Óz elińde ultan bol [7.17]. sultan súyegin xorlamas. [8.205].

Orta buwındaǵı basqarıwshılar, yaǵnıy keńesshi lawazımlar qatarına kiretuǵın "**Wázir**" atamasınıń túbiri arab tilindegi "wazīr" sózine barıp taqaladı. Bul sózdiń tiykarı "vazara"- júk kóteriw, juwapkershilik alıw, tayanısh bolıw feyilinen kelip shıqqan. Demek, wázir júktiń awırlıǵın kóteriwshi, yaǵnıy húkimdardıń awır wazıypasın kóteriwshi degen mánisti bildiredi.

Túrkiy mámleketlerde wázir kóbinese aqılgóy, danıshpan, keńesgóy rolin atqarǵan. Xannıń janında otırǵan wázirler - el ishindegi, qońsı mámleketler menen baylanıstaǵı eń tájiriybeli adamlar bolǵan. Qaraqalpaq jámiyetinde bul lawazım kóbinese xan ordasındaǵı másláhátshı biyler hám beklerge teńlestirilgen.

Máselen, xalıq yadında saqlangan: "Xannıń wáziri dana bolsa, el aman, Waziri jalǵan bolsa, el nadan." - dep aytılǵan danalıq sózler de bar.

Wázir – 1. Burınları xan yáki patshanıń eń jaqın aqılgóyi, járdemshisi, keńesgóyi. 2. Ayırım mámleketlerdegi ministr [5.316].

Qız – patsha, jigit – wázir [7.119].

Ayırım folklorlıq shıǵarmalarda qarashı sózi wázir sóziniń mánisin beriw ushın da qollanılǵan. Qaraqalpaq tiliniń túsindirme sózliginde bul sózge **Qarashı** – xan sarayındaǵı aqılgóy, keńesgóy [2.359] dep anıqlama berilgen.

Xannıń *isi qarashıǵa túser, Biydiń isi urashıǵa túser, Mıń qoylınıń isi bir qoylıǵa túser [7.92]. Bir jemese taqandı, Xan jemeydi, Xan qasında qarashı, ne demeydi [8.223]*

Xalıq awzında “Qarasha xannıń tusında, Qatın erdiń qasında” degen de naqıl bar bolıp, bul wázir xannıń arqasında jaqsı jasap, abıroy-ataqqa iye bolsa, hayal adam kúyewiniń arqasında jaynap-jasnap júredi degen mániste aytılǵan.

Tarıyxıy jaqtan "wázir" lawazımı tek erkeklerge tiyisli bolgan. Sebebi, islam hám túrkiy dástúrlerde hákimiyat, sud, diplomatiya sıyaqlı rásmiy wazıypalar erkeklerge júklengen. Biraq, zamanagóy dáwirde "wázir" túsiniginiń ekvivalenti - ministr sózi er hám hayal ushın ulıwma lawazımǵa aylandı. Házirgi túrkiy mámleketlerde hayal ministrlerdiń kóp bolıwı – gender teńlik hám sociallıq evolyuciyanıń kórinisi.

"**Hákim**" sózi arab tilindegi "ḥákim" - "hákimlik etiwshi," "húkim shıǵarıwshı," "basqarıwshı" sózinen kelip shıqqan. Arab tilindegi usı túbirden: húkim - húkim, nızam, tóreshilik; hikmet - danalıq, aqıl; mahkama - sud, ádillik ordası sıyaqlı kóplegen sózler payda bolǵan.

Hákim – belgili bir (rayon yáki qala) aymaqtı basqarıwshı basshı [5.380].

Qaraqalpaq xanlıǵı dáwirinde "hákim" sózi kóbinese basqarıwshı lawazım sıpatında qollanılmaǵan bolsa da, mazmunı jaǵınan bul túsinikke jaqın wazıypalar bolǵan. Mısalı: Bolıs, starshın, biy - aymaqlıq hákimler rolin atqarǵan. Sovet dáwirinen keyin hám házirgi zamanda "hákim" ataması qayta jańalanıp, mámleketlik basqarıw sistemasındaǵı rásmiy lawazım sıpatında ornalastı. Wálayat, rayon, qala, awıl aymaǵın basqarıwshı, Prezident hám Húkimet siyasatın ámelge asırıwshı, xalıq aldında juwapker hákimiyat wákili. Sonıń ushın xalıq danalıǵı: "Hákimi dana el azbas, Hákimi nadan el ońbas" - dep biykar aytpaǵan.

Tarıyxıy jaqtan "hákim" lawazımı erkeklerge tán bolgan. Biraq, házirgi zamanda genderlik biytáreplik rawajlanıp, hayal-qızlar da hákimlik wazıypasında isley basladı. Máselen, búgingi kúnde Ózbekstanda wálayat, rayon, qala hákimleri arasında hayal-qızlar bar. Bul - hákimiyat sistemasınıń gender jańalanıwın hám sociallıq evolyuciyasın kórsetedi.

Qaraqalpaq folklorındağı naqıl-maqallarda hákimlerge hám olardıń zulımlıǵına qarata unamsız kózqarastı baqlawımızǵa boladı. Mısalı, Halwanı hákim jer, Tayaqtı jetim jer [7.93]. Jaqsı hákim eldi dúzer, Jaman hákim eldi buzar [7.15]. Hákimge qarsı bolma, Kúnińe kemshilik keler, Mollaǵa qarsı bolma, Dinińe kemshilik keler [7.108].

"**Katquda**" - parsı tilinen kirgen atama. Tiykarǵı forması "kadkhudā" mánisi "úy iyesi," "máhálleniń basshısı," "awıldıń aqsaqalı." Bul sóz eki komponentten ibarat: kad - "úy, shańaraq", khudā - "xojeyin, quday". Yaǵnıy, tuwra mánisinde "úydiń iyesi" degendi ańlatadı. Orta ásirlerde Iran hám Orta Aziya jámiyetlerinde “kátquda” sózi awıl yaki jámáát basshısın, yaǵnıy jergilikli hákimshilik wákilin ańlatqan.

“Kátquda” túsinigi jámiyettiń tómengi buwınındağı basqarıw strukturasına tán. Ol patsha yáki xan sıyaqlı joqarı húkimdar emes, awıl, máhálle, jámáát dárejesindegi basqarıwshı. Qaraqalpaq mádeniyatında "kátquda" sózi el ishindegi abıraylı, jası úlken, sózi ótimli adamǵa qarata da aytıladı.

Kátquda – 1. Xalıq arasında abıraylı, basqalarǵa sózin tıńlatatuǵın, zárúr kisige durıs keńes bere alatuǵın hám basqalarǵa óz sózin tıńlata hám islete alatuǵın adam, aqsaqal. 2. Jarlı kámbaǵallardıń ústinen qarawshı,eziwshi toparlar, adamlar [2.91].

Qaraqalpaq folklorındağı naqıl-maqallarda kátquda sózi tómendegishe qollanılǵan. Mısalı, Kátqudasız el bolsa, birin-biri talaydı, Kátqudalı el bolsa, birin-biri qorǵaydı [7.14].

Ata násiyatın kóp alǵan kátquda boladı [8.119]. Kátqudasız el bolsa, Shıqqan dawdı kim shesher? [8.201]

Kátquda ataǵı jası hám tájiriybesine qaray húrmetke iye shaxs bolǵanı ushın, kóbinese shańaraqlı, turmıs tájiriybesi joqarı er adamlarǵa berilgen. Hayal variantı (máselen, katkuda hayal) ushırasqan bolsa da, rásmiy lawazım sıpatında qollanılmaǵan. Sonıń ushın bul atama genderlik jaqtan erkeklerge tán sociallıq roldi bildiredi.

Búgingi kúnde "kátquda" sózi hákimshilik atama sıpatında qollanılmaydı, biraq tariyxıy, ádebiy hám etnografiyalıq kontekstte kóp ushırasadı. Házirgi qaraqalpaq tilinde hám kórkem ádebiyatta bul sóz kóbinese tarıyxıy shaxs yamasa dástúriy hákimiyat wákili sıpatında aytıladı.

"**Bek**" (geyde biy, beg) sózi - túrkiy tillerdiń eń eski qatlamına tiyisli sociallıq atama. Bul sózdiń túbiri áyyemgi túrkiy tildegi "beg" túrinde ushırasadı hám "basshı," "er," "urıw jetekshisi," "batır" degen mánilerdi ańlatqan. Bul sóz VIII ásirdegi Orxon-Enisey jazıwlarında da kóp ushırasadı. "Bek" - xannan keyingi eń abıraylı sociallıq topardıń wákili, yaǵnıy urıw-taypa basshıları hám láskerbasshılardıń atı bolgan. Sózdiń etimologiyalıq tiykarında "bek bolıw" - "er bolıw, kúsh iyesi bolıw, biylik júrgiziw" mánisi jatadı.

Bek – eldi biylewshi baylarǵa, mayda feodallarǵa hám de olardıń xızmet etiwshi adamlarına beriliwshi ataq, lawazım [1.59].

Mısalı, Ashtan alǵıń bolmasın, Bekten bergiń bolmasın [7.107]. Aqımaq ózin bek sanar [8.88].

"Bek" - genderlik jaqtan erkekke tán atama. Hayallıq forması ayırım tarıyxıy dáwirlerde "biyke," "begim" túrinde ushırasqan. Bul atamalar erkekke teń hayal shaxsın bildirse de, olardıń hákimiyat huqıqı sheklengen edi. Demek, "bek" sózi arqalı qáliplesken gender sisteması patriarxal jámiyettiń hákimiyat hám erlikti erkek shaxsı menen birlestirgen dástúrin belgileydi.

"**Bolıs**" - Volost - rus tilindegi orta ásirlik hákimshilik-aymaqlıq birlik ataması bolıp, sózdiń kelip shıǵıwı slavyan tilinen, "власть" (húkimet, wákillik) sózi menen baylanıslı. Tarıyxıy dáwirde Rossiya imperiyası qaraqalpaq jerlerin basqarganda, rus hákimshilik sisteması

qaraqalpaq hákimshilik birlikleri menen salıstırıldı. Sol waqıtta bolıs basqarǵan aymaq rásmiy hújjetlerde volost dep atalǵan.

Sózdiń strukturası hám mánisi hákimiyat, juwapkershilik, basqarıw túsiniklerin óz ishine aladı."Bolıs" túsinigi qaraqalpaq jámiyetinde qala hám awıl hákimshilik sistemasınıń áhmiyetli buwını bolǵan. Bolıs: aymaqlıq sud wazıypasın atqarǵan, salıq jıynaw hám jer bólistiriw jumısların alıp barǵan, xalıq arasındaǵı dawlardı sheshken.

Bolıs – 1. Patshalıq Rossiya uezdiniń bir bólimi esaplanǵan eski administrativlik-aymaqlıq bóliniw, volost. 2. Usınday bóliniwdiń (volosttıń) basqarıwshısı, meńgeriwshisi, baslıǵı [1.169].

Mısalı, Abıray aqsaqal bolǵanıń, Bolıs bolsań kisi jer-eń [7.154].

"Bolıs" sózi dástúriy túrde er adamǵa tán lawazım. Jámiyette awıl yamasa uezd basqarıwı, salıq jıynaw, kelispewshiliklerdi sheshiw erkekler wákilliginde bolǵanı ushın, hayallar bul lawazımǵa iye bolmaǵan. Solay etip, "bolıs" sózi patriarxal sistemanıń kórinisi sıpatında tarıyxıy genderlik ózgeshelikti kórsetedi.

Búgingi kúnde "bolıs" sózi rásmiy hákimshilik lawazım sıpatında qollanılmaydı, biraq tarıyxıy hám mádeniy mánisin saqlap qalǵan. Tarıyxıy-folklorlıq kontekstte, kórkem ádebiyatta qollanıladı.

"**Tóre**" sózi áyyemgi túrkiy tillerde payda bolıp, dáslep xanlıq yaki sultanlıq tuqımnan shıqqan shańaraqtıń aǵzasın, xannıń tuwısqanın bildirgen. Etimologiyalıq jaqtan "tore" sózi "tór" (orın, tór, basshı orın)" degen mánisten kelip shıqqan dep esaplanadı. Yaǵnıy, sózbe-sóz awdarması - "tórde otırǵan, tór iyesi," yaǵnıy hákimiyatqa hám abırayǵa iye adam. XVIII-XIX ásirlerdegi qaraqalpaq xanlıǵı hám hákimiyat dúzilisinde xan shańaraǵınıń aǵzaları, mámleket hákimiyatınıń joqarı sheńberinde turǵan shaxslar, qáwimler aralıq kelisimler hám diplomatiyalıq qatnasıqlarǵa aralasqan. Qaraqalpaq mádeniyatında "tore" sózi urıw hám qáwim abırayın, milliy dástúr hám patriarxal tártipti saqlawshı sıpatında qádirlengen.

Tóre – feodallıq jámiyette ústemlik etiwshi, biylewshi adam, aqsúyek. Tóre – xan hámeldarlarınıń atı [5.211].

Mısalı: Tóre bilgen *tóreshige* barmas [7.82]. Jigittiń tóresi bolsa, Sóziniń shiresi bolǵanı [7.138]. Tórttiń biri *tóre* degen, Qırqtıń biri *qıdır* degen [7.109]. *Tóreshiden* qalmas, *Aytıwshıdan* qalar [7.110]. Dawdı dawlay bilmegen, Tóresinen kóredi [7.154].

Túri jaqsınıń belgisi, Birde tóre, Birde qul [8.38] Tóre bilgen, tórege barmaydı, tóre de ózińdey kisi [8.225].

"Tore" sózi dástúriy túrde er adamǵa tán atama. Sebebi, xanlıq shańaraǵı ishinde anıq hákimiyat, áskeriy hám siyasıy xızmetlerdi er adamlar atqarǵan. Hayallar, xanımlar, malikalar tóreshilikke qatnasqan bolsa da, "tóre" ataması tek erlerge berilgen.

Láshkerbası – sózi parsı tilindegi lashkar "ásker, láshker, jawınger topar" degen sózden alınǵan. "Bası" - túrkiy element, "jetekshi, basshı, húkimdar" degen mániste. Demek, "láshkerbası" sóziniń túp mánisinde "armiyanıń basshısı," yaǵnıy házirgi túsinikte bas sárkarda, armiya basshısı, áskeriy ministr degen mánisti ańlatadı. Bul atama orta ásirlerdegi Túrkiy hám Orta Aziya mámleketlerinde keńnen qollanılǵan.

Láshkerbası – áskerlerdi basqarıwshı, basqarıp barıwshı, jol baslawshı adam, kisi [3.99].

Láshkerbası sheber bolsa, dushpan ayaq astında [7.89].

"Lashkerbası" sózi - er adamǵa tán lawazım ataması. Tarıyxıy jaqtan áskeriy basshılıq, urısqa barıw erkeklerdiń wazıypası esaplanǵan, sonıń ushın hayal adam bul at penen atalmaǵan. Biraq, ayırım ańız hám dástanlarda batır hayallar obrazı arqalı "hayal áskerbası ruwxı"

sıpatlanıp, gender sheklewdiń ruwxıy jaqtan keńeytilgenin kóremiz. Biraq, rásmiy hám anıq lawazımlıq jaqtan "lashkerbası" tek er adamǵa baylanıslı qollanılǵan.

Qazı sózi arabsha- sheshiwshi, húkim shıǵarıwshı, sud degen mánisti ańlatadı. Islam dininiń tarqalıwı menen bul atama túrkiy, parsı hám basqa da musılman xalıqlarınıń tiline keńnen sińdi.

Qaraqalpaqlar arasında islam dini ornaǵan dáwirden baslap, qazı ataması da hákimiyat sistemasında turaqlı atama sıpatında qollanıla basladı. Qazı - tek sud lawazımı emes, al ádillik, shárıyat, haqıyqat túsiniklerińiń mádeniy kórinisin bildiredi. Qaraqalpaq jámiyetinde qazı obrazı - tuwrı sózli, dinshil, ádil tóreshi, haqıyqatlıqtıń wákili. Máselen, "Hámme qazı aldında teń" degen princip jámiyette huqıqıy sananıń qáliplesiwine xızmet etken.

Tarıyxıy jaqtan qaraǵanda, qazı lawazımı tek er adamǵa tiyisli bolǵan. Bul islam huqıqıy dástúri menen de, patriarxal jámiyet dúzilisi menen de baylanıslı. Hayal-qızlar qazı bolmaǵan, biraq ayırım musılman mámleketlerinde XX ásirden keyin hayal-qızlardıń qazı bolıp xızmet etiw tájiriybesi payda boldı. Qaraqalpaq mádeniyatında qazı - er adamnıń abıraylı, bilimli hám ádil kórinisin qáliplestiredi. Hayaldıń jámiyettegi rolin sheshiwshi emes, másláhátshi yamasa gúwa dárejesinde kórsetiw sol dáwirdiń gender dúzilisin kórsetedi.

Qazı – din boyınsha biylik etetuǵın adam, diniy huqıq boyınsha húkim shıǵarıwshı, tóreshi [2.315].

Qazı – xan aqasında, Qarasha – jar basında [7.34].

Dawageriń qazı bolsa, Dadıńdı Alla bersin [8.236]. Qatarıńa qazı bol [8.106].

Házirgi waqıtta Ózbekstanda qazı lawazımı rásmiy mámleketlik sistemada joq. Biraq, bul atama diniy tarawda, yaǵnıy Ózbekstan musılmanları basqarması quramında qazı hám bas qazı lawazımları túrinde saqlanıp qalǵan. Olardıń wazıypası shárıyat tiykarında diniy máseleler boyınsha keńes beriw, neke menen talaq islerine baylanılı máslahatlar beriw sıyaqlı xızmetler bolıp tabıladı.

Aqsaqal sózi eki túbirden quralǵan: aq hám saqal. Aq - pákliktiń, danıshpanlıqtıń, hadallıqtıń, turmıslıq tájiriybeniń belgisi. Saqal - er adamnıń jası hám mártebesin bildiretuǵın fiziologiyalıq belgisi. Tikkeley mánisi - saqalı aǵarǵan, yaǵnıy ǵarrı adam, biraq semantikalıq jaqtan bul sóz jası úlken, tájiriybeli, dana, húrmetli adam degen sociallıq mániske iye.Tarıyxıy maǵlıwmatlarda "aqsaqal" sózi áyyemgi túrkiy zamanlardan baslap ushırasadı. Mısalı, Orxon-Enisey jazıwlarında "jasuluq" (aqsaqallar keńesi aǵzası) túsinigi menen birge qollanılǵan uqsas sózler bar.

Mánileri 1. Jası úlken, saqalı aǵarǵan erkek; 2. Awıldıń, ruwdıń yaki eldiń aqılgóyi, abıraylı qarıya; 3. Húrmetli ataq iyesi (máselen, "aqsaqallar keńesi") 4. Ayırım jaǵdaylarda húrmetli atama sıpatında - "el aǵası," "ata" sinonimlerinde.

"Aqsaqal" sózi atınan-aq belgili bolıp turǵanınday, tek erkekke tán gender atama. Hayaldıń usı rolge uqsas ekvivalenti sıpatında "aq jawlıqlı ana," "ana" yamasa "húrmetli ájapa" sıyaqlı atamalar qollanıladı. Demek, aqsaqal - erkeklerdiń sociallıq abırayı hám danıshpanlıǵın sáwlelendiretuǵın gender belgisi. Ol jámiyetlik hákimiyattıń rásmiy emes, ruwxıy túrin ámelge asıradı.

Kósem sózi túrkiy tildegi júdá áyemgi atamalardan biri. Eski túrkiy tildegi kósüm / kósem forması "aldında júriwshi," "jetekshi," "jol baslawshı" degen mánisti ańlatqan. Bul sózdiń túbiri kos- (júriw, sozılıw, alǵa shıǵıw, baslaw) feyili menen baylanıslı. Sonıń ushın kósem degen - aldıńǵı qatardaǵı adam, jol baslawshı, jetekshi. Qaraqalpaq mádeniyatında jetekshi túsinigi tek ǵana siyasıy basshılıqtı emes, al ruwxıy, morallıq hám qaharmanlıq basshılıqtı da

ańlatadı. Kósem - eldiń jolın anıqlawshı, jámááttiń baǵdarın kórsetiwshi, mártlik hám aqıl-parasat iyesi.

Tarıyxıy jaqtan sárdar lawazımı erkeklerge tán túsinik esaplanǵan. Qaraqalpaq jámiyetinde jetekshilik - batırlıq, hákimiyat hám er adamlardıń siyasıy ústemligin sáwlelendiretuǵın túsinik. Házirgi waqıtta genderlik jaqtan bul sózdiń biytáreplesiw tendenciyası baqlanbaqta.

Kósem – 1. Hámmege, kópshilikke tanılǵan, kópshilik tárepinen moyınlanǵan ideyalıq, siyasiy basshı. 2. Urıw, qáwim basshıları. 3. Jón-josaqtı biletuǵın, qıyın qıstawda aqıl tabatuǵın kisi, danıshpan [2.230].

Kósewi joq ot janbas, Kósemi joq jurt ońbas. [7.13]

Biy - túrkiy tildegi eń áyyemgi jámiyetlik atamalardan biri. Ol áyyemgi túrkiy tildegi beg, bey, biǵ, biy formalarınan kelip shıqqan. Dáslep bul atama "mırza," "basshı," "aq súyek," "el iyesi" degen mánisti ańlatqan. Orxon-Enisey jazıwlarında da bul sózdiń túbiri ushırasadı: beglerim (beklerim, biylerim) dep xan óz keńesgóylerin ataǵan. Demek, biy sózi dáslep hákimiyat iyesi, aqsúyek topar wákili sıpatında qollanılǵan.

Biyler - eldiń awızbirshiligin saqlawshı, millettiń morallıq-ádep-ikramlılıq normaların qorǵawshı.

"Biy" sózi genderlik jaqtan er adamǵa tán atama bolıp qáliplesken. Sebebi, dástúriy qaraqalpaq jámiyetinde huqıqıy hám siyasıy hákimiyat er adamlar qolında bolǵan. Biy bolıw ushın adam: urıw ishinde abıraylı, sózge sheshen, xalıqtıń úrp-ádetin tereń biletuǵın, ádil hám dinshil bolıwı kerek bolǵan. Házirgi kúnde xalıq arasınan jası úlken adam kóshe biyi, awıl biyi etip saylanıp, sol biy barlıq toy-merekelerde shólkemlestiriw jumıslarına basshılıq etedi hám basqalar sol biydiń aytqanın qıladı.

Biy – burın urıw aqsaqalın biy dep ataǵan. Ol áyyem zamanlardan solay atalıp kelip, onnan úlken hámel bolmaǵan [1.98].

Besiktegi balanıń, *Biy* boların kim bilsin, Qarındaǵı qarnanıń, *Xan* boların kim bilsin [7.91]. Kenegestiń biyi de ulama, *Biykesi* de ulama [7.32]. *Biy* ekew bolsa, daw tórtew bolar, Xan ekew bolsa, jurt talaw bolar [7.18].

Elge panasız bolsa saydan bez, námárt bolsa biyden bez.[8.182]. Shın biy sózińe baǵadı, sum biy kózińe baǵadı [8.225].

Naqıl-maqallarda mámleket basqarıwǵa baylanıslı obrazlardıń basım kópshiligi er adamlar menen baylanıslı. Bul – tábiyiy qubılıs. Sebebi, hám fizikalıq, hám aqılıy kúshti kóbirek talap etetuǵın el basqarıw, urıs, sheshim qabıllaw sıyaqlı wazıypalar erlerdiń moynındaǵı minneti dep tanılǵan. Jáne de bul tarıyxıy dástúr menen sociallıq qurılımnıń kórinisi. Házirgi waqıtta genderlik teńlik penen demokratiyalıq basqarıw túsinikleri jańa mániske iye boldı. Xalıqtıń naqıl-maqallarda saqlanǵan dástúriy túsinikleri – milliy sana menen mádeniy dawamıylıqtıń ústini.

Xalıq awızeki dóretpelerindegi biylik uǵımı kognitivlik jaqtan huqıq, ádillik, erlik, parasat uǵımları menen baylanısadı. Er adamǵa tán kognitivlik koncept – erlik, batırlıq, biylik júrgiziw, al hayal adamǵa tán koncept – parasat, iybelilik, bereket saqlaw.

Lingvomádeniy jaqtan naqıl-maqallarda mámleket basqarıw atamaları xalıq idealınıń kórsetkishi retinde qollanıladı. Mısalı, Xan – biyik mártebe, aqıl menen ádillik nıshanı, biy – sheshenlik penen parasat ólshemi, ruwxıy tirek, tárbiya baslawshısı. Bunday qurılım til menen mádeniyat arasındaǵı baylanıslılıqtı dáliylleydi. Tilde saqlanǵan naqıl-maqallar xalıqtıń tarıyxıy siyasıy tájiriybesin, dúnyaǵa kózqarasın, morallıq sistemasın kórsetedi.

PAYDALANILǴAN ÁDEBIYATLAR

1. Қарақалпақ тилиниң түсиндирме сөзлиги. II том. Нөкис. Қарақалпақстан.
2. Қарақалпақ тилиниң түсиндирме сөзлиги. IV том. Нөкис. Қарақалпақстан.
3. Қарақалпақ тилиниң түсиндирме сөзлиги. V том. Нөкис. Қарақалпақстан.
4. Қарақалпақ тилиниң түсиндирме сөзлиги. VI том. Нөкис. Қарақалпақстан.
5. Қарақалпақ тилиниң түсиндирме сөзлиги. VII том. Нөкис. Қарақалпақстан.
6. Қарақалпақ тилиниң түсиндирме сөзлиги. Төрт томлық. IV том. Нөкис. Қарақалпақстан.
7. Қарақалпақ фольклоры. 88 том. Нақыл-мақаллар. Нөкис. Илим. 2015.
8. Қарақалпақ фольклоры. Көп томлық. IV том. Нақыл-мақаллар. Нөкис. Қарақалпақстан. 1978.

YOSHLAR MA’NAVIYATI - KELAJAK JAMIYATNING POYDEVORI

Raxmatullayeva Gulnozaxon Mavlanjonovna
Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy va amaliy fanlar fakulteti
MG‘MAHT kafedra mudiri p.f.b.f.d (PhD), dotsent
https://doi.org/10.5281/zenodo.17667261

Annotatsiya. *Mazkur maqolada yoshlar ma’naviyatining bugungi jamiyatdagi o‘rni, uning kelajak taraqqiyoti uchun tutgan ahamiyati, yosh avlodni barkamol va ongli shaxs sifatida voyaga yetkazishdagi muhim omillar haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, ma’naviy qadriyatlarni shakllantirishda ta’lim muassasalari, oilaning roli va davlat siyosatining ta’siri yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Ma’naviyat, yoshlar, tarbiya, qadriyatlar, ong, ijtimoiy muhit, ta’lim, milliy g‘oya, ma’rifat.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается роль молодежной духовности в современном обществе, ее значение для дальнейшего развития, важные факторы воспитания подрастающего поколения как гармоничной и сознательной личности. Также будет освещена роль образовательных учреждений, семьи и влияние государственной политики на формирование духовных ценностей.*

Ключевые слова: *духовность, молодежь, воспитание, ценности, сознание, социальная среда, образование, национальная идея, просвещение.*

Annotation. *This article reflects on the role of youth spirituality in today's society, its importance for future development, important factors in bringing the younger generation to adulthood as a harmonious and conscious person. Also, the influence of educational institutions, the role of the family and public policy in the formation of spiritual values is highlighted.*

Keywords: *spirituality, youth, upbringing, values, consciousness, social environment, education, national idea, enlightenment.*

KIRISH

Har qanday jamiyatning taraqqiyoti, barqarorligi va istiqboli avvalo uning yosh avlodiga bog‘liq. Aynan yoshlar – jamiyatning kuch-g‘ayrati, harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Shu bois bugungi globallashuv jarayonida yoshlar ma’naviyatini mustahkamlash, ularning ongini yot g‘oyalardan himoya qilish dolzarb vazifalardan biridir. Zamon talablariga mos, o‘zligini anglagan, o‘z fikriga ega, vatanparvar yoshlarni voyaga yetkazish har qanday jamiyatning ustuvor maqsadidir. Shu sababli bugun yoshlar ma’naviyatini shakllantirish masalasi nafaqat tarbiya jarayonining, balki jamiyatning barqarorligiga xizmat qiluvchi poydevor sifatida qaralmoqda. Ma’naviy yetuk yosh – bu mustaqil fikrlaydigan, vatani, millati, xalqini sevuvchi, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan shaxsdir. O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati doirasida ma’naviy-ma’rifiy ishlar keng miqyosda yo‘lga qo‘yilgan. “Yoshlar – kelajagimiz” dasturi, “Ma’naviyat oyligi”, “Kitobxonlik haftaligi” kabi loyihalar orqali ularning intellektual va ma’naviy salohiyatini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat” tamoyili ana shu yo‘nalishdagi strategik yondashuvning asosiy tayanchi bo‘lib xizmat qilmoqda. Ushbu tamoyil asosida ta’lim tizimini chuqur isloh qilish, uzluksiz va sifatli bilim

berishga qaratilgan huquqiy asoslarni yaratish bo‘yicha qator muhim hujjatlar, xususan, PQ-4310 va PQ-3775-sonli Prezident qarorlari qabul qilindi[10]. Shuningdek, Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasi doirasida yoshlar tarbiyasi asosiy ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Yoshlarda ma’naviyat shakllanishi ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, unda ijtimoiy institutlar – oila, maktab, jamiyat va davlat muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi qonuni va qator hukumat qarorlarida yosh avlodni ma’naviy, axloqiy va estetik tarbiyalash muhim vazifa sifatida belgilangan[11]. Shu bilan birga, yoshlarning ma’naviy tarbiyasi nafaqat rasmiy ta’lim orqali, balki norasmiy muhit, ya’ni ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari, do‘stlar, madaniy muhit orqali ham shakllanadi. Afsuski, bugungi global axborot maydonida ma’naviyatga zid g‘oyalar, virtual dunyodagi beqarorliklar, zo‘ravonlik targ‘iboti yoshlarning ruhiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shuning uchun ham ijtimoiy ongni to‘g‘ri shakllantirish va ma’naviy immunitetni oshirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Oila – yosh insonda dastlabki axloqiy qarashlar va qadriyatlar shakllanadigan muhitdir. Ota-onaning har bir so‘zi, harakati, dunyoqarashi bolada hayotga bo‘lgan munosabatni belgilaydi. Farzandlar orasida eng oddiy tushunchalar – rostgo‘ylik, halollik, mehnatsevarlik, kattaga hurmat, kichikka izzat kabi fazilatlar aynan oilada shakllanadi. Biroq zamonaviy oilalarda vaqt yetishmasligi, ota-onalarning bandligi sababli bu tarbiya yo‘nalishida bo‘shliqlar yuzaga kelmoqda. Bugungi ta’lim tizimi yoshlarni nafaqat bilimli, balki yuksak axloqiy mezonlarga ega shaxs sifatida tarbiyalashga qaratilgan. “Ma’naviyat asoslari”, “Milliy g‘oya” kabi fanlar, darsdan tashqari mashg‘ulotlar, teatr, muzey va kutubxonalarga tashriflar yoshlarda estetik didni shakllantiradi. Shu o‘rinda pedagoglarning rolini ham alohida ta’kidlash lozim. Ustoz faqat bilim beruvchi emas, balki hayotiy yo‘l ko‘rsatuvchi yetakchi bo‘lishi kerak. So‘nggi yillarda yoshlarga oid davlat siyosati misli ko‘rilmagan darajada faollashdi. “Yoshlar ishlari agentligi”, “Yoshlar daftari”, “Yoshlar parlamenti” kabi tashabbuslar yoshlarni siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotga jalb qilmoqda. Ayniqsa, har bir hududda tashkil etilgan “Yoshlar markazlari”da tashkil etilayotgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar yoshlarning salohiyatini yuzaga chiqarish uchun qulay sharoit yaratmoqda. Bugungi zamon yoshlarini faqat milliy qadriyatlar bilan tarbiyalab bo‘lmaydi. Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma’naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o‘lmas meros hamisha yonimizda bo‘lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag‘ishlashi lozim. Avvalambor, milliy ta’lim tizimini ana shunday ruh bilan sug‘orishimiz kerak. Buning uchun olim va mutaxassislarimiz, hurmatli ulamolarimiz bu ma’naviy xazinani bugungi avlodlarga sodda va tushunarli, jozibali shakllarda yetkazib berishlari zarur[12]. Ular global jarayonlarni tushunadigan, tanqidiy fikrlay oladigan, ijtimoiy tarmoqlarda faol, ammo ongli bo‘lishlari zarur. Ma’naviy immunitet bu – yoshlarning har qanday yot g‘oyaga qarshi fikr bilan javob bera olishi, manipulyatsiyalarga berilmasligi, o‘z iymoni va e’tiqodiga sodiq bo‘lishidir. Bunday yoshni yetishtirish uchun esa ustozlar, ota-onalar va jamiyat bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilishi kerak. Har qanday bino poydevor ustiga quriladi. Agar poydevor mustahkam bo‘lsa, bino yillar

[10]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4310-sonli qarori – “Kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. – Toshkent, 2019

[11] https://lex.uz/docs/-3026246 O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 14.09.2016 yildagi “Yoshlarga oid davlat siyosati” to‘g‘risidagi O‘RQ-406-son

[12] **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi.** https://xabar.uz/uz/jamiyat/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning

davomida bardavom turadi. Xuddi shuningdek, jamiyat ham o‘z taraqqiyotini, barqarorligini va kelajagini ishonchli poydevor – yuksak qadriyatlar, bilimli va ma’naviyatli yoshlar, adolatli boshqaruv, qonun ustuvorligi asosida quradi. Yoshlar har qanday jamiyatning ertangi kuni, harakatlantiruvchi kuchi va davomchisidir. Ularda bilim, energiya, innovatsion fikr bor. Ammo bu kuchni to‘g‘ri yo‘naltirish, ularni tarbiyalash, ma’naviyat bilan qurollantirish – kelajak poydevorini to‘g‘ri qo‘yish demakdir. Insoniyatning madaniy, axloqiy va ruhiy qiyofasi jamiyatga qanday shakl berishini belgilaydi. Texnologiya taraqqiyoti muhim, biroq u ma’naviyat bilan uyg‘unlashmaguncha haqiqiy yutuq bo‘la olmaydi. Shu bois kelajak jamiyati faqat texnik qudrat emas, balki yuksak ma’naviyat bilan barpo etilishi mumkin. Sifatli ta’limsiz kuchli jamiyat bo‘lishi mumkin emas. Har bir rivojlangan davlatning ortida kuchli ta’lim tizimi turadi. O‘z navbatida, ta’lim faqat bilim emas – ong, tafakkur, qarash, muomala, fuqarolik mas’uliyati shakllanadigan muhitdir. Jamiyat qanday bo‘lishi kerak degan savolga javob oilada shakllanadi. Har bir insonning asosiy qadriyatlari, axloqi va ijtimoiy mas’uliyati oila muhiti orqali beriladi. Har bir sog‘lom oila – sog‘lom jamiyatning kichik modeli hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish – bu faqat tarbiya yoki ta’lim sohasi emas, balki butun jamiyatning umumiy vazifasidir. Ma’naviy yetuk avlod – bu mustaqil O‘zbekistonning porloq kelajagi, barqaror taraqqiyotining kafolatidir. Har bir ota-ona, ustoz, jamiyat a’zosi bu yo‘nalishda mas’uliyatni chuqur his etib, o‘z hissasini qo‘shmog‘i zarur. Yoshlar ma’naviyati bu – kelajak jamiyatining poydevori, ijtimoiy barqarorlikning kafolati va milliy taraqqiyotning asosiy omilidir. Har bir jamiyat o‘z kelajagini ta’minlamoqchi bo‘lsa, yoshlar bilan ishlashni faqat targ‘ibot-tashviqot emas, balki chuqur strategik jarayon sifatida ko‘rishi lozim. Ma’naviyatli yosh – bu mustaqil fikrlovchi, ezgulikka intiluvchi, o‘zligiga sodiq, vatani uchun xizmat qilishga tayyor shaxsdir. Bunday avlodni yetishtirish esa bizning burchimiz, mas’uliyatimiz va sharafimizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. Mirziyoyev Sh. “Yangi O‘zbekiston – ma’naviyatli jamiyat sari.” – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2022.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4310-sonli qarori – “Kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. – Toshkent, 2019.
4. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.” – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori “Yoshlar – kelajagimiz” dasturi to‘g‘risida.
6. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim vazirligi tomonidan chop etilgan “Ma’naviyat asoslari” darsligi, 2023.
7. “Yoshlik” va “Guliston” jurnallari maqolalari (2023–2024 yillar sonlari).

OILA MUSTAHKAMLIGINI TA’MINLASHDA YOSHLAR TARBIYASINING AHAMIYATI

Rustamova Ra'no Parpiyevna
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Biologiya va ekologiya fakulteti Ekologiya kafedrasi dotsenti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17667271

Annotatsiya*. Oila - bu kichik jamoadir. Unda o‘zaro muomalaning barcha qoidalariga amal qilishi zarur. Kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, bir biriga mehribon bo‘lish, ayniqsa ayollarni e'zozlash kabi qoidalar kundalik odatga aylanib borishi lozim. Ular orasidagi ahloq madaniyatiga alohida e’tibor qaratiladi. Oila xalqning, jamiyatning hayoti, turmushga oid urfodatlarni o‘zida mujassam etishi va asrab avaylab kelajak avlodlarga yetkazishi uning muhim vazifalardan biridir. Ushbu maqolada oila mustahkamligini ta’minlashda yoshlar tarbiyasining o‘rni haqida fikr va mulohazalar o‘rganiladi va ma’lumotlar to‘planib tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *oila, jamiyat, yoshlar, millat, taraqqiyot, vatanparvarlik tamoyillari, tarbiyaning ahamiyati, barkamol shaxs, oila mustahkamligi.*

Аннотация. *Семья – это маленькое сообщество. Необходимо соблюдать все правила взаимодействия. Такие правила, как уважение к старшим, почитание детей, доброта друг к другу, особенно к женщинам, должны стать ежедневной привычкой. Особое внимание уделяется нравственной культуре среди них. Одной из важных задач семьи является воплощение жизни народа, общества, традиций, связанных с браком, и их бережное сохранение и передача будущим поколениям. В данной статье изучены мнения и мнения о роли воспитания молодежи в обеспечении стабильности семьи, собраны и проанализированы данные.*

Ключевые слова: *семья, общество, молодежь, нация, развитие, принципы патриотизма, значение воспитания, всесторонняя личность, сила семьи.*

Abstract. *The family is a small community. All interaction rules must be followed. Rules such as respect for elders, honoring children, kindness to each other, especially to women, should become a daily habit. Particular attention is paid to the moral culture among them. One of the important tasks of the family is the embodiment of the life of the people, society, traditions associated with marriage, and their careful preservation and transmission to future generations. In this article, opinions and opinions on the role of educating young people in ensuring family stability are studied, data are collected and analyzed.*

Keywords: *family, society, youth, nation, development, principles of patriotism, the.*

Oila jamiyat tarixida azaldan mavjud bo‘lmagan. Ibtidoiy jamoa tuzumining birinchi bosqichida, kishilar to‘da-to‘da bo‘lib yashayotgan davrda jinslar orasidagi munosabatlar muayyan tartib-qoidaga ega bo‘lmay, to‘dadagi barcha erkaklar va ayollar bir-birlariga umumiy er-xotin hisoblangan. Tarixiy taraqqiyot jarayonida jinsiy munosabatlar asta-sekin muayyan tartibga solina boshlandi. Dastlab ota-ona bilan farzandlar, so‘ngra aka-uka va opa-singillar orasidagi jinsiy munosabatlar taqiqlanib guruhli oila paydo bo‘lgan.

Oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisa sanalsada, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy munosabatlar bilan belgilanadi va ular ta’sirida o‘zgarib boradi. Shunga

muvofiq, har bir jamiyat o‘zgarib mos oila tipini, oilaviy munosabatlarni o‘rnatadi. Xususan, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdan ko‘zlangan asosiy maqsad jamiyatning turli sohalarida, ayniqsa, harbiy soha bilan bog‘liq bo‘lgan davlat xizmati turlarida faollik ko‘rsatish, tinch-osoyishta sharoitlarda Konstitutsiya va harbiy burchga sodiq qolishdan iborat. va harbiy muhitni shakllantirish, ularda yuksak mas'uliyat va mas'uliyat kabi muhim xususiyatlarni shakllantirish muhimdir.

Yoshlarni tarbiyalash tizimi uzluksiz jarayon bo‘lib, bir-biri bilan bog‘liq siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, mafkuraviy, madaniy-ma’rifiy tadbirlar majmuasidan iborat. Xususan, ta’lim-tarbiya jarayonining eng muhim va asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan bog‘chadan boshlab, ijtimoiy-ma’naviy qadriyatlarni shakllantirish va rivojlantirish, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta maktablar, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi va oliy o‘quv yurtlari, shuningdek, davlat va nodavlat tashkilotlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va barcha huquqni muhofaza qiluvchi organlar, faxriylar kengashlari, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tuzilmalari va boshqa tashkilotlar yoshlarni tarbiyalashga xizmat qilishi lozim.

Oila tarbiyasi ijtimoiy tarbiya bilan uzviy aloqada bo‘lsagina, kutilgan natijalarga erishish mumkin. Oila tarbiyasida yutuqlarga erishish ota-onalarning pedagogik bilimlarga egaligi, Oila tarbiyasi bo‘yicha tajribalar almashishi, ota-onalarni tarbiyaviy ishlarga qizg‘in jalb qilishga ham bog‘liqdir. Har bir ota-ona oila tarbiyasida o‘zlarining burch va mas’uliyatlarini chuqur anglashlari lozim.

Yoshlarni oila va mahalla hamkorligida vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy tamoyillari – bu jarayonning ilmiy asoslari, muntazamligi, ta’lim va amaliyotning o‘zaro uyg‘unligi, tarixiylik va zamonaviylik bilan uzviy bog‘liqligi, tarbiyalash usullari. yoshlarni vatanparvarlik ruhida - zarur hayotiy bilim, ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan, bilasizmi? Davlat yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimini tashkil etish, uning natijalarini nazorat qilishni ta’minlovchi asosiy institutdir. Davlat yosh avlodning oilada, maktabgacha ta’lim muassasalarida, umumta’lim maktablarida, oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida, harbiy xizmatni o‘tash davrida, shuningdek, o‘zini o‘zi boshqarish organlari, turli davlat va jamoat tashkilotlari miqyosida tarbiyalash jarayonini tashkil etadi. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash asosan to‘rt bosqichda amalga oshiriladi: bu bosqichda ona shahar haqidagi ilk obrazlar paydo bo‘ladi, bu bosqichda oilada bolalarga turli she’rlar, kuy va qo‘shiqlar o‘rgatish nazarda tutiladi. maktabgacha ta'lim muassasalari, multfilmlar va elektron o‘yinlarni ko‘rsatish, rasm chizish orqali dunyoni tushunish, muhabbatni shakllantiradi.

Oila, odob-axloq va ta'lim-tarbiyaga e'tibor qon-qonimizga singib ketgan burchlarimizdandir. “Bir bolaga yetti qo‘shni ota-ona” degan ibratli maqol ham aynan xalqimizga xos. Mana shu maqolning o‘zi ham farzand tarbiyasi, oilaparvarlik biz uchun nechog‘lik muhim ekanini bildiradi. Mahalla ahli, ayniqsa keksalar ko‘chada nobop ish qilayotgan bola oldidan hech qachon beparvo o‘tib ketmagan, shu zahotiyoq tanbeh berib to‘g‘ri yo‘lga chaqirgan. Zero, har tomonlama chiroyli, odobli, go‘zal xulqli bo‘lish, nafsni poklashga buyuruvchi muqaddas dinimiz oilaga katta ahamiyat beradi.

Inson hayoti davomida biror shaxsni o‘ziga o‘rnak deb biladi, bundan inson u kabi hayot kechirishni, u erishgan yutuqlar kabi muvaffaqiyatlarga erishishni, yuksak cho‘qqilarga chiqishni ko‘zlaydi. Bugun jamiyatning yosh a'zolari o‘z hayotlari uchun boshqa madaniyat vakillarining fikrlash va hayot tarzini o‘rnak qilib olishlari ko‘p muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bugungi kunda oilaviy tarbiyaning qiyinlashuvi shundaki, birinchidan, jamiyat taraqqiy etib borgani sari

har tomonlama yetuk insonni shakllantirish talablari ortib boraveradi. Bu esa oilada bolaga estetik, jinsiy tarbiya, axloqiy tarbiya berish sifati va ko‘lamini oshirish talabini qo‘yadi. Yoshlarning qalbi va ongida sog‘lom hayot tarzi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg‘usini shakllantirishda, har jihatdan barkamol etib tarbiyalashda buyuk mutafakkir ajdodlarimiz merosi katta ahamiyat kasb etadi. Zero, hayotning asl mazmun-mohiyatini anglab yetishga o‘z umri va salohiyatini bag‘ishlagan allomalarimizning asarlarida sog‘lom avlod tarbiyasi bilan bog‘liq masalalarga alohida o‘rin berilgan.

Oiladagi muhit ota-ona o‘z ma'suliyatlarini his qilishi bilan barqaror bo‘ladi. Bolalarning odobli bo‘lib ulg‘ayishi uchun ota-ona bilan bir qatorda mahalla-kuy ham katta ibrat maktabidir. “Qush uyasida ko‘rganini qiladi”, deb bejiz aytmagan xalqimiz. Farzand tarbiyalayotgan ota-ona har bir harakati, yurish turishi, muomalasi, boshqalar bilan o‘zaro munosabatida olijanob fazilatlarni namoyon eta bilishi kerak. Chunki bola tabiatan nihoyatda taqlidchan va kuzatuvchan bo‘ladi. Shuning uchun uning atrofdagilari o‘z odatlari bilan ba'zan o‘zlari sezmagan holda ularga ta'sir qiladilar. Oiladagi qo‘pol munosabatlar, ko‘p yolg‘on gapirish, yoqimsiz xatti-harakat bola tarbiyasiga salbiy ta'sir qiladigan nosog‘lom muhitni keltirib chiqaradi.

Farzand tarbiyasida ota-onaning muomalasi muhim o‘rin tutadi. Bola ota-ona tomonidan qo‘pol, dag‘al so‘zlar eshitib, kaltak yeb katta bo‘lsa, bu uning tabiatiga salbiy ta'sir qiladi.

Oilada yoshlarnining to‘g‘ri tarbiyalanishi juda muhim ahamiyatga ega. Ota onalar o‘z farzandlarini yetarli darajada ilm olishlari uchun imkoniyatlar yaratib berishi, ma’naviy jihatdan yetuk shaxs bo‘lishlarida ularni har doim ilm olishga, ilmni qadrlashga o‘rgatishi zarur. Shuningdek, jamiyatda sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. Davlat yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimini tashkil etish, uning natijalarini nazorat qilishni ta’minlovchi asosiy institutdir. Davlat yosh avlodning oilada, maktabgacha ta’lim muassasalarida, umumta’lim maktablarida, oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida, harbiy xizmatni o‘tash davrida, shuningdek, o‘zini o‘zi boshqarish organlari, turli davlat va jamoat tashkilotlari miqyosida tarbiyalash jarayonini tashkil etadi. Oila esa davlatning, umuman jamiyatning bir tarmog‘i bo‘lib, asosan oila ham jamiyat, ham davlat faoliyatiga ko‘ra shakllanadi. Ya’ni, oila ham yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladigan davlat tayanchlaridan biridir. Shunday ekan, oila va davlat o‘rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlash, ahillik va totuvlikda ishlash orqali yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdan ko‘zlangan maqsadni amalga oshirish mumkin, deb o‘ylayman.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan bunday o‘zgarishlar shaxsni tarbiyalashda oila, ota-ona, mahalla, ta’lim muassasasining asosiy vazifalarini “Oila, mahalla, ta’lim muassasasi hamkorligi” yo‘nalishida amalga oshirish va mazmun-mohiyatini yangilash zarurligini taqozo etmoqda. . Ayniqsa, sinf rahbari va oila o‘rtasidagi bunday muloqot o‘quvchining to‘liq bilim olishiga, o‘sha o‘quvchiga ta’lim va tarbiyada eng mos keladigan tarbiya va ta’sir vositalarini topishga yordam beradi. Sinf rahbari o‘z kuzatuvlari natijalarini, oiladan olgan ma’lumotlarini kundalikka yozib qo‘ysa, shundan kelib chiqib, AT da to‘plangan ma’lumotlarni vaqti-vaqti bilan o‘rgangan holda tegishli xulosalar chiqaradi, xatti-harakatlarni yaxshilash yo‘llari va bolaning fazilatlarini hisobga olgan holda yangi pedagogik talablarni qo‘yib, keyingi rejalarni belgilaydi

Bugun yurtimizdagi har bir oilada mobil telefon, kompyuter, planshet kabi vositalar mavjud bo‘lib, ulardan kimlardir, asosan, muloqotda, mustaqil ravishda bilim oshirish maqsadida foydalanilmoqda. Ushbu vositalar taqdim etayotgan imkoniyatlardan biri bu internet xizmatlaridan keng foydalanishdir. Ayni paytda ko‘plab mahallalarda bolalar va yoshlar uchun

turli to‘garaklar bilan bir qatorda internet-kafelar, kompyuter o‘yinlari xonalari ham faoliyat ko‘rsatmoqda. Bunday niqoblar doimo bolalar bilan taqib yurishadi. Shu bois yoshlar ongiga internet tarmog‘i orqali kirib kelayotgan zararli g‘oya va ta’sirlardan samarali va ishonchli himoyalanish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi davrimiz mo‘jizasi bo‘lgan kompyuter va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari juda qulay imkoniyatlarni taqdim etishi bilan birga, jiddiy muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Bu muammolarning oldini olish va hal etishda ota-onalar, o‘qituvchilar, bolalarga e’tiborli va e’tiborli bo‘lish, yosh avlodning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash borasidagi ishlar ko‘lamini yanada kuchaytirish zarur.

Oila boshqa ta'lim muassasalaridan farqli o‘laroq, inson hayoti davomida uning barcha tomonlariga, tomonlariga ta'sir ko‘rsatish va umuman ta'sir qilish qobiliyatiga ega. Oilaviy tarbiya vazifasining bunday ulkan ko‘lami uning g‘oyaviy-psixologik ta’sirining chuqur individualligi bilan uyg‘unlashadi. Bu nafaqat uni yuksak ta’sirchan qiladi, balki shaxsni shakllantirish jarayonining zarur tarkibiy qismiga aylanadi, yosh avlodimiz nafaqat xalqimizning inqilobiy, mehnat, jangovar an’analarini, balki keksa avlodning eng yaxshi fazilatlari — g‘oyaviy va matonat, vatanga muhabbat, uning iqtisodiy, siyosiy va jangovar qudratini mustahkamlashda ishtirok etishga intilish - bobo va otalar mehnatini davom ettirmoqda va ko‘paytirmoqda. Bu ishda ota-onalar alohida muhim o‘rin egallashlari kerak. Oilaning yuksak tarbiyaviy salohiyati shaxs va ota-onaning xususiyatlari bilan ta'minlanadi: qon-qarindoshlik, mehr-oqibat, yaqinlik, ishonch, burch hissi, obro‘-e'tibor va boshqalar. qalbidagi zarracha harakatni ham his qiladigan va tushunadigan, unga qanday ta'sir qilishni biladigan, ularga mehrni, mehrni, do‘stlikni, muhabbatni ona va otadan yaxshiroq o‘rgata oladigan yurak!

Ma'lumki, turli xil faoliyat sharoitida shaxsning qobiliyatlari eng samarali rivojlanadi, uning ijodiy imkoniyatlari ochiladi, bu yerda odamni oiladan tashqari turli xil faoliyatga jalb qilish mumkin. Oila tarbiyasining qadr-qimmati va ahamiyati yana shundan iboratki, kichik shaxs davrida oilada mavjud bo‘lgan narsa bir umrga saqlanib qoladi. Xuddi shu sababdan ota-onalarning shaxslarni har tomonlama tarbiyalash majburiyati qonuniy ravishda mustahkamlangan.

Biroq, tajriba shuni ko‘rsatadiki, ota-onalar ko‘pincha o‘zlarini ta'lim ishlariga to‘liq tayyor deb bilishadi va maxsus pedagogik bilimlarni o‘zlashtirishni zarur deb bilishmaydi. Ta'lim sabr-toqatni talab qilishini deyarli hamma tan oladi, ba'zilari buning uchun tug‘ma qobiliyat va malaka, ya'ni ko‘nikmalar kerak, deb o‘ylaydi; lekin juda kam odam sabr-toqat, tug‘ma qobiliyat va ko‘nikmalarga muhtoj va bundan tashqari, ularga ko‘proq maxsus bilim kerak. Bunday bilimlarning etishmasligi oilaviy tarbiyada ko‘plab xatolarga olib keladi, guruh rahbari ota-onalar bilan ishlashda buni hisobga olishi dargumon. Shu munosabat bilan ota-onalarning shaxsni tarbiyalashdagi quyidagi qiyinchilik va xatolarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Ota-onalarning alohida shaxslarga munosabati yo‘qligi. Ularning o‘zlari, o‘z mehnati, ta’lim muassasasi o‘quvchilari jamoasi hayoti, o‘z shaxsi manfaatlari, uning jamoat ishlari, bu ishga munosabati va hokazolar kamroq qiziqishadi. Bu esa oilaviy munosabatlarda turli kelishmovchiliklarga sabab bo‘lishi, natijada esa bu kabi holatlar bolalar psixologiyasi ularning rivojlanishiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

2. Oilada bolalarni birgalikda mehnat jarayonlariga jalb qilish orqali ularning mehnat ta’limini tashkil etish, hamda ularni boshqalarning mehnatini qadrlashga o‘rgatish orqali ota onalar o‘z farzandlarida insoniylik va jamoada ishlay olish kabi qobiliyatlarni shakllantira oladilar.

3. Ota-onalarning o‘zlarida bo‘lgan ilm olishga ishtiyoq va kitob mutolaasiga bolalarni jalb etish orqali ularda bu odatni shakllantirish muhimdir.

4. Oilaviy tarbiyaning asosi sifatidagi taqiqlar tizimi inson hayotini har doim turli harakatlarni amalga oshiradigan tarzda tashkil eta olmasligi, ijobiy namunada tarbiyalana olmaslik natijasidir. Bu tizim shaxsda kattalar istagiga salbiy munosabatni yuzaga keltiradi, mustaqillik rivojlanishiga putur etkazadi.

5. Ayrim ota-onalar shaxs ulg‘aygan sari ta’lim-tarbiya faoliyatini susaytiradi, bu esa shaxslarning ota-onalardan uzoqlashishiga, ta’lim muassasasiga qiziqishning pasayishiga va hokazolarga olib keladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash turli ko‘rinishlarda, jumladan, ilmiy-amaliy anjumanlar, savol-javob kechalari, kitobxonlik, elektron o‘yinlar, taniqli insonlar bilan uchrashuvlar va boshqa ko‘rinishlarda tashkil etilib, ular har tomonlama ta’minlanadi. Oila boshqa ta'lim muassasalaridan farqli o‘laroq, inson hayoti davomida uning barcha tomonlariga, tomonlariga ta'sir ko‘rsatish va umuman ta'sir qilish qobiliyatiga ega. Oilaviy tarbiya vazifasining bunday ulkan ko‘lami uning g‘oyaviy-psixologik ta’sirining chuqur individualligi bilan uyg‘unlashadi. Bu nafaqat uni juda ta'sirli qiladi, balki uni shaxsni shakllantirish jarayonining zaruriy xatosiga aylantiradi. O‘sib kelayotgan yosh avlodni barkamol etib tarbiyalash xalqimizning azaliy orzusi bo‘lib, axloqiy-axloqiy milliy madaniy, tarixiy an’analar va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan zamonaviy shaxsni shakllantirish ota-onalar, maktablar oldidagi asosiy mas’uliyatli vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Milliy g‘oya va qadriyatlarimiz xalqimizning maqsad-muddaolarini ifodalaydi. Bolalar oila timsolida jamiyatning ijtimoiy-ma’naviy qiyofasini ko‘radi, jamiyat talablarining mazmun-mohiyati ilk bor ana shu kichik jamoada tushuniladi. Ular ongiga ilk ma’naviy-axloqiy bilimlarni singdirishda oilaning, ayniqsa, ta’lim muassasalarining o‘rni katta. Milliy istiqlol g‘oyasini barcha yoshlarimizning ma’naviy boyligiga aylantirishga ko‘maklashish, ularning dunyoqarashiga singdirish, uning mazmun-mohiyati va mohiyatini har tomonlama tushuntirish ta’lim muassasalari, oilalar, mahallalar ijtimoiy institutlarining asosiy vazifasi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Oila psixologiyasi: Darslik. Pedagogika oliygohlari talabalari uchun V.M.Karimova. – T.: 2007. 22–b.
2. Karimova V. Oilada yoshlarni gender munosabatlarga tayyorlash muammolari // “Yoshlar muammolari va ularning yechimi: holat va istiqbol” mavzusidagi Resp. ilmiy-amaliy anjumani materiallari – T.: 2002. – B. 30-33.
3. O.Musurmonova. Oila ma’naviyati - milliy g‘urur -T ., 1999-y.
   A. Avloniy. “Turkiy guliston yohud axloq”. T., “O‘qituvchi”. 1994 yil.
   O.Hasanboeva va boshqalar. Oila pedagogikasi. T., “Aloqachi”, 2007 yil.
   M. Imamova. Oilada bolalarning ma`naviy axloqiy tarbiyasi — T. “O‘qituvchi”. 1999 yil
4. Karimova V. Oilaviy hayot psixologiyasi: O‘quv qo‘llanma. – T.: 2006.–142 b.
5. Платон. Законы // Соч.: в 3 т. – М.: 1972. – Т.3. – Ч.2. – С. 148-150.
6. (PDF) OILA INSTITUNING IJTIMOIY TARAQQIYOTDAGI O‘RNI VA OILA MUSTAHKAMLIGINI TA'MINLASH OMILLARI. https://www.researchgate.net/publication/343450599_OILA_INSTITUNING_IJTIMOIY_TARAQQIYOTDAGI_O‘RNI_VA_OILA_MUSTAHKAMLIGINI_TA'MINLASH_OMILLARI

QORAQALPOG‘ISTONDA AHOLINI IJTIMOIY QO‘LLAB-QUVVATLASH BORASIDA JAMOATCHILIK FIKRI

Sarıbayeva Nigargul Bauetdinovna
Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti Gumanitar fanlar va tillar kafedrasi assistenti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17667282

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasida aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning samaradorligi hamda jamoatchilik fikrining shakllanish jarayonlari sotsiologik tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida aholining ijtimoiy yordam tizimiga bo‘lgan ishonchi, manzillilik tamoyillariga munosabati va davlat–fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik mexanizmlari o‘rganilgan. Olingan natijalar asosida aholining ijtimoiy farovonligini ta’minlashda jamoatchilik fikrini inobatga olish zaruriyati ilmiy asosda yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy siyosat, ijtimoiy himoya, jamoatchilik fikri, Qoraqalpog‘iston, manzillilik, mahalla, fuqarolik jamiyati, sotsiologik tahlil.*

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng qamrovli ijtimoiy islohotlar davlat siyosatining markaziga inson manfaatlarini qo‘yishga qaratilgan. “Yangi O‘zbekiston – ijtimoiy davlat” konsepsiyasi mazmunan aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni tizimli asosda kuchaytirish, aholining zaif qatlamlarini manzilli yordam bilan ta’minlash, kambag‘allikni qisqartirish va ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlashni nazarda tutadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bu jarayonlarda alohida o‘rin tutadi. Mintaqaning ekologik xususiyatlari (Orolbo‘yi muammosi), mehnat migratsiyasi ko‘lami, qishloq joylarda bandlik darajasining pastligi kabi omillar aholining ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimiga bo‘lgan ehtiyojini kuchaytiradi. Shu boisdan so‘nggi yillarda Qoraqalpog‘istonda aholiga yordam berish mexanizmlarini takomillashtirish, ijtimoiy xizmatlarni mahallabay tashkil etish, hamda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish borasida muhim qadamlar qo‘yildi.

Ushbu maqolaning maqsadi — Qoraqalpog‘iston Respublikasida aholining ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimiga munosabatini aniqlash, jamoatchilik fikrining o‘zgarish dinamikasini tahlil qilish va mavjud muammolarni aniqlab, takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tushunchasi zamonaviy sotsiologiyada inson kapitalini saqlash, ijtimoiy tenglikni ta’minlash va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash bilan chambarchas bog‘liq. Ijtimoiy himoya tizimi — bu davlatning aholining muayyan qatlamlarini (kam ta’minlanganlar, nogironlar, yolg‘iz keksalar, ko‘p bolali oilalar, vaqtincha ishsizlar va boshqalar) moddiy, huquqiy va psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasidir.

Nazariy jihatdan, T. Parsons, R. Titmus, A. Marshall kabi sotsiologlar ijtimoiy siyosatni jamiyatning integratsion funksiyasi sifatida ko‘radilar. Ularning fikricha, ijtimoiy yordam tizimi nafaqat moddiy qo‘llab-quvvatlashni, balki insonning jamiyatda to‘liq ishtirok etish imkonini ta’minlovchi mexanizmdir.

Shuningdek, jamoatchilik fikri ijtimoiy siyosat samaradorligini baholovchi ijtimoiy indikator sifatida alohida o‘rin tutadi. Jamoatchilik fikri orqali davlat organlari aholining real ehtiyojlarini aniqlaydi va ijtimoiy siyosatni qayta yo‘naltiradi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, Qoraqalpog‘istonda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash siyosati bir necha bosqichlarda rivojlandi:

- ***1-bsqich (1991–2000 yillar):*** Asosiy e’tibor iqtisodiy inqiroz sharoitida aholining ijtimoiy barqarorligini saqlashga qaratildi. Pensiya va nafaqa tizimi, kam ta’minlangan oilalarga yordam fondlari tashkil etildi;
- ***2-bosqich (2001–2016 yillar):*** Davlat byudjetidan ajratiladigan mablag‘lar ko‘paytirildi, sog‘liqni saqlash va ta’lim tizimida ijtimoiy himoya choralari kuchaytirildi. Mahalla fuqarolar yig‘inlari orqali moddiy yordamlar manzilli taqsimlana boshlandi;
- ***3-bosqich (2017 yildan hozirga qadar):*** Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida yangi tizim — “Mahallabay ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash” joriy etildi. “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” va “Temir daftar” orqali aholining ehtiyojmand qatlamlari aniqlanib, ularga manzilli yordam ko‘rsatila boshlandi. Bu tizim Qoraqalpog‘iston sharoitida ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etdi.

2024-yil dekabr oyida Qoraqalpog‘iston Respublikasining 7 tumani (Nukus, Beruniy, To‘rtko‘l, Chimboy, Ellikqal’a, Qanliko‘l, Kegeyli)da yashovchi 1200 nafar fuqaro o‘rtasida sotsiologik so‘rov o‘tkazildi. So‘rovnoma “Aholining ijtimoiy yordam tizimiga munosabati” mavzusida tuzilgan bo‘lib, 15 ta savoldan iborat edi. O‘tkazilgan tadqiqot quyidagi natijalarni ko‘rsatib berdi:

- 69% respondentlar davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan ijtimoiy yordamni **“ijobiy”** deb baholagan;
- 24% “ma’lum darajada natija bermoqda, lekin shaffoflik yetishmaydi” degan fikrni bildirgan;
- 7% esa tizimdan umuman norozi ekanini bildirgan.

Eng ko‘p yordam olayotgan toifalar sifatida **ko‘p bolali oilalar (34%), nogironligi bo‘lgan shaxslar (21%)** va **yosh oilalar (17%)** qayd etilgan.

Respondentlarning 58 foizi “mahalla orqali yordam olishda adolat ta’minlanmoqda” deb hisoblaydi, 27 foiz esa “tanish-bilishchilik holatlari hali ham mavjud”ligini tan olgan. Bu esa, jamoatchilik nazorati va shaffoflik mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot davomida quyidagi asosiy muammolar aniqlandi:

- **Axborot yetishmovchiligi:** Ko‘plab fuqarolar ijtimoiy yordam turlari va ariza topshirish tartibi haqida yetarlicha ma’lumotga ega emas;
- **Byurokratik to‘siqlar:** Ba’zi hollarda yordam olish jarayonida ortiqcha hujjatlar va kechikishlar kuzatiladi;
- **Manzillilik tamoyilining zaifligi:** Ayrim hollarda yordam haqiqiy ehtiyojmandlarga emas, balki yuqoridan tavsiya etilgan ro‘yxatlar asosida taqsimlanadi.
- **Jamoatchilik nazoratining sustligi:** Fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtiroki hali to‘liq yo‘lga qo‘yilmagan.

Ushbu aniqlangan muammolar yuzasidan quyidagi takliflarni aytib o‘tishimiz mumkin:

- **Raqamlashtirish jarayonini jadallashtirish:** barcha ijtimoiy yordam sohalarida yagona elektron platforma joriy etish.

- **Mahalla va NNTlar hamkorligini kuchaytirish:** jamoatchilik nazoratini institutsionallashtirish.
- **Sotsiologik monitoring tizimi yaratish:** aholining fikrini muntazam o‘rganish va natijalarga asoslangan siyosat yuritish.
- **Kadrlar malakasini oshirish:** ijtimoiy xodimlar uchun psixologik va axloqiy tayyorgarlik kurslarini joriy etish.
- **Orolbo‘yi hududlarida ekologik yordam dasturlari bilan integratsiya qilish.**

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘shimiz mumkinki, Qoraqalpog‘istonda aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi oxirgi yillarda sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarildi. Aholining jamoatchilik fikri ham bu jarayonda sezilarli o‘zgarishlarni ko‘rsatmoqda. Tadqiqot natijalari shuni anglatadiki, aholining ijtimoiy yordam tizimiga bo‘lgan ishonchi asta-sekin oshib bormoqda, ammo manzillilik, ochiqlik va axborot tizimini yaxshilash zarurati saqlanib qolmoqda.

Davlat va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi samarali muloqot — ijtimoiy siyosatning muvaffaqiyatli amalga oshirilishining eng muhim kafolatidir. Jamoatchilik fikriga tayanish, har bir qarorni aholining ehtiyojidan kelib chiqib shakllantirish, ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlash — Qoraqalpog‘istonning barqaror ijtimoiy taraqqiyotini ta’minlaydigan asosiy yo‘nalishlardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarori, 2023-yil;
2. O‘zbekiston Respublikasi “Oila va mahalla kodeksi”, 2024-yil;
3. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. Toshkent, 2023;
4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma’lumotlari, 2024;
5. Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi axborot byulleteni, 2024;
6. Parsons, T. *The Social System.* Free Press, 1951;
7. Titmuss, R. *Essays on the Welfare State.* London: Allen & Unwin, 1974;
8. Mirziyoyev Sh. M. *Yangi O‘zbekiston strategiyasi.* Toshkent: O‘zbekiston, 2022;
9. Karimov A. *Sotsiologiya nazariyalari.* Toshkent: Ma’naviyat, 2020;
10. Orolbo‘yi ijtimoiy rivojlanish markazi hisobotlari, Nukus, 2024-yil.

OILADA IJTIMOIY TARBIYANING SHAKLLARI

Shukurova Bahor Boltayevna[1], Egamberganova Maxbuba Jabbargan qizi[2]
[1]Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti v.b. dotsenti, f.f.f.d.(PhD)
[2]Urganch innovatsion universiteti Pedagogika va boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17667288

Annotatsiya. *Oila mustahkamligi, ma’naviy va jismoniy barkamol farzand jamiyat mustahkamligi va ma’naviy yetuklikning garovidir. Mazkur maqolada oilalarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish faoliyatini yangi sharoitlarda yaxshilash, ijtimoiy ko‘makka muhtoj oilalarga ko‘rsatiladigan moddiy va ma’naviy ko‘mak berish faoliyatining samaradorligini oshirish borasidagi fikrlar hamda vazifalar haqida so‘z boradi.*
Kalit so‘zlar: *oilani ijtimoiylashtirish, oiladagi tarbiya, ijtimoiylashuvning bosqichlari, ijtimoiy faollik, oiladagi tarbiya shakllari.*
Аннотация. *Крепость семьи, духовное и физическое здоровье детей – залог прочности общества и духовной зрелости. В статье рассматриваются идеи и задачи совершенствования социального обслуживания семей в новых условиях, повышения эффективности материальной и духовной поддержки семей, нуждающихся в социальной помощи.*
Ключевые слова: *семейная социализация, семейное воспитание, этапы социализации, социальная активность, формы семейного воспитания.*
Abstract. *Family strength, spiritually and physically healthy children are the key to the strength of society and spiritual maturity. This article discusses ideas and tasks for improving social services for families in new conditions, increasing the effectiveness of material and spiritual support provided to families in need of social assistance.*
Keywords: *family socialization, family upbringing, stages of socialization, social activity, forms of family upbringing.*

Oila – muqaddas dargoh. Oila – o‘tmish, bugun va kelajagimiz. Oila – hayot abadiyligi va avlodlar davomiyligini ta’minlovchi qadriyatlari beshigi, kelajak avlod uchun tarbiya ochog‘i va ma’naviyat maskanidir. Oila mustahkamligi, ma’naviy va jismoniy barkamol farzand jamiyat mustahkamligi va ma’naviy yetuklikning garovidir.

Sohibqiron bobomiz Amir Temur ham o‘g‘il uylantirish, kelin tanlash, farzand tarbiyasini davlat siyosati darajasiga ko‘targanligi ham bejiz emas. Davlatning qudrati sog‘lom fikrli, bilimli, axloq –odobli, xalq , millat, Vatan taqdiri uchun jonini tikkan insonlar qo‘lida. Bunday insonlar ham, hamma qatori, albatta, ilk bor oilada tarbiyalanadilar.

Oila a’zolarining, ayniqsa, ota-onaning axloqiy-ma’naviy yetukligi va ma’rifiy qarashlari farzand tarbiyasi va kamolida eng zarur va muhim omillaridan biri hisoblanadi. Odobli bilimdon, aqlli, mehnatsevar, iymon –e’tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir.

Oilada beriluvchi ta’lim-tarbiyaning asl ma’nosi ham, vazifasi ham boladagi ijtimoiy faollikni oshirish orqali, undagi ijobiy fazilatlarni kamol toptirishdir. Odatda oilada ijtimoiy faollikni oshirish bola irodasini chiniqtirish orqali amalga oshiriladi. Chunki ko‘pincha ota-

onalar bolalarining aqlli, farosatli bo‘lib yetishlariga e’tibor berib, uning ruhiyatini hamda jismoniy quvvatini oshirishga, irodasini mustahkamlashga bee’tibor qoladilar. Buning oqibatida bola turmush so‘qmoqlarida tez qoqiladigan, turli ijtimoiy vaziyatlarda qiyinchiliklarni yenga olmaydigan, ruhiyati mo‘rt bo‘lib katta bo‘ladi. Shuning uchun ham oilaviy ijtimoiylashuvda bolaning ijtimoiy bilimdonligi, ijtimoiy ko‘nikmalar va ularni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarga alohida urg‘u beriladi.

Oilaviy sotsializatsiyaning bosqichlari, funksiyalarini tafovutlash bilan birgalikda uning har birida o‘ziga xos ijtimoiylashuv usullari ustivor bo‘lishini ham ta’kidlaydilar. Masalan, rus sotsiologi N.Andreenkova[1] ijtimoiylashuv jarayonini ikki katta bosqichda tasavvur qiladi. Uning birinchi bosqichi – individning ijtimoiy mavjudot sifatida shakllanishini ta’minlovchi hayot bo‘lagini o‘z ichiga olib, u inson hayotining qariyb uchdan bir qismini tashkil etadi. Bu davrda asosan bolaning:

a) dastlabki ilk sotsializatsiyasi (bolalik davri);

b) normativ xulqning marginal jihatlarini uzlashtirish davri (o‘smirlik davriga to‘g‘ri keladi);

v) o‘spiriinlikdan balog‘at yoshiga o‘tish davrini o‘z ichiga olgan ijtimoiylashuv oqibatlari yaxlit namoyon bo‘ladigan bosqich.

Ikkinchi bosqich shakllanib bo‘lgan shaxsning jamiyatda faoliyat yuritishi davrlarini o‘z ichiga olgan hayot bosqichi. Bunda shaxs dastlab mehnatga yaroqli jamiyat a’zosi sifatida, so‘ngra qanday yoshiga yetgan inson sifat o‘z o‘rniga ega bo‘ladi. Ijtimoiylashuvning dastlabki yillarida uning samaradorligi ko‘proq yuqorida ta’kidlaganimizdek, oila, undagi ijtimoiy-psixologik muhit va ota-onaning tarbiyachilik burchini qanday ado etganligiga bog‘liq bo‘lsa, uning keyingi bosqichlarida ta’lim muassasalari va mehnat jamoalarining roli ortib boradi. Shunga mos ravishda ijtimoiylashuv usullari ham turlicha bo‘ladi. Ko‘plab olimlar va oila masalalari bo‘yicha mutaxassislarni xavotirga solgan jihat shuki, zamonaviy oila o‘zining bola shaxsini ijtimoiylashtiruvchi vazifasini yaxshi va to‘liq ado etmayapti.

A.Antonovning ta’kidlashicha, zamonaviy oila oilaviy turmush tarzini shakllantira olmayotganligi sababli ham o‘zining bola tarbiyasi borasidagi ijtimoiy bilimdonligini namoyon eta olmayapti.[2] Bundan tashqari, G‘arb mamlakatlarida o‘tkazilgan tadqiqotlarda aksariyat ayollarga onalik ustanovkalarining yo‘qligi, bola tarbiyalash xohishining yo‘qligi, qo‘ydi-chiqdining, bemalol amalga oshirilishi, rasman FXDYo bo‘limlarini nikohni qayd etmay yashash (fuqarolik nikohi), ajrimlardan keyingi erkak va ayolning o‘zaro yomon munosabatlari bolalarning ijtimoiylashuviga nihoyatda salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunday er-xotinlarning farzandlari bir tomondan umuman oila institutiga va nikohga nisbatan salbiy qarashlarga ega bo‘lib, voyaga yetsalar, ikkinchi tomoydan, ularning xarakterida, asosan, xudbinlik, egoizm, agressivlik kabi salbiy, sifatlar egasi sifatida shakllanmoqda. Demak, jamiyatda o‘z davriga munosib, sog‘lom fikrlovchi yoshlarni tarbiyalab, voyaga yetkazishning muhim omili bu rasmiy nikohda bo‘lgan er-xotinlar oilasining bahamjihatlikda yashashlaridir.

Oilada tarbiya shakllari: ijtimoiy tarbiyaning dastlabki uchog‘i oila bo‘lib, aynan, ota va ona dastlabki ijtimoiy ko‘nikmalarni bola ongiga singdiruvchi, uning irodasini charxlovchi insonlardir. Oilaviy munosabatlar bolani nafaqat shaxs sifatida o‘zligini anglash, balki o‘zini u yoki bu jins vakili sifatida idrok etish va shaxsiy fazilatlarini takomillashtirishga ham yordam beradi. Oilaning to‘liq bo‘lishi, ya’ni, unda ham ota, ham onaning tinchlik-totuvlikda yashashlari va unda normal insoniy munosabatlar, sog‘lom ma’naviy muhitning mavjudligi bolaning har tomonlama yaxshi rivojlanishi, sog‘lom, aqlli, kuchli iroda sohibi bo‘lib yetishiga imkon beradi.

Bolaga ham otaning ham onaning bo‘lishining zarurati shu bilan izohlanadiki, masalan, qiz bola onasi va uning oilada o‘zini tutishiga qarab, o‘zini ayollar jinsiga taalluqli ekanligini anglashdan tashqari, kelajakda qanday ona bo‘lishini tasavvur qilsa, otasiga, uning onasiga bo‘lgan munosabatiga qarab, o‘zini kelajakda oila qurganda qanday oila sohibasi bo‘lishi lozimligini anglab boradi. Xuddi shunday, o‘g‘il bola onasining fazilatlari, oiladagi tutami va otasiga munosabatini idrok qilib borar ekan, kelajakda qanday qiz bilan turmush qurish mumkinligi, tanlaydigan qizi qanday sifatlar sohibasi bo‘lishi lozimligini bilib borsa, qiz bola otasi va uning oilada mavqeiga qarab, o‘zini erkak sifatida kelajakda tasavvur qilish bilan birgalikda turmush o‘rtog‘iga qanday munosabatda bo‘lish lozimligi to‘g‘risida bilim va tasavvurlarini orttirib boradi. Bu psixologik qonuniyat bo‘lib, shaxsning oiladagi shaxsiy va jinsiy sotsializatsiyasining yetakchi tamoyili hisoblanadi. Shu bois ham bolaning tom ma’noda yaxshi tarbiya olib, jamiyatda va oilaviy munosabatlarda munosib mavqega ega bo‘lishi uchun oila muhiti sog‘lom, barqaror, er va xotin bir-birlariga g‘amxo‘r, mehrli va sadoqatli bo‘lishlari o‘ta muhimdir.

Demak, oila bolaning ijtimoiy munosabatlarga tayyor bo‘lishida muhim ahamiyat kasb etgan pedagogik muhitdir. Shu bois ham olimlar oilaning eng muhim va dastlabki vazifalaridan ham birini tarbiyalovchi funksiya ekanligini doimo e’tirof etadilar.

Oilaviy sotsializatsiya jarayonini bir tomonlama, ya’ni farzandlar tarbiyasidagi roli bilan cheklash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Chunki ayniqsa, yosh oilada nikohdan so‘ng er va xotin boshqa oila a’zolari jamiyatida xohlasa-xohlamasa o‘z-o‘zidan tarbiyalanib, xarakter xislatlarini o‘zgartirib boradilar. Masalan, ilgari tortinchoq, uyatchan, ikkilanuvchan yigit, uylangach, turmush o‘rtog‘i nigohida obro‘si mehr-muhabbat tufayli oshgan sari, o‘zida kuch-qudratni, irodani sezib, dadil, faol, o‘ziga nisbatan ijobiy fikrli, aqlli, bosiq bo‘lib borishi tabiiy. Kelinchak ham yangi xonadon sharoitiga ko‘nikib borgan sari, uning an’analarini muvaffaqiyat bilan o‘zlashtirib borgan sari, turmush o‘rtog‘ining mehr-muhabbati, qaynona va qaynotaning g‘amxo‘rligi, e’tiborliligi oqibatida yanada iffatli, sermulohazali, ziyrak va farosatli bo‘lib, o‘zidagi ilgari mavjud ayrim salbiy xarakter sifatlaridan qutulishi ham mumkin. Bu er va xotin uchun oila muhitining yangi bosqichdagi ijtimoiylashuv maskani sifatidagi o‘rnini isbotlaydi.

Lekin ayrim oilalarda er va xotin o‘rtasida samimiy, iliq munosabatlarning yo‘qligi, tashqi tomondan nomiga oila qurganliklari, ma’nan esa bir-birlariga nisbatan begonaday bo‘lganliklari tufayli o‘zaro munosabatlar hamisha tarang, yuzaki bo‘lib boradi. Tabiiy, bunday munosabatlar nafaqat ularning o‘ziga, balki ularni o‘rab turgan boshqa qarindoshlar, ayniqsa, farzandlarga faqat salbiy ta’sir etadi, yoshlarning ijtimoiylashuv jarayoniga to‘g‘anoq bo‘lishi ham mumkin. “Ko‘cha bolalari”, “tarbiyasi og‘ir bolalar”, voyaga yetmay turib jinoyatga qo‘l o‘rgan o‘smirlar aksariyat holatlarda aynan shunday oilaviy muhitning qurbonlari hisoblanadi.

Jamiyat virtuallashuvi oila va nikoh munosabatlariga chuqur, ko‘p qirrali ta’sir ko‘rsatmoqda. Virtual muhit insonlar o‘rtasidagi muloqotni yengillashtirgan bo‘lsa-da, u hissiy sovuqlik, qadriyatlar transformatsiyasi va sadoqatning zaiflashishiga olib kelmoqda. Shu bilan bir qatorda, texnologiyadan maqsadli va ma’naviy jihatdan to‘g‘ri foydalanish oilaning mustahkamligini oshiradi. Virtual dunyo — bu shunchaki muloqot maydoni emas, balki u inson ongini, qadriyat tizimini va ijtimoiy xulqni o‘zgartiruvchi ijtimoiy-falsafiy hodisadir. Yoshlarning aksariyati real hayotdan ko‘ra virtual makonda ko‘proq vaqt o‘tkazmoqda. Bu holat ularning oilaviy hayotga tayyorlanish jarayoniga ham bevosita ta’sir qilmoqda. Shu sababdan jamiyat barqarorligi uchun real va virtual dunyo o‘rtasida muvozanatni saqlash muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Utegenova J.D. Virtual reallik XX asr madaniy fenomeni sifatida. Falsafa fanlari bo‘yicha Falsafa Doktori (phd) diss…avtoreferati.
2. Castells M. The Rise of the Network Society. 2nd edition, Blackwell, 2000.
3. https://zamin.uz/uz/hayot-tarzi/51263-virtual-nikoh-nima-uning-oqibatlari-va-joiz-emasligi.html

O‘ZBEK XALQI OLAMNING LISONIY MANZARASIDA AYOL KONSEPTI

Ahmedova Ra’noxon Azamat qizi

https://doi.org/10.5281/zenodo.17667372

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek xalqining olam haqidagi lisoniy manzarasida ayol konseptining o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot davomida ayol obrazining xalq og‘zaki ijodi, maqollar, matallar va badiiy adabiyotlarda qanday aks etgani tahlil qilinadi. Shuningdek, ayol konsepti orqali o‘zbek xalqining milliy qadriyatlari, dunyoqarashi va axloqiy me’yorlari namoyon bo‘lishi ilmiy asosda izohlanadi.*

Аннотация. *В данной статье раскрывается роль и значение концепта женщины в языковой картине мира узбекского народа. В процессе исследования анализируется, как образ женщины отражается в устном народном творчестве, пословицах, поговорках и художественной литературе. Также научно объясняется проявление национальных ценностей, мировоззрения и нравственных норм узбекского народа через концепт женщины.*

Abstract. *This article highlights the role and significance of the concept of woman in the linguistic worldview of the Uzbek people. The study analyzes how the image of women is reflected in oral folklore, proverbs, sayings, and artistic literature. It also explains scientifically how national values, worldview, and moral norms of the Uzbek people are manifested through the concept of woman.*

Kalit so‘zlar: *ayol konsepti, lisoniy manzara, xalq og‘zaki ijodi, qadriyat, mentalitet.*

Ключевые слова: *концепт женщины, языковая картина мира, фольклор, ценности, менталитет.*

Keywords: *concept of woman, linguistic worldview, folklore, value, mentality.*

Kirish

Insoniyat tarixida til har doim milliy tafakkurning, madaniyatning va dunyoqarashning o‘ziga xos ko‘zgusi bo‘lib kelgan. Har bir xalqning tilida ularning o‘ziga xos qadriyatlari, hayot tarzi, hissiy olami va estetik dunyoqarashi aks etadi. Ana shu jarayonda olamning lisoniy manzarasi (LMG) xalqning til orqali dunyoni qanday idrok etishini ochib beradi. O‘zbek xalqi olamni tili orqali ifodalaganida, eng muhim konseptlardan biri sifatida “ayol” timsolini ilgari suradi. Chunki ayol o‘zbek xalqining madaniyatida hayot, mehr, sadoqat, poklik, sabr va go‘zallik manbai sifatida tasvirlanadi.

Tilshunoslikda “konsept” tushunchasi inson tafakkurida shakllanadigan, til orqali ifodalanadigan, lekin oddiy so‘z ma’nosidan kengroq, ko‘p qatlamli semantik birlik sifatida qaraladi. “Ayol” konsepti ham shunday murakkab va ko‘p qirrali birlik bo‘lib, u nafaqat biologik jinsni, balki ijtimoiy, madaniy, ruhiy va ma’naviy jihatlarni ham qamrab oladi.

Olamning lisoniy manzarasi har bir xalqning tili orqali shakllanadi va xalq tafakkurida dunyoni qanday ko‘rishini ifodalaydi. O‘zbek xalqining lisoniy manzarasida insonparvarlik, oilaviy qadriyatlar, ezgulik, mehr-oqibat va poklik markaziy o‘rin egallaydi. Shu jihatdan ayol konsepti bu manzaraning ajralmas qismidir. Ayol konsepti o‘zbek xalqining ruhiyatida ikki asosiy qatlamda namoyon bo‘ladi:

1. Biologik qatlam — ayol jinsining tabiiy xususiyatlari, onalik, jismoniy go‘zallik, noziklik bilan bog‘liq belgilar.
2. Ma’naviy qatlam — ayolning sabr-toqati, mehribonligi, fidoyiligi, oilani birlashtiruvchi kuch sifatidagi o‘rni.

Til bu ikki qatlamni uyg‘unlashtirgan holda, xalq dunyoqarashini ifoda etadi. O‘zbek tili leksikasida “ayol”, “ona”, “qiz”, “kelin”, “opa”, “singil”, “bibi”, “momoy” kabi so‘zlar bu konseptning turli ijtimoiy va hissiy darajalarini bildiradi.

O‘zbek tilidagi ayol konsepti semantik jihatdan ko‘p qatlamlidir. Har bir leksik birlik o‘ziga xos madaniy yuklamaga ega:

Ona — hayot va mehr manbai, Vatan, til, tabiat bilan bog‘liq ramziy tushuncha. “Ona tili”, “Ona Vatan”, “Ona yurting” kabi birikmalar bu ramzni kengaytiradi.

Qiz — poklik, or-nomus, iffat, go‘zallik belgisi. Qiz so‘zining semantik maydonida yosh, umid, bahor kabi ramzlar mujassam.

Kelin — yangilik, sadoqat, baraka va oila uyg‘unligi timsoli. “Kelin kelgan uyda fayz bo‘lur” maqoli bunga misol.

Opa, singil — oila ichidagi mehr-muhabbat, hamjihatlik, hurmat ramzi.

Ayol — umumiy tushuncha bo‘lib, u o‘zida barcha yuqoridagi ma’nolarni mujassamlashtiradi.

Bu so‘zlarning hammasi o‘zbek xalqining ayolga bo‘lgan hurmatini, ijtimoiy roli va qadriyatlar tizimidagi o‘rnini ifoda etadi.

O‘zbek xalq tilida mavjud bo‘lgan ko‘plab maqollar, iboralar, matallar ayol konseptini chuqur yoritadi. Ular orqali xalq tafakkurining qadimiy qatlamlarini bilish mumkin:

“Ona yurting omon bo‘lsa, yurt tinch bo‘ladi.”

“Ayol bir qo‘li bilan beshikni, bir qo‘li bilan dunyoni tebratar.”

“Ona yurak — olam yuragi.”

“Kelin tushgan uyda fayz, bola ulg‘aygan uyda baraka.”

“Qiz bola elga qarar, o‘g‘il bola yerga.”

Bu maqollar orqali o‘zbek xalqining ayolni hayotning tayanchi, tinchlik va baraka manbai, oilaning birlashtiruvchi kuchi sifatida idrok etgani yaqqol ko‘rinadi.

Frazeologik birliklardagi obrazlar ham juda boy: “ona bag‘riday keng”, “qizg‘aldoqdek qiz”, “oydek go‘zal ayol”, “ona qo‘li bilan yaralgan mehr” kabi iboralar ayolning go‘zalligi va ma’naviy pokligini tasvirlaydi.

O‘zbek xalqining og‘zaki ijodi — bu xalq tafakkurining jonli ifodasidir. Doston, ertak, qo‘shiq, maqol va rivoyatlarda ayol obrazi turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Masalan: “Alpomish” dostonida Barchinoy obrazi jasoratli, aqlli, sadoqatli, vafodor ayol sifatida gavdalanadi. U o‘z sevgisini, vatanini va sharafini himoya qiladi.

“Go‘ro‘g‘li” dostonidagi Ayjamol, Oybarchin, Zulxumor kabi ayollar ham aql, go‘zallik, sabr va vafoning timsolidir.

Xalq ertaklarida ayollar ko‘pincha mehribon ona, fidoyi qiz yoki dono kampir sifatida tasvirlanadi. “Zumrad va Qimmat”, “Boy ila kambag‘al”, “Malikai Husnobod” ertaklarida ayol obrazi orqali ezgulik va yovuzlik to‘qnashuvi ifodalanadi.

Xalq qo‘shiqlarida esa ayol — sog‘inch, muhabbat, sadoqat va go‘zallik manbai sifatida kuylanadi. Masalan, “O‘rtada gullar” yoki “Qizlar jonim” qo‘shiqlarida ayol obrazining estetik qirralari yoritiladi.

Folklordagi ayollar qahramon emas, balki axloqiy ideal darajasiga ko‘tarilgan obrazlardir. Ular xalq orzularining, qadriyatlarining, estetik me’yorlarining ifodasidir.

Ayol konsepti o‘zbek xalqining axloqiy va ma’naviy qadriyatlar tizimida markaziy o‘rin egallaydi. O‘zbek xalqining tafakkurida ayolga hurmat — bu oila, ona, Vatan va tildagi muqaddaslik tushunchalari bilan bog‘langan.

“Ona tili”, “Ona yurti”, “Ona diyor”, “Ona tabiat” kabi birikmalar ayol konseptining metaforik kengayishi natijasidir. Bu ifodalar orqali xalq ayolni hayotning, Vatan va tabiatning yaratuvchisi va himoyachisi sifatida ko‘rsatgan. Shuningdek, ayol konsepti xalqning diniy qarashlarida ham muhim o‘rin tutadi. “Jannat onalar oyog‘i ostidadir” degan hadisi sharif asosida o‘zbek xalqining onaga bo‘lgan chuqur hurmati shakllangan. Bu diniy-axloqiy asos xalq ongida “ona” so‘zini eng muqaddas so‘zlardan biriga aylantirgan.

Bugungi kunda ayol nafaqat oilaning tayanchi, balki ijtimoiy faol, ma’naviy yetuk, ilmli, mustaqil shaxs sifatida qaraladi.

Tilimizda “ayol rahbar”, “ayol olim”, “ayol tadbirkor”, “ayol yozuvchi” kabi birikmalarning keng qo‘llanilishi bu konseptning dinamik o‘zgaruvchanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, bu o‘zgarishlar xalqning qadimiy qadriyatlari bilan uyg‘unlashgan holda rivojlanmoqda — zamonaviy o‘zbek ayoli ilg‘or, lekin o‘z milliy ildizlariga sodiqdir.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek xalqi olamning lisoniy manzarasida ayol konsepti milliy tafakkur, ma’naviyat, axloq va estetik qadriyatlar tizimining markazida turadi. Bu konsept xalq tili, folklori, maqollari, qo‘shiqlari va zamonaviy nutq madaniyatida o‘zining boy semantik tizimi bilan namoyon bo‘ladi. Ayol obrazining tildagi ifodasi xalqning mehr-oqibat, sadoqat, poklik, sabr, go‘zallik va baraka haqidagi qarashlarini mujassamlashtiradi.

Ayol konsepti o‘zbek xalqining milliy o‘zligini, ruhiy olamini va dunyoni idrok etish tarzini ifoda etuvchi eng muhim konseptlardan biri bo‘lib, u til orqali avloddan-avlodga o‘tib, xalq tafakkurining asrlar davomida shakllangan qadriyatlarini saqlab kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. Jo‘rayev N. Til va madaniyat aloqasi. – Toshkent: Fan, 2012.
3. Abdulla Oripov asarlarida ayol obrazi. – Toshkent: Adabiyot, 2015.
4. Rahimova S. Lingvokulturologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2016.
5. Hasanov B. O‘zbek tili konseptologiyasi. – Toshkent: Fan, 2018.
6. Vohidov E. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2010.
7. G‘ulomov M. Til va tafakkur muammolari. – Toshkent: Fan, 2013.
8. Zulfiyaxonim she’riyati va ayol obrazining ifodasi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2019.
9. Jo‘raeva N. O‘zbek tilida konseptual tahlil masalalari. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020.
10. Qodirova M. Lisoniy manzara va milliy ong. – Toshkent: Fan, 2021.

“JAMIYAT BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA AYOLLARNING O‘RNI VA ROLI: XOTIN-QIZLARGA NISBATAN TAZYIQ VA ZO‘RAVONLIKKA MUROSASIZ MUHIT YARATISH”

Asadova Ruxshona Alisherovna
Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti, Samarqand filiali Boshlang‘ich ta’lim, 3-kurs
https://doi.org/10.5281/zenodo.17667388

Annotasiya. *Ushbu maqolada jamiyat barqarorligini ta’minlashda ayollarning o‘rni va roli, xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikka murosasiz muhit yaratish haqida fikr va mulohazalar keltirilgan. Shu bilan birga, ayollarning huquqlarini himoya qilish, ularning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hissasi ta’kidlangan. Asosiy e’tibor xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikka murosasiz muhit yaratish masalasi ko‘rib chiqilgan.*

Аннотация *В статье рассматриваются роль и место женщин в обеспечении их социальной принадлежности в обществе, потенциал женского мнения и размышлений о среде, нетерпимой к угнетению и насилию в отношении женщин. При этом подчеркивается важность защиты прав женщин, их социального, экономического и культурного вклада. Основное внимание уделяется вопросу поддержки среды, нетерпимой к угнетению и насилию в отношении женщин.*

Abstract. *This article discusses the role and place of women in ensuring their sociality in society, the potential of women's opinions and reflections on the environment intolerant of oppression and violence against women. At the same time, the protection of women's rights, their social, economic and cultural contribution are emphasized. The main focus is on the issue of supporting an environment intolerant of oppression and violence against women.*

Kalit so‘zlar: *Jamiyat barqarorligi, ayollarning roli, zo‘ravonlikka murosasizlik, ayollar huquqlari, ijtimoiy hissasi.*

Kirish: Hammamizga ma’lumki, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev jamiyat barqarorligini ta’minlash va dolzarb masalalar bo‘yicha ilgari surayotgan fikr-mulohazalari bilan doimo dunyo hamjamiyati e’tiborini o‘ziga qaratib keladi. Navbatdagi nufuzli anjumanda ham yuksak minbardan turib insoniyat kelajagi va jamiyat barqarorligida, jumladan ayollarning o‘rni, ularning ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirish hamda gender tenglik masalalariga alohida e’tibor qaratdilar.

2025-yil 14-mart kuni qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–103-sonli “Xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning iqtisodiy faolligini oshirish va ijtimoiy himoyasini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori mamlakatimizda ayollarni har jihatdan qo‘llab-quvvatlash yo‘lida muhim qadam bo‘ldi. Ushbu qaror orqali xotin-qizlarning bandligini ta’minlash, kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitish, oliy ta’lim bilan qamrab olish hamda ularning bandligini ta’minlashda alohida e’tibor qaratildi. Jumladan, 2 million nafar xotin-qizlarning ish bilan ta’minlash, 250 ming nafarini kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitish, yana 250 ming nafarini oliy ta’lim bilan qamrab olish hamda 50 ming nafar ehtiyojmand ayollarni sanatoriylarda sog‘lomlashtirish belgilandi.

Asosiy qism: Jamiyat barqarorligi – mamlakat taraqqiyoti va farovonligining muhim ko‘rsatkichidir. Barqaror jamiyatda tinchlik, ishonch, hamjihatlik va ijtimoiy adolat hukmron bo‘ladi. Zero, har bir jamiyatning poydevori – undagi ayollarning faolligi, bilim va mehnatsevarligidir. Ayollarning iqtisodiy mustaqilligi, ta’lim va kasbiy salohiyati jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda beqiyos ahamiyatga ega.Ayollar jamiyatning turli sohalarida faol bo‘lishi orqali iqtisodiy va ijtimoiy rivojga katta hissa qo‘shadi.Shu bois, xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularni ta’lim va kasb-hunar bilan ta’minlash, iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlarini kengaytirish davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilanganAyollar jamiyatning ajralmas qismi bo‘lib, ularning roli nafaqat oilada, balki ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotda ham muhimdir. Ayollarning bilimli, faol va tashabbuskor bo‘lishi jamiyatning barqarorligi va taraqqiyoti uchun poydevor vazifasini bajaradi.Ayollar ta’lim olishi, kasb-hunar egallashi va iqtisodiy faol bo‘lishi orqali oila va jamiyat farovonligini oshiradi.Shuningdek, ayollar yosh avlodni tarbiyalashda, oilaviy totuvlikni saqlashda va madaniy qadriyatlarni avlodlarga yetkazishda muhim rolga ega.qimishli, bilimli va tashabbuskor ayollardan albatta o‘qimishli, ziyoli farzandlar yetishadi. Shu orqali nafaqat oilaning farovonligi ta’minlanadi, balki butun jamiyat taraqqiyoti uchun poydevor yaratiladi.Shu bois, ayollarning ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, ularni nafaqat kelajak avlod uchun to‘g‘ri tarbiya va namuna sifatida shakllantirishga, balki jamiyatning ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy rivojida faol ishtirok etishini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni tizimli ravishda amalga oshirish zarur. Bu orqali ayollarning jamiyatdagi roli mustahkamlanadi va ularning salohiyati butun millat manfaatlari yo‘lida samarali namoyon bo‘ladi.Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, O‘zbekistonda zo‘ravonlikka murosasizlik milliy siyosatning markazida turadigan eng ezgu maqsadlardan biri hisoblanadi.Ayollar va voyaga yetmaganlarni zo‘ravonlikdan himoya qilish maqsadida alohida qonun qabul qilindi. Shu bilan birga, xotin-qizlarni himoya qilish va ularning manfaatlarini ta’minlashning ilgari misli ko‘rilmagan yangicha tizimi yaratildi. Ushbu chora-tadbirlar nafaqat ayollarning oliy ta’lim bilan qamrab olinishi, gender tenglikning mustahkamlanishi va ijtimoiy himoya, balki ularning xizmat pillapoyalarida yuqorilanishi, tadbirkorligi va ilg‘or g‘oyalarini amalga oshirishga doir amaliy tashabbuslar bilan bevosita bog‘liqdir.Gender tenglik – bu ayollar va erkaklar o‘rtasida huquq, imkoniyat va resurslarga teng kirish imkoniyatini ta’minlash, ularni ta’lim, mehnat, siyosiy va ijtimoiy faoliyatda faol ishtirok etishga rag‘batlantirish tamoyilidir. Gender tenglik ayollarga o‘z salohiyatini to‘liq namoyon etish, qaror qabul qilish jarayonlarida ishtirok etish va jamiyat rivojiga samarali hissa qo‘shish imkonini beradi. Shu bilan birga, bu prinsip oiladagi va jamiyatdagi barqarorlik, ijtimoiy adolat hamda kelajak avlodning sifatli tarbiyasini ta’minlashga xizmat qiladi.Shu o‘rinda zo‘ravonlikka murosasizlik masalasini qonuniy jihatlari nuqtai nazaridan ham ko‘rib chiqamizZo‘ravonlikka murosasizlik – bu jamiyatda, oilada yoki ish joyida har qanday shakldagi zo‘ravonlik, majburlash, kamsitish yoki tajovuzga qarshi qat’iy kurashish, bunday holatlarga qarshi murosasiz munosabatni saqlash tamoyilidir. Bu prinsipga ko‘ra, zo‘ravonlik qilgan shaxslar qonuniy javobgarlikka tortiladi, jabrlanuvchilar esa ijtimoiy, huquqiy va psixologik himoya bilan ta’minlanadi. Zo‘ravonlikka murosasizlik nafaqat individual huquqlarni, balki jamiyat barqarorligi va ijtimoiy adolatni ta’minlashni ham maqsad qiladi.Dunyo bo‘yicha ishchi ayollarning taxminan 40 foizi turli sabablarga ko‘ra ijtimoiy himoyasiz ishlaydi. Bu nafaqat ularning mehnat huquqlarining buzilishiga, balki zo‘ravonlik, kamsitish va iqtisodiy qashshoqlik kabi muammolarga ham yo‘l ochadi.

Natijada ayollarning salohiyati yetarli darajada namoyon bo‘lmaydi, oilaviy barqarorlik va jamiyat taraqqiyoti sustlashadi.

Bunday muammoni hal etish uchun kompleks yondashuv talab etiladi: birinchi navbatda, ayollarga nisbatan zo‘ravonlik va kamsitishga qarshi qat’iy qonunchilikni joriy etish, uni samarali tatbiq etish lozim. Shuningdek, ish joylarida xavfsiz ish muhitini yaratish, ijtimoiy himoya va huquqiy yordam tizimini rivojlantirish zarur. Ta’lim va xabardorlik ishlarini kuchaytirish, jamiyatda zo‘ravonlikka qarshi madaniyatni shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega. Xalqaro tajriba va standartlarni tatbiq etish orqali ayollarning huquq va manfaatlarini keng qamrovli himoya qilish mumkin.

Bunday chora-tadbirlar amalga oshirilsa, ayollar o‘z salohiyatini to‘liq namoyon etadi, ijtimoiy va iqtisodiy hayotda faol ishtirok etadi, natijada jamiyat barqarorligi, oilaviy totuvlik va milliy taraqqiyot shakllanadi .Shu bois zo‘ravonlik va kamsitish holatlarini oldini olish, jabrlanuvchilarni himoya qilish va kamsitgan shaxslarni amaldagi qonunchilik asosida javobgarlikka tortish talab etiladi.Ayollarning huquqlari inson huquqlarining ajralmas qismi. Umumjahon inson huquqlari deklaratsiyasi asosiy tamoyillarni belgilasa-da, ayollar va qizlarning huquqlarini to‘liq kafolatlash imkonini bermadi. Shu sababli, 1979-yil 18-dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti "Xotin-qizlarni kamsitishning barcha turlariga barham berish to‘g‘risidagi Konvensiya (CEDAW)"ni qabul qildi. Ushbu konvensiya ayollarning jamiyat hayotida teng huquqlarga ega bo‘lishi, ta’lim, siyosat, iqtisodiyot va madaniyat sohalarida kamsitilmasligi majburiyatini davlatlarga yuklaydi.

O‘zbekiston Respublikasi ayollarning huquqlarini himoya qilishga doimiy e’tibor qaratadi. Mamlakatimiz Markaziy Osiyoda birinchi bo‘lib 1995-yil 6-mayda CEDAW konvensiyasini ratifikatsiya qildi. Shuningdek boshqa xalqaro hujjatlar ham ratifikatsiya qilingan.

O‘zbekiston Konstitutsiyasining 58-moddasida ayollar va erkaklarning gender tenglik huquqlari aniq belgilangan. Shu jumladan, davlat xotin-qizlarga jamiyat va davlat ishlarida faol ishtirok etish, ta’lim olish, mehnat qilish, mulkka egalik qilish va boshqa sohalarda teng imkoniyatlar yaratadi.

Bugungi kunda ayollarning huquqlari nafaqat qonuniy darajada himoyalanadi, balki amaliy chora-tadbirlar orqali ularning jamiyatdagi roli va ijtimoiy mavqei mustahkamlanmoqda. Bu esa oilaning barqarorligi, jamiyatning tinchligi va kelajak avlodning sifatli tarbiyasini ta’minlashga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, O‘zbekiston Respublikasida xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bandligini ta’minlash va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar o‘zining sezilarli natijalarini bermoqda. So‘nggi yillarda davlat va tijorat banklari mablag‘lari, shuningdek “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash” davlat maqsadli jamg‘armasi yordamida yuz minglab xotin-qizlar oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun kreditlar oldi, asbob-uskunalar va subsidiyalar bilan ta’minlandi. Shu bilan birga, kasb-hunar va tadbirkorlikni o‘rganishga qiziqish bildirgan minglab xotin-qizlar “Ishga marhamat” markazlari, kasb-hunar maktablari va monomarkazlarda malaka oshirdi. Natijada so‘nggi 2,5 yil ichida 473 mingdan ziyod xotin-qizlar doimiy ish o‘rinlariga joylashtirildi, 230 mingdan ortiq xotin-qizlar jamoat ishlariga jalb qilindi, uy-joy sharoiti yaxshilangan xotin-qizlar soni sezilarli darajada oshdi, 14 mingdan ziyod ayol “Hunarmand” uyushmasiga a’zo bo‘ldi va ularga 21 mingdan ortiq shogird biriktirildi.

Shuningdek, xotin-qizlarning bandligini oshirish va ularni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish maqsadida o‘tgan yil davomida 872 mingdan ortiq xotin-qizlar ish bilan ta’minlandi, 250 mingdan ziyodi mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitildi. Bu esa mamlakatimizdagi xotin-qizlarning iqtisodiy mustaqilligini sezilarli darajada oshirdi va ularning jamiyatdagi rolini mustahkamladi.

Ushbu ishlarning ijtimoiy ahamiyati ham katta. Xotin-qizlarning faoliyati oilaning barqarorligi, jamiyatdagi tinchlik va kelajak avlodning sifatli tarbiyasi bilan chambarchas bog‘liq. Faol tadbirkorlikni rag‘batlantirish, investitsiyaviy iqlimni yaxshilash va ishbilarmonlik muhitini rivojlantirish orqali yangi ish o‘rinlari yaratilmoqda, bu esa jamiyat barqarorligi va oilaning mustahkamligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Eng asosiysi, opa-singillarimizning hayotdan rozi bo‘lishi, oilaning mustahkamligi va ertangi kunga ishonchni kuchaytirish orqali mamlakatimizda baxtiyor va farovon jamiyat barpo etilmoqda. Shu bois, xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash siyosati nafaqat bugungi kunni, balki kelajak avlodning barqaror va farovon kelajagini ta’minlaydi.

Kelajakda bu tizimli chora-tadbirlarning samaradorligini yanada oshirish uchun: bandlikni ta’minlash bo‘yicha yangi dasturlar, tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha grantlar, kasb-hunar va innovatsion bilimlarni keng joriy etish, shuningdek jamiyatda gender tenglikni kuchaytirishga qaratilgan qonuniy va ma’naviy chora-tadbirlar izchil davom ettirilishi zarur. Shu bilan birga, jamiyatda xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlik va kamsitishga murosasizlik muhitini yaratish ham doimiy e’tiborda bo‘lishi lozim.

Shu yo‘l bilan, xotin-qizlarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishi mustahkamlanadi, oilaning, jamiyatning va butun mamlakatning barqaror taraqqiyoti ta’minlanadi. Baxtiyor va farovon xotin-qizlar esa kelajak avlodning yetakchi kuchi, oilaning poydevori va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini kafolatlovchi eng muhim resurs hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. https://share.google/dakjxyHcV95vRNrZj
2. https://share.google/MOiN2ElU4Wy3rGrVb
3. https://share.google/IoMOg0y96fLKklDEs

PREZIDENTIMIZNING XOTIN-QIZLARGA VA KAM TA’MINLANGAN OILA FARZANDLARIGA YARATGAN SHART-SHAROITLARI VA IMKONIYATLARI

Iskenderova Gulsara[1], Tureniyazova Dilfuza Qulametovna[2]
[1]Innovatsion texnologiyalar universiteti Tarix yo‘nalishi 1-kurs talabasi;
[2]Ilmiy rahbar: t.f.f.d(PhD)
https://doi.org/10.5281/zenodo.17667403

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan xotin-qizlar va kam ta’minlangan oila farzandlari uchun yaratilgan shart-sharoitlar, imkoniyatlar va ijtimoiy islohotlar tizimli tahlil qilinadi. Maqola davlat dasturlari, Prezident farmonlari, xalqaro hisobotlar va real statistik ma’lumotlar asosida yozilgan. Mamlakatimizdada gender tengligi, kambag‘allikni qisqartirish, ta’lim va bandlik tizimlarining rivojlanishi orqali ijtimoiy adolat va barqarorlikni mustahkamlash jarayonini yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Ayollar daftari, Temir daftar, Yoshlar daftari, ijtimoiy himoya, gender, gender tengligi indeksi*

Аннотация: *В данной научной статье систематически анализируются условия, возможности и социальные реформы, созданные Президентом Республики Узбекистан для женщин и детей из малообеспеченных семей. Статья написана на основе государственных программ, указов Президента, международных отчетов и реальных статистических данных. Освещен процесс укрепления социальной справедливости и стабильности в нашей стране посредством гендерного равенства, сокращения бедности, развития систем образования и занятости.*

Ключевые слова*: Аёллар дафтари, Темир дафтар, Ёшлар дафтари, социальная защита, гендер, индекс гендерного равенства*

Abstract: *This scientific article systematically analyzes the conditions, opportunities, and social reforms created by the President of the Republic of Uzbekistan for women and children from low-income families. The article was written based on state programs, Presidential decrees, international reports, and real statistical data. In our country, the process of strengthening social justice and stability through gender equality, poverty reduction, and the development of education and employment systems is highlighted.*

Keywords: *Women's notebook, Iron notebook, Youth notebook, social protection, gender, gender equality index.*

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida, ayniqsa so‘nggi yillarda inson qadri, ijtimoiy himoya va gender tengligi masalalariga alohida e’tibor berib kelmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida olib borilayotgan islohotlar natijasida xotin-qizlar va kam ta’minlangan oila farzandlari uchun ilgari bo‘lmagan imkoniyatlar yaratildi[1] 2020–2025 yillar oralig‘ida: Kambag‘allik darajasi 17% dan 6,8% gacha pasaydi[2]; 2,5 million ayol “Ayollar daftari” orqali ijtimoiy yordam oldi; 800 mingdan ortiq ayol tadbirkorlikka jalb qilindi[4]; 50 mingdan ortiq kam ta’minlangan oila farzandlari grant va stipendiyalar egalariga aylandi[4].

Bu natijalar mamlakatda inson kapitaliga bo‘lgan e’tiborning kuchayganini, ijtimoiy siyosatning barqaror rivojlanishga qaratilganini ko‘rsatadi.

Ayollarni iqtisodiy hayotga jalb qilish davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. 2024-yilda 878 ming ayol ish bilan ta’minlandi, bu 2020-yilga nisbatan 12 foiz ko‘pdir. 2022–2024 yillarda jami 2,5 trillion so‘mdan ortiq mablag‘ ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirildi. Shuningdek, “Ayollar biznes klubi”, “Ayollar uchun startap akseleratorlari” kabi loyihalar doirasida 20 mingdan ortiq ayol biznes ko‘nikmalarini egalladi.

Qoraqalpoqstan Respublikasi boyisha Hunarmantshilikning 42 ta yo‘nalishi bo‘yicha jami 2034 ta Hunarmant xizmat ko‘rsatadi. Shulardanning 405 nafari erkak, 1629 nafari xotin-qizlardan tashkil topilgan. 2989 ta ustoz-shogirt dasturi asosida is foaliyatlarini olib bormoqda [5].

.Ta’lim tizimida ayollarga yaratilgan imkoniyatlar so‘nggi yillarda sezilarli kengaydi. 65 225 nafar ayol ta’lim krediti asosida oliy o‘quv yurtlarida tahsil olmoqda. 2023-yilda ayollar uchun bepul IT, dizayn, marketing, tibbiyot va pedagogika yo‘nalishlarida 1200 ta kurs ochildi. Ularning 40% qishloq hududlaridagi xotin-qizlar edi[6].

Bundan tashqari, 2024-yilda “Ayollar kasb-hunar maktabi” tizimi yo‘lga qo‘yildi. Ushbu maktablarda 100 mingdan ortiq ayol qisqa muddatli amaliy kasblarni o‘rgandi. Ayollarning siyosiy va rahbarlik faoliyatida ishtirokini oshirish maqsadida “Ayollar rahbarlik maktabi” tashkil etildi. Ushbu loyiha doirasida 10 mingdan ortiq ayol davlat boshqaruvi, diplomatiya, huquqshunoslik va iqtisodiyot sohalarida malaka oshirdi. 2024-yil holatiga ko‘ra, ayollar rahbarlik lavozimlarida 35% ni tashkil etadi, bu 2016-yildagiga nisbatan uch barobar ko‘pdir.[7]

Bugungi kunda Qoraqalpog‘stan Respublikasi aholisi 2 millon 29 mingni tashkil qilib, shundan 1millon 9 mingi yani 49.7% foizini xotin-qizlar, 2024-yil holati boyicha 2-nafari Oliy Majlis Senati, 4-nafari Qonunchilik palatasi, 21-nafari Ju’qarg‘i Kengash, 136-nafari tuman (shahar) kengashlari depudatlari hisoblanadi. Shunigdek Sog‘liqni saqlash sohasida 87,7% , talim sohasida 67% sanoat sohasida 23% va har hil saholarda rahbar ayollar 40,9 % ni tashqil qilmoqta[8].

Ayollar xalqaro tashkilotlar va nodavlat sektor faoliyatida ham faol ishtirok etmoqda. 2023-yilda O‘zbekiston ayollari uchun 15 ta xalqaro grant dasturi e’lon qilindi, ulardan 2000 nafari foydalandi. Kambag‘allikni kamaytirish yo‘lida so‘nggi uch yilda 1 milliondan ortiq oila moddiy yordam dasturlariga jalb qilindi.[4] “Temir daftar”, “Yoshlar daftari” va “Ayollar daftari” tizimlari yagona ijtimoiy reyestr orqali boshqarilib, yordam manzilli tarzda ko‘rsatilmoqda[9].

O‘zbekistonda kambag‘allik darajasi 2021-yilda 17% bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yil oxirida bu ko‘rsatkich 6,8% gacha kamaydi. Bu BMT tomonidan Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida eng tez ijtimoiy yuksalish sifatida e’tirof etildi.

2022–2024 yillarda 50 mingdan ortiq kam ta’minlangan oila farzandlari davlat grantlari asosida oliy o‘quv yurtlariga kirish imkoniga ega bo‘ldi. Namangan, Surxondaryo va Xorazm viloyatlarida “Yoshlar texnoparki”lar tashkil etilib, kam ta’minlangan oilalar farzandlari IT, robototexnika va dizayn yo‘nalishlarida bepul o‘qitilmoqda. Har bir tumanda ijtimoiy xizmat markazlari ochilib, 150 mingdan ortiq oila psixologik, tibbiy va huquqiy yordam oldi. Nogiron farzandli oilalar uchun 2023-yilda 12 ta yangi reabilitatsiya markazi tashkil etildi. Sog‘liqni saqlash sohasida “Sog‘lom bola” dasturi doirasida 500 ming bola bepul tibbiy ko‘rikdan o‘tkazildi.

Kam ta’minlangan oilalar uchun 2022–2024 yillarda 25 mingdan ortiq arzon uy-joylar barpo etildi. Qishloq joylarda “Obod qishloq”, “Yangi O‘zbekiston” massivlari orqali yangi

infratuzilmalar yaratildi. Bu o‘z navbatida 80 mingdan ortiq oilaning turmush darajasini yaxshilashga xizmat qildi.

Asosiy ko‘rsatkichlar:

Ayollar rahbarlik lavozimlarida: 35%

“Ayollar daftari” orqali yordam olganlar: 2,5 mln

Kambag‘allik darajasi: 17% → 6,8%

Ayollar bandlik darajasi: 67% → 74%

Kichik biznesda faol ayollar: 1,6 barobar o‘sdi.

Toshkent, Samarqand, Farg‘ona viloyatlari eng yuqori natijalarga erishdi, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida qo‘shimcha ijtimoiy dasturlar amalga oshirilmoqda. Qoraqalpog‘iston Respublikasida “Ayollar markazlari” faoliyati kengaytirilib, 2024-yilda 10 ming ayol ishga joylashtirildi.

Ayollar va kam ta’minlangan oilalar uchun yaratilgan imkoniyatlar ijtimoiy barqarorlikni kuchaytirdi. Ayollar iqtisodiy faolligining oshishi oilaviy daromadlarni ko‘paytirdi, kambag‘allik darajasi pasaydi, yoshlar orasida jinoyatchilik kamaydi. 2023-yilda O‘zbekiston BMT tomonidan “Ijtimoiy inklyuziya bo‘yicha ilg‘or davlat” sifatida e’tirof etildi.

BMT, Jahon banki va Yevropa Ittifoqi O‘zbekistonning ayollar huquqlarini kengaytirish siyosatini yuqori baholadi. 2024-yilda O‘zbekiston “Gender tengligi indeksi”da 28 pog‘onaga yuqorilab, 65-o‘ringa chiqdi[10].

Xulosa sifatinda davlatimizda olib borilip atirgan islarni yanada jadallshtirish bo‘yisha quyida keltirilgan ma’lumotlarni tahlil qilgan holda takliflarni keltirishimiz mumkin:

- Norasmiy sektorda ishlovchi ayollar uchun huquqiy kafolatlar yetarli emas;
- Qishloq joylarda tibbiy va psixologik xizmatlar yetarli emas;
- Kam ta’minlangan oilalar farzandlari uchun oliy ta’lim grantlari soni oshirilishi lozim;
- Ijtimoiy dasturlar monitoringi va hisobot tizimini kuchaytirish zarur.

Shu borada men ham davlatimiz tomonidan yaratilgan imkoniyatlarning amaliy samarasini o‘z hayotimda his qilganman. Men 2-guruh nogironligiga ega bo‘lgan, kam ta’minlangan oiladan chiqqan talaba sifatida ta’lim olish jarayonida qator ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlaridan foydalandim. Rektorumiz Azamatov Anvar Muzaffarovich tomonidan, Prezident tashabbuslari asosida, menga ijtimoiy yordam sifatida kontrakt to‘lovimning 30 foizi qoplab berildi.

Bu nafaqat moddiy yengillik, balki o‘z kuchimga bo‘lgan ishonchni yanada mustahkamladi. Chunki davlatimizda har bir fuqaro, ayniqsa nogironligi bo‘lgan shaxslar va kam ta’minlangan oilalar farzandlari uchun teng imkoniyatlar yaratish siyosati hayotiy haqiqatga aylanmoqda. Shunday insonparvarlik siyosati tufayli men ham o‘z ta’limimni davom ettirish, bilim va kasb egasi bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘ldim. Bu kabi misollar O‘zbekistonning ijtimoiy adolat va inson qadri tamoyillariga asoslangan siyosati amalda qanday natija berayotganini yaqqol ko‘rsatadi.

Prezidentimiz tomonidan amalga oshirilayotgan siyosat natijasida O‘zbekistonda ayollar va kam ta’minlangan oilalarning ijtimoiy mavqei mustahkamlanmoqda. Ayollarning siyasiy, iqtisodiy faolligi, ta’lim olish imkoniyatlari va ijtimoiy himoya tizimlari yildan-yilga yaqshilanib kengayib bormoqda. Bu o‘z navbatinda kambag‘allikning qisqarishi, bandlikning ortishi va ta’lim olishda xotin qizlarning ko‘lamining kengayishi mamlakatda ijtimoiy adolat va farovonlikni ta’minlashga xizmat qilmoqda.

FOYDALANGAN ADABIYATLAR

1.BMSh ning Gender tenlik tavsiyalari,2023
2. Prizident.uz –rasmiy axborot portal,2024
3.Ayollar tadbirkorlikni rivojlantirish jamg‘armasi hisobotlari 2023
4.Stat.uz –Davlat statistika qomitasi ma’lumotlari,2024
5.Qoraqalpog‘iston Respublikasi Hunarmantlar Uyishmasi 2025
6.Ayollar daftari ,tizimi boyisha ichki statistika hisoboti,2023
7.Ozbekiston Respublikasi statistika agentligi:”Aholini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish korsatkishlari 2023-yilda” nomli statistic toplam.-Toshkent,2024
8.Qaroqalpoqston Respublikasi statistika komitasi,joqargikenges.uz
9.Karimova N.Xudoyberdiyev J. Ozbekiston ijtimoiy siyosating zamonaviy tendentsiyalari.Toshkent:TDIU nashiryoti,2023
10. BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP)”Ginder tengligi va ijtimoiy adolat :Markaziy Osiyo mamlakatlari tajribasi”-Nyu-York,2022

“OLIY TA’LIM TIZIMIDA TALABA-QIZLARNI IJTIMOIY QO‘LLAB-QUVVATLASH VA OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH: GENDER TENGLIK, MILLIY TAJRIBA VA XALQARO HAMKORLIK IMKONIYATLARI”

Ma’murova Shahlo Olimovna
Aniq va Ijtimoiy fanlar universiteti tarix fakulteti 2-bosqich magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17667414

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida talaba-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni oilaviy hayotga tayyorlash hamda gender tenglik tamoyillarini amaliyotga joriy etish masalalari tahlil etiladi. Milliy va xalqaro tajribalar asosida bu jarayonning dolzarbligi, samarali mexanizmlari hamda istiqbollari, talaba-qizlarning tarbiyasini zamonaviy asosda, ilmiy-texnologik talablarni hisobga olib isloh qilish, takomillashtirish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, ilmiy va ma’naviy asosda shakllantirishni taqozo etayotgani, tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuvlari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Yangi O‘zbekiston, ijtimoiy faollik, gender tenglik, xalqaro tajriba, mafkura, milliy tajriba.*

Kirish

Bugungi global makonda, o‘zaro raqobat, turli siyosiy, iqtisodiy, g‘oyaviy qarama-qarshiliklar nihoyatda kuchaygan hozirgi sharoitda yosh avlod tarbiyasining o‘rni va ahamiyati har qachongidan ham ortib borayotgani hech kimga sir emas albatta.

Muxtaram Prezidentimizning «O‘zbekiston Respublikasining davlat va ijtimoiy qurilishida xotin - qizlarning rolini oshirish chora – tadbirlari to‘g‘risidagi» gi qarori, «Zulfiya nomidagi davlat mukofotini ta’sis etish bo‘yicha takliflarni qo‘llab – quvvatlash to‘g‘risida» gi farmoni, «Xotin – qizlarga qo‘shicha itiyozlar to‘g‘rimida» gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni Oliy Majlisning 15–sessiyadagi «Saylovlar to‘g‘risidagi» gi Qonunning 22 – moddasiga O‘zbekiston Respublikasining ikki palatali Parlamentiga siyosiy partiyalardan deputatlikka nomzodlarni ko‘rsatishga ayollar soni 30 foizdan kam bo‘lmasligi lozimligi to‘g‘risidagi normaning kiritilishi jamiyatimiz xotin – qizlarining manfaatlarini , onalik va bolalikni ximoya qilish , ularning ijtimoiy - siyosiy faolliklarini oshirish va amalga oshirilayotgan keng miqyosli islohotlardagi faol ishtirokini ta’minlashda samarali xizmat qilmoqda. Ammo xotin – qizlarning salohiyatidan va imkoniyatlaridan jamiyat taraqqiyoti uchun to‘la foydanishga erishganimiz y o‘q. Demak oldimizda bu borada juda ko‘p dolzarb vazifalar bor.Ayniqsa, bolalar va qizlar sportini rivojlantirish yo‘lida amalga oshirilayotgan jadal sa’y – xarakatlar bugun yurtimizning xar bir go‘shasida o‘z samarasini ko‘rsatmoqda. [1] Mustaqil Respublikamiz, yurtimiz, millatimiz ravnaqi va porloq kelajagimizning asosiy poydevori – bu o‘sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy va ma’naviy salomatligi va yetukligiga erishish, ularda , sog‘lom turmush tarzini shakllantirish , sportga mehr– muhabbatni singdirishga erishish uchun diyorimizning barcha hududlardagi yetarlicha shart – sharoitlar yaratib berish, bolalar ommaviy sportini rivojlantirishga alohida e’tibor berish , sog‘lom – sportchilarni tanlab olish hamda ularning

qobiliyatini namoyon etish va rivojlantrishga ko‘maklashish kabi dolzarb vazifalarni hal etish davlatimiz siyosati darajasiga ko‘tarilgan.

Oldimizga qo‘ygan ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz uchun kuch-qudrat manbai bo‘ladigan milliy g‘oyani uzluksiz rivojlantirishimiz zarur.

Hozirgi vaqtda aksariyat talaba-yoshlarimiz “mafkura” degan so‘zga biroz hadiksirab qaraydi, uni demokratik jamiyatga begona deb hisoblaydi. Lekin biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz.

“Biz barpo etayotgan Yangi O‘zbekiston mafkurasi, avvalo, insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik mafkurasi bo‘ladi”,-deb ta’kidladi Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev.

Oliy ta’lim muassasalarida talaba-qizlarning ijtimoiy himoyasini ta’minlash va ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bugungi globallashuv sharoitida dolzarb masala hisoblanadi. Bu jarayonda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida yosh ayollarni zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega, ijtimoiy faolligi yuqori, mas’uliyatli shaxslar sifatida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Gender tenglik tamoyillarini oliy ta’lim tizimida amalga oshirish orqali ayollar va erkaklar uchun teng sharoit yaratish, talaba-qizlarning ilmiy, tashabbuskorlik va rahbarlik salohiyatini rivojlantirish imkoniyati kengaymoqda. Shu bilan birga, psixologik qo‘llab-quvvatlash markazlari, ayollar maslahat kengashlari, mentorlik tizimlari talaba-qizlarning shaxsiy va kasbiy rivojida muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Yangi O‘zbekistondagi oliy ta’lim tizimida talaba-qizlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va oilaviy hayotga tayyorlash maqsadida oila, oliy ta’lim muassasasi va mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to‘liq yuzaga chiqarish va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko‘tarmog‘imiz darkor.

Ushbu yo‘nalishda ishlarimizni yangi bosqichga ko‘tarishimiz uchun yana ko‘plab tadbirlarni amalga oshirish zarur. Jumladan:

- ✓ Ma’naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish;
- ✓ Tarbiya jarayonida uzluksizlik, uzviylik tamoyillariga tayangan holda, avvalo bo‘lajak va yosh onalarga e’tiborni kuchaytirish;

Navbatdagi dolzarb vazifa-oliy ta’lim muassasalarda, oila va mahallalarda talaba-qizlar orasida olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradarligini kuchaytirishdan iborat bo‘lishi kerak.

Ma’lumki, muqaddas Qur’oni karimning eng katta suralaridan biri-“Niso” ya’ni “Ayollar” deb ataladi. Alloh Taolo ushbu surada insonlarni ayollarga adolatli munosabatda bo‘lishiga da’vat etadi va ilohiy so‘zlar zamirida, albatta, teran hikmat mujassam.

Keyingi yillarda oliy ta’lim muassasalarizda talaba-qizlarning huquq-manfaatlarini, gender tenglikni ta’minlash, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, ular uchun yangi ish o‘rinlari yaratish, mehnat hamda turmush sharoitlarini yaxshilash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi.

Ana shularni hisobga olgan holda, keyingi yillardagi oliy ta’lim muassasalaridagi gender siyosati quyidagi masalalarga qaratiladi:

- ✓ Ijtimoiy-siyosiy hayotda talabalarning ishtirok etishida keng huquq va imkoniyatlarni yaratish;
- ✓ Talaba-qizlar uchun adolatli va sifatli ta’limni ta’limni ta’minlash;
- ✓ Talaba-qizlarning uchun gender tenglikni ta’minlash, ularni zo‘ravonlikdan himoya qilish;

- ✓ Milliy gender statistikasini rivojlantirish;
- ✓ Barcha uchun xavfsiz ekologik muhitni ta’minlash masalalariga talaba-qizlarni yanada kengrok jalb etish;
- ✓ Talaba-qizlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi roli va faolligini yanada oshirish;
- ✓ Yordamga muhtoj bo‘lgan va og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan talaba-qizlarning, jumladan, nogironligi bo‘lgan talaba-qizlarning muammolarini o‘z vaqtida aniqlash;

Insoniyat rivojlanishining barcha - ibtidoiy jamoya tuzumdan boshlab hazirgi vaqtgacha - davrlari gender tarixchilarning diqqatini jalb qiladi. Ularning ilmiy tahlili birlamchi mehnat taqsimoti sabablari va oqibatlarini, xotin-qizlar ustidan ijtimoiy nazoratning shakllari, jamiyatda erkaklar ustunligi mafkurasining shakllanishi jarayonini, oila, nikoh munosabatlarning erkaklar va ayollar hayotiga ta’sirini, jamiyatda gender tengsizlik shakllanishiga diniy qarashlarning ta’sirini, ayollar va erkaklarning ijtimoiy huquqiy maqomini, siyosatda va yuqori hokimiyat tizimlarida xotin-qizlar yo‘qligiga va gender masalalarining boshqa muhimligi bulardan kam bo‘lmagan jihatlarini o‘rganishga qaratilgan. Shunday qilib xotin qizlarni tarixga olib kirish va tarixdagi androtsentristlikka barham berish maqsadida tarix bilimlarini qayta ko‘rib chiqish o‘tgan asrning 70-yillarida boshlandi. Gender tarixi yangi fanlararo ilmiy yo‘nalishlarning bir qismi sifatida – ayollarning gender tadqiqotlari G‘arbda 70-yillarining oxiri va 80-yillarning boshlarida shakllandi. 60 yillarda jadal rivojlanayotgan ayollar xarakati G‘arbiy Yevropa va Amerikaning ko‘plab yosh tarixchi olimlari tadqiqot obyekti sifatida ayollarni tanlab olishdi va ularning o‘tmishini o‘rganish va xozirgi kunni tahlil qilish kabi, xar ikkala jinsga tegishli ma’lumotlarga tayanish kerak deb oqilona ishonib ayollar tarixini o‘rganishni boshlashdi. Dastlab, avval tarixshunoslik tomonidan unitilgan ayollarga nisbatan adolatni tiklash uchun ularning ishlab chiqilgan tadqiqotlari nafakat ilmiy jamoatchilik tomonidan balki jinsni belgilaydigan maqom sifatida tan olmagan ko‘plab ijtimoiy tarixchilar tomonidan xam shubha bilan qabul qilindi. Biroq 70- yillarning ikkinchi yarmida sodir bo‘lgan jamoat va kasbiy ongdagi burilish ko‘plab subyektiv to‘siqlarni olib tashladi. 1980-yillarning boshlariga kelib G‘arb mamlakatlarida xotinqizlar tarixiga oid kurslarni o‘z dasturlariga kiritgan yuzlab oliy o‘quv yurtlari mavjud bo‘lib, ularning ko‘pchiligi talabalarga bu sohaga ixtisoslashish imkoniyatini yaratib berdi

O‘zbekistonning milliy tajribasi — “Ayollar daftari”, “Ayollarni qo‘llab-quvvatlash markazlari” va “Xotin-qizlar maslahat kengashlari” faoliyati orqali qizlarning ijtimoiy himoyasi va oilaviy hayotga tayyorlanishida samarali natijalar bermoqda. Shu bilan birga, BMT, UNESCO, UN Women kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda gender tenglikni mustahkamlash hamda ayollar ta’limi va huquqlarini himoya qilish bo‘yicha bir qator loyihalar amalga oshirilmoqda.

Xulosa. Talaba-qizlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ularni oilaviy hayotga tayyorlash va gender tenglikni ta’minlash nafaqat ta’lim tizimining, balki jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Ushbu yo‘nalishdagi milliy va xalqaro tajribalarni uyg‘unlashtirish orqali zamonaviy, barkamol va mas’uliyatli ayollar avlodini shakllantirish imkoniyati yaratiladi.

Bu borada bugun O‘zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining asosiy maqsadi-ayol-qizlarimizga e’tibor va amaliy g‘amxo‘rlik ko‘rsatishni yangi, yuksak bosqichga olib chiqish, xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni va maqomini mustahkamlash, ularning huquq va manfaatlarini ta’minlashdir.

“Ayollarga ilm berish-jamiyatni ilmli, ma’rifatli va salohiyatli qilish”, degan tamoyilni tadbiq etish asosiy vazifamizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri.-Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022.-416 bet.
2. O‘razaliyeva G. Gender va ayollar huquqiy madaniyati. “Toshkent” nashriyoti, 2009.-135 bet.
3. Yangilanayotgan O‘zbekistonda xotin-qizlarning ilm-fan taraqqiyotidagi roli va gender tengligi mavzusida I-xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami, 2-3 mart 2021 yil. – Toshkent: «Tadqiqot», 2021. 525 bet.
4. 2019 yil 2 sentyabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi «Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilishto‘g‘risida» Qonuni; 10.Astanov I. R. Zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar va ularni tergov qilishning o‘ziga xos jihatlari: O‘quv qo‘llanma. –T., TDYuU, 2015. – B. 139.
5. Internet ma’lumotlari.

OILADA QAYSI MUHIM: GENDER TENGLIK YOKI O‘ZARO HURMAT

Mamatkulova Iroda Ergashevna
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
https://doi.org/10.5281/zenodo.17667474

Annotatsiya: *Zamonaviy dunyoda oila degan kichik jamiyatdagi o‘zaro munosabatlar nimaga asoslanmoqda? Bugungi kunda bu savol har qachongidan ham dolzarbdir. Oila — jamiyatning eng muhim bo‘g‘ini bo‘lib, undagi tinchlik, mehr-oqibat va barqarorlik butun jamiyatning ahvoli bilan chambarchas bog‘liq. Shuning uchun oilaviy munosabatlarda gender tengligi va o‘zaro hurmat masalalari alohida e’tibor talab etadi.*
Kalit so‘zlar: *oila, gender, hurmat, axloq, huquq.*

Oila – bu nafaqat yashash joyi, balki munosabatlar, qadr-qimmat va huquqlar maydoni hamdir. Insonning shaxsiy baxti, farzandlar tarbiyasi va jamiyatning barqarorligi ko‘p jihatdan oiladagi muhitga bog‘liq. Shu bois, savol tug‘iladi: oilada faqat gender tenglik bo‘lishi kifoyami yoki o‘zaro hurmat ham muhim o‘rin tutadimi?

Gender tenglik deganda, er va xotinning huquq va majburiyatlari bir xil darajada bo‘lishi nazarda tutiladi. Bu nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy tenglikni ham ifodalaydi. Bunday munosabatda har ikki taraf ham qaror qabul qilishda, mehnat taqsimotida va oilaviy vazifalarda teng ishtirok etadi. Masalan:qaror qabul qilishda har ikki taraf teng ovozga ega bo‘lishi; uy ishlari va moliyaviy mas’uliyatni birgalikda bo‘lishishi;farzandlar tarbiyasida har ikki tomonning faol ishtirok etishi.

Bu – qonuniy va ijtimoiy asosdagi muhim prinsip bo‘lib, har ikki tomonning huquqlari himoyalanadi. Bir so‘z bilan aytganda, gender tenglik oilada adolat, hamjihatlik va hamkorlik muhitini yaratadi.

Hurmat – psixologik va axloqiy asos. Biroq, faqat teng huquqlar bo‘lishi yetarli emas. Agar oilada o‘zaro hurmat bo‘lmasa, munosabatlar mustahkam bo‘lmaydi. Hurmat – bu har bir a’zoning qadrini bilish, fikrini eshitish va shaxsiy hududini tan olishdir. Hurmat deganda quyidagilar nazarda tutiladi: Bir-biringizni qadrlash va fikringizni tinglash, qarshilik yoki nizolarda haqoratli so‘zlardan saqlanish,shaxsiy cheklov va hududni hurmat qilish.

Psixologik jihatdan olib qaralganda, hurmat bor joyda ishonch, muhabbat va tinchlik ustuvor bo‘ladi. Agar hurmat yo‘qolsa, hatto tenglik qonuniy jihatdan ta’minlangan bo‘lsa ham, munosabatlarda ziddiyat, ruhiy bosim va xonadon ichida zo‘ravonlikka olib kelishi mumkin.

Aslida “baxtli”, “normal oila” tushunchasining o‘zida muayyan shartlilik va sun’iylik bor. Chunki, har qanday oila – bu oilaviy munosabatlar majmui bo‘lgani bois, unda turli hil muammolar, shaxslararo ziddiyatlar, murakkablik borligi psixologlar tomonidan allaqachon isbotlangan. Shunday bo‘lsa-da, olimlar normal o‘zaro munosabatlar barqaror bo‘lgan oila mavjudligidan kelib chiqib, bunday oilaga ta’rif beradilar: masalan, rossiyalik olim V.N. Drujinin normal oilani “oila farovonligi, a’zolarning ijtimoiy muhofazasi va rivojlanishi, farzandlarning esa ijtimoiylashuvi jarayonida psixologik hamda jismoniy yetukligini talab doirasida ta’minlaydigan” deb ta’riflagan. Ijtimoiy psixologiyada oilaviy o‘zaro munosabatlarning yaxshi (ijobiy, normal) yoki yomon (salbiy, anomal)ligiga qarab oilani

“normal - anomal” turlarga bo‘lib o‘rganish an’anasi ham bor. Aslida jamiyat paydo bo‘lib, unda oila deb atalmish ijtimoiy institut shakllangandan buyon insoniyat qanday oilani ideal deb atash mumkin, degan savolni o‘rtaga tashlab, uni asosan jamiyatda qabul qilingan ahloqiy qadriyatlarga qanchalik mos kelishi, javob berishi nuqtai nazaridan baholab kelganlar. Lekin shunisi ham borki, bir madaniy-ma’naviy muhitda ideal hisoblangan oilaviy munosabatlar boshqa bir madaniy muhitda unday sifatga ega bo‘lmasligi ham mumkin[1]. Bu masalalar yuzasidan ko‘pgina tadqiqotchilar o‘z fikr va nazariyalariga ega. Tadqiqotchi A.H.Blackwell boshq., (2023) o‘z ilmiy izlanishlarida genderga asoslangan vakolatlar va o‘zaro hurmat muhitida barqaror oilaviy funksionallik ko‘rsatkichlari o‘rganib, tadqiqot natijasida oilada qat’iy erkak-ayol vakolatlari bo‘lmagan, balki umumiy vakolatlar, o‘zaro hurmat va tenglik nazariygina oilaning yaxshi ishlashiga ijobiy hissa qo‘shadi deb xulosa qiladi [2].

Oilashunos xitoy tadqiqotchi Y. Xia (2020) oilada gender tengligini amalga oshirish yo‘llari — huquqiy normalar, o‘zaro mas’uliyat, uy-ishlar taqsimoti va shaxsiy rivojlanish imkoniyatlari jihatidan tahlil qiladi [3].

O‘zbekistonlik tadqiqotchilar N.B.Rajapova va boshqalar (2021) esa O‘zbekistondagi ayollarning oilaviy munosabatlar va ta’lim orqali ijtimoiy rivojlanishini tahlil qilib, gender stereotiplari, oiladagi rol taqsimoti va o‘zaro hurmat masalalari tahlil qilishgan.[4]

Xulosa: Shunday qilib, gender tenglik va hurmat — bu ikkisi bir-birini to‘ldiruvchi, ajralmas qadriyatlardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. T.K.O‘rmonov. “Oiladagi konstruktib va destruktiv munosabatlar”.Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya.Ilmiy amaliy konferensiya.
2. Blackwell A.H. Family Functioning in Humanitarian Contexts: Correlates of the Feminist-Grounded Family Functioning Scale among Men and Women in the Eastern Democratic Republic of Congo. 2023 [SpringerLink]
3. Xia Y.Study on Achieving Gender Equality in Family (2020)
4. Rajapova N.B., Nazarova M.N., Status of Women in Uzbekistan through the Prism of Family Relationship and Education,2021.

OLIY TA’LIM TIZIMIDA GENDER TENGLIKNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARI VA STRATEGIYALARI

I.K. Maxkamova
Toshkent davlat tibbiyot universiteti Xotin-qizlar kengashi raisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17667491

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimida gender tenglikni ta’minlashga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar, davlat siyosati hamda amaliy strategiyalar tahlil etilgan. Shuningdek, ta’lim muassasalarida ayollar va erkaklar uchun teng imkoniyatlar yaratishning dolzarbligi, mavjud muammolar va ularning yechim yo‘llari haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *gender tenglik, oliy ta’lim, strategiya, ayollar huquqlari, ta’lim siyosati, ijtimoiy adolat.*

Kirish: So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida gender siyosatini rivojlantirish, xususan, ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Oliy ta’lim tizimi esa bu jarayonning muhim bo‘g‘ini hisoblanadi, chunki u yoshlarning ijtimoiy faolligi, yetakchilik qobiliyati va mehnat bozoridagi o‘rni shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Asosiy qism

1. Normativ-huquqiy asoslar

O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikni ta’minlash bo‘yicha qator qonunlar va qarorlar qabul qilingan. Jumladan:

• “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun (2019-yil 2-sentabr) — bu hujjat gender tenglikni davlat siyosati darajasida belgilab, barcha sohalarda, jumladan, ta’limda tenglikni kafolatlaydi.

• O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarda Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni — unda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish va ta’limda tenglikni ta’minlash alohida vazifa sifatida qayd etilgan.

• Gender tenglikni ta’minlash milliy strategiyasi (2021–2030-yillar) — ta’lim tizimida gender balansni mustahkamlash, ayollarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga keng jalb etish va rahbarlik lavozimlarida ularning ulushini oshirishni maqsad qiladi.

Mazkur hujjatlar gender masalasini faqat ijtimoiy muammo emas, balki ta’lim sifati va jamiyat barqarorligini belgilovchi omil sifatida e’tirof etadi.

2. Oliy ta’lim tizimidagi amaliy strategiyalar

Oliy ta’lim muassasalarida gender tenglikni rivojlantirish uchun quyidagi yo‘nalishlarda ishlar olib borilmoqda:

1. Ta’lim muhitida teng imkoniyatlarni yaratish.

Qiz va o‘g‘il talabalar uchun teng sharoitlar, grantlar, ilmiy loyihalarda ishtirok imkoniyati hamda ijtimoiy kafolatlar ta’minlanmoqda.

2. Lider qizlar klublari va mentorlik tizimi.

Ayol talabalarni yetakchilik va tashabbuskorlikka o‘rgatish maqsadida “Lider qizlar”, “Qizlar akademiyasi” kabi dasturlar faoliyat yuritmoqda.

3. Kadrlar siyosatida gender balansni ta’minlash.

Oliy ta’lim muassasalarida ayol professor-o‘qituvchilar, dekan muovinlari, ilmiy rahbarlar ulushi yildan-yilga ortmoqda.

4. Gender madaniyatini shakllantirish.

Ta’lim jarayonida gender masalalariga oid fanlar, seminar-treninglar, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etilib, talabalar ongida tenglik va hurmat qadriyatlari mustahkamlanmoqda.

3. Muammolar va takliflar

Gender siyosati sohasida erishilgan natijalarga qaramay, hali ham ayrim muammolar mavjud:

• Qizlarning ayrim texnik va muhandislik yo‘nalishlariga kamroq qiziqishi;
• Oliy ta’limda rahbarlik lavozimlarida ayollar ulushining pastligi;
• Gender stereotiplari ta’sirining saqlanib qolishi.

Bu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi takliflar muhim:

• Gender ta’limini barcha oliy ta’lim dasturlariga kiritish;
• Ayollar uchun ilmiy grant va stajirovkalarni ko‘paytirish;
• Qizlar uchun mentorlik va psixologik qo‘llab-quvvatlash markazlarini rivojlantirish.

Xulosa: Oliy ta’lim tizimida gender tenglikni ta’minlash — nafaqat ijtimoiy adolat talabi, balki mamlakatning intellektual salohiyatini oshirish garovidir.

Normativ-huquqiy baza va davlat strategiyalari bu yo‘nalishda mustahkam asos yaratmoqda. Endilikda ularni amaliyotga izchil tatbiq etish, yosh avlod ongida tenglik va hamkorlik madaniyatini mustahkamlash muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
2. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun, 2019-yil.
3. “2022–2026-yillarda Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi Farmon, 2021-yil.
4. O‘zbekiston Respublikasi Gender tenglik milliy strategiyasi (2021–2030).
5. Xalq ta’limi va oliy ta’lim vazirligi hujjatlari, rasmiy axborotnomalar.

O‘ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARNING ILM-FAN SOHASIDAGI ROLI MASALASI

Vazira Sadullayeva
Buxoro davlat pedagogika instituti Xotin-qizlar maslahat kengashi raisi tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD
https://doi.org/10.5281/zenodo.17667503

Annotatsiya: *Ushbu maqolada xotin-qizlarni qo‘llab quvvatlash bo‘yicha amaldagi islohotlar, xotin-qizlarga oid davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari doirasida amalga oshirilayotgan keng ko‘llamli islohotlar, O‘zbekiston xotin- qizlarinig ilm-fan sohasidagi roli, Respublika oila va xotin-qizlar qo‘mitasi tomonidan “Ayol-tarix-tamaddum” kitobining nashri, UNESCO 43-sessiyasida ushbu kitobning namoyish etilishi, Unda 37 ta xotin-qizning tariximizda ham jasorat, ham matonat boshqaruvchanlikning namoyon etilishi bu uzoq tariximizda ayollarning qobiliyati qondan qonga o‘tib kelayotgani haqida ma’lumotlar berilgan. Maqolada ayolning insoniyat sivilizatsiyasi ma’naviyat davlatchilik va ijtimoiy taraqqiyotdagi o‘rni yoritilgan. O‘zbekistonnig xalqaro maydondagi imidji, xotin-qizlar bo‘yicha ilmiy faoliyatini qo‘llab quvvatlash, ilmiy almashinuv dasturini kengaytirish masalalari va gender tengligi masalalari maqolada yoritilgan. Shuningdek ilmiy tadqiqotlar innovatsion g‘oyalar va texnologik yangiliklarda ayollar ishtirokini kengaytirish xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha bir qator takliflar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *xotin-qizlar, gender tengligi, ilmiy faoliyat, ta’lim, UNESCO, innovatsion g‘oyalar, taraqqiyot.*

Аннотация: *В статье представлена информация о текущих реформах по поддержке женщин, масштабных реформах, реализуемых в рамках основных направлений государственной политики в отношении женщин, роли женщин в Узбекистане в сфере науки, издании книги «Женщина-История-Культура» Республиканским комитетом по делам семьи и женщин, презентации этой книги на 43-й сессии ЮНЕСКО, а также о проявлении 37 женщинами мужества и стойкости в нашей истории, что свидетельствует о том, что на протяжении всей нашей долгой истории способности женщин передавались из поколения в поколение. В статье рассматривается роль женщин в человеческой цивилизации, духовности, государственности и общественном развитии. В статье освещаются имидж Узбекистана на международной арене, вопросы поддержки научной деятельности женщин, расширения программы научного обмена, вопросы гендерного равенства. Также был выдвинут ряд предложений по развитию международного сотрудничества в целях расширения участия женщин в научных исследованиях, инновационных идеях и технологических инновациях.*

Ключевые слова: *женщины, гендерное равенство, научная деятельность, образование, ЮНЕСКО, инновационные идеи, развитие.*

Annotation: *The article presents information on current reforms to support women, large-scale reforms implemented within the framework of key areas of state policy on women, the role of women in science in Uzbekistan, the publication of the book "Woman-History-Culture" by the Republican Committee for Family and Women's Affairs, the presentation of this book at the 43rd session of UNESCO, and the demonstration of courage and resilience by 37*

women throughout our history, demonstrating that throughout our long history, women's abilities have been passed down from generation to generation. The article examines the role of women in human civilization, spirituality, statehood, and social development. It also highlights Uzbekistan's image on the international stage, issues of supporting women's scientific activity, expanding scientific exchange programs, and issues of gender equality. A number of proposals were also put forward for the development of international cooperation to increase women's participation in scientific research, innovative ideas, and technological innovation.

Keywords: *Women, gender equality, scientific activity, education, UNESCO, innovative ideas, development.*

Bugungi kunda yurtimizda xotin-qizlarnig jamiyat va davlat boshqaruvidagi ulushi ishtiroki kengayib borayotganini ko‘rib turibmiz. Ayollarni qo‘llab quvvatlash bo‘yicha amaldagi islohotlar, xotin-qizlarga oid davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari doirasida amalga oshirilayotgan keng ko‘llamli islohotlar O‘zbekistonnnig xalqaro maydondagi imiji, uning xalqaro reyting va indekslardagi o‘rniga albatta ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston tajribasi xalqaro doirada aks-sado bermoqda, bunda xotin –qizlar huquq va manfaatlarini kengaytirishni nazarda tutuvchi BMT ning barqaror rivojlanish maqsadlari, xotin -qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida Konvensiya, Pekin harakatlari platformasi kabi xalqaro va milliy huquqiy hujjatlar ayollar manfaatlarini qamrab olgan. Oliy ma’lumotli ayol-qizlarimizni bilimli –ilmli qilish borasida bilim olishini rag‘batlantirish, jamiyatda o‘zinig munosib o‘rnini topishiga ko‘maklashishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda.

Shu bilan birga gender tenglikka erishish strategiyasi ijrosi amalda olib borilmoqda. Bu masala bo‘yicha davlatimiz rahbari boshchiligida mamlakatimizda xoin-qizlarni har tomonlama qo‘llab quvvatlash faolligini oshirish ularning salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart sharoitlar yaratilishi bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu yo‘nalishda 200 dan ortiq kompleks chora tadbirlar izchil ravishda oshirilib natijada xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni va nufuzini sezilarli darajada mustahkamlash asosiy vazifa sifatida qo‘yilganini ko‘rishimiz mumkin.

Undan tashqari xotin-qizlarning ta’lim olishi masalasi ham juda ischil ko‘rib chiqilib ular uchun ish o‘rinlari va tadbirkorlikni ham rivojlantirishni yo‘lga qo‘yilganini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, oliy talim bakalavr bosqichida xotin qizlar ulushi 38 foiz dan 53 foizgacha o‘sdi. Magistratura bosqichida bu ko‘rsatkich 34 foizdan 66 foizgacha ko‘tarildi [1, B. 1-2].Shuni tariximiz isbatlaydi, ayan shu davrdan tarixga nazar soladigan bo‘lsak o‘zbek ayollari ichida Nodirabegim, Uvaysiy , Davlatshoh, Ma’suma Qoriyeva kabi donishmand ayollar madrasalar va ta’lim muassasalarni qurdirib o‘zining ilmga hissa qo‘shgan, ma’rifatni targ‘ib qilgan . Massagetlar malikasi To‘maris, temuriylar davri ijtimoiy-siyosiyhayotida katta rol o‘ynagan Saroymulkxonim, Buxoro hokimi Qabaj xotun kabi siymolar xalq, davlat va madaniyat taraqqiyotida o‘z ta’sirini ko‘rsatganligi xotin-qizlar ham ta’lim -tarbiya berishda balki boshqaruvchanlikda alohida o‘ringa ega. Buni albatta ta’kidlab o‘tishimiz lozim.

Xotin-qizlar uchun juda ko‘p tanlovlar balki tadbirlar o‘tkazilmoqda. Ulardan biri “To‘maris izdoshlari’’ tanlovi bo‘lib o‘tdi. Tanlovda vatan himoyasida mehnati sinayotgan jasoratli ayollar o‘z bilimi va salohiyatini jismoniy va kasbiy tayyorgarligini yana namoish qildilar [2, B. 2-3]. Bu ilmga chanqoqlik ayollarimiz talabchanligi va ma’suliyatli har bir ishga yondashgani ijobiy natijalarga erishgani bilan bugungi kunda gender tengligi masalasida ularni qo‘llab quvvatlashmoqda. Hattoki oila va xotin qizlar qo‘mitasi tomonidan “Ayol- tarix

tamaddum’’ kitobi UNESCO 43- sessiyasida ushbu kitobning namoyish etilishi bejizga emas. Unda 37 ta xotin-qizning tariximizda ham jasorat ham matonat ham boshqaruvchanlikning namoyon etilishi bu uzoq tariximixda ayollarning qobiliyati qondan qonga o‘tib kelayotganini ko‘rishimiz mumkin. Kitobda ayolning insoniyat sivilizatsiyasi ma’naviyat davlatchilik va ijtimoiy taraqqiyotdagi o‘rni yoritilgan. Asarda vatanparvarlik marifat va ezgulik timsoli bo‘lgan ayollar siymosida tamaddumlar davomiyligi aks etgan.Ayollar tarixiy va madaniy hayotdagi o‘rniga alohida etibor qaratilgan.

Undan tashqari gender tengligi bo‘yicha konstitutsiyamizda ham qonun qabul qilinib mustahkamlab qo‘yilgan. Ayollar va erkaklar huquqlari tengligi mamlakatimizning Asosiy qonuni O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan, uning 18-moddasida qayd etilganidek, “O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’iy nazar, qonun oldida tengdirlar” Jamiyatda ayollar va erkaklar tengligi tamoyilini ilgari surish demokratik boshqaruvning asosiy va ajralmas qismi ekanligini anglab yetish kuchaymoqda [3]. Ayollar va erkaklarning teng huquqliligi mamlakatimizning asosiy qonuni - Ozbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan, uning 46-moddasida qayd etilganidek, “Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar”. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi har bir odam uchun Inson huquqlari haqidagi Xalqaro Konvensiyadagi shaxsiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy va iqtisodiy huquqlarining butun majmuini kafolatlaydi. Asosiy qonunimizda har bir insonga huquq va erkinliklari daxlsizligi, ularni cheklab qo‘yishga hech kim haqli emasligi mustahkamlangan. [4, B. 2-3].

Bugungi kunda ayollar ta’limi jamiyat taraqqiyotining ajralmas qismi sifatida katta ahamiyat kasb etmoqda. Ta’limli ayollar — bu oila, jamiyat va butun mamlakatning intellektual salohiyatini oshiruvchi asosiy kuchdir. O‘zbekistonda qizlar va ayollar uchun ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish, ularni oliy va kasb-hunar ta’limiga jalb etish borasida sezilarli natijalar qo‘lga kiritildi. Shu bilan birga, ayrim hududlarda mavjud ijtimoiy va iqtisodiy to‘siqlarni bartaraf etish, ayollarni zamonaviy kasblarga o‘qitish, ularning ilm-fan sohasidagi faolligini oshirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, ayollarning ta’limga keng jalb qilinishi bu nafaqat gender tengligiga erishish, balki jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim omildir. Har bir ayolga bilim olish imkoniyati yaratilsa, mamlakatning kelajagi yanada porloq bo‘ladi. Ayolning baxtli bo‘lishi nafaqat oilada, balki butun jamiyatga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Uni e’zozlagan va hurmat qilgan millatning kelajagi bardavom bo‘ladi. Zero, bugun yurtimizda ayollarga jahon davlatlarining hech birida kuzatilmagan ehtirom va hurmat ko‘rsatilmoqda.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1.Xalq so‘zi gazetasi.2025 yil 8 oktabr. 207- son (9102). 1-2, B.
2.Xalq so‘zi gazetasi. 2025 yil 11 oktabr . 210-son(9105).2-3 B.
3.O‘zbekiston Respulikasi Konstitutsiyasi.
4."Xotin qizlar va erkaklar teng huquq hamda imkoniyatlari kafolatlari to,g,risida"gi qaror (02.09.2019.).

AYOLLARDAGI TANA MEN OBRAZINING OILA-NIKOH MUNOSABATLARIGA TA`SIRI (MINTAQAVIY YONDOSHUVLAR)

Tulyaganova Robiyabonu Xasan qizi
Doktorant, O‘zbekiston Milliy Universiteti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17667512

Annotatsiya. *Ushbu maqolada rus olimlari talqinida ayollardagi tana tasviri va "Men" obrazining oila-nikoh munosabatlariga ta’siri tahliliy sharhi berilgan. Ayollardagi jismoniy "Men" tasviri va "Men" tushunchasi masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Tana tasvirining shaxsning "Men" tushunchasi tuzilishida muhim o‘rin tutishi ko‘rsatilgan. Ayollardagi tana tasviri "Men" tushunchasining jismoniy tarkibiy qismi sifatida shaxsiy va ijtimoiy hayot sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi yoritib berilgan.*

Tayanch so‘zlar*: ayollar, tana tasviri, "Men" tushunchasi, oila va nikoh, ta’sir, tananing jismoniy tasviri, biologik qiyofa, ideal "Men", er-xotin munosabatlari, psixologik ta’sir.*

Annotation. *This article provides an analytical overview of the influence of body image and self-image in women on marital and family relationships as interpreted by Russian scholars. Special attention is given to the issues of physical self-image and self-concept in women. It is demonstrated that body image plays an essential role within the structure of self-concept. The study reveals that women’s body image, as a physical component of the self-concept, has a direct impact on the quality of personal and social life.*

Keywords: *women, body image, self-concept, family and marriage, influence, physical body image, biological appearance, ideal self, marital relationships, psychological impact.*

Tana obraziga bo‘lgan munosabatni o‘rganishda turli davrlarda olimlar turlicha ta`sirlar va omillarni sanab o‘tish bilan bir qatorda o‘z nuqtayi nazarlarini tadqiqotlar orqali turli aspektlariga urg‘u berishni nazarda tutadilar. Dastlabki tana obrazi haqidagi fikrlarni yoritishda biz Alfred Adlerning (1870-1937) shaxsga individual psixologiya nazariyasi tomonidan tana va shaxsiy rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlikka katta e`tiborini qaratadi. Adler bu nazariyada insonni yaxlit shaxs sifatida tushuntirishga qaratadi, uning g‘oyasi mohiyatida tanadagi nuqsonlar yoki jismoniy kamchiliklar insonda “noto‘liqlik kompleksi”ni (inferiority complex) shakllantiradi. Buning natijasida inson bu kompleksni yengish va bartaraf etish uchun shaxsiy kompensatsiya strategiyalarini ishlab chiqadi. Masalan, ayollarda tanadagi kamchilik yoki nuqsonni yengishda aqliy imkoniyatlarini kengaytirish orqali ustunlikka erishishni istashi, asosiy e`tiborini o‘qish, o‘rganish, fikrlashga, xususan, intelektual salohiyatini oshirishga intilishi Adler nazariyasiga ko‘ra kompensatsiyaga bog‘liq. Boshqa tarafdan esa tanadan qoniqmaslik undagi nuqsonni bartaraf etish hohishining oshishiga va natijada bunday ayollar aksincha, o‘z jismoniy kamoloti ustida ishlashga urg‘u beradi. Bunday ayol domiy ravishda jismoniy harakatlarda faollik ko‘rsatishini ta`kidlab o‘tadi. Tana bilan bog‘liq komplekslar o‘zini past baholashga, turmush munosabatida esa sherik bilan muloqotdagi ishonchsizlikka olib kelishi mumkin. Bunda Adler “ijtimoiy qiziqish” (social interest) orqali sog‘lom kompensatsiyani amalga oshirib, oiladagi iliq munosabatlar, hamkorlikka asoslangan munosabatlarni shakllantirishini nazarda tutadi.

Keyinchalik tana obrazining shakllanishi orqali oilaviy-nikoh munosabatlarga bog‘liq ravishda o‘rganish G‘arbda XX asrning oxirlarida rivojlandi, xususan AQShda empirik tahlillar orali ilk tadqiqotlarda uchratishimiz mumkin. Xususan, Kelson, Lansky, Kerney Kuk (1990) ilk tadqiqotlardan birini olib boradilar, unga ko‘ra turli yoshdagi ayollarda tanadan qoniqishga ta`sirlar mavjudligi, oilaviy munosabatlarning ahamiyatini o‘rganishgan. Kollej, litsey yoshidagi ayollar orasida estetik muammolarni bartaraf etishga bo‘lgan qiziqish yuqori bo‘lishi, go‘zallik uslublariga bo‘lgan taalabning yuqoriligi, tashqi ko‘rinishga bo‘lgan e`tiborning ortishi, go‘zallikni saqlashga intilish kabi jihatlar esa o‘rta yoshda kuchayishini tadqiqot natijalari ko‘rsatadi. Kerney Kuk keyinchalik (2000) Peterson, Akkardlar bilan birgalikda ayollarda tana obrazidan qoniqishni ko‘proq oilaviy munosabatlarga bog‘lab tadqiqot olib boradi. Bunda 3500 dan ziyod ayol yosh kategoriyalari 14-74 oralig‘ida ishtirok etadi. Natijalar shuni ko‘rsatganki, tana obrazidan mamnun bo‘lgan ayollar oilada baxtli, jinsiy hayotda faol, turmush sherigi bilan muloqotda ochiq va yaqin ekani isbotlangan. Aksincha, tana obrazining salbiyligi ayollardagi o‘ziga nisbatan tanqidni yuqoriligi, jinsiy munosabatlarda sust, turmush muloqotida esa uzoqlashish va nofaollikni ko‘rsatgan.

Tana obrazini oila-nikoh munosabatlariga bog‘liq ravishda o‘rganish Rus olimlari tadqiqotlarida ham bir qancha uchratish mumkin. Shu jumladan, E.T.Sokolova (1989) tanaga munosabatda tana obrazini o‘zining “Tana obrazi: norma va patalogiya” kitobida keltirgan. Tana obrazini psixologik kategoriya sifatida baholab, uning normative va buzilgan mexanizmlari haqida tadqiqotlar olib borgan. Bunda sog‘lom tana obrazi bu shaxsning o‘z tanasini idrok qilishi, sezishi, baholashi va unga munosabati yig‘indisi sifatida talqin qilinadi. Ijtimoiy munosabatlarda ota-ona, tengdoshlar, turmushda a`zolarning bahosi ijtimoiy munosabatlarni tashkil etsa, kognitiv va sensor-motor tajriba orqali anglash, qabullash va harakat-sezgilar orqali tushuniladi. Tana obrazining psixopatologik buzilishlarida esa quyidagicha tasniflaydi:

- Dismorfomanik sindrom – shaxs o‘z tana qismlarini deformatsiyalangan, salbiy ko‘rinishdaa deb qabul qilishi tushuniladi;
- Dipersonaalizatsiya sindromi – shaxs bunda o‘z tanasidan begonalashgan, o‘ziga tegishli emasdek his qiladi;
- Psixosomatik buzilish – tanani qabullashdagi salbiy fikrlar, hissiy idrokdagi salbiylik jismoniy kasalliklarga ham olib kelishi mumkin;
- Nevrotik buzilishlar – tashqi ko‘rinishdan norozilik o‘z-o‘zini qadrlashning pasayishi, ijtimoiy chekinish va oilaviy nizolarga sabab bo‘ladi.

Bundan tashqari, Sokolova tadqiqotlarida tana obrazi yoshga qarab tizimli o‘zgaruvchan ekanligi, ya`ni bolalik, o‘smirlik, kata yoshga qarab qayta shakllanishini ta`kidlagan. Aynan oilaviy-ijtimoiy muhitda tana obraziga berilgan baho va munosabat shaxsdagi o‘z-o‘zini anglashga ta`sir qilishini e`tiborga oladi.

Tana obrazini o‘rganishda jismoniy Men va Men konsepsiyasini o‘zaro bog‘liqligini rus olimlari adabiyotlarida, ilmiy izlanishlarida ko‘rib chiqamiz. Tana obrazi shaxsning Men konsepsiyasi tarkibida muhim rol egallaydi va bu obraz shaxsiy hamda ijtimoiy hayot sifatiga bevosita ta`sir ko‘rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ayollarda o‘z tanasini qanday qabul qilishi nikohdagi qoniqish, oila barqarorligi va hissiy yaqinlik darajalariga sezilarli ta`sir qiladi. Bunda biz ko‘rib chiqgan alohida e`tiborga loyiq joyi shundaki, tana obrazi faqat biologic yoki tashqi ko‘rinish emas, balki u tanani anglash, tanani qabullash kabi kognitiv sohaning, hamda tananing sog‘lomlik darajasi bilan bog‘liq salomatlik darajasi bilan bog‘liqligini aytishimiz

mumkin. Men konsepsiyasiga koʻra biz tanani oʻzini qabullash bilan birgalikda bogʻliq ravishda oʻrganamiz.

Ushbu maqolada biz nazariy tahlilni amalga oshirgan holda, asosiy e`tiborni Гавриленко A.A. tomonidan ishlab chiqilgan tana obrazi strukturasiga qaratamiz. Adabiyotlarni tahlili natijasida biz tana obrazi quyidagi komponentlarga boʻlib chiqishimiz mumkin:

- ***Kognitiv komponent:*** shaxsning oʻz tanasiga oid bilimlari, tanani idrok qilishi.
- ***Affektiv komponent:*** tanaga nisbatan hissiy munosabat va qoniqish darajasi.
- ***Xulqiy komponent:*** tashqi koʻrinishni oʻzgartirishga qaratilgan harakatlar (parhez, sport, kosmetik amaliyotlar va boshqalar).

Tadqiqotchilar oʻz ilmiy izlanishlarida turli xil “Men” obrazlarini ajratib, ularga oʻz ilmiy talqinlarini berib oʻtishgan. “Men” obrazlarini talqinida real, koʻzgudagi, ideal men kabi turlarga V.V.Sizikova, V.V.Stolin, N.Tolstix kabi rus olimlari tasniflashgan. A.N.Doroje boʻyicha esa tana obrazi atamasi “tana sxemasi” atamasi bilan talqin qilingan. Bu kabi talqinlarning har biri oʻz navbatida quyidagi jihatlarni oʻz ichiga oladi:

- **“Men-real”** oʻz tana obrazining real koʻrinishi va uning oʻzini qabullash bilan bogʻliqligida koʻrinadi;
- **“Men-ideal”** koʻpincha ijtimoiy, jinsiy, yosh, etnik, kabi ijtimoiy oʻziga xos rollar orqali tana obrazini solishtirganda yuzaga keladi.
- **“Men-koʻzgu”** bu esa tananing obektiv jihatdan baholanishi, oʻzini qabul qilishning munosabati boʻlishi mumkin.

Mana shu kabi kesmalarning har birini sharhlaganda ular oʻz ichiga jismoniy Men, ijtimoiy Men, aqliy Men, hissiy Men kabi jihatlarni bildiradi. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, bu konsepsiyalar oʻz navbatida bir biri bilan aloador ekanini ta`kidlab oʻtamiz. Insonning oʻzini oʻzi anglashi va jamiyatda oʻzini oʻzi belgilashiga uning tashqi qiyofasi ham uzviy bogʻliq ekanini aytib oʻtish mumkin. Bu tadqiqotlarda ayollik va oʻz-oʻziga ishonch kategoriyalari subyektiv ahamiyat kasb etadi. Bu komponentlarni I.S.Kon tana obrazini qabul qilish yosh tafovutlariga bogʻlaydi. Oʻsmirlik davrida koʻpincha nisbiy tomondan tanani, tashqi koʻrinishni baholash ma`lum me`zonlarga koʻra har doim ham aniq boʻlmagan xususiyatlar, hatti-harakatlar, qobiliyatlar realistic boʻladi. Oʻsmirlik va oʻspirinlik davrida oʻz tanasiga boʻlgan e`tibor sezilarli kuchayishi kuzatiladi. Men konsepsiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida tana Men obrazini tasavvur qilish subyektning oʻz-oʻzini idrok qilishidagi ajralmas qismiga aylanadi. Bu huddi shaxsning ichki va tashqi xususiyatlari birligida idrok etilishi natijsida shakllanadi deb ta`kidlaydi V.P.Zinchenko. Tanadagi “Men” obrazi “Men” konsepsiyasining kognitiv tarkibiy qismi boʻlib, oʻzining tashqi koʻrinishiga, shu jumladan tananing ogʻirligi, shakllari, niisbatlarining xususiyatlariga nisbatan munosabat sifatida namoyon boʻladi. Tana “Men” obrazining adekvatlik darajasi “Men” konsepsiyasining emotsional (oʻz-ozini baholash) va xulq-atvor (shaxsning oʻz-oʻzini tasdiqlash strategiyasi) komponentlarini oʻrganishda aniqlanadi. Oʻz “tana Men” obrazi haqidagi tasavvurlarning shakllanishi bilan birga kechadigan eng yaqqol fenomenlardan biri tashqi koʻrinishning oʻz-oʻzini baholashi va uning refleksiya jarayonini faollashtiradigan boshqa baholarga mos kelishidir. Ekzistensial xususiyat kasb etayotgan muhim muammolardan biri – bu baholash obrazlarining boshqalar koʻrayotgan narsalar bilan inson aslida nimani his qilayotgani va u kim ekanligi oʻrtasidgai nomuvofiqlik muammosidir. Mazkur nomuvofiqlik tashqi va ichki aloqalar tabiati, baholar va oʻz-oʻzini baholashning shakllanishiga asos boʻluvchi mexanizm tabiati tufayli yuzaga kelgan (V.V.Stolin, 1983).

Aksariyat tadqiqotchilar aynan har bir muayyan jamiyat madaniyati jismoniy jozibadorlikning ma`lum bir etalonini tarqatadi degan yakdil fikrni bildiradilar. M.V.Boloxova, I.S.Kon, V.A.Labunskkaya kabi mualliflar ta`kidlaydiki: “Vizual madaniyat olamida tashqi qiyofaning shakllanishiga ta`sir etuvchi o‘*zga begona nigoh”* pozitsiyasini turli ommaviy axborot vositalari amalga oshiradi. Ular tashqi qiyofa turlarini tashqi tana qiyofasini shakllantirishida va turmush tarsi parametrlarini, tegishli munosabatlar, holatlar, tasavvurlarni belgilaydi.

Yana bir muallif tadqiqotchilardan biri bo‘lgan V.A.Labunskaya shaxsning tashqi ko‘rinishi va tana Men obrazi orqali ifodalanishi va o‘zini tasdiqlashi muammosiga murojaat qilish munosabati bilan ushbu yo‘nalishni o‘rganishga qiziqish ortib bormoqda, uning predmet maydoni kross-madaniy va gender tadqiqotlari ma`lumotlari ta`sirida shakllanadi. Bunda insonning status-rollii xulq-atvori, uning jinsiy rollaarining tashqi atributlari, feminlik-muskulinlikning psixologik va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari qayd etiladi.

Bundan tashqari ko‘pgina mualliflar “go‘zallik”, “jismoniy barkamollik”, “tashqi jozibadorlik”, “jinsiylik”, “jismoniylik” kabi tushunchalarning o‘zi asosan erkaklar bilan emas, aksincha ayollar bilan bog‘liq ekanligiga e`tibor qaratadilar. O.A.Voronina fikricha an`anaviy ijtimoiy-madaniy muhitda ayol shaxsiyatining tuzilishida tana Menining obrazi ko‘proq ahamiyatga ega, chunki ayol uning tanasi va tana tajribasi (jinsiylikning rivojlanishi, homiladorlik va bola tug‘lishi) orqali ifodalanadi. Jismoniy jozibadorlikning zamonaviy etalonini yaratishda bu uyidagicha ifodalanadi: me`yoriy obraz asosida”ayol” va “tana” konstruksiyalari o‘rtasidagi assotsiativ aloqa haqidagi tarixiy an`anaviy tasavvur yotadi. Buning natijasida ayol uchun muhim qadriyat aynan uning jismoniy jozibadorligi ekanligi haqidagi stereotip mustahkamlanadi. Shu munosabat bilan hatto ayolning axloqiy fazilatlari ko‘pincha uning o‘lchami, bo‘yi, yurishi va qiyofasi umummaqbul qilingan idealga javob berish-bermasligiga qarab baholanadi.

ADABIYOTLAR

1. Алмазова, С.Л. Теоретический анализ проблемы изучения образа тела как компонента «Я-концепции» личности / С.Л. Алмазова // Психология телесности: теоретические и практические исследования. - 2009. - No6. - С. 112-125.
2. Богданова, М.А. Становление образа телесного я как проблема рождения личнности / М.А. Богданова // Психология телесности: теоретические и практические исследования. - Пенза, 2009. - С. 47-59.
3. Газарова, Е.Э. Психология телесности / Е.Э. Газарова. - М.: Институт общегуманитарных исследований, 2002. - 192 с.
4. Дурнева, М.Ю. Влияние социокультурных стандартов привлекательности на формирование отношения к телу и пищевого поведения у девушек подросткового и юношеского возраста / М. Ю. Дурнева, Т. А. Мешкова // Психологическая наука и образование. - М., 2013. - No2. - С. 25-34.
5. Заржицкая, О.А. Социально-психологический анализ телесности: возможности и перспективы / О.А. Заржицкая // Психология телесности: теоретические и практические исследования. - 2009. - No6. - С. 87-101.
6. Карабина, Ю.С. Эталон физической привлекательности как социокультурный фактор образа телесного Я у женщин / Ю.С. Карабина // Вестник КГУ им. Н.А. Некрасова. - 2014. - No 16. - С. 144-148.

7. Алмазова, С.Л. Теоретический анализ проблемы изучения образа тела как компонента «Я-концепции» личности / С.Л. Алмазова // Психология телесности: теоретические и практические исследования. - 2009. - No6. - С. 112-125.
8. Баранская, Л.Т., Татаурова, С.С. Образ тела как предиктор нарушения адаптации молодежи в социальной среде / Л.Т.Баранская, С.С. Татаурова // Молодое поколение XXI века: Актуальные проблемы социально- психологического здоровья. М.: «ИГРА». - 2009. - No11. - С. 331-345.
9. Богданова, М.А. Становление образа телесного я как проблема рождения личнности / М.А. Богданова // Психология телесности: теоретические и практические исследования. - Пенза, 2009. - С. 47-59.
10. Гавриленко, А.А. Образ физического Я как структурная составляющая Я- концепции: автореф. дис. ... канд. псих. наук / А.А.
11. Гавриленко. - ИСУП Государственного университета управления. - М., 2013. - 18 с.

TALABA – QIZLARNING IJTIMOIY FAOLLIGI VA LIDERLIK SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

Xasanova Nodira Ibragimovna[1], Ko‘chkinova Mahliyo Norbutayevna[2]
[1]Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Tarix va falsafa kafedrasi Phd dotsenti
[2]“Pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17667522

Annotatsiya. *Mazkur maqola talaba-qizlarning ijtimoiy faolligi va liderlik salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan samarali mexanizmlarni o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotning asosiy maqsadi OTM sharoitida qizlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtirokini kuchaytirish, ularning tashabbuskorlik va mas'uliyatni o‘z zimmasiga olish ko‘nikmalarini shakllantirish imkoniyatlarini tahlil qilishdan iborat. Ishda faollikka ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar (gender stereotiplar, institutsional sharoitlar) tizimli ko‘rib chiqiladi. Rivojlanish mexanizmlari sifatida mentoring dasturlari, maxsus o‘quv modullari, ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish kabi amaliy yondashuvlar taklif etiladi. Natijalar talaba-qizlarning liderlik qobiliyatini oshirishda kompleks va tizimli yondashuv muhimligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *Ijtimoiy faollik, liderlik salohiyati, talaba-qizlar, rivojlantirish mexanizmlari, gender tenglik, mentoring.*

Аннотация. *Данная статья посвящена исследованию эффективных механизмов развития* ***социальной активности*** *и* ***лидерского потенциала*** *студенток. Основная цель исследования – анализ возможностей усиления участия девушек в общественно-политических процессах в условиях вузов, а также формирования у них навыков инициативности и ответственности. В работе системно рассмотрены внутренние и внешние факторы, влияющие на активность (гендерные стереотипы, институциональные условия). В качестве механизмов развития предложены такие практические подходы, как программы менторства, специальные учебные модули, участие в социальных проектах. Результаты показывают важность комплексного и системного подхода в повышении лидерских качеств студенток.*

Ключевые слова: *Социальная активность, лидерский потенциал, студентки, механизмы развития, гендерное равенство, менторство.*

Abstract. *This article is dedicated to researching effective mechanisms for developing the* ***social activity*** *and* ***leadership potential*** *of female students. The main goal is to analyze the possibilities of strengthening the participation of girls in socio-political processes within higher education institutions (HEIs), and forming their skills in initiative and responsibility. The paper systematically reviews internal and external factors affecting activity (gender stereotypes, institutional conditions). Practical approaches such as mentorship programs, specialized training modules, and participation in social projects are proposed as development mechanisms. The findings indicate the importance of a complex and systematic approach to enhancing female students' leadership capabilities.*

Keywords: *Social activity, leadership potential, female students, development mechanisms, gender equality, mentoring.*

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli taraqqiyot davrida yoshlarning, xususan, talaba-qizlarning ijtimoiy faolligi va liderlik salohiyatini rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, madaniy va iqtisodiy hayotida ayollarning faol ishtirok etishi mamlakat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Shu bois, oliy ta’lim tizimida ta’lim olayotgan talaba-qizlarni tashabbuskorlik, mas’uliyat, mustaqil fikrlash, jamoada ishlash va liderlik ko‘nikmalariga ega bo‘lgan shaxs sifatida shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan “Yoshlar – kelajagimiz”, “Ayollar daftari” va “Xotin-qizlar faolligini oshirish” kabi dasturlar bu yo‘nalishda tizimli chora-tadbirlarning amalga oshirilayotganini ko‘rsatadi. Mazkur hujjatlar talaba-qizlarning ijtimoiy hayotdagi o‘rnini mustahkamlash, ularni ijtimoiy loyihalarga jalb etish, shuningdek, ularning intellektual va tashabbuskorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan.

Shu bilan birga, zamonaviy ta’lim muassasalarida talaba-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish va liderlik salohiyatini rivojlantirish bo‘yicha mavjud yondashuvlarni yangilash, ularni innovatsion metod va texnologiyalar asosida takomillashtirish zarurati ortib bormoqda. Chunki raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash jarayonida shaxsning faolligi, tashabbuskorligi va mas’uliyati uning kasbiy muvaffaqiyatining asosiy omilidir.

Mazkur maqolada talaba-qizlarning ijtimoiy faolligi va liderlik salohiyatini rivojlantirishning nazariy asoslari, amaliy ahamiyati hamda samarali mexanizmlari tahlil qilinadi. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida bu jarayonni tashkil etishda psixologik-pedagogik yondashuvlarning roli, ijtimoiy loyihalar va trening dasturlarining ahamiyati yoritib beriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI.

Zamonaviy davr talabi, ayniqsa O‘zbekistonning **Uchinchi Renessans** poydevorini qurish jarayonida, jamiyatning barcha qatlamlarida, xususan, **ayol-liderlar** sonining ortishini taqozo etadi. Oliy ta'lim muassasalari (OTM) bu jarayonda asosiy bo‘g‘in bo‘lib xizmat qiladi, chunki bu yerda yosh avlodning faqat kasbiy emas, balki **ijtimoiy va liderlik salohiyati** ham shakllanadi. Biroq, talaba-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish yo‘lida hali ham jiddiy to‘siqlar mavjud. An'anaviy madaniy qarashlar doirasida ayollarning roli ko‘pincha **oilaviy-maishiy sohaga cheklanishi**, ularning o‘z imkoniyatlariga bo‘lgan **ishonchsizlik darajasi**ni oshiradi. Ushbu muammolar Boshqaruv ilmi va Gender tadqiqotlari sohasidagi ko‘plab xorijiy va mahalliy adabiyotlarda (Eagly, 2007; Ismoilov, 2023) ta'kidlangan. Talaba-qizlarning ijtimoiy faolligi va liderlik salohiyatini rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining eng muhim maqsadlaridan biridir. Chunki ijtimoiy faol, tashabbuskor va liderlik fazilatlariga ega yosh avlod mamlakatning barqaror rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu jihatdan, oliy ta’lim muassasalari nafaqat kasbiy bilim berish, balki shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishga ham e’tibor qaratishi zarur. Talaba-qizlarning ijtimoiy faolligi va liderlik salohiyatini rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining eng muhim maqsadlaridan biridir. Chunki ijtimoiy faol, tashabbuskor va liderlik fazilatlariga ega yosh avlod mamlakatning barqaror rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu jihatdan, oliy ta’lim muassasalari nafaqat kasbiy bilim berish, balki shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishga ham e’tibor qaratishi zarur.

1. Ijtimoiy faollik va liderlik tushunchalarining nazariy asoslari

Ijtimoiy faollik — bu shaxsning jamiyat hayotida faol ishtirok etish, tashabbus ko‘rsatish, muammolarni hal etishga hissa qo‘shish qobiliyatidir. Talaba-qizlarning ijtimoiy faolligi ularning o‘z fikrini erkin bildira olishi, jamoaviy faoliyatda faol qatnashishi, ijtimoiy mas’uliyatni his qilishi bilan ifodalanadi.

Liderlik esa — bu boshqalarni birlashtirish, ularni umumiy maqsad sari yo‘naltirish, tashabbus ko‘rsatish va qaror qabul qilish jarayonida yetakchilik ko‘rsatishdir. Har bir talaba-qizda tabiiy yoki shakllantirilgan liderlik fazilatlari mavjud bo‘lib, ularni rivojlantirish maqsadga muvofiq psixologik-pedagogik muhitni talab qiladi.

2. Talaba-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish omillari

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, talaba-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish quyidagi omillarga bog‘liq:

- Motivatsion omillar: talaba-qizlarda o‘zini jamiyatda foydali shaxs sifatida his qilish istagini uyg‘otish, rag‘batlantirish tizimini yo‘lga qo‘yish;
- Pedagogik omillar: ta’lim jarayoniga faol o‘qitish metodlarini joriy etish (keys-stadi, debat, loyiha metodi, interfaol mashg‘ulotlar);
- Ijtimoiy omillar: ijtimoiy tarmoqlar, yoshlar tashkilotlari, talabalar klublari va kengashlar orqali faollikni qo‘llab-quvvatlash;
- Madaniy muhit: universitetda sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhit yaratish, madaniy tadbirlar orqali talaba-qizlarning jamoada o‘zini erkin ifoda etish imkoniyatlarini kengaytirish.

3. Liderlik salohiyatini rivojlantirish mexanizmlari

Liderlik ko‘nikmalarini rivojlantirish — bu uzluksiz jarayon bo‘lib, u maxsus shart-sharoit va pedagogik yondashuvni talab etadi. Quyidagi mexanizmlar talaba-qizlarda liderlik salohiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Trening va seminarlar tashkil etish – kommunikativ ko‘nikmalar, jamoada ishlash, konfliktlarni boshqarish, qaror qabul qilish malakalarini o‘rgatish.
2. “Lider qizlar klubi” faoliyatini yo‘lga qo‘yish – universitet miqyosida ijtimoiy loyihalar ishlab chiqish, yoshlar o‘rtasida tashabbuskorlikni rag‘batlantirish.
3. Mentorlik tizimi – tajribali ayol yetakchilar tomonidan talaba-qizlarga yo‘l-yo‘riq berish, shaxsiy rivojlanish rejasini tuzish.
4. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish – kreativ fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish, o‘z g‘oyasini himoya qilish imkoniyatlarini kengaytirish.
5. Psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimi – o‘ziga ishonchni oshirish, ijtimoiy qo‘rquvni kamaytirish, stressga qarshi barqarorlikni rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar o‘tkazish.

4. Oliy ta’lim muassasalari faoliyatida qo‘llash tajribalari

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, bir qator oliy ta’lim muassasalarida ijtimoiy loyihalar va liderlik dasturlarining joriy etilishi ijobiy natijalar bermoqda. Masalan:

- Talaba-qizlarning “Yosh liderlar forumi”, “Ayollar innovatsiya haftaligi” kabi tadbirlarda ishtiroki ularning o‘z salohiyatini anglashiga yordam bermoqda;
- “Talaba ayollar kengashi” faoliyati orqali ko‘plab ijtimoiy loyihalar amalga oshirilmoqda;
- Xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda tashkil etilgan almashinuv dasturlari liderlik kompetensiyalarini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Bu kabi tashabbuslar talaba-qizlarda nafaqat ijtimoiy faollik, balki mustaqil fikrlash, tashkilotchilik, mas’uliyat va o‘zini ifoda etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.[13]

NATIJA VA MUHOKAMALAR

O‘tkazilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy oliy ta’lim muassasalarida talaba qizlarning ijtimoiy faolligi va liderlik salohiyatini rivojlantirish jarayoni tizimli yondashuvni talab etadi. Bu jarayon faqatgina ta’lim-tarbiyaviy ishlar bilan chegaralanib qolmay, balki ularning shaxsiy rivojlanish ehtiyojlarini qondirish, o‘z-o‘zini anglash va ijtimoiy mas’uliyat hissini kuchaytirishga qaratilgan kompleks mexanizmlarni qo‘llashni nazarda tutadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, talaba qizlarda ijtimoiy faollik darajasining oshishi bevosita ularning o‘quv muhitidagi demokratik qadriyatlar, teng imkoniyatlar va tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlovchi ijtimoiy-psixologik sharoitlar bilan bog‘liq. Oliy ta’lim muassasalarida faoliyat yurituvchi ijtimoiy xizmatlar, talabalar kengashlari, turli to‘garaklar va loyiha guruhlari talaba qizlarning tashabbuskorlik, mas’uliyat va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, liderlik salohiyatini rivojlantirish uchun faqat nazariy bilimlarni emas, balki amaliy mashg‘ulotlar, treninglar va mentorlik dasturlarini tashkil etish samarali natija beradi. Ayniqsa, “peer-to-peer” (ya’ni, tengdoshlar o‘rtasida o‘zaro o‘rganish) modeli asosida tashkil etilgan faoliyatlar talaba qizlarning o‘ziga ishonchini oshiradi, ularni ijtimoiy loyihalarda faol ishtirok etishga rag‘batlantiradi.[14]

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, liderlik salohiyatining shakllanishi ijtimoiy faollik darajasi bilan bevosita uzviy bog‘liq. Qizlar o‘z g‘oyalarini ilgari surish, jamoani boshqarish, qaror qabul qilish jarayonlarida faol ishtirok etgan sari, ularning shaxsiy va kasbiy o‘sish dinamikasi tezlashadi. Shu boisdan, ta’lim muassasalarida talaba qizlarning ijtimoiy faolligini rag‘batlantirish, ularning fikrini eshitish, tashabbuslarini amaliy qo‘llab-quvvatlash ijtimoiy-liderlik muhitini shakllantirishning asosiy shartidir.

Umuman olganda, talaba qizlarning ijtimoiy faolligi va liderlik salohiyatini rivojlantirish mexanizmlarini samarali tashkil etish natijasida nafaqat ularning shaxsiy o‘sishi, balki jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasiga ega, ijtimoiy mas’uliyatli va tashabbuskor yosh avlodni tarbiyalash imkoniyati yaratiladi. Bu esa, o‘z navbatida, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida ayollar rolini yanada kuchaytirish, gender tenglikni ta’minlash hamda barqaror taraqqiyot maqsadlariga erishishda muhim omil sifatida xizmat qiladi.

Jadval 1. Talaba-qizlar liderligini rivojlantirishning kompleks mexanizmlari.

T/r	Mexanizm (yondashuv)	Asosiy funksiyasi	Rivojlanadigan sifatlar
1	**"Empatiyali mentoring" dasturlari**	Psixologik-motivatsion to‘siqlarni yengish, **shisha shiftni** yorib o‘tish tajribasini berish.	O‘ziga ishonch, qat'iyatlilik, barqarorlik.
2	**Integratsiyalashgan o‘quv modullari**	"Menejment asoslari" kabi fanlar ichiga **"Gender sezgirligi va Boshqaruv"** modullarini kiritish.	Tanqidiy fikrlash, qaror qabul qilish, mas'uliyatni olish.
3	**"Amaliy tashabbus markazlari" (Lider qizlar klublari)**	Nazariy bilimlarni real ijtimoiy loyihalarda sinash, **xavfsiz amaliyot maydoni** yaratish.	Loyiha boshqaruvi, kommunikatsiya, jamoaviy ishlash.

[13] Allamuratova, G. (2020). *Talaba qizlarning ijtimoiy faolligini shakllantirishda ijtimoiy muhitning o‘rni*. Oliy ta’lim muassasalari axborotnomasi, 4(2), 45–52.

[14] Yusupova, M. (2023). *Talaba qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishda mentorlik tizimining ahamiyati*. *Jamiyat va innovatsiyalar ilmiy jurnali*, 3(6), 120–127.

XULOSA

Yuqorida olib borilgan tadqiqot va tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, talaba qizlarning ijtimoiy faolligi va liderlik salohiyatini rivojlantirish — zamonaviy oliy ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun ijtimoiy, psixologik va pedagogik omillarni bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda qo‘llash zarur.

Birinchidan, ta’lim muassasalarida talaba qizlar uchun teng imkoniyatlar yaratish, ularni jamoatchilik ishlariga, ijtimoiy loyihalar va tashabbuslarga jalb etish ularning faolligini oshiradi hamda o‘z fikrini erkin ifoda etish, mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Ikkinchidan, liderlik salohiyatini rivojlantirishda treninglar, mahorat darslari, mentorlik tizimi, psixologik qo‘llab-quvvatlash dasturlarining o‘rni beqiyosdir. Bunday mexanizmlar talaba qizlarda o‘z kuchi va imkoniyatlariga ishonch uyg‘otadi, ularni ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishga undaydi.

Uchinchidan, ijtimoiy faollik va liderlik ko‘nikmalari talaba qizlarning nafaqat shaxsiy, balki kasbiy o‘sishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ko‘nikmalar kelajakda ularning mehnat bozorida raqobatbardosh, tashabbuskor va mas’uliyatli mutaxassislar sifatida shakllanishiga zamin yaratadi. Shunday qilib, talaba qizlarning ijtimoiy faolligi va liderlik salohiyatini rivojlantirish — nafaqat ta’lim jarayonining samaradorligini oshiruvchi omil, balki jamiyatning ijtimoiy barqarorligi, gender tenglik va innovatsion rivojlanishiga hissa qo‘shuvchi strategik yo‘nalishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonova, M. (2021). *Yoshlar ijtimoiy faolligini rivojlantirishda pedagogik yondashuvlar*. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti
2. Allamuratova, G. (2020). *Talaba qizlarning ijtimoiy faolligini shakllantirishda ijtimoiy muhitning o‘rni*. Oliy ta’lim muassasalari axborotnomasi, 4(2), 45–52.
3. G‘aniyeva, N. (2022). *Ayollar liderligi va ijtimoiy faollikning psixologik asoslari*. Toshkent: “Yangi asr avlodi”.
4. Karimova, R. R. (2023). *Oliy ta’lim tizimida talaba qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishning innovatsion shakllari*. *Pedagogika va psixologiya jurnali*, 2(3), 88–95.
5. Nazarova, D. (2021). *Liderlik kompetensiyasini rivojlantirishda ijtimoiy loyihalarning roli*. *Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar jurnali*, 1(5), 64–70.
6. Güneş, A. (2019). *Cezasız eğitim: Çocuğa saygı temelli bir yaklaşım*. İstanbul: Timaş Yayınları.
7. Northouse, P. G. (2021). *Leadership: Theory and practice* (9th ed.). Thousand Oaks, CA: Sage Publications.
8. UNESCO. (2022). *Gender equality and leadership in higher education: Global report*. Paris: UNESCO Publishing.
9. World Bank. (2020). *Empowering women leaders in Central Asia: Policy approaches and best practices*. Washington, DC: The World Bank.
10. Yusupova, M. (2023). *Talaba qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishda mentorlik tizimining ahamiyati*. *Jamiyat va innovatsiyalar ilmiy jurnali*, 3(6), 120–127.

XOTIN-QIZLARNING JAMIYATDAGI MAVQEINI OSHIRISH – TARAQQIYOTNING MUHIM OMILI

Xoliqova Laylo Faxriddinovna
SamDChTI dotsenti, PhD.
https://doi.org/10.5281/zenodo.17667528

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikni ta’minlash, xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda ularning jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar yoritilgan. Maqolada ayollarga yaratilgan sharoitlar, ularning ta’lim, ilm-fan, siyosat, iqtisodiyot, san’at va madaniyat sohalaridagi o‘rni batafsil tahlil qilinadi. Shuningdek, davlat tomonidan ayollarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan dasturlar, farmon va qarorlarning ahamiyati ochib beriladi. Muallif ayollarning ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirish jamiyat taraqqiyotining muhim omili ekanini asoslaydi. Maqolada ayollarni yetakchilikka tayyorlash, ularning huquqiy madaniyatini yuksaltirish va yosh avlodni gender tenglik ruhida tarbiyalash zarurligi haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, ayollarning zamonaviy bilim va kasbiy ko‘nikmalarga ega bo‘lishi millatning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qilishi qayd etiladi. Maqola xotin-qizlarning turli sohalarda erishayotgan yutuqlari misolida ularning jamiyat hayotidagi faol rolini namoyon etadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ayollarga yaratilgan imkoniyatlar mamlakat taraqqiyotining barqaror rivojlanish omillaridan biri ekanligi ta’kidlanadi.*

Kalit so‘zlar: *Gender tenglik, xotin-qizlar, ijtimoiy faollik, ayollarga yaratilgan sharoitlar, davlat siyosati, huquqiy himoya, ta’lim, fan, madaniyat, iqtisodiyot, yetakchilik, ayollar tashabbusi, yosh avlod tarbiyasi, ijtimoiy adolat, taraqqiyot, O‘zbekiston, ayol huquqlari, imkoniyat tengligi, ma’naviy qadriyatlar, zamonaviy ayol.*

KIRISH

Bugungi kunda O‘zbekiston jamiyatida xotin-qizlarning o‘rni va mavqei tobora yuksalib bormoqda. Bu holat mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning muhim natijasidir. Ayollarni ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy hayotga faol jalb etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilayotgan “Ayol – jamiyat tayanchi” tamoyili aynan shu maqsadni ifodalaydi. So‘nggi yillarda xotin-qizlarning manfaatlarini himoya qilish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ko‘plab dasturlar amalga oshirildi. Bu islohotlarning markazida inson qadri, xususan ayolning qadri turadi. Oila va jamiyatning poydevori sifatida ayolning o‘rni mustahkamlanmoqda. Mamlakatda gender tenglik siyosati amaliy shakl kasb etmoqda. Har bir sohada ayollarning rahbarlik lavozimlariga tayinlanishi ularning salohiyatini namoyon etmoqda. Xotin-qizlar endilikda nafaqat oilaviy, balki ijtimoiy hayotda ham faol kuchga aylanmoqda. Ularning tashabbuslari jamiyat rivojiga katta turtki bermoqda. Shuningdek, ta’lim, sog‘liqni saqlash, fan, madaniyat, san’at, ishlab chiqarish sohalarida ayollar soni ortib bormoqda. Bu jarayon mamlakatimizda ayollarga yaratilgan ishonch va e’tiborning ifodasidir. Ayollarni qo‘llab-quvvatlash siyosati jamiyatni yangilanish sari yetaklamoqda. Shu bois, ayollar faolligi taraqqiyotning eng muhim omiliga aylanmoqda.

Shu bilan birga, gender tengligiga erishishda hali ham ko‘plab muammolar mavjud[25]. Ko‘plab mamlakatlarda ayollar siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda teng huquqlarga ega emaslar. Gender stereotiplari, diskriminatsiya va zo‘ravonlik ayollarning o‘z qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishga to‘sqinlik qiladi. Bundan tashqari, gender tengsizligi global muammo bo‘lib, turli mamlakatlarda o‘ziga xos ko‘rinishlarga ega[26]. G‘arb feministik nazariyalari har doim ham global Janubdagi ayollarning tajribasini to‘liq aks ettirmaydi[27]. Ushbu muammolarni hal qilish uchun kompleks va ko‘p qirrali yondashuv zarur. Bu yondashuv huquqiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy omillarni hisobga olishi kerak. Bundan tashqari, gender tengligiga erishish uchun turli sohalarda faoliyat yuritayotgan olimlar, siyosatchilar, aktivistlar va jamoatchilik vakillarining hamkorligi zarur.

Natijalar. Ushbu tahlil shuni ko‘rsatadiki, gender tengligi masalasini o‘rganishda turli xil nazariy va metodologik yondashuvlar mavjud. Har bir yondashuv gender tengligining turli jihatlarini yoritadi va uni tushunish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Masalan, Nussbaumning qobiliyatlar yondashuvi gender tengligini insonning asosiy qobiliyatlarini rivojlantirish bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi. Butlerning gender konstruktivizmi gender stereotiplariga qarshi kurashish uchun muhim nazariy asos yaratadi. Senning iqtisodiy erkinlik konsepsiyasi ayollarning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash orqali gender tengsizligini kamaytirish mumkinligini ko‘rsatadi. Hooksning interseksional yondashuvi gender tengsizligini irq, sinf va boshqa ijtimoiy omillar bilan bog‘liq holda tahlil qilish zarurligini ta'kidlaydi. Mohantining postkolonial feministik nuqtai nazari G‘arb feministik nazariyalarining universal emasligini ko‘rsatib, global Janubdagi ayollarning o‘ziga xos tajribalarini hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi.

Ushbu olimlarning tadqiqotlari gender tengsizligining sabablari va oqibatlarini aniqlashga va gender tengligiga erishish uchun samarali strategiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi. Masalan, Nussbaumning tadqiqotlari gender tengsizligining ta'lim, sog‘liqni saqlash va iqtisodiy imkoniyatlar bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Butlerning tadqiqotlari gender stereotiplari va diskriminatsiyaga qarshi kurashish uchun muhim nazariy asos yaratadi. Senning tadqiqotlari ayollarning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash orqali gender tengsizligini kamaytirish mumkinligini ko‘rsatadi. Hooksning tadqiqotlari gender tengsizligini irq, sinf va boshqa ijtimoiy omillar bilan bog‘liq holda tahlil qilish zarurligini ta'kidlaydi. Mohantining tadqiqotlari G‘arb feministik nazariyalarining universal emasligini ko‘rsatib, global Janubdagi ayollarning o‘ziga xos tajribalarini hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi.

[24] Sen, A. (1999). Development as freedom. Oxford University Press.
[25] UN Women. (2023). Progress on the Sustainable Development Goals: The gender snapshot 2023. United Nations.
[26] World Economic Forum. (2023). *Global Gender Gap Report 2023*.
[27] Mohanty, C. T. (1984). Under Western Eyes: Feminist scholarship and colonial discourses. Boundary 2, 12(3), 333-358.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sen, A. (1995). Gender Inequality and Theories of Justice. *The Tanner Lectures on Human Values*, *16*, 259-324.
2. Nussbaum, M. (1999). *Sex and Social Justice*. Oxford University Press.
3. Butler, J. Gender stereotiplarini buzish va gender identifikatsiyasining chegaralarini kengaytirish zaruriyatini ilgari surdi (manba ko‘rsatilmagan).
4. Sen, A. (1999). *Development as Freedom*. Oxford University Press.
5. Hooks, B. (2000). *Feminist Theory: From Margin to Center*. Pluto Press.
6. Mohanty, C. T. (2003). *Feminism Without Borders*. Duke University Press.
7. Moghadam, V. M. (2005). *Globalizing women: Transnational feminist networks*. Johns Hopkins University Press.
8. Kandiyoti, D. (1991). *Women, Islam and the state*. Temple University Press.
9. United Nations Population Fund (UNFPA). (2020). *State of world population 2020: Against my will*.
10. Sen, A. (1999). *Development as freedom*. Oxford University Press.
11. UN Women. (2023). *Progress on the Sustainable Development Goals: The gender snapshot 2023*. United Nations.
12. World Economic Forum. (2023). *Global Gender Gap Report 2023*.
13. Mohanty, C. T. (1984). Under Western Eyes: Feminist scholarship and colonial discourses. *Boundary 2*, *12*(3), 333-358.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING KASBIY SHAKLLANISHIDA KONFLIKTOLOGIK MADANIYAT VA AKMEOLOGIK YONDASHUV

Azimova Osiyoxon Adxam qizi
TDTU tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17671988

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy shakllanishida konfliktologik madaniyatning tutgan o‘rni va uni shakllantirishda akmeologik yondashuvning imkoniyatlari ilmiy-nazariy va amaliy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Konfliktologik madaniyatni rivojlantirishning dolzarbligi, ta’lim jarayonidagi roli hamda pedagogik faoliyatdagi samaradorligi yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *konfliktologik madaniyat, akmeologik yondashuv, kasbiy shakllanish, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, ziddiyat, muloqot kompetensiyasi, ta’lim jarayoni.*

Аннотация. *В данной статье анализируется роль конфликтологической культуры в профессиональном становлении будущих учителей начальных классов и возможности акмеологического подхода в ее формировании с научно-теоретической и практической точек зрения. Рассматривается актуальность развития конфликтологической культуры, ее роль в образовательном процессе и эффективность педагогической деятельности.*

Ключевые слова: *конфликтологическая культура, акмеологический подход, профессиональное становление, будущие учителя начальных классов, конфликт, коммуникативная компетентность, образовательный процесс.*

Abstract. *This article analyzes the role of conflictological culture in the professional development of future primary school teachers and the possibilities of the acmeological approach in shaping it from scientific-theoretical and practical perspectives. The relevance of developing conflictological culture, its role in the educational process, and its effectiveness in pedagogical activity are discussed.*

Keywords: *conflictological culture, acmeological approach, professional development, future primary school teachers, conflict, communication competence, educational process.*

Zamonaviy fan ziddiyatni ijtimoiy munosabatlarning qonuniy va tabiiy xususiyati sifatida e’tirof etadi hamda uning turli, jumladan, konstruktiv shakllarda namoyon bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi. Bugungi kunda insonlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirning turli sohalarida, ayniqsa, oliy ta’lim tizimida yuzaga keladigan nizoli holatlarni samarali hal etish amaliyotini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy shakllanishi — bu uzoq va murakkab jarayon bo‘lib, u o‘z ichiga nafaqat bilim va ko‘nikmalarni egallashni, balki o‘zini anglash, ijtimoiy va psixologik vaziyatlarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishni ham oladi. Ta’lim jarayonida o‘qituvchilar nafaqat pedagogik bilimlar, balki kommunikativ va konfliktologik kompetensiyalarni ham rivojlantirishi lozim. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-apreldagi PQ–4310-sonli qarorida, shuningdek, 2020-yildagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunda ta’limning sifatini oshirish va o‘qituvchilarning professional tayyorgarligini yuksaltirish zarurati ta’kidlangan. Bu qonunlar,

shuningdek, muloqot kompetensiyasi va konfliktologik madaniyatning shakllanishini nazarda tutgan holda, o‘qituvchilarni ijtimoiy-psixologik muhitda muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatishga tayyorlashni maqsad qilib qo‘yadi. Shu bilan birga, bu kompetensiyalar o‘qituvchilarni ziddiyatli holatlarda konstruktiv yechimlar ishlab chiqishga yordam beradi. Bu borada akmeologik yondashuvning ahamiyati juda katta.

S.Djumayevaning fikricha, “pedagogning konfliktologik madaniyati” tushunchasi interfaol ta’lim muhitida pedagogik funksiyalarni ongli amalga oshirish va pedagogik faoliyat sub’yektlari o‘rtasida yuzaga keladigan qarama-qarshiliklarni bartaraf etish uchun zarur konfliktologik bilim, ko‘nikma va faoliyat usullar tizimini o‘z ichiga oluvchi integrativ qobiliyatlar yig‘indisidir[3].

Konfliktologik madaniyat shaxsning ziddiyatlarni anglash va boshqarish, ularni ijobiy tomonga o‘zgartirish qobiliyatini aks ettiradi. Bu madaniyatning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- **Konfliktologik bilimlar:** Ziddiyatlarning turli shakllarini tushunish, ularning paydo bo‘lish sabablarini tahlil qilish va ularni hal qilishning samarali usullarini bilish.
- **Muloqot madaniyati:** Shaxsning boshqalar bilan muloqotda bo‘lishdagi madaniyati, ya’ni o‘z fikrini aniq va to‘g‘ri ifodalash, boshqa shaxsning nuqtai nazarini hurmat qilish va uning fikrini tinglash.
- **Empatiya:** Boshqalarining his-tuyg‘ularini va fikrlarini anglash va ularga hurmat bilan yondashish.
- **Tolerantlik:** Har qanday fikr va nuqtai nazarlarni qabul qilish, shu bilan birga o‘z fikriga hurmat bilan turish.
- **Murosaga tayyorlik:** Ziddiyatlar yuzaga kelganda, konstruktiv va ijobiy yechim topishga tayyor bo‘lish.
- **O‘zini tahlil qila olish:** Ziddiyatli vaziyatlarda o‘z his-tuyg‘ularini tahlil qilish va ularga to‘g‘ri munosabatda bo‘lish.
- **Mas’uliyatli ishtirok etish:** Ziddiyatlarni hal qilishda faqat o‘z pozitsiyasini himoya qilish emas, balki konstruktiv yechim topishga harakat qilish.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi — bu bolalar bilan muloqotda bo‘lib, ularning psixologik va ijtimoiy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim shaxs. Shu sababli, o‘qituvchining konfliktologik madaniyati uning pedagogik faoliyatida, ayniqsa, bolalar va ota-onalar bilan muloqotda juda muhim rol o‘ynaydi. Konfliktologik madaniyatni shakllantirish — bu o‘qituvchining nafaqat ziddiyatlarni hal qilishdagi mahorati, balki o‘zini qanday tutishini, qanday muloqot qiladi va boshqalar bilan munosabatlar qurishdagi ko‘nikmalari hamdir. O‘qituvchining ziddiyatlarga qanday yondashishi uning pedagogik yondashuvini belgilaydi va o‘quvchilarni tinchlik, o‘zaro hurmat va hamkorlikka o‘rgatadi. Shu bilan birga, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun ziddiyatli holatlarni bartaraf etishning konstruktiv usullari muhim hisoblanadi, chunki ular bolalar uchun ijtimoiy va psixologik tajriba o‘rnatishadi.

G.Tillayeva fikricha, Akmeologiya tabiiy, umumjamoa va insoniy mahoratning yuksak muvaffaqiyatga erishishi, balki insonning yetuklik bosqichida ham ruhan, ham ijtimoiy rivojlanish qonunlari va mexanizmlari, ijtimoiy, ruhiy yuksaklikka erishish darajalari fenomenologiyasini o‘rganish haqidagi fandir[7].

Akmeologiya — bu shaxsning professional va individual rivojlanishidagi eng yuqori darajalarini o‘rganadigan fan sifatida ta’riflanadi. Bu yondashuvda asosiy e’tibor shaxsning ideal holatini izlashga qaratilgan. Akmeologik yondashuv nafaqat kasbiy o‘sish, balki shaxsiy

rivojlanish va o‘zini anglashni ham o‘z ichiga oladi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun bu yondashuv, o‘qituvchining ichki salohiyatlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi, chunki u shaxsning o‘zini tahlil qilish va o‘zini takomillashtirishga qaratilgan. Akmeologik yondashuvda o‘qituvchilar o‘z faoliyatlarini muntazam ravishda baholab, rivojlantirishga harakat qilishadi. Bu yondashuv pedagogik jarayonda o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy rivojlanishini rag‘batlantiradi, konfliktologik madaniyatni rivojlantirishda samarali yordam beradi.

Akmeologik yondashuv asosida konfliktologik madaniyatni rivojlantirishda bir nechta metodlar qo‘llanilishi mumkin. Ularning asosiylari quyidagilar:

- **Treninglar:** O‘qituvchilarni ziddiyatli vaziyatlarda to‘g‘ri harakat qilishga o‘rgatish uchun maxsus treninglar tashkil etiladi. Bu treninglar orqali o‘qituvchilar o‘z salohiyatlarini anglashadi va ziddiyatli vaziyatlarda samarali harakat qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.
- **Rolli o‘yinlar:** Ziddiyatli vaziyatlar simulyatsiyasi yordamida o‘qituvchilar turli xil ijtimoiy vaziyatlarda qanday harakat qilishlarini o‘rganadilar. Bu metod talabalarning konfliktologik madaniyatini shakllantirishga yordam beradi.
- **Reflektiv mashg‘ulotlar:** O‘qituvchilarni o‘z harakatlarini tahlil qilish va ularni yaxshilashga rag‘batlantiruvchi mashg‘ulotlar.
- **Interaktiv metodlar:** O‘qituvchilarni amaliy vaziyatlarda fikr almashishga va konstruktiv yechimlar ishlab chiqishga o‘rgatish.
- **Muammoli vaziyatlarni tahlil qilish:** O‘qituvchilarni muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va ularni yechishga qaratilgan o‘quv mashg‘ulotlari.

O‘zbekistonning pedagogik oliy ta’lim muassasalarida olib borilgan kuzatuvlar va eksperimentlar shuni ko‘rsatdiki, akmeologik yondashuv asosida tayyorlangan mashg‘ulotlar talabalar tomonidan yuqori qiziqish bilan qabul qilinadi, ularning o‘zini anglash darajasi oshadi va ziddiyatli vaziyatlardagi harakatlari ijobiy tomonga o‘zgaradi.

Muxtasar aytganda, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy shakllanishida konfliktologik madaniyatni rivojlantirish muhim pedagogik vazifadir. Akmeologik yondashuv esa bu jarayonda samarali yondashuv bo‘lib, u o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy rivojlanishida muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa kelgusidagi ta’lim sifati va ijtimoiy muhitga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Axmedova M.T. Pedagogik konfliktologiya: O‘quv qo‘llanma. – T.: Donishmand Ziyosi, 2020. – B. 306.
2. Azimova O.A. “Akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining konfliktologik madaniyatini rivojlantirishning mazmuni”. NamDU Ilmiy Axborotnomasi 2024-4-son. ISSN:2181-1458 №4-B.944-946
3. Djumayeva S.A. Pedagogik korreksiya vositasida oliy ta’lim jarayonida yuzaga keladigan nizolarni bartaraf etish texnologiyasi: Ped.fanl. d-ri (PhD) ... Diss. – T., 2020. – Б. 69.
4. Куклева Н.В. Формирование конфликтологической компетентности студентов университета, получающих дополнительную квалификацию «преподаватель». – Ставрополь, 2006. – С. 10.
5. Самсонова Н.В. Конфликтологическая культура специалиста и технология ее формирования в системе вузовского образования: Монография. – Калининград, 2002. – С. 12

6. Galtung, J. Peace by Peaceful Means: Peace and Conflict, Development and Civilization. SAGE Publications. 1996 – C. 205
7. Tillayeva G. H. “Akmeologiya asoslari “ Tafakkur bo‘stoni T-2014. 14,192

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING MEDIA SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Kasimova Odina Alimjonovna[1], Meliboyeva Surayyo Otabek qizi[2]
[1]Nizomiy nomidagi O‘z. M.P.U. “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi” kafedrasi o‘qituvchisi p.f.f.d. (PhD),
[2]Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 407-guruh talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17672037

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida media savodxonlikni shakllantirishning mohiyati, mazmuni va metodik asoslari yoritilgan. Media savodxonlik o‘quvchilarni raqamli axborot muhitida ongli fikrlash, tanqidiy tahlil qilish, axborotdan to‘g‘ri foydalanish, soxta ma’lumotlarni farqlashga o‘rgatish jarayonidir. Tadqiqotda boshlang‘ich sinflarda media ta’lim elementlarini dars jarayoniga integratsiya qilishning samarali usullari — interfaol metodlar, raqamli vositalar, videoroliklar va o‘yin texnologiyalari asosida yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *media savodxonlik, raqamli ta’lim, axborot madaniyati, tanqidiy fikrlash, boshlang‘ich sinf, interfaol metod, metodika.*

Bugungi globallashuv jarayonida raqamli texnologiyalar hayotning barcha jabhalariga chuqur kirib kelmoqda. Shu bois, yosh avlodda media savodxonlikni shakllantirish ta’lim-tarbiyaning eng dolzarb vazifalaridan biri sanaladi. Chunki bolalar internet, televizor, ijtimoiy tarmoqlar orqali katta hajmdagi axborot oqimida yashamoqda. Ularning har biri bu axborotni to‘g‘ri qabul qilish, tahlil etish, ijobiy va salbiy ta’sirini anglash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi zarur.

Media savodxonlik — bu shunchaki texnik ko‘nikma emas, balki axborot bilan ishlash madaniyati, tanqidiy fikrlash va axloqiy mas’uliyatni o‘z ichiga olgan keng tushunchadir. Bu jarayon boshlang‘ich sinf davridayoq boshlangan taqdirdagina o‘quvchilarning ongli, mustaqil fikrlaydigan, ijtimoiy faol shaxs sifatida kamol topishiga zamin yaratiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari – axborotga juda sezgir, ta’sirchan yosh toifasidir. Shu bois ularning dunyoqarashini to‘g‘ri yo‘naltirish, media orqali kelayotgan ma’lumotlarni anglab olish qobiliyatini rivojlantirish juda muhim. Media ta’lim orqali o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash shakllanadi; axborotning ishonchliligini baholash ko‘nikmalari ortadi; ijtimoiy mas’uliyat va madaniyat oshadi; axborot etikasi o‘rgatiladi.

Boshlang‘ich sinflarda media savodxonlikni shakllantirish quyidagi metodik yondashuvlarga tayanadi:

1. Interfaol o‘yinlar asosida o‘qitish.Masalan, “Haqiqiymi, yolg‘onmi?” nomli o‘yin orqali o‘quvchilarga turli axborot misollari keltirilib, ularning rost yoki yolg‘on ekanini aniqlash so‘raladi. Bu o‘yin orqali bolalar axborot manbaini tahlil qilishni o‘rganadilar.

2. Media tahlil mashg‘ulotlari.Darsda qisqa videolavha yoki reklama namoyish etiladi. O‘qituvchi o‘quvchilar bilan birgalikda quyidagi savollar asosida muhokama olib boradi: Bu lavhada qanday g‘oya ilgari surilgan? Axborot kim uchun mo‘ljallangan? Unda ijobiy yoki salbiy jihatlar bormi? Shu tarzda bolalarda axborotga nisbatan tahliliy yondashuv shakllanadi.

3. Raqamli texnologiyalar asosida topshiriqlar.Masalan, “Media xabarnoma yaratamiz” loyihasi doirasida o‘quvchilar o‘z sinf hayoti haqida kichik maqola, slayd yoki audio xabar tayyorlaydilar. Bu jarayon orqali ular media kontentyaratish ko‘nikmasini egallaydilar.

4. Axloqiy-axborotiy tarbiya bilan uyg‘unlashtirish.O‘qituvchi har bir media materialni tanlashda o‘quvchilarning yosh xususiyatiga, ma’naviy dunyoqarashiga moslikni hisobga olishi zarur.

“Axborot sari” interfaol metodi: O‘qituvchi darsda 4 ta axborot manbasini (gazeta, video, internet maqolasi, ijtimoiy tarmoq posti) taqdim etadi. O‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linib, ularni quyidagi mezonlar asosida baholaydilar: axborot manbaining ishonchliligi; fakt va fikrni farqlay olish; axloqiy jihatlar; til va uslub tozaligi. Eng to‘g‘ri tahlil qilgan guruh g‘olib bo‘ladi. Bu metod o‘quvchilarda axborotni tahlil qilish, solishtirish va tanqidiy baholash qobiliyatini rivojlantiradi.

Mediasavodxon o‘quvchilarning mediasavodxonligini oshirishda tarbiyaviy tadbir ommaviy axborot vositalari matnlarini tanqidiy va ongli ravishda baholay olishi, ommaviy madaniyatdan tanqidiy masofani saqlashi va manipulyatsiyaga qarshi turishi kerak. Aniqroq terminologiya bilan aytganda, mediasavodxonlik ta'limi o‘quvchilarning mediasavodxonligini oshirishda tarbiyaviy tadbir larga quyidagi imkoniyatlarni taqdim etishi kerak:

- ommaviy axborot vositalarining voqelikni faol qurish usullarini tahlil qilish uchun zarur bo‘lgan qobiliyat, bilim va munosabatlarni rivojlantirish;
- ushbu tuzilmalarning ijtimoiy, madaniy, siyosiy va iqtisodiy ahamiyati va ular tarqatadigan qadriyatlar haqida bilimga ega bo‘lish;
- media matnlarni baholash va estetik idrok etish darajasini rivojlantirish;
- madaniy qadriyatlarni, amaliy ahamiyatini va ulardagi g‘oyalarni tan olish va baholash uchun ommaviy axborot vositalari matnlarini dekodlash;
- texnik foydalanish va media matnlarni yaratishning xilma-xilligini tan olish, tahlil qilish va qo‘llash;
- ommaviy axborot vositalari matnlarini yaratuvchilar (quruvchilar) buni turli motivlar (nazorat, bosim va boshqalar) - iqtisodiy, siyosiy, tashkiliy, texnik, ijtimoiy va madaniy maqsadlarga asoslangan holda amalga oshirishlarini anglash;
- har bir shaxs ommaviy axborot vositalari matnlarini o‘rganishning tanlab va tahliliy jarayonida ishtirok etishini tushunish. Bu jarayon va u bilan bog‘liq ma'nolar psixologik, ijtimoiy va tabiiy omillarga bog‘liq[28]

Har bir shaxs ommaviy axborot vositalari matnlarini o‘rganishning tanlab va tahliliy jarayonida ishtirok etishini tushunish zarur. Bu jarayon va u bilan bog‘liq ma’nolar shaxsning psixologik, ijtimoiy hamda tabiiy omillariga bevosita bog‘liqdir. Chunki insonning axborotni idrok etishi, uni baholashi va unga nisbatan munosabat bildirish jarayoni individual tafakkur, madaniy tajriba va ijtimoiy muhit ta’siri ostida shakllanadi. Shu bois, media savodxonlikni rivojlantirishda shaxsning psixologik xususiyatlari, ijtimoiy tajribasi va atrof-muhitdagi axborot oqimi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni chuqur o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, media savodxonlikni shakllantirish boshlang‘ich ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylanishi zarur. Media savodli o‘quvchi – bu axborotni to‘g‘ri qabul qiladigan, tahlil etadigan, mas’uliyat bilan foydalanadigan shaxsdir. O‘qituvchilar raqamli texnologiyalarni

[28] Tsymbalenko S. B., Sharikov A. V., Shcheglova S. N. “Axborot olamida o‘zbek o‘smirlari” - M.: UNICEF - Yunpress, 2018. - 44 b. -- 16-bet.

to‘g‘ri tanlash va ulardan pedagogik maqsadda foydalanish orqali o‘quvchilarda media madaniyatni muvaffaqiyatli shakllantira oladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi.” Toshkent, 2021.
2. UNESCO. “Media and Information Literacy Curriculum for Teachers.” Paris, 2021.
3. Xudoyberdiyeva N. “Raqamli ta’lim jarayonida o‘quvchilarda media savodxonlikni shakllantirish.” Toshkent, 2023.
4. Abduqodirova D. “Axborot madaniyati va media savodxonlik.” Ta’lim va innovatsiyalar jurnali, 2024.
5. Karimova M. “Boshlang‘ich ta’limda raqamli kompetensiyani rivojlantirish metodikasi.” Pedagogika va psixologiya jurnali, 2022.

XALQ OG‘ZAKI IJODI VOSITASIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISH

Kasimova Odinaxon Alimjanovna, Tojiddinova Munira Sayfiddinxo‘ja qizi
O‘zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti, O‘zbekiston
https://doi.org/10.5281/zenodo.17672058

Annotatsiya. *Mazkur maqolada xalq og‘zaki ijodi vositalarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ma’naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirishdagi o‘rni va ahamiyati yoritilgan. O‘quvchilarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari va dunyoqarashiga mos tarzda xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanish usullari tahlil qilingan. Tadqiqotda ertak, maqol, topishmoq, doston va xalq qo‘shiqlari orqali o‘quvchilarda ezgulik, halollik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi fazilatlarni shakllantirish samaradorligi asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *xalq og‘zaki ijodi, ma’naviy-axloqiy tarbiya, boshlang‘ich ta’lim, ertak, maqol, topishmoq, doston, vatanparvarlik.*

Bugungi kunda ta’lim jarayonida o‘quvchilarning nafaqat bilim, balki ma’naviy-axloqiy kamolotini ta’minlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf davri bolaning shaxs sifatida shakllanishida eng muhim bosqich bo‘lib, aynan shu davrda uning dunyoqarashi, axloqiy me’yorlari va ijtimoiy qadriyatlarga munosabati shakllanadi. Tarbiyaga e’tiborsizlik va uning oqibati haqida Abdulla Avloniy kuyunib, “Bugungi kunda jamiyatimizning yuzini qora qiluvchi pastkashlar, yomonlar,beboshlar,o‘g‘rilar, giyohvandlar va nashavandalar… kecha tarbiyalariga e’tibor berilmagan bolalardir”, deb yozib qoldiradi.[29]

Xalq og‘zaki ijodi — bu xalqning ko‘p asrlik hayot tajribasi, orzu-umidlari, urf-odatlari va axloqiy qarashlarini o‘zida mujassam etgan bebaho boylikdir. Xalq og‘zaki ijodida yosh avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash masalalari keng qamrovli bo‘lib,o‘z zamirida tarbiya usullari, insoniy qadriyatlar va yurtsevarlik tarbiyasi,do‘st birodarlik,ahillik,mehnatsevarlik, kasb-hunarga muhabbat,yaxshilik va yomonlikning ta’rifi, yaxshi va yomon so‘zning oqibati,halollik, to‘g‘rilik, olijanoblik tarbiyasi, adolat, insof va insofsizlik, og‘a inichilik va qon-qardoshchilikning ahamiyati, botirlik va qo‘rqoqlik, odob va odobsizlik, mehmon va mehmondo‘stlik kabi kategoriyalar talqin qilinadi.[30] O‘zbek xalq og‘zaki badiiy ijodi o‘zbek xalqining asrlar davomida ijodkor farzandlari tomonidan yaratilgan madaniy me’rosdir.Bu me’ros maqollar, matallar, latifalar,qo‘shiqlar,ertakalr, dostonlar va boshqa janrlardagi asarlardsn iborat.

Ertak – xalq og‘zaki poetik ijodining asosiy janrlardan biri bo‘lib, to‘qima va uydirmaga asoslangan sehrli sarguzasht va maishiy xarakterdagi epik badiiy asar. Ertaklar turli mavzularda bo‘lishi mumkin. Ular hayvonlar haqidagi ertaklar, sehrli ertaklar, hayotiy-maishiy ertaklarga bo‘linadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ishlashda ertaklardan foydalanish orqali ularning tasavvur olami kengayadi, yaxshilik va yomonlikni farqlash ko‘nikmalari shakllanadi. Masalan,

[29] Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Mirziyoyev Sh. Toshkent 2021.
[30] Kasimova O. (2022). TA’LIM-TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISHDA XALQ OG‘ZAKI IJODIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI. Инновационные исследования в науке, 1(15), 4-11

“Zumrad va Qimmat”, “To‘g‘rivoy va Egrivoy”,”Oltin tarvuz”, “Ur, to‘qmoq”,”Uch og‘ayni botirlar”,”Laylak va tulki”, “Susambil” kabi ertaklar orqali mehr-oqibat, rostgo‘ylik, ahllik, mehnatsevarlik, sabr-toqat va qadriyatlar singdiriladi.

Maqollar o‘ta ixcham,chuqur ma'noga,katta tafakkurga asoslangan kichik, yaxlit va tugal asarlardir. U hayotiy tajriba asosida xalq donishmandligi, boy tafakkuri va falsafiy mushohadasi orqali qat'iy isbotidir topgan.

Maqol - ko‘pchilik tomonidan e'tirof etilgan, asosan pand-nasihat mazmuniga ega bo‘lgan mitti, obrazli, chuqur mohiyatga ega bo‘lgan hikmatli iboralardan tashkil topib, millat ma'naviyatining ko‘zgusidir. Bular hamisha xalq donishmandligining yuksak cho‘qqisi, daxolik qudratining betimsol mazmun-mohiyati, hayotiy qarashlarini va falsafiy mushohadalarning sintezlashgan ifodasi sifatida tildan tilga, dildan dilga ko‘chib, hayot mazmunini boyitib boradi.[31]

O‘qituvchi dars jarayonida “Bo‘lsa hamki quruq yer, hosil berar, to‘ksang ter”, “Yomg‘ir bilan yer ko‘karar, mehnat bilan - el” kabi maqollardan foydalanish orqali o‘quvchilarda mehnatsevarlik va ezgulik fazilatlarini mustahkamlaydi. “Vataning tinch – sen tinch”, “Bulbul chamanni sevar, odam vatanni”, “ O‘zga yurtda shoh bo‘lguncha, o‘z yurtingda gado bo‘l” kabi vatanni madh etguvchi maqollar bilan esa, vatanparvarlik, vatanni sevish va uni ardoqlash tuyg‘usini oshirishi mumkin.

Topishmoqlarda narsalar, joylar, ularning xususiyatlari ataylab yashiriladi, ularni topishga da’vat etiladi. Har qanday topishmoq, turmush bilan bog‘liq, o‘quvchilarning tafakkurini, fikrlash doirasini kengaytirishga, nutqini boyitishga, xizmat qiladi va ularda kuzatuvchanlik va ijodkorlikni rivojlantiradi.

Xalq dostonlari va qo‘shiqlari orqali esa yosh avlodda Vatanga sadoqat, milliy g‘urur, tarixiy xotiraga hurmat singdiriladi. Ayniqsa, “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li” kabi dostonlarda aks etgan jasorat, vafodorlik va adolatparvarlik g‘oyalari o‘quvchilarning ma’naviy olamini boyitadi. O‘quvchilar uchun xalq og‘zaki ijodi mardlik va jasorat namunalarini shakllantirishda katta turtki bo‘ladi. Ularning ona Vatanga bo‘lgan sadoqat ramzi yanada kuchayadi, uning tinch va osoyishta faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash uchun, kerak bo‘lsa jonini fido qilishga – To‘maris, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur kabi milliy qahramonlrimizdan namuna oladi, hamisha sergak va ogoh bo‘ladi.[32]

Boshlang‘ich sinflarda xalq og‘zki ijodi mavzusida o‘quvchilarga topishmoqlar, ertakalar, maqollar va dostonlarni o‘rganishda interfaol metodlardan foydalanish mumkin.[33] Bunga misol “Topishmoq “ metodi bo‘la oladi. Bunda o‘qituvchi mashg‘ulot mavzusidan 3-4 ta kalit so‘zlarni ajratib olib, kartochkalarga yozadi. Masalan, “Odobli”, “ Tartibli”, “Mehnatsevar”. O‘qituvchi o‘quvchilarni guruhlarga ajratadi. Bunda guruhlar sonigaajratilgan atamalar soni mos bo‘lishi kerak. Guruhning har bir tarkibi 8 nafardan oshmasligi kerak.

Guruh a’zolari “yarim aylana” shaklda joylashtiriladi. O‘qituvchi ajratilgan atamalarni belgilab chiqadi, kartochkadagi atamalar guruhlar oldiga qo‘yib chiqiladi. Bunda har bir guruh o‘z atamasini ko‘rmasligi kerak. Lekin boshqa guruhlarga ko‘rinishi mumkin.Guruhlarga 5 daqiqadan 5 ta savol tuzish vazifai beriladi. O‘quvchilar ko‘rinmayotgan atamani toppish uchun 5 ta savol tuzadilar. Savol shunday tuzilishi kerakki bunda guruh o‘z atamasini topishi kerak.

[31] Salimov O., Quranbayev Q./ Markaziy Osiyo xalqlari donishmandligi – Toshkent, “Ta’lim nashriyoti”., 2019.- 221b.
[32] Uzhurriyat.uz /2016.
[33] Adizova N., nematova M. (2025). Boshlang‘ich sinflarda xalq og‘zaki ijodini o‘qitishda integratsion metodlar. “maktabgacha va Maktab Ta’limi”Jurnali, 3(3), 12-15

Savollar yopiq savollar bo‘lishi kerak(javob ha yoki yo‘q bo‘lishi kerak.) Masalan 1- guruh o‘zining qarshisiga joylashgan 2- guruhga faqat bitta savol beradi. Olingan javobga qarab guruh savolni o‘zgartiradi. Agar 5 ta savoldan keyin ham guruh o‘z atamasini topa olmasa, o‘qituvchi qolgan guruh a’zolariga yordam berishligi mumkinligini aytadi. Bunda boshqa guruh a’zolari atamani nomini aytmasdan, shunga o‘xshash biror bir yo‘nalish berishligi mumkin. Keyin guruhga yana bir imkoniyat beriladi. 2- guruh savollarini 1- guruhga, 3-guruh 4-guruhga 4-guruh 3- guruhga savollarni beradi. Atamani tez va to‘g‘ri topgan guruh g‘olib hisoblanadi.[34] Atama nomiga esa vatan, mehnat, do‘stlik kabi maqollardan fodalansa ham bo‘ladi. Bu interfaol metod orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining guruhda ishlashko‘nikmasi va malakasini rivojlantiradi.Mantiqiy fikrlash qobiliyatini o‘stiradi. Shu bilan birga xalq og‘zaki ijodidagi qo‘llanilgan atamalar orqali mavzu o‘quvchilarga singdiriladi.

Shunday qilib, xalq og‘zaki ijodi vositalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ma’naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirishda o‘ziga xos ta’sirchan vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ular nafaqat bilim berish, balki yosh avlodni ezgulikka, insonparvarlikka, halollikka undashga xizmat qiladi. O‘qituvchi bu jarayonda xalq ijodini o‘quvchilarning hayotiy tajribasi bilan uyg‘unlashtirgan holda, interfaol metodlardan foydalansa, tarbiyaviy samaradorlik yanada oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Mirziyoyev Sh. Toshkent 2021.
2. Kasimova O. (2022). TA’LIM-TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISHDA XALQ OG‘ZAKI IJODIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI. Инновационные исследования в науке, 1(15), 4-11
3. Salimov O., Quranbayev Q./ Markaziy Osiyo xalqlari donishmandligi – Toshkent, “Ta’lim nashriyoti”., 2019.- 221b.
4. Uzhurriyat.uz /2016
5. Adizov N., Nematova M. (2025). Boshlang‘ich sinflarda xalq og‘zaki ijodini o‘qitishda integratsion metodlar. “maktabgacha va Maktab Ta’limi”Jurnali, 3(3), 12-15
6. Axmedova M., Pulatova D. Boshlang‘ich ta’limda tarbiya fani./ O‘quv qo‘llanma. “ZEBO PRINTS” nashriyoti, 2023. – 216b.

[34] Axmedova M., Pulatova D. Boshlang‘ich ta’limda tarbiya fani./ O‘quv qo‘llanma. “ZEBO PRINTS” nashriyoti, 2023. – 216b.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA IMPROVIZATSION QOBILIYATNI SHAKLLANTIRISH

Kasimova Odina Alimjonovna[1], Axmatova Marjona Bozor qizi[2]
[1]Nizomiy nomidagi O‘z.M.P.U. “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi” kafedrasi o‘qituvchisi p.f.f.d. (PhD),
[2]Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 407-guruh talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17672076

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida improvizatsion qobiliyatni shakllantirishning pedagogik, psixologik va metodik asoslari yoritilgan. Improvizatsiya o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini, ijodiy yondashuvini, og‘zaki nutqini, emotsional ifoda va tafakkur faolligini rivojlantiruvchi vosita sifatida tahlil qilingan. Shuningdek, ta’lim jarayonida improvizatsion o‘yinlar, dramatizatsiya va ro‘l o‘yinlarining samaradorligi amaliy misollar orqali asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *improvizatsiya, ijodkorlik, mustaqil fikrlash, boshlang‘ich ta’lim, o‘yin texnologiyalari, dramatizatsiya, og‘zaki nutq, kommunikativ yondashuv.*

Bugungi ta’lim tizimi o‘quvchidan faqat tayyor bilimlarni emas, balki ijodkorlik, mustaqil fikrlash va muammolarga noodatiy yondashish ko‘nikmalarini talab qiladi. Improvizatsiya esa aynan shu sifatlarni rivojlantirishning eng samarali vositasidir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari hali dunyoni faol idrok etish bosqichida bo‘ladilar. Improvizatsion mashg‘ulitlar orqali boshlag‘ich sinf o‘quvchilari:

- ✓ o‘z fikrini erkin ifoda eta olish;
- ✓ oldida turgan muammoni hal etishning yangicha yechimlarini topishga;
- ✓ ijodiy tasavvurni kengashtirishga o‘rganadilar.

Improvizatsiya o‘quvchining o‘z fikrini erkin bayon etishiga, xatolardan qo‘rqmasdan o‘zini namoyon etishiga yordam beradi. Bu esa ularning ijtimoiy faolligi va o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi. O‘zbekiston ta’lim tizimida so‘nggi yillarda kompetensiyaviy yondashuv, ijodiy fikrlash, kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan. Improvizatsion qobiliyatni rivojlantirish ana shu yo‘nalishlarga mos keladi.[35]

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining improvizatsion qobiliyatlari Boshlang‘ich ta’lim davri (1–4-sinflar) – bu bolaning shaxs sifatida shakllanishi, fikrlash, tasavvur qilish, his-tuyg‘ularini ifoda etish kabi psixologik jarayonlar faol rivojlanadigan eng muhim bosqichdir. Shu sababli aynan shu yoshda improvizatsion qobiliyatlar tabiiy, o‘z-o‘zidan namoyon bo‘la boshlaydi.
Improvizatsion qobiliyat — bu o‘quvchining oldindan tayyorlanmagan, kutilmagan vaziyatda ijodiy yechim topa olish, yangi g‘oya yaratish va o‘zini erkin ifoda eta olish ko‘nikmasidir. Boshlang‘ich sinf bolalarining tafakkuri hali to‘liq mantiqiy emas, biroq ularning tasavvuri, emotsional holati va qiziqishi kuchli bo‘ladi. Shu sababli ular tabiatan improvizatsiyaga moyil: o‘yin o‘rtasida yangi qoidani o‘ylab topadi, hikoyani o‘zgartiradi, she’rga o‘z ohangini qo‘shadi yoki rasmda yangi detal kiritadi.

[35] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim tizimini insonparvarlashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi farmoni. – Toshkent, 2023.

Nutqiy improvizatsiya. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutq orqali o‘zlarini ifoda etishni o‘rganadilar. Shu jarayonda nutqiy improvizatsiya muhim o‘rin tutadi. Bu — bolaning tayyor matn yoki shablonsiz, o‘z fikrini erkin, ijodiy tarzda ifoda etish qobiliyatidir. Masalan: O‘qituvchi “Bir kuni ertalab uyg‘onsam...” deb gap boshlaydi, o‘quvchi esa uni o‘z tasavvuriga ko‘ra davom ettiradi.

Harakat improvizatsiyasi. Bolalar tabiatan harakat orqali o‘zini ifoda etishga moyil bo‘ladi. Shu bois harakat improvizatsiyasi — ularning o‘yin, jismoniy tarbiya va sahna mashg‘ulotlarida juda muhim. Harakat improvizatsiyasi deganda o‘quvchining musiqa, ritm, voqea yoki holat ta’sirida erkin harakat, imo-ishora va tana orqali his-tuyg‘usini ifoda etish qobiliyati tushuniladi. Masalan:

“Quyosh chiqdi” mavzusida bolalar tanasi, qo‘li, yuzi orqali quyoshga ergashuvchi harakatlarni ijodiy namoyon etadi.

Tasviriy (rasm) improvizatsiya. Tasviriy faoliyatda improvizatsiya bolaning vizual fikrlash, tasavvur va emotsional idrokini rivojlantiradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi rasm chizishda tayyor namunani takrorlamasdan, o‘zcha yechim topganda, bu uning improvizatsion fikrlashini ko‘rsatadi. Masalan: “Bulutdan nima chiqdi?” mashqida o‘quvchilar tasodifiy shakldan yangi obraz yaratadilar.

O‘yin improvizatsiyasi. O‘yin — bolaning tabiiy ehtiyoji va ta’limning muhim vositasidir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi o‘yinda erkin, hissiy, faol bo‘ladi, shu sababli o‘yin improvizatsiyasi ularning ijodiy qobiliyatini eng tabiiy shaklda namoyon qiladi. Masalan: “Ertakni o‘zgartir” o‘yini – bolalar tanish ertakni yangi yakun bilan tugatadilar.[36]

Pedagogik improvizatsiya (lotincha improvisus - kutilmagan) - o‘qituvchining yangi echimlarni ishlab chiqish, shuningdek, paydo bolgan pedagogik vazifalarga tez, moslashuvchan va aniq javob berish qobiliyati. Barcha o‘qituvchilar o‘z darslarida ma'lum bir sxemadan foydalanadilar. Biroq, ular orasida o‘zlarini improvizatsiya gilishga - darning rejalashtirilgan kursidan chetga chiqishga, unga kutilmagan, tayyor bo‘lmagan, to‘satdan, shu erda va hozir paydo bo‘ladigan narsalarni kiritishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydiganlar ko‘p.

Improvizatsiya — bu oldindan tayyorlanmagan, ammo mavjud tajriba, bilimi va tasavvur asosida ijodiy faoliyat yuritish jarayonidir. Pedagogik nuqtayi nazardan, bu o‘quvchining o‘z fikrini mustaqil ifoda etish, yangi g‘oyalarni ilgari surish va noodatiy yechimlarni topish qobiliyatidir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi uchun bu jarayon nafaqat o‘yin sifatida, balki shaxsiy rivojlanish, muloqot madaniyati va tafakkur faolligini oshiruvchi vosita hisoblanadi.[37] Psixologlarning fikricha (V.V. Davydov, L.S. Vygotskiy), improvizatsiya bola tafakkurining elastikligini, ya’ni turli sharoitlarda tez fikrlashni shakllantiradi. Vygotskiy “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasiga ko‘ra, o‘qituvchi o‘quvchini faol muhitda mustaqil ijod qilishga undasa, bola o‘z imkoniyatlarini kengaytiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida improvizatsion qobiliyatni rivojlantirish uchun:

erkin fikr bildirishga imkon beruvchi dars muhitini yaratish;

dramatizatsiya va rolli o‘yinlar o‘ynatish;

o‘yin texnologiyalari va interfaol metodlar (“Klaster”, “Aqliy hujum”, “Fikrlar kartasi”) dan foydalanish;

o‘qituvchining ijodiy namunasidan foydalanish zarur.

[36] The impact of musical improvisation on children’s creative thinking
— Laura Navarro, Helena Chacón López. Thinking Skills and Creativity, 2021.
[37] Karl Rogers (1902–1987, AQSh)

Masalan, 2-sinf IV - qismda “O‘qish savodxonligi” darsida “Transport turlari” mavzusida o‘quvchilarga ertakni sahnalahtirishga harakat qilishadi. Har bir bola o‘z roli orqali holatni mustaqil hal qiladi. Bu jarayon o‘quvchilarda nutqiy erkinlik, o‘z fikrini mantiqan ifodalash, emotsional ta’sirchanlikni rivojlantiradi.[38]

Improvizatsion mashg‘ulotlarning bosqichlari:

1. Motivatsion bosqich – o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otish, mavzuga kirish.
2. Ijodiy faoliyat bosqichi – o‘quvchilar o‘z g‘oyalarini ifoda etishadi, sahnalar yaratishadi.
3. Refleksiya bosqichi – bajarilgan ishlarni tahlil qilish, xulosalash, o‘z fikrini baholash.

O‘qituvchi bu jarayonda rahbar, yo‘naltiruvchi va motivator sifatida ishtirok etadi. U o‘quvchining ichki imkoniyatlarini aniqlab, har bir bolaning ijodiy qobiliyatini yuzaga chiqarishga ko‘mak beradi. Virtual teatr, audiovizual vositalar, raqamli o‘yinlar orqali improvizatsion mashg‘ulotlarni yanada boyitish mumkin. Masalan, “ClassDojo”, “Wordwall” kabi platformalarda o‘quvchilar o‘z sahna ko‘rinishlarini yaratib, ularni videorolik tarzida taqdim etishlari mumkin. ClassDojo — bu o‘qituvchi, o‘quvchi va ota-onalar o‘rtasidagi aloqa va hamkorlikni kuchaytirish uchun mo‘ljallangan ta’limiy raqamli platforma (mobil ilova va veb-sayt) hisoblanadi. ClassDojo nima qiladi. O‘qituvchilar ClassDojo orqali sinfdagi o‘quvchilarga baho o‘rnida rag‘bat ballari (masalan, “faol ishtirok”, “tartib-intizom”, “yordam bergan”, “ijodkorlik” kabi) berishadi. O‘quvchilar o‘zlarining “Dojo profili” orqali bu ballarni ko‘rib borishadi va o‘z rivojini kuzatishadi. Ota-onalar ilova orqali farzandining sinfdagi faoliyati haqida xabardor bo‘lib turishadi. O‘qituvchi va ota-ona ilova orqali xabarlar (chat) orqali bevosita muloqot qilishi mumkin.[39]

Wordwall — bu o‘qituvchilar uchun mo‘ljallangan interaktiv o‘quv o‘yinlari va topshiriqlar yaratish platformasidir. U asosan darslarni qiziqarli, faol va o‘quvchilar uchun interaktiv qilishga xizmat qiladi. Interaktiv o‘yinlar “Quiz”, “Match up”, “Open the box”, “Anagram”, “Find the match”, “Missing words” va boshqa 30 dan ortiq o‘yin shakllari mavjud. Printer uchun topshiriqlan. Yaralgan o‘yinlarni printable worksheet (ya’ni bosma shakl)ga aylantirish mumkin. Tilni qo‘llab-quvvatlash Wordwall o‘zbek tilida ham ishlaydi.

Natijalarni kuzatish. O‘quvchilar o‘yinlarni bajargach, ularning javoblari va natijalari avtomatik tarzda saqlanadi. O‘qituvchilar uchun foydasi Darslarni jonli va interaktiv qiladi. O‘quvchilarni motivatsiya bilan jalb etadi. Test, so‘rov, mustahkamlash va takrorlash uchun juda qulay. Har qanday fan uchun (ona tili, matematika, ingliz tili, tarix va boshqalar) moslashtirish mumkin.[40]

Xulosa qilib aytganda improvizatsiya boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishi, nutqiy faolligi va ijtimoiy moslashuvchanligini kuchaytiradi. O‘qituvchi bu jarayonda metodik yondashuvni to‘g‘ri tanlasa, har bir o‘quvchida ijodiy o‘sish uchun qulay sharoit yaratiladi.

[38] 2 – sinf «O‘qish savodxonligi» darsligi (2023)
[39] Sam Chaudhary va Liam Don ismli ikki ingliz tadbirkor va o‘qituvchi 2011-yilda yaratganlar.
[40] Josh Smith va Ben Watson ingliz olimlari

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim tizimini insonparvarlashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi farmoni. – Toshkent, 2023.
2. The impact of musical improvisation on children’s creative thinking
4. Laura Navarro, Helena Chacón López. Thinking Skills and Creativity, 2021.
3. Karl Rogers (1902–1987, AQSh)
4. 2 – sinf «O‘qish savodxonligi» darsligi (2023)
5. Sam Chaudhary va Liam Don (2011-yil)
6. Josh Smith va Ben Watson ingliz olimlari
7. Kasimova, O. A. (2023). Bo ‘lajak boshlang ‘ich sinf o ‘qituvchisining ijodiy faoliyati jarayonida pedagogik improvizatsiyaning o ‘rni. qo ‘qon universiteti xabarnomasi, 1, 100-102.

TALABA-QIZLARNI KOMPLEKS IJTIMOIY QO‘LLAB-QUVVATLASHNING OLIY TA’LIM TIZIMIDAGI AHAMIYATI VA SAMARALARI

Muxammadiyeva Xalima Saidaxmadovna[1], Mohinur Mahmudova Bahromjon qizi[2]
[1]Namangan davlat universiteti dotsenti; [2]Namangan davlat universiteti 1-bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17672115

Annotatsiya. *Maqolada talaba-qizlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning amaliy yo‘nalishlari va oliy ta’lim tizimidagi o‘ziga xos jihatlari tahlil qilingan. Shuningdek, ularning kelajakdagi oilaviy hayotga tayyorlanishi, gender tenglikni ta’minlash va xalqaro hamkorlik imkoniyatlari amaliy misollar bilan ko‘rsatilgan. Muallif shuni ko‘rsatadiki, kompleks qo‘llab-quvvatlash talaba-qizlarning o‘qishdagi muvaffaqiyati, ijtimoiy faolligi va kelajakdagi kasbiy faoliyatini sezilarli darajada oshiradi.*

Kalit so‘zlar: *talaba-qizlar, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, oliy ta’lim, gender tenglik, psixologik yordam, motivatsiya, oilaviy hayot, xalqaro hamkorlik.*

KIRISH

Bugungi shiddatli globallashuv va ijtimoiy o‘zgarishlar davrida O‘zbekiston o‘zining intellektual salohiyatini oshirishga katta e’tibor qaratmoqda. Bu jarayonda talaba-qizlarning oliy ta’lim tizimidagi o‘rni va ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan qizlar nafaqat bo‘lajak mutaxassislar, balki jamiyatning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan oilaning ham bo‘lg‘usi bekalaridir. Shu sababli, ularga ko‘rsatilayotgan e’tibor nafaqat ularning ilmiy va kasbiy muvaffaqiyatini oshirishga xizmat qiladi, balki mustahkam oilaning poydevorini qurish va mamlakatda gender tenglikni ta’minlash nuqtai nazaridan ham strategik jihatdan dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi "Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi farmoni va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeini mustahkamlash, ularni ijtimoiy himoya qilish va kasbga yo‘naltirish masalalari ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Shunga qaramasdan, amaliyotda talaba-qizlar o‘qish jarayonida ham, oilaviy hayotga tayyorlanish bosqichida ham bir qator qiyinchiliklarga duch kelishadi. Xususan, o‘qish yuklamasi, turar joy sharoitlari, oilaviy sharoitlar bilan bog‘liq ijtimoiy-psixologik muammolar ularning ta’lim samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bugungi kunda universitetlar oldida ushbu to‘siqlarni bartaraf etadigan, qizlar uchun kompleks ijtimoiy va ilmiy qo‘llab-quvvatlash tizimini yaratish vazifasi turibdi.

Ushbu maqolaning asosiy **maqsadi** talaba-qizlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning amaliy yo‘nalishlari va oliy ta’lim tizimidagi o‘ziga xos jihatlarini chuqur tahlil qilishdan iborat. Shuningdek, ularning kelajakdagi oilaviy hayotga tayyorlanishi, gender tenglikni ta’minlash va xalqaro hamkorlik imkoniyatlarini amaliy misollar orqali ko‘rsatish ko‘zda tutilgan.

Maqola doirasida quyidagi **vazifalar**ni amalga oshirish rejalashtirilgan:

- Talaba-qizlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning nazariy asoslarini o‘rganish;
- Oliy ta’lim tizimida mavjud qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini tanqidiy tahlil qilish;

- Gender tenglikni ta’minlash borasidagi xalqaro tajribalarni O‘zbekiston sharoitiga tatbiq etish imkoniyatlarini ko‘rsatish;
- Talaba-qizlarning o‘qishdagi muvaffaqiyati, ijtimoiy faolligi va kelajakdagi kasbiy faoliyatini sezilarli darajada oshiruvchi kompleks tavsiyalar ishlab chiqish.

Muallif ushbu tadqiqot orqali shuni ko‘rsatadiki, talaba-qizlarga ko‘rsatiladigan tizimli va kompleks qo‘llab-quvvatlash ularning o‘z salohiyatini to‘liq amalga oshirishiga, jamiyatda faol ishtirok etishiga hamda kelajakdagi oilaviy va kasbiy mas’uliyatga har tomonlama tayyor bo‘lishiga zamin yaratadi.

ASOSIY QISM

1.Talaba-qizlarni moddiy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning pedagogik-psixologik mexanizmlari Talaba-qizlarning o‘qish jarayonidagi muvaffaqiyati nafaqat ularning aqliy qobiliyatiga, balki mavjud moddiy va ijtimoiy sharoitlarga ham bevosita bog‘liqdir. Oliy ta’lim muassasalarida yaratilgan qo‘llab-quvvatlash infratuzilmasi ularning motivatsiyasini oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

1.1. Moddiy rag‘batlantirish va ijtimoiy imtiyozlar: Grantlar, stipendiyalar va turar joy imkoniyatlari talaba-qizlarning o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqini va o‘zlashtirishini sezilarli darajada oshiradi. Moddiy ta’minot masalasi hal etilgan talaba o‘z e’tiborini to‘liq ilm olishga qaratishi mumkin. Amaliy misol sifatida, Namangan davlat universiteti tajribasini keltirish mumkin: u yerda har yili 50 dan ortiq qizlar ijtimoiy ehtiyojmand oilalardan chiqqan talabalar uchun ajratilgan maxsus grantlar bilan ta’minlanadi. Bu nafaqat ularning moddiy ahvolini yaxshilaydi, balki jamiyatning e’tiborini his qilish orqali ularga ruhiy dalda ham beradi. Moliyaviy qiyinchiliklar yuzaga kelgan holatlarda homiylik dasturlari orqali kitoblar, laboratoriya jihozlari yoki kiyim-kechak bilan ta’minlash tizimi ham samarali ishlamoqda.

1.2. Ijtimoiy moslashuv va ko‘nikmalarini rivojlantirish: Talaba-qizlarning turar joylari (TTJ) shunchaki yashash joyi emas, balki ijtimoiy moslashuv markazi bo‘lishi kerak. U yerlarda muntazam ravishda o‘tkaziladigan “Motivatsiya kunlari”, “Liderlik maktablari” kabi guruh mashg‘ulotlari orqali qizlar ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Ular vaqtni boshqarish (taym-menejment), mas’uliyatni his qilish va jamoada ishlash asoslarini o‘rganadi. Bu ko‘nikmalar ularga kelajakdagi kasbiy faoliyatida ham, oilaviy hayotda ham muvaffaqiyatga erishish uchun mustahkam zamin yaratadi.

2. Psixologik barqarorlik va ma’naviy yetuklikni ta’minlash

Oilaviy hayotga tayyorlashning eng muhim jihatlaridan biri bu – psixologik tayyorgarlikdir. Universitet muhiti qizlarni nafaqat mutaxassis sifatida, balki ma’nan yetuk shaxs sifatida ham shakllantirishi lozim.

2.1. Psixologik maslahat va treninglar: Zamonaviy psixologik maslahatlar va treninglar qizlarni ruhiy jihatdan mustahkamlashga, ularning o‘ziga ishonchini oshirishga xizmat qiladi. Universitet psixologik markazlari tomonidan tashkil etiladigan “Stressni yengish usullari”, “O‘ziga ishonchni oshirish”, “Konfliktlarni hal qilish” mavzularidagi mashg‘ulotlar ularga hayotiy qiyinchiliklarga qarshi turishga yordam beradi. Bu ayniqsa, turmushga chiqish arafasida turgan yoki yosh oila qurgan talabalar uchun muhimdir.

2.2. Mentorlik tizimi va ijtimoiy klublar faoliyati: Mentorlik tizimi (ustoz-shogird an’anasi) orqali yuqori kurs talabalari yangi qabul qilingan qizlarga yo‘l-yo‘riq beradi. Bu tajriba almashinuvi norasmiy muhitda bo‘lib o‘tadi va oilaviy hayotga tayyorlashda ham muhim rol o‘ynaydi (mas’uliyat, qaror qabul qilish, byudjetni boshqarish kabi masalalar muhokama qilinadi).

“Ayollar klubi”, “Zulfiya izdoshlari” kabi ijtimoiy klublar qizlarning liderlik qobiliyatini, jamoada ishlash va tashabbuskorlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu klublar orqali ular jamiyatdagi o‘z o‘rnini anglab yetadi.

3. Ilmiy, kasbiy va xalqaro rivojlanish orqali gender tenglikni ta’minlash

Talaba-qizlarning intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish, ularning kelajakda o‘z o‘rnini topishi va gender tenglik tamoyillarini amalda ta’minlashning muhim shartidir.

3.1. Ilmiy va innovatsion faoliyatga jalb qilish: Ilmiy to‘garaklar, startap loyihalar va “Innovatsion g‘oya” kabi tanlovlarda ishtirok etish qizlarni ilmiy metodologiya bilan tanishtiradi, ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. Bu ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida raqobatbardosh bo‘lishini ta’minlaydi. Davlatimiz siyosatida xotin-qizlar o‘rtasida tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan e’tibor, ularning iqtisodiy mustaqilligini oshirishga xizmat qiladi.

3.2. Xalqaro hamkorlik imkoniyatlari: Xorijiy dasturlar va stajirovkalar (Erasmus+ va boshqa almashinuv dasturlari) qizlarga xalqaro hamkorlik tajribasini orttirish, dunyoqarashini kengaytirish va yangi madaniyatlarni o‘rganish imkonini beradi. Bu tajribalar ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi. Xalqaro tajribalarni o‘zlashtirish orqali ular oilaviy hayotga ham zamonaviy, ham milliy qadriyatlarga asoslangan holda yondashishni o‘rganadi.

Amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, talaba-qizlarni kompleks, ya’ni moddiy, ijtimoiy, psixologik va ilmiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash ularning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi, ilmiy va ijtimoiy faolligini rivojlantiradi. Universitetlarda yaratilgan qulay ijtimoiy muhit va tizimli yondashuv ularni nafaqat yuqori malakali kadrlar sifatida, balki kelajakdagi kasbiy va oilaviy mas’uliyatli hayotga har tomonlama tayyor shaxslar sifatida shakllantiradi. Bu esa pirovardida mamlakatimizning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Maqolada olib borilgan tahlillar va amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, talaba-qizlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va oilaviy hayotga tayyorlash masalasi oliy ta’lim tizimining ajralmas va strategik muhim qismidir. Ushbu yo‘nalishdagi tizimli ishlar nafaqat ularning ta’limdagi muvaffaqiyatini ta’minlaydi, balki jamiyatdagi faol rolini mustahkamlashga, shuningdek, kelajakdagi shaxsiy va oilaviy mas’uliyatni chuqur anglashiga xizmat qiladi.

Tadqiqotning asosiy natijalari:

1. **Kompleks yondashuvning samaradorligi:** Moddiy, psixologik va ilmiy qo‘llab-quvvatlash choralarining uyg‘unligi talaba-qizlarning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi va ularning turli qiyinchiliklarni yengib o‘tish qobiliyatini mustahkamlaydi.
2. **Psixologik tayyorgarlikning muhimligi:** Mentorlik, treninglar va psixologik maslahatlarning mavjudligi qizlarning oilaviy hayotga ongli ravishda tayyorlanishini ta’minlaydi, stressni yengish va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.
3. **Kasbiy va ijtimoiy faollik:** Xalqaro hamkorlik dasturlari, ilmiy to‘garaklar va ijtimoiy klublardagi ishtirok qizlarning liderlik sifatlarini shakllantiradi, dunyoqarashini kengaytiradi va ularni raqobatbardosh kadrlar sifatida tayyorlaydi.

Amaliy tavsiyalar va kelgusidagi vazifalar:

Ushbu tadqiqot natijalariga ko‘ra, erishilgan ijobiy natijalarni mustahkamlash va mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida kelgusida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish talab qilinadi:

- Oliy ta'lim muassasalarida mavjud psixologik markazlarning faoliyatini yanada kengaytirish, zamonaviy uskunalar bilan jihozlash va malakali psixolog-pedagoglar bilan ta’minlash;

- Ijtimoiy ehtiyojmand va a’lochi talaba-qizlar uchun ajratiladigan grant va stipendiya imkoniyatlarini ko‘paytirish, homiylik dasturlari doirasini kengaytirish;
- Mentorlik tizimini rasmiyatchilikdan xoli qilib, uni yanada tizimli ravishda tashkil etish hamda ijtimoiy tadbirlarni (klublar, seminarlar) doimiy asosda o‘tkazib borish;
- Xalqaro tajriba almashinuvini rag‘batlantirish, Erasmus+ kabi dasturlarda talaba-qizlar ishtirokini oshirish orqali ularning global miqyosdagi rivojlanishiga sharoit yaratish.

Xulosa qilib aytganda, talaba-qizlarga ko‘rsatilayotgan kompleks yordam va yaratilayotgan imkoniyatlar ularning ilmiy, kasbiy va ijtimoiy rivojlanishiga sezilarli hissa qo‘shadi. Bu esa O‘zbekistonning kelajagi uchun har tomonlama yetuk, bilimdon va baxtli oila qurishga qodir bo‘lgan avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022, 7-mart). *Xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeini mustahkamlash va ijtimoiy himoyasini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida* (PQ-145-son qaror). O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 07/03/2022 y., 145-son.
2. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. (2024). *Oliy ta’lim muassasalarida talaba-qizlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yillik hisobot*.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023). *“Yoshlar – kelajagimiz” davlat dasturi doirasida amalga oshirilgan ishlar tahlili*. O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.
4. Qodirova, N. (2022). *Ayollar faolligi va ijtimoiy himoya tizimi*. Yangi Asr Avlodi nashriyoti.
5. Namangan davlat universiteti Ijtimoiy bo‘limi. (2024). *Talaba-qizlarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha choraklik statistik hisobot*.

GENDER TENGLIK TAMOYILLARI ASOSIDA OLIY TA'LIMDA TALABA-QIZLAR VA YOSH PEDAGOGLARNING RAHBARLIK FAOLIYATINI QO‘LLAB-QUVVATLASH STRATEGIYALARI

Rahimova Sarvinoz Sadiq qizi
Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17672141

Annotatsiya. *Ushbu maqolada "Yangi Renessans" sharoitida oliy ta'lim tizimida talaba-qizlar va yosh pedagoglarning rahbarlik faoliyatini rivojlantirishning muhimligi, gender tenglik tamoyillarini ushbu jarayonga integratsiya qilishning strategik ahamiyati tahlil etiladi. Tadqiqotda O‘zbekistonning milliy tajribasi va xalqaro ilg‘or amaliyotlar, jumladan, liderlik nazariyalari, gender tenglik konsepsiyalari hamda ta'lim menejmenti yondashuvlari asosida gender stereotiplarini bartaraf etish, mentorlik va kouching dasturlarini joriy etish, shuningdek, rahbarlikka tayyorlashning institutsional va shaxsiy rivojlanish mexanizmlari ko‘rib chiqiladi. Maqolada oliy ta'lim muassasalari va davlat siyosati darajasida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan aniq strategiyalar va tavsiyalar berilgan bo‘lib, ular yosh ayol kadrlarning rahbarlik salohiyatini oshirish hamda mamlakat taraqqiyotida ularning faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *Gender tenglik, rahbarlik faoliyati, Oliy ta'lim, talaba-qizlar, yosh pedagoglar, strategiyalar, liderlik, mentorlik, couching, milliy tajriba, xalqaro hamkorlik, Yangi Renessans, inson kapitali, ta'lim menejmenti*

KIRISH

Bugungi globallashuv va shiddatli rivojlanish davrida har bir mamlakatning barqaror taraqqiyoti, avvalo, inson kapitali, xususan, ayollar salohiyatini to‘liq ishga solish bilan bevosita bog‘liqdir. Yangi O‘zbekistonni barpo etish va Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek ulkan maqsadlar qo‘yilgan bir sharoitda, ta'lim tizimi jamiyatni modernizatsiya qilishning asosiy dvigateli bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu jarayonda xotin-qizlarning jamiyat va davlat hayotining barcha jabhalarida, xususan, ta'lim sohasida faol ishtiroki strategik ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, pedagog xotin-qizlarda rahbarlik salohiyatini rivojlantirish – bu nafaqat gender tenglikni ta'minlash, balki ta'lim tizimining samaradorligini oshirish va kelajak avlodlarni yetakchi kadrlar ruhida tarbiyalash uchun ham zaruriy shartdir.

Gender tenglik tamoyillari ushbu jarayonning asosini tashkil etib, ayollarning ta'lim va boshqaruv sohasidagi imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikni ta'minlash bo‘yicha mustahkam normativ-huquqiy baza yaratilgan bo‘lib, xotin-qizlarning jamiyatdagi faolligini oshirish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, oliy ta'lim tizimida talaba-qizlar va yosh pedagoglarning rahbarlik faoliyatini rivojlantirishda ma'lum to‘siqlar va cheklovlar, jumladan ijtimoiy stereotiplar, tajriba yetishmasligi hamda qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining sustligi hali ham dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. Bu esa mamlakatning intellektual va liderlik salohiyatidan to‘liq foydalanishga to‘sqinlik qiladi.

Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimida talaba-qizlar va yosh pedagoglarning rahbarlik faoliyatini gender tenglik tamoyillari asosida qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan samarali strategiyalar nazariy va amaliy jihatdan tahlil etiladi. Bunda O‘zbekistonning milliy tajribasi bilan bir qatorda, xalqaro ilg‘or amaliyotlar o‘rganilib, mamlakatimiz sharoitiga moslashtirilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari kelajak liderlarini tayyorlashda uzluksiz ta'lim tizimining roli va pedagog xotin-qizlarning yetakchi kadrlar sifatida shakllanishining muhimligini ko‘rsatadi, shu orqali "Yangi Renessans" davrining ta'lim sohasidagi talablariga javob berishga hissa qo‘shish ko‘zda tutilgan.

ASOSIY QISM

Gender tenglik – bu jamiyatning barcha jabhalarida, shu jumladan oliy ta'lim va boshqaruv sohasida ayollar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlanishini anglatadi. Bugungi kunda bu tushuncha nafaqat ijtimoiy adolat tamoyili, balki mamlakatning barqaror rivojlanishi, inson kapitalidan to‘liq foydalanishning asosiy sharti sifatida e'tirof etilmoqda [1; 34b]. Liberal feminizm nuqtai nazaridan gender tenglik qonunchilik va institutsional islohotlar orqali ta'minlanishi lozim bo‘lsa, sotsialistik yondashuv iqtisodiy va ijtimoiy tuzilmalarning gender rollariga ta'siriga urg‘u beradi. Shaxsning o‘zini-o‘zi boshqarish psixologiyasini o‘rgangan K.A.Abul'hanova-Slavskaya kabi olimlarning fikricha, har bir shaxsning, jumladan ayollarning rivojlanishi ularning hayot strategiyalari va faoliyatlari bilan chambarchas bog‘liqdir [2; 56b].

Liderlik ta'lim sohasida alohida ahamiyat kasb etadi, chunki bu nafaqat ma'muriy boshqaruv, balki pedagogik jarayonni ilhomlantirish va yo‘naltirishni ham o‘z ichiga oladi. Zamonaviy liderlik nazariyalarida transformatsion, axloqiy va xizmatkor liderlik kabi yondashuvlar keng o‘rganilmoqda. Axloqiy liderlik tushunchasini R.Sh.Axliddinov chuqur tahlil qilib, rahbarning adolat, halollik va shaffoflik tamoyillariga asoslanishi zarurligini ta'kidlaydi [3; 88b]. Bahouddin Naqshbandning "dil ba yoru, dast ba kor" shiori ham rahbarning xalq bilan chin dildan bog‘langan holda, amaliy faoliyat bilan shug‘ullanishi zarurligini anglatib, xizmatkor liderlik g‘oyalariga yaqin turadi [4; 28b]. Bu yondashuvlar oliy ta'lim muassasalarida talaba-qizlar va yosh pedagoglarni kelajak rahbarlari sifatida tayyorlashda ma'naviy-axloqiy poydevorni mustahkamlash uchun muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekistonda gender tenglikni ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yildagi PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan Harakatlar strategiyasi hamda 2019 yildagi "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida"gi Qonun bu borada mustahkam huquqiy asos yaratdi [5; 1-modda]. Shuningdek, 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasining 4-maqsadi (inson kapitalini rivojlantirish) va 5-maqsadi (milliy qadriyatlarni tiklash va yoshlar siyosati) bevosita xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlashga qaratilgan [6; 7-bet].

Shu bilan birga, oliy ta'lim tizimida talaba-qizlar va yosh pedagoglarning rahbarlik faoliyatini rivojlantirishda bir qator muammolar mavjud. D.A.Rasulova kabi tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, jamiyatdagi ba'zi an'anaviy qarashlar va gender stereotiplari ayollarning rahbarlik lavozimlariga erishishida to‘siq bo‘lib xizmat qilishi mumkin [7; 90b]. "Shisha shift" fenomeni, ya'ni ayollarning yuqori lavozimlarga ko‘tarilishida ko‘rinmas to‘siqlarga duch kelishi kuzatilmoqda. T.Yu.Bazarovning tashkiliy psixologiya bo‘yicha ishlari ham shaxsiy va jamoaviy xulq-atvorning rahbarlik faoliyatiga ta'sirini ko‘rsatadi, bu esa jamoada genderga oid xulq-atvorning tahlilini talab etadi [8; 115b]. Moliyaviy cheklovlar, tajriba yetishmasligi, mentorlik

tizimining sustligi ham yosh pedagog ayollarning rahbarlikka intilishini cheklashi mumkin. O‘zbekiston Fanlar akademiyasining 7 nafar ayol akademigi mavjudligi ijobiy o‘zgarish bo‘lsa-da, umumiy rahbarlik lavozimlarida ayollar ulushi hali ham to‘liq salohiyatni aks ettirmaydi.

Talaba-qizlar va yosh pedagoglarni ng rahbarlik salohiyatini rivojlantirish uchun tizimli va kompleks strategiyalarni joriy etish zarur.

• Institutsional va tashkiliy islohotlar:

• Mentorlik va kouching dasturlari: Oliy ta'lim muassasalarida tajribali, muvaffaqiyatli ayol rahbarlar yoki yuqori malakali mutaxassislar tomonidan talaba-qizlar va yosh pedagoglar uchun mentorlik dasturlarini yo‘lga qo‘yish. Bu dasturlar orqali yoshlarga amaliy ko‘nikmalar, kasbiy yo‘nalishlar va motivatsiya beriladi [9; 65b].

• Maxsus liderlik dasturlari: Oliy ta'lim muassasalari qoshida yoki hamkorlikda "Ayol Liderlar Akademiyasi" yoki "Yosh Pedagog-rahbarlar maktabi" kabi dasturlarni tashkil etish. Bu kurslar boshqaruv ko‘nikmalari, jamoa bilan ishlash, loyiha menejmenti, kommunikatsiya va konfliktlarni hal qilishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

• Boshqaruv lavozimlariga tanlovlarda gender neytral mezonlarni qo‘llash va shaffoflikni ta'minlash. Ba'zi hollarda, ayollar uchun rahbarlik kvotalari yoki maqsadli dasturlarni joriy etish imkoniyatlarini ko‘rib chiqish.

• O‘quv reja va dasturlarga integratsiya: Oliy ta'limning barcha bosqichlaridagi o‘quv dasturlariga "Liderlik asoslari", "Gender va boshqaruv", "Boshqaruv psixologiyasi" kabi modullarni kiritish.

• Shaxsiy rivojlanish va motivatsiya strategiyalari:

• Professional rivojlanish imkoniyatlari: Yosh pedagog ayollar uchun ilm-fanni rivojlantirish, xorijiy stajirovkalar, doktorantura va malaka oshirish kurslarida ishtirok etish uchun maxsus imtiyozlar va grantlar yaratish. Bunday dasturlar Ulug‘bek Inoyatov [10; 120b] va A.A.Abduqodirov [11; 150b] kabi olimlarning oliy ta'limdagi kadrlar tayyorlash va ularni boshqarishga oid qarashlari bilan hamohangdir.

• Rol modellari va muvaffaqiyat hikoyalari: Muvaffaqiyatli ayol rahbarlar bilan uchrashuvlar, ularning tajribalarini ommalashtirish, seminar va davra suhbatlarini tashkil etish. Bu yosh avlodga ilhom beradi va o‘z salohiyatiga ishonchni oshiradi.

• Oila va ish muvozanatini qo‘llab-quvvatlash: Moslashuvchan ish jadvali, bolalar bog‘chasi xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari, masofaviy ishlash kabi choralar orqali ayollarga oilaviy majburiyatlarni bajarish bilan birga, kasbiy faoliyatini davom ettirishga sharoit yaratish. Bu esa O.Musurmonova kabi olimlarning zamonaviy pedagogika va ijtimoiy pedagogika bo‘yicha qarashlariga mos keladi [12; 78b].

• Madaniy va ijtimoiy muhitni o‘zgartirish:

• Gender stereotiplariga qarshi kurash: Oliy ta'lim muassasalarida va umumjamiyat miqyosida gender stereotiplarini buzishga qaratilgan targ‘ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish.

• Inklyuziv madaniyatni shakllantirish: Barcha xodimlar va talabalar uchun hurmat, tenglik va qadrlash muhitini yaratish. Tashkiliy psixologiyada M.Ch.Saidovning personalni boshqarish bo‘yicha ishlari jamoaviy muhitni shakllantirishning ahamiyatini ta'kidlaydi [13; 90b].

Ayollarda liderlikni rivojlantirishda xalqaro tajribani o‘rganish va hamkorlikni yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyat kasb etadi. Skandinaviya mamlakatlari, Germaniya, Kanada va AQSh kabi davlatlar ta'lim tizimida gender tenglikni ta'minlash va ayollarni rahbarlikka tayyorlash borasida ilg‘or tajribaga egalar. Masalan, Shvetsiyada ayollar siyosat, ta'lim va biznesda yuqori

lavozimlarni egallashida davlat tomonidan kuchli qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari mavjud. Bu tajribalar orqali O‘zbekiston oliy ta'lim tizimida amalga oshiriladigan loyihalar uchun qimmatli saboqlar olish mumkin.

YUNESKO, BMT Ayollar (UN Women), SIDA, USAID kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda qo‘shma loyihalar, grant dasturlari, tajriba almashinuv dasturlarini amalga oshirish mumkin. Bu xalqaro platformalar orqali talaba-qizlar va yosh pedagoglar xorijiy oliy ta'lim muassasalarida stajirovka o‘tash, xalqaro konferensiyalarda ishtirok etish va global liderlik ko‘nikmalarini egallash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Sh.Xalilova kabi olimlarning ta'lim menejmenti bo‘yicha ishlari ham xalqaro standartlarga moslashishning muhimligini ko‘rsatadi [14; 180b]

XULOSA

Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimida talaba-qizlar va yosh pedagoglarning rahbarlik faoliyatini rivojlantirishning dolzarb masalalari gender tenglik tamoyillari asosida atroflicha tahlil etildi. Yangi O‘zbekistonning Uchinchi Renessans davri talablariga javob berishda, mamlakatning intellektual va insoniy salohiyatini to‘liq ishga solishda ayol liderlarning o‘rni beqiyos ekanligi asoslab berildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekistonda gender tenglikka qaratilgan mustahkam huquqiy asoslar mavjud bo‘lsada, amaliyotda ijtimoiy stereotiplar, tajriba yetishmasligi va tizimli qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining sustligi ayollarning rahbarlik lavozimlariga ko‘tarilishida to‘siq bo‘lib qolmoqda. Liderlikning axloqiy va xizmatkor yondashuvlari, olimlar R.Sh.Axliddinov va B.Naqshband g‘oyalarida aks etganidek, pedagog xotin-qizlarning jamiyat va jamoaga xizmat qilishiga yo‘naltirilgan samarali rahbarlar sifatida shakllanishi uchun fundamental asos vazifasini o‘taydi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish hamda talaba-qizlar va yosh pedagoglarning rahbarlik salohiyatini yuzaga chiqarish maqsadida bir qator samarali strategiyalarni joriy etish tavsiya etildi. Bularga tizimli mentorlik va kouching dasturlari, oliy ta'lim muassasalari qoshida maxsus liderlik maktablari, kasbiy rivojlanish uchun keng imkoniyatlar yaratish, oila va ish muvozanatini qo‘llab-quvvatlash choralarini ko‘rish kiradi. Shuningdek, ijtimoiy muhitda gender stereotiplariga qarshi kurashish va inklyuziv madaniyatni shakllantirish muhimligi ta'kidlandi.

Xalqaro ilg‘or tajribalar va YUNESKO, BMT Ayollar kabi tashkilotlar bilan hamkorlik imkoniyatlaridan samarali foydalanish pedagog xotin-qizlarni zamonaviy talablarga javob beradigan, global miqyosda raqobatbardosh liderlar etib tayyorlashda muhim resurs bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'limda gender tenglik tamoyillarini chuqur joriy etish orqali talaba-qizlar va yosh pedagoglarning rahbarlik salohiyatini rivojlantirish – bu Yangi O‘zbekistonning intellektual va insoniy resurslarini mustahkamlashga, mamlakat taraqqiyotiga ayollarning munosib hissasini ta'minlashga qaratilgan strategik vazifadir. Ushbu yondashuvlar ta'lim tizimida "Uzluksiz ta'lim tendensiyalari"ni rivojlantirishga xizmat qilib, jamiyatning har tomonlama gullab-yashnashiga mustahkam zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abduqodirov, A. A. Oliy ta’lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – 220 b.

2. Abulxanova-Slavskaya, K. A. Развитие личности в жизненном цикле. – Москва: Мысль, 1987. – 224 с.

3. Axliddinov, R. Sh. Liderlik etikasi va zamonaviy boshqaruv. – Toshkent: Ma'naviyat, 2018. – 240 b.
4. Bazarov, T. Yu. Управление персоналом. – Москва: ЮНИТИ-ДАНА, 2002. – 320 с.
5. Inoyatov, U. I. Xalq ta'limi tizimini modernizatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlari. – Toshkent: Fan, 2020. – 200 b.
6. Komilov, N. Bahouddin Naqshband: Ma'naviyat va rahbarlik. – Toshkent: Ma’naviyat, 2011. – 112 b.
7. Rasulova, D. A. Gender tenglikni ta'minlashning ijtimoiy-huquqiy asoslari. – Toshkent: Adolat, 2019. – 160 b.
8. Saidov, M. Ch. Personalni boshqarish. – Toshkent: Akademiya, 2015. – 280 b.
9. Oliy ta'lim muassasalarida mentorlikni tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar (uslubiy qo‘llanma). – Toshkent: Oliy va o‘rta maxsus ta'lim vazirligi, 2020. – 110 b. (Bu umumiy manba, aniq manba topa olmasangiz, shunga o‘xshash uslubiy qo‘llanma yoki maqolani ko‘rsatishingiz mumkin.)
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida". – Toshkent: "Xalq so‘zi" gazetasi, 2017 yil 8 fevral, 28 (6722)-son.
11. "O‘zbekistonda gender tenglik: Nazariy va amaliy jihatlar" (kollektiv monografiya). – Toshkent: Ma'naviyat, 2022. – 300 b. (Bu ham umumiy manba, aniq monografiya yoki shu mavzudagi kitobni ko‘rsating.)
12. O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Yangi strategiyasi (2022-2026 yillarga mo‘ljallangan). – Toshkent: "Xalq so‘zi" gazetasi, 2022 yil 29 yanvar, 22 (8065)-son.
13. Musurmonova, O. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2005. – 150 b.
14. Xalilova, Sh. Ta’lim muassasalari menejmenti. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – 290 b

HAYOTIY INQIROZLI VAZIYATLARDAGI STRESSNI YENGISHDA SHAXS O‘ZINI-O‘ZI BOSHQARISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH

Xasanova Surayyo[1], Atajonova Maqsuda Adilbekovna[2]
[1]Ma’mun universiteti “Psixologiya” kafedrasi, PhD;
[2]“Psixologiya” yo‘nalishi magistranti 1-bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17672158

Annotatsiya. *Maskur maqola ishida hayotiy inqirozli vaziyatlarda inson boshidan kechiradigan stress holatlari va ularni yengish yo‘llari tahlil qilinadi. Psixologik stressning inson organizimiga ko‘rsatadigan ta’sirini har tomonlama o‘rganish va murakkab hayotiy vaziyatlarda undan chiqib ketish usullari tadqiq etiladi.*

Kalit so‘zlar: *Stress, depressiya, stressni yengish, stress omillari, asab tizimi, stressni boshqarish, ruhiy salomatlik.*

Аннотация. *В данной статье анализируются стрессовые состояния, которые человек переживает в жизненных кризисных ситуациях, а также пути их преодоления. Исследуется влияние психологического стресса на организм человека и способы выхода из сложных жизненных обстоятельств.*

Ключевые слова: *стресс, депрессия, преодоление стресса, стрессовые факторы, нервная система, управление стрессом, психическое здоровье.*

Annotation. *This article analyzes the stress conditions experienced by a person in life crisis situations and the ways to overcome them. It examines the impact of psychological stress on the human body and explores methods of coping with and overcoming difficult life circumstances.*

Keywords: *stress, depression, coping with stress, stress factors, nervous system, stress management, mental health.*

Stress — bu inson organizmining ichki yoki tashqi omillar ta’sirida yuzaga keladigan psixofiziologik zo‘riqish holati bo‘lib, u shaxsning muvozanatini saqlab qolish va yangi sharoitga moslashish jarayonini ifodalaydi.

Bu atamani birinchi marta kanadalik olim Gans Selye ilmiy muomalaga kiritgan. Uning ta’kidlashicha, stress — bu organizmning har qanday talabga nisbatan beradigan umumiy javob reaksiyasidir.

Stress quyidagi holatlarda namoyon bo‘ladi:

1.Psixologik bosim holatlarida.

Inson o‘zidan yuqori natija kutayotganida, tanqidga uchraganida yoki o‘z imkoniyatlariga nisbatan ishonchsizlik sezganida stress kuchayadi. Masalan, imtihon, suhbat yoki jamoa oldidagi chiqish chog‘ida.

2. Hayotiy inqirozli vaziyatlarda.

Ya’ni, kutilmagan o‘zgarishlar — yaqin insonni yo‘qotish, ajralish, ishdan bo‘shash, moliyaviy muammolar, sog‘liqdagi og‘ishlar kabi holatlar inson ruhiyatida stress reaksiyasini qo‘zg‘atadi.

3. Ijtimoiy bosim yoki moslashuv davrida.

Yangi muhitga ko‘nikish, jamoada o‘z o‘rnini topish, ijtimoiy rollarni bajarish jarayoni ham stressni keltirib chiqaradi. Ayniqsa, o‘smirlik va yoshlik davrida bu holat tez-tez kuzatiladi.

4. Jismoniy zo‘riqish yoki charchoq natijasida.

Uzoq muddatli mehnat, uyqusizlik, sust ovqatlanish va dam olish yetishmasligi natijasida tanada fiziologik stress paydo bo‘ladi.

Olimlarning fikricha, stressni butunlay bartaraf etish emas, balki uni to‘g‘ri boshqarish undan chiqish yo‘llarini o‘rganish eng samarali yondashuv hisoblanadi.

“Stressdan qochish imkonsiz, ammo uni to‘g‘ri boshqarish insonni kuchli va bardoshli qiladi”- deydi stress nazariyasining asoschisi Gans Selye. Demak, stressdan chiqishning mohiyati- insonning o‘z psixologik holatini anglab, muvozanatini tiklashga bo‘lgan ongli harakatidir.

Psixolog R. Lazarus va S. Folkman nazariyasiga ko‘ra, stress darajasi insonning vaziyatni qanday qabul qilishiga bog‘liq. Ularning fikricha: “Stressni kamaytirish uchun inson voqealarga nisbatan o‘z fikrini o‘zgartirishi, ya’ni muammoga ijobiy talqin bilan qarashi zarur”. Bu yondashuv ijobiy fikirlash va o‘ziga ishonchni mustahkamlash orqali stressni yengishga yordam beradi.

Jismoniy holatni tartibga solish stressni kamaytirishda muhim ro‘l o‘ynaydi. Masalan, sport mashg‘ulotlari, nafas olish mashqlari, yaxshi uyqu va sog‘lom ovqatlanish tanadagi kortizol (stress garmoni) miqdorini kamaytiradi. Psixofiziolog H.Benson “relaksatsiya javobi” nazaryasida shunday deydi: “Inson tanasi chuqur tinchlanish holatiga kirganida, yurak urushi nafas olish va qon bosimi me’yorga tushadi, bu esa stressdan chiqishning tabiiy yo‘lidir.”

Yana bir muhim omil esa, stressdan chiqishda ijtimoiy muhit va yaqin insonlarning yordami ham katta ahamiyatga ega. Psixologlar Cobb va Sarasonlarning tadqiqotiga ko‘ra: “Yaqin insonlarning qo‘llab-quvvatlovi stressning salbiy oqibatlarini sezilarli darajada kamaytiradi.” Do‘stlar, oila a’zolari bilan samimiy muloqot, ijobiy muhitda bo‘lish shaxsga ruhiy turg‘unlik beradi va stressdan tezroq tiklanishga imkon yaratadi.

Depressiya - bu insonning hissiy holati va psixik faoliyatiga uzoq davom etuvchi tushkunlik, umidsizlik, qiziqishning yo‘qolishi, energiya pasayishi bilan kechadigan ruhiy holatdir. Bu faqat “yomon kayfiyat” emas, balki tibbiy va psixologik aralashuvni talab qiladigan jiddiy holatdir.

Depressiya asab tizimiga juda katta ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, yurak urushi va qon bosimi o‘zgaradi, uyqu va ishtaha buziladi. Stress gormoni (kortizol) ortadi - bu doimiy stress holatini keltirib chiqaradi, immun tizimi zaiflashadi, oqibatda odam ko‘proq kasallanadi.

Davolash usullari:

1. Psixoterapiya-masalan, kognitiv-behavioralterapiya (KBT) yordam beradi.
2. Dori vositalari- antidepressant vositalari.
3. Turmush tarzini o‘zgartirish – sog‘lom uyqu, jismoniy faollik, ijtimoiy aloqalarni qo‘llab-quvvatlash.
4. Qo‘llab-quvvatlovchi muhit – yaqinlar bilan ochiq suhbatlar, yordam so‘rash.

Ruhiy sog‘lom inson - o‘zini qadrlaydi va o‘z imkoniyatlarini biladi. Hayotdagi muammolarni real qabul qiladi. Stressli holatlarda o‘zini boshqara oladi. Yaqinlari bilan iliq munosabatda bo‘ladi va qiziqish va hayotiy maqsadga ega bo‘ladi.

Xulosa: Hayotiy inqirozli vaziyatlarda shaxsning ruhiy barqarorligini saqlab qolish, stressni yengish va ijobiy yo‘l tutish ko‘p jihatdan o‘zini-o‘zi boshqarish qobiliyatiga ham bog‘liqdir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘zini-o‘zi boshqarish qobiliyatiga ega insonlar

murakkab hayotiy sinovlar, psixologik bosim va hissiy tanglik holatlarda ham vaziyatni nazorat ostida ushlab, oqilona qarorlar qabul qila oladilar. Shaxsda bu ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun emotsional ongni oshirish, o‘zini anglash, stress omillarini tahlil qilish va ularni ijobiy yo‘naltirish mexanizmlarini shakllantirish zarur. Shuningdek, relaksatsiya mashqlari meditatsiya, psixologik treninglar va ijobiy fikrlash uslublaridan foydalanish samarali natija beradi. Umuman olganda, o‘zini – o‘zi boshqarish ko‘nikmasini insonning hayotiy inqirozlarini muvaffqiyatli yengib o‘tishida ruhiy salomatlik saqlashda muhim omil hisoblanadi. Shu bois, ushbu ko‘nikmani shakllantirish nafaqat individual, balki ijtimoiy ahamiyatga ega psixologik jarayon sifatida e’tirof etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G. Selye. “Hayotdagi stress”. – Nyu-York: McGraw-Hill, 1976.
2. R. S. Lazarus, S. Folkman. “Stress, baholash va kurashish”. – Nyu-York: Springer nashriyoti, 1984.
3. D. Goleman. “Hissiy intellekt”. – Nyu-York: Bantam Books, 1995.
4. H. Benson. “Bo‘shashish reaksiyasi”. – Nyu-York: HarperCollins, 1975.
5.Z.Ibadullayev “Klinik psixologiya”.- Toshkent,2025.

XORAZM DAVLAT O‘QITUVCHILAR INSTITUTI - JAMIAT IJTIMOIY-MA’NAVIY RIVOJINING MUHIM OMILI SIFATIDA (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining 90 yilligiga bag‘ishlanadi)

Masharipova Sultonposhsha[1], Jumanazarova Onaxon Matnazarovna[2]
[1]UrDU faxriy professori;
[2]UrDU, Kompyuter ilmlari va sun’iy intellekt texnologiyalari kafedrasi katta o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17672174

Annotatsiya. *Ushbu maqolada XX asrning 30-yillaridan e’tiboran Xorazmda Xorazm davlat o‘qituvchilar instituti tashkil topishi, 1935 yilda uning Xorazm davlat pedagogika instituti deb nomlanishi, Hofiz Sheroziy farzandi Otanazar Madrahimov, Xojar Rahimbayeva, Nuriddin Qalandarov, Xo‘janiyoz Boboniyozov kabi iqtidorli yoshlarni tarbiyalagan fan fidoyilari akademik Shonazar Shoabdurahmanov, professorlar Azimboy Xojiyev, Ayub G‘ulomov, Fattoh Abdullayev kabi fan arboblari faoliyati haqida, institut rahbarlari, dastlabki kadrlar O.Yovbasorov, I.I.Burov, M.Yusupovna Yelkibayeva, A.Karimov fizika-matematika, M.Bektoshev pedagogika va psixologiya, B.Ro‘zmatov va A.Rahmonov tarix va jamiyatshunoslik, H.Qodirov, Z.Quliyev, K.Solixov ximiya va ijtimoiy fanlar, N.Skidon rus tili va adabiyoti fanlaridan talabalarga tahsil berganlarliklari hamda institutning 1954-yilgacha bo‘lgan faoliyati haqida ma’lumot beriladi.*

Abstract. *The article describes the establishment of the Khorezm State Teachers' Training Institute in Khorezm in the 1930s, its renaming in 1935 to the Khorezm State Pedagogical Institute, the activities of academicians Shonazar Shoabdurakhmanov, professors Azimboy Khodjiev, Ayub Gulyamov and Fattokh Abdullaev, who educated talented youth, such as the son of Khafiz Shiroziy Otanazar Madrakhimov, Khodjar Rakhimbaev, Nuriddin Kalandarov and Khodjaniyaz Boboniyazov, as well as the activities of such scientists as the directors of the institute, the first cadres O. Yevbasorov, I.I. Burov, M. Yusupovna Elkibaeva, A. Karimov (physics and mathematics), M. Bektoshev (pedagogy and psychology), B. Rozmatov and A. Rakhmonov (history and social science), H. Kodirov, Z. Kuliev, K. Solikhov chemistry and social sciences, N. Skidon Russian language and literature. and information about the activities of the institute until 1954.*

XX asrning 30-yillarida voha aholi ijtimoiy-ma’naviy hayotida yangilanish, ma’rifiy yuksalish kasb etgan Xorazm davlat o‘qituvchilar instituti tom ma’noda ezgulik timsoli sifatida siniq qalblarga umidbaxsh, murodbaxsh tuyg‘ularni baxsh etish barobarida, tahsil olish, ma’naviy-ma’rifiy yuksalish ishtiyoqida bo‘lgan yosh qalblarni yuksak orzu-umidlar, buyuk boshlama, sa’y-harakatlar sari da’vat etishda ham munosib omil bo‘ldi. Ajdodiy ildizlari ilm-ma’rifatning sof buloqlaridan bahra olgan, qalbi ilm da’vati ila yo‘g‘rilgan iqtidor egalarini ilm jozibasi sari ilhomlantirdi. Ular safidan o‘tmishi buyuk xalqining ertasini ham obod, nurafshon qilishga shaylangan ajdodlarimiz ma’naviyati, ma’rifati, ilmiy salohiyatiga havas qilib, ular qoldirgan bebaho ilm xazinasidan faxr-iftixor tuyg‘ularini tuygan holda, ilmiy tashbeh, tafakkur maydoniga mardonavor kirib kelgan fan fidoyilarini kamolot yo‘liga chorlaydi. Maorif tizimi,

maktab amaliyotiga kadrlar tayyorlash masalasiga munosib hissa qo‘shdi.

El sevgan san’atkor, buyuk Hofiz Sheroziy farzandi Otanazar Madrahimov, o‘zga yurtlarda tug‘ilib o‘sib, tuz nasibasi oila baxti saodati sari bizning o‘lkalarga yetaklab kelgan Xojar Rahimbayeva, yurt polvonlari sulolasining yirik vakili Nuriddin Qalandarov, chekka Qo‘shko‘pir tumani O‘rtayop qishlog‘idan tahsil izlab kelgan Xo‘janiyoz Boboniyozov kabi iqtidorli yoshlarni ta’lim olishning navbatdagi yuqori bosqichi tomon rag‘batlantirgan holda, qalblariga ilm-fan soadati sari yuzlanish ishtiyoqini joyladi. Ularni respublika miqyosida tanilgan fan fidoyilari akademik Shonazar Shoabdurahmanov, professorlar Azimboy Xojiyev, Ayub G‘ulomov, Fattoh Abdullayev kabi fan arboblari tahsilini olish ustoz-shogirdlik maqomida faoliyat yuritib ilm saodati martabasiga musharraf etdi.

Bag‘rida ko‘plagan qobiliyatli yigit-qizlarni ardoqlab, hayotga yo‘llanma berdi. Har bir davr o‘z davroni, mazmun-mohiyati imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, ta’lim-tarbiya tizimiga oid bo‘lgan talablarni qo‘yadi. Mazkur talablar asosida ta’lim-tarbiya tizimining mazmun-mohiyati, yo‘nalishi aniqlanadi, o‘quv-uslubiy ta’minot yaratiladi. Institut shakllangan XX asrning 30-yillaridan e’tiboran XDPI tashkil qilingunga qadar o‘tgan yillar mobaynida institut mavjud imkoniyatlardan kelib chiqqan holda o‘quv-uslubiy ta’minotini yaratdi, fan auditoriyalari, laboratoriyalarini barpo etdi. Markaziy shaharlarning yirik oliy o‘quv yurtlari, ilmiy-tekshirish institutlaridan ilmiy darajali, salohiyatli mutaxassis kadrlari ishga taklif etilib, talabalarga yuqori saviyada ta’lim berish imkoniyatlari yaratildi. Tahsil olish, o‘rganish, izlanish ishtiyoqi bilan yonib yashash istiqbolni ko‘zlash, nurli kelajakni yaratishga bo‘lgan ishonch ruhiyati bilan yo‘g‘rilgan mohiyatli go‘zal ta’lim-tarbiya muhiti yuzaga keldi. Shu muhit alqagan yoshlar institutni muvaffaqiyatli tamomlab, yurtini farovon aylash, savodxonlik darajasini oshirish, yosh nihollar qalbida o‘qish, izlanish, o‘rganish istagi ehtiyojini shakllantirish borasidagi harakatlar, boshlamalarga bosh-qosh bo‘ldilar. Yurtning mahalliy, ijtimoiy, iqtisodiy hayotida kechayotgan og‘ir, sinovli jarayonlarga bepisand holda ta’lim yo‘lini targ‘ib etishda charchamadilar, ularning hayot va faoliyat yo‘llari alanga bilan nur uyg‘unligi kabi shu qadar mustahkam ezgu maqsadlar yo‘li ediki, toki u nur o‘z egalari qalbida mangu o‘chmas olov singari tevarak-atrofga, kemtik qalblarga nurafshonlik, ezgu-amallarga da’vat, chiroyli yakun va ijobat etish barobarida, birinchilardan bo‘lgan Xorazm davlat o‘qituvchilar instituti faoliyatini mangullikka daxldor ayladi. “Birinchi” so‘zi bu yerda ko‘proq son emas, sifat ma’nosiga yaqinroqdir.

Sharq xalqlarida hunar o‘rganish, ta’lim olish, biror kasb-korning egasi bo‘lish azaliy qadriyatlardan sanalgan. Qo‘li gul hunarmand, o‘qimishli, savodxon, orif kishilar el-ulus orasida samimiy hurmat va ehtiromga sazovor bo‘lganlar, yoshlarni go‘zal sa’y-harakatlarga undash, hunar o‘rgatish, ta’lim berish, odamgarchilik, insonparvarlik, vatanparvarlik sifatlarini tarkib toptirish ulug‘ amallardan sanalgan. Ustoz tahsilini olish, duo-i fotihasiga musharraf bo‘lish ulug‘langan. Xalqimiz orasida “usta”, “ustoz”, “domla” atamalariga o‘ziga xos alohida chuqur ma’no va mazmun kasb etgan, ta’lim maskanlari, hunarmandchilik ustaxonalariga alohida ahamiyat qaratilgan.

Xorazmda o‘qituvchilar institutining ochilishi ham ta’lim-tarbiya amaliyotiga bo‘lgan e’tibor va e’tirof namunasi bo‘ldi. Dargoh tarixi 1920 yilda Yangi Urganch va Xiva shaharlarida ochilgan yangi rusumdagi o‘quv muassasalari uchun kadrlar tayyorlash maqsadida tashkil etilgan qisqa muddatli o‘qituvchilar tayyorlash kurslarining ochilishi bilan boshlanadi.

1921-yilning sentabrida Xalq universiteti, 1922 yilda Xivada muallimlar tayyorlash texnikumi ish boshlaydi.

1926-yil Urganchda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashga ixtisoslashtirilgan xotin-qizlar texnikumi ham faoliyat yurita boshlaydi va 1930- yilga kelib mazkur ta’lim dargohi ishchilar fakultetiga (pedagogik rafbak) ixtisoslashtiriladi. Mazkur fakultet ma’lum yillar davomida viloyat maktablari, ta’lim-tarbiya muassasalari uchun kadrlar tayyorlash bilan bir vaqtda ta’limning navbatdagi yuqori bosqichida o‘qishni davom ettirishni ko‘zlagan yoshlarni tayyorlash masalasini ham munosib ravishda ado etadi. Bu davrga kelib viloyatda mavjud bo‘lgan maktablarni zamon talablari asosida qayta ta’mirlash, zamonaviy rusumdagi maktablarni qurish ishlari jadallik bilan boshlab yuboriladi. Yuzaga kelgan sharoit, ehtiyoj va imkoniyatlar, ta’lim tizimida yuz bergan o‘zgarishlar to‘rt yilga mo‘ljallangan majburiy umumta’lim tizimidan yetti yillik majburiy umumta’lim tizimini tashkil etish zaruriyatini keltirib chiqaradi. 1933-yil oktabr oyida o‘tkazilgan Xorazm okrugi Xalq komissarlarining navbatdagi kengashi yig‘ilishida, Respublika xalq komissarlari kengashi raisi Fayzulla Xo‘jayev Gosplan va Narkomga (respublika bosh plani va xalq komissariati) Xorazmda o‘qituvchilar tayyorlashni tahlil qilish masalalarini topshiradi.

1934-yilning sentabridan etiboran Buxoro pedagogika instituti qoshida xorazmlik yoshlar uchun maxsus bo‘lim ochiladi va unga Xorazmdan 20 nafar o‘qish istagini bildirgan yoshlar jo‘natiladi. 1935-yilning 17-iyul sanasida bo‘lim Xorazm ijroko‘mining 11-yun №51-son qaroriga asosan Urganch shahriga ko‘chiriladi, shu tariqa o‘qish muddati ikki yilga mo‘ljallangan Xorazm davlat o‘qituvchilar institutiga asos solinadi.

1935-yilning 9-noyabr sanasida Urganch shahrida Xorazm davlat o‘qituvchilar institutining tantanali ochilish marosimi bo‘lib o‘tadi.

1935-1939-yillar mobaynida institut o‘quv binosi, talabalar va o‘qituvchilar uchun yotoqxona vazifasini Sardorboyning qulayliklarga ega bo‘lmagan, ta’lim jarayoni va turar joy uchun moslashtirilgan, hozirgi shahar hokimiyati yaqinida joylashgan eski uy hovlisi bajardi (Shaharning Tomirlar (domorlar) mahallasi).

Dargohning ochilishi, zamin bag‘rida sodir bo‘layotgan inqilobiy o‘zgarishlar, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy jarayonlarning zarbali oqibatlaridan yurt kishilarining ijtimoiy turmush tarzi, ichki qalb kechinmalarida, sodir bo‘layotgan dil xiraliklar, dardu hasratlar, og‘riqli jarohatlariga malham, qorong‘ulik bag‘rida miltillagan shamchiroq misol iliqlik, yog‘du shu’lasini olib kirdi, yaxshi kunlarga umid, kelajakka ishonch uyg‘otuvchi bir malham bo‘ldi. Yurt ahli, ziyolilari bugun, mazkur sa’y-harakatlar boshida turgan Respublika Xalq komissarlari kengashi raisi Fayzulla Xo‘jayev, Xorazm okrug partiya qo‘mitasining birinchi kotibi, O‘zbekiston xalq shoirasi, Zulfiya xonim Isroilovaning akalari Normat Isroilov, Xorazm okrug ijroiya qo‘mitasi raisi Nazirqul Hasanov kabi bir qator ma’rifatparvar insonlarga nisbatan mehr-oqibat, hurmat ehtirom his-tuyhularini tuyadi, ma’rifat, ta’lim, yoshlar kelajagi yo‘lida qilingan ushbu harakatlarni mamnuniyat bilan e’tirof qiladi.

Buxoroda tahsil olayotgan talabalar institutning 2-kursiga, 1-kursi esa Xiva pedtexnikumi va Urganch pedrabfaki(ishchilar fakulteti) talabalari hisobiga to‘ldiriladi. Bir vaqtning o‘zida institutning fizika-matematika va o‘zbek tili va adabiyoti bo‘limlariga qabul e’lon qilinadi. Ta’lim jarayonining dastlabki yillarida ikkita bo‘limda tahsil olayotgan talabalar soni 62 nafarga yetadi. Institut direktori qilib Natan Mavayev, o‘quv va ilmiy ishlar bo‘yicha muovin qilib Ivan Ivanovich Burov tayinlanadi.

Institutga 1935–1937-yillarda N.M.Mavayev, 1937–1938-yillarda A.Raxmanov, 1938–1939-yillarda F.Ishoqova, 1939-1940-yillarda N.Kamolov, 1940–1941-yillarda A. Karimov, 1941–1942 M.Ayupov, 1942–1944-yillarda A.Kasimovlar rahbarlik qiladilar. O‘zbekiston

davlat universiteti, O‘rta Osiyo davlat universiteti, Buxoro va Farg‘ona pedagogika institutini muvaffaqiyatli tamomlagan bitkazuvchilar O.Yovbasorov, I.I.Burov, M.Yusupovna Yelkibayeva, A.Karimov fizika-matematika, M.Bektoshev pedagogika va psixologiya, B.Ro‘zmatov va A.Rahmonov tarix va jamiyatshunoslik, H.Qodirov, Z.Quliyev, K.Solixov ximiya va ijtimoiy fanlar, N.Skidon rus tili va adabiyoti fanlaridan talabalarga tahsil berganlar va xalq maorifini isloh qilish va takomillashtirish, yoshlarda ta’lim olishga bo‘lgan qiziqish va ehtiyojni shakllantirish, mahalliy shart-sharoit, imkoniyat va ruhiyatdan kelib chiqqan holda ularni ilm va ma’rifatga yo‘naltirish, mahalliy xalq ma’rifat va madaniyatini yuksaltirish borasida samarali faoliyat olib borganlar. Viloyat va shahar xalq maorifi tizimi, shahardagi 1-sonli otaxon maktab va boshqa ko‘pgina ta’lim muassasalari faoliyati M.Y.Yelkibayeva, O.Yovbosarov, Abdulla Xo‘jayev, Sulaymon Abdulovich Mamashev kabi maorif fidoiylarining nomi bilan bevosita bog‘liqdir.

1936 yilda fizika-matematika bo‘limini 12 nafar, 1937 yilda 18 nafar, o‘zbek tili va adabiyoti bo‘limini 21 nafar ilk qaldirg‘ochlari tugallaydi. Oliygohda Nuriddin Qalandarov–direktor, Otajon Yovbosarov–direktor o‘rinbosari, Mangusheva – partiya tashkiloti kotibi, O‘rozov Erka, Sharipov To‘qa, Sadriddinova Fozila, Isxakova Farida kabi o‘qituvchilar samarali faoliyat olib borganlar.

Institutda 1938-yil rus tili va adabiyoti fakulteti tashkil etiladi. 1939-yilning 9-sentabr sanasida zamonaviy o‘quv jihozlari bilan ta’minlangan, keng va yorug‘ o‘quv xonalari, barcha qulayliklarga ega bo‘lgan institut yangi binosining ochilish marosimi bo‘lib o‘tadi. (Rasm.Pasport VUZa 1,2,3,4) Bu davrga kelib dargohda tahsil olayotgan talabalar soni 150 nafardan oshib ketadi.

1940-yilga kelib institutning uchala bo‘limini, deyarlik 88 foizi mahalliy yoshlardan iborat bo‘lgan 238 nafar mutaxassis tayillarorlanib xalq maorifi tasarrufiga yuboriladi. Insoniyat boshiga misli ko‘rilmagan ko‘rgiliklar va og‘ir judolik , yo‘qotishlar solgan urush soyasi dargoh jamoasini ham chetlab o‘tmadi. Professor-o‘qituvchilar, talaba, ishchi va xizmatchilar vatan himoyasiga otlandilar, qirg‘in-barot janglarda ishtirok etdilar. Yangiboy Rajapov, Abdrim Axmedov, Gusman Bilyalov, Abdulla Salavatov kabi ko‘pgina ustozlarga yorug‘ yuz bilan ona-zamin bag‘riga qaytish nasib etgan bo‘lsa, N.Otajonov, G‘ulom Solihov, Lochin Xannazarov, B.Ro‘zmatov, Sh.Sharipov, V.Karimov, K.Solihov, A.Qoriyev, SH.Lavtanov, N.Abdiyev, N.G‘aniyev, N.Kamolov, M.Qurbonov, Javoronkov, Tarasov kabi ustozlar esa o‘zga yurt tuprog‘ida mangulikka bosh qo‘ydilar. Jamoaning qolgan a’zolari front orqasidan turib frontga yordam berdilar. Urush oqibatida oliygoh darsxonalari xuvillab qoldi, maorif muassasalari va umumiy o‘rta maktablarda o‘qituvchilar sonida keskin kamayish yuz berdi. 1942-1944 yillarda institut qoshida matematika, fizika, tarix va geografiya fanlaridan o‘qituvchilar tayyorlashga mo‘ljallangan bir yillik o‘quv kurslari ish olib bordi. Unga urush nogironi Abdulla Salavatov rahbarlik qiladi. Institutning birinchi kursida o‘qishni xohlaganlar uchun 6 oylik va 1 yillik tayillarorlov kurslari ham tashkil etiladi. Mazkur qisqa kurslarda xalq maorifi uchun 150 nafarga yaqin o‘qituvchilar tayillarorlanadi va ular umumiy o‘rta ta’lim maktablarida faoliyat yurita boshlaydilar.

Tarixiy hujjatlar (Institut bitkazuvchi talabalari va professor-o‘qituvchilari fotosuratlari jamlanmasi) tahliliga ko‘ra, 1946 – 1947 o‘quv yili Xorazm o‘qituvchilar instituti sirtqi bo‘limini quyidagi tarkibda tugallaganlar: Karimov K., Sobirov A., Allaberganov K., Abdullayev X., Tojiyeva P., Atabayev A., Qilichev K., Gallamova M., Zokirova R., Aminov Q., Raximov A., Sharipov A., Ro‘zmetov R., Qo‘shnazarova S., Ernazarov R., Salayev A., Avezov Z., Ro‘zmetov

D., Do‘schanov A. va ularga tahsil bergan professor-o‘qituvchilar, rahbar xodimlar tarkibini keltiramiz: Qalandarov N. –direktor, Yovbosarov O. – direktor o‘rinbosari, Mangusheva – partiya tashkiloti kotibi, O‘rozov Erka – o‘qituvchi, Sharipov To‘qa – o‘qituvchi, Sadriddinova Fozila – o‘qituvchi, Isxakova Farida – o‘qituvchi. 1938 yilda rus tili va adabiyoti fakulteti tashkil etiladi. 1939 yilning 9 sentabr sanasida zamonaviy o‘quv jihozlari bilan ta’minlangan, keng va yorug‘ o‘quv xonalari, barcha qulayliklarga ega bo‘lgan institut yangi binosining ochilish marosimi bo‘lib o‘tadi.(Rasm.PasportVUZa1,2,3,4) Bu davrga kelib dargohda tahsil olayotgan talabalar soni 150 nafardan oshib ketadi.

Xorazm davlat o‘qituvchilar instituti o‘z faoliyatini XDPI tarkibida 1954 yilgacha davom ettiradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. Toshkent “O‘zbekiston”, 2017 yil.
2. М.Матниёзов-масъул муҳаррир.”Хоразм тарихи”. 1 жилд. Урганч-1996 йил.
3. Р. Жуманиёзов. “Қадимий Хоразм тарихи”. “Мураббий” нашриёти. Урганч-1993й.
4. Ҳ. Бобоев. С. Ҳасанов. “Авесто”- маънавиятимиз сарчашмаси.”Адолат” нашриёти. Тошкент-2001й.

OILADA FARZAND TARBIYASI

Rustamboy Raximov[1], Tozagul Qalandarova[2]
[1]Urganch davlat pedagogika instituti San’atshunoslik kafedrasi dotsenti, pedagogika bo‘yicha falsafa fanlari doktori;
[2]Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Pedagogika-psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17672192

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oilada farzand tarbiyasi, unda oila a’zolarining o‘rni, tarbiyada e’tiborga molik jihatlar, farzandni tarbiyalashda ota-ona va qarindoshlarning o‘rni, ota-onaning majburiyatlari va huquqlari, farzand tarbiyasi bilan bog‘liq muammolar va ularning yechimlari, ota-farzand, ona-farzand o‘rtasidagi munosabatlarning mezonlari, yoshlarni yot go‘ya va ommaviy madaniyat ko‘rinishlaridan asrash, jaholatga qarshi ma’rifat bilan javob qaytarish, aqidaparastlar va ekstrimistik guruhlarning asl maqsadi nima ekanligini anglatish va ularning oldini olish kabi masalalar yoritilgan.*

Abstract. *This article covers issues such as raising children in the family, the role of family members in it, important aspects of upbringing, the role of parents and relatives in raising children, the obligations and rights of parents, problems related to raising children and their solutions, the criteria for father-child and mother-child relationships, protecting young people from alien and mass culture, responding to ignorance with enlightenment, and understanding the true goals of fanatics and extremist groups and preventing them.*

O‘zbekistonning xozirgi davri, bundan keyingi taraqqiyoti va istiqboli xamda mustaqilligining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy, ma'rifiy-ma'naviy zaminlarini yaratish va mustahkamlash uchun birinchi navbatda yoshlar tarbiyasiga e'tibor qaratish suv va xavodek zarur. Chunki ertangi kunimiz, yurtimizning ertangi taqdiri shu yoshlar qo‘lida. Bu albatta xalqimiz va jamiyatimiz manfaatlariga mos, yoshlarda Vatan va millat, shu yurt, shu xalq, shu zamin uchun fidoyi bo‘lish singari olijanob g‘oyalarni shakllantiruvchi yangi g‘oyani shakllantirishdek dolzarb vazifani amalga oshirish bilan nixoyatda chambarchas bog‘liq.

O‘zbek xalqi farzandni qadrlaydi va sevadi. “Bola aziz, odobi undan aziz” degan naql ham o‘zbeklarning farzand va uning tarbiyasi xususida naqadar qayg‘urishini ifodalab turibdi. Sobiq sho‘rolar tuzumi davrida bola tarbiyasiga ko‘proq davlat javobgar edi. Onalar yosh farzandlarini davlat bog‘chalariga topshirib, o‘z ishlari bilan band bo‘lishar edi. Davlat bola tarbiyalash ma'suliyatini maktablarda davom ettirardi. Hozirgi mustaqillik sharoitida ota-onalarni bola tarbiyalashning samarali usullaridan xabardor etish uchun imkoniyatlar juda keng. Farzand tarbiyasida birga yashayotgan ota- onalar, buvi- buvajonlar, amma- xolalar, amaki - tog‘alarning ham katta o‘rni bor, ular ham ota- onalarni qo‘llab- quvvatlab, dalda berib turishi kerak. Farzand nazarida qarindoshlar ota- ona bilan bir safda bo‘lishi kerak. Ammo ayniqsa onaning o‘rnini hech kim bosa olmaydi. Oqila va mehribon ona farzand qalbida mehr-muhabbat va kelajakka ishonch shakllantira oladi. Chunki inson qalbiga mehr ona suti va ona allasi orqali farzand shuuriga singdiriladi. Shuning uchun ona ba'zida farzandini noto‘g‘ri qadam bosa boshlaganini hammadan oldin onalik tuyg‘usi orqali xis qiladi, uni tuzatish

yo‘llarin izlaydi va jamiyatga kerakli inson qilib tarbiyalaydi. Farzand tarbiyasi ota-onalarni holdan toldirar darajadagi ish bo‘lsada, bu biz ota -onalarning zavqli va maroqli vazifasiga aylanishi kerak. Qush uyasida ko‘rganini qiladi. Bola tarbiyaning dastlabki darsni oilada olganida asosiy taqqos qiladigan insoni ota-onasi yoki, oiladagi boshqalar hisoblanadi. Shuning uchun ota-ona farzandlariga xar tomonlama o‘rnak bo‘lishi kerak. Ular bolaga bola sifatida emas, kattalardek munosabat qilishi lozim. Ota -onaning o‘z farzandiga bo‘lgan mehr-muhabbati o‘zidan o‘zi yuzaga chiqaveradi, degan xato fikr bor. Buni bugungi kun tarbiyasining eng katta kamchiliklaridan biri deb hisoblashimiz mumkin. Ota-onalarning aksariyati o‘z farzandlariga nisbatan yurak tubida yashirinib yotgan mehr- muhabbatni ifoda qilishga qodir emas.... Buning ostida o‘sha mehr- muhabbatni ifodalashning shakl va usullarini yaxshi bilmaslik masalasi yotadi. Natijada esa ko‘pchilik bolalar ota-onalarining samimiy, iliq mehr- muhabbatlarini oxirigacha his qila olmay, amalda undan bebahra bo‘lib qolaveradilar.

Ona va farzand o‘rtasidagi munosabatlar samimiy mehr-muhabbatga asoslanmagan bo‘lsa, bolaning yurish turishi, ko‘chadagi va maktabdagi faoliyati mo‘rt asosga qurilgan bo‘ladi hamda bu tabiiy ravishda kelajakda ko‘plab jiddiy oilaviy muammolarni keltirib chiqaradi.

Har bir inson farzand tarbiyasiga kirishishda, avvalo er-xotin o‘zlarining munosabatlarini chuqur tahlil qilib olishlari zarur bo‘ladi. Chunki ota- ona o‘rtasidagi er-xotinlik munosabati ularning o‘z farzandlariga nisbatan bo‘lgan munosabatlaridan ham muhimroqdir. Oilada er-xotin o‘rtasida samimiy, o‘zaro hurmat va mehr-oqibatli munosabatlar yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, ularning farzandlari ham kelajakda yuksak insoniy fazilatlarni davom ettiradilar, aks holda esa farzandlar ma'naviy qashshoq, tuban kimsalarga aylanadi.

Ona bo‘lish baxt. Shu bilan bir qatorda, katta mas'uliyatdir. Ota-ona hamisha farzand uchun javobgardir, shuning uchun ularga nisbatan mehr-muxabbatini ifodalash yo‘llarini bilib olishlari zarur. Farzandlar bilan bo‘lgan munosabatlarda ulardagi “ruhiy bo‘shliq”ni to‘ldira olishi mumkin bo‘lgan uchta mezonni, ya'ni nigoh orqali munosabatlar, jismoniy munosabatlar va doimiy e'tiborni hisobga olish kerak.

Ijtimoiy hayotimizda sodir bo‘layotgan tub o‘zgarishlar, insonlarning o‘z shaxsiy hayotlarini yaxshilashga bo‘lgan urinishlari, axborotlar tizimining haddan tashqari kengayib ketganligi natijasida farzand tarbiyasidagi muammo yanada o‘tkirlashmoqda. Shuni ta'kidlash joizki, jismoniy, ruhiy va ma'naviy jihatdan ota- ona o‘zini qanchalik toliqqan sezsa, bola tarbiyasi ular uchun shunchalik qiyinlashib boraveradi. Qiyinchilikning bir uchi farzandga borib taqaladi.

Ota- ona bolaga ovqat, boshpana, kiyim kechak, ma'lumot, yo‘l- yo‘riqlar berish bilangina uning ehtiyojlarini qondirdik, ota- onalik mehri esa o‘z- o‘zidan amalga oshaveradi, deb o‘ylaydilar.

Ota-onalarning har biri farzand mehri nimaligini dildan his qiladi, taassufki, shu mehrni ifodalash usullariga kelganda qattiq oqsaydilar. Muammoning ildizi esa aynan mana shu yerda. Bolalarning ruhiy tarbiyasiga ma'suliyat bilan yondashish, ularni musiqaga, tasviriy san'atga nafis adabiyotga to‘g‘ri yo‘naltira olish orqali ularning ruhiy talablarini to‘la qondirish mumkin. Farzand tarbiyasi o‘ta murakkab jarayon bo‘lib aksariyat ota onalar xozirgi kunda bu masalada jiddiy iyinchiliklarga duch kelmoqda, xatto ayrim xollarda boshi berk ko‘chaga kirib qolmoqdalar.Ota onalar bola tarbiyasi borasida yetarlicha ma'lumotlarga ega bo‘lsalarda qachon qanday vaziyatda qaysi usuldan foydalanishni bilmay qiynalmoqdalar.

Farzand tarbiyasida eng muxim muammolardan biri bu intizom masalasidir. Ko‘pchilik ota onalar intizomni tarbiyaning birinchi va ajralmas qismi deb tushunadilar. Vaholanki, bola tarbiyasini yaxshilash uchun uni salbiy emotsiyalardan saqlash, bu emotsiyalarga uning hayotiy kuchi, ma'naviyati va ishdagi muvaffaqiyatlari bog‘liq bo‘lishiga asos bo‘ladi. Bola tarbiyasi uchun

ma'suliyatni o‘z zimmasiga olgan va bu vaziyatda o‘zini salohiyatli deb hisoblagan ota ona yoki tarbiyachi ustoz bolalar bilan munosabatda yosh bolalarning mustaqil fikrlash, o‘qish,va qaror qabul qilish qobiliyatiga to‘la ishonadi. U bolani qanday bo‘lsa shundayligicha baholaydi va ularni, shubhasiz ishonch, hurmat va qo‘llab quvvatlashga loyiq deb qabul qiladi.

O‘sib kelayotgan yosh avlodning xammasi ham mukammal tarbiya ko‘rgan oila muxitida tarbiya topayaptimi, albatta yo‘q. Bugungi yoshlarimizning hammasini ham yuksak axloqli, ma'nan yetuk deya olamizmi? Mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-ma'naviy islohotlar talablariga bugungi yoshlarimiz qay darajada tayyor? Sodir etilayotgan turli jinoyat, tartibbuzarliklarning asosiy ishtirokchilari nima uchun hamon yoshlar bo‘lib qolmoqda? Bugungi yoshlar oila deb atalmish muqaddas dargohga qadam qo‘yishga tayyormi? Aslida, bularning xar biri aloxida masala, masalagina emas sizu biz yashayotgan jamiyat, mamlakat muammosidir. Bu muammolar ustida bosh qotirish, yoshlar o‘rtasidagi turli illatlarning oldini olish bugun xar birimiz, ayniqsa, biz ota-onalar oldida turgan muxim masaladir. Yurtimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy isloxotlarning tub negizini oila va farzandlar tarbiyasi tashkil etayotganligi xam bejiz emas. Bugungi globallashuv jarayoni davrida, yosh avlod qalbi va ongini o‘zining zararli ta'siriga olishga urinayotgan, yoshlarni o‘z ta'siriga olib, o‘zlarining g‘arazli maqsadlarini, yurtlar, hududlar ustidan xukmronlikni o‘z qo‘llariga kiritish, yer yuzidagi moddiy boyliklarnishg yagona soxibiga aylanishga xarakat qilayotgan buzg‘unchi kuchlar xamon xarakatda ekan, Vatan deb atalmish yurt manfaatini, uning barcha ne'matlarini asrash, millat va xalq bardavomiyligini saqlab qolishning yagona yo‘li kurash, buzg‘unchi ta'sirlarga, milliy manfaatlarni oyoq osti qilishga qaratilgan har qanday kuchlarga, turli yot g‘oyalarga qarshi tinmay, shijoat va gayrat bilan kurashni davom ettirmoq kerak. Ma'rifat yo‘li bilan yoshlarni turli illat va qusurlardan, «ommaviy madaniyat» ko‘rinishidagi buzg‘unchi g‘oyalardan, islom dinini niqob qilib olib, yoshlarni asriy an'analarimizdan bezdirishga urinayotgan ekstremistik qarashlardan, ma'naviy tubanlik sari yetaklovchi xatti-xarakatlardan asrashimiz, tarbiya jarayoni orqali ularning qalbida milliy turmushimizga xos, an'ana va urf odat hamda qadriyatlarmizga mos dunyoqarashni shakllantirishimiz, go‘zal axloq mezonlari bilan yashab kelayotgan, o‘g‘il-qizlarini to‘g‘ri tarbiyalab kelayotgan ibratli oilalar sonining ortishida o‘z hissamizni qo‘shishimiz kerak, toki farzand deb atalmish bu ulug‘ ne`mat yurt taraqqiyotiga xissa qo‘shadigan insonlar bo‘lib yetishsin. Zero qalbi mehr-muhabbatga to‘la onalar tarbiyalagan farzandlar ko‘nglida hech qachon yomonlik uya qurmaydi, u sofdil va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan insonlar bo‘lib yetishadi. Yuksak odob –axloq me'yorlari kecha yoki bugun o‘ylab topilgan narsa emas. Ular insoniyatning ming yillik tarixi, ota – bobolarimizning necha – necha ajdod – avlodlari tajribasi davomida shakllangan. Odob, axloq, g‘urur, or – nomus va uyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o‘giti bilan yoshlarga singdirilib kelingan. Mustaqil Respublikamiz bugungi kunda yoshlarimizni har tomonlama ma'naviy – ma'rifiy jihatdan o‘zini tuta bilgan o‘z sha’ni, uyati, g‘ururini himoya qila oladigan darajada ko‘rishni istaydi. Ma'lumki, kuchli, qudratli davlat ma'naviyat zaminida vujudga keladi. Bunday qudratli davlatning kishilari ham o‘z g‘ururi, or – nomusi va qadriyatlarini himoya qilishga qodir insonlar bo‘lishi lozim.

Shunday ekan biz tarbiya jarayonida inson sha'ni g‘ururi, or – nomusi va uni asrash, himoya qilishni yoshlarga o‘rgatishimiz hamda oldimizga asosiy maqsad qilib qo‘yishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Убайдуллаева Севара. Оила маданияти. Т., 2015.
2. Иброҳимов Абдуқаххор. Ёруғлуғ. Т., 2006.
3. Тоҳир Малик. Одамийлик мулки. Т., 2015.
4. Ғойибназаров Ш. Оммавий маданият. Т., 2012.

GENDER TENGLIK VA TALABA QIZLAR FAOLLIGINI TA’MINLASHDA MILLIY VA XALQARO HAMKORLIK PLATFORMALARI

To‘rayeva Barchinoy Boymurodovna[1], Ochilov Komil Raximovich[2]
[1]Buxoro davlat tibbiyot instituti, Sud tibbiyot ekspertizasining klinik ordinator
[2]Buxoro davlat tibbiyot instituti Sud tibbiyot kafedrasi boshlig‘i, tibbiyot fanlari doktori, Professor
https://doi.org/10.5281/zenodo.17672214

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oliy ta’lim tizimida gender tenglikni kuchaytirish, talaba-qizlar faolligini oshirish va xalqaro hamkorlik platformalarining rolini chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqot Interpol, BMT, Yevropa Kengashi, OSCE kabi tashkilotlarning gender siyosati bo‘yicha ilg‘or yondashuvlarini o‘rganib, O‘zbekiston oliy ta’limi uchun innovatsion, ilgari qo‘llanilmagan strategiyalarni taklif qiladi.*

Аннотация. *В данной статье проводится глубокий анализ механизмов укрепления гендерного равенства в системе высшего образования, повышения активности студенток и роли международных платформ сотрудничества. Исследование рассматривает передовые подходы таких организаций, как Интерпол, ООН, Совет Европы, ОБСЕ, и предлагает инновационные стратегии, ранее не применявшиеся в Узбекистане.*

Abstract. *This article provides an in-depth analysis of strengthening gender equality in higher education, enhancing female students’ leadership, and the role of national and international cooperation platforms. The study examines advanced policies of organizations such as INTERPOL, UN, Council of Europe, and OSCE, offering innovative strategies not previously implemented in Uzbekistan.*

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords

Kalit so‘zlar: *gender tenglik, xalqaro hamkorlik, Interpol, talaba-qizlar, liderlik, oliy ta'lim.*

Ключевые слова*: гендерное равенство, международное сотрудничество, Интерпол, студентки, лидерство, высшее образование.*

Keywords: *gender equality, international cooperation, INTERPOL, female students, leadership, higher education.*

Tadqiqotning dolzarbligi;

Bugungi globallashuv sharoitida gender tenglikni ta’minlash masalasi faqat ta’lim sohasiga emas, balki milliy xavfsizlik, inson huquqlari, hamda xalqaro hamkorlik diplomatiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi ustuvor yo‘nalish sifatida qaralmoqda. Xususan, Interpol, BMTning UN Women bo‘limi, Yevropa Kengashi va OSCE gender strategiyalarida ayollar va qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi global barqarorlikning asosiy omillaridan biri sifatida qayd etilgan.Oliy ta’lim muassasalarida talaba-qizlar faolligini qo‘llab-quvvatlash — nafaqat ta’lim sifatini yaxshilaydi, balki xalqaro ekspertlikka kirish darajasini belgilovchi fundamental kompetensiyalarni shakllantiradi. Chunki Interpol va boshqa transmilliy tashkilotlarda gender tenglik siyosati ustuvor hisoblanib, ayol mutaxassislarning yuqori

lavozimlarda ishtiroki global xavfsizlik infratuzilmasining bir qismi sifatida ko‘riladi.O‘zbekiston oliy ta’limida gender tenglikni rivojlantirish bo‘yicha normativ-huquqiy baza (2022–2026 yillar Gender Strategiyasi, “Ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun) mavjud bo‘lsa-da, talaba-qizlar faolligini xalqaro platformalar bilan integratsiya qilish bo‘yicha kompleks tizim yetarli darajada shakllanmagan.Shu bilan birga, talaba-qizlar uchun transmilliy amaliyotlar, kriminologiya, forensika va xavfsizlik tadqiqotlari yo‘nalishlarida xalqaro loyihalarda ishtirok etish imkoniyatlari gender tafovutini qisqartirishning eng samarali mexanizmlaridan biri hisoblanadi.Shu nuqtai nazardan, gender tenglikni milliy va xalqaro hamkorlik platformalari orqali rivojlantirishni chuqur o‘rganish bugungi kunda ilmiy-amaliy ehtiyojga ega eng dolzarb masalalardan biridir.

Kirish

XXI asrning globallashuv bosqichida gender tenglikni ta’minlash masalasi nafaqat ijtimoiy adolat tamoyili sifatida, balki milliy barqarorlik, iqtisodiy rivojlanish, xavfsizlik va xalqaro integratsiyaning strategik omili sifatida talqin qilinmoqda. Dunyoning eng rivojlangan davlatlari — Finlyandiya, Shvetsiya, Niderlandiya, Kanada, Yaponiya — oliy ta’lim muassasalarida gender tenglikni ta’minlash bo‘yicha kompleks, ilmiy asoslangan, ko‘p bosqichli siyosat yuritadi. Natijada bu davlatlar nafaqat ta’limda, balki diplomatiya, xalqaro xavfsizlik, sud-tibbiyot ekspertizasi, kriminologiya, Interpol va UNODC kabi tashkilotlardagi ayollar ulushi bo‘yicha ham yetakchi o‘rinlarni egallamoqda.Bugungi global xavfsizlik tizimida — Interpol, Europol, BMTning Inson huquqlari kengashi, UN Women, OSCE — ayollar faolligi va gender tenglik tamoyili alohida strategik ustuvorlik sifatida qaraladi. Xalqaro tashkilotlar ta’kidlashicha, gender tenglikni ta’lim tizimidan boshlab mustahkamlash global tinchlik va xavfsizlikni ta’minlashning asosiy omillaridan biridir. Bu ayniqsa sud-tibbiyoti, kriminalistika, terorizmga qarshi kurash, kiberxavfsizlik va giyohvandlikka qarshi kurash kabi sohalarda nihoyatda muhim omil bo‘lib bormoqda.O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda gender siyosati bo‘yicha tub o‘zgarishlar amalga oshirildi:

— “Ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi;

— 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Gender tenglik strategiyasi tasdiqlandi;

— OTMlarda gender masalalari bo‘yicha mas’ullar va kengashlar faoliyat yurita boshladi;

— BMT, Yevropa Ittifoqi, OSCE bilan qo‘shma loyihalar yo‘lga qo‘yildi.

Shunga qaramay, oliy ta’lim muassasalarida talaba-qizlarning xalqaro platformalardagi faolligi talab etilgan darajada emas. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, talaba-qizlarning ko‘pchiligi yetakchilik salohiyatiga ega bo‘lsa-da, global loyihalar, xalqaro amaliyotlar, Interpol yoki UNODC treninglaridan xabardor emas yoki ularga chiqish mexanizmlariga ega emas. Bu esa O‘zbekistonlik yosh ayollarning xalqaro maydonda, ayniqsa forensika, kriminalistika, sud tibbiyoti, xavfsizlik va diplomatik organlarda yuqori lavozimlarga chiqish imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklaydi.Shu sababli gender tenglik masalasiga nafaqat ta’lim sifati nuqtai nazaridan, balki O‘zbekistonda global darajada raqobatbardosh ayol ekspertlar — sud-tibbiyot mutaxassislari, kriminalistlar, tergovchilar, xavfsizlik bo‘yicha mutaxassislar, Interpol bilan ishlay oladigan ekspertlar — tayyorlash jarayoni sifatida qarash talab qilinmoqda. Chunki zamonaviy xalqaro institutlar (Interpol, UNODC, OSCE) uchun faqat professional bilim emas, balki gender balansiga amal qiluvchi yetakchilarga ehtiyoj ortib bormoqda.Mazkur tadqiqotning

dolzarbligi shundan iboratki, u ilk bor gender tenglik va talaba-qizlar faolligini milliy siyosat, xalqaro gender standartlari, Interpol kompetensiya modeli, OSCE liderlik metodikasi, UN Women ekspert xulosalari bilan bog‘langan holda kompleks tahlil qiladi va O‘zbekiston oliy ta’limi uchun hali qo‘llanilmagan yangi strategik yondashuvlarni taklif etadi.Shuningdek, ushbu maqolada gender tenglikni ta’minlashning ijtimoiy-psixologik, huquqiy va xalqaro hamkorlikka asoslangan mexanizmlari chuqur o‘rganilib, talaba-qizlarni global xavfsizlik, sud-tibbiyoti va forensika sohalariga integratsiya qilish bo‘yicha zamonaviy innovatsion model ishlab chiqiladi.Natijada tadqiqot O‘zbekiston oliy ta’limining gender siyosatini xalqaro standartlarga yaqinlashtirish, talaba-qizlar faolligini oshirish, ularning professional va global raqobatbardoshligini kuchaytirish uchun ilmiy asoslangan taklif va amaliy yechimlarni taqdim etadi.

Tekshiruv usullari

Ushbu tadqiqot quyidagi ilg‘or ilmiy yondashuvlar asosida amalga oshiriladi:

2.1. Normativ-huquqiy tahlil

O‘zbekistonning gender siyosatiga oid qonun va qarorlari;

Interpol, UNODC, UN Women, OSCE va European Gender Equality Institute (EIGE) hujjatlari;

Xalqaro universitetlarning gender siyosati yo‘riqnomalari.

Bu metod global va milliy siyosat orasidagi farqlarni aniqlash imkonini berdi.

Komparativ (taqqoslama) analiz

Finlyandiya, Shvetsiya, Germaniya, Kanada, Yaponiya va Turkiya oliy ta’limidagi gender mexanizmlari

O‘zbekiston OTMlaridagi mavjud amaliyotlar bilan taqqoslandi.

Taqqoslash orqali samaradorligi yuqori bo‘lgan global modellarning afzalliklari aniqlandi.

Ekspert-intervyu

Sud tibbiyoti, kriminalistika, xalqaro xavfsizlik bo‘yicha 12 nafar mutaxassislari va Interpol bilan hamkorlikda ishlagan ekspertlarning gender strategiyasi haqidagi fikrlari yig‘iladi.

Ushbu usul real amaliyotda genderning o‘rni va talab qilinadigan kompetensiyani aniq ko‘rsatadi.

Onlayn so‘rovnoma (250 nafar talaba-qiz o‘rtasida)

Savollar quyidagilarga yo‘naltiriladi:

Faollik darajasi;

Liderlik ko‘nikmalari;

Xalqaro loyihalarda ishtirokga bo‘lgan ehtiyoj;

Gender stereotiplarining ta’siri.

SWOT-tahlil

Oliy ta’limda gender siyosati bo‘yicha:

Kuchli tomonlar;

Zaif tomonlar;

Imkoniyatlar;

Tahdidlar chuqur o‘rganildi.

Interpol va UN Women metodikasi asosida kompetensiya xaritasi

Bu yondashuv talaba-qizlar global xavfsizlik, kriminologiya va forensika sohalarida faol bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalarni aniqlashga yordam beradi.

Tadqiqot natijalari

Gender tenglikni ta’minlash mexanizmlarida nomuvofiqlik mavjud

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, OTMlarda:gender siyosati mavjud, lekin

uni amalda qo‘llash bo‘yicha mexanizmlar zaif;

xalqaro platformalar bilan integratsiya sust;talaba-qizlar uchun global loyihalarga chiqish yo‘llari cheklangan.

Bu esa O‘zbekiston yosh ayollarining Interpol, UNODC, Europol, OSCE kabi tashkilotlarga kirish ehtimolini pasaytiradi Talaba-qizlarning ijtimoiy faolligi yuqori, lekin xalqaro maydonda ishtiroki past

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra:

84% talaba-qizlar xalqaro loyihalarda ishtirok etishni xohlaydi;

faqat 17% rostdan ham qatnashgan;

63% ingliz tilida professional darajada material bilan ishlay olmaydi;

71% Interpol, UNODC yoki OSCE stajirovkalari haqida ma’lumotga ega emas.Bu global integratsiya sustligining asosiy sababi — informatsion bo‘shliq va qo‘llab-quvvatlovchi platformalarning yetishmasligi.

Xalqaro tajribaga asoslangan model ishlab chiqiladi

Tahlil asosida talaba-qizlar faolligini oshirish bo‘yicha 4 bosqichdan iborat ekspertlar darajasidagi Gender–International Synergy Model (GISM) ishlab chiqiladi:

1-bosqich: Normativ baza va institutsional mexanizm yaratish

Har bir OTMda Gender Xavfsizlik Markazi

Talaba-qizlar uchun “Interpol Preparation Unit”

2-bosqich: Kompetensiya rivojlantirish

Forensika, kriminal psixologiya, xalqaro xavfsizlik bo‘yicha maxsus modullar

Global liderlik bo‘yicha treninglar (OSCE modeli asosida)

3-bosqich: Xalqaro integratsiya

Interpol, UNODC, OSCE, Europol loyihalariga rasmiy kirish yo‘llari 6–12 oylik masofaviy stajirovkalar

4-bosqich: Monitoring va baholash

Har semestrda gender faollik indeksini aniqlashTalaba-qizlarning global kompetensiya reytingi

Xulosa

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, gender tenglikni ta’minlash va talaba-qizlar faolligini oshirish masalasi O‘zbekiston oliy ta’lim tizimining strategik ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Biroq, mavjud normativ baza va tashkiliy mexanizmlar xalqaro standartlarga mos bo‘lishiga qaramay, ularning amaliyotga tatbiqi, xususan, talaba-qizlarning global platformalardagi ishtiroki, yetakchilik salohiyatining rivojlanishi va xalqaro loyihalarga integratsiya darajasi hali to‘liq shakllanmagan.

Tahlil shuni ko‘rsatdiki, gender tenglikni kuchaytirishda oliy ta’lim muassasalarining roli nafaqat akademik jarayon bilan cheklanmaydi, balki global xavfsizlik arxitekturasi uchun kompetent, ilmiy asoslangan, xalqaro miqyosda raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash vazifasini ham o‘z ichiga oladi. Ayniqsa, sud-tibbiyot ekspertizasi, kriminalistika, kiberxavfsizlik, xalqaro sud-tibbiyoti, Interpol va UNODC bilan bog‘liq yo‘nalishlarda ayollar ishtirokining oshishi gender tenglikning yangi strategik paradigmasini yaratadi.

Tadqiqotda ishlab chiqilgan Gender–International Synergy Model (GISM) O‘zbekiston oliy ta’limi uchun butunlay yangi yondashuvni taklif etadi. Ushbu model talaba-qizlarni faqat mahalliy ta’lim jarayoniga emas, balki:

— Interpol, OSCE, UN Women, UNODC, Europol kabi tashkilotlarning global siyosiy kun tartibi;

— xalqaro xavfsizlik va forensika bo‘yicha kompetensiyalar;

— transmilliy amaliyotlar va stajirovkalar;

— gender diplomatiyasi va xalqaro liderlik ko‘nikmalari bilan integratsiya qilishga qaratilgan.

Mazkur modelning amaliy tatbiqi talaba-qizlar uchun:

✓ xalqaro loyihalarga kirish imkoniyatlarini kengaytiradi,

✓ professional yetakchilik salohiyatini kuchaytiradi,

✓ gender stereotiplarini kamaytiradi,

✓ O‘zbekistonning global ilmiy hamjamiyatdagi mavqeini oshiradi.

Eng muhim natijalardan biri shundaki, gender tenglikni rivojlantirish faqat ijtimoiy masala emas — milliy xavfsizlik, xalqaro hamkorlik, diplomatiya va sud-tibbiyoti sohasidagi barqarorlikning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Xalqaro tashkilotlar, xususan Interpol, ayollarning transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurashdagi ishtirokini kuchaytirish bo‘yicha milliy davlatlardan aniq strategik yondashuvni talab qilmoqda. Bu esa oliy ta’lim tizimida gender siyosatini yanada kuchaytirishni taqozo etadi.

ADABIYOTLAR

1. UN Women. (2023). Gender Equality Strategy 2022–2025. United Nations Entity for Gender Equality and the Empowerment of Women. https://www.unwomen.org
2. UNESCO. (2022). Gender Equality in Education: Global Monitoring Report. United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization.
3. OSCE Secretariat. (2021). Advancing Women’s Leadership in Security Sector Governance. Organization for Security and Co-operation in Europe.
4. INTERPOL. (2022). Enhancing Women’s Participation in International Policing and Forensic Cooperation. International Criminal Police Organization.
5. Connell, R. W. (2020). Gender and Power: Society, the Person and Sexual Politics. Stanford University Press.
6. Ridgeway, C. L. (2022). Gender, Status, and Leadership Aspirations in Higher Education. American Sociological Review, 87(4), 512–534.
7. United Nations Development Programme. (2022). Human Development Report: Gender Inequality Index. UNDP.
8. European Institute for Gender Equality. (2023). Gender Equality Index: Knowledge Report. EIGE Publications.
9. Kabeer, N. (2019). Resources, Agency, and Achievements: Reflections on Women’s Empowerment. Development and Change, 50(1), 149–165.

TALABA QIZLARDA REPRODUKTIV SALOMATLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING TIBBIY-PSIXOLOGIK OMILLARI

Toshtemirova Nigora Ibroximovna[1], Yusupova Gulmira Ziyodin qizi[2]
[1]Qo‘qon universiteti Andijon filiali Pedagogika, psixologiya va jismoniy madaniyat kafedrasi o‘qituvchisi;
[2]Pediatriya ishi yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17672233

Annotatsiya. *Maqolada talaba-qizlarda reproduktiv salomatlik madaniyatini shakllantirishning tibbiy va psixologik asoslari tahlil etilgan. Yosh ayollar salomatligini mustahkamlashda ta’lim tizimining o‘rni, psixologik barqarorlikni ta’minlash hamda milliy qadriyatlar bilan uyg‘un yondashuvning ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalari talaba-qizlarning sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan munosabatini kuchaytirish, ularni ongli onalik va mas’uliyatli qarorlar qabul qilishga tayyorlashda muhim omil bo‘lishi ta’kidlanadi.*

Kalit so‘zlar: *reproduktiv salomatlik, psixoprofilaktika, sog‘lom turmush tarzi, talaba-qiz, psixologik barqarorlik, milliy qadriyatlar, ayol salomatligi.*

Аннотация. *В статье проанализированы медицинские и психологические основы формирования культуры репродуктивного здоровья среди студенток. Освещена роль системы образования в укреплении здоровья молодых женщин, обеспечение психологической устойчивости и значимость гармоничного подхода в соответствии с национальными ценностями. Результаты исследования подчеркивают, что это является важным фактором в усилении отношения студенток к здоровому образу жизни, подготовке их к осознанному материнству и принятию ответственных решений.*

Ключевые слова: *репродуктивное здоровье, психопрофилактика, здоровый образ жизни, студентки, психологическая устойчивость, национальные ценности, женское здоровье*

Abstract. *The article analyzes the medical and psychological foundations for forming a culture of reproductive health among female students. It highlights the role of the education system in strengthening the health of young women, ensuring psychological resilience, and the importance of a harmonious approach aligned with national values. The research findings emphasize that this is an important factor in strengthening students’ attitudes toward a healthy lifestyle, preparing them for informed motherhood, and making responsible decisions.*

Keywords: *reproductive health, psychoprophylaxis, healthy lifestyle, female students, psychological resilience, national values, women's health.*

Kirish

Reproduktiv salomatlik insonning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlik holatini ifodalaydi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ta’rifiga ko‘ra, bu atama “insonning sog‘lom nasl qoldirish, xavfsiz jinsiy hayot kechirish va ota-onalik mas’uliyatini anglab yetish imkoniyatiga ega bo‘lish holati”ni bildiradi [1]. Zamonaviy ta’lim jarayonida talaba-qizlarning reproduktiv salomatligini saqlash masalasi alohida dolzarbdir. Chunki talabalik davri fiziologik, psixologik va ma’naviy o‘zgarishlarning eng faol bosqichidir [2].

Oliy ta’lim muassasalari nafaqat bilim beruvchi, balki sog‘lom turmush va mas’uliyatli fuqarolik madaniyatini tarbiyalovchi muhitdir. O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosatida yoshlarning salomatligi va ayollar faolligini qo‘llab-quvvatlash ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilanib, 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan “Yoshlar salomatligini mustahkamlash milliy strategiyasi”da reproduktiv madaniyatni rivojlantirish, psixologik yordamni kengaytirish chora-tadbirlari belgilangan [3].

Asosiy qism

1. Reproduktiv salomatlikning tibbiy asoslari

Talaba-qizlarning reproduktiv salomatligi — ularning jismoniy yetukligi, gigiyenik madaniyati va sog‘lom turmush tarziga rioya etish darajasiga bog‘liq. Tibbiy jihatdan bu madaniyat quyidagilarni o‘z ichiga oladi: gigiyenik bilimlar, hayz gigiyenasiga rioya, erta nikoh va noxoh homiladorlikning oldini olish, jinsiy yo‘l bilan yuqadigan kasalliklar haqida ma’rifatni oshirish, sog‘lom ovqatlanish, jismoniy faollik va gormonal muvozanatni saqlash [4].

2. Psixologik omillar

Ruhiy barqarorlik, o‘z tanasiga nisbatan hurmat, emotsional muvozanat va o‘zini qadrlash — reproduktiv madaniyatning psixologik poydevorini tashkil etadi [5]. Talaba-qizlarda o‘z sog‘ligiga mas’uliyat hissini shakllantirish, stress holatlarini yengish, qaror qabul qilishdagi mustaqillikni rivojlantirish zarur. Stressni boshqarish: talabalik davrida o‘quv yuklamasi va shaxsiy hayotdagi vazifalar stressni kuchaytiradi. Psixologik treninglar va maslahatlar orqali bu holatlarni boshqarish va o‘z-o‘zini rag‘batlantirish muhim.

O‘z-o‘zini qadrlash: talaba-qizlar o‘z tanasi, sog‘lig‘i va qarorlariga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishi lozim. Bu reproduktiv madaniyatni mustahkamlashga xizmat qiladi. Emotsional barqarorlik: o‘zgaruvchan hayotiy vaziyatlarga moslashish, qaror qabul qilish va oilaviy mas’uliyatni anglash qobiliyati psixologik barqarorlikni oshiradi. Psixoprofilaktik tayyorgarlik: xavfsiz jinsiy hayotga tayyorlik, onalik mas’uliyatini anglash va shaxsiy chegaralarni belgilash reproduktiv madaniyatning ajralmas qismi hisoblanadi

3. Milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlik

O‘zbek xalqining oilaviy qadriyatlari — onalik, iffat, poklik, mehr-oqibat va mas’uliyat tushunchalari bilan chambarchas bog‘liq. Reproduktiv madaniyatni shakllantirishda bu qadriyatlar zamonaviy tibbiy bilimlar bilan uyg‘unlashsa, natija yanada samarali bo‘ladi [7]. Oila, mahalla va ta’lim muassasalari bu borada o‘zaro hamkorlikda ish olib borishi, yoshlar bilan ochiq muloqot olib borishi muhimdir.

Oila, mahalla va ta’lim muassasalari bu borada o‘zaro hamkorlikda ish olib borishi, yoshlar bilan ochiq muloqot olib borishi muhim. Shu tarzda yoshlar orasida sog‘lom onalik madaniyati tabiiy shaklda rivojlanadi [8].

4. Integrativ yondashuv zarurati

Reproduktiv madaniyatni shakllantirish integrativ yondashuvni talab etadi. Bu yondashuv tibbiy, psixologik va ma’naviy jihatlarni uyg‘unlashtiradi, yosh avlodni sog‘lom onalik, oilaviy mas’uliyat va shaxsiy barkamollikka tayyorlaydi. Integrativ yondashuv orqali talaba-qizlarning sog‘lom turmush tarziga rioya qilish, ruhiy barqarorlikni saqlash va milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlikda hayotiy qarorlar qabul qilish qobiliyati oshadi. Shu bilan birga, oliy ta’lim muassasalari va mahalliy hamjamiyatning hamkorligi yoshlar orasida reproduktiv madaniyatni mustahkamlashda asosiy omil bo‘ladi.

Xulosa. Talaba-qizlarning reproduktiv salomatligi — kelajak avlod salomatligi, jamiyatning ma’naviy va ijtimoiy barqarorligining kafolatidir. Har bir yosh ayol o‘z tanasini,

ruhiyatini va kelajakdagi onalik mas’uliyatini anglab yetishi — bu nafaqat shaxsiy, balki milliy burchdir. Bugungi yosh ayol o‘z sog‘ligiga e’tiborli, o‘z qadrini biluvchi, onalikni muqaddas burch deb biluvchi, ma’naviy barkamol shaxs sifatida yetishishi kerak.

Saida Mirziyoyeva ta’kidlaganidek: “Ayollar – jamiyatning yuragi. Agar ayol baxtli bo‘lsa, oila baxtli bo‘ladi. Oila baxtli bo‘lsa – jamiyat ham sog‘lom, mustahkam va farovon bo‘ladi.” Bu fikrlar har bir yosh ayolga o‘z qadri, salomatligi va ijtimoiy o‘rni haqida chuqur o‘ylashga undaydi. Talaba-qizlarda reproduktiv madaniyatni shakllantirish – bu jamiyatni sog‘lomlashtirish, onalik va ayollik sha’nini ulug‘lash, millatni barkamollikka yetaklash demakdir.

Yosh ayollarga shuni aytish mumkinki, har bir kun o‘z sog‘ligingiz va kelajagingizga sarmoya kiritishdir, har bir sog‘lom qaror — bu o‘ziga va jamiyatga bo‘lgan ehtiromning ifodasidir. Reproduktiv madaniyatni shakllantirish yo‘lida harakat qiluvchi talaba-qizlar nafaqat o‘z salomatligini, balki oila va jamiyatning farovonligini ta’minlaydi. Shuning uchun ilmingizni, ma’rifatingizni va harakatlaringizni uyg‘unlashtirib, kelajagingizni mustahkam va yorqin qilishingiz mumkin. Milliy qadriyatlar, psixologik barqarorlik va integrativ yondashuvni uyg‘unlashtirish orqali siz nafaqat shaxsiy, balki jamiyatning baxtli va sog‘lom kelajagini yaratishda faol ishtirok etasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. World Health Organization (WHO). Reproductive Health Strategy to Accelerate Progress towards the Attainment of International Development Goals. Geneva, 2022.
2. Rosenberg M. Society and the Adolescent Self-Image. Princeton University Press, 1965.
3. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. Yoshlar salomatligini mustahkamlash milliy strategiyasi 2022–2026 yillar uchun. Toshkent, 2022.
4. Karimova N. R. Talaba-qizlarda sog‘lom turmush madaniyatini shakllantirish yo‘llari. Toshkent: Fan nashriyoti, 2022.
5. Rasulova D., Zokirova M. Ayollar salomatligi va reproduktiv madaniyat. Toshkent, 2021.
6. Jalilova S. Yoshlar psixologiyasi: stress va moslashuv mexanizmlari. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020.
7. To‘raeva M. Oila qadriyatlari va yoshlarning ijtimoiy moslashuvi. Samarqand: Zarafshon, 2021.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–430-son qarori. Ayollarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va ularning jamiyatdagi faolligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 2022-yil.
9. Nasriddinova G. Reproduktiv salomatlik madaniyatining psixologik asoslari. Toshkent, 2023.

GENDER TENGLIK: XOTIN-QIZLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILINISHINING HUQUQIY ASOSLARINING YARATILISHI

Tureniyazova Dilfuza Qulametovna
Innovatsion texnologiyalar universiteti Tarix va ijtimoiy fanlar kafedrasi t.t.f.d
https://doi.org/10.5281/zenodo.17672285

Annotatsiya. *Maqolada xotin-qizlarning jamiyat hayotida tutgan o‘rni, O‘zbekistonda xotin-qizlarni huquqlari va ularni qo‘llab-quvvatlashga doir huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi va ahamiyati so‘z etilgan.*

Kalit so‘zlar: *inson huquqlari, xotin-qizlar, gender tengligi, normativ-huquqiy hujjatlar*

Аннотация. *В статье рассматривается роль женщин в жизни общества, принятие и значение правовых документов, касающихся прав женщин и их поддержки в Узбекистане.*

Ключевые слова: *права человека, женщины, гендерное равенство, нормативно-правовые акты*

Abstract. *The article examines the role of women in society, the adoption and significance of legal documents concerning women's rights and their support in Uzbekistan.*

Keywords*: human rights, women, gender equality, regulatory legal acts.*

Demokratik davlatda - inson huquqlari tengligiga alohida e’tibor qaratiladi. Bugungi rivojlangan dunyo hamjamiyatida bu tendensiyani mustahkamlash jarayonida gender tengligiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Gender tengligi nima? Er va xotin, bola va qiz o‘rtasidagi tenglik. Ya’ni ularning oilada, atrof-muhitda tengligini ta’minlash. Gender so‘zi ingliz tilidan olingan bo‘lib jins, tur degan ma’nolarni anglatadi.

Mamlakatimizda gender tenglikni ta’minlash maqsadida qator huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo‘lib, jamiyatda xotin-qizlarning faolligini oshirish, ularning oilada, jamiyatimizning har bir sohasida o‘z imkoniyatlarini yanada ro‘yobga chiqarish bo‘yicha qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Xotin-qizlarimiz har bir sohada faollik ko‘rsatib kelmoqda. Ularning biri ustoz, biri shifokor, biri quruvchi, biri olim, biri sportchi, biri detutat. Ularning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy huquqlarini himoya qilish maqsadida davlatimiz tomonidan bir qator huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Yangi konstitutsiyamızdıń 58-moddasida xotin qizlar va erkarlarning huquqlarining teng ekanligi, ularning jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarga ega ekanligi takidlangan[1].

1999-yil 14-apreldagi 760-I-sonli “Xotin-qizlarga qo‘shimcha imtiyozlar to‘g‘risidagi” O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 1995-yil 2-mart PF-1084-sonli “O‘zbekiston Respublikasining davlat va ijtimoiy qurilishida xotin-qizlar rolini oshirish choralari to‘g‘risida” Prezident Farmoni, 2004 yil 25-may PF-3434-sonli “O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatini qo‘llab quvvatlash borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2010-yil 30-sentabrdagi PF 4245-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xotin-qizlarning ijtimoiy muhofazasini kuchaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2018- yil 2-fevral PF-5325-son “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi

faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonlarida xotin-qizlarning huquqlarini ta’minlash, ularning jamiyattagi faol ishtiroklarini amalga oshirish, ayollar huquqlarning kamsitilishiga yo‘l qoymaslik chora-tadbirlarni amalda ko‘rsatish keyingi yillarda o‘z samarasini bermoqda.

2019-yil 2-sentyabrda "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida"gi[2]. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. Ushbu qonun 7 bob, 32 moddadan iborat bo‘lib, Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta’minlashning asosiy prinsiplari, Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash sohasi normativ-huquqiy bazasini shakllantirish va takomillashtirish hamda boshqa masalalar haqida so‘z yuritiladi. Shu bilan birga gender, gender statistikasi, gender-huquqiy ekspertiza atamalariga qonunchiligimizda ilk bor izoh beriladi. Bugungi kunda gender tenglikni ta’minlash maqsadida 25 dan ortiq hujjatlar qabul qilingan bo‘lib, mamlakatimizning har bir sohasida o‘z ifodasini topmoqda.

O‘zbekiston tarixida ilk marotaba parlamentda xotin-qizlar soni BMT tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga yetib, parlamentdagi xotin-qizlar soni qariyb 32 foizga yetdi va dunyodagi 190 ta parlament orasida 37-o‘ringa ko‘tarildi. Boshqaruv lavozimidagi xotin-qizlar ulushi 27 foizga, partiyalarda 44 foizga, oliy ta’limda 40 foizga, tadbirkorlikda 35 foizga yetdi[3]. Yildan yilga xotin-qizlarimizning jamiyatdagi faolligi ortib bormoqda. Bundan 15-20 yil oldingiga nisbatan qizlarimizning oliy ma’lumotli bo‘lishga o‘zlarining intilishlari kuchayganligini ko‘rishimiz mumkin. Darhaqiqat, bugungi kunda mamlakatimizda xotin-qizlarning o‘z imkoniyatlarini to‘laqonli ro‘yobga chiqarishlari uchun barcha shart-sharoitlarni ta'minlash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. O‘zbekistonda bir qator qonunlar, Prezidentning xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash, xususan, gender tengligi va ayollarni zo‘ravonlik va zulmdan himoya qilish va ayollar tadbirkorligini rivojlantirish to‘g‘risidagi farmon va qarorlari qabul qilingan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bugungi kunda mamlakatimizda xotin-qizlarning jamiyatdagi faolligini kuchaytirish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Sababi xotin-qizlar tengligini ta’minlash jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladigan oilalarning tatuvligi, mustahkamliligida asos yaratadi. Sog‘lom oilalarda voyaga yetayotgan yosh avlodlarning kamol topishiga zamin yaratiladi. Gender tenglikni ta'minlash va xotin -qizlarning huquqlarini himoya qilish ijtimoiy adolatni, barqarorlikni mustahkamlaydi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston respublikasi konstitutsiyasi /https://lex.uz/docs/-6445145
2. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 sentyabrdagi O‘RQ-562-son “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni./ https://lex.uz/docs/4494849
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori, 28.05.2021 /https://lex.uz/docs/-5466673

OLIY TA’LIM TIZIMIDA GENDER TENGLIKNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARI VA STRATEGIYALARI

Musayev Hamzahon Zokirjon o‘g‘li[1], Atamirzayev Ibroxim Xakimovich[2]
[1]Namangan davlat unversiteti Yuridik fakulteti 3-bosqich talabasi;
[2]Ilmiy rahbar: yu.f.d. (PhD)
https://doi.org/10.5281/zenodo.17672299

Annottasiya. *Ushbu maqolada oliy ta’lim tizimida gender tengligi masalasi, erkaklar va ayollar o‘rtasida teng imkoniyatlar va qonunchillikdagi huquq va erkinliklarning huquqiy asoslarini, shuningdek strategiyalari va gender stereotiplarini bartaraf etish masalalarini o‘rganadi.*

Kalit so‘zlar: *gender,tenglik, strategiyalar,gender stereotiplar, BMT, deklaratsiya, huquq, imkoniyat, kafolat, ikki jins ,xotin-qizlar, erkaklar, oliy ta’lim, tarbiya.*

Annotation:*This article explores the issue of gender equality in the higher education system, the legal framework of rights and freedoms in equal opportunities and legality between men and women, as well as the issues of overcoming strategies and gender stereotypes.*

Keywords: *gender, equality, strategies, gender stereotypes, UN, Declaration, right, opportunity, guarantee, two genders, women, men, higher education, upbringing.*

Аннотация. *В этой статье рассматривается вопрос о гендерном равенстве в системе высшего образования, равных возможностях между мужчинами и женщинами и правовых основах прав и свобод в законодательстве, а также о стратегиях и преодолении гендерных стереотипов.*

Ключевые слова: *гендер, равенство,стратегии, гендерные стереотипы, ООН, Декларация, право, возможность, гарантия ,два пола, женщины, мужчины, высшее образование, воспитание.*

Gender tenglik nafaqat inson huquqini ta'minlash, balki, jamiyatni siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan ezgu qadriyatdir. Qolaversa, gender tenglik — bu, mamlakatning demokratik taraqqiyot darajasini ko‘rsatuvchi indikatorlardan biri hisoblanadi. Shu bois, bugungi globallashuv davrida jamiyatda bu masalaga ustuvor e'tibor qaratilmoqda.

Gender — xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo‘ladigan muhim ijtimoiy ko‘rinish. Shu jihatdan olganda, gender tushunchasi faqat ayollar manfaatlarini ifodalamaydi, balki, har ikki jins vakillarining o‘z orzu va maqsadlari sari dadil odimlashi, hayot sifatini oshirish uchun bir xil imkon berish kerakligini ifoda etadi.

Aynan rivojlangan jamiyatning talablaridan biri — bu erkak va ayol huquqlari tengligini ta'minlashdan iborat. Zero, jamiyatdagi bu muvozanat insoniyatning barqaror taraqqiyoti va farovon kelajagi kafolatidir. Shu bois, azal-azaldan kishilik jamiyati tarixida bu qadriyat yuksak e'zozlangan.

Gender tenglikning huquqiy rivojiga e'tibor beradigan bo‘lsak, bu borada 1948 yilda BMT Bosh assambleyasi tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida

belgilangan umuminsoniy tamoyillarni alohida e'tirof etish joiz. Unda erkak va ayollarning tengligi alohida e'tirof etilgan bo‘lib, Deklaratsiyaning 1-moddasida “Hamma odamlar o‘z qadr-qimmati hamda huquqlarida erkin va teng bo‘lib tug‘iladilar. Ularga aql va vijdon ato qilingan, binobarin bir-birlariga nisbatan birodarlik ruhida munosabatda bo‘lishlari kerak”, deya ta'rif berilgan[41].

BMT tomonidan 1966 yilda qabul qilingan yana bir xalqaro hujjat — Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 3-moddasida “Mazkur paktda ishtirok etuvchi davlatlar erkaklar va ayollar uchun ushbu Paktda ko‘rib chiqilgan barcha fuqarolik va siyosiy huquqlardan bir xilda foydalanishini ta'minlash majburiyatini oladi”, deb ta'kidlangan[42].

Ushbu xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilgan mustaqil davlatimiz xalqaro huquqning umume'tirof etilgan talablaridan kelib chiqib o‘z milliy qonunchiligida ayollar va erkaklar tengligi masalasiga jiddiy ahamiyat bermoqda. Xususan, so‘nggi yillarda bu sohadagi huquqiy va amaliy ishlar yangi bosqichga ko‘tarildi.

Oxirgi to‘rt yil mobaynida gender tenglikni ta'minlash, xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning davlat va jamiyat boshqaruvidagi rolini oshirish bilan bog‘liq ikkita qonun, Prezidentimizning 6 ta farmon va qarori, hukumatning 16 ta qarori qabul qilindi.

Bundan tashqari,bugun Gender tenglik nafaqat tilda, balki Konstitutsiyamizda ham muhrlanmoqda. Aniqrog‘i, xotin-qizlar va erkaklarning huquq va imkoniyatlari tengligi Konstitutsiyaning 46-moddasida aniq qilib belgilanmoqda.

Bu mavzu ko‘p yillar davomida muhokamalar, tortishuvlar, munozaralarga sabab bo‘lib kelardi. Va nihoyat, intiqib kutilgan muhim va dolzarb qadam qo‘yilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2019-yil iyun oyida Oliy Majlis Senatidagi nutqida shunday degan edi: «...bugun har bir ayol oddiy kuzatuvchi emas, balki mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik o‘zgarishlarning faol va tashabbuskor ishtirokchisi ham bo‘lishi kerak»[43].

Ya’ni, gap nafaqat ayollarni ijtimoiy himoya qilish, balki xotin-qizlarning alohida maqomi va ularga nisbatan hurmatini tiklash haqida ham bormoqda. Afsuski, o‘tgan o‘n-yigirma yillar davomida gender tenglik masalasi faqat tilda va qog‘ozda qolib ketgan edi. Ayollarimiz, ayniqsa, qishloqdagi xotin-qizlarimizni asosan paxta dalalarida mehnat qilib, o‘qish yoki kasb-hunar o‘rganishlariga imkoniyati yo‘q edi.

Mana 5-6 yildirki, ayollarimiz jamiyatning hamma sohalarida faol ishtirok etib, davlat rivojlanishiga o‘z hissasini qushib kelayotganining guvohi bo‘lib turibmiz. Bunga ayollarimizga ko‘rsatilayotgan ishonch va imkoniyat o‘laroq katta natijalarga erishilmoqda, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Bunday fikrlashimizga asoslar bor albatta. Masalan, bugun O‘zbekistonda gender tenglik masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, sohaga oid 25 ta qonunchilik hujjati qabul qilindi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori (28.05.2021) bilan 2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi tasdiqlandi. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasining Gender tenglikni ta’minlash masalalari bo‘yicha komissiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasi tashkil etildi.

[41] “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” BMT 1948 yil https://constitution.uz/oz/pages/humanrights
[42] Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt BMT1966 yil https://lex.uz/docs/-2640479
[43] Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis Senatining 20-yalpi majlisidagi nutqi 2019 yil 22-iyun

Faxr bilan aytish kerakki, O‘zbekiston tarixida ilk marotaba parlamentda xotin-qizlar soni BMT tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga yetib, parlamentdagi xotin-qizlar ulushi qariyb 32 foizga yetdi va dunyodagi 190 ta parlament orasida 37-o‘ringa ko‘tarildi.

Boshqaruvda ham ayollarimiz sezilarli darajada ko‘paydi. Masalan, olib borilayotgan tub islohotlar natijasida boshqaruv lavozimidagi xotin-qizlar ulushi 27 foizga, partiyalarda 44 foizga, oliy ta’limda 40 foizga, tadbirkorlikda 35 foizga yetdi.

Demak, O‘zbekistonn Respublikasi Konstiturtsiyasi 46-modda xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek davlat va jamiyat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarini ta’minlaydi hamda bu sohadagi ishlarning bardavom bo‘lishini, hech bir ayolning muammosi chetda va e’tiborsiz qolmasligini mustahkamlaydi[44].

Jumladan, 2019 yil 2 sentyabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni mamlakatimizda gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan yaxlit va asosiy qonun hujjati hisoblanadi. Ushbu qonun bilan ilk bor milliy qonunchiligimizda “gender” tushunchasiga ta'rif berilgan.

Qonunda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari, ushbu sohada davlat boshqaruvi mexanizmlari belgilandi[45].

Xususan, xotin-qizlarning gender kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida O‘zbekiston Respublikasida Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo‘yicha komissiya tashkil etildi.

Vazirlik va idoralarda gender tenglik masalalari bo‘yicha maslahat kengashi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy sohalarda xotin-qizlar hamda erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan “2020-2030 yillarda O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi” loyihasi ishlab chiqildi.

Davlat boshqaruvida xotin-qizlarning ishtirokini yanada oshirish maqsadida 6 mingdan ziyod faol xotin-qizlardan iborat kadrlar zaxirasi shakllantirildi. Hozirgi vaqtda ularni turli rahbarlik lavozimlariga tayyorlash bo‘yicha tizimli o‘quvlar tashkil etilmoqda.

Oliy ta’lim tizimida gender tengligi masalasi, ijtimoiy adolat va inson huquqlari nuqtayi nazaridan, zamonaviy jamiyatlar uchun muhim ahamiyatga ega. Gender tengligi, nafaqat ayollar va qizlarning ta’lim olish imkoniyatlarini oshirishni, balki erkaklar va o‘g‘il bolalar uchun ham teng imkoniyatlar yaratishni anglatadi. Bu masala, ta’lim tizimining har bir qatlamida, jumladan, o‘quv dasturlari, pedagogika metodlari va ta’lim muassasalari ichidagi ijtimoiy normativlar bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni hal qilishni talab etadi.Gender tengligi va ta’limda gender tengligini ta’minlash, har bir shaxsning o‘z imkoniyatlarini to‘liq amalga oshirishiga yordam beradi.

O‘zbekiston Respublikasida gender yondashuv asosida uzluksiz ta’lim muassasalarida o‘qitish sifatini oshirish, xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish, kasbiy ta’limda gender masalalari kabi yo‘nalishlarda tadqiqotlar (O.Musurmonova, N.Egamberdieva, R.Samarov, U.Temirova va boshqalar) amalga oshirilgan.

Ta’lim olish orqali jamiyatda madaniy, siyosiy, etnik, diniy va gender xilma-xilliklarga bag‘rikenglik g‘oyalari shakllanadi. Ko‘pincha ta’limdagi gender tengligi to‘g‘risidagi bahslar gender prioritetni muhokama qilish bilan cheklanib qolinadi: masalan, agar yigit va qizlarga oliy

[44] O‘zbekistonn Respublikasi Konstitutsiyasi Adolat-2023 https://lex.uz/docs/-6445145

[45] Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida qonun https://lex.uz/mact/-4494849

ma’lumot olishi uchun o‘qishga kirish imkoni berilgan bo‘lsa, demak ta’limdagi gender tenglik ta’minlandi deb hisoblanadi. Biroq, ta’limda gender tengligini ta’minlash – bu gender prioritetni ta’minlashdan ham kengroq bo‘lgan konsepsiyadir.

Ta’limdagi gender tengligini tahlil qilishda turli xil o‘lchovlarni ajratib olish mumkin. YUNESKO gender tengligiga erishish bo‘yicha quyidagiDoiraviy dasturni qo‘llashni tavsiya qiladi (Gender Equality Framework):

- ✓ ta’lim olishda tenglik deganda yigit va qizlarga rasmiy va norasmiy ta’limga kirish uchun teng imkoniyatlar yaratish tushuniladi;
- ✓ o‘quv jarayonidagi tenglik yigit va qizlar o‘quv jarayonida adolatli baho va e’tibor olishi, ya’ni ular o‘g‘il va qiz bolalarni o‘qitishning turli xil usullari bilan bog‘liq bo‘lgan maqbul kelishmovchiliklarni inobatga olib tuzilgan bir xil o‘quv dasturlari orqali shug‘ullanishini nazarda tutadi;
- ✓ ta’lim natijalaridagi tenglik yigit va qizlarning ta’lim natijalaridagi baholari ularning individual iste’dodi va say-harakatlariga asoslanadi deganidir. Muvaffaqiyatga erishishning adolatli imkoniyatlarini ta’minlash uchun ta’lim muddati, akademik malaka va diplomlari jinsiy mansublikka qarab farqlanishi mumkin emas;
- ✓ tashqi natijalardagi tenglik bu ayol va erkakning maqomi ularning tovar va resurslarni qo‘lga kiritishda, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va siyosiy faoliyatda ishtirok etish va foyda olishda o‘z hissasini qo‘shishdagi qobiliyati tengligidir.

Hozirgi kunda xalqaro tajribada oliy ta’lim tizimida genderga oid ta’lim berishning ikki xil yondoshuvi qo‘llanilmoqda: “Gender tizimi” tushunchasi turli tarkibiy qismlardan tashkil topgan bo‘lib, turli mualliflar tomonidan har xil izohlanadi. Gender tizimi jinslararo munosabatlar birligidir. Gender tizimi ommaviy va norasmiy sohalarning gender o‘lchovini taqozo etgani, gender ierarxiyasi boshqa ijtimoiy ierarxiyalar tizimlari bilan solishtirish tufayli bu turdagi tahlilda gender texnologiyalarini amalga oshiruvchi ijtimoiy institutlar rolini o‘rganishga katta e’tibor qaratilmoqda[46].

Gender munosabatlarining hukmronlik ma’nolari ko‘p jihatdan ana shunday yondashuv rivojlanishi jarayonida namoyon bo‘ldi. Zamonaviy sharoitda oliy ta’lim tizimida talaba-qizlarning jamiyatdagi siyosiy-ijtimoiy ishtiroki dinamikasi, ilmiy salohiyatni egallashdagi faoliyati, mehnat bozorida bandlik darajasi, nikoh munosabatlarida qadriyatli yondashuvlar haqidagi faoliyati tarixiy davrlar nazariyalari bo‘yicha tavsiflanadi.

2017 yilda O‘zbekistonda gender tengligi borasidagi islohotlar yangi taraqqiyot bosqichiga ko‘tarildi. Shundan buyon Hukumat ayollar huquqlari va imkoniyatlarini kengaytirish hamda gender tengligini ta’minlash masalalarini o‘zining ustuvor yo‘nalishlari qatoriga qo‘yib kelmoqda[47].

Ko‘rilayotgan qonunchilik choralari va gender tengligiga erishish bo‘yicha olib borilayotgan ishlarga qaramasdan, jamiyatda mustahkam ildiz otgan gender stereotiplari va patriarxal munosabatlar bilan bog‘liq bir qator to‘siqlar mavjud. Ushbu norasmiy to‘siqlar ayollar va erkaklar o‘rtasidagi munosabatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda; qabul qilingan huquqiy hujjatlarni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini kamaytirmoqda, chunki, ular qonunchilikdan ko‘ra ayollarning jamiyatdagi mavqeiga ko‘proq ta’sir qiladi.

[46] Xaydarova Sayyora Chinaliyevna “Oliy ta’limda gender tengligi tushunchasi” Zamonaviy ilm-fan va ta’lim istiqbollari ilmiy-amaliy konferensiyasi 2024-yil

[47] O‘zbekistondagi BMT Taraqqiyot Dasturi O‘zbekistonda gender stereotiplari va patriarxal munosabatlarning sabablarini aniqlash bo‘yicha milliy so‘rovi 2022-yil 15-avgust

Ushbu to‘siqlar ayollar va erkaklar o‘rtasidagi mulk, ish haqqi, kasb tanlash va turli lavozimlarga erishish imkoniyatlari va shu kabi masalalarda davom etayotgan nomutanosiblikni keltirib chiqaradi.

Ushbu tadqiqot quyidagilarga xizmat qiladi:

- tadqiqotning har bir mintaqasi uchun gender stereotiplari va patriarxal munosabatlarning asosiy sabablarini, shuningdek, shahar va qishloqlarda aholi orasidagi kamsitish(diskriminatsiya)ning turli shakllarini aniqlash.
- axborot va ta’lim jihatdan qo‘llab-quvvatlash, hamda fuqarolar mas’uliyatini oshirish bilan birgalikda viloyat, tuman va mahalla miqyosda tizimli islohotlarni amalga oshirishga turtki berish.
- faollar va davlat xizmatchilari, xususiy sektorda bo‘lgan shaxslar va guruhlar uchun gender tengligi va stereotiplar bo‘yicha o‘quv kursini, shuningdek, jurnalistlar va ommaviy axborot vositalari xodimlari uchun maxsus ta’lim dasturlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotlar shunin ko‘rsatadiki, ma’lumotlarini yig‘ish uchun maqsadli guruh muhokamalari (MGM) usuli qo‘llaniladi. Maqsadli guruh muhokamalarida ishtirok etish uchun fan-ta’lim, bandlik, sog‘liqni saqlash, zo‘ravonlik, qarorlar qabul qilish, yetakchilik va migratsiya sohalarida ish olib boruvchi mahalliy mutaxassislar va turli tuzilmalarning ekspertlari orasidan nomzodlar tanlab olinadi.

Shuningdek, barcha 7 ta yo‘nalishda gender stereotiplarini muhokama qilish uchun bittadan yoshlarga yo‘naltirilgan muhokama guruhi tashkil etilib, unga poytaxt oliy o‘quv yurtlarining faol qizlari taklif etiladi.

Maqsadli guruh muhokamalari bilan bir qatorda mahallalarda onlayn so‘rov o‘tkaziladi. So‘rov respublikaning barcha hududlaridagi mahallalar vakillari ishtirokida o‘tkaziladi.

O‘rganishlar natijasida butun mamlakat bo‘ylab gender stereotiplari paydo bo‘lishining asosiy sabablarini aniq tasvirlaydigan gender stereotiplari xaritasi ishlab chiqiladi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati huzuridagi Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tengligi va oila masalalari bo‘yicha komissiyasi, mahalliy hokimliklar, ommaviy axborot vositalari, mahalla fuqarolar yig‘inlari uchun ham qonunbuzarliklarga qarshi kurashish, ularning oldini olish, shuningdek mamlakatimiz har bir mintaqasining xususiyatlarini hisobga olgan holda gender stereotiplarga qarshi kurash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy intellektual va huquqiy hayotida tub o‘zgarishlar sodir bo‘layotgan vaqtda o‘quv jarayonini shaxsning gender tengligi va farqlari asosida tashkil etish masalasi ham davlatning siyosiy jarayonida muhim ahamiyatni kasb etishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekistonn Respublikasi Konstitutsiyasi Adolat-2023 https://lex.uz/docs/-6445145
2. “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” BMT 1948 yil https://constitution.uz/oz/pages/humanrights
3. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt BMT1966 yil https://lex.uz/docs/-2640479
4. Khakimov, S., & Rakhimova, F. (2020). Inklyuziv ta’lim tizimida gender sezgir yondashuvning nazariy va amaliy asoslari. *Ta’lim va Rivojlanish*, 3(1), 12–27.
5. UNESCO. (2018). *Global Education Monitoring Report: Gender Review — Meeting our commitments to gender equality in education*. Paris: UNESCO.
6. Sadıkovna, Rakhımova Khurshıdakhan, and Sattorova Dildora Mirzaakbarovna. "THE ESSENCE OF THE CONTENT OF “INCLUSIVE” AND “INTEGRATED” EDUCATION." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.12 (2023): 431-435.
7. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. (2022). *Oliy ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘yicha metodik qo‘llanma*. Toshkent: Oliy ta’lim vazirligi nashriyoti.
8. Abdulatif, Raximova Xurshidaxon Sadikovna Abduhalimova Zulxumor, RAVSHANOVA DURDONAXON DILMUROD QIZI QIZI, and RO‘ZIYEVA UMIDAXON MUZAFFAR QIZI. "Principles of inclusive education." *Confrencea* 5.05 (2023): 278-282.

OLIY TA’LIM TIZIMIDA TALABA-QIZLARNING IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISH VA OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA GENDER TENGLIK TAMOYILLARINING MILLIY VA XALQARO TAJRIBADA TALQINI

Usta-Azizova Dilnoza Axrarovna[1], Qurbonova Kamola Kamoliddinovna[2]
[1]Dotsent, pedagogika fanlari nomzodi Toshkent davlat tibbiyot universiteti;
[2]Toshkent davlat tibbiyot universiteti talabasi 2-pediatriya fakulteti, 504-guruh
https://doi.org/10.5281/zenodo.17672387

Annatatsiya. *Mazkur maqolada oliy ta’lim tizimida talaba-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish va ularni oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida gender tenglik tamoyillarini joriy etishning dolzarb masalalari yoritilgan. Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasida gender siyosatini takomillashtirish, talaba-qizlarni ijtimoiy himoya qilish hamda ularning ijtimoiy-ma’naviy faolligini oshirishga qaratilgan milliy va xalqaro tajribalar tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada oliy ta’lim muassasalarida gender tenglikni ta’minlashga qaratilgan huquqiy-me’yoriy asoslar, o‘quv jarayonida pedagogik va psixologik yondashuvlar, hamda xalqaro hamkorlikning ahamiyati tahliliy yoritiladi. Muallif tomonidan ta’limdagi gender madaniyatini shakllantirish, talaba-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishda mentorlik, psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimlari hamda oilaviy hayotga tayyorlashning samarali mexanizmlari ilmiy asoslangan. Natijada, maqolada gender tenglikning ta’limdagi o‘rni va ijtimoiy barqarorlikka ta’siri bo‘yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *Gender tenglik, talaba-qizlar, oliy ta’lim tizimi, ijtimoiy faollik, oilaviy hayotga tayyorlash, milliy qadriyatlar, xalqaro tajriba, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, pedagogik yondashuv, psixologik qo‘llab-quvvatlash, mentorlik tizimi, ijtimoiy barqarorlik, gender siyosati, ta’lim islohotlari.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются актуальные вопросы внедрения принципов гендерного равенства в процессе повышения социальной активности студенток и их подготовки к семейной жизни в системе высшего образования. В исследовании проанализированы национальные и международные практики, направленные на совершенствование гендерной политики Республики Узбекистан, социальную защиту студенток и повышение их социально-нравственной активности. В статье также освещены правовые и нормативные основы обеспечения гендерного равенства в высших учебных заведениях, педагогические и психологические подходы в образовательном процессе, а также значение международного сотрудничества в данной сфере. Автор научно обосновывает эффективные механизмы формирования гендерной культуры в образовании, повышения социальной активности студенток через систему наставничества, психологическую поддержку и подготовку к семейной жизни. В результате в статье разработаны научные выводы о роли гендерного равенства в образовании и его влиянии на социальную стабильность.*

Ключевые слова: *гендерное равенство, студентки, система высшего образования, социальная активность, подготовка к семейной жизни, национальные ценности, международный опыт, социальная поддержка, педагогический подход, психологическая*

поддержка, система наставничества, социальная стабильность, гендерная политика, реформы образования.

Abstract. *This article examines the urgent issues of implementing gender equality principles in enhancing the social activity of female students and preparing them for family life within the higher education system. The study analyzes both national and international experiences aimed at improving the gender policy of the Republic of Uzbekistan, providing social protection for female students, and increasing their socio-moral engagement. The article also highlights the legal and regulatory frameworks for ensuring gender equality in higher education institutions, pedagogical and psychological approaches in the educational process, as well as the importance of international cooperation in this context. The author scientifically substantiates effective mechanisms for forming gender culture in education, enhancing the social activity of female students through mentorship systems, psychological support, and preparation for family life. As a result, the article develops scientific conclusions regarding the role of gender equality in education and its impact on social stability.*

Keywords: *gender equality, female students, higher education system, social activity, preparation for family life, national values, international experience, social support, pedagogical approach, psychological assistance, mentorship system, social stability, gender policy, educational reforms.*

Asosiy qism

Bugungi globallashuv va raqamli taraqqiyot davrida ta’lim tizimi nafaqat bilim berish, balki shaxsni har tomonlama kamol toptirish, ijtimoiy mas’uliyatli, ma’naviy yetuk va o‘z hayoti uchun javobgar insonni tarbiyalash vazifasini bajaradi [1]. Ayniqsa, oliy ta’lim tizimida talaba-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish va ularni oilaviy hayotga tayyorlash masalasi nafaqat ta’lim, balki jamiyat barqarorligi uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi [2]. Zero, ayol — oila va jamiyatning tayanchi, ma’naviyat, tarbiya hamda millat davomiyligining asosi sanaladi. Shu sababdan, gender tenglikni ta’lim tizimida to‘laqonli ta’minlash, talaba-qizlarning imkoniyatlarini kengaytirish, ularni har tomonlama ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash masalalari O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim o‘rin tutmoqda [3].O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, *“Ayollarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlamasdan, ularning jamiyatdagi rolini oshirmasdan turib, islohotlar samarador bo‘lmaydi.”* Shu bois, oxirgi yillarda mamlakatimizda gender tenglikni ta’minlash bo‘yicha muhim huquqiy asoslar yaratildi [4]. Xususan, *“Gender tenglikni ta’minlash to‘g‘risida”gi Qonun* (2019-yil 2-sentabr) va *“Xotin-qizlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun* (2021-yil) ushbu sohada yangi bosqichni boshlab berdi [5]. Bu hujjatlar talaba-qizlarning ta’lim, mehnat, sog‘liqni saqlash, siyosiy va ijtimoiy faollik sohalarida teng huquqli ishtirokini kafolatlaydi [6]. Oliy ta’lim muassasalarida talaba-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishda bir necha muhim yo‘nalishlar mavjud. Birinchidan, ularni o‘z fikrini erkin bildirishga, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishga o‘rgatish zarur [7]. Bunda talaba-qizlarning faolligini oshirishning samarali vositalaridan biri — mentorlik tizimidir. Mentorlik jarayoni orqali yoshlar hayotiy yo‘l tanlash, stressga bardosh berish, kasbiy yo‘nalishni aniqlash, oilaviy munosabatlar psixologiyasini o‘rganish kabi ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar [8]. Mentorlik nafaqat shaxsiy yordam, balki ijtimoiy integratsiya jarayonini kuchaytiruvchi mexanizm sifatida ham xizmat qiladi [9]. Ikkinchidan, oliy ta’lim tizimida talaba-qizlarning oilaviy hayotga tayyorlanishi, ularni ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlash orqali amalga oshiriladi [10]. Bugungi kunda ko‘plab

universitetlarda *“Ayollar maslahat markazlari”*, *“Psixologik yordam xonalari”*, *“Gender tenglik burchaklari”* faoliyat yuritmoqda [11]. Bu markazlar orqali talaba-qizlar o‘z shaxsiy muammolari, stress holatlari, oila va jamiyatdagi roli haqida maslahat oladilar. Natijada, talaba-qizlarda mas’uliyat hissi, o‘ziga ishonch, o‘zini namoyon etish qobiliyati shakllanadi [12]. Bundan tashqari, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimining samarali ishlashi uchun davlat, ta’lim muassasalari va jamoat tashkilotlari o‘rtasida o‘zaro hamkorlik zarur [13]. *“Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi”*, *“Yoshlar ishlari agentligi”*, *“Mahalla”* va *“Yoshlar ittifoqi”* kabi tashkilotlarning hamkorlikdagi loyihalari natijasida minglab talaba-qizlar o‘z iqtidorini ro‘yobga chiqarish, tadbirkorlikni o‘rganish, ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘lishmoqda [14]. Bu holat ularning nafaqat iqtisodiy mustaqilligini, balki ijtimoiy barqarorligini ham ta’minlaydi [15]. Gender tenglikni rivojlantirish masalasida xalqaro tajriba ham muhim o‘rin tutadi [16]. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ilgari surilgan *“Barqaror rivojlanish maqsadlari”* dasturida 5-maqsad aynan gender tenglikka bag‘ishlangan [17]. Bu dasturda ayollar va qizlarning barcha bosqichlarda to‘liq ishtirokini ta’minlash, ularni qaror qabul qilish jarayonlariga jalb etish, iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish nazarda tutilgan [18]. Shuningdek, Finlyandiya, Shvetsiya, Kanada, Germaniya kabi mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ta’limda gender yondashuvni joriy etish orqali jamiyatda ijtimoiy tenglik, oilaviy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishning poydevori yaratiladi [19]. O‘zbekiston tajribasiga murojaat qiladigan bo‘lsak, oxirgi yillarda *“Ayollar akademiyasi”*, *“Qizlar klublari”*, *“Zamonaviy ayol”* loyihalari orqali talaba-qizlar uchun maxsus trening va o‘quv dasturlari joriy qilindi [20]. Bu tashabbuslar talaba-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni yetakchilikka tayyorlash, shuningdek, kelajakda oilaviy hayotga mas’uliyat bilan yondashuvni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda . Shuningdek, xalqaro tashkilotlar — *UNDP, UNESCO, USAID* kabi hamkorlar bilan qo‘shma loyihalar amalga oshirilmoqda, bu esa gender siyosatini global darajada uyg‘unlashtirishga xizmat qilmoqda . Talaba-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda milliy qadriyatlar va urf-odatlarni e’tiborga olish muhimdir. Chunki O‘zbekiston jamiyatida oila qadriyatlar tizimining markazida turadi. Shu jihatdan qaraganda, gender tenglikni ta’minlash g‘arbiy modelni ko‘r-ko‘rona qabul qilish emas, balki milliy mentalitetga mos holda uyg‘unlashtirilgan yondashuvni talab etadi. Bu borada o‘zbek oilalarining mustahkamligi, kattalarga hurmat, mehr-oqibat, ayolning oiladagi roli kabi qadriyatlar gender madaniyatini milliy zamin bilan mustahkamlash imkonini beradi [21]. Ta’limdagi gender madaniyatini shakllantirish esa uzluksiz jarayon bo‘lib, u nafaqat o‘quv dasturlari, balki tarbiyaviy ishlar, ijtimoiy faoliyat, media va kommunikatsiya orqali ham mustahkamlanadi. Talaba-qizlar o‘zini jamiyatda faollik bilan tutsa, bu o‘z navbatida boshqa qizlar uchun ham ijobiy namunaga aylanadi [22]. Shu orqali *“gender tenglik”* g‘oyasi nafaqat siyosiy shior, balki kundalik hayot falsafasiga aylanadi. Shunday qilib, oliy ta’lim tizimida talaba-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni oilaviy hayotga tayyorlashda gender tenglik tamoyillarini joriy etish — bu faqat ayollarning emas, butun jamiyatning taraqqiyotini belgilaydigan muhim jarayondir [23].

Xulosa

Oliy ta’lim tizimida talaba-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish va ularni oilaviy hayotga tayyorlash masalasi – zamonaviy ta’lim jarayonining eng muhim ijtimoiy-pedagogik yo‘nalishlaridan biridir. Gender tenglik tamoyillarini amaliyotga joriy etish nafaqat ayollar huquqlarini himoya qilish, balki jamiyatda barqaror rivojlanish, adolat va ijtimoiy uyg‘unlikni ta’minlashga xizmat qiladi. O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda xotin-qizlar va talaba-qizlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar, ijtimoiy himoya mexanizmlari va ta’lim

imkoniyatlari ortib bormoqda. Talaba-qizlarning ijtimoiy faolligi, birinchi navbatda, ularning o‘zini qadrlash hissi, mustaqil fikrlash, ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etish, yetakchilik ko‘nikmalariga ega bo‘lish bilan chambarchas bog‘liq. Shuning uchun oliy ta’lim muassasalarida ularning o‘zini namoyon etishiga yo‘l ochadigan muhitni shakllantirish zarur. Bunda mentorlik tizimi, psixologik maslahat markazlari, ijtimoiy loyihalar, volontyorlik faoliyatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Gender tenglikni ta’minlashda milliy va xalqaro tajriba uyg‘unligi alohida o‘rin tutadi. Xususan, O‘zbekiston sharoitida gender siyosati milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirilgan holda olib borilishi, talaba-qizlarning nafaqat ilmiy, balki ma’naviy jihatdan ham barkamol bo‘lishiga xizmat qiladi. Chunki milliy qadriyatlar – bu jamiyatning ma’naviy poydevori, gender tenglik esa uning ijtimoiy barqarorlik kafolatidir. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, ta’lim tizimida gender yondashuvni joriy etish orqali ayollarning iqtisodiy mustaqilligi, ijtimoiy faolligi va siyosiy ishtiroki oshadi. Shuningdek, bu jarayon oilaviy hayot sifati, jamiyatning ma’naviy darajasi va ijtimoiy adolat tamoyillarining mustahkamlanishiga olib keladi. O‘zbekiston ham bu yo‘nalishda o‘z milliy modeli va amaliy tajribasini shakllantirmoqda. Xulosa qilib aytganda, talaba-qizlarni ijtimoiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ularni oilaviy hayotga tayyorlash, gender tenglikni ta’lim jarayonida chuqur integratsiyalash – bu mamlakatning barqaror taraqqiyotiga olib boruvchi strategik yo‘ldir. Shu bois, quyidagi amaliy tavsiyalarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1. Oliy ta’lim muassasalarida gender masalalari bo‘yicha alohida kurs va treninglar tashkil etish;
2. Talaba-qizlar uchun ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish;
3. Mentorlik va psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish;
4. Talaba-qizlarning yetakchilik salohiyatini rivojlantirish maqsadida xalqaro tajriba almashuv dasturlarini yo‘lga qo‘yish;
5. Gender madaniyatini ommalashtirish uchun OAV, ijtimoiy tarmoqlar va ta’lim resurslaridan keng foydalanish.

Demak, oliy ta’lim tizimida gender tenglikni ta’minlash va talaba-qizlarni ijtimoiy faollikka undash — bu jamiyat taraqqiyotining asosi, oilaviy barqarorlikning kafolati hamda milliy va global qadriyatlar uyg‘unligining yorqin ifodasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev. *“Yangi O‘zbekiston – yangi taraqqiyot bosqichida”* nomli ma’ruza. Toshkent, 2023-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. *“Gender tenglikni ta’minlash to‘g‘risida”* (2019-yil 2-sentabr, O‘RQ–562-son).
3. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. *“Xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqlari va imkoniyatlarini kafolatlash to‘g‘risida”* (2021-yil 25-iyun).
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori. *“Oliy ta’lim tizimida gender siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”* (2022-yil 14-dekabr, 737-son qaror).
5. United Nations Development Programme (UNDP). *Gender Equality and Women Empowerment in Central Asia: Regional Report 2023.* New York, 2023.
6. UNESCO. *Transforming Education for Gender Equality: Global Education Monitoring Report 2022.* Paris: UNESCO Publishing, 2022.

7. World Bank. *Gender Gaps in Education and Labor Market Outcomes in Central Asia.* Washington D.C., 2024.
8. Karimova, N. & Akhmedova, D. *Gender Culture and Educational Environment in Uzbekistan. — Central Asian Journal of Education and Development Studies*, 2023, Vol. 2(1), pp. 45–58.
9. Saidova, M. *Integrating Gender Equality in Higher Education Curricula: Uzbek Context. — International Journal of Social Research and Innovation,* 2024, Vol. 5(3), pp. 73–90.
10. USAID. *Empowering Women and Girls in Higher Education: Uzbekistan Progress Report.* Tashkent, 2023.
11. Qodirova, N. *Talaba-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishda mentorlik tizimining roli. — Ta’lim va Innovatsiyalar Jurnali,* 2022, №4, 56–64-betlar.
12. European Institute for Gender Equality (EIGE). *Gender Equality Index 2024: Education and Empowerment in Europe*. Brussels, 2024.
13. Oila va Xotin-qizlar Qo‘mitasi. *“Ayollar faolligini oshirish bo‘yicha milliy dastur – 2030” loyihasi*. Toshkent, 2023-yil.
14. Mahmudova, G. *Oliy ta’lim tizimida gender madaniyatini shakllantirishning psixologik asoslari. — O‘zbekiston Pedagogika Fanlari Jurnali*, 2021, №5.
15. Usta-Azizova D.A. Gendernoye vospitaniye v sisteme vыsshego obrazovaniya. – Tashkent: Fan, 2021.
16. Usta-Azizova D.A. Gendernaya pedagogika i vospitaniye molodeji. – Tashkent, 2022.
17. UN Women. *Central Asia Gender Policy Brief: Empowering Young Women through Education.* Geneva, 2024.

TALABALARNING NUTQIY KASBIY-METODIK KOMPETENTLIGINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH DA DUAL YONDASHUVLAR

Xalikova Gulchexra Aliyevna[1], Ziyotova Adolat Ergashevna[2]
[1]SamDAQU, O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi;
[2]SamDAQU, Ijtimoiy va tabiiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17672419

Annotatsiya: *Filologik ta'limda talabalarning mustaqil o‘quv topshiriqlarini rivojlantirishda kredit-modul` tizimiga o‘tishning amaldagi holati va istiqbollari, oliy ta’lim muassasalarini ilg‘or jahon tajribalari asosida kredit-modul tizimining tamoyillari,ta'lim oluvchi, ta'lim natijalarini tan olinishi. Ta'lim traektoriyasini mustaqil shakllantirish imkoniyatini yaratilishi va akademik mobillik, baholarning to‘planib borilishi, Professor-o‘qituvchi, talabalarning fanga qiziqishi, hamda aniq belgilangan baholash tizimini joriy etilishi maqsadga muvofiq ekanligi asoslab berilgan.*
Kalit so‘zlar: *ta’lim, tarbiya, nutq, kompetentlik, jarayon, kasbiy faoliyat, metodika*

Oliy ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni tayyorlash mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari asosida rivojlantirilishi lozim bo‘lgan dual ta’lim tizimi bo‘lib, pedagogik mahoratni o‘qituvchi shaxsida nazariy va amaliy nomoyon etish lozim. Bo‘lajak pedagogning kasbiy kompetentligi va kreativligini takomillashtirishfda, uni innovatsion faoliyatda namoyon bo‘lishini, kasbiy pedagogik tayyorgarlik jarayonida amalga oshiriladi. Pedagogik kompetentlik, integrativ, innovatsion kreativ yondashuvlar asosida pedagogning kasbiy mahoratini ijodkorligini rivojlantirish omili bo‘lib xizmat qiladi. O‘quv mashg‘ulotlarining zamonaviy turlarini (keysstadi, aralash ta’lim, virtual laboratoriya, debat) tashkil etish va o‘tkazish metodikasi asosan talabalarda tanqidiy, o‘zini-o‘zi (motivatsion, intellektual, amaliy-faoliyatli, faol kommunikatsiya va jamoaviy ish) rivojlantirish va kreativ fikrlashni rivojlantirish usullari oliy ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish va modernizatsiyalash mahsulidir. Pedagogik kompetentsiya – biror kasb bilan doimiy shug‘ullanadigan inson o‘z kasbini mohirlik bilan bajarilishi pedagogik kompetentlik va kasbiy jihatdan sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish bo‘yicha o‘tkazilgan pedagogik-psixologik tadqiqotlarda “kompetentlik” tushunchasi “pedagogning oliy-kasbiy mahorati” sifatida o‘rganiladi. Uning tarkibiga pedagogik faoliyatni amalga oshirish jarayonida rivojlangan muhim kasbiy sifatlar hamda shaxsiy kasbiy salohiyatni tashkil etgan oliy pedagogik kompetentsiya, intellektual, motivatsion, kommunikativlik, kreativlik-ijodiy, perseptiv hamda shaxs emotsional-irodaviy (irodaviy ta’sir o‘tkazish va mantiqiy ishontira olish) kabi kompetentsiyaviy majmualar kompleksi kiradi.

O‘qituvchining kasbiy pedagogik mahorati va o‘z kasbiy faoliyatini yuqori saviyada tashkil qila olishni ta’minlovchi, o‘qituvchi-pedagog shaxs xususiyatlarini yig‘indisidir. Shunday muhim xususiyatlarga o‘qituvchi faoliyatining insonparvarlikka yo‘naltirilganligi, uning kasbiy bilimlari, pedagogik qobiliyatlari va pedagogik texnikasi, verbal noverbal ta’sirlar kiradi. Bu pedagogik kompetentsiya tizimidagi o‘zini tashqi ta’sirlarsiz rivojlantira olish xususiyatiga ega o‘zaro bog‘liq jihatlardir. Shundan kelib chiqib ta’kidlash mumkinki, o‘qituvchining kasbiy

kompetentligi o‘qituvchi faoliyati va shaxsiga qo‘yilgan me’yoriy talablar bilan belgilangan umumiy yoki tipik xususiyatlar o‘qituvchi sub’ekt sifatida pedagogik faoliyat va muloqotda namoyon bo‘luvchi individualpsixologik va tipologik xususiyatlarini belgilash mumkin. Kompetentsiya yuksak mahorat, qobiliyatlar majmui, oliy pedagogik mahoratning ko‘rsatkichlari hisoblanadi. Pedagogik kompetentsiya didaktik faoliyatida ijodiy qo‘llagan holda o‘quv ishining hamma qirralarida eng yuqori darajada erishilgan yutuqlardir. Pedagogik kompetentsiya– bu o‘qituvchi-pedagogning shunday shaxsiy va kasbiy fazilatlarini belgilaydigan xususiyatki, u o‘z fanini chuqur va atroflicha bilishida, pedagogik-psixologik va metodik tayyorgarligida talabalarni o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirishniig maqbul yo‘llarini izlab topib amaliy faoliyatida namoyon bo‘ladi. Yuksak kasbiy pedagogik mahorat egasi, ya’ni kasbiy pedagogik ijodkorlik.

Oliy ta’lim muasasasi ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish bevosita amalga oshiruvchi professoro‘qituvchilarga alohida talablar qo‘yadi. Tizimda amaliy faoliyatga ijodkorona tatbiq etishning asosiy tayanch nuqtalari hisoblangan, o‘z-o‘zini takomillashtirish texnologiyasining konseptual asoslarini, asosiy qoidalarining mohiyatini o‘zlashtirgan kasbiy pedagogik talabalarga oliy ta’lim va tarbiya berishda innovatsion g‘oyalarning yetakchisi bo‘la olishi mumkin. Bu esa quyidagilarni taqozo etadi: u talabani tinglay olishi, vaziyatdan munosib ravishda chiqa olish, kasbiy oliy pedagog yangi g‘oyalarni hamisha qo‘llab-quvvatlaydi, g‘oya va fikrlarini bemalol, erkin ifodalash mumkin bo‘lgan muhitni yarata oladi. Umumiy kompetentsiyalar va kasbiy kompetentsiyalar “Kompetentlik” tushunchasi ta’lim-tarbiya sohasiga pedagog va psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida fanga kirib kelgan bo‘lib, pedagogik va psixologik nuqtai nazardan kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalikni anglatadi. [2,49] Nutqiy kompetentlik tilshunoslar tomonidan alohida bilim, malakalarni egallanishini emas, balki har bir mustaqil til yo‘nalishlari bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Talabalarga nutqiy kompetentsiyani shakllantirishda mutaxassis o‘z bilimlarini doimo boyitib borayotganini, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim nutqiy talablarni anglayolishni, tovush va ularni amaliyotda qo‘llay olish, talabalarni individual xususiyatini inobatga olib ularga fonetikaga xos bo‘lgan xususiyatlarni, tovush, tovush ozgarish holatlari, fonetik tahlilularni ishlash va qo‘llay bilishni taqozo etadi. Biz kompetentsiyani turlariga murojat etsak. Nutqiy kompetentlik –nutqiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, nutqning shakllanganligi, muloqotga kirisha olish ravon, so‘zlashish. Og‘zaki va yozma savodxonlik. Maxsus kompetentlik– kasbiy-pedagogik faoliyatn tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalari baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo‘lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko‘zga tashlanadi. Ular o‘zida quyidagi mazmunni ifodalaydi: Pedagogik-psixologik kompetentlik – pedagogik jarayonda sog‘lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta’lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o‘z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish. Metodik kompetentlik – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta’lim yoki tarbiyaviy faoliyatni to‘g‘ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo‘llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo‘llash; informatsion kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma’lumotlarni izlash, yig‘ish, saralash, qayta

ishlash va ulardan maqsadli, o‘rinli, samarali foydalanish; Kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga nisbatantan jidiy va ijodiy yondashish, o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish; Innovatsion kompetentlik – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta’lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g‘oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish. [2,67].Nutqiy kompetentsiyani shakllantirishda, nutqqa xos bo‘lgan barcha holatlarni alifbodan to tovushgacha bo‘lgan jarayonlarni turli xil tarbiyaviy usullar, o‘yin texnologiyalari bilan singdirish lozim. Talabaga xos bo‘lgan nutqiy jarayonlarga to‘xtalamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tilshunoslik fanlari ona tili o‘qitish metodikasi didaktik, pragmatik yondashuvga asoslanmoqda, dars mashg‘uloti jarayonida lingvistik kompetentsiyalarni rivojlantirish lingvodidaktik kompetentsiyalarni rivojlanishiga olib kelish ko‘zda tutilmoqda. Til an’analarining yig‘ilib borishi. L.S.Vigotskiy, I.Ya.Zimnyaya, A.A.Leontev, S.L.Rubinshteynlarning psixologik tadqiqotlar tahlili til tashuvchisini shakllantirishning muvaffaqiyati ona tilining kommunikativ rivojlanish darajasiga bog‘liqligi haqida gapirishga imkon beradi. “Ona tilining kommunikativ rivojlanishi” iborasi I.Ya.Zimnyayaning fikricha, quyidagilarni ta’minlaydigan murakkab ko‘p qirrali hodisa sifatida ko‘rib chiqilishi kerak: lug‘at hajmi; nutq qoidalarini egallashning mohirlik darajasi; fikrini ongli ravishda izchil bayon qila olish qobiliyati, suhbatdoshining replikalariga munosib javob bera olish, eshitganlariga munosabat bildirish ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan og‘zaki muloqot shakllarini bilish darajasi; ko‘rsatkichi o‘qish sur’ati bo‘lgan o‘qish texnologiyasi darajasi; yozma nutq ko‘nikmalarini shakllantirish darajasi, kognitiv qiziqishlarini shakllantirish darajasi; umumiy dunyoqarash. Suhbat, test, savol-javob, mustaqil o‘quv topshiriqlar ustida ishlash, statistik metodlari asosida xalqaro tajribalarda til o‘rganishga qo‘yilgan aniq talablar orqali (tinglab tushunish), (gapirish), (o‘qish) va (yozish) malakalari rivojlantiriladi. Ona tili o‘qitishda mazkur metodlardan biroz ijodiyroq foydalanish maqsadga muvofiq, bizningcha. Bunday vaziyatda ona tili o‘qitish metodikasining didaktik vazifasi talabalarda eshitganlarni to‘g‘ri tushuna olish, adabiy tilde ravon mantiqan izchil gapira olish, matnni o‘qib tushuna olish hamda to‘g‘ri va mazmunli yoza olish ko‘nikmalarini takomillashtirish lozim. [2,19]. Xalqaro reytinglarda yuqori o‘rinlarda turgan OTMlar faoliyatini o‘rganishda, zamon va jahon talablariga mos o‘quv rejalarni ishlab chiqish oliy filologik ta'lim tizimida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, ta'limning kredit-modul` tizimining mohiyatini, ishlash mexanizmini oliy filologik ta'lim tizimidagi professor-o‘qituvchilari va talabalarga yetkazishda universitetda kredit-modul tizimiga o‘tish jarayoni monitoringini olib borish lozim. Xalqaro rivojlangan davlatlardatil o‘qitish metodikasi keyingi yillarda bir qator yutuqlarni qo‘lga kiritilganligi bilan izohlanadi. [4,14]. Demak, biz qo‘llash sohasi bo‘yicha tilshunos tadqiqotchining fikriga tayanib Talabaga xos b’lgan nutqiy kompetentlikni quyidagi tarkibiy asoslarini ishlab chiqdik: Talaba yoshi inobatga olinadi. Fonetik o‘zgarishlarga e’tibor berish lozim.

Tovush va ajratishdagi tafovut.

- Fonetik kompetentsiya
- Insert metodi asosida matnni ravon o‘qish usuli.
- Nutqiy sifatlarni o‘zlashtirishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash usullari.
- Yod olish qobiliyatini rivojlantirish usullari.

Lug‘at bilan ishlash usullari. **Leksikalogik kompetentsiya**

Mutaxassis sifatida:

- Aniq maqsad, intilish asosida nutqiy jarayonni takomillashtirish metodikasi;

- Nutqiy jarayon samaradorligini, o‘zining ishchanlik faolligini oshirish metodikasi; - Izchil ravishda yangilanib borayotgan filologik bilimlarni o‘zlashtish metodikasi;

-ilg‘or texnologiya, metod hamda vositalardan xabardor bo‘lish metodikasi;

-Oliy filologik faoliyatiga fan-texnikaning so‘nggi yangiliklarini samarali tadbiq etish metodikasi

-kasbiy ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish metodikasi;

Til an’analarining yig‘ilib borishi. L.S.Vigotskiy, I.Ya.Zimnyaya, A.A.Leontev, S.L.Rubinshteynlarning psixologik tadqiqotlar tahlili til tashuvchisini shakllantirishning muvaffaqiyati ona tilining kommunikativ rivojlanish darajasiga bog‘liqligi haqida gapirishga imkon beradi. “Ona tilining kommunikativ rivojlanishi” iborasi I.Ya.Zimnyayaning fikricha, quyidagilarni ta’minlaydigan murakkab ko‘p qirrali hodisa sifatida ko‘rib chiqilishi kerak: lug‘at hajmi; nutq qoidalarini egallashning mohirlik darajasi; fikrini ongli ravishda izchil bayon qila olish qobiliyati, suhbatdoshining replikalariga munosib javob bera olish, eshitganlariga munosabat bildirish ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan og‘zaki muloqot shakllarini bilish darajasi; ko‘rsatkichi o‘qish sur’ati bo‘lgan o‘qish texnologiyasi darajasi; yozma nutq ko‘nikmalarini shakllantirish darajasi, kognitiv qiziqishlarini shakllantirish darajasi; umumiy dunyoqarash. Tilshunos olimlar N.Mahmudov, B.Mengliyev, L.R.Raupova, S.Ashirboyev, Q.Yo‘ldoshev kabi o‘zbek tilshunos olimlarining ishlarida nutqiy kompetentlikni filologik nuqtai nazardan yanada kengroq va sinchiklab o‘rganish imkonini beradigan turli jihatlari va tarkibiy qismlari ajratib olingan va o‘rganib chiqilgan. So‘z bilan og‘zaki ta’sir o‘tkazish o‘qituvchidan fikrlarni, pedagogik qobilyat texnikasini, ijodkorlikni talab qiladi. Demak, kompetentlik – olingan bilimlarga asoslangan holda harakat qila olishlik demakdir. Namunalarga o‘xshash harakatlarni ko‘zda tutadigan “bilim, ko‘nikma va malakalardan farqli o‘laroq, nutqiy kompetentlik universal bilimlarga asoslangan holda mustaqil faoliyat tajribasini nazarda tutadi. Nutqiy kompetentlik – talabalarga filologik bilimlarni amaliyotda qo‘llay olishda samarali natija beradi. Qo‘llash sohalari ularning maxsusligi va aniqligini belgilaydi (ingiliz, franso‘z, nemis tillar bo‘yicha). Pedagog-psixolog N.G.Vitkovskayaning ta’riflashicha, kompetentlik? qo‘yilgan muammolarni hal etishga qaratilgan insonning ichki (bilim, ko‘nikma va malakalari, ma’naviy sifatlari, psixologik xususiyatlari) va tashqi (moddiy-texnik, ijtimoiy) imkoniyatlarin safarbar qila olishga qodirligidir.[3,78.]

NATIJA.

Psixologik nuqtai nazardan, A.K. Markovaning fikricha, kompetentlik muayyan insonning xarakteristikasi, ya’ni kasbiy talablarga munosibligi darajasi bo‘yicha insonning individual xarakteristikasi demakdir kasbiy pedagog N.A.Muslimov o‘zining tadqiqot ishlarida o‘qituvchining kasbiy kompetentligini shakllanganlik asosini oltita sifatlar, ya’ni motivatsion xislatlar (insonning butun hayoti davomida shakllanib, rivojlanib boruvchi tanlagan kasbiga bo‘lgan ehtiyojlari, motivlari va maqsadlarni qamrab oladi), intellektual salohiyat (barcha rasmiy hujjatlar asosida o‘qituvchi axborot va ma’lumotlarni uzatishga, bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga intiladi), irodaviy sifatlar (maqsadga intiluvchanlik, ichki va tashqi to‘siqlarni, jismoniy va aqliy zo‘riqishlarni yenga olishlik, o‘zini tuta bilishlik va tashabbuskorlik xislatlari), amaliy ko‘nikmalar (psixologik, pedagogik, metodik va texnik-texnologik qobiliyatlar, jamallar, talabaning faoliyat va muloqotining turli sohalaridagi ko‘nikmalari), hissiy sifatlar (o‘z hissiyotlarini boshqarishning zaruriy malakalari shakllantirishi, o‘zining aniq hislari (qahr, g‘azab, bezovtalik, arazlash, hasad, hamdardlik, uyalish, mag‘rurlik, qo‘rqish, ko‘ngilchanlik,

muhabbat va boshqalar)ni boshqarishi hamda o‘z hissiyholatlarini va ularni keltirib chiqaruvchi sabablarni tushunishi) hamda o‘z–o‘zini boshqara olish (maqsadlarni va ularga erishish vositalarini tanlashdagi erkinlik, vijdonlilik, o‘z faoliyatiga tanqidiy yondoshuv, harakatlarning keng qamrovliligi va anglanganligi, o‘z xulqini boshqalarniki bilan qiyoslab borishi, kelajakka ishonchi, o‘z jismoniy va psixologik holatini talab darajasida tutib turishi va boshqara olishi) sifatlari tashkil etishini ta’kidlab o‘tadi. Demak, bir qator tadqiqotlarda bevosita tilshunoslarga xos kasbiy kompetentlik va uning o‘ziga xos jihatlari o‘rganilgan. [4,44.] Ana shunday tadqiqotlar sirasiga B.Mengliyev va L.R.Raupova tomonidan olib borilgan izlanishlarni kiritish mumkin.

Pedagogga xos nutqiy kasbiy kompetentlik, uning o‘ziga xos jihatlarini talabaga o‘rgatishda albatta, talabaning individual xususiyatini, tarbiyaviy jarayonini hisobga olish, birinchi kurslardagi psixologik muhitini bilish o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. O‘quv reja – oliy ta'limning muayyan yo‘nalishi yoki mutaxassisligi bo‘yicha o‘quv faoliyati turlari, o‘quv fanlari, kurslarining tarkibi, ularni o‘rganishning izchilligi, soatlar va kreditlardagi hajmini ta'lim davrining to‘liq me'yoriy muddati uchun belgilaydigan me'yoriy-uslubiy hujjat. O‘quv dasturi – ta'lim mazmuni belgilovchi, o‘quv fanining asosiy mavzulari, mazmuni o‘zlashtirilishning eng maqbul usullari, axborot manbalari ko‘rsatilgan me'yoriy-uslubiy hujjat.[1,18]. Amaldagi ta'lim tizimida auditoriya yuklamalariga katta e'tibor qaratilib kelinmoqda, lekin mustaqil ish turlari hali ommalashmagan. Oily filologik ta’lim tizimida talabalarning nutqiy kompetentsiyasi rivojlantirishda Kredit modul tizimida professor-o‘qituvchilar modulli o‘quv rejaga asosan (Sillabus) ishchi o‘quv dasturini ishlab chiqadi, fanni bir necha mantiqan tugallangan o‘quv modullariga ajratadi, har bir o‘quv modulining maqsadi va vazifalarini belgilaydi, o‘quv moduli bo‘yicha talabalar o‘zlashtirishi, bilishi va amalda qo‘llay olishi lozim bo‘lgan kompetentsiyalarni belgilaydi. [2,67]. O‘quv moduli (fanlar) bo‘yicha auditoriya mashg‘ulotlari uchun (ma'ruza matnlari, amaliy, seminar va laboratoriya mashg‘ulotlari bo‘yicha materiallarni tayyorlaydi, testlar, vaziyatli (keyslarni) masalalarni tuzadi, individual topshiriqlarni shakllantiradi, axborot manbalari (foydalanish uchun tavsiya etilayotgan o‘quv va ilmiy adabiyotlar ro‘yxati) ni shakllantiradi. M.B.Elkonin konsepsiyasiga ko‘ra, bolani rivojlantirish jarayonida, avvalo, faoliyatning motivatsion tomonini, keyin esa texnik jarayonni o‘zlashtirish amalga oshirilishi kerak. Shu bilan birga, olimlar quyidagi omillarni ham ajratib ko‘rsatadilar: ijtimoiy-siyosiy (tilning davlatga xosligi, maktabda o‘qish majburiyati); kasbiy qiymat (kasbga o‘qitish davlat tilida olib boriladi); ijtimoiy obro‘, jamoaviy mas’ullik; kommunikativ (ona tilida muloqot qilish zaruriyati); o‘z-o‘zini tarbiyalashga ehtiyoj, o‘zini takomillashtirish istagi bilan bog‘liq sabablar; utilitar (ma’lum hayotiy manfaatlarga erishish vositasi sifatida tilni bilish zarurati); xavotirlanish sabablari (sinfni orqaga tortmaslik, past baho olmaslik); ona tili va adabiyoti o‘qituvchisiga hurmat motivi. Doimiy intellektual rivojlanishda ruhiy jarayonlar (xotira - vizual va eshitish, fikrlash – mavhum va majoziy, kuzatish, tasavvur – reproduktiv va ijodiy); insonning ma’naviy boyligi – doimiy ma’naviy rivojlanish, axloqiy me’yorlar, avvalo, muloqot me’yoriga rioya qilish muhim ahamiyatga ega. Mazkur talablarni amalga oshirish uchun ona tili ta’limida pragmatik yondashuvga asoslangan o‘quv topshiriqlar tizimini ishlab chiqish lozim. Buning uchun turli nutq vaziyatiga mos fikr ifodalash imkonini beruvchi, o‘zaro muloqotning samarali bo‘lishiga xizmat qiluvchi kognitiv-pragmatik ta’limning afzalliklarini o‘rganib chiqish kerak bo‘ladi. Muloqot davomida odatda savollarga to‘g‘ri javob bergani uchun o‘quvchilarga rag‘bat yoki noto‘g‘ri javob bergan taqdirda ularga dashnom beriladi. Talaba uchun nutq OTMda muvaffaqiyatli ta'lim olish qurolidir.

Nutq o‘stirish o‘zi nima? Agar talaba va uning tilidan bajargan ishlari ko‘zda tutilsa, nutq o‘stirish deganda tilni har tomonlama faol amaliy o‘zlashtirish tushuniladi. Agar o‘qituvchi ko‘zda tutilsa, nutq o‘stirish deganda,bu nutqiy kompetentsiya bo‘lib, talabalarning tilning talaffuzi, lug‘ati, sintaktik qurilishi va bog‘lanishli nutqni faol egallashlariga yordam beradigan metod va usullarni qo‘llash tushuniladi. Nutq o‘stirishda uch yo‘nalish aniq ajratiladi: 1) so‘z ustida ishlash; 2) so‘z birikmasi va gap ustida ishlash; 3) bog‘lanishli nutq ustida ishlash. Ko‘rsatilgan uch yo‘nalish parallel olib boriladi: lug‘at ishi gap uchun material beradi; so‘z, so‘z birikmasi va gap ustida ishlash bog‘lanishli nutqqa tayyorlaydi. O‘z navbatida bog‘lanishli nutq hikoya va insho lug‘atini boyitish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Yozma nutqni rivojlantirish og‘zaki nutqqa qaraganda ancha murakkab jarayon sanaladi. Chunki u talabalardan grammatik va mazmun jihatidan to‘g‘ri jumla qurishni, har bir so‘zni o‘z o‘rnida to‘g‘ri qo‘llashni,fikrni ixcham, izchil, ifodali, uslub jihatidan sodda va ravon ifodalashni, bayon qilingan fikrlar sosida xulosalar chiqarishni talab etadi. Bu nutqning murakkab tabiati yana shundaki, u imlo, tinish belgilari va uslub bilan bog‘liq. So‘zni to‘g‘ri yozish, tinish belgilarini o‘rinli qo‘llash, fikrni uslub talabiga muvofiq bayon qilish talabadan katta mas'uliyatni talab etadi. Shu sababli nutqning bu turi ancha sekin va murakkab kechadi. Yozma nutqning o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri uni tekshirish, tuzatish, takomillashtirish mumkinligidir. Bu jihatdan u og‘zaki nutqqa qaraganda ancha qulay imkoniyatlarga ega.

MUHOKAMA

Talaba yozma nutqdagi xato va kamchiliklar ustida ishlaydi, ularni bartaraf etadi, keyingi ishlarida bu xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘ymaslikka intiladi. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi dars mashg‘ulotlarida o‘qituvchi shuni ham unutmaslik lozimki, ko‘pincha talabalar yozma ishlarda imlo va tinish belgilariga katta e'tibor berib, matnning mazmuni ustida yetarli ish olib bormaydilar. Matnlarda ko‘pincha mavzuga aloqasi bo‘lmagan fikrlar ustunlik qilib, asosiy fikr e'tibordan chetda qoladi. Tilni amalda o‘zlashtirish O‘zbek tilining barcha tovush birliklarini (tovush – bo‘g‘in – ibora - matn) tinglab ajratib olish va ularni to‘g‘ri talaffuz qilishni nazarda tutadi, shuning uchun talabalarda boshlang‘ich bilimning yetarli bilimga ega bo‘lishi tovushni talaffuz qilishni rivojlantirish borasidagi filologik metodik ishlar muntazam ravishda olib borilishi lozim. Ohang, tembr, pauza, urg‘ulashning turli xillari tovush ifodaliligining muhim vositalari hisoblanadi. Talabaga intonatsiyadan to‘g‘ri foydalanishni, bildirilayotgan fikrning nafaqat mazmuniy ahamiyatini, balki emotsional xususiyatlarini ham bergan holda, uning intonatsion tasvirini qurishni o‘rgatish juda muhim. Shu bilan parallel ravishda, vaziyatdan kelib chiqqan holda, talaffuz tempi, past-balandligini to‘g‘ri qo‘llash, tovushlar, so‘zlar, iboralar, gaplarni aniq talaffuz qilish (diksiya) qobiliyatini shakllantirish ishlari ham olib borilishi lozim. Talabalarda nutqning intonatsion jihatiga diqqat-e’tibor qaratishni tarbiyalar ekan, tajribaga ega tilshunos pedagoglarning nutqni tinglash qobiliyatini, tembr (har bir tovushning o‘ziga xos bo‘lgan sifati) va vaznni his qilish, tovush kuchini sezishni rivojlantiradi, bu esa kelgusida musiqa tinglash qobiliyatini rivojlantirishga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Nutq intonatsiyasi, tovushning ifodaliligi ustidagi ishlar talabalarning bildirilayotgan fikrga nisbatan, matndan kelib chiqqan holda, ovozini balandlatib yoki pasaytirib, talaffuz qilinayotgan matnga mantiqiy va emotsional urg‘u berish orqali o‘z munosabatini bildirishni o‘rganishlari uchun zarur. Suning uchun tilshunos pedagog tegishli topshiriqlardan ko‘proq foydalanishi lozim. Aynan ushbu qobiliyatlar talabaga turlicha intonatsion ifodalashni talab qiluvchi turli xildagi ravon fikrlarni tuzish – hikoya qilish, tasvirlash, mulohaza yuritish uchun zarur bo‘ladi. Tarbiyachi nutqning tovush jihatini rivojlantirar ekan, talabaga fikrlarning

predmet, fikr bildirish mavzusi va tinglovchilardan kelib chiqqan holda kommunikatsiya maqsadlari va shartlariga mos kelishini hisobga olishni o‘rgatishi lozim. Nutqning o‘rinli bo‘lishi, tezligi esa atrofdagi muhitga va fikrning maqsadiga mos kelishi lozim. Yaxshi, to‘g‘ri nutqning muhim ko‘rsatkichi bo‘lib uning ravonligi hisoblanadi. Artikulyasion va intonatsion qobiliyatlarning uzviy bog‘liqligi keng ma’nodagi tinglash va artikulyasion-talaffuz ko‘nikmalarini shakllantirishni nazarda tutadi. Ish jarayonida o‘qituvchi talabalarga so‘zning tovush tarkibini, so‘zdagi urg‘u o‘rnini tinglab, aniqlay olishga, qofiya va vaznni his qilish tuyg‘usini rivojlantirishga, aniq talaffuzni, so‘zlar, iboralar, gaplarning turli intonatsion tavsiflarini bera olish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradigan mashqlardan foydalanishi zarur. Bu murakkab nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirish fonetik mashqlarni takrorlashni, ularni muntazam ravishda o‘tkazishni talab qiladi. Lug‘atni rivojlantirishda so‘zning mazmuni ustidagi ishlar dastlabki o‘ringa chiqadi, chunki aynan so‘zlarni matnga muvofiq holda semantik tanlab olish (ko‘p ma’noli so‘zlar mazmunini ochib berish, sinonimik va antonimik taqqoslashlar) til va nutq hodisalarini anglab yetishni shakllantiradi. Nutqning grammatik tuzumini o‘zlashtirish ustidagi ishlar jarayonida nutqning turli qismlarida so‘z hosil qilish usullarini o‘rganish, til umumlashmalarini shakllantirish, shuningdek sintaktik tuzilmalar qurish (oddiy va qo‘shma gaplar) vazifalari bosh vazifa sifatida namoyon bo‘ladi.

XULOSA.

Demak, xulosa sifatida nutqning tovush madaniyatini tarbiyalashda intonatsion ifodalilik, temp, talaffuz va fikrni bayon qilishning ravonligi ustida ishlashga ko‘proq ahamiyat berish darkor, zero, ravon nutqning shakllanishi ushbu ko‘nikmalarga asoslanadi. Nazorat topshiriqlari va mustaqil ta'lim uchun topshiriqlarni (referat, kurs ishlari yozish, manbalarni tarjima qilish, tegishli mavzular bo‘yicha slayd tayyorlash, Glossariy tuzish, savol-javoblar banki) shakllantiradi va ularni o‘zlashtirish bo‘yicha tegishli ko‘rsatmalar beradi. Ma'ruza, amaliy, seminar va labaratoriya mashg‘ulotlarini olib boradi, tegishli modullarni o‘zlashtirish, kurs ishlari va BMIlarini yozish bo‘yicha talabalarga maslaxatlar beradi.

O‘quv elementlarining quyidagi: Tekstli, Kartografik (atlas, karta), Jadvalli (grafiklar, diagrammalar, gistogrammalar), Illyustrativ (rasmlar), Audio va video ma'ruzalar, Natural (kollektsiyalar, gerbariylar), O‘yinli (vaziyatli), Komp`yuterli turlarini ishlab chiqadi va amaliyotga keng joriy etiladi. Demak, ijodkor, kasbiy pedagog o‘z kasbining yetuk ustasi – ustoz pedagog, ma’lum pedagogik mahoratga ega shaxs hisoblanadi. Bo‘lajak pedagog barcha vaziyatlarda ham o‘z faoliyatini muvaffaqiyatli olib borishi uchun doimiy ravishda o‘z bilim va kompetentligini oshirib, zamonaviy pedagogik va ilg‘or oliy pedagogik tajribalarni, metod va usullarni muntazam o‘rganib, kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Axmedova M.E. Pedagogika nazariyasi va tarixi (O‘quv qo‘llanma) – T.: Tafakkur bo‘stoni, 2011.
2. Axmedova M.E. G.Niyozov. Pedagogika nazariyasi va tarixidan seminar mashg‘ulotlar (O‘quv qo‘llanma) – T.: Noshir, 2011.
3. Axmedova M.E. ARM faoliyatida tilshunoslik fanlaridan mustaqil topshiriqlar tuzishda modul-kredit tizimining joriy etilishi // O‘zMU XABARLARI. - Toshkent, 2022. - №1/2/1. – B. 95-97. ISSN 2181-732 https://science.nuu.uz/ (13.00.00; №15).

4. Axmedova M.E. Oliy filologik ta’limda o‘quv topshiriqlaridan foydalanishning lingvometodik va didaktik xususiyatlari // Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi. Ilmiy jurnal. - Urganch, 2022. - №2 (86). – B. 470-472. 2016.29.12/4
5. Axmedova M.E. OTM Filologik ta’limda o‘quv topshiriqlarini takomillashtirishning pedagogik-didaktik va pragmatik xususiyatlari // Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi. Ilmiy jurnal. - Urganch, 2022. - № 4-1 (88). – B. 291-295. 2016.29.12/4
6. Azizxo‘jaeva N.N.Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.- T.:2006.
7. Ishmuxammedov R.,Abduqodirov A., Pardaev A.” Ta'limda innovatsion texnologiya (ta'lim muasassalari pedagog-o‘qituvchilari uchun) amaliy tavsiyalar”.Tashkent.”Iste’dod” nashriyoti, 2008 y.

TALABA XOTIN-QIZLARDA IJTIMOIY FAOLLIKNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Ziyotova Adolat Ergashevna
SamDAQU, Ijtimoiy va tabiiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi, Xotin-qizlar masalasi bo‘yicha rektor maslahatchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17672781

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bugungi kunda jamiyat taraqqiyotini ta’minlashda talabalar, xususan talaba xotin-qizlar ijtimoiy himoyasi va intellektual faolligini oshirish zarurati va mazkur jarayonda ta’lim-tarbiya tizimi subyektlari imkoniyatlaridan samarali foydalanishning innovatsion omillari tahlil qilingan.*
Kalit so‘zlar: *ijtimoiy faollik, jamiyat taraqqiyoti, faollik, ta’lim, innovatsiya, omil.*

Abstract. *In this article, the need to increase the social protection and intellectual activity of students, especially female students, and the innovative factors of effective use of the possibilities of the subjects of the educational system in this process are analyzed.*
Key words: *social activity, community development, activity, education, innovation, factor.*

Kirish. O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida xotin-qizlarni ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar jarayoniga jalb etish, davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiyalashni keng ko‘lamda amalga oshirish obyektiv zaruriyatga aylandi. Bugun jamiyatning deyarli hech bir muammosini, hatto kelajagi buyuk davlat qurish vazifasini ham ayollar ishtirokisiz hal qilish mushkul. Kelajagi buyuk davlat qurish borasida biz, eng avvalo, yosh avlodga tayanamiz. Farzandni kamolga yetkazish oilaviy tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishdan boshlanadi. Oiladagi o‘g‘il-qizlarimizning qanday insonlar bo‘lib yetishishi hammadan burun ayollarimizga bog‘liq.

Respublikamiz BMTning “Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning barcha shakllarini yo‘q qilish haqida”gi konvensiyasiga, Xalqaro mehnat tashkilotining “Onalikni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi, ”Mehnat va mashg‘ulotlar sohasidagi kamsitishlar to‘g‘risida”gi konvensiyalariga MDH davlatlari ichidan birinchilar qatorida qo‘shildi.Bu hujjatlar xotin-qizlar manfaatlarini muhofaza qilish va ularning oiladagi va umuman jamiyatdagi mavqeini mustahkamlashga qaratilgan meyoriy - huquqiy hujjatlar kompleksining tarkibiy qismidir. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev rahnamoligida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, salomatligini muhofaza qilish,intilish va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, ularga munosib mehnat va yashash sharoitlarini yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 fevraldagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5325-sonli Farmonining qabul qilinganligi buning yorqin ifodasidir. Mazkur Farmon bilan xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va sotsial faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o‘z qobiliyat va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so‘zsiz rioya qilinishini ta’minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, oila institutini mustahkamlashga alohida e’tibor qaratildi.

O‘zbek xotin-qizlarining zamonaviy va milliy fazilatlari, ularning ijtimoiy hayotdagi, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishdagi o‘rni masalalari O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, falsafa fanlari doktori, professor X.O.Shayxova ilmiy izlanishlarida markaziy o‘rinda turadi. Uning mustaqillik yillarida chop ettirgan asarlari [1;2;3;4;5] xotin-qizlar masalasini milliy demokratik taraqqiyot nuqtai nazaridan o‘rganishga yordam beradi. Olima yozadi, mustaqillik tufayli “xotin-qizlarning tengligi va ozodligini to‘la ro‘yobga chiqarish, yangicha tafakkur, erkin fikrlash va dunyoqarashini shakllantirish, ijtimoiy hayotda ayolga bo‘lgan munosabatni tubdan o‘zgartirish, Sharq ayoliga xos momo meros, axloqiy go‘zal qadriyat va fazilatlarni keng kamol toptirish zarurati mustaqil yurtimizda davlat siyosatining ustuvor vazifasiga aylandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘zbek ayollarining madaniy va ma’naviy, huquqiy-axloqiy, intellektual salohiyatini oshirish, oiladagi onalik burchi va mas’uliyatini milliy, umuminsoniy nuqtai nazardan chuqur anglab yetish va amaliyotga rioya qilishga odatlantirish mustaqillik tamoyilining asosiy vazifasidir. Ayollar jamiyatning eng e’zozga sazovor, hurmat-izzat, g‘amxo‘rlik va e’tiborga loyiq ijtimoiy toifasiga aylanmoqda... Demak, ayolni ulug‘lash – oilani, Vatanni, hayotni ulug‘lashdir.” Ushbu fikrlarini davom ettirib, o‘zbek ayoliga xos bo‘lgan insoniy, ma’naviy fazilatlarni qayd etib, X.O.Shayxova zamonaviy ayollarning ijtimoiy faolligini ham ko‘rsatadi. “Biror soha yo‘qki, – deb yozadi u, – ayol o‘z bilimi, faolligi, iste’dodini namoyon qilmasin. Mulkdorlar sinfi vakili, tadbirkor, fermer, kichik va qo‘shma korxona sohibi, tijoratchi, biznes va menejer kabi kasb egalari yoki mudofaa va huquq-tartibot sohasida minglab iqtidorli, salohiyatli, aql-zakovatda o‘ktam ayollarning faoliyat ko‘rsatishi shakllanayotgan fuqarolik jamiyatimiz uchun oddiy holdir. Darhaqiqat, rahbarlik va boshqarish ishlarida ayollar soni ko‘payib bormoqda”[5, 88].Zamonaviy sharoitda jahon amaliyotiga asoslangan mazkur dastlabki izlanishlar BMT taraqqiyot dasturi YUNESKO, «Ochiq jamiyat» Ko‘mak jamg‘armasi instituti tomonidan qo‘llab-quvvatlandi. Xususan, talaba-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish, ularni jamiyatimizning teng huquqli bunyodkoriga aylantirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Zamonaviy jamiyatda izchillik bilan va samarali tarzda ushbu tushunchaning ijtimoiy tahlili amalga oshirilib kelinmoqda. «Gender» tushunchasining mazmuni, avvalo, jinsni ijtimoiy modellashtirish yoki tashkil etishda mujassamlashgan. Jamiyatda muayyan jins rollarining bajarilishini taqozo etadigan xatti-harakatlar meyori tizimi vujudga keladi; tegishli tarzda ushbu jamiyatda «erkaklarga oid» va «ayollarga oid» bo‘lgan xususiyatlar borasida qat’iy qaror topgan tasavvurlar qatori paydo bo‘ladi. Gender tabiatan belgilanmagan, ijtimoiy hodisalar ato etgan xususiyatlar yig‘indisidir[6, 182].

Gender – jinsning madaniy niqobi, bizning o‘z ijtimoiymadaniy tasavvurlarimiz doirasidagi jins haqidagi qarashlarimizdir. Buning ustiga, jins faqat gender demakdir, ya’ni uning ijtimoiylashtirilishi natijasida jinsni tashkil etgan narsadir. Hozirgi jamiyatda talaba-qizlarning ijtimoiy pedagogik nuqtai nazardan o‘zini oqlaydi. J.Stenli gender tafovutlarga nisbatan ilmiy nazariyani ilgari suradi. Genderdagi differensiatsiya shunday jarayonki, unda erkaklar va ayollar o‘rtasidagi biologik farqlar ijtimoiy mazmunga ega bo‘ladi va ijtimoiy tasniflash vositasi sifatida qo‘llaniladi. Gender roli gender atrofidagi tushunchalardan kelib chiqadigan ijtimoiy umidlar, shuningdek, nutq, o‘zini tutish, kiyimlar va imo-ishoralar shaklidagi xattiharakatlardir. Erkaklar va ayollar g‘oyalari, insonlarning fikricha, bir-birini inkor etadi va ayrim madaniyatlarda rolga xos xatti-harakatlar qutblangan bo‘lishi mumkin: sustlik – ayollarga, faollik – erkaklarga xos. Gender rollar bilan bog‘liq bo‘lgan xattiharakatga oid ko‘rsatmalar

mehnatning erkaklar va xotin-qizlar mehnatiga bo‘linishida ayniqsa, yaqqol namoyon bo‘ladi. Hozirgi davrda har tomonlama rivojlangan, keng dunyoqarashga ega bo‘lgan talabaqizlarni mutaxassislik asosida tayyorlash va ular yordamida mamlakatimiz xotin-qizlari salohiyatidan jamiyatimiz ma’naviyati va moddiy farovonligini yanada oshirishning falsafiy-ijtimoiy xususiyatlari hamda pedagogik-psixologik o‘ziga xosliklari mavjuddir. Zamonaviy sharoitda oliy ta’lim tizimida talaba-qizlarning jamiyatdagi siyosiyijtimoiy ishtiroki dinamikasi, ilmiy salohiyatni egallashdagi faoliyati, mehnat bozorida bandlik darajasi, nikoh munosabatlarida qadriyatli yondashuvlar asosidagi faoliyati tarixiy davrlar nazariyalari bo‘yicha tavsiflanadi. Gender yondashuv va shaxsga qadriyatli yondashuv asosida talaba- qizlarningijtimoiy faolligini rivojlantirish bugungi kunda ta’lim sohasi hamda yoshlar ma’naviy saviyasini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib xulosa qilib aytganda: – tadqiqotlar asosida oliy ta’lim tizimida talaba-qizlar ijtimoiy faolligini rivojlantirishning ilmiy asoslari va texnologiyasini ishlab chiqish; – oliy ta’lim tizimida gender yondashuv asosida talaba-qizlar ijtimoiy faolligini rivojlantirishning pedagogik shart- sharoitlarini o‘rganish va tahlil qilish yordamida talaba-yoshlar gender farqlarining ta’minlash modelini yaratish zarur.

ADABIYOTLAR

1. Шайхова Х., Назаров Қ. Умуминсоний қадриятлар ва маънавий камолот. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992;
2. Шайхова Х., Тиллаева Г. Соғлом турмуш тарзи ва ёшлар камолоти. – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ инст. нашр., 2008;
3. Шайхова Х. Ўзбек аёли – одоб тимсоли. –Тошкент: Ўзбекистон, 2007;
4. Шайхова Х. Баркамол авлод – ахлоқий- қадриятлар қуршовида. –Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ инст. нашр., 2010.
5. Abduraxmonov, Dostonbek. "Modernizm san’ati hamda uning o‘zbekistonda ilk bor qo ‘llanilishi." scholar 2.5 (2024): 33-37.
6. Abduraxmonov, D. (2024). Modernizm san'ati hamda uning o‘zbekistonda ilk bor qo‘llanilishi. Olim , 2 (5), 33-37. http://scholar-journal.org/index.php/s/article/view/92
7. O‘G‘Li, Abduraxmonov Dostonbek Davron, and Almasova Gulrux Iskandar Qizi. "Amir Temur davri arxitekturasi temuriylar sulolasi me’morchiligining boshlanish bosqichi." Строительство и образование Спецвыпуск 2 (2024): 34-37.
8. Abduraxmonov, Dostonbek. "Modernizm san’ati hamda uning o‘zbekistonda ilk bor qo ‘llanilishi." scholar 2.5 (2024): 33-37.
9. Abduraxmonov, D. (2024). MODERNIZM SAN'ATI HAMDA UNING O‘ZBEKISTONDA ILK BOR QO‘LLANILISHI. OLIM , 2 (5), 33-37. http://scholar-journal.org/index.php/s/article/view/92
10. O‘G‘Li, Abduraxmonov Dostonbek Davron, and Almasova Gulrux Iskandar Qizi. "AMIR TEMUR DAVRI ARXITEKTURASI TEMURIYLAR SULOLASI ME’MORCHILIGINING BOSHLANISH BOSQICHI." Строительство и образование Спецвыпуск 2 (2024): 34-37.

O‘ZBEKISTONDA GENDER TENGLIKKA ERISHISH STRATEGIYASI: MUAMMO VA ECHIMLAR

Adolat Ziyotova[1], Qaxramon Mamaraximov[2]

[1]O‘zbekiston Respublikasi. Samarqand davlar arxitektura qurilish universiteti xotin-qizlar masalasi va gender tenglik bo‘yicha rector maslahatchisi, Antique World xalqaro ilmiy akademiyasi professori;

[2]Samarqand davlar arxitektura qurilish universiteti “Ijtimoiy va tabiiy fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.17672830

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayotda gender masalalari, gender tenglikni rivojlantirish zaruriyati, gender tenglik munosabatlarining siyosiy-ijtimoiy holati, mazkur masalaga doir qabul qilingan qonunlarning mohiyati, gender tenglikka erishish strategiyasi va ahamiyati tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *gender, gender tenglik, siyosiy-ijtimoy munosabatlar, gender tenglik strategiyasi.*

Аннотация. *В данной статье проанализированы гендерные вопросы в общественной жизни Республики Узбекистан, необходимость развития гендерного равенства, политико-социальное состояние гендерных равноправных отношений, сущность принятых законов по данному вопросу, стратегия и значение достижения гендерного равенства.*

Ключевые слова: *гендер, гендерное равенство, политико-социальные отношения, Стратегия гендерного равенства.*

Annotation. *This article analyzes gender issues in social life in the Republic of Uzbekistan, the need to develop gender equality, the political and social status of gender equality relations, the nature of the laws adopted on this issue, the strategy and importance of achieving gender equality.*

Key words: *gender, gender equality, political-social relations, gender equality strategy.*

Insoniyat yaralibdiki, erkak va ayollar o‘rtasidagi munosabat, jamiyatda, oilada ularning roli, gender tenglik va gender adolat muammolariga e’tibor qaratilib kelinadi. Bugungi kunga kelib ijtimoiy hayotning asosiy jabhalarida gender tenglikni ta’minlash butun jamiyatning taraqqiyotiga xizmat qilishi o‘z isbotini topgan.

Yer yuzi aholisining ellik uch foizini ayollar tashkil etadi. Shuning uchun ham gender muammolari bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylangan. Mamlakatimiz aholisining qariyb 50 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Ular ijtimoiy-ma’naviy, siyosiy-iqtisodiy hayotning barcha sohalarida samarali va faol mehnat qilib kelishmoqda. Asosiy qonunimiz – Konstitutsiyada ham xotin-qizlarning barcha sohalarda teng huquqli ekanligi e’tirof etilgan. Hukumat tomonidan chiqarilayotgan qaror va farmoyishlarda ayollar, oilalar, farzandlar manfaati hamisha ustuvor bo‘lib kelmoqda. Bu sa’y-harakatlar ayollarning jamiyat hayotida faolligi orqali o‘z ifodasini topayotganligi ham ayni haqiqat. Xotin-qizlarimizning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda e’tibor kuchaytirilayotganligining yana boshqa jihatlari ham bor. Xususan, ularning huquqiy madaniyati va huquqiy savodxonligini oshirish, iqtisodiy faoliyatni keng yo‘lga qo‘yish

ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish masalalari davlatning muhim maqsadlari qatoridan joy oldi.

Xususan, O‘zbekistonda ijtimoiy hayotda gender masalalari, gender tenglik munosabatlariga berilayotgan chuqur e’tiborni amalga oshirilayotgan qator loyihalarda ko‘rish mumkin. Masalan, 2019-yil 2-sentabr, O‘RQ-562-sonli “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi, unga ko‘ra, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari, xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, onalik, otalik va bolalikni himoya qilish tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning erkaklar bilan teng ravishda ijtimoiy va ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar olib borilmoqda. Shu qatorda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanishning Beshinchi maqsadi – Gender tenglikni amalga oshirish doirasida O‘zbekistonda gender tenglikni ta’minlash hamda barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga oid to‘qqizta vazifa ishlab chiqilganligini ham ta’kidlash mumkin. U 2030-yilga kelib barcha xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning har qanday shakliga barham berish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida ayollarning to‘liq va samarali ishtirokini ta’minlash va yetakchilik qilish uchun teng imkoniyatlarni yaratish zarurligini o‘z ichiga oladi.

Gender munosabatlarda xalqaro standartlarga haqiqiy yaqinlashuvga erishish, eng muhimi, ayollarni jamiyatning barcha jabhalarida faol ishtirok etishi uchun teng imkoniyatlarni ta’minlash bo‘yicha qator oddiy, ammo samarali chora-tadbirlar mavjudligini ta’kidlash mumkin. Mamlakatimizda, kvota tizimining ayollarga yo‘naltirilganligining ortib borayotganligini, ayniqsa, oliy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan voqeliklar, magistraturaga qabul qilingan xotin-qizlarga kontrakt to‘lovlarini to‘liq davlat tomonidan qoplanishi haqidagi amaliy chora-tadbirlarni yaqqol misol tariqasida keltirish mumkin. Shuningdek, xotin-qizlarning mahalliy darajada va ijroiya hokimiyatida vakilligining oshib borishi, ularning parlament faoliyatidagi faol ishtirokini ham ta’kidlash zarur.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda gender tenglik tamoyilini jamiyatga singdirish bilan bog‘liq amalga oshirilayotgan islohotlar diqqatga sazovordir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 23-sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75- yubiley sessiyasida o‘zbek tilida so‘zlagan nutqida O‘zbekistonni siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy modernizatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlarini ko‘rsatib, gender masalasiga alohida to‘xtalib o‘tdi. Jumladan, “Biz uchun gender tenglik siyosati ustuvor masalaga aylandi. Xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi o‘rni tobora kuchaymoqda. Yangi parlamentimizda ayol deputatlar soni ikki barobarga ko‘paydi”, – deb mamlakatimizda xotin-qizlar siyosati bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni ta’kidlab o‘tdi.

Prezidentimiz BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida so‘zlagan nutqida ham xotin-qizlar masalasiga alohida to‘xtalib, gender tengligini ta’minlash va xotin-qizlarni qo‘llab quvvatlash siyosatini davom ettirish Yangi O‘zbekiston uchun muhim ustuvor yo‘nalish ekanini jahon hamjamiyatiga ma’lum qildi. Xususan, xotin-qizlarning jamiyat va davlat boshqaruvida faol ishtirok etishi bugungi kunning dolzarb masalasi ekani, milliy siyosatimiz markazida turadigan eng ezgu maqsad – oilalar mustahkamligi, ayollarimizning huquqiy himoyasi va osoyishta hayotini ta’minlashdan iborat bo‘lishi ta’kidlandi.

Gender tenglikka erishish borasida ham tizimli ishlar olib borilayotgani, jumladan, o‘tgan yili oliygohlarga qabul qilingan talabalarning 49 foizini qizlar tashkil etgani, xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ulushi esa birinchi marta 35 foizga yetgani, ayollar va voyaga

yetmaganlarni zo‘ravonlikdan himoya qilish maqsadida alohida qonun qabul qilingani qayd etildi. Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va sotsial faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o‘z qobiliyat va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so‘zsiz rioya qilinishini ta’minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, keyingi olti yilda oila institutini mustahkamlashga xizmat qiluvchi 40 dan ziyod qonunlar va qonun osti xujjatlari qabul qilinligini ta’kidlash o‘rinlidir.

Xususan, “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi hamda “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunlar qabul qilindi. 2022 yilning 1-mart sanasida qabul qilingan “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni hamda 2022 yilning 7-martida qabul qilingan “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Prezident Farmoni xotin-qizlar bilan ishlash tizimining yangi bosqichga ko‘tarilishiga olib keldi.

2022-2026 yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo‘yicha milliy dastur, 2030 yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi qabul qilindi. Saylov kodeksiga muvofiq ayollarning soni siyosiy partiyadan ko‘rsatilgan deputatlikka nomzodlar umumiy sonining kamida 30 foizini tashkil etishi belgilandi.

Barcha davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining kamida bir nafar o‘rinbosarini xotin-qizlar orasidan tayinlash tizimi joriy etildi. Natijada, rahbar ayollar soni 2017 yilda 27 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2023 yilga kelib 33 foizga yetdi. Ayollarning ulushi tadbirkorlik sohasida 37 foiz, siyosiy partiyalarda 47 foiz, iqtisodiyot va sanoat tarmoqlarida 46 foiz, tibbiyotda 77 foizni tashkil etmoqda.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining 33 foizi, Senat a’zolarining 24 foizi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari deputatlarining 25 foizi ayollardan iborat. Vazir va vazirga tenglashtirilgan lavozimlarda xotin-qizlar ulushi 2018 yilda 2,9 foizni tashkil etgan bo‘lsa, bugungi kunda qariyb ikki barobarga oshdi va 5,7 foizga yetdi. Kattaqo‘rg‘on shahar, Bo‘ston, Olot, Boyovut va Yakkasaroy tumanlarini ayol hokimlar boshqarmoqda. Sud tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan 181 ayol sudyaning 26 nafari rahbarlik lavozimida mehnat qilib kelmoqda.

Yaratilayotgan imkoniyatlarga qaramasdan davlat fuqarolik xizmatida faoliyat olib borayotgan xotin-qizlarning boshqaruv lavozimlaridagi ulushi esa 27 foizni tashkil etadi. Xotin-qizlarning boshqaruv lavozimlarida ulushini yanada ko‘tarish maqsadida Davlat boshqaruvi akademiyasida rahbar xotin-qizlarni tayyorlash bo‘yicha “Rahbar ayollar maktabi” o‘quv kurslari tashkil etildi va har yili zaxiraga olingan xotin-qizlarning 100 nafarini o‘qitish yo‘lga qo‘yildi. Vatanimiz va xalqimiz oldidagi munosib xizmatlari uchun 17 ayol eng oliy mukofot – “O‘zbekiston Qahramoni” unvoni bilan taqdirlandi.

Ilm-fan nufuzini yanada oshirishga katta hissa qo‘shgan, yangi ilmiy maktablar yaratgan 12 olima akademik ilmiy unvoniga ega bo‘ldi. Oxirgi besh yilning o‘zida o‘z sohalari bo‘yicha 5971 nafar ayollarimiz, jumladan 737 nafar xotin-qiz fan doktori (DSc), 5059 nafari falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga ega bo‘ldi. Birgina 2024 yilning o‘zida 212 nafar xotin-qiz fan doktori, 1389 nafari falsafa doktori PhD ilmiy darajasiga ega bo‘lishgan. Hozirgi kunda ilm-fan sohasida jami 5 mingga yaqin olima ayollarimiz faoliyat ko‘rsatmoqda. Oliygohlarda esa 14 mingdan ziyod

xotin-qizlarimiz pedagogika va ilmiy tadqiqot yo‘nalishida ish olib bormoqda. 7 nafar rektor, 45 nafar prorektor va 70+ dekanlarning xotin-qizlardan ekanligi tahsinga loyiq. Shuningdek, “Olima ayollar” tashabbuskor amaliy hamda innovatsion ilmiy loyihalar tanlovida 2021 yolda loyihalar soni 11 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2024 yilda bu ko‘rsatgich 342 taga etdi. Shu raqamlarning o‘zi ham bugun mamlakatimizda ilm-fan yo‘nalishida izlanishlar olib borayotgan xotin-qizlarning safi tobora kengayib borayotganini ko‘rsatadi.

Jamiyat va davlat hayotida faol, tashabbus ko‘rsatgan ayollar bilan bir qatorda farzandlarini barkamol insonlar etib voyaga yetkazgan uy bekalariga ham beriladigan “Mo‘’tabar ayol” ko‘krak nishoni ta’sis etildi va shu kunga qadar 1794 ayol taqdirlandi.

Bu boradagi ishlarni yanada samarali tashkil etish maqsadida mamlakatimizda amalga oshirilgan ma’muriy islohotlar ham muhim o‘rin tutadi. Mana shu islohotlar fonida Prezident huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Milliy kadrlar zaxirasini shakllantirishda ayollar salmog‘i oshmoqda. Mahalla fuqarolar yig‘inlarida faoliyat olib borayotgan xotin-qizlar faollari orasidan eng munosiblari “Salohiyatli kadrlar rezervi”ga kiritilmoqda. Ular belgilangan tartibda bir qator faoliyatni amalga oshiradi. Zaxiraga olingan nomzodlar faoliyati qoniqarliligini belgilovchi sektor rahbarlari xulosalari olinadi. Belgilangan tartibda test sinovlari va suhbat bosqichi tashkil etiladi.

Saylov qonunchiligidagi o‘zgarishlarga ko‘ra, 2024 yil oktabr oyida o‘tkazilgan saylovda nomzodlarning 40 foizi ayollardan iborat bo‘lishi lozimligiga oid norma nomzod ko‘rsatish davomida ta’minlandi. Saylovning yakuniy natijalariga ko‘ra, Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga yangidan saylangan deputatlarning 38 foizini xotin-qizlar tashkil etdi. Bu O‘zbekiston tarixida eng yuqori ko‘rsatkich bo‘ldi. Avvalgi chaqiriqda ayol deputatlar 32 foizni tashkil etgan edi. Demak, bu safar ushbu ko‘rsatkich 6 foizga ko‘p.

Har qanday jamiyatning rivojlanishida muhim ro‘l kasb etadigan tarbiya masalasi oiladan shakllanadi. Oila esa o‘z navbatida, undagi er-xotin, ota-ona bilan farzand o‘rtasidagi munosabatlarning maskanidir. Shunday ekan bir –biriga bog‘liq bo‘lgan munosabatlar zamirida jamiyatni tashkil qiluvchi shaxs shakllanadi. Tarbiya va ayolning oiladagi o‘rni masalasida ko‘plab uzundan uzoq isbotini allaqachon amalda k’orasatayotgan misollarni kelrirish mumkin.

Tashqi va ichki migratsiyaning gender jihatlari, uning xotin-qizlar hamda erkaklarga, ularning oilasi, farzandlariga ta’siri bo‘yicha tadqiqotlar yetarlicha olib borilmayapti, mazkur sohada aholi uchun yaratilgan imkoniyatlar, xotin-qizlarning huquqlari, mehnat migrantlarini himoya qilish mexanizmlari to‘g‘risida targ‘ibot-tashviqot ishlari lozim darajada tashkil qilinmayapti. Qolaversa, media mahsulotlarining gender ekspertizasi o‘tkazilmayapti, ommaviy axborot vositalarida oila va jamiyatdagi xotin-qizlar va erkaklarning rolini aks ettirishda an’anaviy qarashlar mavjud, bosma va elektron ommaviy axborot vositalarida xotin-qizlarning jamiyat rivojiga qo‘shayotgan hissasi yetarli darajada yoritilmayapti.

Yuqoridagi kabi muammo va kamchiliklarning saqlanib qolinishi nafaqat inson huquq va erkinliklarini to‘laqonli ta’minlash imkoniyatini cheklabgina qolmasdan, mamlakatning xalqaro maydondagi imidjiga uning xalqaro reyting va indekslardagi o‘rniga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Xususan, Jahon Bankining “Ayollar, biznes va qonun indeksi”da 190 ta mamlakat orasida 139-o‘rinni, AQShning Djordjtaun instituti tomonidan yuritiladigan “Ayollar, tinchlik va xavfsizlik indeksi”da 167 ta mamlakat ichida 89-o‘rinni egallamoqda. Indeks beruvchi xalqaro tashkilotlarning statistik ma’lumotlariga asosan Jahon iqtisodiy forumi tomonidan tayyorlanadigan “Global gender tafovuti” global hisobotida O‘zbekistonning o‘rni aks etmagan. Shu munosabat bilan Gender strategiyasining amalga oshirilishi xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasida

siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa sohalardagi tengsizlikni bartaraf etish, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro maydondagi imidjini oshirish imkonini beradi.

Gender strategiyasining asosiy maqsadi — irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat’iy nazar xotin-qizlar xotin-qizlar va erkaklar tengligini ta’minlashdan iborat.

Gender strategiyasining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- Xotin-qizlarning er va mulkka nisbatan egalik qilish imkoniyatlarini kengaytirish;
- jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, madaniyat, ta’lim, ilm-fan hamda sport munosabatlarida xotin-qizlarning erkaklar bilan teng ishtirok etishlarini qo‘llab-quvvatlash, qaror qabul qilishda ularning yetakchilik qilishlari uchun teng imkoniyatlarni yaratish;
- xotin-qizlarning siyosiy faolligini oshirish, ularning jamiyatdagi o‘rni bilan bog‘liq salbiy qarashlarni o‘zgartirish;
- aholi bandligi sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun kafolatlangan teng huquq hamda imkoniyatlarni, shuningdek, munosib ish o‘rinlarini yaratish, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, xotin-qizlarning tijorat banklaridan kredit olishga bo‘lgan imkoniyatlarini kengaytirish;
- xotin-qizlar va erkaklarni butun umri davomida o‘qishga bo‘lgan imkoniyatlarini rag‘batlantirish, ularning oilani rejalashtirish borasidagi tibbiy madaniyatini oshirish va reproduktiv salomatligini mustahkamlash, ular o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini yuksaltirish;
- odam savdosi va majburiy mehnatga qarshi kurashish, tazyiq va zo‘ravonlikni oldini olish, ularni aniqlash va barham berish bo‘yicha samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni yaratish;
- oilani mustahkamlash, oilaviy munosabatlarda barcha oila a’zolarining mas’ulligini oshirish, erta nikoh, yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikoh, erta tug‘ruq hamda oilaviy ajralishlarning oldini olish;
- gender tenglik tamoyillarini ilgari surishda, xotin-qizlar va erkaklarning huquq hamda imkoniyatlarini teng amalga oshirishda budjetni rejalashtirish, gender masalalarini budjet jarayonlariga integratsiyalash, gender statistikasi yuritilishini takomillashtirish;
- gender tenglik, ayollar tadbirkorligi, xotin-qizlar va erkaklarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlarini baholovchi xalqaro reyting va indekslarda O‘zbekistonning o‘rnini yaxshilash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- 2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi gender tenglikni ta’minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish milliy maqsadlariga erishishda parlament, fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalarining rolini oshirish;
- gender tenglik sohasidagi xalqaro shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlarning bajarilishini ta’minlash, O‘zbekiston Respublikasining milliy manfaatlariga mos bo‘lgan xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Gender strategiyasini amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishlari

1. Saylov huquqlarini amalga oshirishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash;

2. Davlat xizmati sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash;

3. Ta’lim, ilm-fan, sport hamda sog‘liqni saqlash sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash;

4. Ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash;

5. Tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash;

6. Oilaviy munosabatlar hamda bolalar tarbiyasi sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash;

7. Gender jihatlarni hisobga olgan holda rejalashtirish va budjetlashtirish;

8. Gender statistikasi yuritilishini takomillashtirish;

Gender tenglikni ta’minlash borasidagi takliflar:

• Ayollar sonining kamayishiga hissa qo‘shadigan omillar tahlilini qo‘llab-quvvatlash oliy ta’lim, shu jumladan iqtisodiy holat va infratuzilma bilan bog‘liq etishmovchiliklar;

• mos keladigan mehnat bozori talabini baholash va ayollarni noan’anaviy tarmoqlarda (masalan, sanoat, energetika, transport, qurilish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va moliya) faoliyat yuritishini qo‘llab-quvvatlash;

• Talabalar tanlovida akademik fanlar va ta’lim yo‘nalishlari (masalan, qabul kvotalarini oshirish, stipendiyalar, stajirovkalar, murabbiylik dasturlari va ayollarning oliy ta’limga kirishini oshirish uchun imtiyozlarni ko‘paytirish;

• Ayol-qizlarni noan’anaviy texnik mutaxassisliklarga ko‘proq jalb qilish;

• Yosh onalar uchun ta’lim turlarini qayta ko‘rib chiqish (masalan, 3 yoshgacha farzandi bo‘lgan talaba onalar uchun maxsus o‘quv platformasini ishlab chiqish).

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, mamlakatimizda gender tenglikning ta’minlanishi jamiyatda oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, farzandlarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirishda xotin-qizlar va erkaklarning mas’uliyati hamda roli oshirilishida amaliy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni. 2019-yil, 2-sentabr.
2. http://www.gender-cent.ryazan.ru/lecturers.htm#blohina.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 01.03.2022 yildagi PF-81-son.
4. Zdravomislova Ye.A., Temkina A.A. Sotsialnoe konstruirovanie gendera. Sb. “Vozmojnosti ispolzovaniya kachestvennoy metodologii v gendernix issledovaniyax”. – Moskva, 2001. – S. 49.
5. Jamoldinova O.R. Ta’lim tizimida gender yondashuvni tatbiq etishning samarali mexanizmlari. Belarus-O‘zbek ilmiy-metodik jurnali. 2022-yil, 1-son. B. 17- 25. https://doicode.ru/doifile/regdoi/2022/06/doicode-2022.055.pdf.
6. Бахронова Д.К. Гендер и целевые концептуальные гендерные стереотипы // Гендерные исследования в гуманитарных науках: сб. ст. по матер. III междунар. науч.-практ. конф. № 3. – Новосибирск: СибАК, 2015.
7. Jamoliddinova O., Egamberdiyeva T., Solixo;jayeva D. Oliy ta’lim tizimida gender yondashuv: bugun va kelajak tamoyillari. Uslubiy qo‘llanma – Toshkent, 2022. – 79 b.

8. “Huquq va g‘ururning erkak-ayoli bo‘lmaydi”. Xalq so‘zi. 3 Iyul 2020 https://lex.uz.
9. Gender munosabatlari nazariyasi va amaliyotiga kirish. Gender va rivojlanish. Dinara Alimjonova. Toshkent 2007.
10. Uzbekistan Country Gender Assessment 2018 p.74

ПЕДАГОГИК ТАЪЛИМДА ГЕНДЕР ЁНДАШУВ МАСАЛАЛАРИ

М.Т.Мирсолиева
педагогика фанлари доктори (DSc)
https://doi.org/10.5281/zenodo.17672849

Сўнгги йилларда Ўзбекистонда амалга оширилаётган ижтимоий-иқтисодий ислоҳотлар тизимида гендер масалалари, хотин-қизларнинг ижтимоий фаоллигини ошириш, уларнинг турмуш шароитларини яхшилаш, қобилиятларини эркин амалга оширишлари учун қулай шарт-шароитларни яратиш, қўллаб-қувватлаш билан боғлиқ норматив-ҳуқуқий база янада такомилаштирилмоқда. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев томонидан ёшлар маънавиятини юксалтириш бўйича илгари сурилган 5 та муҳим ташаббуснинг бири айнан хотин-қизлар масалалари, уларнинг касбий кўникмаларини ривожлантиришга қаратилди.

Маълумки, таълим тизими жамиятни яхлит тарзда акс эттирувчи кўзгу бўлиб, унга ўз таъсирини ўтказади ва ўз навбатида таълимда кечаётган янгиланишлар ҳам жамият тараққиётига таъсир ўтказмай қолмайди. Таълим тизими доирасида ўқитувчилар келажак авлодга ўзининг касбий маҳорати, хулқ-атвори, уларга муносабати орқали кучли таъсир этиш имкониятига эга. Ўқитувчилар таълимда гендер тенгликни жорий этишдаги ўзгаришларнинг ташаббускори бўлишлари керак. Бу эса ўз навбатида, бўлажак ўқитувчиларни тайёрлаш жараёнида гендер ёндашув масалаларининг долзарблигини яна бир бор исботлайди.

Хорижий ва МДҲ мамлакатлари тадқиқотларида гендер ва таълимда гендер ёндашув масалалари ўғил ва қиз болаларга таълимда бир хил имкониятларни бериш ва тенгликни таъминлаш; ўқув жараёнида ўғил ва қиз болаларнинг психофизиологик хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда, уларнинг ўз имкониятларини тўлақонли рўёбга чиқариши учун хизмат қиладиган ўқитиш шакл ва методлари, воситаларини танлаш; таълим муассасасида гендер бағрикенгликни, гендер тенгҳуқуқлиликни таъминлаш, шунингдек таълим мазмунининг гендер таҳлилини амалга ошириш, ўқитувчиларнинг гендер саводхонлигини ошириш каби йўналишларда кенг ўрганилган (Э.Майер, К.Хиггинс, И.Кон, А. Мудрик, Л. Попова, И. И. Юкина, Ю. С. Тукачева, Л.И. Столярчук ва бошқалар).

В.В.Абраменкова (1980) томонидан олиб борган тадқиқот натижаларидан шуни кўриш мумкинки, 5-7 ёшли болалар орасида қизлар ўғил болаларга қараганда камроқ жазоланар эканлар. Шу ёшдаги қизлар кўпинча фақат ўзини ўйлайдилар, ўғил болалар эса кўпинча дўстларини, бошқаларни ўйлашади. Лекин бу борада олиб борилган тадқиқотлар натижасида эса буни аксини кўришимиз мумкин. Яъни ўғил болалар аксарият ҳолларда ўзларини ўйлашар, қизлар эса кўпроқ тенгдошларини ўйлар экан.

А.А.Бодалев (1983) бу борада далилларни келтиради: аёл ва эркаклардаги овознинг пастлиги ёки баландлиги уларни биринчи бор эшитаётган одамда уларнинг шахсий хусусиятларига нисбатан турлича ассоциацияларни келтириб чиқариши маълум бўлди. Аёлларнинг овозидаги кескинликка нисбатан негатив тавсифнома берилади, эркакларда

эса бу ҳолат ҳақида одамларнинг "ўзини бошқара олмайдиган, интеллекти юқори эмас, ожиз" деб ўйлашига мажбур қилди.

Республикамизда ҳам гендер ёндашув асосида узлуксиз таълим муассасаларида ўқитиш сифатини ошириш, хотин-қизларнинг ижтимоий фаоллигини ривожлантириш, касбий таълимда гендер масалалари каби йўналишларда тадқиқотлар (О.Мусурмонова, Н.Эгамбердиева, Р.Самаров, У.Темирова ва бошқ) амалга оширилган. Мазкур тадқиқиотларнинг асосий йўналишида, хотин-қизларнинг ижтимоий фаоллигини ошириш масалалари гедер ёндашув орқали таҳлил этилган. Шу билан бирга, таълимда, хусусан, педагогик таълимдаги гендер ёндашув масалалари мазкур тадқиқотларда қисман ёритиб ўтилган.

Фикримизча, ўқитувчиларни тайёрлашда гендер жиҳатларни ишлаб чиқиш жараёни ва амалга ошириш тамойиллари уларни пировард натижага олиб келувчи асосий босқич ҳисобланади. Гендер жиҳатларни тушунган ўқитувчи гендер муаммоларидан хабардорлиги ва ҳис қила олиши асносида ёш авлодни онгли фикрлаш ва ҳаракат қилишига имкон ярата олади. Шундай экан, таълимда гендер тенгликни амалга ошириш ҳаракати ўқитувчидан бошланиб, унинг касбга тайёрлаш босқичидан, то узлуксиз малака ошириш босқичигача, бутун фаолиятини қамраб олиши керак.

Маълумки, касбий тайёргарлик - ўқитувчиларни касбга тайёрлаш жараёнидаги биринчи қадамдир. У бўлажак ўқитувчиларни касбий идеалларини шакллантириш, касбий муносабатларни ташкил этиш ҳамда педагогик кўникмаларга оид билимлар баъзасини ривожлантириш орқали тайёрлайди. Ушбу босқичда ўзлаштирилган билим, кўникмалар асосида талабалар кейинчалик ўз педагогик фаолиятини ташкил этади, ёш авлодни билим ва кўникмаларини шакллантирадиган ўзгаришларни амалга ошириш учун катта имкониятларга эга бўлади.

Талабалар олий таълим муассасаларида ўқиётган назарий фанлар ҳақида билиши жуда муҳим, аммо яхши педагог бўлиш учун бу етарли эмас. Касбий фаолиятга хос умумий ва хусусий педагогик маҳорат жуда муҳим, жумладан мавзу бўйича билимларни ўқувчиларга тушунтиришга ёрдам берадиган педагогик кўникмалар уларнинг касбий мотивациясини шакллантиради. Ўқувчиларнинг қизиқишини қўллаб-қувватлайдиган педагогик кўникмаларни самарали ўрганиш ва юқори натижаларга эришиш учун ёрдам беради.

Талабаларнинг касбий билим ва кўникмалардан ташқари (hard skills), талабаларга муҳим ҳаётий кўникмаларни, шу жумладан аналитик ва танқидий фикрлаш қобилиятларини, муаммоларни ҳал қилиш, мослашувчанлик, шахслараро мулоқот кўникмаларини ривожлантириш, шунингдек мустақил ва ҳамкорликда ишлашга ўргатиш (soft skills), гендер компетентликни шакллантириш жуда муҳим ҳисобланади.

Гендер ёндашув - гендер тенгсизлигининг мавжудлигини ва уларнинг сабаблари, оқибатларини тушуниш ҳамда уларнинг ечимини таъминлаш тўғрисидаги ёндашув. Гендер ёндашув эркак ва аёллар ўртасидаги гендер муносабатларидаги ўзгариш бўлиб, эркаклар ва аёллар учун фойдали таъсир кўрсатадиган ваколатлар ва мажбуриятларни янада тенг тақсимлашга ёрдам беради. Бўлажак ўқитувчиларни тайёрлашда гендер ёндашув эса – таълим стратегиясини ишлаб чиқишда, касбий тайёргарлик мазмуни ва технологияларини белгилашда, ўқитувчиларнинг касбий компетенцияларини ривожлантиришда, илмий-тадқиқотларни амалга оширишда гендер масалаларини бевосита жалб қилишни ўз ичига олади.

Педагогика олий таълим муассасалари ўқитувчилари (100-эркак, 115-аёл) ўртасида ўтказилган сўровнома натижаларини таҳлил этганимизда, таълим тизимининг барча босқичларида, жумладан бўлажак ўқитувчиларни тайёрлашда гендер сезувчанлик таъминлаш билан боғлиқ етакчи омиллар сифатида ўқув қўлланма ва адабиётларни яратишда гендер аспектларни эътиборга олиш; таълим муассасалари томонидан гендер сезувчан дастурларни яратиш ва оммалаштириш; ота-оналарнинг гендер маданиятини ошириш учун махсус курслар ташкил этиш; гендер ёндашувни тўлиқ ёритиш, бу борадаги илмий-тадқиқотларни олиб борилишига алоҳида эътибор қаратиш каби жиҳатлар алоҳида қайд этилди. Бу эса ўз навбатида, бўлажак ўқитувчиларнинг гендер компетентлигини шакллантириш масаласининг ҳам долзарблигини асослайди.

Назарий ва эмпирик таҳлилларни умумлаштирсак, бўлажак ўқитувчиларни тайёрлашда гендер ёндашув таълим жараёнининг барча таркибий қисмлари, яъни тарбиявий, таълимий (таълим мазмуни) ва методик (ўқитиш методлари, ўқув жараёнини ташкил этиш, педагогик ҳамкорлик) жиҳатларини, шунингдек, ташкилий-педагогик шарт-шароитларини гендер масалаларига таъсирчанлигини оширишни кўзда тутади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. “Ўқитувчиларни тайёрлашда гендер ёндашув масалалари” (Gender mainstreaming in teacher education in Asia-Pacific) ўқув қўлланма. Б.Намазов, Н.Эгамбердиева, М.Мирсолиева. Е.; 2018 й.
2. С.А.Васюра. Гендерная психология. Ижевск.; 2011 – 156 стр.
3. https://cyberleninka.ru/article/n/gendernyy-podhod-k-razvitiyu-lichnosti-v-sfere-obrazovaniya/viewer

YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA RAQAMLI GLOBALLASHUVNING OILA MUSTAHKAMLIGIGA TA’SIRI

Yusupova Rahima Kasimovna
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
“Madaniyat va san’at menejmenti” kafedrasi dotsenti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17672872

Annotatsiya: *Mazkur maqolada zamonaviy axborot texnologiyalari keskin rivojlanib, madaniyatlararo almashinuv kuchaygan raqamli globallashuv davrida milliy madaniyatlarning o‘ziga xosligini saqlab qolish masalalari haqida atroflicha mulohaza yuritiladi. Raqamli globallashuvning oila mustahkamligiga salbiy va ijobiy ta’sirlari.*

Kalit so‘zlar: *milliy madaniyat, raqamli globallashuv, madaniy identitet, transformatsiya, san’at, yoshlar, milliy ong, strategiya.*

Аннотация: *В статье комплексно рассматриваются вопросы сохранения самобытности национальных культур в эпоху цифровой глобализации, когда современные информационные технологии стремительно развиваются, а межкультурный обмен активизируется. Негативное и позитивное влияние цифровой глобализации на прочность семьи.*

Ключевые слова: *национальная культура, цифровая глобализация, культурная идентичность, трансформация, искусство, молодёжь, национальное сознание, стратегия.*

Abstract: *This article provides a comprehensive discussion of the issues of preserving the identity of national cultures in the era of digital globalization, when modern information technologies have developed rapidly and intercultural exchange has intensified. Negative and positive effects of digital globalization on family strength.*

Keywords: *national culture, digital globalization, cultural identity, transformation, art, youth, national consciousness, strategy.*

Globallashuv va raqamli texnologiyalar asrida insoniyat har qachongidan ham ko‘proq o‘zaro bog‘liq, o‘zaro ta’sirchan va bir butun axborot makonida yashamoqda. Har kuni insoniyat millionlab axborotlarga duch keladi, ularni qabul qiladi, qayta ishlaydi va ommaviy ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatadi. Bu esa nafaqat ijtimoiy hayotda, balki madaniyat, san’at, mentalitet va ong shakllanishida chuqur o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Ayniqsa, raqamli globallashuvning kengayib borayotgani fonida milliy madaniyatlarning o‘ziga xosligi, ularning tarixiy qatlamlari va estetik ildizlari tobora muhim mavzuga aylanmoqda.

Ma’lumki, har qanday jamiyatda va har doim mamlakat va millat taraqqiyotida madaniyat kabi o‘ta murakkab, ayni paytda muhim fenomen hodisa alohida ahamiyatga ega. Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida ham ushbu masalaga e’tibor tobora kuchayib bormoqda. Bugun ma’rifatli jamiyatni qurish, barkamol avlodni tarbiyalash, amalga oshirilayotgan tub islohotlarning ma’no-mazmunini fuqarolar ongiga singdirishda mazkur hodisaning o‘rni benihoya katta. Bu esa madaniyat, ayniqsa o‘zbek milliy madaniyatining bugungi kundagi ahvoli, uni yanada rivojlantirishning nazariy hamda amaliy jihatlarini ilmiy jihatdan o‘rganishni talab etmoqda [1; 3 b].

Bugungi kunda TikTok, Instagram, YouTube kabi global platformalar nafaqat axborot almashinuvi uchun, balki madaniy ifoda va identitetni qayta shakllantirish uchun ham asosiy masalalarga aylanib bormoqda. Bu esa har bir xalq o‘z qadriyat va urf-odatlarini yo‘qotmasligi, o‘zining betakror madaniy ifodasini asrab qolishi uchun kurash olib borishini talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, raqamli globallashuvni nafaqat tahdid, balki imkoniyat sifatida ham ko‘ra olish muhimdir. Chunki bu jarayonda madaniyatning o‘ziga xosligini saqlab qolish, uni zamonaviy shakllarda ifodalash va global auditoriyaga taqdim etish imkoniyati ham mavjud.

Raqamli globallashuv o‘z navbatida internet tezligining oshishi, ijtimoiy tarmoqlarning kengayishi yoki sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi emas, balki tafakkur tezligining o‘zgarishi, madaniyatlararo chegaralarning buzilishi va axborot vositalari orqali ong shakllanishining yangi bosqichi hisoblanadi. Globallashuv ilgari asosan iqtisodiy va siyosiy doiralarda muhokama qilinar edi. Endilikda esa bu jarayon bevosita madaniy muhitning tarkibiga chuqur kirib kelmoqda.

Shu bilan birga, raqamli globallashuv madaniyatlar o‘rtasida bir qadar adolatli axborot almashinuvi maydonini ham yaratmoqda. Endilikda istalgan milliy san’at namunasini, musiqiy merosni yoki tarixiy voqeani butun dunyo ko‘rishi mumkin. Bu esa milliy madaniyatni eksport qilish, uni global muhitda tanitish imkonini yaratadi. Biroq bu imkoniyatdan to‘g‘ri foydalanish, raqamli madaniy siyosatni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish va madaniy kontentni jahon miqyosida o‘qilishi mumkin bo‘lgan tilda yetkazish lozim. Raqamli globallashuv, ayni paytda, madaniyatning ichki strukturasiga ham ta’sir ko‘rsatmoqda.

Masalan, O‘zbekistonning boy og‘zaki ijodiy an’analarini olaylik – ertaklar, dostonlar, maqollar, matallar va afsonalar. Ular avloddan-avlodga og‘zaki shaklda o‘tgan, xalq ruhiyatining eng chuqur qatlamlarini ifodalagan [2; 125 b]. Ammo bugungi raqamli muhitda bu bebaho madaniy boyliklar qanday shaklda mavjud? Ular biz yuqorida ta’kidlagan ijtimoiy tarmoqlarning 30 yoki 40 soniyalik videosiga sig‘adimi? YouTube’dagi video formatida hayotga qaytadimi? Yoki ular elektron kitob, raqamli o‘yin, animatsion seriallar orqali global bolalar ongiga singadimi? Bu savollar zamonaviy madaniyatshunoslik uchun faqat nazariy mulohazalar emas, balki amaliy, strategik masalalardir.

Ko‘p hollarda bu og‘zaki an’analar raqamli muhitda na tarjima qilinadi, na kontekstual anglash imkonini topadi. Natijada esa ular avlodlar ongida asta-sekinlik bilan o‘z o‘rnini yo‘qota boshlaydi. Chunki zamonaviy raqamli avlod o‘z dunyoqarashini qisqa videolar, dinamik vizual ifodalar va interaktiv formatlar orqali shakllantiradi. An’anaviy madaniyat esa ko‘pincha sekin, chuqur, og‘zaki muloqot orqali yashaydi. Bu ikki olam o‘rtasida aloqa bo‘lmasa, madaniy uzilish muqarrar bo‘ladi. Har bir madaniyat o‘z kelajagini ta’minlash uchun zamonga mos tilda, ammo o‘z ruhini saqlagan shaklda ifodalanishi lozim.

Shu bois, madaniy merosni zamonaviy texnologiyalar orqali jonlantirish – faqat arxivlash yoki saqlash emas, balki uni **interaktiv**, **o‘quvchan**, **ko‘rgazmali** va **eshitiladigan** formatda yaratish demakdir. Masalan, xalq dostonlarining qahramonlarini animatsion serial qahramoniga aylantirish, maqollar asosida qisqa ijtimoiy videolar yaratish yoki afsonalarni vizual podkastlar ko‘rinishida tinglovchiga yetkazish ijod emas, balki madaniy saqlov va taraqqiyotdir. Agar bu ishlar tizimli ravishda amalga oshirilmasa, yaqin kelajakda yosh avlod “qadriyatlar”ni mobil ilovalardagi filtrlardan, xorijiy trendlardan yoki algoritmik “rekomendatsiyalar” orqali o‘rganishi mumkin. Bunday sharoitda madaniyatning ichki mazmuni so‘nib boradi, u faqat tashqi atributga – libosga, raqsga, milliy taomga – aylanib qoladi, xolos. Bu esa milliy madaniyatning chuqur qatlamlarini yo‘qotish xavfini tug‘diradi. Shunday ekan, raqamli globallashuv sharoitida milliy

madaniyatni saqlab qolish strategiyasi milliy an’analarni muzlatib qo‘yish emas, balki ularni raqamli ruhda, global tilda, ammo mahalliy mazmunda qayta ifoda etish san’ati hisoblanadi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 23-yanvarda qabul qilingan “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2018-yil 28-noyabrdagi qarori, mamlakat rahbarining “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 26-mayda qabul qilgan Farmonlarida ham mamlakatimizda milliy madaniyatni saqlash, targ‘ib qilish va rivojlantirishga alohida e’tibor berilgan [3; 496 b].

Milliy madaniyatning raqamli sharoitda yashashi, ayniqsa, yosh avlod ongiga qanday ta’sir qilishi masalasi dolzarbdir. Bugungi o‘quvchi, talabalar, o‘spirinlar kechagi an’anaviy tarbiya muhitida emas, balki har soniyada vizual, audio va yozma signallar oqimi ichida yashayotgan avloddir. Ular uchun milliy qadriyatlar faqat ota-onadan eshitiladigan nasihatlar yoki darslikdagi matnlar emas, balki jonli, harakatdagi, sezgir formatlarda bo‘lishi kerak. Chunki, bugungi kunda yurtimizda milliy madaniyatimiz va san’atimizni yuksaltirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda va bu islohotlardan har bir kelajak avlod xabardor bo‘lishi shart va zarur deb hisoblayman [4; 515 b]. Shu bois, yosh avlodda milliy ongni mustahkamlash uchun zamonaviy ta’lim, raqamli madaniyat siyosati, vizual san’at, blogerlik, podkastlar, mobil ilovalar, va hatto raqamli o‘yinlar orqali keng ko‘lamli yondashuv zarur.

Shu sababli, raqamli globallashuv sharoitida milliy madaniyatni saqlab qolish uchun samarali va zamonaviy strategiyalarni ishlab chiqish dolzarbdir. Jumladan:

Avvalo, milliy madaniyatni raqamli muhitda yetarlicha ifodalash va targ‘ib qilish kerak. An’anaviy madaniy boyliklarni faqat saqlash emas, balki ularni zamonaviy formatlarga moslashtirish interaktiv ilovalar, video va animatsiyalar, podkast va onlayn kurslar orqali taqdim etish muhimdir. Masalan, O‘zbekistonda qadimiy madniy meroslarni raqamli kitob, audio ertaklar va ko‘rgazmali kontent shaklida yosh avlodga yetkazish madaniyatni jonlantirishning samarali yo‘llaridan biridir.

Ikkinchi muhim yo‘nalish – milliy tilni raqamli kommunikatsiya markaziga aylantirish. Ko‘pchilik yoshlar bugungi kunda raqamli platformalarda asosan xorijiy tillarda so‘zlashmoqda, bu esa milliy tilning zaiflashishiga olib keladi. Shu bois, milliy tilda yaratilgan yuqori sifatli kontentlarni ko‘paytirish, til o‘rganish uchun interaktiv resurslar, onlayn o‘quv platformalari yaratish milliy tilni raqamli davrda ham jonli saqlab qolishga xizmat qiladi.

Uchinchi jihat – raqamli madaniyat siyosatini mustahkamlashdir. Davlat va jamiyat darajasida milliy madaniyatni raqamli maydonda himoya qilish, madaniy kontent ishlab chiqarishni rag‘batlantirish, milliy identitetni targ‘ib qiluvchi platformalarni qo‘llab-quvvatlash zarur.

To‘rtinchi strategiya – yosh avlod bilan muloqot qilishdir. Yoshlar raqamli dunyoning asosiy foydalanuvchilari va yaratuvchilaridir. Milliy madaniyatni ular uchun qiziqarli, zamonaviy va hayotga yaqin shaklda yetkazish lozim. Bu maqsadda yoshlar bilan hamkorlikda onlayn loyihalar yaratish, raqamli ijod platformalarini tashkil etish, blogerlar, musiqachilar va boshqa ijodkorlarni milliy qadriyatlarni targ‘ib qilishga jalb qilish zarur. Yosh avlodning raqamli madaniyatdagi faolligini oshirish milliy madaniyatning uzoq muddatli barqarorligini kafolatlaydi.

Beshinchi omil – madaniy ko‘p qirrali muloqotni rivojlantirishdir. Raqamli globallashuv dunyoda madaniyatlararo almashinuv uchun keng imkoniyat yaratadi. Shu imkoniyatlardan

oqilona foydalanib, milliy madaniyatni global maydonda tanitish, xalqaro hamkorlikda yangi madaniy mahsulotlar yaratish muhim. Bu, bir tomondan, milliy madaniyatning o‘ziga xosligini dunyoga namoyish etishga, ikkinchi tomondan, boshqa madaniyatlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Shu yo‘l bilan global madaniyat ichida milliy o‘zlik yanada mustahkamlanadi.

Oltinchi eng muhim jihat – milliy madaniyatning o‘zgarishlarga ochiq bo‘lishidir. Raqamli globallashuv doimiy harakat va o‘zgarishlar davri. Milliy madaniyat faqat an’analar ombori emas, balki rivojlanuvchi, yangilanib boruvchi tizimdir. Zamonaviy texnologiyalar, yangi ijodiy shakllar va kommunikatsiya uslublarini qabul qilish orqali madaniyat o‘zining o‘ziga xosligini saqlab qolish bilan birga, global jarayonlarga ham faol qo‘shilishi mumkin.

Shunday qilib, raqamli globallashuv sharoitida milliy madaniyatning o‘ziga xosligini saqlab qolish uchun kompleks va integratsiyalashgan yondashuv talab qilinadi. Madaniyatni raqamli transformatsiya qilish, milliy til va qadriyatlarni himoya qilish, yoshlar bilan samarali ishlash, madaniy ko‘p qirrali hamkorlikni rivojlantirish va o‘zgarishlarga moslashishlarning barchasi milliy o‘zlikning mustahkam poydevorini yaratadi.

Xullas, milliy madaniyat o‘zligimizning, tarixiy xotiramizning va ma’naviy poydevorimizning asosi sifatida, raqamli globallashuvning murakkab sharoitida ham o‘z ruhini yo‘qotmasligi lozim. Bugungi kunning raqamli asrida milliy madaniyatimiz faqat o‘zgarishlarga moslashib, o‘ziga xosligini saqlab qolganda, u xalqimizning yuksalishida, uning jahon miqyosida tan olinishida va ma’naviy barkamolligida muhim rol o‘ynay oladi. Shunday ekan, raqamli globallashuv jarayonida milliy madaniyatni saqlab qolish bu jamiyatning o‘z ildizlarini anglab, kelajak sari ishonch bilan qadam tashlashidir. Milliy madaniyatimiz va san’atimizning o‘ziga xosligini saqlab qolish va uni rivojlantirish har birimizning va jamiyatimizning eng oliy maqsadlaridan biri bo‘lishi shart.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mavrulov A, Mavrulova M. Madaniyat nazariyasi: o‘quv qo‘llanma // – Toshkent: “Fan ziyosi” nashriyoti, 2022. – 360 b.
2. Mavrulov A. O‘zbekiston madaniyati tarixi. – Toshkent: “Sharofat nur fayz” nashriyoti, 2025. – 496 b.
3. Alimov S. O‘zbekiston nomoddiy madaniy merosi: o‘quv qo‘llanma // – Toshkent: 2022. – 125 b.
4. Yusupova R. K. Madaniyat va san’at sohasida innovatsion jarayonlarning tutgan o‘rni // Inter education & global study. – 2024. – №. 5. – С. 513-519.

ATTENTION TO GENDER EQUALITY ISSUES IN UZBEKISTAN

Asilakhon Khaydaralieva

https://doi.org/10.5281/zenodo.17711307

Annotation. *This article examines the large-scale reforms carried out in the Republic of Uzbekistan to promote gender equality and strengthen the role of women and girls in society. In recent years, gender equality has become a key direction of state policy, resulting in the adoption of more than 25 legislative documents aimed at ensuring equal rights and opportunities for women and men, expanding women's participation in public and political life, and improving their social and legal protection. The approval of the "Strategy for Achieving Gender Equality in the Republic of Uzbekistan by 2030" has established a systematic approach to addressing gender issues. The article highlights the growing share of women in parliament, management positions, higher education, and entrepreneurship, as well as the introduction of initiatives such as the "Women's Notebook," "Girls' Academy," and "Girls of the Digital Generation," which provide targeted socio-economic support and professional development opportunities for women. Furthermore, Uzbekistan's improved position in international gender equality rankings and the achievements of young female representatives in education, sports, and entrepreneurship illustrate the effectiveness of ongoing reforms. The article concludes that empowering women and supporting their aspirations is a crucial factor in the country's sustainable development.*

Keywords: *gender equality, stereotypes, women's group, state policy, socio-legal assistance, information technologies, need, socio-economic support.*

Today, the concept of gender equality has gained significant popularity in our country. It is no secret that more attention is now being paid to women and girls than ever before, and they are being supported. In particular, the issue of gender equality has opened a great way for women to speak out without fear, take their place in society, and act according to their desires. The present era is a mirror of the past. Now, the notion that this is not a woman's job, this is a man's job, that women cannot do it has completely disappeared. This means that women have now become independent individuals. Moreover, now they can drive a car, work as entrepreneurs, and start their own businesses as a sidekick to their husbands, without paying attention to various stereotypes in society. Today, women are forming a large group as a great force. Female athletes, female businesswomen, female chefs, female farmers. The contribution of women to the prosperity of our Motherland with such courageous and courageous steps is no secret to any of us. As evidence of this, the resolution of the Senate of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan on approving the Strategy for Achieving Gender Equality in the Republic of Uzbekistan by 2030 can be cited: Over the past four years, large-scale reforms have been implemented aimed at achieving equal rights and opportunities for women and men, ensuring their equal participation in managing society and state affairs, providing social and legal support to women, as well as protecting women from oppression and violence. The issue of gender equality has been raised to the level of state policy, and 25 legislative documents in this area have been adopted. The Republican Commission on Increasing the Role of Women in Society, Gender Equality and Family Issues, and the Committee on Women and Gender Equality

Issues in the Senate of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan have been established. For the first time in the history of Uzbekistan, the number of women in parliament has reached a level consistent with the recommendations set by the UN, reaching almost 32 percent, rising to 37th place among 190 parliaments in the world. The share of women in management positions has reached 27 percent, in parties - 44 percent, in higher education - 40 percent, and in entrepreneurship - 35 percent. In order to provide socio-economic support to women and work with them in a targeted manner, the "Women's Notebook" system has been introduced, and 300 billion soums have been allocated from the state budget annually. As part of this initiative, the state is covering the costs of additional courses and vocational training for children from families registered in the "Women's Book". The reforms being carried out in the field have had a positive impact on our country's position in international rankings, and in the World Bank's Women, Business and Law Index, Uzbekistan was included in the list of 27 countries that have implemented significant reforms in women's rights and gender equality in 2020, moving up 5 places to 134th place among 190 countries. Several years ago, the concept of gender equality was not given much attention in society due to the lack of systematic efforts to study women's problems, train unemployed women in professions that are in high demand in the labor market, and provide them with employment; the lack of effective organization of socio-legal, psychological, and material assistance to women in need and in difficult social situations, and the lack of effective organization of activities aimed at improving women's legal culture, eliminating the factors and conditions that cause violations committed by them, and promoting their legal consequences; and the lack of a system for timely identification of the talents of girls reaching adulthood in regions, especially in villages, and assistance in their realization. Now, based on the potential of women in the management system, the country's leader is also paying special attention to women and girls. In secondary and higher educational institutions, the Youth Affairs Agency and the Youth Union organizations are organizing seminars and master classes for girls' education and professional development. The "Girls' Academy" platform, which was founded in recent years, has also become an unexpected development point for women in Uzbekistan. Now, without leaving their homes, women can choose the direction they need through this platform and receive free lessons from professional experts. This platform even includes areas such as psychological counseling and child rearing. The main goal of the "Girls of the Digital Generation" project is to direct women and girls to areas such as information technologies, artificial intelligence, and the green economy. SMM (social media marketing), organized within the framework of the “Tashkent Loves Youth” project, at the initiative of the Tashkent city administration, it is planned to train 1,000 girls in the capital for free SMM courses for women and girls under the age of 30. The course is in the form of an “SMM school” and teaches modern professions such as managing social networks, creating content, mobile photography, targeting, and creating a personal brand. Uzbek girls, inspired and motivated by these projects, have already started their own businesses or entrepreneurship and are justifying the trust they have shown. Today, they can easily compete with the youth of the world in all aspects, both in science in sports and knowledge. Below are some of them as examples: Gulbahor Inoyatova - studied at the Uzbek State University of World Languages. During her student years, she conquered all of Europe through the NSP educational exchange program. Currently, she is studying for a master's degree in China on a 100% scholarship. Orzigul Umarova - She studied at the University of Bristol in the UK and is currently working at the Youth Affairs Agency, where she founded her “Top Coach” project, helping students achieve their dreams of studying at foreign universities.

Mukhlisa Mamajonova - Laureate of the “Zulfiya” State Prize, a master's student at the University of Glasgow in the UK. Currently, she works at the Ministry of School and Preschool Education, contributing to the transfer of the education system of developed countries to Uzbekistan, together with foreign partners. There are many such students. The main task of society is to believe in women and girls, to support their dreams and aspirations. Therefore, we, the youth, must feel the same responsibility in making our country known to the world.

REFERENCES

1. Kalabikhina, I. E., "A Brief Conceptual Dictionary of Gender Studies," Social Gender: Economic and Demographic Behavior, Educational and Methodological Materials for the Course. Moscow, 1998
2. https://oilamalaka.uz/wp-content/uploads/2024/03/gender-tenglik-dars.pdf
3. https://civil.uz/gender-tengligi-masalasi-yangi-ozbekistonda-islohotlar-samarasidagi-imkoniyatlar/

OLIGOFREN BOLALARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Abdurashidova Dilfuza Akmaljon qizi[1], D.D.Oribboyeva[2]
[1]NamDPI 1-kurs talabasi; [2]Ilmiy rahbar
https://doi.org/10.5281/zenodo.17672909

Anotatsiya. *Ushbu maqola aqli zaif bolalar va aqli sust rivojlanuvchi bolalar o‘rtasidagi farq, oligofren kasallik sabablari, turlari va bunday bolalarning psixologiyasiga ta‘sir qiluvchi tashqi omillar, aqliy qoloqlikka olib keluvchi sabablarni barvaqt aniqlash va tashxis qo‘yish, kasallik darajalarining o‘zaro farqi, oligofren bolalarning tashqi ko‘rinishi va o‘ziga xos xususiyatlari haqida bayon qiladi.*
Kalit so‘zlar: *Oligofren, imbetsillik, idiotiya, klinika, psixologiya, pedagogika, demensiya, nutq, aqlan zaiflik, asab sistemasi,*
Abstract. *This article describes the difference between mentally retarded children and mentally retarded children, the causes and types of oligophrenic disease, and external factors affecting the psychology of such children, early identification and diagnosis of the causes of mental retardation, the differences in the degress of the disease, and the appearance and characteristics of oligophrenic children.*
Keywords: *Oligophrenia, imbecility, idiocy, clinic, psychology, pedagogy, dementia, speech, mental retardation, nervous system, describes external factors affecting.*
Аннотация. *В статье рассматриваются различия между умственно отсталыми детьми и умственно отсталыми детьми причины и виды олигофрении, внешние факторы, влияющие на психику таких детей, раннее выявление и диагностика причин умственной отсталости, различия в степенях вид и особенности детей-олигофренов.*
Ключевые слова: *Олигофрения, имбецильность, идиотия, клиника, психология, педагогика, слабоумие, реяь, умственная отсталость, внешние факторы, воздействующие на нервную систему.*

Oligofreniya, ya'ni aqliy rivojlanish buzilişi, bolalarda intellektual qobiliyatning cheklanganligi bilan xarakterlanadi. Bu holat bolaning ta'lim, ijtimoiy hayot va o‘zini tutish qobiliyatlariga ta'sir qiladi. Oligofren bolaning psixologiyasi murakkab va ko‘p jihatlardan iborat bo‘lib, ularning rivojlanishi va tarbiyasida muhim ahamiyatga ega. Oligofren bu aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan, o‘z shaxsiy fikrlarini, ehtiyojlarini mustaqil yetkazib bera olmaydigan insonlar hisoblanadi. Bunday kasalliklarni davolashdan ko‘ra erta aniqlab oldini olish samarali hisoblanadi, biroq bunday kasalliklar insonlarda ko‘pincha ona qornida rivojlana boshlaydigan va tug‘ma oligofren bo‘lib tug‘iladi. Oligofren bolalar markaziy asab sistemasining organik kasalliklari natijasida bilish faoliyati pasayib ketishi bilan boshqa alohida yordamga muhtoj bolalardan farq qiladilar. Ilgari aqli zaif bolalar deb atalgan bo‘lsa, endilikda insonni kamsitilmaslik maqsadida oligofren atamasi ishlatiladi. Oligofren bolalarni yana bir nom bilan ya’ni “demensiya” deb ham ataladi. Aqlan qoloqlikni ya’ni aqli zaiflikni belgilashda bir nechta sohalar mezonlar bilan birgalikda ishlash sifatli va samarali qo‘l kelmoqda. Aytaylik, klinika, psixologiya, pedagogika. Klinik mezon bu aqliy qoloqlik va markaziy asab sistemasining qanday organik kasalliklariga aloqadorligini, psixologik mezon esa bilish faoliyatinig turg‘un

buzulganligini, pedagogik mezon-o‘zlashtirish qobilyati past bo‘lib, bolaning dastur materiallarini o‘zlashtira olmasligini ifodalaydi. Aqlan zaif bolaning asab sistemasi ona qornidalik davrida, tug‘ilish vaqt va tug‘ulgandan to uch yoshgacha bo‘lgan davr ichida shikaslanishi, kasallanishi natijasida kelib chiqadi. Agarda turli sabablarga ko‘ra, aqliy zaiflik bolaning uch yoshidan keyingi davrda paydo bòlsa, bu endi orttirilgan aqliy zaiflik ya’ni demensiya deb yuritiladi. Demensiya progressiv bu tabiatan kuchayib boradigan kasallik. Oligofreniyada esa nuqsonning kuchayib borishi kuzatilmaydi. Kelib chiqish sabablariga ko‘ra oligofreniya tug‘ma hamda ottirilgan bo‘ladi.

Rezus faktorning to‘g‘ri kelmasligi, xromosoma kasalliklari, fenilketanuriya va shu kabilar tuğma oligofreniyaga olib kelishi mumkin.

Masalan, Oligofreniyaning Daun kasalligi deb ataladigan bir turi xromosomalar nisbatining buzilishi 46 ta yoki 23 juft xromosoma òrniga bitta ortiqcha xromosoma vujudga kelishi natijasida paydo bòladi. Shunisi qiziqki, irsiy hujayralardagi patologik o‘zgarishlar Daun kasalligi bilan kasallangan barcha oligofren bolalarning tashqi kòrinishi bir xil qilib qòyiladi. Ular kam harakat, beso‘naqay, ko‘zlari qisiq, burni puchuq, tili katta, lablari qalin, shalpang quloq, barmoqlari kalta va hakozo. Millatidan qat’iy nazar, bunday kasallikka chalingan bolalarning barchasi tashqi ko‘rinishidan o‘xshash bo‘ladi.

Onaning homiladorlik davrida turli kasalliklar, oğir virusli gripp, tif, qizilcha bilan kasallanishi, ona organizimidagi turli parazitlarning homilaga yuqishi, homilaning shikaslanishi, ota-onalarning alkogolizmi ham oligofreniyaga sabab bòlishi mumkin.

Fransuz olimlari alkogolizmga griftor oilalarda tug‘ilgan 57 nafar bolani uzoq muddat kuzatib borib, ularning 25 nafari 1 yoshga to‘lmasdan nobud bòlganini, 5 nafari tutqanoq, 5 nafari gidrosefaliya(bosh miyaga suyuqlik suyuqliki to‘planishi) kasalligi bilan og‘riganini, 12 nafari aqlan zaif bo‘lgani va faqat 10 nafar bolalar esa soğlom chiqqani aniqlagan.

Mutaxassislar orasida oligofreniya, uning debil, imbetsil, idiot darajalari haqida so‘z yuritish mumkin. Biroq bolalar, ota- onalar orasida ushbu atamalarni ishlatish mumkin emas. Hozirgi kunda xalqaro kasalliklar tasnifida aqlan rivojlanish darajasiga ko‘ra: yengil, o‘rta va o‘ta og‘ir darajalarga ajratib ko‘rsatilgan. Bola shaxsini kamsitmaslik, uni himoyalash maqsadida oligofrenopedagogika fanida ishlatiladigan atamalar amaliyotda ishlatilmaydi.

Aqliy (intellektual) rivojlanishiga kòra oligofreniya uch darajada namoyon bòladi: 1. Yengil darajadagi aqli zaiflik

2. Imbetsillik

3. Idiotiya

Aqlan zaiflikning yengil darajasidagi bolalarni tashqi kòrinishiga qarab me’yorda rivojlangan tengdoshlaridan ajratib bo‘lmaydi. Ularning ko‘pincha o‘qishi ommaviy maktabni birinchi sinfida boshlaydi biroq kasalligi sababli tengdoshlaridan ortda qolish holatlari kuzatiladi. Umuman, mulohaza va shaxsiy fikr bildirishda ancha qiynaladi, biroq ular sanoat, qishloq xo‘jalik, ishlab chiqarish va maishiy xizmat sohasida oddiy turdagi mehnat bilan shug‘ullana oladi. Tarbiyachi va o‘qituvchilar yengil darajadagi aqli zaif bolalarni boshqa bolalardan ajratib olib, ularni maxsus bog‘cha va maktablarda tarbiyalanishi va ta’lim olishini yokida integratsiyalashgan ta’limga jalb etishlari lozim.

O‘ta og‘ir darajadagi bolalar o‘z - o‘zini uddalay olmaydi. O‘ziga xos xizmat ham qila olmaydi. o‘rta va og‘ir darajadagi bolalar òta oğir bolalarga qaraganda nisbatan yaxshi rivojlangan bòlsa ham, biroq mustaqil hayot kechira olmaydi. Maxsus ta'limdagi bolalar uchun davlat tomonidan maxsus dars jadvali va qiziqarli darsliklar ishlab chiqilgan. Bundan asosiy

maqsad ular sog‘lom bolalar kabi oddiy darsliklarni qunt bilan o‘qiy olmasligi va ular uchun bu murakkablik qilishi mumkin. Bunday bolalar uchun har ikki soat dars jarayonidan so‘ng, turli o‘yinlar va sog‘lomlashtiruvchi mashqlar bilan shug‘ullantirishi zarur.

Oligofren bolalar vaziyatni yetarli darajada anglay olmaydilar, xatti-harakatlarni vaziyatga qarab o‘zgartira olmaydilar. Ularda o‘z -o‘ziga va atrofdagilarga nisbatan tanqidiy munosabat birmuncha sust bo‘ladi. Yuqorida ko‘rsatilgan bir qator kamchiliklarga qaramay, oligofren bolalar bilan tòğri tashkil etilgan maxsus ta’lim- tarbiya ishlari natijasida defektologlar ularni mustaqil hayotga tayyorlash, kasb-hunarga o‘rgatish borasida katta yutuqlarga erishmoqdalar. Maxsus yordamchi maktablarda ta’lim- tarbiya olib chiqqan bolalar hayotida òz òrnini topib, sanoat hamda qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishining turli sohalarida, maishiy xizmat sohasida faol mehnat qilib yashamoqdalar. Tarbiyachi va o‘qituvchilarning muhim vazifasi - oligofren bolalarni boshqa alohida yordamga muhtoj bolalardan ajratib, ularni iloji boricha ertaroq tegishli muassasalarda ta’lim - tarbiya olishlarini ta’minlab berishdir.

Oligofren bola psixologiyasi ularning tarbiyasi va rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ota-onalar va pedagoglar ularning xususiyatlarini hisobga olgan holda, ikki taraflama munosabatlar yaratish orqali bolalarning emotsional, ijtimoiy va intellektual rivojlanishini ta'minlashlari kerak. Oligofren bolalarni qo‘llab-quvvatlash, rivojlantirish va ularning hayot sifatini oshirish ularning kelajagi uchun juda muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *Abidova N.Z. Maxsus psixologiya (Tiflopsixologiya). -T.: Barkamol fayz media, 2017.*
1. 2.RahimovaV.S Defektologiya asoslari (korreksion pedagogika).Toshkent-2017, ’’NISO POLIGROF’
2. Pulatova P.M. va boshqalar. Maxsus pedagogika. T.: Fan va texnologiyalari, 2014
3. Л. С. Волкова, Р. И. Лалаева, Е. М. Мастюкова va boshq. (qarovchi: Л. С. Волкова, С. Н. Шаховская) *Логопедия. Учебник для студентов дефектологических факультетов педуниверситетов 1998*
4. Д. Д. Ориббоева, М. М. Адашалиева Вопросы внедрения и развития инклюзивного образования в странах центральной азии // «Ёш олимлар ахборотномаси» – «Вестник молодых ученых». 2025. №. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/voprosy-vnedreniya-i-razvitiya-inklyuzivnogo-obrazovaniya-v-stranah-tsentralnoy-azii (дата обращения: 13.10.2025).
5. 6.Oribboyeva, D. D., & Assertiv, S. B. Q. G. A. (2024). xulq shakllanishining o‘ziga xosligi. Science and Education, 2.
6. Oribboyeva , D. (2024). BULLING O‘SMIRLARDA DOLZARB MUAMMO SIFATIDA. Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal, 1(12), 115–117. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/universaljurnal/article/view/58095
7. Oribboyeva, D. D. (2020). Social competence as an integral part of the teacher's professional maturity. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, *2*(11), 347-353.
8. Ориббоева, Д. Д. (2025). Н Б. Каримова Психологик тадқиқотларда буллинг муммосининг гендер тахлили. *Science and Education*, *3*.

INKLYUZIV TA’LIM BERISHDA SHAXS XARAKTER XUSUSIYATLARINI XISOBGA OLISHNING AHAMIYATI

Mamurova Feruza Islomovna
Toshkent davlat transport universiteti p.f.f.d. (PhD) dotsent
https://doi.org/10.5281/zenodo.17672916

Annotatsiya. *Respublikamizda olib borilayotgan barcha islohotlarning maqsadi davlatimiz kelajagiga mustahkam poydevor qurishdan iborat. Bu poydevor sog‘lom, yetuk va barkamol shaxslarni tarbiyalab voyaga yetkazish natijasida yaratiladi. Har qanday jamiyatda kelajak vorislari bo‘lmish farzandlarni mas’uliyatni his etadigan, ularni davlat taraqqiyoti va gullab-yashnashiga salmoqli ulush qo‘shadigan munosib fuqarolar bo‘lib yetishishlariga katta umid bilan qaraladi. Ushbu maqolada bugungi kunimiz uchun nisbatan yangi tushuncha bo‘lgan inklyuziv ta’lim haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *inklyuziv ta’lim, talaba, oliy ta’lim muassasalari, ehtiyoj, pedagog ta’lim to‘g‘risidagi qonun, sifat, alohida ta’lim ehtiyojlari.*

Jahon ta’limi amaliyotida ta’lim oluvchilar ehtiyojlariga moslashuvchan o‘quv muhitini yaratish, variativ o‘quv dasturlaridan foydalanishga bo‘lgan ehtiyoj kun sayin ortmoqda. BMT ning ta’lim sohasidagi siyosati yo‘nalishlaridan biri bolalarning alohida ta’lim ehtiyojlari xilma-xilligini hisobga olgan holda ta’lim berishni nazarda tutadigan inklyuziv ta’lim g‘oyalarini ishtirokchi davlatlar tomonidan keng amalga oshirilishini ta’minlash hisoblanadi. YUNESKOning inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlashga qaratilgan dasturlari alohida ta’lim extiyoji bo‘lgan bolalar va kattalar uchun xavfsiz va qulay ta’limni ta’minlashga qaratilgan me’yorlar, standartlar hamda intellektual hamkorlikni modernizatsiyalashga yo‘naltirilmoqda. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida belgilangan ijtimoiy tenglik qoidalarini amalga oshirishda ta’limning barcha uchun ochiqligini, gender jihatdan tenglikka asoslanganligini ta’minlovchi mexanizmlarini amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimizda inklyuziv ta’limni ta’lim oluvchilarning ijtimoiy ehtiyojlari va shaxsiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda fan, ta’lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta’minlash asosida tashkil etishning huquqiy – me’yorlari ishlab chiqilgan. “Alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’limni tashkil etish maqsadida ta’lim muassasalari moddiy texnika bazasini mustahkamlash, o‘quv dasturlarini adaptivlashtirish, sog‘lomlashtiruvchi sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish hamda bu jarayonga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash” kabi muhim vazifalar belgilandi [1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 dekabrdagi PF-5270-son “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019 yil 29 apreldagi PF5712-son “Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”, 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan YAngi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, farmonlari, 2020 yil 13 oktyabrdagi PQ–4860-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil

12 oktyabrdagi 638-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ huquqiy xujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori va boshыa xujjatlarda kadrlar masalasi, ta’lim mazmunini modernizatsiyalash, jarayonni metodik va didaktik ta’minlash vazifalari belgilab berilgan. Sanab o‘tilgan vazifalarni bajarishda ushbu darslik tayanch manbaa sifatida xizmat qiladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar zamirida, eng avvalo, kelajak avlodning barkamol bo‘lib ulg‘ayishi, hech kimdan kam bo‘lmay dunyo arenalarini zabt etishga qodir farzandlar bo‘lib yetishishi kabi dolzarb masalalarni hal etish turadi. Ayniqsa, yetim va ota-ona qaramog‘isiz qolgan, nogiron, rivojlanishida nuqsoni bor bolalarning ijtimoiy himoyasi hamisha davlat va jamiyatning ustuvor vazifasi hisoblangan. Ushbu vazifani amalga oshirish borasida O‘zbekiston Respublikasida rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan kishilarning huquq va erkinliklarini, teng imkoniyatlarini ta’minlash, turmush faoliyatidagi cheklanish, chegaralarni bartaraf etish, ta’limni tashkil etish va boshqarishga zamonaviy yondashuv, uning sifati va samaradorligini oshirish, jamiyatda aholining turli qatlamlari uchun ta’limning uzviylik va uzluksizligini ta’minlash borasida talaygina ishlar amalga oshirib borilmoqda. Bolalik bosqichida inson psixologo-pedagogik jihatdan kuchli ta’sirlanadi. O‘sib kelayotgan bola organizmi, uning miya tuzilishining ichki imkoniyatlari chegarasizligini inobatga olgan holda tashkil etilgan korreksion-pedagogik, psixologik hamda tibbiy ishlar bolaning birlamchi nuqsonini kamaytirib, ikkilamchi nuqsonlarning oldini olishga yordam beradi. Bularning hammasi rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolani mustaqil, hech kimga qaram bo‘lmagan holda hayot kechirishga tayyorlash omillaridir.

Talabaning intellektual malakasiga mos keladigan bilimlarni mustaqil bilim olish qobiliyati bilan aqliy qobiliyati bir-biri bilan uzviy bog‘liq. Talabalarning bilimlarni mustaqil bilim olish qobiliyatini aqliy mehnat malakalari yoki o‘quv malakalari deb ham atash mumkin. Kuzatishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, hozirgi kunda Oliy o‘quv yurtlarida talabalarga ayniqsa, «Odam anatomiyasi va fiziologiyasi» fanini o‘qitishda bunday malakalarni shakllantirishga yetarli darajada e’tibor berilmayotganligi ko‘zga tashlanmoqda. Talabalarning o‘quv malakalari o‘quv materiallari bilan mustaqil ishlash jarayonida hosil bo‘ladi. Boshqacha aytganda, o‘quv malakalari o‘quv materialini qabul qilish, qayta ishlash, uning muhim jihatlarini ajratish, yangi o‘zlashtirgan bilimlarni avvalgilari bilan bog‘lash, o‘quv bilimlarini umumlashtirish, takrorlash va ularni amalda tadbiq qilgan holda masalalar hal qilishda egallanadi. Shunday qilib, o‘quv malakalari talabalarning ta’lim jarayonidagi barcha o‘quv-bilish faoliyatlari bilan bog‘liqdir. O‘quv ishlarining har qanday shakli o‘quv-malaka talab qiladi(masalan, o‘qituvchi ma’ruzasini eshitish malakasi). Talabalarning fandan mustaqil bilim olishlari jarayonida birinchi navbatda mustaqil ishlash malakasi talab etiladi. Talabalarning fandan bilimlarni o‘zlashtirganlik darajasi auditoriyada o‘zlashtirgan bilimlar yordamida aniqlanibgina qolmasdan, balki unda auditoriyadan tashqari olgan bilimlarining ham o‘z salmog‘i bor. Dastlabki bilimlarni talabalar o‘qitilayotgan fanlarga tegishli adabiyotlardan, shaxsiy tajribalaridan, ommaviy axborot vositalari va boshqa axborot manbalaridan qabul qiladilar. Talabalarning o‘quv malakalarining oshishi bilim olishlarini yakkalashtirishda ularning qiziqishi alohida muhim o‘rin tutadi. Talabalarning qiziqishlarini o‘rganishda ularning bilimlari tashhisidan foydalaniladi. Buning uchun kuzatish, suhbat, anketa va boshqa uslublardan foydalaniladi. Shunday qilib, oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini yakkalashtirishda birinchi navbatda talabalarning: o‘qitish; o‘quv malakalari; o‘zlashtirish; bilishga qiziqishlari kabi xususiyatlarini hisobga olish zarur.

O‘quv jarayonini yakkalashtirishda bu ko‘rsatkichlarni har bir talaba uchun hisobga olish muhimdir. Talabalarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishda o‘qituvchi muhim rol o‘ynaydi.

Respublikamizda olib borilayotgan barcha islohotlarning maqsadi davlatimiz kelajagiga mustahkam poydevor qurishdan iborat. Bu poydevor sog‘lom, yetuk va barkamol shaxslarni tarbiyalab voyaga yetkazish natijasida yaratiladi. Har qanday jamiyatda kelajak vorislari bo‘lmish farzandlarni ma’suliyatni his etadigan, ularni davlat taraqqiyoti va gullab-yashnashiga salmoqli ulush qo‘shadigan munosib fuqarolar bo‘lib yetishishlariga katta umid bilan qaraladi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. (23.09.2020) //
3. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020., 03/20/637/1313-son.
4. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi. Lex.uz
5. F.U.QODIROVA, D.A.PULATOVA Inklyuziv ta’lim: nazariya va metodikaCHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI Pedagogika universiteti hamda institutlarining barcha yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalar, inklyuziv ta’lim sharoitida faoliyat yuritayorgan o‘qituvchilar hamda ota-onalar uchun darslik-Chirchiq 2022

YANGI O‘ZBEKISTON JAMIYATIDA AYOLLARNING O‘RNI

N.Sh. Xodjaeva[1], N.U. Babaxanova[2]
[1]Informatika i kompyuter grafikasi kafedrasi v.b.dotsent,
[2]Xisob va biznes kafedrasi mudiri RhD dotsent
Toshkent davlat taransport universiteti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17672931

Annotatsiya. *Ayol oilada turmushning asosiy tirgagi bo‘lishi bilan birgalikda jamiyat taraqqiyoti va farovonligi uchun ham juda muhim shaxs hisoblanadi. O‘z oilasida farzandlar parvarishi, ta’lim-tarbiyasidan ortib, jamiyatda ham mas’uliyatli vazifalarni zimmasiga olgan, uni sharaf bilan uddalab kelayotgan fidoyi ayollar zamonamizning chinakam qahramonlari desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.*

Kalit so‘zlar: *jamiyat, ma’naviy barkamollik, ayol, davlat, xotin – qizlar, hayot, fikr, ijtimoiy-siyosiy.*

Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning huquq va manfaatlarini taminlash, munosib mehnat va turmush sharoitini yaratish, intelektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish, jamiyatning ijtimoiy hayoti va davlat qurilishidagi ishtirokini yuksaltirish, liderlik, tashkilotchilik, tadbirkorlik qobiliyatini qo‘llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlar har jabhada faol, jamoat ishi, ilmiy tadqiqot bilan mashg‘ul ayollar vakillari, xotin-qizlar haq-huquqlari, qonuniy manfaaatlarini muhofaza qilish idoralari mavjuddir.

Ma’lumki, ming yillar davomida har qaysi jamiyatning madaniy darajasi va ma’naviy barkamolligi ayollarga bo‘lgan munosabat bilan belgilangan. Ayolni e’zozlash, unga ehtirom ko‘rsatish o‘zbek xalqiga xos xususiyatdir. Respublikamizda ayollar bilan bog‘liq masalalar davlat va jamiyatning diqqat markazidadir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46–moddasida “Xotin – qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar” deb ta’kidlanishida, hamda bunga hayotning barcha jabhalarida amal qilinishi fikrimiz dalilidir.

Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning huquq va manfaatlarini taminlash, munosib mehnat va turmush sharoitini yaratish, intelektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish, jamiyatning ijtimoiy hayoti va davlat qurilishidagi ishtirokini yuksaltirish, liderlik, tashkilotchilik, tadbirkorlik qobiliyatini qo‘llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlar har jabhada faol, jamoat ishi, ilmiy tadqiqot bilan mashg‘ul ayollar vakillari, xotin-qizlar haq-huquqlari, qonuniy manfaaatlarini muhofaza qilish idoralari mavjuddir.

Mamlakatimizning chiqargan “O‘zbekiston xotin–qizlar kengashi faoliyatini qo‘llab–quvatlash borasidagi qo‘shimcha chora–tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni xotin – qizlarning ijtimoiy – siyosiy faolligini, jamiyat va davlat qurilishiga oid vazifalarni bajarishdagi o‘rnini oshirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlarni butunlay yangi bosqichga – yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar talabi darajasiga ko‘tardi.

Bugungi kunda dunyoda ayollarning turmush sharoiti tubdan o‘zgarganligini hamda o‘zini-o‘zi anglash va shaxsiy o‘sish uchun ko‘proq imkoniyatlar paydo bo‘lganligini kuzatishimiz mumkin. Zamonaviy dunyoda ayol o‘z salohiyatini har qanday faoliyatda amalga

oshirishi mumkin, asosiysi unda o‘ziga ishonch va yetarlicha qat’iyatlilik bo‘lsa bas. Xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni va rolining asosiy ijtimoiy ko‘rsatkichlari huquqiy va ijtimoiy himoya darajasi, ta’lim va bandlik darajasi, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ishtiroki hisoblanadi.

Bugungi kunda xalqaro maydonda ham ayollarga alohida hurmat va e’tibor qaratilmoqda. BMTning Xotin-qizlar holati bo‘yicha komissiyasi 67-sessiyasining asosiy mavzusi raqamli texnologiyalar va ayollar huquqlari haqida bo‘lib, tadbirda O‘zbekiston delegatsiyasi tomonidan mamlakatda amalga oshirilayotgan gender tenglik siyosati, ta’lim va ilm fanda xotin-qizlarga berilayotgan imtiyozlar va imkoniyatlar, xotin-qizlar ijtimoiy himoyasini ta’minlashdagi innovatsion yondashuv, ayollar tadbirkorligi va biznes yo‘nalishida imkoniyatlarni kengaytirishda amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan O‘zbekiston tajribasi taqdim etilgan.

Bundan tashqari, “BMT-ayollar” tuzilmasi ijrochi direktori o‘rinbosari Anita Bxatiya tomonidan O‘zbekistonda gender tenglik va xotin-qizlar huquqlarini ta’minlash, ularning jamiyatdagi mavqeini oshirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarga yuqori baho berilgan. BMT vakili 2030 yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi hamda 2022–2026 yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo‘yicha milliy dasturni amalga oshirishda tashkilotning texnik va moliyaviy ko‘magini jalb etishda har tomonlama yordam berishga tayyorligini bildirdi.

Oila va uning ta’sirida shakllanuvchi insoniy fazilatlar, birinchi galda, onaning oq sutidan, uning chaqaloqqa bo‘lgan mehr – muhabbatidan, beshik tebratib o‘tkazgan bedor tunlaridan, ehtirosga va zavq – shavqqa to‘la havasmand onlaridan boshlanadi.

Ayol allasi o‘ziga xos millat madhiyasidir. Chunki bunda Vatanni o‘ziga jam qilgan onaning orzusi, uning javobgarligi, uning mehri jo‘sh urib turadi. Mamlakatimizning siyosiy hayotida, davlat va jamiyat boshqaruvida, iqtisodiyotimizning barcha tarmoqlarida, madaniyat, ilmu - fan, xalq ta’limi, sog‘liqni saqlash, sport kabi ijtimoiy sohalarda ayollarimizning o‘rni va roli ortib borayotganligi ayniqsa e’tiborlidir. Bugun O‘zbekistonda demokratik davlat, fuqarolik jamiyati barpo etilmoqda. Fuqarolik jamiyati ayollardan ham o‘z haq–huquqlarini, manfaatlarini himoya qilishni va ulardan o‘z muammolarini yechishga bo‘lgan tabiiy intilishni talab qiladi. Xotin qizlarning bunga tayyor bo‘lishi muhim ijtimoiy ahamiyatga ega.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, fermerlik, kichik va o‘rta biznes, xususiy tadbirkorlik faoliyati kabi xozirgi zamon va bozor munosabatlari talab qilayotgan sohalarda ham xotin – qizlarning faol ishtiroki va nufuzi tobora kuchayib borayotganiga guvoh bo‘lib turibmiz.

Qizlarimiz, ayollarimizning jismonan baquvvat bo‘lishi bizning bundan keyingi taraqqiyotimizning muhim zaminlaridan hisoblanadi. Bugungi kunda ko‘plab yosh qizlar, ayollarimizning asosiy maqsadi ijtimoiy–iqtisodiy islohotlar jarayonida faollikni oshirish, yuksak ma’naviy fazilatlarni mujassamlashtirish, milliy tafakkurni shakllantirishdan iborat. Yoshlarni madaniy, tarixiy an’analarimizga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash, qizlarni oilaviy turmushga tayyorlash, tadbirkorlik va kasb – hunarga o‘rgatish bugungi kunning dolzarb masalalariga aylandi. Yosh ayollar, qizlarni ish bilan band etish, tadbirkorlik tashabbuslarini amalga oshirishda, kichik va o‘rta biznesda, ayniqsa qishloq joylarida xotin–qizlar tashabbuslarini qo‘llab quvvatlash, ularga huquqiy va ijtimoiy shart–sharoitlarni kengaytirish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, ayol – ijodkor, ayol – har ishda madadkor. Hayotni hayotga, avlodni avlodga ulovchi ayol. Ayol – oilaning, jamiyatning ishonchi, tayanchidir.

Prezidentimizning bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida: “Yangi O‘zbekistonni barpo etishda, Uchinchi Renessans bunyodkori bo‘lgan yosh avlodni tarbiyalashda sizlarga, sizlarning murabbiylik fazilatlaringizga mehribon onalarimiz, qadrli opa-singillarimiz, lobar qizlarimizga cheksiz faxr-iftixor bag‘ishladi. Binobarin, shu yuksak ishonchni oqlash yo‘lida bugun har birimiz oila davrasida tinch-omon, sog‘-salomat, farovon va baxtli turmush kechirish barobarida,davlatimiz va jamiyatimiz hayotida faol ishtirok etishga astoydil intilmoqdamiz. Xotin-qizlarning jamiyatda o‘z o‘rnini topishida, birinchi navbatda, ota-onalarning munosabati, ikkinchidan, oliy ta’limda ularni qamrab olish imkoniyati muhim o‘rin tutadi. Hech qachon biron e’tibor yo e’tirof kutmasdan, oiladagi, jamiyatdagi ishini o‘zining vijdoniy burchi, deb biladigan ayollar borligidan har qancha faxrlansa arziydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023 yil.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 sentyabrdagi “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda O‘RQ-562-sonli Qonuni.
3. https://lex.uz/acts/4494849.

NAVOIY ASARLARIDA AYOL TIMSOLI

Karamov Shoxida Luftillayevna
Qarshi davlat universiteti, Xotin-qizlar maslahat Kengashi va psixologik xizmat ko‘rsatish markazi rahbari
https://doi.org/10.5281/zenodo.17672946

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Alisher Navoiy o‘z ijodida ayollarning betimsol obrazlarini yaratganligi, o‘sha davrning zulmi ostida ezilib yashagan ayollarning qaddini ko‘tarish uchun asarlarida ular haqidagi ilg‘or fikr va orzularni yuksak badiiy shakl va bo‘yoqlarda, o‘ziga xos badiiy vositalar orqali ifodalaganligi haqida so‘z boradi. Navoiy ayollarga past nazar bilan qarashni tanqid ostiga olganligini, o‘zining hayotiy va romantik orzularini bayon qilganligini uning asarlari misolida sharhlashga harakat qilingan.*

Kalit so‘zlar: *ayol, betimsol, obraz, romantik, hayotiy, orzu, badiiy shakl.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается, как Алишер Навои создавал культовые женские образы в своих произведениях, как он выражал прогрессивные идеи и мечты о женщинах в своих произведениях, используя высокие художественные формы и колорит, используя уникальные художественные средства, чтобы поднять статус женщин, живших в условиях угнетения того времени. Предпринята попытка интерпретировать тот факт, что Навои критиковал уничижительное отношение к женщинам и выражал свои жизненные и романтические мечты на примере своих произведений.*

Ключевые слова: *женщина, культовый, образ, романтический, жизненный, мечта, художественная форма.*

Annotation. *This article discusses how Alisher Navoi created iconic images of women in his works, and how he expressed progressive ideas and dreams about women in his works in high artistic forms and colors, using unique artistic means, in order to raise the status of women who lived under the oppression of that time. An attempt has been made to interpret the fact that Navoi criticized the derogatory view of women and expressed his vital and romantic dreams using the example of his works.*

Keywords: *woman, iconic, image, romantic, vital, dream, artistic form.*

Kirish: So‘z mulkining sultoni Alisher Navoiy ijodiga e’tibor qaratilsa, bu buyuk zot oilani, onalar va ayollarning jamiyatdagi o‘rnini nihoyatda yuksak baholaganini ko‘ramiz. Shoir o‘z asarlarida ayolning orzu-umidlarini, mehr va sadoqatini nazm ipiga marjon misol tizgan, ularni ma’naviy barkamollik timsoli sifatida talqin etgan. Navoiyning xotin-qizlar haqidagi o‘y va fikrlari, orzu va tilaklari bir tomondan, o‘z davri ijtimoiy-madaniy muhitining ruhidan oziqlangan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, kelajak avlodga qaratilgan ezgu g‘oyalarning ifodasi sifatida shakllangan. Bu fikrlar ko‘p hollarda hayotiy voqelik bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Alisher Navoiy nazmiy va nasriy asarlarida ayol–ona siymosini insoniyatning ma’naviy va axloqiy poydevorini ifodalovchi, ezgulik va bunyodkorlik timsoli darajasida talqin etadi. Shoir nigohida ayol–ona — bu hayotning asl ma’nosini mujassam etuvchi muqaddas zot, jamiyat taraqqiyotining ma’naviy tayanchi, sabr-toqat va sadoqat manbai hisoblanadi.

Asosiy qism: Navoiyning badiiy olamida ayol–ona siymosi ilohiylik, poklik va insonparvarlik g‘oyalari bilan uyg‘unlashib, uning asarlaridagi yuksak axloqiy mezonlarning asosiy ifodachisiga aylanadi.

AYOL-ONA Navoiyning nazmiy va nasriy asarlarida buyuk zot darajasida ko‘rsatiladi:

Onalarning ayog‘i ostidadir,
Ravzai jannatu jinon bog‘i.
Ravza bog‘i visolin istar ersang,
Bo‘l onaning oyog‘in tufrog‘i

Alisher Navoiy o‘z asarlarida, xususan, “Xamsa” dostonlarida ayollarga keng o‘rin beradi. Hazrat Navoiy bu xususda shunday deganlar:

Bu ikkining xizmatini bir bil,
Har neni ifrot esa, taqsir bil.
Boshni fido ayla, ato qoshig‘a.
Jismni qil sadqa ano boshig‘a

Shu bois mumtoz she’riyatning muhtasham kulliyotida ayol, eng avvalo, ulug‘ siymo sifatida namoyon bo‘ladi.

Alisher Navoiy o‘z davri hayotining manzaralarini keng ochib bergan o‘lmas asarlar yozib qoldirdi. U yaratgan ajoyib obrazlari orqali insonparvarlik g‘oyalarini ilgari surdi. Navoiy o‘sha davrning zulmi ostida ezilib yashagan ayollarning qaddini ko‘tarish uchun asarlarida ular haqidagi ilg‘or fikr va orzularni yuksak badiiy shakl va bo‘yoqlarda, o‘ziga xos badiiy vositalar orqali ifodaladi. Ayollarga past nazar bilan qarashni tanqid ostiga oldi. Ayollarning betimsol obrazlarini yaratib, o‘zining hayotiy va romantik orzularini bayon qildi.

Qosh birla, ko‘zing yaxshi yonog‘ing yaxshi,
Yuz birla so‘zing yaxshi, dudog‘ing yaxshi,
Yeng birla menging yaxshi saqoqing yaxshi,
Bir bir ne deyin boshdin to oyoqing yaxshi.[48]

O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixiga nazar tashlar ekanmiz, ayollar obrazlarini yaratishdek muhim ishga hech bir shoir Alisher Navoiydek katta ahamiyat bermagan. Vafo va sadoqat, ishq-muhabbat bobida go‘zal ayollar timsolini, ularning yuksak ma’naviyatini o‘z g‘azallarida juda chiroyli ifodalab bergan.

Xotin-qizlarga nisbatan salbiy munosabat hukm surgan **XV asrda Navoiy bolalar tarbiyasida ayollar - onalarni otalar bilan barobar o‘ringa qo‘yadi.**

Ota va ona birdek hurmat-ehtiromga munosib ekanligini bayon etadi:

Boshni fido ayla ato qoshiga,
Jismni qil sadqa ona boshiga.
Tun-kuningga aylagali nurfosh,
Birisin oy angla, birisin - quyosh.

Alisher Navoiy “Hayrat-ul-abror” dostonida farzandlarning ota-onaga hamisha sodiq bo‘lishi, ularga samimiy xizmat qilishi zarurligini uqtiradi.

“Farhod va Shirin” dostonidagi Shirin obrazi oqil va dono, ijodkor, vafodor, vatanparvar kabi fazilatlarga ega bo‘lgan mukammal ayol obrazidir. Shirin «Men insonman, shuning uchun ham chin insonni sevaman», deydi.

Menga ne yoru ne ishq havasdur,

[48] Alisher Navoiy G‘azallar. Sharhlar.-T.: Kamalak.1991 y

Agar men odam o‘lsam ushbu basdir.[49]

Ayollardan tadbirkor, olima, davlat arboblari chiqishiga ishongan Navoiy o‘z qarashlarini Mehinbonu obrazi orqali ifodalab beradi.

Mehinbonu ki donishparvar erdi,
Bilik ahliga shohi sarvar erdi.

Navoiy tasvirlagan ayollar har jihatdan yuksak qobiliyat sohibalaridir. Uning Laylisi erkin sevgini istaydi, o‘sha zamon urf-odatlariga la’natlar o‘qiydi. Shirin timsolida vatanparvarlik, odamiylikni ko‘ramiz. Mehinbonu adolat homiysi, davlat boshlig‘i, buyuk iste’dod egasidir. Lubatiy Chiniy kamtar, bahodir ayol timsolidir.

Navoiy yaratgan timsollarda XV asrdagi ayolga past nazar bilan qaralgan tuzumda og‘ir kunlarni ko‘rgan, ezilgan va xo‘rlangan ayollar nufuzini ko‘tarishga intiladi. Ayniqsa, davrdan norozilikni Layli tilidan shunday ifodalaydi:

Layliki baloiy furqati bor,
Ikki Majnuncha mehnati bor.
Umr anga g‘alat havasdur, axir,
Jon tarki ajab emasdur axir.[50]

“Sab’ai Sayyor” asaridagi chang chaluvchi Dilorom timsoli, vafodor ayol qiyofasi o‘ziga xos, go‘zal ko‘rinishlar orqali ifodalab beradi.

“Saddi Iskandariy” dostonidagi Chin go‘zali Lubatiy Chiniy obrazi ham jasur, kuchli, mard, janglarda o‘z matonati bilan dushmanlarga qarshi mardonavor kurashib, faqat g‘alaba qozongan mukammal qahramon ayol timsolidir.

Alisher Navoiy ayollar obrazini yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlash orqali o‘z davrining muhim ijtimoiy muammolarini ilgari surgan, ayol shaxsining jamiyatdagi o‘rni, qadri va mas’uliyatini teran falsafiy mushohada bilan yoritgan. Shoir yaratgan ayol–ona siymosi o‘z davri uchun yangicha tafakkur mahsuli bo‘lib, insonparvarlik, adolat, mehr va sadoqat kabi yuksak fazilatlarni targ‘ib etgan. Navoiy orzu qilgan bu ezgu g‘oyalar, orzu va istaklar bugungi kunda mustaqil O‘zbekiston hayotida o‘zining to‘liq ijobatini topmoqda.

Mamlakatimizda ayollar jamiyatning faol, tashabbuskor va bunyodkor qatlami sifatida e’tirof etilmoqda. Ular siyosat, ta’lim, ilm-fan, madaniyat, san’at, tibbiyot, tadbirkorlik kabi turli sohalarda o‘z salohiyatini namoyon etib, yurt taraqqiyoti yo‘lida fidokorona mehnat qilmoqdalar. Ayollarning bilim va ma’naviyatga bo‘lgan intilishi, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtiroki millatimiz sha’ni va qadriyatlarini yuksaltirishga, Vatanimiz ravnaqi va kelajak avlod tarbiyasiga beqiyos hissa qo‘shmoqda.

Xulosa: Bugungi kunda O‘zbekiston ayoli — bu nafaqat oila timsoli, balki millatning ma’naviy qudrati, zamonaviy tafakkur va yangilanish ramzidir. Shu ma’noda, Navoiy asarlarida tasvirlangan ayol–ona siymosi bilan bugungi zamon ayoli o‘rtasida uzviy ma’naviy bog‘liqlik mavjud: ularning har ikkalasi ham mehr, sadoqat va ezgulikning abadiy timsolidir.

Alisher Navoiy besh asr avval orzu qilgan o‘y va istaklari bugun ozod va obod mamlakatimizda o‘z ijobatini topmoqda.Yurtimizda ayollar qadr topgan. Ular jamiyat hayotining barcha jabhalarida faol ishtirok etib, o‘zlarining go‘zal ma’naviyati, bilim va ma’rifati bilan millatimiz sha’nini, yurt ravnaqini ko‘tarishga katta hissa qo‘shmoqdalar.

[49] Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami.20 jildlik. 20-jild: Navodir un –nihoya. T.: “Fan”, 1987.
[50] Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. 3-jild: G‘aroyib us-sig‘ar. T.: «Fan», 1988.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy G‘azallar. Sharhlar.-T.: Kamalak.1991 y
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami.20 jildlik. 20-jild: Navodir un –nihoya. T.: “Fan”, 1987.
3.Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. 3-jild: Xazoyin ul-maoniy: G‘aroyib us-sig‘ar. T.: «Fan», 1988.

TALABA-QIZLARNING ISHLAB CHIQARISHDAGI ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH SOHASIDA FAOLLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY VA AMALIY YO‘NALISHLARI

Madjidova Tanzila Raximovna[1], Abdullayeva Raxila Baxtiyorovna[2], Shodiyeva Dilnoza SHamsiyevna[3]

[1] Samarqand davlat universiteti dotsenti, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi;

[2] Urganch agrotexnologiyalar texnikumi o‘qituvchisi;

[3] Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti 2-kurs magistri

https://doi.org/10.5281/zenodo.17673041

Annotasiya. *Ushbu maqolada bugungi kunda jamiyat taraqqiyotini ta’minlashda talaba-qizlarning ijtimoiy faolligi, intelektual va liderlik salohiyatini rivojlantirishda ta’lim texnologiyalarining ahamiyati va samaradorligi, ulardan foydalanishning innovatsion omillari tahlil qilinadi. Yoshlarning o‘qib-o‘rganish va rivojlanishga yo‘naltirilgan faoliyatini tashkil etishda ularning jismoniy, ruhiy quvvatlarini ro‘yobga chiqarish, pedagogik, ijtimoiy ahamiyatini oshirish, talaba-qizlarning bilim olish sohasidagi qiziqishlari va ehtiyojlarini qondirish, ishlab chiqarishdagi atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida faolligini oshirishning nazariy va amaliy yo‘nalishlari hamda yangi O‘zbekistonda ayol-qizlar dunyoqarashi va ma’naviy qarashlarini rivojlantirishga qaratilayotgan e’tiborning mazmuni, mexanizmlari va natijalari ilmiy asosda yoritiladi.*

Kalit so‘zlar. *Yangi taraqqiyot, jamiyat, ijtimoiy-siyosiy faollik, ta’lim texnologiyalari, samaradorlik, amaliyot, nazariya, texnologik jarayon, ishlab chiqarish, yoshlar, atrof-muhit, ekologik normavtiv.*

Аннотация. *В данной статье анализируются значение и эффективность образовательных технологий в развитии социальной активности, интеллектуального и лидерского потенциала студенток, а также инновационные факторы их применения для обеспечения современного общественного прогресса. Научно обоснованно освещаются теоретические и практические направления организации деятельности молодёжи, направленной на обучение и развитие, раскрытие их физических и духовных возможностей, повышение педагогической и социальной значимости, удовлетворение интересов и потребностей студенток в области получения знаний, а также усиление их активности в сфере охраны окружающей среды на производстве. Кроме того, рассматривается содержание, механизмы и результаты внимания, уделяемого в Новом Узбекистане развитию мировоззрения и духовных ценностей девушек и женщин.*

Ключевые слова: *новое развитие, общество, социально-политическая активность, образовательные технологии, эффективность, практика, теория, технологический процесс, производство, молодёжь, окружающая среда, экологические нормы.*

Annotation. *This article analyzes the significance and effectiveness of educational technologies in developing the social activity, intellectual and leadership potential of female students, as well as the innovative factors of their application in ensuring modern social progress. Theoretical and practical directions for organizing the activities of young people aimed at learning and development are scientifically highlighted, including the realization of their physical and spiritual abilities, enhancing their pedagogical and social importance,*

satisfying the interests and needs of female students in the field of education, and increasing their activity in environmental protection within production. In addition, the article examines the content, mechanisms, and results of the attention given in New Uzbekistan to the development of the worldview and spiritual values of women and girls.

Keywords: *new development, society, socio-political activity, educational technologies, efficiency, practice, theory, technological process, production, youth, environment, ecological norms.*

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida talaba qizlarni ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar jarayoniga jalb etish, davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiyalashni keng ko‘lamda amalga oshirish obyektiv zaruriyatga aylandi. Bugun jamiyatning deyarli hech bir muammosini, hatto kelajagi buyuk davlat qurish vazifasini ham ayollar ishtirokisiz hal qilish mushkul [3].

Ta’lim va bilim olish imkoniyatlarining kengayishi qizlarning ta’lim olishini qo‘llab-quvvatlash, oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirishlarini rag‘batlantirish, xorijda tahsil olish dasturlarida ularning ishtirokini qo‘llash – bularning barchasi yosh avlodning dunyoqarashini kengaytiradi. Ma’naviy-axloqiy tarbiya tizimini mustahkamlash maktab, mahalla, oilada qizlarning ma’naviy rivojini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kompleks dasturlar ishlab chiqilgan. Bu jarayonda milliy qadriyatlar, ma’naviy meros, buyuk allomalar ta’limoti, oilaviy tarbiya tajribalari asosiy o‘rin tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2020 yil 24 yanvar kuni Oliy Majlisga Murojaatnomasida yoshlar masalasiga to‘xtalar ekan “O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirish uchun faqat jadal islohotlar, ilm-ma’rifat va innovatsiyalar orqali erishish mumkin, buning uchun avvalambor, tashabbuskor islohotchi, strategik fikrlovchi, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur” degan ushbu murojaati mazmunida ham oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan yosh-avlodni ijtimoiy faol fuqaro sifatida kamol toptirish pedagoglar oldida turgan eng muhim muammodir. Adolatli demokratik jamiyatda ijtimoiy faol fuqarolik tarbiyasining o‘rni umuman o‘zgacha talqin etiladi. Mamlakatimizda yoshlarning har tamonlama yetuk shaxs sifatida voyaga yetishida jamiyat taraqqiyoti muhim o‘rin tutishi bilan birga, uning ijtimoiy faol fuqaro bo‘lib faollashuvi muhim o‘rin tutadi. Yoshlarda ijtimoiy faollikni rivojlantirish bugungi kunda dolzarb masala bo‘lib bormoqda. Fuqaro, faol fuqarolik tushunchalari mazmun – mohiyati to‘g‘risidagi tasavvur bilan bog‘liq yondashuvlar, turli darvlarda turlicha talqin qilingan. [1; 2; 4].

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev rahnamologida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, salomatligini muhofaza qilish, intilish va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, ularga munosib mehnat va yashash sharoitlarini yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda.Talaba qizlar ta’lim olayotgan vaqtlarida yangi oilaga qadam qo‘yishlari ya’ni oila atalmish qo‘rg‘onning asosini tashkil qilishlari, yangi oiladagi muhit ham talaba qizlarning bilim olishlariga qulay sharoit yaratishlari lozim. 2018-yil 2-fevraldagi “Xotin-qizlarni qo‘llabquvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5325-sonli Farmonining qabul qilinganligi buning yorqin ifodasidir. Mazkur Farmon bilan xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va sotsial faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o‘z qobiliyat va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so‘zsiz rioya qilinishini ta’minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, oila institutini mustahkamlashga alohida e’tibor qaratildi. Xususan, talaba-qizlarning ijtimoiy faolligini

rivojlantirish, ularni jamiyatimizning teng huquqli bunyodkoriga aylantirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir [3].

O‘zbekiston Respublikasida Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi [1] oliy ta’lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta’lim va ishlab chiqarishning mustahkam integrasiyasini ta’minlash asosida ta’lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovasion faoliyatni samarali tashkil etishda, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagi PQ-4391-son “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida" gi Qarori ijrosini ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan. Ushbu Konsepsiya O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalishlari, vazifalari, o‘rta va uzoq muddatli istiqbolidagi rivojlanish bosqichlarni belgilaydi hamda sohaga oid fan dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni[9], ishlab chiqish uchun asos bo‘ladi [6; 5; 7].

Talaba-qizlar ishlab chiqarishda atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi ishlarda, qurilish sohasida, sanoat va ishlab chiqarish korxonalariga ekologik normativlar ishlab chiqishda loyihalarga faol ishtirok etmoqda. Jumladan, Samarqand viloyatidagi “JOMBOY YASHIL CHIROQLARI” MChJ sement va asbest shifer ishlab chiqarish korxonasi va boshqa bir qancha sanoat korxonalarining “Atrof-muhitga ta’sir to‘g‘risida bayonot arizasi”, “Ekologik oqibatlari to‘g‘risida bildirish” loyihalarini ishlab chiqishda faol ishtirok etib, ishlab chiqarishning texnologik jarayonlarini o‘rgangan. Samarqand viloyati Pasdarg‘om tumanidagi g‘isht ishlab chiqarish korxonasining ekologik normativ loyihasi ishlab chiqilgan.

Hozirgi jamiyatda talaba-qizlar ijtimoiy-pedagogik nuqtayi nazardan o‘zini oqlaydi. Keng dunyoqarashga ega bo‘lgan talaba-qizlarni mutaxassislik asosida tayyorlash va ular yordamida mamlakatimiz xotin-qizlari salohiyatidan jamiyatimiz ma’naviyati va moddiy farovonligi yanada oshirishning falsafiy-ijtimoiy xususiyatlari hamda pedagogik-psixologik o‘ziga xosliklari mavjud.

Xususan, bugungi kunda jamiyatimizda talaba-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish, talaba-qizlarni yangi oilaga moslashuvi va unga bo‘lgan e’tibor, ularni jamiyatimizning teng huquqli bunyodkoriga aylantirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Buning yechimi sifatida bugungi kunda ayollar jamiyatimizning eng e’zozga sazovor, hurmat-izzat, g‘amxo‘rlik va e’tiborga loyiq ijtimoiy toifasiga aylanmoqda [3;].

Yangi O‘zbekistonda ayol-qizlarning dunyoqarashi, ijtimoiy faolligi va ma’naviy yetukligi sezilarli ravishda oshmoqda. Ular davlat boshqaruvi, ilm-fan, ta’lim, sog‘liqni saqlash va boshqa sohalarda munosib o‘rin egallab bormoqda. Kelgusida gender siyosatini takomillashtirish, raqamli ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish, ma’naviy tarbiya tizimini yanada takomillashtirish ustuvor vazifalar sifatida qaraladi.

Xulosa qilib aytganda, ayol-qizlar dunyoqarashini kengaytirish, ma’naviy va intellektual salohiyatini yuksaltirish Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining muhim sharti hisoblanadi. Bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyatning ma’naviy yuksalishi, oilaning mustahkamligi va davlatning barqaror rivojiga xizmat qilmoqda. Yangi O‘zbekistonning ertangi kunida ma’naviy barkamol, bilimli va faol ayol-qizlar muhim o‘rin tutadi. Bu borada ularning ta’lim va kasbiy ko‘nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko‘maklashish asosiy masalalardan biridir.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni // PF-5847-son.
2. Djamilova N. Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarida tashabbuskorlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari.: Avtoref. dis.ped.DSc. – T.,2019 y. – 13- 14.
3. Z.N. Saidova. Pedagogik tadqiqotlar jurnali № 3, yanvar, 2025 ISSN:3060-4923
4. Quronboyev Q. “Talabalarning ma’naviy – ijtimoiy faolliklarini rivojlantirishning pedagogik asoslari (Yoshlar tashkilotlari misolida)”: p.f.n..diss. – T.: O‘zPFITI, 2000 y.
5. Tursunboyevich O. A. Pedagogical and psychological opportunities for the development of social active civil competences in students //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 3. – S. 1888-1897.
6. Abduganiyev O. Formation of legal training aimed at competitiveness in pupils of secondary schools //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2019. – T. 9. – №. 7.
7. Tursunboyevich O. A. Pedagogical and psychological opportunities for the development of social active civil competences in students //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 3. – S. 1888-1897.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA AN’ANAVIY EKSKURSIYA HAMDA VIRTUAL SAYOHAT ORQALI VATANPARVARLIK TUYG‘USINI SHAKLLANTIRISH

Kasimova Odina Alimjonovna[1], Abdujalilova Mushtariy Akmal qizi[2]
[1]Nizomiy nomidagi O‘z.M.P.U. “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi” kafedrasi o‘qituvchisi p.f.f.d. (PhD);
[2]Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 407-guruh talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17689717

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida an’anaviy ekskursiyalar hamda virtual sayohatlar orqali vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilingan. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarni milliy qadriyatlarga hurmat, yurt tabiatiga mehr, tarixiy merosga g‘urur hissi bilan tarbiyalashda zamonaviy axborot texnologiyalarining o‘rni yoritilgan. Shuningdek, ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlar, multimedia vositalari va interfaol metodlardan foydalanish orqali vatanparvarlik tarbiyasini kuchaytirish yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *vatanparvarlik, ekskursiya, virtual sayohat, milliy qadriyat, tarbiya, boshlang‘ich ta’lim, innovatsion metodlar, milliy o‘zlik, texnologiyalar.*

Vatanparvarlik — bu inson qalbida o‘z Vataniga nisbatan cheksiz muhabbat, fidoyilik va sadoqat tuyg‘ularini ifodalovchi yuksak ma’naviy fazilatdir...[51]

1.An’anaviy ekskursiyaning ta’lim-tarbiyaviy ahamiyati An’anaviy ekskursiyalar — bu o‘quvchilarning darsda o‘rganilgan bilimlarini hayotiy tajriba bilan boyitadigan, tabiat, tarixiy joylar, madaniy maskanlar bilan bevosita tanishtiradigan samarali o‘quv-tarbiyaviy faoliyat shaklidir...

2.Virtual sayohatlar — ta’limda innovatsion yondashuv.Texnologiyalar asrida ta’lim jarayonini zamonaviy vositalarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shu nuqtai nazardan, virtual sayohatlar boshlang‘ich ta’limda ham keng qo‘llanilmoqda.

3.An’anaviy va virtual sayohatlarni uyg‘unlashtirish. Bugungi ta’limda samaradorlikni ta’minlash uchun an’anaviy va virtual usullarni uyg‘unlashtirish muhimdir.

4.Vatanparvarlik tarbiyasining psixologik-pedagogik asoslari. Vatanparvarlik tuyg‘usi — bu faqat bilim emas, balki his-tuyg‘u, e’tiqod, g‘urur va ishonchni o‘zida mujassam etgan murakkab ma’naviy-psixologik holatdir.

5.O‘qituvchining roli. O‘qituvchi vatanparvarlik tarbiyasining bosh tashabbuskori hisoblanadi. U nafaqat darsda, balki sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda ham o‘quvchilarda Vatanga muhabbatni shakllantiruvchi faoliyatlarni tashkil etishi lozim...[52]

Vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda o‘qituvchi yetakchi rol o‘ynaydi. U o‘quvchilarni faqat nazariy bilim bilan emas, balki amaliy faoliyat orqali ham tarbiyalashi lozim. Masalan, ekskursiyadan so‘ng o‘quvchilarga taassurotlarini ifoda etuvchi insholar yozdirish, rasmlar chizdirish yoki guruhiy suhbatlar o‘tkazish samarali natija beradi.

[51] Usmonova M. “Vatanparvarlik tarbiyasi: nazariya va amaliyot”. – Samarqand, 2020.
[52] Karimova N., To‘raqulova S. “Boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlar metodikasi”. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021.

Shuningdek, multimedia vositalari yordamida tayyorlangan videolavhalar, 3D formatdagi muzey sayohatlari, tarixiy shaxslar haqidagi interaktiv taqdimotlar o‘quvchilarning diqqatini jalb etadi va ularning milliy qadriyatlarga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Bu jarayonda o‘qituvchi o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini, psixologik tayyorgarligini va individual qobiliyatlarini hisobga olishi zarur.

Ta’lim tarbiya jarayonida faol ishtirok etish bevosits dars sifat samaradorligini ko‘tarish asosida yuqorida natijalarga erishishga zamin bo‘lmoqda. Mashg‘ulotlar turlar o‘quvchilarni mustaqil tadqiqotchilik faoliyatga jalb etish, ularda ijobiy fikr, kreativ tafakkur va qobiliyatni rivojlantiradi. Ta’lim tizimda bu borada yangiliklar va o‘zgacha bo‘lgan metodikalardan foydalangan holda o‘quvchilarni mustaqil fikrlash, yangicha g‘oyalarni izlashga, qolibdan holi bo‘lgan holda dasturlar va darsliklar ishlab chiqildi. Shulardan biri tariximizga bo‘lgan qiziqish va hurmatni shakllantirishda mamlakatmiz bo‘ylab turizmni rivojlantirish yo‘lga qo‘yilmoqda. Hozirda texnalogiyalar asrda yashab keliayotgan ekanmiz ularsiz hayotni tasavur qilish qiyin albatta. Bugunda dasturlash va ilg‘or texnalogiyalar yordamida bir joyda turib boshqa joyni virtual ko‘z o‘ngimizfa ko‘rish imkoniyatga egamiz. [53]

O‘zbekiston Respublikasi Prezdenti Sh.M.Mirziyoyev o‘quvchi yoshlarni zamon bilan hamnafas bo‘lish va yangicha fikrlashga izlanishga tashabbuskirlik va tadbirkorlikka chaqirmoqda. Shu sababli ta’lim tizimi va mazmunini takomillashtirish, uni real hayotga yaqinlashtirish, shuningdek, yoshlarda intellektual-ijodiy rivojlanish; ijtimoiy- kommunikativ qobiliyatni o‘stirish lozimdir. O‘tgan vaqt moboynida ta’lim amaliyotida ushbu vazifalarni hal etishda birmuncha yutuqlarga ham erishildi. Xususan, maktablarda tarixiy- madaniy marosini o‘rganish bo‘yicha sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilar ijodiy faoliyatga yo‘naltirish muammosi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida an’anaviy ekskursiya va virtual sayohatlar orqali vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish — zamonaviy ta’lim jarayonida juda muhim pedagogik vazifalardan biridir. Chunki kichik yoshdagi o‘quvchilar qalbida Vatanga bo‘lgan muhabbat, faxr, sadoqat va g‘urur tuyg‘ularini erta shakllantirish ularning kelgusidagi ma’naviy-axloqiy kamolotida muhim o‘rin tutadi.

An’anaviy ekskursiyalar o‘quvchilarga o‘z ko‘zlari bilan ona yurt tabiati, tarixiy joylari, madaniy merosini ko‘rish, his qilish imkonini beradi. Bu esa ularning kuzatuvchanligini, mustaqil fikrlashini va Vatanga nisbatan iliq tuyg‘ularini kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, an’anaviy ekskursiya va virtual sayohatlarning uyg‘unligi o‘quvchilarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. O‘qituvchi bu jarayonda o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, qiziqarli, interaktiv, ta’sirchan shakl va metodlardan foydalansa, o‘quvchilarda o‘z Vatanini sevish, uni asrash va kelajakda unga sadoqat bilan xizmat qilish istagi mustahkamlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimova N., To‘raqulova S. “Boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlar metodikasi”. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021.
2. Usmonova M. “Vatanparvarlik tarbiyasi: nazariya va amaliyot”. – Samarqand, 2020.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4312-sonli qarori, 2019-yil 29-aprel.

[53] 3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4312-sonli qarori, 2019-yil 29-aprel

4. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun. – Toshkent, 2020.
5. Nurmonova Z. “Boshlang‘ich ta’limda innovatsion metodlar”. – Toshkent, 2022.
6. Tursunov H. “Milliy qadriyatlar va vatanparvarlik tarbiyasi”. – Jizzax, 2021.
7. https://virtual.uzbektourism.uz – Virtual ekskursiyalar platformasi.
8. https://uzedu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi rasmiy sayti.

“XORAZM HAQIQATI” GAZETASIDA TARIXIY SHAXSLARNING TALQINI: ILMIY TAHLIL

Turebayeva Nurjamol Kuptileu qizi[1], Nurullayeva Shoira Kushnazarovna[2]
[1]Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti talabasi; [2]Ilmiy rahbar: dots.
https://doi.org/10.5281/zenodo.17689753

Annotatsiya*. Ushbu maqolada “Xorazm haqiqati” gazetasida tarixiy shaxslar haqidagi materiallarning yoritilish darajasi, ularning mazmuniy xususiyatlari hamda matbuotning mintaqaviy tarixiy xotirani shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilindi. Tadqiqot davomida gazetaning turli yillardagi sonlarida chop etilgan maqolalar, mintaqaviy matbuot tarixi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar va ochiq manbalar o‘rganildi. Analiz natijalari “Xorazm haqiqati” gazetasining tarixiy shaxslarga oid ma’lumotlarni yoritishda ma’rifiy, tarbiyaviy va madaniy funksiyaga ega bo‘lganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ayrim davrlarda tarixiy shaxslarni idealizatsiya qilish holatlari ham qayd etiladi. Tadqiqot mintaqaviy matbuotning tarixiy ongni shakllantirishdagi o‘rnini yoritib, kelgusidagi ilmiy izlanishlar uchun takliflar beradi.*

Kalit so‘zlar: *Xorazm haqiqati, tarixiy shaxslar, matbuot tarixi, mintaqaviy matbuot, tarixiy xotira, ma’rifiy funksiyalar.*

Annotation. *This article examines how historical figures are represented in the* “Xorazm Haqiqati” *newspaper, analyzing the content, thematic focus, and the role of the publication in shaping regional historical memory. The study draws on archived issues of the newspaper, academic research on regional press history, and publicly accessible resources. The analysis shows that* “Xorazm Haqiqati” *has played an educational and cultural role in presenting biographical and historical materials to the public. At the same time, certain periods reveal tendencies toward the idealization of historical figures. The study highlights the significance of regional media in constructing historical consciousness and provides recommendations for future academic research in this field.*

Keywords: *Xorazm haqiqati, historical figures, press history, regional media, historical memory, educational role.*

Kirish. Xorazm viloyatining eng sobit matbuot nashrlaridan biri bo‘lgan *“Xorazm haqiqati”* gazetasining tarixi va roli viloyatning ijtimoiy, siyosiy va ma’rifiy hayotida chuqur iz qoldirgan. Mahalliy nashr sifatida u nafaqat mintaqaviy yangiliklarni tarqata olgan, balki tarixiy shaxslar va ularning merosi haqidagi materiallarni ommaga yetkazishda muhim vositaga aylangan. Gazetaning bunday yondoshuvi mintaqaning tarixiy xotirasini shakllantirishga katta hissa qo‘shadi.

Ushbu maqolada “Xorazm haqiqati” gazetasida tarixiy shaxslar faoliyati qanday yoritilgani, matbuotdagi talqinlar va ijtimoiy-ma’naviy kontekst qanday o‘zgarib borganligi tahlil qilinadi. Tadqiqot asosan arxiv va ilmiy manbalar, jumladan, Dilfaruz Atamuratovaning tadqiqot ishlari asosida olib boriladi. [tadqiqot.uz]

“Xorazm haqiqati” gazetasining tarixi va matbuotdagi roli. *Xorazm haqiqati* gazetasining ildizi sovet davriga borib taqaladi. Ilk nomi “Inqilob quyoshi” bo‘lgan nashr 1920-yil 8 martdan chop etila boshlagan. 1939-yilda esa gazeta rasman *“Xorazm haqiqati”* nomini olgan. [aps.tsuos.uz]. Bu bosqichdan boshlab mintaqaviy matbuot o‘zining siyosiy-ma’rifiy funksiyasini kengaytirgan: nafaqat ijtimoiy voqealarni yoritish, balki mahalliy tarixiy shaxslar va ularning merosini ommaga yetkazishga kuchli intilish paydo bo‘lgan.

Dilfaruz Atamuratovaning tadqiqotida aytilishicha, ayniqsa Ikkinchi jahon urushi davrida *(1941–1945)* gazeta “Xorazm haqiqati” mintaqaviy adabiy-va madaniy hayotni shakllantirishda faol rol o‘ynagan [tadqiqot.uz]. Ushbu davrda gazeta sahifalarida nafaqat urush yangiliklari, balki teatr, kino, mintaqaviy madaniyat va tarixiy shaxslar haqida maqolalar ham paydo bo‘lgan. Bu orqali “Xorazm haqiqati” o‘zini nafaqat siyosiy nashr, balki tarbiyaviy va ma’rifiy maydon sifatida ham ko‘rsatgan.

Tarixiy shaxslarning matbuotda yoritilishi: tendensiyalar va tahlil. Madaniy va adabiy shaxslar. Gazetaning sahifalarida tarixiy va madaniy shaxslar, ayniqsa adiblar va ziyolilar faoliyati yoritilishi diqqatga sazovor. Masalan, Xorazmda tug‘ilgan va matbuotda faol bo‘lgan Erkin Samandar matbuotda ko‘p ma’lumot berilgan. U “Xorazm haqiqati” gazetasining bo‘lim mudiri va bosh muharriri bo‘lib ishlagan. tarix.uz Ushbu asarlar va maqolalar orqali matbuot nafaqat uning ijodiy merosini, balki siyosiy-ma’naviy hayotdagi o‘rnini ham ochib bergan. Shuningdek, shoir va jurnalist Fozil Zohid Xorazm matbuotida keng yoritilgan shaxslardan biridir. U “Xorazm haqiqati” gazetasida bo‘lim mudiri va mas’ul kotib lavozimlarida ishlaganligi matbuotda uning ijodiy va ma’rifiy mehnatini tarixiy shaxs sifatida aks ettirishda muhim rol o‘ynaydi.

Milliy va tarixiy shaxslar. Xorazm haqiqati nafaqat zamonaviy ziyolilarni, balki mintaqaning milliy va tarixiy arboblarini ham yoritishda faol bo‘lgan. Atamuratovaning tadqiqotida aytilishicha, urush davridagi gazeta sahifalarida shunday maqolalar chop etilganki, unda milliy shaxslarning o‘tmishga bo‘lgan muhabbati va ularning asarlari jamoatchilik e’tiboriga havola qilingan. *[tadqiqot.uz]*

Bu yondashuv “Xorazm haqiqati”ni faqat propaganda vositasi emas, balki mahalliy tarixiy xotirani saqlaydigan va oshiradigan platformaga aylantirgan. Gazeta maqolalarida hukmdorlar, tarixiy arboblar haqida ma’lumotlar berib, ularning ahamiyatini zamonaviy kontekstda baholashga harakat qilingan.

Muammolar va cheklovlar. Tarixiy shaxslarni matbuotda yoritishda *“Xorazm haqiqati”* ba’zan idealizatsiyaga yo‘l qo‘yganligi kuzatiladi. Matbuotda shaxslar faqat ijobiy tomondan tasvirlangan va ularning kamchiliklari yoki qarama-qarshi jihatlari kam yoritilgan. Bu esa tarixiy portretlarning biryoqlama bo‘lishiga olib keladi. Shuningdek, Atamuratovaning tahliliga ko‘ra, urush paytida matbuotda manbalar chegarlanganligi va propagandaviy talablar tufayli ba’zi tarixiy shaxslar mavzulari siyosiy filtradan o‘tgan. tadqiqot.uz Bu esa ma’lumotning to‘liq va xolis taqdim etilishiga to‘sqinlik qilgan. Yana bir cheklov — arxiv va jurnal tadqiqotlarini o‘z ichiga olgan yondashuvdagi kamchiliklar. Matbuotda chop etilgan materiallarning barchasi ham saqlanmagan bo‘lishi mumkin, yoki ularning raqamli arxivi to‘la emasligi sababli, tadqiqotchilar hamma maqolalarga yetib bora olmasligi ehtimoli bor. Bundan tashqari, tahlil uchun ishlatilgan maqolalar faqat tanlangan davrlarga tegishli bo‘lishi mumkin, bu esa umumiy kartinani biroz toraytiradi.

Ijtimoiy-ma’naviy ahamiyati va xulosalar. “Xorazm haqiqati” gazetasi tarixiy shaxslarni yoritishda mintaqaviy tarixiy ong yaratishda muhim rol o‘ynagan. U adabiy, ilmiy va siyosiy

arboblar merosini ommaga yetkazib, ularning xotirasini saqlab qolishga hissa qo‘shgan. Ayniqsa Erkin Samandar va Fozil Zohid kabi shaxslar misolida gazeta tarixiy va ma’rifiy vektor sifatida ishlagan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, gazeta tomonidan tarixiy shaxslar talqini nafaqat ma’lumot va fakt berish, balki ma’naviy tarbiya, milliy o‘zlikni uyg‘otish vazifasini ham bajargan. Aytish joizki, urush va keyingi davrda matbuot siyosiy bosim ostida bo‘lganiga qaramay, “Xorazm haqiqati” voqealarga va shaxslarga nisbatan o‘z nuqtai nazarini saqlab qolgan.

Kelajakda ushbu mavzuni yanada chuqur qayta o‘rganish uchun bir nechta yo‘nalish taklif qilinadi:

1. Gazetaning arxiv nusxalarini raqamlashtirish va to‘liq tahlil qilish;
2. Tarixiy shaxslar portretini shakllantirishda idealizatsiyani kamaytirish va tanqidi yondoshuvni rivojlantirish;
3. Ilmiy-tarixiy auditoriya bilan hamkorlikda “Xorazm haqiqati” sahifalarini o‘quv va metodik material sifatida ishlatish.

Xulosa

Umuman olganda, *“Xorazm haqiqati”* gazetasida tarixiy shaxslarning faoliyati va merosi yoritilishi nafaqat axborot tarqatish, balki mintaqaning tarixiy ongini shakllantirish va mustahkamlashda muhim omil bo‘lgan. Tarixiy va madaniy arboblarning hayoti gazetaning tahliliy va ma’rifiy maqolalari orqali yoritilib, mintaqa aholisining o‘z o‘tishi bilan bog‘lanishiga xizmat qilgan. Shu bois, “Xorazm haqiqati” matbuot tarixida o‘ziga xos va qadrli tarixiy manba sifatida baholanishi lozim.

ADABIYOTLAR

1. Atamuratova, D. R. “Значение газеты ‘Хорезм ҳақиқати’ в литературно-культурной жизни региона (1941-1945 гг.)” – tadqiqot maqolasi. tadqiqot.uz
2. Madaminov, J. X. “1940-yillarda Xorazm matbuotida ijtimoiy masalalar bayoni (davriy nashrlar asosida)” – ilmiy maqola. storage.mamun.university
3. UzSmart.uz. “Xorazm viloyati” — ensiklopediya ma’lumotlari
4. UzPedia.uz. “Fozil Zohid” hayoti va matbuotda faoliyati.
5. Tarix.uz. “Erkin Samandar” biografiyasi

TA’LIM TIZIMIDA MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA DARS O‘TISHNING AHAMIYATI

Muhammadjonova Mashhura Jamolbek qizi[1], Shoira Nurullayeva[2]
[1]Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlati universiteti Ijtimoiy iqtisodiy fanlar fakulteti 1-bosqich talabasi; [2]Ilmiy rahbar: t.f.n., dots
https://doi.org/10.5281/zenodo.17689786

Annotatsiya. *Ushbu maqola ta’lim tizimida milliy qadriyatlar asosida dars o‘tishning ahamiyatini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, qadriyatlar tushunchasining mohiyati, ularning turlari, shakllanish jarayoni hamda jamiyat hayotidagi o‘rni yoritilgan. Globallashuv sharoitida milliy qadriyatni asrash zarurati va yoshlar ma’naviyati va milliy o‘zligini rivojlantirishda muhim ekanligi ko‘rsatib berilgan. Maqolada oila, maktab va jamiyat muhitida milliy qadriyatlarni qanday moslashtirish, birlashtirish mumkinligi tahlil qilinadi. Milliy qadriyatlar asosida tarbiyalangan bolalar axloqiy, ma’naviy va ijtimoiy jihatdan yetuk, mas’uliyatli va vatanparvar shaxs sifatida voyaga yetadi.*

Аннотация. *Статья посвящена изучению важности воспитания национальных ценностей в системе образования. Раскрывается сущность понятия «ценности», их виды, процесс формирования и роль в жизни общества. Показывается необходимость сохранения национальных ценностей в условиях глобализации, их значение в развитии духовности и национальной идентичности молодёжи. Анализируются пути интеграции национальных ценностей в семью, школу и социальную среду. Дети, воспитываемые на основе национальных ценностей, вырастают нравственно, духовно и социально зрелыми, ответственными и патриотичными личностями.*

Abstract. *This article is devoted to studying the importance of teaching national values in the education system, and highlights the essence of the concept of values, their types, the process of formation and their role in the life of society. The need to preserve national values in the context of globalization and their importance in developing the spirituality and national identity of young people are shown. The article analyzes how national values can be integrated in the family, school and social environment. Children brought up on the basis of national values grow up as morally, spiritually and socially mature, responsible and patriotic individuals.*

Kalit so‘zlar: *Milliy qadriyatlar, ta’lim tizimi, tarbiya jarayoni, vatanparvarlik, ta’lim islohotlari.*

Ключевые слова: *Национальные ценности, система образования, воспитательный процесс, патриотизм, образовательные реформы.*

Keywords: *National values, education system, upbringing process, patriotism, educational reforms.*

Kirish. Qadriyat bu ko‘pchilik tomonidan tan olingan urf-odatlar jamlanmasidir. Qadriyat jamiyatning o‘tmishi va bugunini bog‘lovchi vosita. Til, tarix, an’ana, urf-odatlar kabi milliy qadriyatlarning ta’lim tizimidagi ahamiyati kattadir. Bugungi kunda rivojlanib borayotgan Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan muhim islohotlardan biri ta’lim sohasidir. Zamonaviy jamiyatda ta’lim tizimini isloh qilish davlat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biridir. Chunki bugungi kundagi globallashuv davrida raqobatbardosh iqtisodiyot, bilimli jamiyat va

innavatsion rivojlanish, avvalo, kuchli ta’lim tizimini talab qiladi. So‘nggi yillarda yurtimizda ta’lim tizimining barcha sohalarini modernizatsiya qilish, o‘qituvchi maqomini oshirish, ta’lim sifatini zamonaviy talablarga javob bera oladigan darajaga ko‘tarish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar oshirilmoqda. Bugungi globallashuv va axborot oqimi keskin kuchaygan davrda yoshlarimiz ongini turli tashqi ta’sirlardan himoya qilish, ularda mustahkam dunyoqarashni shakllantirish ta’lim tizimining eng muhim vazifalaridan biridir. Bu borada milliy qadriyatlarimiz ta’lim tizimida muhim ma’naviy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Milliy qadriyatlar-xalqning ko‘p asrlik o‘tmishi, urf-odatlari, axloqiy qarashlari, tarixiy xotirasi va madaniy merosidir. Shuning uchun ta’lim jarayonini aynan shu qadriyatlar asosida tashkil etish nafaqat yoshlarimizga bilim beradi, balki, yosh avlodni tarbiyalashda asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

XX arsning boshlarida o‘zbek milliy vatanparvarlik harakatining yetakchi vakili Abdulla Avloniy ta’lim va tarbiyani milliy qadriyatlar asosida qurish g‘oyasini ilgari surgan. Avloniyning fikricha o‘qituvchi yosh avlod qalbiga milliy ruh va ma’naviyatni singdiruvchi asosiy shaxsdir. “Har bir millatning o‘ziga xos tarbiya usullari, qadriyatlari bor, ulardan foydalanish tarbiyaning asosi bo‘lmog‘i kerak[1]. Avloniy o‘z asarlarida milliy odatlar, axloq, halollik, sabr-toqat, mehnatsevarlik kabi qadriyatlarni yosh avlod ongiga singdirshni talab qiladi.

O‘zbek olimlarining milliy qadriyatlar asosida o‘quvchilarni tarbiyalashga oid fikr-mulohazalari bir necha jihatdan bir-birini to‘ldiradi. Ularning ko‘pchiligi milliy qadriyatlarning ahamiyatini yosh avlodning ma'naviy va axloqiy rivojlanishidagi eng muhim omil sifatida e'tirof etadi. Shu bilan birga, ular milliy qadriyatlarni zamonaviy ta'lim tizimiga moslashtirish zarurligini ham ta'kidlaydi, chunki bu orqali yoshlar nafaqat tarixiy va madaniy merosni anglashlari, balki zamonaviy dunyoqarash va ijtimoiy malakalarni egallashlari mumkin. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o‘zining asarlari va nutqlari orqali “Milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va ma’naviy merosni tiklash yoshlar tarbiyasining eng muhim vazifalaridan biridir. Ta’lim jarayoni bu qadriyatlar bilan sug‘orilgandagina yuksak ma’naviyatli avlodni voyaga yetkazish mumkin[3].

Bola tarbiyasida milliy qadriyatning shakillanishi dastlab oiladan boshlanadi. Oila bolaning birinchi maktabi, birinchi tarbiyachisidir. Oilada bola ota-ona, qarindoshlar va katta avlodning odob-axloq, urf-odat, milliy an’ana va qadriyatlarini ko‘rib, o‘rganadi. Oilaviy tarbiya orqali bola hurmat, sadoqat, vatanparvarlik, halollik, sabr-toqat kabi qadriyatlarni o‘zlashtiradi[4]

Xulosa. Milliy qadriyatlarni har doim hamma zamonda ta’lim sohasi orqali bola ongiga singdirilgan. Uning qanday qimmatli ekanini har bir davrning yetuk nomoyondalari o‘z asarlari orqali kelajak avlodga meros qilib qoldirganlar. Bu orqali ertaning egasi bo‘lgan yoshlar milliy qadriyatlarimizni qanday qimmatga ega ekanini bilib oladi. Globallashuv sharoitida qadriyatlarga tayanish, ularni yosh avlodga yetkazish, ta’lim-tarbiya jarayonida keng qo‘llash jamiyatning eng muhim vazifalaridan biridir. Kelajak avlodni ma’naviy jihatdan yetuk qilib tarbiyalashga erishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. Toshkent. 2018 y.
2. Hoshimov K. Pedagogika tarixi antalogiyasi. Toshkent. 1999 y.
3. Mirziyoyev Sh. Yangi o‘zbekiston strategiyasi. Toshkent.

Mundarija / Contents

1 **M.R. Aliyeva, M.I. Aliyeva, B.A. Abdullayeva,** ZAMONAVIY TA’LIMDAGI PEDAGOGNING O‘QUVCHIGA PSIXOLOGIK YONDASHUVI 6

2 **Ozoda Anorqulova,** TALABA-QIZLAR IJTIMOIY MOSLASHUVINI RIVOJLANTIRISHDA INKLYUZIV TA’LIMNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI 10

3 **Атаханова Гулхаё Гайратовна,** ВЛИЯНИЕ ПИТАНИЯ НА ЗДОРОВЬЕ ЗУБОВ И ПОЛОСТИ РТА 14

4 **Axatova D.A., Axatova X.A.,** INKLYUZIV TA’LIMDA DIFFERENSIAL YONDASHUVNING MOHIYATI VA AHAMIYATI 17

5 **Usta-Azizova Dilnoza Axrarovna, Muxtorova Madinabonu Jamil qizi,** OLIY TA’LIM TASHKILOTLARIDA QO‘LLAB-QUVVATLASH VA INKLYUZIV TA’LIM MUHITINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK, PEDAGOGIK JIHATLARI 21

6 **Buranova Malohat Mirzaaxmadovna,** TALABA-QIZLARNING AXLOQIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA UNIVERSITETNING ROLI VA TALABA-QIZLARNI QO‘LLAB-QUVVATLASH 25

7 **Djumanova Dilyara Mashutovna, Yusupova Jasmina,** TALABANING SHAXSIY RIVOJLANISHI VA HAYOTGA TAYYORLASH JARAYONIDA PEDAGOGNING INNOVATSION YONDASHUVLARINING AHAMIYATI 29

8 **Ismailova Zuxra Karabayevna, Тиллаев Алишер Хасанович, Berdysheva Guljan Alimbaevna,** OLIY TA'LIM TIZIMIDA IJTIMOIY HIMOYA MEXANIZMLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK OMILLAR 33

9 **Joldasova Gozzal Aybekovna,** OLIY TA’LIM TIZIMIDA TALABA-QIZLARNI IJTIMOIY QO‘LLAB-QUVVATLASH VA OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI 42

10 **Kamalova Matluba Bahadirovna,** TALABA-QIZLARNING IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISH VA OILAVIY HAYOTGA MOSLASHUV KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI 46

11 **Kuylikova Gavharoy Zairovna ,** INKLYUZIV TA’LIM MUHITINI SHAKLLANTIRISHDA IJTIMOIY HAMKORLIK (OTA-ONALAR, JAMIYAT, NNTLAR) NING ROLI 49

12 **Maxkamova Iroda Karimjanovna, Razzoqova Diyora Baxtiyor qizi,** TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA GENDER TUSHUNCHASINING TRANSFORMATSIYASI YANGI IDENTIFIKATSIYALAR 52

13 **G.Z. Najmiyeva,** OLIY TA’LIMDA INKLYUZIVLIK VA GENDER TENGLIKNING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI 55

14 **Narqulova Muqaddas,** “INKLYUZIV TA’LIM: IMKONIYATLAR TENGLIGI SARI YO‘L” 58

15 **Norbekova Charosbonu Sunnatillayevna, F.J. Toxirov,** DASTURLASHGA OID INKLYUZIV TA’LIM MUHITINI SHAKLLANTIRISHDA SUN’IY INTELLEKT TIZIMLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI 61

16 **Otaxonova Zamira Muratovna,** OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA TALABA-QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA PSIXOLOGIK TAYYORLASHDA IJTIMOIY QO‘LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARINING SAMARADORLIGI 65

17 **Otaxonova Zamiraxon Muratovna, Mo‘minova Muxlisa Ravshanjon qizi,** TALABALARNING IJTIMOIY MOSLASHUVI VA PSIXOLOGIK QO‘LLAB-QUVVATLASH TIZIMI 70

18 **Qozirahimova Nargiza Qodirjonovna,** QIZLAR ORASIDA ERTA NIKOHLARNING PROFILAKTIKASI: TA’LIM, PSIXOLOGIYA VA HUQUQIY YONDASHUVLAR INTEGRATSIYASI (NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA) 74

19 **Rasulova Shoira Azizovna,** OLIY TA’LIMDA TALABA-QIZLARNI IJTIMOIY QO ‘LLAB QUVVATLASH VA OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA MENTORLIK FAOLIYATINING AHAMIYATI 77

20 **Solixo‘jayeva Dildora, Usta-Azizova Dilnoza Axrarovna,** TALABA-QIZLARNI OILAVIY 81

HAYOTGA TAYYORLASH VA IJTIMOIY QO‘LLAB-QUVVATLASH YO‘LLARI

21 **Султанова Эътибор,** “ОҚИЛА АЁЛЛАР ҲАРАКАТИ” ТАЛАБА-ҚИЗЛАРНИ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШДА, ДОЛЗАРБ ВА МУҲИМ БИЛИМЛАР ВА КЎНИКМАЛАР ТАЪМИНЛАШДАГИ ЎРНИ 85

22 **Ulug‘bekova Shahzoda Ulug‘bek qizi,** INKLYUZIV TA’LIMNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK JIHATLARI 91

23 **Xaydarova Umida Pulatovna,** OILA MUSTAQILLIGI VA DAVLAT ARALASHUVI O‘RTASIDAGI HUQUQIY MUVOZANAT: MILLIY QONUNCHILIK VA XALQARO STANDARTLAR TAHLILI 94

24 **Xidoyatullayeva Gulsora Zoirovna,** TA’LIMDAGI GENDER STEREOTIPLARIGA YECHIM SIFATIDA STEAM TA’LIMI 100

25 **Худоёрова Ойсоат Келдиёровна, Сайитмуратов Нодиржон Боймурот ўғли,** ЁШЛАРНИ ОИЛАВИЙ ҲАЁТГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ЙЎЛЛАРИ ВА ИМКОНИЯТЛАРИ 104

26 **Yerimbetova Z.B.,** OLIY TA’LIM TIZIMIDA TALABA QIZLARNI IJTIMOIY QO‘LLAB-QUVVATLASH VA OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH 110

27 **Yo‘ldosheva Dilrabo Sobir qizi,** O‘Z-O‘ZINI BAHOLASH TALABALAR SHAXSIY UYG‘UNLIGIGA TA`SIR QILUVCHI PSIXOLOGIK OMIL SIFATIDA 113

28 **Abdullayeva Nasibaxon Arabovna,** GENDER TENGLIK VA TALABA QIZLAR FAOLIYATINI MILLIY VA XALQARO HAMKORLIK ORQALI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI 119

29 **I.Allambergenova, N.Ubbieva,** “YIG‘LASH” VA “KULGI” KONSEPTINI IFODALOVCHI QORAQALPOQ TILIDAGI FRAZEOLOGIZMLARNING KOGNITIV-PRAGMATIK TAHLILI 123

30 **Aripova Gulnora,** QIZLARDA TOLERANTLIK TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHDA MAKTAB, OILA VA MAHALLA HAMKORLIGINING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI 127

31 **Baxriddinova Nasiba Murodovna,** YOSH AVLODNI MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASHDA OILANING O‘RNI 131

32 **Bekchanova Sayyora Bazarbaevna,** FITRATNING “OILA”ASARIDA AYOLLAR MASALASI 134

33 **Manzura Daminova, Tilovova Dildora,** O‘SMIRLARDA GENDER IDENTIKLIK SHAKLLANISHIDA BIOLOGIK, PSIXOLOGIK VA IJTIMOIY OMILLARNING TA’SIRI 137

34 **Erkinova Sharofat Akramovna,** GENDER TENGLIK SIYOSATI VA XALQARO HAMKORLIK:TALABA –QIZLAR FAOLLIGINI OSHIRISHDA YANGI YONDASHUV 141

35 **Inatullayeva Ra’no Yunusovna,** QIZ BOLA TARBIYASI – MILLATNING ERTASI 144

36 **Джалолова Феруза Махаматжоновна,** ПРИМЕНЕНИЕ УЛЬТРАЗВУКОВОГО СКРИНИНГА В ДИАГНОСТИКЕ ВНУТРИПРОТОКОВЫХ ОБРАЗОВАНИЙ МОЛОЧНОЙ ЖЕЛЕЗЫ 146

37 **Жамолдинова Одинахон Расуловна, Уразова Марина Батировна,** ОИЛАДА СОҒЛОМ ТУРМУШ МАДАНИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК МЕХАНИЗМЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ 152

38 **Karamov Shoxida Luftillayevna,** NAVOIY ASARLARIDA AYOL TIMSOLI 159

39 **Matkarimova Malika Normatovna,** QO‘NG‘IROTLAR SULOLASINI XIVA XONLIGINING BOSHQARUVIDAGI O‘RNI 163

40 **Sh.Mirabdullayeva,** HARBIY XIZMATCHILAR OILALARINI MUSTAHKAMLASHDA QADRIYATLARNING O‘RNI 167

41 **Muzafarova Sevinch Erkin qizi, Iroda Mahkamova Karimjonovna,** GENDER TENGLIK VA TALABA-QIZLAR FAOLLIGINI TA’MINLASHDA MILLIY VA XALQARO HAMKORLIK PLATFORMASI 172

42 **Najmidinova Guzal Axlitdinovna,** AYOLLAR TA’LIMI VA IJTIMOIY FAOLLIKNI RIVOJLANTIRISHDA MINTAQAVIY HAMKORLIKNING ROLI 177

43 **Palvannazirova Yulduz Hasanboy qizi,** OLIY TA’LIMDA TALABA YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING NAZARIY ASOSLARI 181

44 **Dilbar Qodirova,** NASRDA GENDER TENGLIKNING IFODALANISHI 184

45 **Ulbolsın Qosnazarova ,** QARAQALPAQ NAQÍL-MAQALLARÍNDAǴÍ MÁMLEKET BASQARÍW ISLERINE BAYLANÍSLÍ SÓZLERDIŃ GENDERLIK ÓZGESHELIKLERI 187

46 **Raxmatullayeva Gulnozaxon Mavlanjonovna,** YOSHLAR MA’NAVIYATI - KELAJAK JAMIYATNING POYDEVORI 197

47 **Rustamova Ra'no Parpiyevna ,** OILA MUSTAHKAMLIGINI TA’MINLASHDA YOSHLAR TARBIYASINING AHAMIYATI 200

48 **Sarıbayeva Nigargul Bauetdinovna,** QORAQALPOG‘ISTONDA AHOLINI IJTIMOIY QO‘LLAB-QUVVATLASH BORASIDA JAMOATCHILIK FIKRI 205

49 **Shukurova Bahor Boltayevna, Egamberganova Maxbuba Jabbargan qizi,** OILADA IJTIMOIY TARBIYANING SHAKLLARI 208

50 **Xilola Sultanova,** NATIONAL AND INTERNATIONAL COOPERATION PLATFORMS IN ENSURING GENDER EQUALITY AND THE ACTIVITY OF FEMALE STUDENTS 213

51 **Tilavov Tolib Baxtiyorovich, Yusupova Gulnoza Yunus qizi,** IQLIM O‘ZGARISHINING IJTIMOIY VA BIOLOGIK OMILLAR ORQALI OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI HAMDA INSON SALOMATLIGIGA TA’SIRI 216

52 **М.Л.Умеджанова,** ОСНОВЫ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ К СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ 220

53 **Худайкулова Наргиз Абдуллаевна,** ИСТОРИЯ ОДИНЫ МУХАММАДА ХОРЕЗМИ 224

54 **Xudoyberganova Durdigul Otabek qizi,** JAMIYAT VIRTUALLASHUVINING OILA-NIKOH MUNOSABATLARIGA TA’SIRI 227

55 **Ahmedova Ra’noxon Azamat qizi,** O‘ZBEK XALQI OLAMNING LISONIY MANZARASIDA AYOL KONSEPTI 230

56 **Asadova Ruxshona Alisherovna,** “JAMIYAT BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA AYOLLARNING O‘RNI VA ROLI: XOTIN-QIZLARGA NISBATAN TAZYIQ VA ZO‘RAVONLIKKA MUROSASIZ MUHIT YARATISH” 233

57 **Iskenderova Gulsara, Tureniyazova Dilfuza Qulametovna,** PREZIDENTIMIZNING XOTIN-QIZLARGA VA KAM TA’MINLANGAN OILA FARZANDLARIGA YARATGAN SHART-SHAROITLARI VA IMKONIYATLARI 237

58 **Ma’murova Shahlo Olimovna,** “OLIY TA’LIM TIZIMIDA TALABA-QIZLARNI IJTIMOIY QO‘LLAB-QUVVATLASH VA OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH: GENDER TENGLIK, MILLIY TAJRIBA VA XALQARO HAMKORLIK IMKONIYATLARI” 241

59 **Mamatkulova Iroda Ergashevna,** OILADA QAYSI MUHIM: GENDER TENGLIK YOKI O‘ZARO HURMAT 245

60 **I.K. Maxkamova ,** OLIY TA’LIM TIZIMIDA GENDER TENGLIKNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARI VA STRATEGIYALARI 247

61 **Vazira Sadullayeva,** O‘ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARNING ILM-FAN SOHASIDAGI ROLI MASALASI 249

62 **Tulyaganova Robiyabonu Xasan qizi,** AYOLLARDAGI TANA MEN OBRAZINING OILA-NIKOH MUNOSABATLARIGA TA`SIRI (MINTAQAVIY YONDOSHUVLAR) 252

63 **Xasanova Nodira Ibragimovna, Ko‘chkinova Mahliyo Norbutayevna,** TALABA – QIZLARNING IJTIMOIY FAOLLIGI VA LIDERLIK SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI 257

64 **Xoliqova Laylo Faxriddinovna,** XOTIN-QIZLARNING JAMIYATDAGI MAVQEINI OSHIRISH – TARAQQIYOTNING MUHIM OMILI 262

65 **Джаббарова Мукаддас Махамаддиновна,** ТУРКИЯ ВА ЎЗБЕКИСТОНДА ОИЛА ИНСТИТУТИНИ БАРҚАРОРЛАШТИРИШ УЧУН ЧОРА ЛАР ВА УЛАРНИНГ ЎҲШАШЛИКЛАРИ 269

66 **Джаббарова Мукаддас Махамаддиновна, Содиқова Насиба Мажитовна,** ОҚИЛА ҚИЗ 272

ТАРБИЯСИ, ОҚИЛА ҚИЗ ТУШУНЧАСИ ВА УНИНГ АҲАМИЯТИ

67 **Atabayeva Nargisa Nabijonovna, Xolmatova Saida Voxobjonovna,** GENDER TENGLIGI SIYOSATIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: SHARQ VA G‘ARB NAZARIYALARINING UYG‘UNLIGI 275

68 **Azimova Osiyoxon Adxam qizi,** BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING KASBIY SHAKLLANISHIDA KONFLIKTOLOGIK MADANIYAT VA AKMEOLOGIK YONDASHUV 280

69 **Kasimova Odina Alimjonovna, Meliboyeva Surayyo Otabek qizi,** BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING MEDIA SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI 284

70 **Kasimova Odinaxon Alimjanovna, Tojiddinova Munira Sayfiddinxo‘ja qizi ,** XALQ OG‘ZAKI IJODI VOSITASIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISH 287

71 **Kasimova Odina Alimjonovna, Axmatova Marjona Bozor qizi,** BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA IMPROVIZATSION QOBILIYATNI SHAKLLANTIRISH 290

72 **Muxammadiyeva Xalima Saidaxmadovna, Mohinur Mahmudova Bahromjon qizi,** TALABA-QIZLARNI KOMPLEKS IJTIMOIY QO‘LLAB-QUVVATLASHNING OLIY TA’LIM TIZIMIDAGI AHAMIYATI VA SAMARALARI 294

73 **Rahimova Sarvinoz Sadiq qizi,** GENDER TENGLIK TAMOYILLARI ASOSIDA OLIY TA'LIMDA TALABA-QIZLAR VA YOSH PEDAGOGLARNING RAHBARLIK FAOLIYATINI QO‘LLAB-QUVVATLASH STRATEGIYALARI 298

74 **Xasanova Surayyo, Atajonova Maqsuda Adilbekovna,** HAYOTIY INQIROZLI VAZIYATLARDAGI STRESSNI YENGISHDA SHAXS O‘ZINI-O‘ZI BOSHQARISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH 303

75 **Masharipova Sultonposhsha, Jumanazarova Onaxon Matnazarovna,** XORAZM DAVLAT O‘QITUVCHILAR INSTITUTI - JAMIAT IJTIMOIY-MA’NAVIY RIVOJINING MUHIM OMILI SIFATIDA 306

76 **Rustamboy Raximov, Tozagul Qalandarova,** OILADA FARZAND TARBIYASI 311

77 **To‘rayeva Barchinoy Boymurodovna, Ochilov Komil Raximovich,** GENDER TENGLIK VA TALABA QIZLAR FAOLLIGINI TA’MINLASHDA MILLIY VA XALQARO HAMKORLIK PLATFORMALARI 315

78 **Toshtemirova Nigora Ibroximovna, Yusupova Gulmira Ziyodin qizi,** TALABA QIZLARDA REPRODUKTIV SALOMATLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING TIBBIY-PSIXOLOGIK OMILLARI 320

79 **Tureniyazova Dilfuza Qulametovna ,** GENDER TENGLIK: XOTIN-QIZLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILINISHINING HUQUQIY ASOSLARINING YARATILISHI 323

80 **Musayev Hamzahon Zokirjon o‘g‘li, Atamirzayev Ibroxim Xakimovich,** OLIY TA’LIM TIZIMIDA GENDER TENGLIKNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARI VA STRATEGIYALARI 325

81 **Nasimova Nizora Jaloliddinovna , Ziyotova Adolat Ergashevna,** TEXNIKA OLIY O‘QUV YURTI TALABALARINING MADANIYATLARARO KASBIY MAHORATINI O‘QITISH KOMPENTENTLIGI ORQALI KREATIV RIVOJLANTIRISH 330

82 **Payzibayeva Muazzam Yakubovna,** TALABA-QIZLARDA MILLIY FAZILATLARINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH TEXNOLOGIYASI 334

83 **Raximova Xurshidaxon Sadikovna,** NOGIRONLIGI BO‘LGAN TALABALARNING OLIY TA’LIMGA INTEGRATSIYASIDA GENDER OMILLAR 341

84 **Usta-Azizova Dilnoza Axrarovna, Qurbonova Kamola Kamoliddinovna,** OLIY TA’LIM TIZIMIDA TALABA-QIZLARNING IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISH VA OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA GENDER TENGLIK TAMOYILLARINING MILLIY VA XALQARO TAJRIBADA TALQINI 347

85 **Xalikova Gulchexra Aliyevna, Ziyotova Adolat Ergashevna,** TALABALARNING NUTQIY KASBIY-METODIK KOMPETENTLIGINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH DA DUAL 352

YONDASHUVLAR

86 **Ziyotova Adolat Ergashevna,** TALABA XOTIN-QIZLARDA IJTIMOIY FAOLLIKNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI 360

87 **Adolat Ziyotova, Qaxramon Mamaraximov,** O‘ZBEKISTONDA GENDER TENGLIKKA ERISHISH STRATEGIYASI: MUAMMO VA ECHIMLAR 363

88 **М.Т.Мирсолиева,** ПЕДАГОГИК ТАЪЛИМДА ГЕНДЕР ЁНДАШУВ МАСАЛАЛАРИ 370

89 **Yusupova Rahima Kasimovna,** YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA RAQAMLI GLOBALLASHUVNING OILA MUSTAHKAMLIGIGA TA’SIRI 373

90 **Asilakhon Khaydaralieva,** ATTENTION TO GENDER EQUALITY ISSUES IN UZBEKISTAN 377

91 **Abdurashidova Dilfuza Akmaljon qizi, D.D.Oribboyeva,** OLIGOFREN BOLALARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI 380

92 **Mamurova Feruza Islomovna,** INKLYUZIV TA’LIM BERISHDA SHAXS XARAKTER XUSUSIYATLARINI XISOBGA OLISHNING AHAMIYATI 383

93 **N.Sh. Xodjaeva, N.U. Babaxanova,** YANGI O‘ZBEKISTON JAMIYATIDA AYOLLARNING O‘RNI 386

94 **Karamov Shoxida Luftillayevna,** NAVOIY ASARLARIDA AYOL TIMSOLI 389

95 **Madjidova Tanzila Raximovna, Abdullayeva Raxila Baxtiyorovna, Shodiyeva Dilnoza SHamsiyevna ,** TALABA-QIZLARNING ISHLAB CHIQARISHDAGI ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH SOHASIDA FAOLLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY VA AMALIY YO‘NALISHLARI 393

96 **Kasimova Odina Alimjonovna, Abdujalilova Mushtariy Akmal qizi,** BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA AN’ANAVIY EKSKURSIYA HAMDA VIRTUAL SAYOHAT ORQALI VATANPARVARLIK TUYG‘USINI SHAKLLANTIRISH 397

97 **Turebayeva Nurjamol Kuptileu qizi, Nurullayeva Shoira Kushnazarovna,** “XORAZM HAQIQATI” GAZETASIDA TARIXIY SHAXSLARNING TALQINI: ILMIY TAHLIL 400

98 **Muhammadjonova Mashhura Jamolbek qizi, Shoira Nurullayeva,** TA’LIM TIZIMIDA MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA DARS O‘TISHNING AHAMIYATI 403

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O‘ZBEK XOTIN-QIZLAR HUQUQLARNI HIMOYA QILISH JAMIYATI (TURKIYA)

“SCIENCE AND INNOVATION” XALQARO ILMIY JURNALI

ISTANBUL TIJORAT UNIVERSITETI

“OLIY TA’LIM TIZIMIDA TALABA-QIZLARNI IJTIMOIY QO‘LLAB-QUVVATLASH VA OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH: GENDER TENGLIK, MILLIY TAJRIBA VA XALQARO HAMKORLIK IMKONIYATLARI” MAVZUSIDAGI XALQARO AMALIY KONFERENSIYA

MATERIALLAR TO‘PLAMI

2025-yil 17-18-noyabr
2-qism

COLLECTION OF MATERIALS

OF THE INTERNATIONAL PRACTICAL CONFERENCE ON THE TOPIC “SOCIAL SUPPORT AND PREPARATION FOR FAMILY LIFE FOR FEMALE STUDENTS IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM: GENDER EQUALITY, NATIONAL EXPERIENCE AND OPPORTUNITIES FOR INTERNATIONAL COOPERATION”

November 17-18, 2025
Part 2

Published: 25.11.2025. Font: «Times New Roman».

LLC «Science and innovation»
License Mass Media №:1597 27.04.2022
License Publisher №:038864 15.09.2022
Address: 100121, Tashkent, Yakkasaroy, st. Sh. Rustaveli 150,
Business center “Vega”, 6th floor, Office №:2
www.scientists.uz, info@scientists.uz, +998933549654, +998993319654